

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

55

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

55

1619318

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.161.09-1
KBK 84(5Turk)-5
T 89

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Boboxon Muhammad Sharif, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Boboxon Muhammad Sharif, Nargiza Asadova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-2-3
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

TURK HIKOYALARI GULDASTASI

Agar inson biror xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy va ruhiy fazilatlari bilan oshno bo'lishni istasa, shu xalqning milliy adabiyoti bilan tanishishi lozim. Zero, dunyoda badiiy adabiyotdek xalqning turli qatlamlari hayotini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy muammolari-yu ma'naviy va ruhiy olamini haqqoniy aks ettira biladigan boshqa biror ko'zgu yo'q. Shuning uchun ham har bir milliy adabiyot muayyan xalq hayotining tom ma'nodagi ko'zgusi hisoblanadi.

Biz, o'zbeklar, L.N. Tolstoy yoki A.P. Chexov asarlarini o'qiganimizda rus xalqining o'ziga xos fazilatlarini kashf etgandek, Abdulla Qodiriy yoki Oybek asarlarini mutolaa qilganimizda o'z ota-bobolarimiz, qarindosh-urug'larimiz bilan diydorlashgandek bo'lamiz. Xuddi shuningdek, Memduh Shavket Esendal yoki Umar Sayfiddin asarlarini varaqlaganimizda ular sahifalaridan turk zaminida istiqomat qilgan va istiqomat qilayotgan kishilar mo'ralab turgandek bo'ladi. Badiiy adabiyotning katta estetik ta'sir kuchi, bir-biridan uzoq yurtlarda turmush kechirayotgan kishilarni ruhan yaqinlashtiruvchi, ular dilida do'stlik, qardoshlik va mehr-muhabbat tuyg'ularini parvarish etuvchi buyuk fazilati xuddi shunda zuhur berib turadi.

Hikoya janrining ildizlari mumtoz Sharq adabiyotining qadimgi davrlariga borib taqalsa-da, turk realistik hikoyasi o'zbek realistik hikoyasi bilan taxminan bir davrda dunyoga kelgan. Biz, adabiyotshunoslar, odatda, o'zbek realistik hikoyasining tug'ilish davrini XX asr boshlari bilan boshlab kelamiz. Ammo o'zbek realistik hikoya janrining dastlabki namunalari XIX asr oxirlarida yaratilgan bo'lib, ular o'z vaqtida Bog'chasaroy, Ufa, Qozon singari shaharlarda nashr etilgan gazeta va jurnallarda matbuot yuzini ko'rgan. Taxminan shu vaqtda turk adabiyotida ham realistik hikoyaning dastlabki namunalari maydonga kela boshlagan.

Turk zaminining bir uchi Yevropaga, ikkinchi uchi Osiyoga borib taqalganligi sababli bu mamlakatni har ikki qit'aning "adabiy" shamollari chetlab o'tmagan. O'sha yillarda fransuz adabiyotida katta voqea bo'lgan va Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi kitobxonlar tomonidan ham sevib o'qilgan Gi de Mopassan hikoyalari Turkiyaning sarhadlarini ham kesib o'tadi. Adabiyot olamida qalam tebrata boshlagan yoki badiiy ijodga mayl qo'ygan turk yoshlari Mopassan hikoyalari ta'sirida ijod qila boshlaydilar. Va turk adabiyotida sekin-asta realistik hikoya janri yuzaga kelib, turk kitobxonlarining e'tiborini va mehr-muhabbatini qozonadi.

Shu yerda aytish joizki, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida turk jamiyatida adabiy tilning yangilanish jarayoni kechgan: arab va fors tillaridan kirib kelgan so'zlar turk adabiy tilidan siqib chiqarilib, jonli xalq tili boyliklariga asoslangan yangi turk adabiy tiliga poydevor qo'yilgan. Turk hikoyanavislari shu jarayonning faol ishtirokchilari sifatida o'z asarlari tilini xalq tiliga yaqinlashtirishga va xalq hayotining turfa manzaralarini o'z asarlarida tasvirlashga intilganlar. Shu jarayon turk adabiyotining xalq va mamlakat hayotiga yaqinlashishiga, xalqni bezovta qilgan, uning ijtimoiy va maishiy hayotida uchragan qiyinchiliklarni ro'y-rost tasvirlashiga keng imkoniyatlar yaratdi. Yangi turk adabiyotida ro'y bergan bu o'zgarish xalq bilan adabiyot o'rtasidagi "Xitoy devori"ni buzib tashladi.

Siz hurmatli kitobxonlar e'tiboriga havola etilayotgan ushbu to'plamdan o'rin olgan asarlarni o'qigan kitobxon ularda begona kishilar emas, balki madaniy ildizlari mushtarak bo'lgan, dili va tili bir-biriga yaqin qardosh xalq farzandlarining yaqin o'tmishdagi hayotiga nazar tashlagandek bo'ladi. Va bizning ota-bobolarimiz hayoti bilan bu hikoyalarda tasvirlangan kishilarning mashaqqatli turmushi o'rtasida yaqinlik borligini sezadi. Shu sezgi ularga turk yozuvchilari hikoyalarini samimiy qabul qilish va qiziqib o'qish istagini bersa ajab emas.

Kamina o'zbek adabiyotining tadqiqotchilaridan biri sifatida to'plamdan joy olgan hikoyalarni o'qir ekanman, ularning birida Abdulla Qodiriy yoki Abdulla Qahhor uslubiga xos xususiyatlarni ko'rgandek, boshqasidan esa Said Ahmad yoki Shukur

Xolmirzayevning qahqahali va istehzoli ovozlarini tinglagandek bo'laman. Balki siz hurmatli kitobxonlar ham ikki qardosh xalq yozuvchilarining asarlari o'rtasidagi yaqinlikni, mushtarak holatlarni, tanish qiyofalarni ko'rib mamnuniyat hissini tuyarsiz.

Nazarimda, turk yozuvchilarining bir ko'zi Yevropaga, yevropa adabiyotiga qaratilgani tufayli ular Yevropa xalqlari adabiyotidan ko'p narsani o'rgangan ko'rinadilar. Bu hol voqelikda — xalq va mamlakat hayotida ro'y bergan noxush yoki ko'ngilsiz voqea-hodisalarning aksar hikoyalarda shafqatsizlik bilan tasvir etilganida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Menimcha, bunday hikoyalarda mashhur rus tanqidiy realizmining peshqadam namoyandasi Chexovning ham ta'siri yo'q emas.

Shubhasiz, gap adabiy ta'sirdagina emas. Lekin shunisi ham borki, adabiy aloqalarsiz, o'zaro adabiy ta'sirlarsiz hech bir xalqning adabiyoti rivoj topmaydi, yangi-yangi tasvir usullari va vositalari bilan boyimaydi. Shuning uchun ham adabiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan joylarda boshqa yozuvchilarga o'xshamagan noyob iste'dod sohiblari dunyoga keladi. Bundan ham muhimi shundaki, boshqa xalqlar adabiyotining eng yaxshi yozuvchilari va ular ijodi namunalari bilan tanishgan kitobxonlar shu xalqni, uning davr bo'ronlarida kechgan va kechayotgan mashaqqatli hayoti, ma'naviy va ruhiy olami bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa chakana gap emas.

Naim Karimov,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

MADANIYATNING EHTIYOT QISMI

Hamma qahvaxonaga salom bermasdan kirgan kishiga qaradi. Favvora otilayotgan hovuzdan ko'z uzmay tomosha qilayotgan kishi unga qarab:

— Salom, Hamid og'a!.. — dedi.

— Salom...

— Bu nimasi, Hamid og'a, suvga tushgan mushukdek shalpayib turibsan...

Hamid og'a hol-ahvol so'rayotgan qariyaga qayrilib qaradi:

— Allohga hamd bo'lsin, ey Ali Chavush, shu iflosdan qutuldim... Allohga shukr... Haqiqat bor ekan!

— Muborak bo'lsin, Hamid og'a, pankning qarzini berdingmi?

— Yo'g'ee... Pankning qarzi kimning xayoliga kelibdi deysiz? Xudoga shukr, kofirning murdasidan, ya'ni traktordan qutuldik...

Traktor so'zini eshitar-eshitmas boyadan beri mudrab pinakka ketayotgan qariyalarning quloqlari ding bo'ldi. Ular o'tirgan bo'yra kursidan turib holatlarini o'zgartirishdi... Hamma kursisini burib Hamid og'a tomonga qaratib oldi.

— Rostdanmi?

— Butunlay qutuldingmi, Hamid og'a?

— U haqda gapirib ber...

Hamid og'a:

— Qutuldim, shu kunlarga yetkazgan Yaratganga ming marotaba shukrlar bo'lsin... — dedi.

Uning gapiga quloq solayotganlar ro'y bergan voqeaga qiziqib qolishdi. Ular bo'yra kursilari bilan Hamid og'aga yana ham yaqin kelishdi.

Hamid og'a voqeani so'zlab bera boshladi:

— Buning tarixi uzun... O'g'limiz xizmatdan qaytganida: "Ota, men xizmatda shofyorlikni o'rgandim", — dedi. Qanday

qilib bo'lsa ham traktor olaylik deb hech holi-jonimga qo'ymadi. O'sha paytda qizim ham kuyovi bilan qishloqqa qaytgandi. Kuyovim bilan qizim institutda dars berishardi. Ular har gal ta'tilga chiqqanlarida qishloqqa kelishardi. Ular ham: "Ota, traktor olaylik..." — deb qo'yishmadi. Nimaga qiynalasiz-a?.. Ikki juft ho'kizning bahridan o'tsangiz bo'lmaydimi? Yo'q, mening qarashlarim eskicha emish. Qizim devorda osig'liq taqvim sahifalarini ko'rsatib: "Ota, qarang, biz hozir 1955-yilda yashayapmiz, bu degani yigirmanchi asr, ota, tushunyapsizmi?.." — dedi.

Kuyovim esa har kuni kechki ovqatdan keyin bir soatcha nutq so'zlardi. Biz texnika asrida yashayotgan ekanmiz. Bu davrda ho'kiz bilan yer haydash ayb sanalarmish...

O'g'lim esa hisob-kitob bilan ovora-yu sarson edi: "yer haydash uchun qancha mardikor yollaysan? O'n nafar... Uni necha kunda haydaysan?.. Bir oyda... Ko'rdingizmi, ota, — deydi, agar traktor olsak, bitta o'zim bir haftada haydayman-qo'yaman. Undan keyin esa qo'limga pul qistirgan odamlarning dalasini ham haydab beraman. Bir yilda traktorning pulini to'laymiz". O'g'lim jim bo'lsa, qizim boshlaydi, qizim jim qolsa, kuyov boshlaydi. "Ho'kiz ter to'kmagan paytda ham tekinga yem-xashak yeydi, traktorchi? — deyishdi... — Foydalanishdan oldin ichiga ikki piyola benzin quyib, hayda, Alloh, hayda... Ishlamasa, bekorga benzin sarf qilinmaydi. Ho'kiz bo'lsa qish bo'yi yotib yeydi bo'yichalik kavsh qaytarib".

Men yakkalanib qoldim, nima desam, og'zimga urib turishdi. Ho'kiz kasal bo'ladi, ho'kiz keksayadi, o'lib qoladi deyishdi. Traktor temirdan yasalgan, na keksayadi, na charchaydi, na o'ladi... Men ularning gapiga ko'nmoqchi emasdim. Onasi: "Muso Chavush ham olibdi, kal Mahmud Og'a ham olibdi", — deb quloq-miyamni yeb hech qo'ymadi. Kechqurun yotganimda — traktor, ertalab turganimda — traktor... Onasi hammadan ham zo'r chiqdi: "Oqsoqolimiz ham traktor sotib olibdi. Sen hali ham o'tiribsan... — dedi. — Hatto Memishning Husayini ham olibdi". Xudo haqqi, noiloj qoldim.

Qiziqqon tinglovchilar ora-sira:

— Eeee Hamid og'a... — deb luqma tashlashardi.

— Yolg'iz Xudoyimga ayon, men traktor olmoqchi emasdim. Qishlog'imizdagi muallim: "Hamid og'a, — dedi, — sen nima deyapsan, bitta traktor saksonta ot kuchiga ega..." Mana shunda birdan kallamga urdi. Saksonta ot degani bu!.. Avliyo kuchi emasmi bu! Nima degani? Tog'-u toshni tep-tekis qiladi-ku.

Uydagi ming'ir-ming'ir gaplar, nihoyat, jonga tegdi. Ha, mayli, olsak ola qolaylik dedim. Memishning o'g'li Husayn olgandan keyin biz quruq qolsak uyat bo'lar... Mayli, olaylik. Qancha turadi o'zi bu matohing? Pank ham kredit ochayotganmish. Traktorning uchta turi bor ekan: kichkina, o'rtacha, katta... Kichkinasidan olaylik dedim... O'g'lim: "Men kichkina traktor olishni xohlamayman!" — dedi. Qizim esa: "Olganimizga yarasha katta traktor olganimiz yaxshi", — dedi. Kuyov: "Hayotda bir marta olasiz, ota", — dedi. Onasi bo'lsa: "Hamma katta traktor olsa-yu, biz bo'lsa kichigidan olib el-yurtga kulgiga qolmaylik?" — dedi.

Hammamiz birgalashib shaharga tushdik, ta'minot idorasiga bordik. Idora xodimi yaxshi odam ekan. "Qancha gektar yeringiz bor?" — deb so'radi. "Sakson gektar", — dedim. "Siz mana bu kichkinasidan oling, kichkinasi ham sizga yetib ortadi. Bu sakson emas, hatto sakkiz yuz gektar yerni ham shudgor qila oladi", — dedi. Ammo bolalar uning gapiga quloq solishmadi. "U seni aldayapti", — deyishdi. "Biz katta traktor olishni xohlaymiz", — deyishdi. "To'rt ming lira oldindan to'lanadi", — dedi xodim. Qolgani nasiya. Bozor-o'char yo'q. Ortga qaytdik. Nomim shu bugungacha kimsan, Hamid og'a, to'rt ming lira pulim yo'q deb kimga aytasan... Ho'kizlarni bozorga olib chiqdik. O'z qo'llarim bilan boqib katta qilgan jonivorlarim-a. Kulrang ho'kizim ko'zimga qarab mo'ltirar, ko'zlaridan esa marjon-marjon yosh dumalardi. Sariq ho'kizim esa tili bilan qo'llarimni yalab-yulqardi. Ishni uzoqqa cho'zib o'tirmadik, ho'kizlarni uch ming liraga pulladik. Qolganiga pankdan kredit oldik. Ta'minot idorasidan bahaybat traktorni oldik. Badbaxt tog'dek baland edi. Kanistr bilan ikki piyola mazut va yog' quyishdi. O'g'lim traktor ustiga chiqdi. Hammamiz unga ergashdik... Traktor yo'rg'alashga tushdi. Ofarin. Ustiga eski kalish, bitta sarimsoq piyoz, moviy ko'zmunchoq, duo

yozilgan qog'oz osib "chuh" dedik... Kechki payt uyga qaytguncha o'ziyam qishloqni to'rt marta aylanib chiqibmiz, "beboshlar" deyuvchi odamning o'zi yo'q.

Boshqalar ham bizdan ko'rib ta'minot idorasiga chopishdi. Xatirchining Yusufi bor-ku, qishloqning old tomonida o'n gektar tashlandiq yeri bor, hatto u ham qarz ko'tarib traktor oldi.

Kun botdi deguncha traktorlar qishloq yo'llarida tizila boshlardi. O'g'limning haydovchiligiga gap yo'q. G'izillatib haydardi. O', traktori bilan Memishning o'g'li Husaynning traktoriga borib urilsa bo'ladimi. Illo-billo bizniki uning traktorini bir zarb bilan chilparchin qildi. Galvars toshbaqaga o'xshab bir tomonga chalqanchasiga ag'darildi.

Shanba kuni bo'ldimi, hamma traktorga chiqib olib shaharga yo'l olardi... Kinoteatr oldida traktorlar poyezd yanglig' qator tizilardi. O'g'lim mo'ylovini burab badbaxtni shunday haydardiki... Kino tugagandan keyin musobaqa boshlandi. Ana poyga-yu, mana poyga. Shunday deb turgan paytda bir benomus kelib traktorini biznikiga mindirdi... Taqa-taq to'xtadik-qoldik.

E voh... Fonarlarni yoqdik, matoh hech yurmasdi. Uni bir uyum loshdek yo'l ustida qoldirib, o'zimiz yayov yo'lga tushdik. Ertasiga o'g'lim shaharga ketdi. Traktorning qayeri singan — bilmayman-u, o'g'ildan darak yo'q...

— Eeee Hamid og'a... Keyin-chi?

— Keyin qishloqdan bir juft qo'tosni ijaraga olib, ulkan matohni qo'toslarga sudratgancha qishloqqa olib keldik. Singan qismi topilmadi. Ta'minot idorasiga bordik. "Iltimosimizni qondiring, qancha pul bo'lsa beraylik", — dedik. Ular "yo'q" deyishdi. Bitta kichkinagina qism uchun ulkan traktor bekorga turaveradimi? Ko'zlaringdan o'rgulib ketay sariq ho'kizginam-ey, uning na g'ildiragi bor edi, na shurupi... Na motori buzilardi, na dastgohi...

O'g'lim: "Men Istanbulga borib kerakli qismini topib kelaman..." — dedi.

"Mayli, o'g'lim, — dedim, — ko'p qolib ketma, yer haydashning vaqti keldi, tezroq borib kel!.."

O'g'lim Istanbulga jo'nadi, shu desangiz, undan hech darak yo'q...

— Eeee Hamid og'a... Keyin-chi?

— Keyin, birodarlar, o'g'ildan hech darak bo'lmadi... Yerni haydash vaqti o'ta boshladi. Qishloqqa sharmanda bo'ldik. Ho'kiz olaylik desak, pul yo'q... Bir juft ho'kizni ijaraga olib yer haydadik. Nihoyat, og'alar, o'g'limdan xabar keldi. Maktub yozib: "Ota, men traktor qismini topdim, ammo uni izlab topgunimcha pulim tugab qoldi. Tezda ming lira jo'nat!.." — debdi. Pankka yugurdim. O'g'limga telegraf orqali pul jo'natdim. U qo'lida temir tanga kattaligidagi shurup bilan kirib keldi. "Shungamidi ming lira, O'g'lim?.." Usta ham olib keldik. U shurupni traktorga uladi... Traktor yana vang'illay boshladi... Qish ham kirib keldi. Qor-loyda traktorni oxurga olib borib sariq ho'kizning qozig'iga bog'ladim. Ta'minot idorasining foizi keldi. Pul esa yo'q... Traktor olib boshimiz balodan chiqmadi. Qarz olib ilk foizlarni to'ladik. Yozga yetib keldik. Qani, dedim o'g'limga... Dalaga ishlagani ketdik. Yerni haydar-haydamas chat dedi, pat dedi, traktor yana to'xtab qoldi. "Hoy bola, bu matohingning dardi nima o'zi? Biladigan kishi yo'qmi?" Tashkilotdan ustani olib keldik. "Podshipnigi sinibdi", — desa bo'ladimi. "Podshipnigini bering", — dedik... Ular: "Bizda yo'q!" — deyishdi. Bu badbaxtning podshipnigi yo'q bo'lsa, nima qilasizlar boshqa yurtning dardisarini olib kelib... "Agar, — deyishdi ular, — yangi traktor olsang, uning tishini olib bunisiga qo'ysang bo'ladi..."

Qo'ni-qo'shnining dalasiga qarasang, butunlay sharmandagarchilik... Hammaning dalasida traktor murdasi yotardi. Qayerga qaramang: zanjir, tasma, kulcha temir... Voh, sariq ho'kizim, voh bo'z ho'kizginam-ey!.. Urib-tepib ishlat... O'ligi ham pul, tirigi ham pul... Bu matoh ho'kiz emaski, qo'ldan-oyoqdan kuchi ketganida so'yib yesang... So'yilmas, bichilmas, yeyilmas, ichilmas dardisar... Ikkinchi foiz ham keldi... "Pulni ortga qaytaring!" — dedim. "Biz olibsotar emasmiz!" — deyishdi... Hammasidan to'yib ketdim. Adanada bitta odam bu matohning qismlarini yasarmish. O'g'limga: "Ho'v eshak o'g'il, eshshak, — dedim, — borib bu palakatning ilojini qil..." O'g'il Adanaga ketdi. Usta: "Bemorni ko'rmaguncha bir narsa deb bo'lmaydi!" — debdi. "Bor, olib bora qol", — dedim. Ikki ho'kizning orqasiga traktorni

bog'ladik. O'g'il Adanaga o'n besh kunda yetib bordi... U odam bu ishda ustasi farang emish. "Bu podshipnikning orasiga besh yuz lira pul qo'ysang, ishing hal bo'ladi-qo'yadi", — debdi.

Odamlarga gap-so'z bo'lishdan uyalib dalaning ikki gektar yerini sotdik. Pulning besh yuzini unga olib bordik... Qizim bilan kuyov keldi. Bu palakatga shuncha pul ketdi, endi bir kayf-safo suraylik deb bola-baqra hammamiz unga mindik. O'g'limga: "Ho'v, sal nari hayda, unga-bunga urma!.. — dedim. — Bu matoh uloq oti emas..." O'g'il gapga quloq osmaydi. Memish o'g'li Husaynining traktori biznikidan o'tdimi... O'g'il tezlikni oshirgandan-oshirdi... Traktor urg'ochisini ko'rgan eshak kabi taqa-taq to'xtadi-qoldi. Qilma degan gapga kirmadi. "Traktorning o't olgichi darz ketmaydimi!.. Hoy eshak nasli, — dedim o'g'ilga. — Arab oti bo'lganida o'lib ketardi... Bu — qo'l mehnati, kofir o'ylab chiqargan dastgoh. Sen uni arab oti deb o'yladingmi?.."

Itaramiz, yurmaydi, suv ko'rgan eshak kabi joyidan jilmaydi... Eslamay bo'ladimi qora ho'kizni... Chuh, jigarim, dedingmi, tog'-tosh bo'lsa parchalab uloqtiradi. Qizim bilan kuyovni bir tomonga tortdim... "Hoy valadi, — dedim, — biz qaysi yildamiz, ayt-chi menga, 1955-yildamidik?" Kuyovga yuzlandim: "Qaysi asrdamiz? Yigirmanchi asrmidi?.." Oh, mening bo'z ho'kizim, bir siqim somonni oldiga tashladingmi, bos-a bos yukni... Aravaga qo'sh, dalaga hayda, to'qmoqqa hayda...

— Eee Hamid og'a... Keyin nima bo'ldi?

— Keyin, og'alar... Yana pankning foizi! Uchinchi nasiya keldi... Nomusdan uyalib yana o'n gektar yerni sotdik... Shurupi tushar — besh yuz lira... Barmoqday keladigan qismi tushar — ming lira... Yirik shurupi nosoz bo'larkan, unisi ming lira... Zanjiri uzilsa, na bozordan topiladi, na do'konda sotiladi... Ehtiyot qismi topilmasmish... U yerini yama, bu yerini yama, bu bechora traktor mening shalvarimga aylandi-qoldi... Tuproqni surayotib isitmasi chiqqan lo'liday hamma tomoni qizib zang'illagani-zang'illagan... Dalamizning qayeriga qo'l cho'zsang, shurup, yirik shurup, temir, chiviq, zanjir... Xuddi ichi buzilgan buzoq dalani aylanib chiqqanday. Bir kuni shaharchaga bizning Demokratik partiyadan chiqqan xalq noibi keldi deyishdi. Uning yoniga bordim... "Endi bizning

holimiz ne kechadi? — deb so'radim. — Tangadek keladigan qism uchun filday traktor o'laksaga o'xshab yotaveradimi?"

— Gapir, Hamid og'a, u nima dedi?..

— Nima derdi... Biroz qayoqdagi behuda gaplarni gapirdi, gaplarini ko'p ham tushunmadim. Insonlar eski zamonda, tosh davrimikan, nimadir yasaganmish dedi. Hozir temir davri, ya'ni Demokratik partiya davri emish. Madaniyat yurtimizga temir bilan kirib kelarmish. "Juda soz, mayli, madaniyat yurtimizga temir bilan kirib kelipti, — dedim. — Qani buning ehtiyot qismi?.." "Borib bizning dalani ko'r, madaniyat bo'lak-bo'lak bo'lib, maydonda o'laksa kabi yotibdi", — dedim. "Bu madaniyatning yanada kichikroq qismi yo'qmi?" — dedim. "Bu palakat ursang-da joyidan jilmas, chuh desang-da turmas, kisht desang-da qimirlamas", — dedim.

— Eeee Hamid og'a?.. Keyin nima dedi?

— Keyin-chi, og'alar... "Biz Amerikaga buyurtma berdik", — dedi. "U yerdan kelgani zahoti bu yerda ham pabrikasini quramiz", — dedi. "Biroz sabr qiling, ko'kdan rahmat yoqqandek ehtiyot qismlar chalpakdek yog'ilib ketadi", — dedi. "Biz-ku sabr qilamiz, lekin pank kutmayapti, pankka ham ayt, u ham sabr qilsin", — dedim. Shunday deganim bilan boshqa kreditlar to'xtadi deysizmi. Men sizlarga bir narsani aytayinmi, to'g'risi, men ho'kizlarning uvoliga qoldim. O'sha sariq ho'kizim sotayotganimda bozorda ko'zlaridan qanday duv-duv yosh to'kkan edi-ya... Yuragim qanday yonayotganini bilasizmi!..

Nima bo'lsa bo'ldi, gapni cho'zmaylik, xullas kalom, dalaning hammasini sotdim va qarzning hammasini to'ladim...

— Keyin-chi, Hamid og'a?

— Keyin qizim bilan kuyovimni chaqirdim. Onasi bilan o'g'limni ham qoshimga chorladim. Ularni o'laksaning oldiga boshlab bordim... Yo bu Yaratganning balosini ta'mirlang, yoki bo'lmasa bo'yningizga bo'yinturuq solib ho'kiz kabi uning o'rniga sizlarni dalaga solaman... Motorni ishga solishdi, bir qimirlab, ikki bor titrashi bilan qayishi uziladi. Qayishni taqishsa, shurupi tushadi. Shurupni o'rnatishsa, podshipnigi sinadi. Podshipnik o'rniga boshqa narsa qo'yishsa, shurupi nosoz bo'ladi.

— Keyin, Hamid og‘a?..

— Keyin, og‘alar, qarasam, ish bitmaydi... O‘g‘ilni, qizni, kuyovni va onasini bir joyga yig‘dim. “Keling, ho‘v eshshaklar, men sizlarga bu matohni qanday ta’mirlash lozimligini hozir ko‘rsataman”. Qo‘limga katta bolg‘ani oldim. Ularni suruv kabi oldimga soldim... O‘laksaning boshiga keldik. Katta bolg‘ani olib shturvaliga urdim: “Mana senga, — dedim, — yigirmanchi asr...” Motoriga bolg‘ani urdim: “Ol, ho‘v, — dedim, — bu ham senga madaniyat...” Bolg‘ani g‘ildiragiga urdim: “Ol, — dedim, — bu ham senga, nima edi, ehtiyot qisming...” Urdim bolg‘ani, urdim bolg‘ani... Bir qarasam, onasi baqira boshladi: “Hoy, odamlar, bu yoqqa keling, bizning chol jinni bo‘lib qopti...” Qiz qochar, kuyov qochar... O‘g‘il qochar... O‘g‘lon ura solib qochardi... Bolg‘ani otdim-da, yo‘lga tushdim... O‘sha joydan to‘g‘ri bu yerga keldim, og‘alar... Ko‘zim qonga to‘lib ketdi.

Ko‘zlari moshday ochilgan tinglovchilar so‘radilar:

— Eeee Hamid og‘a?.. Keyin-chi?..

— Keyin haqiqat bor ekan, og‘alar... Palakatdan qutuldim, badbaxtdan qutuldim... Allohimga ming shukr... Qaytadan tug‘ilganday bo‘ldim.

Keyin kayf bilan qahvachiga baqirdi:

— Hoy, menga qahva tayyorla, quyuqroq bo‘lsin!..

YO'QOLGAN

Erkak eshikni ochib orqaga tisarildi. Uyga kirishi uchun ayoliga yo'l berdi. Ular qo'llarida kichik safar xaltalari, jomadonlari bilan uyga kirib kelishdi. Uy ichi g'alati ko'rinardi. O'n kun kimsasiz qolgan uy burchagidan qandaydir havo, begona hid anqib turardi. Ayol zalning bog'ga qaragan deraza pardasini ochdi. Aprel quyoshining nurlari xonani yoritib yubordi.

— Xonaga bir qara, — dedi. — To'rt tomoni ham chang-to'zonga botib ketibdi. Bunday betartib uyda yashab rohatlanmaysan kishi. Zudlik bilan xonalarni tozalashim kerak.

Erkak zaldan ovqatlanish xonasiga o'tdi. Deraza pardasini ochayotib ayoliga dedi:

— Xudo haqqi, uyga joylashib olmasimizdan oldin ishga kirishma. Nafas rostlab olaylik, keyin.

Ayol plashini yechib osib qo'ydi. Pechkani yoqishga taraddudlandi.

— Uy xarobaga aylanibdi! Yaxshiyamki qaytdik! Yana besh-o'n kun qolib ketganimizda bormi, bilmadim, qanday holatga kelardi?

Erkak yon-atrofga yana bir marotaba nazar tashladi. Uy doimo uning nazarida yog' tushsa yalagudek, issiqqina, shinamgina bo'lib ko'rinardi. Endi esa bu holatda, butun ashyolar xuddi qadim zamonlardan qolgandek begona, tushuniksiz, sovuq ko'rinardi.

Ayoli bir savat o'tin ko'tarib keldi:

— Menga bu uy begona ko'rinyapti! Senga-chi?

U yordam berish uchun ayoli yoniga bordi:

— Menga ham. Xuddi oldinlari bu yerda yashamagandekmiz go'yo...

Pechkani yoqib, zal, ovqatlanish xonasi, oshxona derazalarining pardalarini ochishdi. Nur uy ichini qopladi. Pechka chatirlay

boshladi.

Erkak:

— Kechki ovqat haqida o'ylab ko'rdingmi? — dedi. — Nima tamaddi qilamiz?

Ayol:

— Bilmasam? — dedi. — Uyda hech vaqo yo'q! Xohlasang, biror narsa olib kel.

— Nima olib kelay? Ayt, shunga qarab xarid qilib kelaman. Bozor-o'char qilish qo'limdan kelmasligini yaxshi bilasan.

Ayol oshxonadan olib chiqqan to'rxaltani erkakning qo'liga tutqazdi:

— Oshxona bo'm-bo'sh. Bir soatda nima topsang, shuni olib kel. Kotlet, non, pishloq, tuxum, salat, limon — nima ko'rsang, shuni ol. To'rxaltani to'ldir. Men uyni yig'ishtiraman. Sen yo'g'ingda yanada yaxshiroq ishlayman.

Erkak to'rxaltani olib uydan chiqdi. Ayol esa tezda uyni orasta qilishga kirishdi. Zal va ovqatlanish xonasining changini artdi. Supurdi. Oshxona koshinlarini chinniday qilib artdi. Sumkalarni ochib kirlarni ajratdi.

Xo'jasi bir soatga yaqin muddatdan keyin kun botishiga yaqin uyga qaytib to'rxaltani oshxonadagi stol ustiga qo'ydi. Ayol olib kelingan paketlarni ochib to'rxaltani bo'shata boshladi. Kotlet, pishloq, limon, tuxumlarni kotlet paketiga o'xshash paketlarga birma-bir joyladi. So'ngra qo'li bilan paypaslab burniga olib keldi:

— Bu nima?

Erkak:

— Bumi? — dedi yaqinlashib. — Mushukka deb jigar olgandim.

Ayol paketni stolga qo'ydi:

— Yaxshi o'ylabsan.

— Qayoqlarda yuripti u?

— Ayvazmi?

— Albatta Ayvaz!..

— Kelib qolar.

Erkak oshxona derazasidan u yoq-bu yoqqa mo'raladi:

— Ko'rinmaydimi?

— Ko'rinmaydi.

U bu safar oshxonaning boqqa qaragan eshigini ochib tashqariga chiqdi. Ovoz berdi:

— Ayvaz! Ayvaz, kel, pis-pis...

Bog'ni ovoz berib aylanganidan keyin oshxonaga qaytdi. Mayda-chuydalarni javonga joylashtirayotgan ayolining yonida to'xtadi:

— Undan xavotir olmayapsanmi?

— Xavotir olmay bo'ladimi? Albatta xavotirlanyapman, hozir ularning maishat fasli. Uyda bo'lishmaydi. Qayerlarda bo'lsa ham kelar.

Erkak oshxona derazasidan tashqariga qarab ming'irladi:

— Qiziq! Har doim uyga kelganimizda, kinodan, sayrdan qaytganimizda oyoqlarimiz tagida o'ralashib yurardi. Ko'rinmayotgani senga g'alati tuyulmayaptimi?

Ayol ko'katlarni yuvish uchun jo'mrakka yaqinlashdi:

— Albatta, g'alati! Ayvaz hech qachon kech payti yurmasdi. Ammo o'n kundan beri uning yakka o'zi qoldi. O'zining g'amini o'zi yeb yurgandir. Menimcha, qayerlarda yurgan bo'lsa ham keladi...

Erkak yana ayoliga yuzlandi:

— Bilasanmi? Jonivorga tuzukroq e'tibor bermadik. Jilla qursa, qo'shnilarga vaqtincha qoldirib ketsak bo'lardi. O'n kun davomida sendan so'ramoqchi bo'ldim-u, ammo xavotirga solmay deb gapirmadim. Jonivor tirik bo'lsa, bas.

— O'n kunda nima ham bo'lardi? Har holda bir joylarda yurgan bo'lsa, ajabmas. Qayerda bo'lsa ham kelib qolar...

Erkak xavotirdan qovog'ini uyib:

— Kelganida shu paytgacha kelardi! Befoyda! Menimcha, endi kelmasa kerak... — dedi.

Ayol ikki ko'kat navdasini o'ramidan ajratib, barglarini tozalab jo'mrak ostida yaxshilab yuvdi. Katta qozonga suv to'ldirib, ko'katlarni botirdi. Qozonni olovga qo'ydi. Keyin xo'jayiniga tikildi:

— Sen yosh bola emassan! Hamma narsani yomonlikka yo'yasan.

Keyin xo'jayini uning qo'lidan ushlab oshxonadan tashqariga chiqdi:

— Qani, yordam ber, jomadonlarni tepaga olib chiqaylik.

Zaldan yuqori qavatga eltuvchi zina boshida turgan ikkita jomadonni erkak, ikkita kichik yo'l sumkasini esa ayol ko'tardi. Yotoqxonaga olib chiqib javon oldida yerga qo'yishdi. Erkak divanning chekkasiga omonatgina o'tirdi. Ayol deraza pardalarini ochganidan keyin xo'jasiga yuzlandi:

— Oh! Xonamizni shunday sog'indimki!

Kun botish pallasi edi. Xona ichini g'ira-shira qorong'ulik egallayotgandi. Xo'jasi chanqayotgandi, ayol kelib uning yoniga o'tirdi. Qo'llarini yelkasiga qo'ydi:

— Sen xonamizni sog'inmadingmi? Gapirsang-chi?

— Albatta sog'indim!

Ayol mavzuni o'zgartirdi:

— Ko'chada biror tanishni ko'rdingmi?

— Sur'atni uchratdim.

— Qalay, yaxshi o'tirishgan ekanmi?

— Yaxshi o'tirishgan ekan. Yo'lda charchamagan bo'lsangiz, biznikiga kechki ovqatga chiqinglar dedi. Ayoli seni juda ham sog'inibdi.

— Sen nima deding?

— Sen xohlasang boramiz dedim.

— Boramizmi?

— Bilmasam.

Ayol o'rnidan turdi. Chuqur bir nafas olib kerildi.

— Shunday charchaganmanki! Boradigan bo'lsak, kechki ovqat tayyorlashdan qutulardim. Ammo ayni paytda ko'chaga chiqishga ham madorim yo'q!

Shu payt ko'cha chiroqlari ham yoqildi. Erkak o'rnidan turdi. Derazaga yaqinlashdi. Ayol chiroqni yoqib deraza oldiga keldi. Pardalarni yopdi. Hali ham deraza oldida ko'chani kuzatayotgan xo'jasining dahanidan ushlab o'ziga qaratdi. Qo'llarini olib beliga aylantirdi. Xo'jayini boshini ko'ksiga qo'ydi.

— Bilasanmi? — dedi shirin ovozda, — bir haftadan beri juda charchadik! Qarindoshimizdan qarindoshimizga, tanish-bilish-

larnikidan tanish-bilishlarnikiga yuguraverib charchadim!.. Ushbu lahzalarni shunday sog'indimki! Nima bo'lganda ham o'z uying — o'lan to'shaging...

Birgalikda ikki qadam tashlab yotoqxonaga kirishdi.

— Ayvaz kelmagani uchun juda tashvishdaman!

— Bo'ldi, endi uni unut! Nima bo'lgan bo'lsa ham qaytib kelar. Hech narsa bo'lgani yo'q, xavotirlanma. Mushukning joni yettita deyishadi.

Erkak ayolining sochlarini sekingina silardi.

— Bilmadim! Kelsa shu paytgacha kelardi...

Ayol xo'jasining lablaridan o'pdi. Ko'zlari yilt-yilt yondi:

— Jonim, — dedi. — Qanday yaxshi insonsan!

Yana bir necha bor o'pdi, keyin bir-birining yuziga tikilib qolishdi. Ayol ko'ylagini to'g'rilab, o'rnidan turdi:

— Xohlamasang, Sur'atlarnikiga bormaymiz.

— O'zing bilasan.

— Juda zerikding. Bilaman, u yerda ham yayray olmaysan. Ertaroq uxlaganimiz afzal.

Erkak ham o'rnidan turdi:

— Yomon bo'lmasdi.

— Agar xohlasang, baqqolga borib qo'ng'iroq qil, bormasligimizni ayt, men dasturxon tuzab turaman.

Pastki qavatga tushishdi. Xo'jayini qo'ng'iroq qilish uchun tashqariga chiqdi. Ovqatxonasining old tarafida kichkina balkoncha bor edi. U yerda gultuvaklar turardi, ayol dasturxonni tayyorladi. Keyin o'n kundan beri suvsiz qolgan gullariga suv quyish uchun balkonga chiqdi.

Tutash uydagi balkonlarga qaragan deraza ochildi. Uy bekasi derazadan ko'rindi:

— Yaxshi keldingizmi, xonim? Qayerlarda bo'ldingiz?

— Yaxshi keldik, azizim!

— Qachon keldingiz?

— Yaqinda, ikki soatcha bo'ldi, shekilli.

— Rostini aytsam, sizlarsiz juda yolg'izlanib qoldik, ko'p sog'intirdingiz!

— Biz ham sizlarni sog'indik!

— Istanbulda ko'p qolib ketdingizmi?

— Hammasi bo'lib o'n kun! Yo'lni ham hisoblaysiz.

— Hechqisi yo'q.. Sayr-u sayohat qilib ko'ngil yozib kelganga nima yetsin!

— Rosa charchadik! Olomon, shovqin-suron. Inson ko'ngil yozganini tushunmaydi ham!..

— Yozda bizning ham shunday niyatimiz bor...

— Juda yaxshi qilasiz. Biz borib hech narsa qilolmasdan qaytdik. Havo sovib, yomg'ir tinmay yog'di...

— Nimalar deyapsiz, jonim! Bu yerda ham xuddi shunday bo'ldi. Ikki-uch kun bo'lib qoldi, havo sal tuzuk.

Ayol gapni bo'ldi:

— Jonim, bizning Ayvazga ko'zingiz tushmadimi?

— Nimaga so'rayapsiz?

— Ko'rinmayapti...

— O'sha sovuq kunlarda uch kun avval ko'rgandim.

— Qayerda?

— Eshik oldida. Oftobda junjikib titrayotgandek edi.

Ayol xavotirlandi:

— Kasal edi demoqchimisiz?

— Chaqirdim. Yeyish uchun bir narsalar tashladim. Kelmadi. Menimcha, kasal emasdi.

— Ko'nglim g'ash, ishqilib, jonivorga bir narsa bo'lgan bo'lmasin...

Qo'shni ayol yelkasini qisib:

— Bilmadim. Shundan keyin ko'rmadim. Inshoolloh, sog'-omon yurgandir! — dedi.

— Kelganimizdan beri xavotirdamiz. Qayerdan qidirishni ham bilmayman!

— Voh-voh!

— Turgut juda xafa. U yana ham tashvishlanmasin deb qayg'umni bildirmayapman...

— Afsus! Xafa bo'lmang, inshoolloh, keladi!

Ko'cha eshigi ochilgandek bo'ldi, u quloq tutdi. Keyin eshik yopilganini eshitdi.

— Turgut keldi, shekilli, — dedi. — Xayrli tun!

Ichkariga kirish uchun oshiqdi.

— Xayrli tun!

Qo'shnisi derazasini yopdi. Ayol ovqatlanish xonasiga kirdi.

Xo'jayini so'radi:

— Ayvaz keldimi?

— Haliyam kelgani yo'q!

Xo'jayini boshqa hech narsa so'ramadi. Ayol ovqatni keltirish uchun oshxonaga chiqdi.

Ovqatlanayotgan paytda ham, ovqatdan keyin yotoqxonaga kirayotganlarida ham Ayvaz haqida boshqa so'z ochishmadi. Soat sakkiz, sakkiz yarim, to'qqiz ham bo'ldi. Ayol bir necha marotaba bir nimalarni bahona qilib oshxonaga kirib Ayvaz keldimi-yo'qmi deya qarab keldi. Erkak har safar sigaretani tutatganida o'rnidan turib boqqa, balkonga ochilgan eshik oldiga borardi. Oynadan tashqariga qarab Ayvaz ko'rinmaydimi deya qidirdi. Ikkalasining ham quloqlari bir ovozni kutardi. Sal shovqin bo'ldi deguncha ikkalasi ham ko'zlarini derazadan tashqariga tikishar, Ayvazning orqasini bukib oynaga suykalganini, derazani ochishlarini kutishini ko'rgandek bo'lardi.

Ayol soat to'qqizga zang urganida:

— Men yotaman, uyqum keldi, — dedi-da, o'rnidan turdi.

Erkak:

— Xo'p, — dedi. — Birga chiqaylik.

Yotoqxona chirog'ini yoqib, eshigini yopdilar. Hech narsa haqida gaplashmasdan ikkalasi ham deraza tomonga olg'a qadam tashladi. Erkak parda uchidan ushlab yana bir marotaba tashqariga nazar soldi. Keyin pardani qo'yib yubordi.

Ayol paypoqlarini yechayotib:

— Sen haqsan, — dedi. — Xuddi uyda nimadir yetishmayotgandek tuyulyapti...

Erkak deraza oldidan nari ketdi. Kamzulini yechdi. Stul ustiga ildi:

— Aslida ham shunday. Uyda uch jon edik...

— Juda qayg'uryapman. Oqshomdan beri o'zimni boshqacha his qilyapman.

— Yuzlaringdan, so'zlaringdan ko'rinib turibdi. Ayvazni mendan ham ko'proq sen yaxshi ko'rarding.

Ayol tungi chiroqni yoqdi. Ko'ylagini ikki qo'li bilan etagidan tutib bosh ustidan tortib yechdi. Tungi ko'ylagini kiydi. To'shakka cho'zildi.

— Oshxonada ovqat tayyorlayotganimda oyoqlarim tagida o'ralashayotgandek bo'lgandi.

Erkak pijamasini kiyib dedi:

— Men ham ovqatlanganimda stolning tagidan qidirdim...

— Dasturxonni yig'ishtirib, idishlarni oshxonaga olib borayotib yonimda yurganini sezgandek bo'ldim.

— O'rindiqqa, divanga qaraganimda xuddi o'ralib yotganini ko'rgandek bo'laman...

Ayol adyolni ko'tarib to'shakka joylashdi:

— Men ham... Juda achinyapman. Bir insonni yo'qotgandek achinyapman...

Erkak kelib ayoli yoniga cho'zildi. O'rtada qisqa sukut hukmronlik qildi. Sal o'tib erkak sukunatni buzdi:

— Mushuklar necha yil umr ko'rishadi?

Ayol ko'zini yumib biroz o'yladi:

— Bilmayman, — dedi. — Ammo o'n yildan ko'proq yashashsa kerak...

Ikkalasi yana xayolga berildi. Erkak:

— Shundaymi? — dedi. — O'n besh yil yashashadi...

Ayol takrorladi:

— Har holda shunday!

— Ayvaz hali olti yoshda edi!

— Bevaqt o'lishi mumkin! Balki o'lmagandir.

Biroz sukut saqlandi.

— Kim biladi? — dedi erkak. — Bunisini endi bilolmaymiz. Ba'zi mushuklar o'ligini ham ko'rsatishmaydi...

Ayol qo'l cho'zib yonidagi tungi chiroqni o'chirdi.

ARZIRUMLIK TAHSIN

Tahsin afandini ilk marotaba qishning ayozli tunlaridan birida uchratgandim... Lekin men uni uchratmasimdan oldin ham odamlar og'zida turli mish-mishlar yurardi. Odamlar u haqida shunday hikoya qilishardi:

U Arzirumda o'ziga to'q oilaning farzandi bo'lgan ekan. Istanbulda fiqh ilmini o'rganib, hatto bitta-ikkita kichkina idoralarda xizmat qilgan, keyinchalik esa Bolqon urushida ko'ngillilar safiga kirgan. U Trakyada yaralanib, jarohati bitgandan so'ng yana armiyaga qaytgan, urush tugashi arafasida to'satdan bu yerlarni tark etgan-u, shu ketganicha dom-daraksiz ko'zdan g'oyib bo'lganmish. Odamlar uni ancha vaqtdan beri o'lib ketgan deb o'ylab yurgan bir paytda xalq orasida yana turli-tuman gap-so'zlar paydo bo'la boshladi: Tahsin afandining maktabdoshi uzoq safarga chiqqanida uni Tabrizda, masjid eshigi oldida ko'rib qolibdi, u sinfdoshi yaqiniga kelganida taniy olmas darajada bo'lgani tufayli unga og'iz ochmabdi. Yana kimdir uni Shomda uchratibdi, ust-boshi juda ham juldur bo'lib ketganmish. Tahsin oldiniga do'stini tanimasdan sadaqa so'rabdi, ammo ko'z-ko'zga tushganida uni tanib qolib, bergan pulini otib ura qochganmish. Bu Tahsin afandi haqida eshitgan hikoyalarimdan ikkinchisi edi. Shu orada uning otasi vafot etdi, ukalari va onasi Tahsin bir kunmas-bir kun uyga qaytar degan umidda ota merosidan ulush ham ajratishibdi. Bu mol-mulk juda ham ko'pmish. Ona o'g'lining qaytib kelishiga shu darajada ishonarkanki, agar eshik taqillab qolsa bormi, har doim bu Tahsin deb o'rnidan irg'ib turib ketarkan. Men Arzirumda yashaganimda o'g'lini intizorlik bilan kutayotgan onaizor haqidagi hikoyani ko'p eshitdim. O'sha zamonlarda har bitta xonadonda bitta-ikkita o'likka ko'zyosh to'kishar, daraksiz ketganlarga esa jimgina ko'z tikishardi. Tahsin afandi ham ana shunday daraksiz ketgan odamlardan biri edi.

Bir kuni To'pxonali qahvaxonasida ulfatlar bilan choy ichib o'tirardik. To'satdan do'stimizning nafasi bo'g'ziga tiqilgancha ichkariga kirdi:

— Yangilikdan xabaringiz bormi? Tahsin afandi qaytibdi. Uch kundan buyon Arzirumda emish. Uni ukalari yashirib qo'yishibdi: ust-boshi bir ahvolda... Onasining quvonchi ichiga sig'masmish. Ikki kecha uyida qolibdi, uni yuvintirishib, yangi kiyimlar kiydirishibdi, merosdagi ulushini berishibdi. Hatto ona o'g'lini uylantirishga shay bo'lib turganmish... U oldiniga onasining gaplariga "Xo'p bo'ladi" deb ko'nibdi, keyin esa kecha oqshom chog'ida onasiga: "Bu fikringizdan voz keching, baridan voz keching: mening dunyo molini ko'rishga ko'zim yo'q, men bu dunyoni tark etdim. Bunday hashamatli uylarda yashamayman, turli-tuman kiyim-kechak, muntazam ravishda ovqat, issiq yotoq: bular men uchun og'ir... Men ketaman, mol-mulkka hech ham ehtiyojim yo'q", — debdi.

Onaizor o'g'liga yalinibdi, yolvoribdi, nihoyat, hushidan ketibdi, ukalari esa: "Hech bo'lmaganda onam uchun bu fikrdan qayting", — deyishibdi. Tahsin ularga: "Mening onam ham, ukalarim ham yo'q, men o'likman; o'liklarning esa onasi ham, aka-ukasi ham bo'lmaydi", — deb javob beribdi. Keyin xonasiga qamalib olib, ovqat yeyishga ham chiqmasdan, eshikni hech kimga ochmabdi. Ular chorasiz qolganidan keyin uni o'z holiga qo'yishibdi.

Ammo Tahsin afandi hamma uyquga ketgan paytdan foydalanib sekingina pastga tushib eski kiyimlarini kiyib uyidan qochib ketibdi. Hozir uning qayerdaligini hech kim bilmasmish. Ulfatlardan biri:

— Qizig'-a, u qayerga g'oyib bo'lgan ekan? — deb so'radi.

— Hech kim bilmaydi. Ukalari hamma joyga odam qo'yishibdi... Uni ko'rgan odamning o'zi yo'q. Ba'zilar uni Ilijaga yashiringan deyishadi. Akasi hozir o'sha yerga ketdi, ammo topishga umid yo'q.

Bugundan boshlab Arzirumda g'iybatlarning asosiy mavzuyi Tahsin afandi haqida edi. Oqshom payti Tahsin afandining hali ham shaharda ekanligini, Kars eshigida, kichkinagina uyda yashiringanini eshitdik. Ertasi kuni uning yana (bir-ikki soatcha)

uyiga qaytganidan xabar topdik. Tushlikda uni Istanbul eshigida ko'rishibdi, nihoyat, uch-to'rt kun o'tib Tahsin afandi yana daydi darveshlik hayotiga qaytganini, bir qancha qoplar orasida yurganini va Xudo bergan yigirma to'rt soatlik kunini mast holatda o'tkazishini, qo'lidan hech narsa kelmasligini bilgan oilasi endi uni erkin qo'ygani qulog'imizga chalindi.

Kundalik hayoti shu tarzda kechayotgan Tahsin afandining o'tmishi haqida odamlar orasida turli-tuman mishmishlar boshlandi. Uning bolaligi, yoshligi, xulq-atvori, oilaviy hayoti aylanib kelib bahs mavzuyi bo'laverardi. Shu paytgacha eshitgan-bilganlarimning qisqacha bayonini yuqorida aytib o'tdim. Bu mish-mishlarning bitta tomoniga hech kim e'tibor bermasdi; xo'sh, shu darajada intizom va g'ayrat bilan hayot ostonasiga endigina qadam qo'ygan insonning birdaniga o'zgarib qolishiga sabab nima edi? Bu haqda hech kim churq etib og'iz ham ochmasdi. Chunki Tahsin afandining hamma odamlar qatori yashayotgan hayotidan biror sababni topib bo'lmasdi. Bu hol to'satdan yuz bergan o'zgarishlardan biri sanalardi. Har xil taxminlar qilindi, turli ehtimollar o'rtaga tashlandi; biroq hech kim shu haqda aql bovar qiladigan haqiqatni topa olmasdi. Bu kasallik deguvchilar ham, tasavvufga berilib tarkidunyo qilgan, qolaversa, qandaydir hisga duchor bo'lib ma'shuqasi hijronidan shu ko'yga tushgan degan da'volar ham bo'ldi. Ammo bu uydirmalarning barchasi haqiqatdan yiroq gumonlar edi, xolos.

Tanish-bilishlarim bu savollarning hamma javobini shaxsan uning o'zidan bilib olishgandi. Lekin Tahsin afandi ularga g'oyatda muloyimlik va hatto biroz o'yga toldiruvchi javoblar bilan tushuntirardi. Ba'zida u bilan tasodifan uchrashib qolganlar ayrim paytlarda uning haqiqatan ham maroqli suhbat qurganini aytishardi. Ammo u bilan uchrashuvga muyassar bo'lgan kishi qandaydir o'rinsiz so'zi bilan uning qitiq patiga tegsa, shu zahoti uni tashlab ketardi.

Uning tirikchiligi juda oson kechardi. Ko'ngli nimani tusamasin, birinchi duch kelgan odamdan so'rardi. Undagi ikki jihat odamni o'ziga tortardi. Birinchisi uning jamoli edi. Uni ko'rgan kimsa bu istarasi issiq kishining o'ziga jalb etuvchi ohanrabosi

bor derdi. Ikkinchi jihati esa odamlar bilan suhbatlashganida o'zini behayolarcha tutmasdi. Bu oddiy odobning belgisi emasdi, albatta. U bilan ilk marotaba suhbat qurgan shifokor do'stim: "Uning uchun bu dunyoda kir va iflos narsa bo'lmasa kerak", — degandi.

U juda ko'p sayr-sayohat qilar, lekin hech bir sayohati haqida og'iz ochmas, hamma joy bir xil, odamzod ham bir xil deya so'zini qisqa qilardi. Uning eng ko'p bahs yuritgan mavzuyi o'lim va inson haqida edi.

Bu g'aroyib insonga nisbatan hamma qatori menda ham qiziqish uyg'ondi va bir necha kun uni uchratarman degan umidda u yer-bu yerda aylanib yurdim. Ammo hech uchratmadim. Keyinchalik uni yon-atrofimdagi odamlar asta-sekin unuta boshlagani uchun mening ham qiziqishim o'z-o'zidan so'na boshladi. Shu bilan oradan bir qancha oylar o'tdi.

Qahraton sovuq, dovul va bo'ron hukm surayotgan qish kechalarining birida yana To'pxona qahvaxonasida choyxo'rlik qilib bayburtlik do'stimning hijrat haqidagi hikoyasini tinglardik.

To'satdan qahvaxona eshigi shiddat bilan ochildi-yu, shamolu qor bilan bo'ylari sal uzun, to'laroq, qip-yalang'och desa ham bo'ladigan juldur kiyimdagi bir odam ichkari kirdi. Egnida qora, juldur paltosi bor edi. Yalang oyoqlari, tugmasiz paltosi, yalang'och ko'ksi ustidagi qor parchalari asta-sekin erib yerga suv bo'lib tomardi. U eshik oldida bir lahza turdi. Men o'tirgan joyimda ulg'ayayotgandek unga tikilib ajablanardim, bu hayratlanish hammani hayajonga solgandi. Bilyardning taqillashi, nard ovozi va turli xil shovqinga to'la katta qahvaxona bir zumda suv quygandek jim bo'lib qolgandi. U haqda gapirib berganlar meni aldashmagan ekan. Haqiqatan ham, uning chehrasi chiroyli ekan. Yana bir jihati, qora jingalak sochlari, uzun soqoli, porlab turgan ko'zlari va keng peshonasi insonni o'ziga jalb etardi. Biz shu oqshomda xuddi idrok etilmagan sir bilan to'satdan hayot mo'jizasiga erishgan qadimgi haykallar qiyofasiga o'xshab lol qotgandik.

Bu chehra faqat go'zalligi bilan emas, ayni paytda, jiddiyligi, toshqin va qorishiq hayot ifodasi bilan odamlar chehrasiga o'xshamasdi.

U jamoada uyg'otgan e'tibordan bexabar asta-sekin qahvaxonaga kirib o'rtada to'xtadi va o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib bizga darveshona salom berganidan keyin Vosifning mashhur tarji'bandini chiroyli qilib o'qiy boshladi. U she'rning:

Mehnatni o'zingga zavq etmoq olamda hunar,
G'am-u shodlik shunday kelib, shunday ketar, —

baytini aytgandan so'ng she'rdagi ohori to'kilmagan so'zlardagi tashbehlarni shunday sharhlab berdiki, qoyil qolmaslikning iloji yo'q edi.

Manzuma tugar-tugamas u bir burchakka tiqildi va qahvachining stol atrofida aylantirayotgan puldonining to'lishini kutdi. Ammo u yig'ilgan pullarning hammasini olmadi, puldon ichidagi puldan ozginasini oldi, xolos, qolganini esa eshik yonida o'tirgan qariyaning oldiga tashladi va yon-atrofdan eshitilayotgan "Marhamat, Tahsinbek, qahva ichib keting!" kabi iltifotlarga quloq solmasdan qahvaxonani tark etdi.

Majnunlikdan boshqa dardga chalinmagan odamning bu holatda kelib-ketishida xayolotni qitiqlaydigan shunday bir jihati bor. U bir lahza ichida yorug'likka chiqib yana zulmatga sho'ng'igani, bo'ronli qish kechasi yoxud hech bo'lmaganda shunga yaqin narsa, to'g'ridan-to'g'ri unsurlardan kelgan va ularga shiddat bergan mavjudlikni o'ylash uchun o'z-o'zimni ko'p azobladim.

Tahsin afandini o'sha oqshomdan keyin boshqa uchratmadim. Hattoki boshqalar ham u haqda hech narsa deyishmasdi. O'sha kecha yuz bergan voqeaga guvoh bo'lganim uchun faqat shuni ayta olamanki, men ham, boshqalar ham o'sha tunda bizni qurshagan qo'rquvni eslashdan uyalardik.

Shu bilan birga, uni o'qtin-o'qtin eslab, o'sha g'alati odam bilan suhbatlashishni chin ko'ngildan xohlardim. Garchand o'sha qo'rquv qalbimni tark etgan bo'lsa-da, bu telba haqidagi xayollarim hozir butunlay boshqa shaxsiyatni kashf etardi, go'yo u har kun atrofimda o'ralashib yurgan sharpa qiyofasida ko'rinardi.

Tahsin afandiga oxirgi marta zilzila kechasida duch keldim. 1924-yilning kuz oyida yuz bergan va Karsgacha bo'lgan joylarni

ostin-ustun qilgan bu falokat hozirgacha xotiramdan o'chmay keladi. Men shu paytgacha bunday ofatni ko'rmagandim. Binobarin, uning qanchalik dahshatli hodisa ekanligini ham anglay olmasdim. Zaminning silkinishi dengiz to'foniga o'xshamaydi, u butunlay boshqacha; dengizda har doim o'zimizni hushyor tutamiz, bilamizki, dengiz odam bolasi uchun ishonchli xilqat emas. Uni oldindan dushman deb bilganimiz uchun suv bizda bardoshlilik, himoya va zafar tuyg'ularini uyg'otadi...

Holbuki, zamin bunday emas: u insoniyatning eng ishongan maskani hisoblanadi. Insonlar o'z saodatini, farovonligi-yu xavfsizligini u bilan bog'laydilar. Biz zaminning har doim onadek muloyim, mushfiq, hech bo'lmaganda, beparvo va sokin turishiga odatlanganmiz. Yerning silkinishi ushbu xavfsizlikning barbod bo'lishi va yaqin do'sting tomonidan senga sanchilgan xanjar kabi dahshatlidir. Dengizdan kelajak vahm qarshisida chaqqon va jasur bo'lgan inson bamisoli zamindan kelgan vahm qarshisida o'zligini yo'qotgan jonzotdir. Zilzila kechasida hali bu holning ma'nosini tushunmaganim uchun yotog'imga kirdim-da, Saloniki tarixini o'qiy boshladim.

Ammo besh daqiqa o'tar-o'tmas xaroba uy g'ishtlarining ko'chayotganini ko'rganimda va ship ustidagi bir yarim gaz qalinlikdagi tuproqning bir soniyada meni ko'mishga tayyor ekanligini sezib ko'chaga otildim. Biroz salqin, oltin kuz kechalaridan biri edi. Uyim qarshisida harbiy omborlar joylashgan bog'dagi teraklar ustida chiroyli oy so'lg'in va do'stona chehrasi bilan osilib turar, xuddi u dunyomizni tanish sukunati bilan bezashga, bizni hech narsaning o'zgarmasligiga ishontirishga intilayotgandek edi. Uzoqdan eshitilayotgan chashma ovozi shu mudhish soatda ko'chani to'ldirgan olomonning g'uvillashi bilan musobaqalashardi go'yo. Yo'l o'rtasidan — har ikki tomondagi baland devorlardan uzoqroqda yurar ekanman, ko'zlarim hali ham terak daraxtlari ustidagi oyda edi.

Qanday sokin, qanday tabassumli chehrasi bor edi oyning. Unga qarar ekanman, falakiyotning bizga o'rgatgan g'ayri haqiqatlariga jahlim chiqqandek bo'ldi: bu munis va munavvar chehraga ibodat qilsa bo'ladi, unda hayotni boshqarayotgan kuchlardan biri mavjud

deb hisoblanardi. Bu tabassumli chehraning hozir qanday qo'rqinchli xarobalardan iborat ekanini o'ylab titrab ketdim. Dunyomizni ham shunday uzoqlardan ko'ra olgan o'zga sayyoraliklar biz haqimizda qanday tasavvurda ekanlar-a! Kim biladi deysiz, o'sha paytda yer yuzi so'lg'in qandil yanglig' yonayotganida uning qashshoqligidan bexabar bo'lib qanchadan qancha duolar ko'kka yuksalardi.

Ikkinchi silkinish, bir dumalanish vahmi meni bunday o'ylardan uyg'otib yubordi va men yanada ehtiyotkorlik bilan qadam tashlab do'st izlashga tushdim. Butun shahar juda g'aroyib holatda oyoqqa qalqqandi: ichki kiyimlari bilan ko'chaga otilgan erkaklar eshik ostonasida kiyinishar, ularning aksariyati yarim yalang'och bo'lib, bundan bir tur sharqona mahshar manzarasini tasavvur etish mahol emasdi.

Ayollarga kelsak... Haqiqat shuki, bu zilzila sababli men Arzirumda bir necha ayollarning yuzini ko'rdim. Uyqusizligimga qaramasdan, zilzila o'sha kecha meni unchalik tebratmadi. Kutilmagan narsalar olib kelgan o'zgarish bir kechalik bo'lsa ham azobini torttiradi. Beshta-o'nta jo'ra topishib oldik, buni aytishga zarurat yo'q deb o'ylasam-da, ular bilan bo'lgan suhbat menga ozmi-ko'pmi sodir bo'lgan falokatni unuttirdi.

Faqat yarim tun chog'i ko'nglimda tezroq tong otsa edi degan istak uyg'ondi. Tong otsa... Yarim kechada zindonda uyg'ongan mahbus, yotog'ida behol, terga botgan umidsiz bemor, kamsitishu xo'rlash to'fonida o'zini har lahza bo'g'ilayotgandek his qilgan bechora, qisqasi, har jinsdan dunyoga kelgan mavjudotlar erta tong quyoshini najot soati yanglig' kutib olishar va tong otar-otmas butun qashshoqlig-u iztiroblarining hech bo'lmaganda yengillashishini umid qilishardi. Bu narsa shuni isbotlardiki, inson uchun tinchlik va osoyishtalik eng zarur ehtiyojdir. Haqiqatan ham, bu bechoralar uchun oftobdan kutadigan nima bor ekan? Qay birimiz ortimizda qolgan nursiz kunlarning bir-biriga o'xshash zerikarli yukini eslamaymiz?..

Ammo bundan nima naf bor? Bir marta quyosh chiqsin, kechaning uyqusiz, hatto chala tushga to'la etagi ochilsin va insonlar haqiqiy chehralarini ko'rsinlar, shahar esa bu xayolotlardan xalos bo'lsin va kunduz olomonida faqatgina chashma ovozi eshitilishi-

ga rozi bo'lsin. Men ham bu zilzilaning ilk kechasida uyqusiz kunning har daqiqasi qanday azobligini boshimdan o'tkazib (chunki uyqusizlik meni sayohat kitoblarida yozilganidek qandaydir kasalliklarga o'xshab rohatsiz qilardi) tongni kutardim. Nihoyat, erta tong quyoshi qadam bosishga jasorat eta olmagan uyim ostonasida, charchoqdan holdan toygan, odam bolasiga butun umr ishlash ishonchini bergan ehtiyotini yo'qotgan, o'ng-u so'lga raqqos kabi borib-kelayotgan devor parchasiga ma'yus boqayotgan kishilarni ko'rib qoldim.

Ertasi kuni shahar maydonlari ajoyib bozor (yarmarka)ga aylangandi. Chodirlar, taxta va gaz sandiqlaridan qurilgan kulbalar, to'rtta ustun ustiga yoyilgan gilam, joynamozdan qilingan ajoyib maskanlar, hatto faqat old tomoni yopilgan mashinalar... Shu bilan birga, past ovozda gaplashayotgan qariyalar, ayollar, yig'layotgan yosh bolalar, miyada aylanayotgan oq-u qora xayolotlar... Ayolining ko'zi yoribdi, men do'stimga quvonchim ichimga sig'may qo'limdagi bor-yo'q bir qancha gaz sandig'i va ikki ustunni hadya etganim uchun boshpanasiz qoldim. Kechaning birinchi yarmini bir do'stimning chodirida choy ichib o'tkazdim, keyinchalik qarasam, kelgan paytimdan beri chodirning bir burchagida bizga teskari qarab miq etmasdan, gaplashmasdan o'tirgan ayoliga ichim achib tashqariga chiqdim. Boshlanayotgan kecha nima bo'lganda ham odamlar to'dasiga shu soniyada olib kelgan sukunati manzarani nihoyasiga yetkazdi. Atrofda jimjitlik hukmron. Faqatgina alla ovozi xuddi ushbu kechaning yolg'izligini o'lchashni istayotgandek jaranglardi. Mahzun va odatlangan xatti-harakati bilan qo'pol jimlikka qarshi tanish hudud bizni davrga, kundalik umidlarga chorlagan yo'l chizardi.

Bu haqiqiy ko'chmanchilar manzarasi edi, xayollar bevosita shu kichik qarorgohga tarixiy joylar tusini berardi: kishnayotgan otlar, orqasida o'q va yoy aylangan ikkita navbatchi, mash'ala yorug'ida qurollarni tozalayotgan erkaklar to'dasi va oqshom sukunatida bir-birining pinjiga kirib depsinayotgan baqiroq qoramollar, qo'ylar va ularning atrofiga o'girilgan aravalar. Va tong otishi noma'lumligini o'ylamasdan horg'in uyquga ketgan o'tov...

Asrlar oldin bu zaminni o'zlariniki qilib olish uchun ko'zlari o'rgangan manzara, tug'ilgan tuproq, cho'milgan soy va avlodlar qabrini tark etib kelgan qattiq, qo'rs, mojarodan cho'chimagan, bugun umr yo'ldoshi, bolasi va keksalar bilan ko'chaga otilgan insonlarning sergaklikda uxlagan olomoni...

Va keyin oy... Faqat bu safar Chifta minoraning ustida yana xuddi o'sha sokin jilmayishi bilan, oldinlari ko'p ko'rgan-kechirgan keksa chehrasiga qaraganimizda his qilgan xotiralar selini sudragancha boqardi. Nima qilmoqchi edim? Eng birinchi uyga borib yotishni o'yladim. Yer silkinishi biroz to'xtagandi, faqat kunduz kunlari halokatlardan shunday qo'rqinchli xabarlar kelardiki, to'rt devor ichiga kirish uchun o'zimda kuch-qudrat topa olish juda qiyin edi. Ustiga-ustak, oldimdagi katta kechani, bu joylarni tabiiy holatga keltirib uyquga ketgan shaharda yolg'iz va esayotgan shabada ichida kezish oson emasdi. Biroz vaqt aylanib yurdim, nihoyat, boshqa ish qo'limdan kelmasligini bilib uyga qaytdim. Qancha uxladim, bilmayman. To'satdan kuchli sezgi bilan qo'rqib uyg'onib ketdim va darhol tuflilarimga qo'l cho'zdim. Qandaydir falokat yuz berishini ich-ichimdan his qilardim. Xona o'rtasida uyqumdan voz kecholmay issiq yotoqqa qaytib kuta boshladim. Shu kungacha uy, yotoq tushunchalarini bunchalik his qilmagandim, boshpanasiz odamlarning azobini totib ko'rmagan ekanman. Qo'rquv, qahr, uyqusizlikdan boshim gangib parda osilmagan derazadan tashqariga ko'z tashladim. Oy kechagi joyida, terak daraxtlariga jiyaklarini kiydirib, sokin va o'sha-o'sha jilmaygan chehrasi bilan tikilardi. Zilziladan emas, aksincha, ushbu sokin va tabassumli chehradan, sukunat va beqaydlikdan odam bolasining yer yuzidagi dahshatli yolg'izligidan qo'rqib tashqariga otildim. Faqat kech qolgandim. Meni ilk silkinish zina boshida qarshi oldi. Bu tebranish balki hozirgacha bo'lgan silkinishlarning eng kuchlisi edi, tezlik bilan ortda kelayotgan uzoq va haybatli ovoz butun shaharni ko'ma oladigan qudratli vahimani uyg'otardi. Tabiiyki, yana takror ko'chaga otildim.

Yarim kechasi, allamahalda ko'zim, balki butun vujudim uyqudan shishib, burnimga yotoq va o'z tanamning hidi kelar, bu savolni qayta-qayta o'zimga berardim. Oldimda qanday o'tka-

zishni bilmagan kecha, hayhot, hozirdan menda ertangi kunning dahshati bor edi. Asta-sekin, parishonxotir va har qadamda butun vujudimni chulg'ab olgan uyqudan bir parchamni yo'qotib umidsiz va holsiz qadam tashlardim. Yo'lda ketayotib unda-bunda yerga cho'zilib olgan odamlarni bosib olishdan cho'chib silkinardim. Uyquga ketgan shaharda tanho o'zi kezgan odamning yo'llar haqidagi fikri umuman boshqacha bo'ladi. O'ylaymanki, shaharning haqiqiy topografiyasi faqat shunday paytlarda ko'rinadi. O'sha kecha Arzirumni asl shakl-shamoyilida tanigandek bo'ldim. Onda-sonda boshimni ko'tarib samoga qarardim. Faqat falakdagi oy yana biroz pastlagandi. Faqat o'sha sokin va sovuq go'zallik bilan yorug'likning quyuq chashmasini ochib butun manzarani o'ziga xos xayol va o'lim she'ri bilan to'ldirardi. Buyum xuddi masxaraboz va zolim sehrgar qo'liga berilgandek butun shakl-shamoyilini o'zgartirgandi. Hamma narsa tanib bo'lmas darajada go'zal edi. Shu bilan birga, bu go'zallik mendan shunchalar uzoq, shunchalar begona va hatto dushman ediki... Qo'limdan kelsa, ko'zlarimni yumib shundayligicha yurardim. Zamin o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotgandi. Tabiat bilan osonlikcha kelisha olmasdim. Bu zilzila kechalari menda tuproq ustida emaklab kezgan, o'sib-ulg'aygan, hayot deb atalmish kulgili va majburiy o'yinni o'ynab, keyin bir kun yana qaytadan quchog'iga qaytgan toshbag'ir ona qiyofasini aks ettirdi. Xayolimdagi manzarali tushuncha bir lahza tanamni jimirlatib yubordi. O'liklarni quchog'idan otib yuborgan tuproq, o'sha payt insoniyatning butun hayoti qo'rquv bilan o'tgani holda, nima uchun o'limni unchalik o'ylamaganini biroz his qilgandek bo'ldim: ichimizdagi qo'rquvga qaramay, uni oddiy qaytishdek qabul qilamiz deya o'yladim. Chala qurilgan imorat ro'parasiga kelganimda eng alamli va meni judayam qo'rquvga solgan fikr xayolimdan o'tdi. Bu imorat ikki qavatli, keng uylardan biri edi. Imorat oldidan o'tayotib boshimni salpal tebratgancha o'zimga o'zim: "Bechoralar endi nima qiladilar, umr bu zahmatga arziydimi?" — deb ming'irlaganimni his etdim. Yana ham to'g'rirog'i, men bu so'zlarni gapirdim va "Men"dan tug'ilgan ikkinchi odamni sezib qoldim. Shu payt o'z-o'zimdan qo'rqib ketdim. Zilzila dunyoqarashimga ta'sir o'tkazdi, o'lim

oldimga taqalib olgandi va haqiqatan ham men undan bir necha yil uchungina ayrila olmagandim.

Belediya bog'ining oldiga kelganda horg'in va parishonxotir edim. Qanday qilib birpasda bu yerga kelib qolibman? Bu haqda o'ylashning keragi yo'q edi. Shahar horg'in va uyqusiz odamni o'zligidan pastga qarab qulatgandi: men xuddi qiyalikdan dumalagan tosh singari nisbiy tekislikka yetar-yetmas taqa-taq to'xtagandim.

Atrofda hosil bo'lgan botqoqlikda cho'kkalagan ikkita qo'tos qorasi dastlab ko'zimga ko'ringan narsalardan biri bo'ldi. Bu qo'toslar haqida Arzirumda mening bir fikri sobitim bor edi, lekin hozir bu haqda gapirmaylik. Har soatda ulardan bittasiga duch kelardim, orqalariga va hatto boshlarigacha sachragan quruq loy parchalari, ifloslik bilan tepalarining ustida bir kichkina quyun kabi to'lqinlangan kichkina hayvonlar katagi orqali menga katta va jussali bo'lish kafforatini butun umr tortishga mahkum basavlat bechoralar kabi ko'rinardilar. Bu safar ham ularni har doimgi joyida ko'rish niyatida yon-atrofga alangladim. Agar qahvaxonada yorug'lik va hatto olomonni ko'rmaganimda, shubhasizki, bu tasodif haqida yana biroz xayol surardim. Faqat issiq choy ichish istagigina o'z-o'zimcha ijod qilayotgan achchiq falsafadan chalg'itdi.

Insoniyatning baxtsizligi haqida boyadan beri xayolimdan o'tayotgan achchiq tushunchalar to'g'ridan to'g'ri qandaydir buyuklik baxsh etgandi. Hayot irodasi va qonuniyatlariga qarshi isyon ko'targandim. Va hozir ushbu isyon ta'siri ostida edim. Shuning uchun ham qahvaxonadan ichkariga kirmadim, bog'ning pana burchagida ko'ringan stulga qandaydir parishon kayfiyatda o'tirdim, yana ham to'g'rirog'i, junjikdim. Chunki yaqinda esayotgan salqin havo hozir haqiqiy ayoz tusiga kirgandi. Tekislikka tikilib hech narsa haqida o'ylamasdan qovog'imni uygancha o'tirardim. Yon-atrofdagi odamlardan biri:

— Janob, qani, olovingdan ber-chi, — dedi.

Gapini tugatib yalang'och va kuchli qo'lini menga qarab cho'zdi. Biroz e'tibor qaratganimdan so'ng uni tanidim: bu Tahsin afandi edi. Bu kecha o'zimga eng munosib do'st topgandim. Sigaretimni unga uzatdim va:

— Salom, Tahsin afandi, — dedim.

— Salom! — deya quruq javob berdi.

U oltin kuz maysalari ustiga yonboshladi. O'ng qo'liga boshini tirab, chap qo'li bilan sigaret tutatardi. Salomimga aligi shu qadar oniy va quruq ediki, shu bitta so'zni aytganida kimdir to'pponchadan o'q uzsa ham, yana o'sha holatni takrorlardi.

Endi u bilan gurunglashish orzusi chippakka chiqqandi, hatto o'zimda qandaydir rohatsizlik tuya boshladim. Shuning uchundir balki undan ajralmoqchi bo'ldim, o'rnimdan turib ketishga hozirlik ko'ra boshlaganimda:

— Qanday go'zal kecha, shundaymi? — deya takror so'z ochdi xuddi tushdagidek.

Keyin chuqur nafas oldi va bu safar yerga yelkasini tashlab uzunasiga cho'zildi. Ko'zlari ochiq, samoni tomosha qilardi. Nima demoqchi ekanligini bilmasdim, tabiatni qadrlab undan bir parchagina maysa va tuproq ichiga ko'milgan bu odamga nimani ham gapira olardim? Faqat o'sha sukunat yana biroz vaqt davom etdi. Keyin yana shirin ovozi bilan o'z-o'ziga ming'irlagandek:

— Tabiat sukunati, — dedi, — biz o'ylaganchalik qo'rqinchli narsa emas. Faqat biz bunga odatlanmaganmiz.

U qanday tartibli gapirardi. Chala qolgan bahsni tamomlagandek gap boshlar va shunday davom ettirardi:

— Biz esa botqoqlikni to'ldirgan qurbaqalar kabi bu sukunatni butunlay buzishni xohlaymiz...

U gapida davom etmasdan boshini boshqa tarafga o'girdi.

— Xo'sh, — dedim, — davom etavering.

Biroq u javob bermadi, yotgan joyida qayrildi. Bu safar yuztuban tuproqqa yotgandi. Keyin birdaniga hech umid qilmas dadillik bilan irg'ib yonginamda, yerga chordana qurib o'tirdi:

— Menga chilim buyurtma ber, sen ham chekib ko'r! — dedi.

— Hay, hay, chilim siz uchun, — dedim, — men kasal bo'laman...

Masxaraomuz ming'irlash bilan rozi bo'ldi. Meni yoqtirmagani ko'rinib turardi. Chilim kelganida stul xohlab qoldi. Qahvachi olib kelgan kursini:

1619318

— Shunday xo'jayinlarcha o'tiraylik, — deya oldiga tortdi, keyin haqiqatan ham dushman ovozida menga burildi:

— Kasal bo'lsang nima bo'ladi, — dedi.

— Nima bo'lardi, hech, — dedim, — kasal bo'laman. Kasallik yaxshi narsami?..

— Balki o'lishing mumkin, shundaymi? — deya sun'iy ona mehribonligi bilan mahzun so'radi. Oh, sen o'lsang dunyo nima qiladi? Bechora dunyoning sensiz holini bir o'ylab ko'r, ha, o'zingga e'tibor qarat...

Va ehtiyotkorona harakat bilan sovqotmayin deya paltosining yoqasini to'g'riladi.

Albatta, bu bema'ni so'zlarni jahling chiqmasdan tinglab o'tirish oson emasdi.

— Nima uchun, — dedim, — bunday ohangda gaplashyapsiz, yaqinda tanishgan odam bilan ham shunday gaplashadimi?

— Voh, bolajonim, voh! Nima bo'lsa ham yig'lamoqchi... — deya masxara qildi, — bunchalik ko'ngli yumshoq inson bo'lgandan keyin qanday qilib yashash zahmatiga bardosh beradi.

— Yumshoq yoki qattiq, — dedim, — bu dunyoda faqat men mavjud emasman-a... Men kabi va mendan ojiz milliardlab mavjudot bor, hammasi yashayapti va hammasi o'lyapti.

Va katta ishora qasdi bilan ilova qildim:

— Mendan kuchlilar ham birgalikda...

— Shubhasiz, — dedi, — shubhasiz, sendan kuchli va ojizlar ham bor. Faqat ular chegarasini biladilar... (Uning ko'zlari chala qorong'ulikda olov kabi porlardi). Sen shu jussangga qaramasdan koinotni fath etmoqchisan... Sen to'ldirmoqchi bo'lgan chuqurlik tashqarisida ishing nima?

U mening shaxsiyatim orqali butun insoniyat bilan suhbatlashardi. Ovozi gavjum olomonga gapirayotgandek jo'r va baland edi. O'yinni boricha qabul etdim:

— Yaxshi, biroq, — dedim, — bunda g'olib ham bo'lamiz!

Mudhish bir qahqaha otdi.

— G'olibmi, — dedi, — qayerda, qachon? Qanday?.. Qaysi g'olib... Orqasida bit kabi yashagan devning sabr-toqatliligidan bir lahza bo'lsa ham tashqariga chiqa oldingmi? Hayot, ehtimol, o'lim

zafarining qo'shig'ini aytar. Sen kichginagina boshingni tebratib bu hayotdan o'tishga harakat qilasan!..

Sekin va muloyimlik bilan javob berishga harakat qildim.

— Hayot va sevgining ham zafarlari bor, — dedim, — hamda tabiatning o'zgarmas qonuniyatlari!

U qo'l ishorasi bilan gapimni bo'ldi.

— Hammasi vahima, — dedi. — Hayot o'lim sharafiga bitilgan qasidadan boshqa narsa emas. Quyosh bir qabriston bo'lsa, tuproq... va biz...

Safsataga aylangan narsalarni shunday to'g'ridan-to'g'ri, qalb yo'liga topilgan ovozi bilan, shunday ishonch bilan aytardiki, unga yolvorishga majbur bo'ldim:

— Jim bo'ling, — dedim. — Iltimos qilaman, jim bo'ling, bularni menga nimaga gapiryapsiz. Bular haqida gapirishga nima haqqingiz bor?..

Ammo u meni eshita olmas darajada juda olislarda edi. Jo'shqinligi eng yuqori chegarada, oyoqqa turib bitta qo'li stol ustida, musht qilgan narigi qo'li chala ishoralar bilan tepada bir narsalar ko'rsatayotgandek tippa-tik turardi:

— Senga qaytadan aytaman. Hamma narsa, hammasi o'limdir. Hamma narsa undan keladi va u yerga qaytadi... Biz ko'rgan hamma narsalar (qo'li bilan atrofni ko'rsatib, oyog'i bilan maysalarni ezg'ilardi), hamma narsa. Barchamiz kattakon va ulkan o'laksa ustida sayr qilayotgan bo'rilarmiz... Gapimni tushunyapsizmi? O'laksa bo'rilari...

Nima qilishimni bilmasdim. O'zimni bosib oldim va:

— Nima uchun bunchalik baqirasiz? O'tiring, bu gaplarning hammasini o'tirgan joyingizda sokinlik bilan gapirib bersangiz ham bo'ladi, — dedim.

Biroz muddat gapirishdan to'xtadi. G'ira-shira yorug'likda yuzidagi chiziqlarning o'zgarganini sezdim: keyin juda sekin ovozda:

— Ha, — dedi. — Haqqingiz bor, sekin gaplashsak yanada yaxshi... Sizni ham qo'rqitmayman...

Kim o'zi bu odam? O'lim payg'ambarimi yoki insonlarni hayajonga solishdan zavqlanadigan jinnimi? Bu baxtiqaro qushga nima sababdan shu kecha duch keldim-a?

U o'tirdi. Chilimining yerga tushgan shlangini shoshib jimgina qo'limdan oldi va yana o'sha eski sukunatga ko'mildi, keyin to'satdan takror va juda tabiiy holatda gapira boshladi.

Arzirumdan ertaga ertalab ketishini, shaharda yuragi siqilganini aytdi:

— Biroz aylanaylik, — dedi. Keyin zilzila mavzusiga o'tdik, o'zimga kelib ko'rgan-kechirgan ajoyib manzarani gapirib berdim. U ikki kecha ham qahvaxonadan chiqmagani uchun ko'p narsadan bexabar edi. Men so'zimni tugatdim deguncha masxara qildi:

— Demak, hozir butun shahar menga o'xshadi... U holda aniq ketishim kerak.

Va keyin o'sha dadillik bilan birdaniga oyoqqa turdi:

— Yana qayta ko'rishguncha, janob, — dedi. — Aybga buyurma, biroz ko'ngil yozdik...

U shoshmasdan, ortga qaramasdan yo'lga chiqdi va birozdan keyin bog'ning chala ko'chatlari orasidan ola-bula soyalarga qorishgan kecha qorong'uligida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uni boshqa Arzirumda ko'rmadim, qayerga ketganini hech kim bilmaydi. Faqat nima bo'lganda ham bu telba odam menga hayot haqida anchagina dars bergandi. Shosha-pisha uyimga qaytdim va darhol yotoqqa kirdim. Bu o'lik dunyo uyqusiz qolishga arzimasdi...

BAKIR SIDQI QUNT

YORIQ QOYA

Har kungidek baliqchilar bu oqshom ham baliq ovlashga chiqmoqchi edilar. Jimjit, tinch va yoqimli bir kuz kechasi... po'rtahol rangli va po'rtahol hidli bir oqshom... ko'm-ko'k poyonsiz dengiz bug'doyi o'rilgan tep-tekis dalaga o'xshab tebranmasdan cho'zilib yotganday ko'rinardi.

Osmon bilan yopishganday arang ko'ringan To'ro's tog'larining cho'qqilari kulrang nozik pardaga o'ralgan ko'rfazni o'rab olgan. Kun chiqish tomonni to'sib turgan quyuq ko'kish tovlangan yoriq qoya, har kundagidek sirli, qo'rqinchli va dahshatli bo'lib ko'rinardi. Baliqchilar kundagidek bu kecha ham ovga chiqmoqchilar. Tag'in ko'z ilg'amas uzoqlarga boradilar, ko'rfazning narigi qirg'og'iga, Qoratosh va Po'ro'zgacha boradilar. Dengizga chiqib baliq ovlash yigirma to'rt soat, hatto, undan ham ortiqroq davom etar...

Portda bordi-keldi ko'p. Hayot qaynaydi... Ko'chaning ikki tarafidagi barglari zumraddek yam-yashil, nozik po'stlog'lik do'mboq palma daraxtlarining ostida toza va silliq chorxona dasturxonlar yozilgan, tevaragida qamishdan yasalgan yengil stullar terilgan qimorxonada radio atrofga sho'x kuylar tarqatayotir... Yurib turgan, kelib-ketayotgan odamlar son-sanoqsiz. Baliq bu qaynagan odamlarga yaxshi va sevib yeyiladigan ovqat, og'zidan mazasi ketmaydigan bebaho gazak... ammo baliqchilarga-chi?..

Botqoqlar ichida taxta, tunuka va qamishdan qo'qqaytirib qo'yilgan kulbalaridan uzoqlashgan, yeng va pochalari shimarilgan, kir, juldur kiyimli yosh yigitlar to'rlari yelkalarida, qarmoqlarini olib dengiz qirg'og'iga kelishdi, qirg'oqda baliqchi qayiqlari ularni kutmoqda edi... Har qayiqqa uch-to'rt kishi o'tirib qirg'oqdan uzoqlashdilar. Sekin-sekin kech kirib, atrofni qorong'ilik bosmoqda, osmon bilan dengizni ayirish qiyin, bir-biriga yopishib, aralashib ketganday.

Xuddi osmonning uzoqligi, dengizning chuqurligi quchoqlashib qaynashganday... u yer-bu yerdan yiltirab ko'ringan yulduzlar ko'klarda porlaydimi va yoxud turli joylardan ko'ringan yorug' nuqtalar ko'p uzoqlardagi qayiqlarning chiroqlarimi, bu hikmatni bir-birovidan ayirish qiyin. Ammo qirg'oqdagi qimorxonalarning va port ko'chalarining elektr chiroqlari charaqlab yorqin nur sochadi... Telegraf simlariga o'tqazilgan lampochkalar uzoqdan simga qo'ngan nur qushlar singari tebranib, o'ynashib turishganday edi. Qayiqlar suvni shovillatib yora-yora borgan sari uzoqlashmoqda edilar. Suvning shaloplashi, tun va dengiz tovushlari... bu hech o'zgarmaydigan va kishini seskantiradigan tovushlar go'yo qorong'i tun bilan dengiz qalbining urishi edi. Har qayiqning ichida bir fonar yonar edi. Bu fonarlar baliqchilarning yuzlaridagi jiddiy chiziqlarini, muskullarini, bo'rtib chiqqan kuchli tomirlarini, temirchi ko'rasining oldida turganday qizg'ish qilib ko'rsatardi. Ko'p o'tmay fonarlar, qayiqlar, eshkaklarning suvlarga urilib chiqargan tovushlari — hamma narsa ko'zdan uzoqlashib o'rtani jimjitlik bosdi, barchasi qorong'i tun va dengizning sirli qo'yniga kirib yo'qoldi. Ular hozir nimalar to'g'risida o'ylab, nimalarni sezib turgandirlar?.. Kutilmagan bir voqeaning hayajoni to'g'risidami? Yo'q! Ular hech bir narsa to'g'risida o'ylamaydilar. Oddiy, shuursiz mashinaning charxlari singari faqat qo'llari ishlayotir.

...Portda hayot qaynar emish... Ko'chaning chetida qad ko'targan barglari ko'm-ko'k, po'stloqlari nozik, so'lim palma daraxtlarining ostidagi stollar ustiga katak dasturxonlar yozilib, atrofiga qamish stullar terilgan emish... kelib-ketuvchi, o'tiruvchilar juda ko'p emish... Bu narsalardan ularga nima foyda?

Hozir ular bu yorug' dunyodan qanchalik uzoqda, yolg'iz va bechoralar... Baliq, yorug'lik olamida yashab turgan u odamlarga juda lazzatli ovqat, nafis bir gazak emish... Ularga nima? Baliq u bechoralarga non va qatiq, bolalarining rizqi, xotinlarining kiyimlari...

Ular uchun baliq hayotdir, baliq suratida ko'ringan hayotni dengiz ajdarhosining og'zidan yulib olishlari kerak. Baliq hayot va o'limdir... chunki u sehrli va yovuz.

Yoriq qoyadan kutilmagan bir paytda qo'zg'aladigan po'rtana qo'z ochib-yumguncha ko'rfazning ostini ustiga ag'darib, alg'ov-dalg'ov qilib yuboradi. Dengizga ishonib bo'lmaydi, ketgan kelmaydi, bu suvlar qanchalab ota-bobolarni, farzandlarni yutdi, hozir ham xuddi shunday bo'ldi. Kechasi tinch o'tdi. Ammo saharga yaqin, tong oqarish paytida ko'zga ko'rinmaydigan bir chaqmoq bilan tilsimlangan, Yoriq qoya tomondan dahshatli bir po'rtana boshlandi. Bir yonar tog'ning lavalari ham bunaqangi rahmsizlik qilmas edi. Butun borliq, tog'-tosh, shahar va dengiz, hech ko'rilmagan bir isitma kasaliga yo'liqqanday, la'nati vaboning navbati kelganday edi, daraxtlar tomirlari bilan qo'porilib yemirilayotir, tomlarning tunukalari sharaqlab uchib tushayotir.

Dengiz, hali u devona dengiz... qanday quturib ko'pirgan edi o'sha kuni!.. Tog'lar poygaga qo'shilgan asov otlar singari qirg'oqqa hujum etganday, qirg'oqdagi yo'llarni, binolarni, suvlarni, hamma narsani ostin-ustun qilgan, to'fon, qiyomat, zilzila so'z biriktirib, qo'lni qo'lga berib birga harakat qilganday edi. Dunyoning bu qismi xuddi sanchiqqa yo'liqqanday, ingrab talpinar, jon olib, jon berar edi. Po'rtana hammadan avval, qamish, tunuka va taxta kulbalarda yotgan bechora kishilarni uyg'otdi. Ular telbalar singari sochlarini va betlarini yulmoqda edilar. Tabiatning bo'kirib, hayqirishlariga bularning nola va faryodlari qo'shilgan edi. Ammo po'rtananing haybatli hayqirishlari oldida bular qanchalik zaif, kuchsiz va ojiz edilar!

Usti-boshi yirtiq, badanlari ko'rinib turgan xotinlar, sochlari to'zg'igan yosh qizlar, uyqusi buzilgan bolalar o'z g'am-u hasratlarini bir-birovlariga aytib yupanish uchun bir kulbaga to'planishgan edilar. Ketgan, ammo yana qaytib kelishlari gumon bo'lgan erlarini, otalarini, birodarlarini dengizning yana qaytib berishi uchun Tangriga yalinar edilar, yig'lab-siqtab o'zlarini har tarafga urar, talpinar va turli-turli ajoyib duolar o'qir edilar. Ammo hammalarining yuragini umidsizlikning qizg'in temir panjasi to'xtovsiz siqib ezmoqda edi.

Ular nimani umid bilan kutar edilar? Dengiz bundan avval ham ulardan ko'pgina qurbonlar olgan edi. Ular har kun o'zlarnning

rizqi-ro'zlarini berib turgan dengizdan marhamat yo'qligini juda yaxshi bilar edilar.

Po'rtana besh soatcha davom etdi. Erta bilan ko'rfaz yaqinlaridagi va narigi qirg'oqlardagi baliqchi qayiqlarni izlash uchun motorlik kema yuborildi. Shu paytda baliqchi kulbalaridagi odamlar ham shu yerga to'plangan edilar. Qo'llarida sut emadigan bolalari, rangi o'chgan chit ko'ylak kiygan, qo'llariga shisha bilaguzuk taqqan yosh xotinlar, ko'zlari og'riq, bellari bukilgan keksa kampirlar, oyoqlariga yengil poxol sandal kiyib ikki o'rim sochlarini orqaga tashlagan yosh qizlar, mayda-chuyda o'g'il bolalar... hammalari, ko'zlarini ufqlarga tikib, u yerdan bir xayol axtarardilar, erlarining, otalarining, birodarlarining xayolini!.. Bir-birovlarining yelkalariga suyanib, tizzalariga bosh qo'yib, so'z so'ylamasdan, o'tirmasdan hammalari bir yerga to'planishib ko'zlari shishgan, qoshlari kerilgan, mahzun edilar.

Shu vaqtgacha ufqlarda bir alomat ko'rinmadi... Vaholanki, ular, yana shu suvlarning ustidan hech narsa bo'lmagandek, qayiqlariga baliqlarni to'ldirib, dimog'lari chog', odatdagidek ashula aytib qaytishlari kerak edi. Baliqlarni sotgandan keyin, kissalarini pulga to'ldirib, qo'ltiqlari hadyalar bilan to'ppaygan, qo'llarida nonlari bilan kulbalariga qaytishlari lozim edi. Hammalarining yuzlarida dengiz odamlariga xos sog'lomlik alomatlari jilvalanib, badanlarida tetiklik va quvvat sezilishi kerak edi...

Ularning baliq ovidan mana shunday qaytishiga o'rganib qolganlari uchun, boshqa turli bo'lishini o'ylashni hatto xayollariga sig'dirishni ham istamas edilar. Ammo bu xayolga osonlik bilan ishona olmas, ham umid va ham umidsizlik ichida talpinar edilar. Nega vaqt tezgina o'ta qolmandi. Nima uchun soatlar bunchalik sekin yuradi, nimaga ular o'z kutganlariga tezroq qovushmaydilar? Yoxud bu kutish qiyomatgacha davom etadimi?..

Yovuz dengiz, zolim dengiz! U po'rtanani ko'pirtirgan, shishirgan, ko'klarga ko'targan dengiz, hozir butun qilmishlaridan uyalganday yerga yastanib shirin uyquda miriqib uxlayotgan bir suv, uyalib afv so'ragandek, xushomad qilib kichkina to'lqinchalarini yuborib qirg'oqda kutgan kishilarning yalang oyoqlarini o'payotir...

Soatlar shu zaylda o'tib ketmoqda. Yana ko'kda po'rtahol rangi, havoda po'rtahol hidlari... Ufqlarda To'ro's tog'larining arang ko'rinayotgan tepalari. Yoriq qoya tog'ni o'z sirli jimjitligi bilan kun chiqar tomondan to'sib turmoqda. Portda baliqni sevadigan xo'randalar hech narsa bo'lmagandek bemalol kezmoqdalar! Bir yuqoriga, bir pastga parishon shoshilib yugurgan bir hovuch kishilar, keng cholvor kiyib, beliga yung belbog bog'lagan baliqchilarning oqsoqolidan o'z kishilari to'g'risida darak so'raydilar. U ham mubham javoblar beradi.

Qirg'oqda kutuvchilar, g'am-alamdan ma'nosizlashgan, yig'idan qurib xiralashgan ko'zlarini tikib, ko'ngillaridagi xayolni sabrsizlanib ufqlardan axtarar edilar.

Shu paytda uzoqlardan bir qora ko'rindi. Axtarishga ketgan motorli kema qaytib kelar edi. Ajabo, ular baliqchilarga yo'liqib, ularni qutqardimikin? Dengiz, yutganlarini qaytib berdimikin, kelayotgan kemada o'z kutganlari bormikin? Bu alvasti xayol uyqusidan uyg'onib, ular o'z sevgililariga yana qaytib yetisha olarmikinlar?..

Hammasining yuragi hayajon bilan to'lqinlanib tinmay urmoqda. Uzoqdan ko'ringan qora hech joyidan siljimagandek, bir yerda turganday ko'rinardi. Oh, u yaqinroq kelsa koshki, ular, sabrsizlanganlaridan o'zlarini dengizga tashlab, yugurgilab o'sha ko'ringan qoraga bormoq istaydilar. Ko'p o'tmay motorli kema sekin-sekin qirg'oqqa yaqinlashdi. Xotinlar o'tli faryodlar bilan kemaga yopirildilar. Kemadan faqat bir odam chiqdi, yuzlari sapsariq, hamma joyi ivigan, qimirlashga majoli yo'q. U alanglagan ko'zlari bilan bir narsa ko'rmagani holda serrayib atrofiga qarar edi. Kutuvchilardan bir xotin "Ismoil!" deb erining ustiga o'zini tashladi. Shu yerga yig'ilgan hamma xotinlar unga tishlarini g'ijirlatib xo'mraygancha qarab qoldilar.

Ismoil eng oldinda, dor ipi uzilib, osilmoqdan qutulgan bir mahkum singari garang bo'lib, tartibsiz qadam tashlar, ho'l oyog'i asfalt yo'lda parcha-parcha iz qoldirardi. Orqasidan borayotgan xotini orasira egilib yerni o'par edi. Orqada motam tutgan kishilar, bir dengizga, bir Yoriq qoyaga qaray-qaray, oxirida taqdirga tan berganday, bo'yin egib ularning orqalaridan ergashib kelmoqda edilar.

* * *

Havoda shirin bir po‘rtahol hidi bor edi... Dengiz jimjit, tinchigan... tabiat rohatlanib tin olar edi.

Dunyo qanday chiroyli! Shu paytda baliqchilarning oqsoqoli baliq kelmagani uchun shikoyat qilgan qimorxona xo‘jayiniga javob qaytarib, “Ismoil bu oqshom baliqqa chiqadi, xotirjam bo‘l!” dedi...

HAVVO

Mening sochlarim mayingina. Havvoning sochlari esa echki yungining o'zginasi. Onam uning sochini yaxshi o'ssin deb, ikki marotaba ustara bilan olib tashladi, ammo soch o'lgur hech o'smadi, kaltaligicha qolaverdi. Burnini ko'rsangiz edi, shunday xunuk-ki! Yap-yapaloq. Xuddi o'qish kitobidagi maymunning burniga o'xshaydi. Uni hech ham yoqtirmayman. Chunki u beso'naqay va muttaham.

Bugun onam uni rosa savaladi. Albatta, kaltaklaydi-da. Mehmonxonaga yoyilgan chiroyligina gilamni qirqibdi-qo'yibdi. Jinnimi bu qiz, nima balo? Onam: "Hoy qiz, nega gilamni qiymalab tashlading?" — deb so'raganida, u "gilamning ichida qush bor ekan, oppoqqina qush, uni olgim kelgani uchun", — deya javob berdi. Mana endi ko'rding o'sha qushni. Tavba, tavba degancha, uni koyirdi.

Qo'lidan hech ish kelmaydi. Tepsa-tebranmas, uyni saranjom qilish uning xayolidan ham o'tmaydi. Bechoragina. Sakkiz soatda ham bitta kirini yuvib tugatmaydi. Yana qorni to'yganini o'zi bilmaydi. Xudo haqqi.

O'tgan kun nima bo'ldi deng. Onam mehmondorchilikka ketdi, uyda esa ikkalamiz yolg'iz qoldik. Qo'shnimiz imomning o'g'li Rajab uyimiz oldidan o'tib qoldi. Birozdan keyin qaytib o'tdi. Yigit qarshimizdagi yo'lakka o'tirib, qo'shiq ayta boshladi. Ovozining boricha baqirardi, g'alati. Havvo ham yonimda yig'ma divanda o'tirgan edi. Birdaniga xonadan otilib chiqdi. Yuragim hapriqib ketdi, xavotirlandim va uning ortidan bordim. U oshxonaga kirib, derazani ochib, unga qo'l silkityapti, beandisha. Onamga aytib bermoqchi edim, yaxshilab ta'zirini yerdi. Dog' tekkan ko'ylagimni onamga aytib berishidan qo'rqdim, ammo nima qilishimni bilmadim. Tut dog'i mana. Tozaladim, lekin dog' ketmadi. Inshoolloh, boshiga bir kulfat yog'dir-da, bizni undan qutqar. Ollohim, shuni o'z panohingga ol.

Qanday qilib tepaga chiqibdi, bilmadim. "O'lsin-a", — dedim. Oyog'i to'pday shishib ketdi. Tunda yarim kechasi narvondan uzum terishga chiqib yiqilib tushibdi. Deraza siniqlari ahmoqning oyog'iga kiribdi.

Otam juda marhamatli kishilardan edi. U besaranjom Havvoni Istanbulga olib ketdi. Uyda onam bilan yolg'iz qoldik. Onam esa ich-ichidan yig'lar, ko'z yoshlarini bizdan yashirardi.

Bir oydan beri tinch-osuda yashaymiz. Qaniydi, Havvo hech qaytib kelmasa.

Lekin u yana tuzalib uyga qaytdi.

Onam kecha bizga: "Bu qiz oldiga o'nta piyoz qo'ysam, yeya olarmikan? — dedi ajabsinib. Oyijon, qani, bir sinab ko'raylik-chi, yermikan, — dedim men ham qiziqib. Piyozlarni uning oldiga qo'ydik. Ofarin, hash-pash deguncha hamma piyozlarni yeb tugatdi! Hayratdan yoqa ushladik. Uning ko'zlaridan marjon-marjon yosh dumalar, shunga qaramasdan, piyozlarni paqqos tushirardi. Onam qarab turib yana so'radi: Hoy qiz sigaret chekishni ham uddalaysanmi? "Ha uddalayman", dedi. "Unda mana bularni ol-chi". Onam sigaretlarning ichiga tuz solgan ekan! Chatir-chutur ovozlar chiqa boshlaganida, qo'rqqanidan sigaretlarni irg'itib shunday qochdiki. Kulgudan o'zimizni to'xtata olmasdik.

Sutchi Hoji go'yo u uchun Rajabga pichoq tortibdi. Bu gap ham chiqdi. O'tgan kuni onamning oldida gapirsa bo'ladimi! Onamning shunday jahli chiqdiki. "Hoy qiz, bu qanday gap bo'ldi, agar yana bir marotaba eshitsam, o'ldim deyaver. Tirik qo'ymayman, uqtingmi!" Onamning bu gaplarini eshitib turib, u yana menga "Xudo haqqi, pichoq o'qtaldi, qiz", — derdi.

Odatda, onam bilan bir joyga boradigan bo'lsak, albatta uni uyga qamab, eshiklarni qulflab ketardik. Yo'qsa, bir baloni boshlab qo'yardi. Bir kun o'lguday ahvolga tushdi. Onam uni kirxonaga qamab qo'ygan ekan. O'choqdagi ko'mirdan dimiqib ketibdi. Derazani ochishga ham aqli yetmabdi. Qancha azoblar bilan o'ziga keltirdik. Sarimsoq solingan qatiq ichirdik. Buni ko'rib, hali ham ko'nglim ayniydi.

Fotimaxonim derdi: "Bu qizning joni mushukning joniga o'xshaydi, harom o'lmaydi". Ular haq edilar. Nima bersang to'ng'iz-

ga o'xshab paqqos tushirardi. Ikki donagina qandni onamga aytmasdan olganim uchun, hovuchimga o'nta kaltak tushdi. Hammasi uni deb bo'ldi. Qayerdan ham ko'rib qoldi, chaqimchi.

Onam g'alati ayol edilar. Boshini tizzamga qo'yib, yotardilar. Ba'zan onamning boshi tizzalarimga shunday botib ketardiki, tizzalarim og'riqdan zir qaqshar, ammo yig'ib ololmasdim. Yuzimga g'alati-g'alati tikilib qo'yardi!

Kunlardan bir kuni otam bilan onamning gaplarini eshik ortida turib poyladim. Otam onamga: "Og'zingni och, tupurmoqchiman", — derdi. Onam esa: "Shunaqasi ham bo'larkanmi, begim", — deb javob qaytardi. Otam bo'lsa qahqaha otib, onamning javobidan rosa rohatlanib kuldi: "Ey xotin, seni bir sinab ko'rmoqchi bo'lgandim, sen og'zingni ochgin-chi, tupurarkanmanmi, ko'rasan". Otamning bu gaplariga chindan ham hayron qoldim. Nimaga bunaqa ohangda gaplashishdi ekan, qiziq? Bir necha marotaba onamdan buning sababini so'ramoqchi bo'lardim-u, lekin fikrimdan qaytardim. Chunki gap poylaganim uchun onamdan rosa dakki yerdim. Ular do'pposlayotganda ovozimni chiqara olmasdim. Baqirib ko'ray-chi! Men baqirmayman, ammo yig'layman. Telba Havvo hech yig'lamasdi, faqat ovozining boricha baqirib, butun olamni larzaga solardi. Otam bo'lsa, har doim: "Bu qiz hech odam bo'lmaydi, qishlog'iga jo'natib yuboraman, ketsin", — derdi. Qaniydi ketsa, hammamiz undan qutulardik. Onam: "Qizga juda rahmim keladi, hech kimi yo'q, yolg'iz. Baquvvatgina qiz, u-bu ishlarimga yaraydi, menga dastyor. Nima ish buyursam, ko'ngildagidek bajaradi". Hammamiz undan mehrimizni hech darig' tutmasdik, qani edi u ham ishonchimizni oqlasa. Ba'zan qornim og'riyapti, deb qoladi. Og'zidan shunday noxush hid kelardiki. Qayerlardandir chuvalchanglar topib, meni bir-bir qo'rqitib turardi. Shuning uchun ham undan ko'nglim sovidi. Onamga bularni aytmasdim. Agar aytadigan bo'lsam, u ham grafinimizni sindirib qo'yganimni onamga aytib beradi. Albatta, Maston sindirdi, deb sakraydi. U sindirmadi, ammo men shunday dedim, onamga. Nima qilayin, bu ish uchun albatta dakki yeyman!

Mana uch kunki, Havvo kasal. Uyimizdan o'laksa hidi kelardi. Barcha choralarni qilib ko'rdik, ammo natija bo'lmadi. Har

kim har xil tashxis qo'yardi. Birlari toshma deyishsa, yana birlari isitmasi oshgan deyishardi. Shifokorning ham ismini unutdim, u ham bir narsalar haqida gapirdi. Hammamiz qayg'urardik, Alloh o'z panohida asrasin. Kechiktirmaslik kerak. Yaxshiyamki, men maktabga otlandim. Bo'lmasa uyning hidiga hech chidolmasdim. Xudoga shukrlar bo'lsinkim, uni ko'mirxona yonidagi bir xonaga olib o'tishdi. Otam uyimizni ohakka bo'yatdi, onam esa gunluk yoqdi.

Mening xonamning devorlari yashil. Ba'zida pastga tushib, derazadan uning xonasiga qarayman. Betartib turardi. Qizgina cho'pday noziklashib qolgan edi. Nima bo'ldi unga o'zi? Ammo u o'lmaydi. Yaxshi bo'lib ketar. Istanbulga olib ketib oyog'ini kestirishmoqchi. Koshkiydi kesganlarida. Hech bo'lmaganda bir burchakda tinchgina o'tirardi. Bu balolarga ochko'zligi tufayli duchor bo'ldi. Endi qilgan ishidan pushaymon, qancha pul kerak. Onam siqilganidan gapirardi. Chiqindiga tashlagan yog' tunukasining tubini shilibdi, mevalar ham shundan bunday holga kelibdi. Qo'shnilar zang bosgan tunukadan zaharlandi, derdilar. "Bir o'qitib ko'rsakmikan?", — derdi onam.

Onam bugun ezilib yig'lardi. Bechora onaginam, meni shuncha ko'p do'pposlasalar ham, baribir uni yaxshi ko'raveraman. Qancha bayramlarda o'zining ko'ylagini buzdirib, menga yangi ko'ylaklar tikdirib berdi. Nimaga yig'laysiz? — dedim. "Havvo o'lmoqchi, qizim, shuning uchun yig'layapman". Yuragim to'lib ketdi. Men ham yig'lashga tushdim. Havvo o'ladimi, onajon, o'lmasin! "Bilmayman qizim, hamma narsa Yaratganning izmida. Qani, bu yerdan ket, yig'layverma". Onam shunday desa ham, yig'idan o'zimni tiyolmasdim. Keyin pastga tushib, uning derazasidan qaradim. O'zini ikki tomonga tashlab bezovtalanardi. Allohim nima bo'lganda ham, o'lmasin, dedim. Allohim uni o'ldirmagin. U yana bezovta edi. Birdan qornimda og'riq paydo bo'ldi. Baqiraman desam, ovozim chiqmadi. Atrofga zulmat cho'kayotgan edi. Turgan joyimdan bir qadam ham jilmasdan turaverdim. Yaxshiyamki, kuchugim dumini likillatib mening yonimga keldi. Uning boshini siladim va u bilan zinagacha birga keldim. Qornimdagi og'riq g'oyib bo'ldi.

Birozdan keyin onam, dadam va shifokor keldi. Men ham eshik tirqishidan poylab turdim. Shifokor Havvoning qo'liga ukol qildi. Havvo bu gal baqirmadi, jimgina yotardi, uchalasi ham uning baqirishini kutishardi. Otam jag'idagi toshmalarini silardi. Keyin onam dadamning yuziga tikildi. Dadam egilib, shifokorning qulog'iga bir narsalar deb shivirladi, u bo'lsa boshini liqillatdi. Keyin Havvoning ko'zlari ochildi. Onam Havvoning yotgan joyiga borib, tiz cho'kdi. "Havvo, qizim, tuzukmisan, bolajonim? — dedi. Bir qaragin, endi butunlay sog'ayib ketding. Ko'ngling nimani tusayapti, nima pishirib beray, qizim?" Havvo hech narsa demasdan, miq etmay yotardi. Ko'zlarini katta-katta ochib, "Pahlava" dedi-yu jon berdi.

O'N DOLLAR

Tez-tez xorijga chiqib, yurt ko'rgan har qanday kishi kabi, Qodir ham bojxonada ishlagan odamlarning fe'li xo'yi va xatti-harakatlaridan o'sha mamlakat haqida haqiqatga yaqin xulosa chiqara olardi. Bojxona xizmatchisining qovog'i soliq, nazari muzday sovuq, bezovta bo'lsa, bu: "Oyog'ingni o'ylab bos va hushyor bo'l! Bu mamlakatda shoshirtirib qo'yadigan turli-tuman qiyinchiliklarga duch kelishing mumkin" degani edi. Xodimlar ochiq yuzli, xushfe'l va xotirjam bo'lsa, bu: qonun-qoidalarga amal qilsang hech muammoga duch kelmaysan, degan ma'noni bildirardi. Shunday ekan, Qodir ham boshqa tajribali kishilar singari, kelgan yurtidagi vaziyatga, yanada to'g'rirog'i, bu yerdagi bojxona xizmatchilarining muomalasiga ko'ra ish ko'rishga harakat qilardi. Bir mamlakatga kirishda qoidalarga muvofiq, hurmat ko'rsatgan holda, kiborlarcha xushmuomala bo'lar, boshqasida esa ishini tezroq bitirish payida shoshayotgan, qo'pol, baqiroq kishilarga o'xshab ketardi. Maqsad — hujjatlarni tezroq rasmiylashtirib, bojxona eshigining u tomoniga o'tib olish.

Tong pallasi.

Quyoshning ko'z qamashtiradigan porloq nurlari samolyot derazalaridan kirib, ichkarini to'ldirdi. Samolyot qo'nish uchun pastlay boshlarkan, quyosh tog'lar ortida qoldi. Samolyot qo'ngach, ko'p o'tmay tog'lar ortidan quyosh yana jamolini ko'rsatdi.

Qodir xorijga, bu mamlakatga birinchi bor kelishi emasdi. Bojxonaning qayerda ekanligini, bu yerda ishlaydiganlarni, mamlakatni yaxshi bilardi. Nima qilish, o'zini qanday tutish kerakligini besh qo'lday bilardi. Dastavval aeroportning bojxonasidan o'tishi, so'ng tranzit viza bilan boshqa-boshqa ikkita taksiga chiqib, qo'shni mamlakatga o'tishi kerak edi. Shu, xolos. Juda oddiy. Ammo shunday bo'lsa-da, "Ko'raylik-chi, bu gal nelarga duch kelar ekanman?" deb o'ylardi.

Aeroport kirishida viza ishlarini rasmiylashtirish tez bitdi. Qo'shni mamlakat vizasi va u yerda ishlash ruxsatnomasini ko'rgan ma'mur mavqeyini pisanda qilmoqchidek, pasport varag'iga muhrni qarsillatib urdi va qo'pol bir yo'sinda uzatdi.

Qodir ma'murga bildirmay bir "uh" tortib qo'ydi. "Shu bojxona deganlari yonib ketmasmikan!" dedi ichidan. Endi bir taksi yollab, ikkinchi bojxonaga borishi kerak.

Qodir avval aeroportdan qo'shni mamlakat bojxonasiga yaqin bekatga borishi, u yerdan boshqa taksiga o'tirib, yo'lida davom etishi kerak edi. Ikkinchi taksida qo'shni o'lkaning davlat raqami bo'lishi lozim. Asfalt yo'l orqali o'tiladigan barcha bojxonalar yonida har ikki mamlakatga oid avtoulovlar doim bo'ladi. Mabodo, taksining raqami borayotgan mamlakatniki bo'lmasa, yo'lda duch kelgan yo'l politsiyachisi to'xtatib, nazorat bahonasida pora so'rashi mumkin edi. Qodir uchun pora berish g'oyat mushkul ish edi. Buni u ham o'zi, ham ro'parasidagi kishiga nisbatan haqorat deb bilar, qiynalar, xijolat bo'lar edi.

Aeroport eshigidan chiqmasidanoq ikki kishi: "Taksi kerakmi?" deb unga ergashdi. Qodir ularga hech narsa demay tikildi, erta tongdanoq mashinasiga chiqadigan kishining yuz-ko'zidan, qiyofasidan qaysi biriga ishonish mumkinligini bilib olishga urindi. Ikkoviga ham ko'ngli chopmadi, olg'a qadam bosdi. Eshikdan chiqishi bilan "Taksi kerakmi?" deganlar birdan ko'paydi. Oralaridan xotirjam, o'rta yoshdan sal o'tgan, to'ladan kelgan biriga boshi bilan "ha" ma'nosida ishora qildi.

Taksichi o'ziga ishongan bir tarzda oldidagi ikkita yigitni qo'llari bilan chetlatib, Qodirning yuklarini oldi.

— Mashina anavi yerda, qani, marhamat, — dedi.

Boshqalari eshikdan chiqayotgan yo'lovchilardan "Taksi kerakmi?" deb so'rasharkan, ayni chog'da ko'z qiri bilan Qodirning taksichi bilan savdolashishini kuzatib turishardi. Agar ularning savdosi pishmasa, darhol orqaga qaytib, yo'lovchini ilish payida hushyor bo'lib turishardi.

— Qayoqqa borasiz, aka?

Taksichilarning savdoni o'z foydasiga hal qilish uchun ishlatadigan usuli edi bu.

— Xonchayirga, — dedi Qodir.

— Yuzga ketamiz.

— 40 bo'lar.

— Ammo, aka, hali kecha-ku, kechki narx shuncha bo'ladi.

Qodir bir qulochcha ko'tarilgan oftobga qaradi.

— Mabodo, sen uchun yana bir quyosh chiqmasa, allaqachon kunduz bo'ldi. 40 yetadi, — dedi.

— Bo'pti, aka, 50, — dedi taksichi.

Qodir "mayli" degan ma'noda bosh irg'adi. Mashina tomonga yo'naldilar.

Mashina Yevropadan xorijga qanday chiqarishgani noma'lum eski "Mersedes" edi.

Horg'in motor zo'rg'a gulduradi.

— Qo'shni tomongami, aka? — dedi taksichi.

Xonchayir ikki mamlakat orasida yo'lovchi tashiydigan taksilar to'xtaydigan bekat edi. Tajribali taksichi yo'lning davomini qiynalmay topgan edi.

— Ha, — dedi Qodir.

— Ishonchli og'aynilarim bor, aka, ularning mashinasiga o'tqazib yuboraman.

— Bo'ladi, lekin mashinaning raqami ularniki bo'lsin.

Non pulini boshqalardan ilib ketishga muvaffaq bo'lgan bu odam Qodirga yaxshilik qilmoqchimi yoki qo'shni taksichidan dallollik puli olmoqchimi? Qodir xayoliga kelgan bu savolga javob axtarib ham o'tirmay, quyosh nuriga cho'mgan qirlarni tomosha qila boshladi.

Yo'lda ikkita yo'l nazorati postidan o'tdilar. Har politsiya mashinasini ko'rganida bezovta bo'lgan taksichi o'z tilida "poraxo'rlar" deya so'kinib qo'ydi.

— Faqat ular poraxo'rmi? — dedi Qodir kulimsirab.

— Qaydan bilay, aka, bular bizni o'rtaganlari uchun ularni bilamiz.

Shundan keyin taksichi bolalari haqida so'zlay boshladi.

Xonchayirda boshqa taksiga o'tish tez hal bo'ldi. Aeroport taksichisining ko'rsatgan mashinasi yangiroq, haydovchisi ham ishonchli odamga o'xshardi. Qisqagina savdolashuvdan so'ng ikki

taksichi yuklarni bu mashinaga joylashtirdilar. Qodir haqini to'lab, o'rta yashar shofyor bilan xayrlashdi.

Qo'shni bojxonaga tez yetib borishdi. Bojxona tinch edi. Shofyor:

— Men mashinaning o'tish hujjatlarini rasmiylashtiraman, ungacha sen ham pasportni rasmiylashtirib ol. U tomonda ko'rishamiz, — deb Qodirni tushirdi.

Qodir yangi qurilgan bojxona binosiga kirdi. Pasport nazorati darchasini izladi. Xona bo'm-bo'sh. Ertalab endi ish boshlagan ma'murlar atrofga tetik boqishardi. Qodirning ko'zlari darcha orqasida o'tirgan yosh ma'murning ko'zlari bilan to'qnashdi. Ma'mur boshi bilan "bu yoqqa kel" ma'nosida ishora qildi. Qodir shu yoqqa borib, pasportini uzatdi.

Ma'mur pasportni tez-tez varaqlab, avvalo suratli varaqni topdi. Bir suratga, bir Qodirning yuziga tikildi. Pasport nazoratidan o'tishning eng bezdiradigan oni edi bu. Ma'mur shubhali bir tarzda yana suratga va keyin Qodirning yuziga diqqat bilan tikildi. Qodirga u bu lahzani ataylab uzaytirayotgandek tuyuldi. Surat egasiniki ekaniga ishonch hosil qilgach, o'z mamlakatining vizasini topish uchun yana sahifalarni varaqlay boshladi.

Qodir indamay uni kuzatib turardi.

Ma'mur viza sahifasini topdi. Shoshmay vizani tekshirdi. Oldidagi kompyuterning tugmalariga qo'l uzatarkan:

— Ishlagani kelyapsanmi? — deb so'radi.

— Ha, — dedi Qodir. — Qurilish shirkatining boshlig'iman.

Qaysi sohada va qanday vazifada ishlashini so'ramasidanoq aytgan edi. Baribir, so'ragan bo'lardi.

— Mudirmisan?

— Yo'q, mudir o'rinbosariman.

Bu orada u Qodirning ismi-sharifini yozayotgan edi.

— Unday bo'lsa, 100 dollar ber.

— Yaxshi, lekin mening butun hujjatlarim to'g'ri-ku, nega 100 dollar berishim kerak?

Qodirning so'zlarini eshitmaganday tugmalarni bosib, pasport nomerini yozishda davom etdi.

— Mamlakatimizda necha yildan beri ishlayapsan?

— To'rt, — dedi Qodir.

— Tilimizni yaxshi o'rganib olibsan.

— Yomon emas.

Qodirning ajnabiy ekanligini bilmaganlar aksentsiz so'zlagani uchun uni yerli deb o'ylardilar.

— Til kursida o'qidingmi?

— Ha, kelgan yilim olti oy til darsi o'qidim.

Ma'mur bosh ko'tarmasdan:

— Unday bo'lsa, 50 dollar ber, — dedi.

Xuddi Qodirning o'z tilini yaxshi gapirishidan mamnun bo'lib, narxni arzonlashtirayotgandek edi.

— Yaxshi, lekin nima uchun berishim kerak, menga yordam qiladigan biron ish yo'q-ku. Mening barcha hujjatlarim to'g'ri bo'lsa.

Yana Qodirning so'zlarini eshitmagandek, oldidagi kompyuter tugmalarini bosishda davom etdi.

— Ishlash uchun ruxsatnomang bormi?

— Bor.

— Yoningdami?

— Ha, — deb Qodir ruxsatnomani uzatdi.

Ruxsatnomani ko'zdan kechirgach, uni pasportning yoniga qo'ydi. Oldidagi tortmadan muhrni qidira boshladi. Yana boshini ko'tarmay:

— Mayli, bo'lmasa 25 dollar ber, — dedi.

Qodir kulishini ham, achchiqlanishini ham bilolmadi.

— Nega berishim kerak, ayt shuni, — dedi.

Ma'mur muhrni topgan edi. Muhrni oldin bo'yoqqa surkadi, so'ng shiddat bilan Qodirning pasportiga urdi.

Ish ruxsatnomasini pasportning orasiga joylashtirarkan:

— Kel, bir choy ichaylik, — dedi Qodirga.

Qodirning taklifni rad etishiga vaqt ham qoldirmay, o'rnidan turgan ma'mur darcha orqasidan pasport ushlagan qo'li bilan orqasidan ergashishni ishora qilib, yura boshladi.

Dahliz orqasidagi xonada Qodirga pasportini berdi. Suhbatni Qodirning o'z tilini qanchalik yaxshi bilishidan boshladi, so'ng

qurilish sohasidagi ishlarga o'tdi. Choy keldi. Ma'mur choyidan bir ho'plam yutgach:

— Bo'pti, 10 dollar ber, — dedi.

Qodir rosa hayron bo'ldi. Rasmiylashtirish ishlari bitgan, pasporti cho'ntagida. Endi bu 10 dollar degani nimasi?

— Bo'pti, beraman, lekin nima uchun berishim kerakligini ayt.

Ma'mur Qodirning yuziga tikilib:

— Ey, Qodirbey, sen bermasang, boshqasi bermasa, unda men bu yerga ishga joylashish uchun bergan pulni kimdan olishim kerak? — dedi.

Qodir taxtaday qotib qoldi. Eshik tomonga tikilgan ko'yi, hamyonini chiqardi va 10 dollarni ma'murga uzatdi. Choyini oxirigacha ichmayoq, oyoqqa qalqdi.

Ma'mur uni eshikka qadar uzatdi. Eski tanishlarday xayrlashdilar.

O'zini kutayotgan taksini topdi, yo'lga tushdilar.

Qodir nazorat postlarida to'xtatsalar, 10 dollarni taksichiga to'latish yo'lini o'ylay boshladi.

IKKI CHINOR

Quloqlarini daraxt gavdasiga qo'yib, chiqayotgan qisirlash tovushlarini tingladi. Qo'llariga tiralib, yirik gavdasini og'ochdan uzoqlashtirarkan, uni diqqat bilan kuzatib turgan atrofidagilarga qarata:

— Bu daraxt yiqiladi, — dedi.

Orqaga bir necha qadam tashladi, avvaliga daraxt shoxlariga, keyin pastdagi qora izlarga boqdi. O'ziga ishongan tarzda bosh chayqab, yana "Yiqiladi bu" dedi.

Axir, viloyat Madaniyat boshqarmasining mutaxassisi, buni u bilmasa, kim biladi?! Yonidagi yosh xodimlarga asriy daraxtlarning madaniy yodgorlik sifatida qo'riqlanishi lozimligi haqidagi tushunchalar qachondan boshlab shakllangani haqida so'zlay boshladi. Yevropada bunaqa ishlarga naqadar katta ahamiyat berilishini misollar bilan tushuntirar ekan, asta-sekin daraxtdan

uzoqlashdi. Ulardan bir qadam orqada kelayotgan majmua qorovuli Hamdiga qarata, o'zaro suhbatdan to'xtamagan holda, xayr ma'nosida bosh irg'atib, u yerdan ketdilar.

Majmua qorovuli mutaxassis va yonidagilarning orqasidan istehzoli tabassum bilan qarab qoldi.

Ulardan oldin Tabiatni muhofaza qilish boshqarmasidan ham mutaxassislar kelgan edi.

Murodiya majmuasidagi yo'g'onligi uch metrdan oshiq chinorga yashin tushgani Bursada ko'p gap-so'zga sababchi bo'lgan edi.

Bursaning davlatmandlar yashaydigan mahallasiga, buning ustiga Usmoniylar xonadonining oilaviy qabristoniga yashin tushgani necha kunlab suhbat mavzuyi bo'lgandi.

Gavdasiga yashin tushgan kattakon chinorning yarador tanasi yo'g'on shoxlarini ko'tara olmay qolgandi. Necha asrlik chinor yonidan o'tgan-ketganlar daraxt tanasidan chiqayotgan qisirlash tovushlarini bemalol eshitishlari mumkin edi.

Tabiatni muhofaza qilish boshqarmasidan kelgan mutaxassis ham bu tovushlarni eshitib ko'rgach, o'ziga qat'iy ishongan tarzda:

— Bu daraxt yiqiladi! — degandi.

Ko'plar chinor 500–600 yoshga kirgan deyishardi. Hamdi kelgan tekshiruvchilarning daraxtga tirgovuch berish kerakligi, shoxlarini butab, yukini yengillatish, G'arbda bunaqa yarador daraxtlarni tiklash texnikasi borligi, bu texnikani tezda keltirib, chinorni qutqarish lozimligi haqidagi gap-so'zlarini ko'p eshitdi. Yashin tushganiga uch yil bo'libdiki, chinorni qutqarish to'g'risida u eshitmagan chora qolmagandi.

Hokimlikdan kelgan mutasaddilar, tuman amaldorlari, hatto vazirlikning Anqaradan tashrif buyurgan kattalarining hammasi tez orada oldi olinmasa, bu kattakon chinor qulab tushishi aniq ekanini aytishardi.

Qorovul Hamdining uyi Murodiya majmuasining shundoqqina yonida edi. Uyining derazasidan majmuaning hovlisi yaqqol ko'rinib turardi. Shu boisdan necha yillardan buyon Murodiya majmuasiga kechki qorovul yollanmasdi. Hamdi kunduzi qorovullik qilar, xotini va bolalari bo'lsa, kechalari navbatchilik qilishardi.

Bir kechasi majmua hovlisidan qattiq qarsillash ovozini eshitib, uyg'onib ketdi. Uydagilarning barchasi deraza yoniga oshiqdi. Ulkan chinor ag'darilib tushgan edi. Xotinining ko'ziga ko'zi tushgan Hamdi: "Yaxshiyamki kechasi yiqildi, kunduzi yiqilsa, bir fojiaga sabab bo'lardi", dedi. Qattiq xafa bo'ldi.

Ertasiga birinchi bo'lib tuman mutaxassislari kelishdi. "Yaxshiyamki kechasi yiqilibdi", dedilar. Oralaridan kimdir bu "eski chinorning o'rniga yangisini ekish kerakligini" so'zladi. Boshqalari ham bu fikrga qo'shildi.

Tuman mutasaddilari ketib ulgurmasdan Madaniyat boshqarmasi xodimlari yetib kelishdi.

Chinor kechasi yiqilganidan ular ham xursand bo'lishdi. Eski chinor o'rniga yangi nihol ekish kerakligini so'zlagan tuman mutaxassisi o'z fikrini Madaniyat boshqarmasidan kelganlarga aytdi.

Bu fikr ularga ko'p ma'qul tushdi, hatto oralaridan biri:

— Juda yaxshi fikr, — dedi. — Eski chinor Usmoniylarning, yangi nihol bo'lsa, yosh davlatimizning ramzi bo'ladi. Naqadar ajoyib ish.

Shundan keyin Tabiatni muhofaza qilish boshqarmasidan ham kelishdi. Jamg'armalar nomidan tuman bo'limi rahbari boshchiligida yana bir hay'at keldi. Shuningdek, viloyat hokimining tarixga qiziqadigan muovini ham tashrif buyurdi.

Bu orada tuman hokimligining xodimlari yerga ag'anab yotgan chinorning shoxlarini kesib, tanasini qoldirib ketishdi.

Haqiqatan ham eski chinorning o'rniga yangi nihol ekishning ma'nosi bor.

Chinor yiqilganidan keyin o'tgan ikki yil ichida Hamdi bu fikrni majmuani ko'rishga kelgan qanchadan qancha kishilardan eshitdi.

Yiqilgan chinorning o'rni bo'sh qolmasligi lozim.

Bir kuni Hamdi Murodiya majmuasini supurib-sidirib, hovlida birpas tin olib turganida sayyohlarga to'la bir avtobus kelib to'xtadi. Sayohatchilarga yo'lboshlovchilik qilayotgan yosh xodim Hamdining tanishi edi. Guruhdagilar majmuaga kirar-kirmas, yosh xodim:

— Hamdi aka, Marixonim sizdan bir narsa so'ramoqchi, bu yoqqa keling! — deb chaqirib qoldi.

Yo'lboshlovchi majmua tarixiga oid barcha tafsilotlarni yaxshi bilardi. Shuning uchun Hamdi nega chaqirishayotganini tushunmadi. Shunday bo'lsa-da, shu tomonga yo'naldi.

— Hamdi aka, Marixonim yaqin atrofda chinor ko'chati topish mumkinmi, deb so'rayapti.

— Bu yerni Bursa deydilar, — dedi Hamdi. — Chinor ko'chati topilmay qolarmidi? Ana, Merinos bozorida tiqilib yotibdi.

— Yaxshi, bahosi necha pul ekan?

Yo'lboshlovchi Hamdi bilan kanadalik sayyoh Marixonimning savol-javoblarini tarjima qilishda davom etdi.

— Narxi niholning yoshiga qarab bo'ladi-da, — dedi Hamdi. — Eng kichik ko'chat 50 dollar, sal kattarog'i 100, yetilgani 150 dollarga sotiladi.

Narx-navoni bilib olgan Mari yo'lboshlovchi vositasida:

— Merinos uzoqmi? — deb so'radi.

— Uncha uzoq emas, — dedi Hamdi. — Taksi o'n daqiqada oborib qo'yadi.

Javobni eshitgan Mari hamyonidan 200 dollar chiqarib, Hamdiga uzatdi: "150 dollar nihol olishga, 50 dollar taksi uchun", — dedi va bitta chinor ko'chati olib kelishni iltimos qildi.

Hamdi o'n daqiqadan so'ng Merinos bozoriga yetib bordi. Eng yaxshi ko'chatni tanlashga 10 daqiqa, majmuaga qaytib kelishga ham 10 daqiqa ketdi.

Xotiniga belkurak keltirishni buyurdi va o'n daqiqa ichida eski chinor o'rniga yosh niholni ekishdi.

— Chinor Kanadaning ramzi, — dedi Mari.

Shundan keyin Mari Hamdiga 100 dollar uzatdi. Yo'lboshlovchi Mari bu pulni kerak bo'lganda chinorni sug'orib turish, parvarish qilish uchun berganini tushuntirdi.

Oradan besh yil o'tdi. Mari har yili Hamdiga 100 dollar yuborib, telefonda yo'lboshlovchi vositachiligida chinor qanday o'sib-unayotganini surishtirib turdi.

Madaniyat boshqarmasi, tuman hokimligi, jamg'armalarning mutasaddilari bu tomonga yo'llari tushganda bu chinor parvarish qilib turilsa, yiqilmasligini so'zlar edilar.

IKKI KALLADOR

Issiq yoz kuni. Tovuqlar devor tagiga taxlangan quruq shoxlar ostida og'izlarini kappa-kappa ochib qo'yadi. Mushuklar qayoq-qadir gumdon bo'lgan, itlar o'zlarini soyaga urib, tilini osiltirgancha hansiraydi. Men bo'lsam, Vaysal bilan tut daraxti soyasida uchtosh o'ynashdan zerikkandim. Men necha bor yutdim, Vaysal necha bor yutdi, hisobdan adashib ketgandik. Yengil shabada esgandek bo'ldi. A'zoyi badanimizga huzur bag'ishlagan bu shabada issiq biroz tashlashining dalolati edi. Vaysal devor ostiga baland uyulgan o'tlarni ko'rsatib:

— Sakraymizmi? — dedi.

E'tiroz bildirmadim:

— Bo'pti, — dedim.

Ikkovimiz taxta narvondan tom boshiga chiqdik. Yonma-yon turib, pastga nazar tashladik. Bu o'yinni topgan Vaysal, binobarin, u birinchi bo'lib sakrashi kerak. Men kutib turaverdim. Vaysal qo'llarini ikki tomonga yozib, o'zini o't uyumi ustiga tashladi. Ikki tizzasini qorniga bukib olgan edi. Tomdan pastga uchib tushar ekan, "O'o'o'o'h!" deb baqirdi. O't uyumi ustidan tushib, menga qaradi deguncha, men ham, xuddi u singari, qanot yozib, o'zimni pastga otdim. Tut tagida o'tiraverib zerikishning alamini olmoqchi edik. Yana tezda narvondan tomga ko'tarildik. Issiq havoda pastga uchib tushar ekanmiz, esgan havo bizga huzur bag'ishlayotganga o'xshardi.

Yana bir marta sakradik, keyin yana... Pastga uchib tushar ekanmiz, o'zimizni qushga o'xshatardik. Necha marta tashlaganimizni sanamay ham qo'ydik. Eng oxirida "yigirma birrr" deganim yodimda. Bu o'yin ham zeriktira boshladi.

Tom boshiga chiqib, yana sakramoqchi bo'lib turganimizda Vaysal:

— Mustafo, kalla tashlab ko'rmaymizmi? — dedi.

Bu qanday bo'larkan? Tomdan pastga kalla tashlagan bolani ko'rmaganman ham, eshitmaganman ham. Lekin, to'g'risini aytganda, sakrash jonga tekkan edi. Sal ikkilanib:

— Mayli, lekin o'zing boshlaysan, — dedim.

Vaysal bunga shay turgan ekan. "Bo'pti" dedi va qanday kalla tashlashni o'ylab, pastga qaradi, biroz qo'rqayotganga o'xshardi. Lekin o'zi buni taklif qildi, endi gapidan qayta olmasdi. Oldiniga pastga egildi, so'ngra o't ustiga tushgan chog'da boshining yumshoq joyga urilishini chamalab ko'rdi va birdaniga pastga kalla tashladi. Haqiqatan ham o't uyumiga oldin boshi, so'ngra yelkalari urildi, keyin pastga, tuproqqacha dumaladi. Oyoqqa turishga biroz qiynalgandek bo'ldi. Ustiga ilashgan o't-o'lanlarni terib tashlayotganida yuz-ko'zini ko'rishga urindim. Yuz-ko'zidan o'tga kalla tashlashdan unchalik xursand bo'lmagani sezilsa-da, yig'lamayotgan edi.

— Og'ridimi? — deb so'radim yuqorida turib.

Ustidagi o'tlarni terishda davom etarkan, bosh chayqadi va "Yo'q" dedi.

Kalla tashlash ko'pam zavqli emasligi, lekin biron joyi og'rimagani ko'rinib turardi. Endi men ham kalla tashlashim kerak.

Tom chetiga kelib, ikkilanib pastga qaradim. Kalla tashlashga cho'chiganim uchun yoki Vaysal o'zini tutolmay yig'lab yuborsa, balki bu ishdan voz kecharman deya, beqaror to'xtab qoldim.

Vaysal menga qarab turar, yig'lamasdi. Endi kuttirib qo'ymasligim kerak. Men ham o't ustiga avvalo kallam tegishini mo'ljal olib, o'zimni pastga otdim.

Kalla tashlash sakrashga qaraganda hayajonli ekan. Agar haqiqatan ham biron joyimiz og'rimasa, kalla tashlashda davom etsak bo'larkan. Men ham Vaysalga o'xshab, o't uyumi ustidan pastga dumalab tuproqqa qorishib ketdim. Oyoqqa turishga biroz qiynalsam-da, o'zimni hech narsa bo'lmagandek ko'rsatdim.

Vaysal menga diqqat bilan tikilib turardi. Bo'g'iq ovozda: "Qandaysan?" dedi. A'zoyi badanim zirqirab og'rir, o'zimni zo'rg'a bosib turardim. "Sal og'ridi" dedim va qaqshayotgan belimni ushladim. Vaysal: "Meniki ham biroz og'ridi" derkan, hali so'zini bitirmasdanoq, ikkovimiz bir-birimizni quchoqlab, ho'ngrab yubordik.

KAPTAR OVI

— Yo'o'q. Kaptarlarimga tegmang, — dedi.

Tomorqa sohibi bo'lmish qariyaning hayotida eng yoqtirgan, balki yoqtirganlari orasida ham eng azizi shu kaptarlari edi. Uni yoshligidan na dala, na og'ilxona, na tovuqxona yumushlari qiziqtirgan, shu paytgacha hech narsa tomorqa uyning ichkari hovlisidagi kaptarlarichalik aql-u hushini o'g'irlamagandi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni shaharchada ham, qishloqda ham "Husaynbek Qushboz" nomi bilan atashardi.

Qushlarga qiziqish ham ichkilik, ayol yoki qimorga berilib ketishdek bir hol hisoblanadi. Qanchadan qancha oilalarning xonavayron bo'lishiga sababchi bo'lgan va qing'ir yo'lda yurganlar hayotini do'zaxga aylantirgan bu uchta illatning hech biri uni jalb etolmadi. "Qushbozligi" sabab bu illatlarga qayrilib ham qaramadi. Umri davomida shunday damlarni boshidan kechirdiki, hatto xotini, bola-chaqasi, qo'yingki, eng muhim ishlarini ham unutib qo'ydi, kaptarlari uchun jonini fido qildi, o'zidan ham voz kechib, majnunsifat odamlardan biriga aylandi.

Hozir u nafaqat qishloqning, balki butun dunyoning eng chiroyli, eng noyob va eng asl kaptarlariga ega. O'ttiz yillar davomida nozik maxluqotlardan bor mehr-muhabbatini, bor diqqat-e'tiborini ayamasdan ularning qanchalab yangi nasllarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Holbuki, bunday kashfiyot qilish uchun ilm-fanda qanchalab peshona teri to'kish lozim bo'ladi. Bilmadim-u, Husaynbek bugun o'z maqsadiga erishib, asl qushlar bilan birga hayotining eng baxtli onlarini boshidan kechirayotgandi. Jonidan ortiq ko'ruvchi kaptarlarini o'ziga xos ismlar bilan chaqirardi. Bir qarashda kaptarlarning rangi, bo'y-basti, shakl-shamoyili bir xil ko'rinsa-da, ammo ularni bir-biridan ajratib turuvchi yashirin alomatlar faqatgina Husaynbekka ayon edi, xolos. Ba'zi bir qushlarning bo'yinidagi nozik marjon bo'yinbog'larni, yana boshqasining

to'piqlaridagi tillarang kokillarni, yana qaysi birlarining qanotlari ostidagi yashil dog'larni yoki ko'zlari ichidagi qizil yulduzchalarni faqat ugina ko'rardi va bilardi.

Qushlarni toifalarga ajratib hovli ichidagi xonalarga alohida-alohida joylashtirgan Husaynbek har kun oqshom payti kaptarlar ma'shuqasi bilan o'z xonasiga kirganini ko'rmasa, tomog'idan qil ham o'tmasdi. "Tavba, Dilfiroz nima uchun bu kecha Yashar bilan birgamas? Qiziq, Oqxotin bilan Sulaymon ustaning orasi nimaga buzildiykin? Jimjiloqdek Serfiroz nega Ma'sudga ko'ngil qo'ydi? Men bu juftlikka qarshiman. Nima qilsak ekan-a..." — derdi u o'ziga-o'zi va bunday o'ylar uning uyqusini buzardi. Tuni bilan mijja qoqmasdan u yon-bu yoniga ag'anab chiqardi. Yonidagi xotini asabiylashib jahl aralash:

— Namuncha kuyinmasangiz, undan ko'ra menga ham jindek e'tibor bering, — derdi.

Ammo Husaynbek Qushboz ko'ngil ishlarining barini qushlarga berishni ma'qul ko'rardi.

Hatto qushlari guv etib birdan uchgan paytlarda sevinchi ichiga sig'may hovli o'rtasida gir aylanib qo'lidagi uzun qamish bilan soatlab osmonga qarar, og'zini ochgancha qushlarni tomosha qilardi.

1935-yilning aprel oylarida tushlikdan sal o'tib yon-atrofdagi butun qishloqlarda ro'y berganidek uning tomorqasiga ham bir gala dushman askarlari bostirib kirdi. U paytda Husaynbek hovli o'rtasida o'z ishlari bilan band edi. To'satdan atrofida odamlarning yugurayotganini, ichkarida xotin, bola-chaqasining shosha-pisha gaplashayotganini ko'rdi, uy tomonga qaytib ne ko'z bilan ko'rsinki, lang ochiq hovli eshigidan ichkari tomon karvonsaroyga tushgan horg'in va sokin yo'lovchilar to'dasi qiyofasida birlari otliq, boshqalari esa yayov bir guruh dushman askari kirib kelayotgandi!.. Husaynbek Qushboz umrida ilk marotaba qushlari uchayotganda boshini yerga qaratdi: yuzi sarg'aygancha ular tomonga yurdi, o'zicha tomorqa xo'jayini kabi o'shqirib:

— Nima gap? Nima xohlaysizlar o'zi? — dedi.

Ulardan biri miyig'ida kulib javob berdi:

— Salom, begim, bizlar begonalar emasmiz, — Husaynbek bu gaplarni gapirayotib ko'rishish uchun qo'l cho'zayotgan dushman leytenantini tanishga harakat qildi, ammo uni yaxshi eslolmadi.

Leytenant yoqimsiz ohangda so'radi:

— Meni tanimadingizmi? Ispironi-ya? Ispiro, Ispiro?

Husaynbek birdaniga:

— Ha-ha, esladim, — dedi.

Bu odam besh yil oldin Husaynbekning yonida olti oy chamasi xizmatkorlik qilgandi: qo'llari uzun, pishiqqina yigit edi. Ketayotib surbetlarcha qo'lini qariyaning yelkasiga qo'ydi va qulog'iga shivirladi:

— Biz shu yerda bir necha kun tunaymiz. Zobitlarni qishloq uylariga joylashtirish yaxshi emas, ularga biroz hurmat-ehtirom ko'rsatish kerak...

Arosatda qolgan Husaynbek hayron qolib:

— Mayli, marhamat qilsinlar, — dedi.

Dushmanlar qariyaning iltifotini eshitib yoniga kelishdi: kulishib, gap otishib atrofini o'rab olishdi va osmonda uchayotgan kaptarlarini nishonga olmoqchi bo'lishdi. Husaynbek esa qo'lidagi qamishni asabiy bir holda tebratar ekan, yarim gina, yarim tahdid aralash ovozda:

— Yo'o'q, — dedi. — Kaptarlarimga tegmang!..

U gapini tugatar-tugatmas shundoqqina yonginasidan miltiq ovozi eshitildi. Husaynbek yuragi yorilgan odamdek birinchi o'qni otgan zobit qo'lidan ushladi:

— Nima qilyapsan? O'zingni bos! — deya baqirdi. Ammo bu paytda yana boshqa zobit miltig'ini osmonga o'qtaldi: qulog'i ostida birinchi, ikkinchi marotaba ham o'q ovozi eshitildi: osmondagi qushlardan bittasi sekin-sekin pastlay boshladi va uchayotgan qushlar to'dasida katta parishonxotirlik yuzaga keldi. Husaynbekning qo'lidagi qamish novdasi yerga tushdi, vujudini titroq bosdi, yuzining rangi xuddi soqolidek oqara boshladi. Ispiro uning yoniga kelib:

— Ularni o'z holiga qo'ysang-chi, tegma! — dedi.

— Tegmaymi? Sen o'rgatdingmi hali bularga? Ularni bu fikridan qaytar, Xudo haqqi, keyin yomon bo'ladi.

— Yomon bo'ladi? Qanday qilib? Hoy, o'zingga kel, oshpaz, u kunlaring o'tib ketdi.

U kechagi jo'jaxo'rozning yuziga tupurgandek o'shqirib haqoratlayotganini eshitmadi, hatto his ham qilmadi. Hozir butun vujudi birin-ketin osmonga otilayotgan o'qlardan aylanib-aylanib, asta-sekin yirik qor parchalari holida yerga tushayotgan kaptarlar bilan ovora edi. U ilojsiz yolvora boshladi.

— Iltimos qilaman, bo'ldi, bas qiling, iltimos! — derdi. — Nima xohlasanglar berayin... Bularni na yeya olasiz, na icha olasiz, gunohga botmanglar, gunohga.

Ular:

— Shu gunohmi? Sizning diningizda shundaymi? — deya javob berardilar, Ispiro esa surbetlarcha kulgani-kulgan edi. Nishonga olayotgan zobitlardan bittasi orqasiga qaytdi: o'z tilida bir narsalar deya baqirdi, darhol qush ovi bilan mashg'ul bo'layotgan zobitlardan bir qanchasi tinmay yerga qulayotgan qushlarni to'plashga shaylandilar. Ba'zi qushlar hovliga, ba'zilari esa tomorqa ustiga, ayrimlari chekkaroqdagi ko'l bo'yiga, boshqalari polizga, xiyla uzoqdagi dalalarga duv-duv tusha boshladi. Oppoq kaptar yomg'iri ostida xuddi to'polonchi bolaning quvonchi ichiga sig'mayotgandek dushman askarlarining birlari qarsak chalar, hayqirar, boshqa birlari esa yer depsinardi.

Bechora Husaynbek hushini yo'qotdi, turgan joyida toshdek qotib qoldi. Tili kalimaga kelmay, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib bu vahshiyona ovni tomosha qilardi. Ispiro unga yaqinlashib dedi:

— Nimaga buncha g'amga botasan? Birpas jim tur, biroz ko'ngilxushlik qilishsin, aysh qilishsin. Necha kundan beri jang qilyapmiz. Yarim tunda qushlar ovidan ham a'loroq aysh bormikan? Hammamiz birgamiz.

Husaynbek bir narsalar demoqchi bo'ldi, lekin tili kalimaga kelmadi: yutindi, xolos. Hozir uning ko'zyoshlari tinib, yuzida dahshatli ma'nosizlik alomati qotib qolgandi.

Oq kaptarlarni ustma-ust dastalab hovli o'rtasiga to'play boshlashdi. Osmondagi qolgan qushlar ham behush bo'lishdi. Ovchilarga qandaydir kasal tegdi: ular orasidan birisi mazax qilgancha Husaynbekka yaqinlashdi, turk tilini buzib:

— Qalay, yaxshi mergan ekanmizmi? — deyishni xohladi.

Qariya savollarga javob bermasdan, osmonga, bir nuqtaga tikilgancha qotib qolgandi. Nima sababdandir ko'zlarini yerga qadadi va hovli o'rtasidagi oppoq uyumga yaqinlashdi, egildi: ko'z oldida oltmish-yetmishtacha kaptar yotardi, ularni birma-bir qanotlaridan, boshlaridan ushlab hovuchiga oldi, birining tumshug'idan o'par, yana birining patlarini silab-siypalardi. Zobitlar bilan gaplashgan Ispiro o'sha surbetona kulgi bilan qariyaga uzoqdan baqirdi:

— Ularni ichkariga kiritinglar, qovurishsin.

Husaynbek Qushboz o'tirgan joyidan jilmadi, quloqlari hech narsa eshitmasdan qonga bo'yalgan o'lik qushlarini silab yuzko'ziga surishda davom etdi.

Dushman askarlaridan biri Ispiroga qariyani ko'rsatib, "Jinnimi bu?" ma'nosida imo-ishora qildi. Ispiro hovli chekkasida turib baqirdi:

— Bo'ldi, bas qil, yetar... ey, senga gapiryapman, karmisan, nima balo, kaptarlarni ichkariga olib kir.

Husaynbek Qushboz yana miq etmadi, boshini ham ko'tarmadi. Shu payt zobitlar bilan birga eski tomorqa xizmatkori kaptar katagining bosh tomonida cho'kkalagan odamga yaqinlashdi: biri yelkasidan silkitdi, boshqasi esa soqolidan tortdi. Bir qancha zobitlar uning qarshisiga cho'kkalashdi. Ammo cho'kkalaganlar ham, turganlar ham bir xil holatga tushdi. Ular birdan qo'rqib ortga chekinishdi va zobit Ispiroga qilgan imo-ishorasini bir-birlariga qayta takrorlashdi. Haqiqatan ham qariyaning chehrasida ajoyib bir holat muhrlangandi. Ko'zlarida qandaydir uchqun bor edi, qarashlari esa miltiq nayzasining uchidek o'tkir, tig'li edi. Oppoq pokiza soqoli esa kaptarlarning yuziga surgan qoni bilan bo'yalgandi: xuddi yuziga turk bayrog'ining bir parchasi o'rab qo'yilgandek.

TAQDIR

"Modomiki, siz talab etar ekansiz, aytib berganim bo'lsin. Aytib beradigan narsaning o'zi ham qolgani yo'q-ku... Oradan shuncha yil, shuncha zamonlar o'tib ketdi. O'lganlar o'ldi, qolganlar yo g'oyib bo'ldi, yoki ko'chib ketdi. Suvlar tindi, do'nglar tekislandi. Endi, o'tgan kunlarni taftish etib ko'raylik. Uddasidan chiqa olasanmi? E qo'y-ye... Yonib bitgan xirmondan ushr olinmaydi...

To shaharchaning yoniga yetgunimcha ham o'q tovushini payqamadim. Bu voqea xuddi kecha kuni bo'lib o'tganday xotiramda. Bir kun ertalab cho'pon kelib: "Og'o, dushman to'rt qo'yni olib ketdi", dedi. "Menga qara, dushman qanday qilib qo'ylarni olib ketadi?" "Qaydan bilay, yelkalarida miltiq, boshlarida shapka, tepa orqasidan chiqib keldilar. "Qorabosh" ham hech narsa qila olmadi, bir o'q bilan saranjom bo'ldi".

Aqlga to'g'ri kelmaydigan ish. Xudoga shukur, to'rt qo'ydan yoki qirq qo'ydan ajraganim bilan yiqilib qoladigan odam emasman. Shunga o'xshash oltita cho'ponim bor edi. To'rt juft sopqon va bir necha yuz zaytun daraxtiga ega edim. Lekin bu ish zardamni qaynatdi; cho'ponni tevarak-atrofdagi qishloqlarga yubordim.

O'tirgan odamlarning hammasi shu ish haqida gaplashar edi. Gaplashardilar-u, lekin mendan yordam kutardilar. Boshimizga tushgan ekan, otlaninglar, bu kecha yo'lga chiqamiz, dedim.

Uyda shovqin-suron ko'tarishdi. Xotinim bilan qizim o'rin-ko'rpalarini yig'ishtirayotib, ho'ng-ho'ng yig'lashardi. "Ey, chuvur-chuvuringni qo'yib tezroq manavi ko'rpa-to'shaklarni bog'salaring-chi". Qani endi shunday qila qolishsa. Bir iloj qilib ularni yaylov tarafdan Chuqurpinarga jo'natdik. Uyning eshiklarini tambalab qo'ydik. Masjidi jome oldiga elliktacha otliq to'plandi. Oqshom cho'kishi bilan Nallidara tomonga yo'l oldik. Bundan ilgariroq yigitlar politsiya idoralariga telefon qilishgandi. Ba'zilari har yoqqa odam jo'natdilar. Kechasi bilan atrofdagi

shaharlarni aylandik. Har joyda bizga yigirma, o'ttiz, ellik otliq qo'shilar edi. Tongga yaqin Kula tarafidagi Qoyabeli degan joyga yetib bordik. To'p sadolari xuddi orqamizdan quvlab kelayotganga o'xshardi. Dengizli viloyatining hokimi Foyiqbeydan qo'shni politsiya idorasidan bir odam yubordik, degan xabar keldi. Hokim "hech qanday tadbir ko'rishmasin, o'zboshimchalik qilishmay, farmonimni kutishsin", debdi. Ey Xudo-yey, yana farmon kutib o'tirishning nima zarurati bor ekan?

Vaqt o'tgan, g'animat fursat qo'ldan ketgan, choramiz yo'q edi. Qopchiqlarimizni yechdik. Kuladan qozon, cho'michlar olib keldik. U joylarda uch kecha-yu uch kunduz kezdik. Atrofdan ko'rsatma kelishini kutardik. Ma'lum bo'lishicha, eng yaqin qarorgoh yetti-sakkiz soatlik yerda ekan. Tavba, Tulkilikdan pastga tomon cho'zilib ketgan dovonni hech bo'lmasa bir haftagina saqlab turinglar, biz yordamga yetib boramiz deyishibdi. Bir hafta emas, roppa-rosa o'n yetti kun saqladik. Qolbelining tubiga yashirinib olganimiz uchun snaryadlar tepamizdan uchib o'tib, orqaga tushardi. Biz ham betinim o'q uzib turdik. To'ng'izlarni nafas rostlashga qo'ymadik...

O'n yettinchi kuni ko'katlar ustiga cho'zildik. Yigitlarimizning ba'zilari ovqat pishirar, ba'zilari esa miltiqlarni tozalardi. Qarasak, bir mulozim kelib qoldi.

"Yigitlar, qani, ko'raylik-chi, nima xabar bor ekan?" dedim.

"Afandim, qo'mondon salom aytdi" keyin: "Uzoq bardosh berishdi, rahmat, lekin chap qanotimizdagilar bugun so'nggi g'ayratlarini sarf etishdi, katta talafot berishdi. Mushkul ahvolga tushib qolmasligimiz uchun bugun kechasi Eshme tepaligiga tomon chekinasizlar. U yerdagi politsiya idorasida telefon yoniga bir odam qo'yishsin" dedi. Balki tong otarga yaqin boshqa biror farmon bo'lib qolar.

Farmonlari bosh ustiga. Yigitlardan ikkitasini ajratdim-da, o'z qishlog'imga jo'natayotib, ularga dedim:

"Agar xotinim uyda bo'lsa, aytinglar, hamma mol-mulkimni sotib, pulni sizga bersin. Pul zarur bo'lib qoldi, denglar. Bir haftadan so'ng bizni topib, pulni qo'limga sanab berasizlar. Qani, ko'raylik, qo'llaringizdan qanday ish kelarkin".

Ularning ketidan bizlar ham kapalarni yig'ishtirib yo'lga chiqdik. O'qlarimiz kamayib qolgan edi. Eshmay, Ushoq va Simav degan joylarga odam yubordik. O'q yuboring, deb telefon qildik.

Hech tomondan sado chiqmadi. Bir kuni chamasi yarim kecha edi, eng oldingi safda turgan navbatchi kelib yelkamga turtdi. Nima balo, dushman bosib keldimi deb sapchib o'rnimdan turdim. Kelgan navbatchi:

"Qo'rqma, og'o, hech gap yo'q, bog'lardagi daraxtlar orasida allaqanday narsalar harakat qilayotganga o'xshaydi. Shuni xabar qilib qo'yay degan edim", dedi.

Darhol hamrohlarimiz oldiga yugurdik. O'n daqiqa mobaynida hammamiz oyoqqa turdik. E... u kunlarda ikki yuz ellik nafardan ortiq edik. Bog'lardagi daraxt to'nkalari sizlarga boshpana bo'larmikin, bizgami, bir ko'raylik dedik. Haromilar bizlarni xuddi qo'y galasi singari qirib tashlamoqchi bo'lishibdi...

Ey yigit, ertalabgacha bog'dagi har bir daraxt tagida shu qadar olishuv, ur-sur, shu qadar zo'r hayot-mamot kurashi bo'ldiki, aytib berishga tilim ojizlik qiladi. Tong yorisha boshlaganda kapalarimizga qaytdik. Bizning kishilar tanib bo'lmaydigan holda edilar. Ular orasida yuzlari qon va tuproqqa belanganlar, quloqlari kesilganlar, barmoqlari xuddi ipga o'xshab osilib qolganlar, qovurg'alari ezilganlar, qorinlaridan o'q yeb kelganlar bor edi. Rosa kulishdik. Oramizda bir Murod tentak degan bor edi. Uning afti-basharasi shu qadar dabdala bo'lib ketgan ediki, agar ismini aytmasa, o'z xotini ham taniy olmasdi. Yuqori labi yorilib, ikkiga ayrilib ketgan, undan xuddi jo'mrakdan oqqanday qon oqardi. Ko'zlarining ichiga chang-to'zon to'lib ketibdi. U oyoqda turolmas, xuddi o'q yeganday chayqalib yiqilardi. Nima bo'ldi, deyishga ulgurmadik, og'zidan pishqirib qon oqdi. Saldan keyin jon berdi. Hoy keksa tentak, hoy... dedik. Go'ring to'la nur bo'lsin.

Bizning xotin juda g'alati edi. U hamma narsani pala-partish sotibdi. Shaharchada qolgan muttahamlar hiyla-nayrang qilib, hamma mollarni arzon-garovga sotib olishibdi. Yigitlarimiz ikki xurjun pul olib kelishdi. Bizni uzoq vaqt axtarib, daraxtlar tagida yumalab yotgan murdalarni ko'rishlari bilan bu ishni bizning

kishilar qilgan deb erkin nafas olishibdi. Biz biroz yengil tortdik. Atrofdagi qishloqlardan oziq-ovqat olib keldik. Yo'qsa, bizni ochlikdan o'ldirmoqchi edi to'ng'izlar...

U yerlarda ikki oycha kutdim. O'q-dori ham kela boshladi. Quyi yaylovining naryog'ida Usmon afandining guruhi, Alvon tomonlarda Bekirbeyning guruhi harakat qilardi. Ular bilan mustahkam aloqada edik. Hatto, dovyurak Usmon bir maktub yozib bizdan pul ham so'ragan edi.

Xurjunning birini yarimlatdik, qolgan yarmini unga yubordik. U juda shijoatli, bahodir yigit edi. Oradan bir hafta o'tmay, ko'l ostidagi yigitlarining yarmidan ortiqrog'i bilan birga shahid bo'lganini eshitdik. Juda achindik, nihoyatda g'azablandik, o'sha kundan keyin miltig'imizga tinim bermadik... Mol achchig'i, jon achchig'i.

O'lishimizdan emas, balki yer-suv qo'ldan ketishdan qo'rqardik. E, otaxonim, otaxonim... Bir kun tong otar chog'ida haromining o'g'illari xuddi momaqaldiroqday shiddat bilan hujumga o'tdi. O'zingni himoya qila olsang qil, xonasallotlar yashiringan yerimizni payqab qolishibdi, to'plarni orqaga surib, tepa yon bag'riga o'rnatishdi... Bunday qarasak, chang-to'zon ko'tarib, ustimizga bostirib kelishyapti. Yigitlar bir yerga jam bo'linglar deb baqirdim. Kapalarni tashlab, chet-chetdan pusib o'tib, Alvonlar tomonga tomon chekindik. Lekin mug'ambir haromilar biz tekis yerga chiqqanimizni ko'rar-ko'rmas, qurollarini o'sha tomonga o'girdi. Yigitlarimizning yarmi halok bo'ldi.

Bekirbeyning guruhi o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoldi. U: "Qo'ymang, sherlar, qo'ymang, arslonlar!" deb hayqirib yurardi. O'sha kuni kechqurun Bekirbey guruhiga qo'shilishga qaror qildik. Bakirbey kelib otryadga boshchilik qilishni menga topshirdi.

— Menga qara, Bakir, sen mendan ko'ra aqlliroqsan, bunday qilmagin, — dedim.

— Yo'q, og'o, sening qo'l ostingda xizmat qilishni sharaflarning sharafi, deb bilaman, — dedi u. — Senga buyruq berishga haddim sig'maydi...

Keksa Qoplon... Sen nega o'lding-a? O'ladigan odam emasding-ku...

Ana shunday qilib biz o'z vazifamizni ado etdik. Tumshug'imizning tagigacha keldilar. Ba'zi-ba'zida bir hamlada bir necha yuztasini yer tishlatardik, ammo ilojimiz qancha... Sabr qilish kerak dedilar, Sabr, sabr... Tishimizni tishimizga qo'ydik. Keyin boplab ta'zirini berdik.

Sen bizning hozirgi holimizga boqma... Xonumonimizni axtarib yo'lga chiqqanimizda belimiz bukilib qolgan edi. Shaharchada bir narsani axtarib topish qiyin... Bola-chaqalarni uzoq vaqt axtardik. Nihoyat, qabrlarini bo'lmasa ham, izlarini topdik. Sho'rlik xotinim uch bola bilan birga Oydin tarafiga ketayotgan bir karvonga qo'shilib yayov jo'nabdi. Tog'larda tunab yo'l yuribdilar. Nazilli degan joyning bundayrog'ida bir chuqurlik bor. Bizga yo'l ko'rsatib borayotgan yigit haligi chuqurlikni ko'rsatib, "ana shu joyga ko'milganlar" dedi. Xudoning irodasi shu ekan... Qo'limizdan nima kelardi, yurt xalos bo'ldi-ku, dedik. Izmirga borib turib qoldik.

...Dastlabki kunlarda tirikchilik tashvishini chekmadik. "Ha", "hu" deguncha ovqat topish tashvishi boshga tushdi. Biror ish berishar deb umid qilaylik desak savodimiz yo'q. Bo'yin bukib pul so'rashga or qildik. Unday, bunday ishlarni ko'rsatishdi, eplay olmadik, chunki qilich tutaverib, qo'llarimiz qadoq bo'lib ketgan. Nimaga qo'l ursak, tushib sinadi.

Yigit, bu ishning oqibati nima bo'ldi deysanmi? Bizning azamatlardan biri yo'lini topib, savdo ishiga kirishgan ekan. Limanda barjalar ishlatar ekan. O'sha yerga xizmatga kirdim, xizmatga kirdim-u, lekin uyalganimdan ishlay olmas, bosh ko'tarib yurolmasdim. O'rganmaganim uchun bo'lsa kerak, ishni eplay olmasdim. "Bir necha kundan so'ng menga ruxsat ber, o'g'lim, Anqaradan xabar keldi, chaqirishibdi", dedim.

Xurjunni orqalab yo'lga tushganimda orqamdan kulganlar ham bo'ldi. Karvonsaroyda turganim uchun pulni Xudo xayringni bergur barjachi to'ladi. Balki uning ustidan kulishayotgandir, deb o'yladim. Orqamga qayrilib qaramay ketaverdim. Qaydasan Menemen deb yo'lga tushdim. Menemenda tekin non berisharkanmi? Osh berisharkanmi? Tekin karvonsaroylar ochilibdimi?..

Yo‘-o‘-o‘q. Manisa, Solihli, bizning bog‘lar bilan o‘ralgan Kula, zumrad rang Eshme; yoqimli Alvonlarni borib ziyorat qildim... Tuproqdagi qonimiz quriganmikan deb xabar oldik. Tog‘-toshlar kulardi. Har kim o‘z kayf-safosi, o‘z ishi bilan mashg‘ul. Olashahardagi choyxonada o‘tgan yo‘llarimni eslab o‘tirganimda bir kishi “Xush kelibsiz, og‘o” dedi. Boshimni ko‘tarib qarasam, o‘zimizning Hasanboy ekan. “Ha, bu yerda nima qilib yuribsan?” deb so‘radim. “Men shu yerga ko‘chib kelganman, og‘o, ishim yirik. Tamaki olib sotyapman” dedi. “Men ham Anqaraga ketyapman. Chaqirishibdi. O‘tib keta turib bir tomosha qilay deb poyezddan tushdim”, dedim... “Qanaqa poyezd? Hozir hech qanday poyezd yo‘q-ku” desa bo‘ladimi? Yengil-boshim bir holatda bo‘lib ketganini ko‘rib, unga-bunga aytibdi. Choyxonaga kelib bizni ziyorat qila boshlashdi...

Shu mahal ko‘mir konida ishlash uchun ishchi axtarib yurgan bir odam paydo bo‘ldi. Seni ishboshi qilamiz, falon qilamiz, pismadon qilamiz deb rosa sayradi. Unga qo‘shildik. Yigirma-o‘ttiz kishi bo‘lib poyezdga mindik. Oh... h... Oyoqlarim biroz dam oladigan bo‘ldi. Oldimizga pishloq bilan non qo‘yishdi. Uch kundan beri och edim, deyishga uyalardim... U, bu deb o‘tirmay rozi bo‘ldik, hammolchilikni bo‘yinga oldik, chunki ishboshilik degani ham hammollik ekan... U kishi bizga poyezd kirasi uchun pul to‘ladi. Xijolat qilib qo‘ymay dedim, ammo keksaygandan keyin qiyin ekan, yoshim bir yerga borib qolgan. Kechasi bostirmaning tagiga o‘zimni tashlab tosh qotib uxlab qolaman. Ertalab tong qorong‘isida yoshlar hazillashib oyog‘imdan sudrashadi... Ularga “qo‘ysalaring-chi” deb bo‘lmaydi. Ichimdan g‘azab qaynab keladi. Lekin shaytonga “hay” bermoq kerak, yurt tinchidi-ku, deb qo‘yaman o‘zimga. Bir kun yarim kechada bo‘xchamni tugib, u yerdan qochdim. Yonimda bir yigit yotardi, meni tog‘a deb atardi. O‘sha yigitni uyg‘otib sen qarab turgin, ul-bulni o‘g‘irlab ketdi deyishmasin, dedim. Ko‘ylak, ishton va jun paypoqdan boshqa hech narsam yo‘q edi. Yigitga sen guvoh bo‘lgin, dedim. U “Xudo oq yo‘l bersin, tog‘a”, dedi...

Yo‘lda hali u, hali bu odam non beradi, millatimiz oqko‘ngil, bor bo‘lsa, ayamaydi. Juda yaxshi, qayerga ketyapsan? — deb

so‘raydi biri. Xudo biladi. Bu nima deganing? Hatto, Xudo ham bilmaydi. U faqat o‘z ishini biladi. U katta ishlar bilan shug‘ullanadi, mayda ishlarni o‘ylamaydi. Men buni demoqchi emasman. Mendan na temir yo‘lda tosh terish qoldi va na podachilik...

Kunlardan bir kuni Sivas shahriga keldim. Gilam fabrikasida ip tashiydigan hammol bo‘lib ishladim. Ishimiz yengillikka yengil, ammo daromadi undan ham yengil. Shahar tashqarisida, fabrikaning yonginasida taxtadan barak qurishgan, sakkiz-o‘n kishi o‘sha barakda yashaymiz. Kech kirdi deguncha ko‘pchilik bo‘lib qaynayotgan kostrulka tepasida o‘tirib olamiz.

Bir kun yuk ko‘tarib keta turib bir narsaga qoqilib, “gurs” etib ag‘darilib tushdim. Turmoqchi bo‘lib qarasam, bo‘lmadi — oyog‘im sinibdi. Bir necha kun boqishdi. Kasalxonada yotdim. Kasalxonadan chiqqanimdan so‘ng qaysi ko‘zim bilan ko‘rayki, o‘rnimga boshqa odam olibdilar. Yangi odam mendan ko‘ra yosh va baquvvatroq ekan. Noiloj yana yo‘lga tushdim. Sivasning hovuzli musofirxonasi yonidagi choyxonaga qo‘ndim. U yerda ba’zan o‘tirib suhbatlashgan oshnalarim bor. Har turli mavzulardan so‘zlashib o‘tirarkanmiz, bu yurtga bir sayyor teatr kelgani haqida gap bo‘ldi. Ko‘chadan yasangan-tusangan xotin-qizlar o‘tishdi, shundan gap ochildi.

Xullasi kalom, bu teatr truppasining boshlig‘i bir necha martaba choyxonaga kelgan edi. Truppa tomosha ko‘rsatish uchun hali ijozat olmagan ekan. Haligi truppa boshlig‘iga qanday munosabat bilandir men to‘g‘rimda gapirib berishibdi. Ikkalamiz uchrashdik. U menga daromadli bir ishni taklif etaman dedi. O‘zimni pardoz-andoz qilgan, yasangan-tusangan xotinlar orasida tasavvur etdim. Biri yuzimni silab, boshqa biri esa quchog‘imda o‘tirib, qiqir-qiqir kulayotganday tuyuldi. A... Juda totli ish bu. Bir-ikki kundan so‘ng ijozat olindi.

Menga nima ham kerak deysiz, hech bir ish qilmagan bo‘lsam ham truppa boshlig‘i har kuni menga ikki lira pul yuboradi. Tomosha qo‘yiladigan kuni kechqurun egnimga yangi bashang kiyimlar kiydirishdi, belimga zarrin kamar bog‘lashdi. Bir mahallarda bizning yurtga ham teatr kelib turardi. U vaqtlar sal-pal esimda. Dastlab mashshoqlar mashq chalishadi. Xotinlar ashula aytishadi.

Keyin parda yopilib, orqada tayyorgarlik ko'rila boshlaydi. Soqol-murti chiqmagan bir bola bor, u lo'ttibozlik qilarmish. Uning oldida bir stol. Hadeb maza-matrasiz gaplar gapiradi... Keyin qiziqchi kampirlarga navbat keladi... Ular ham bir-birovlari bilan askiya aytishadi, kulgili qo'shiqlar kuylashadi.

Birdan parda yopilib yana ochiladi. Bu safar men ko'kalamzorda, oldimda chilim, oyog'imni chalishtirib kayf qilayotgan bo'laman. Tomoshabinlarning qarsaklari zalni ko'kka ko'targuday. Truppaning boshlig'i chiqib ikki bukilib ta'zim qiladi-da, mo'ylovini silaydi. Xonimlar, beylar, sizlarga qahramon partizan falonchi janoblarini taqdim etaman. Bu kishi ozodlik uchun kurashda mana bunday, mana bunday qahramonliklar ko'rsatganlar, bunday qochib, bunday quvganlar, dushmanlarni mana bunday qiyratganlar va hokazo. Hozir u kishi yuksak san'atimizning sharafiga sharaf qo'shmoqdalar. Bu qahramonni sizga tanitish yo'lida hech qanday fidokorlikdan qaytmagan truppamiz, o'zining bu xizmati bilan umrbod faxrlanadi.

Qars-qars-qars (qarsak)... Olqishlar. Men o'rnimdan turib xalqqa takror-takror ta'zim qilaman... Shu qadar gulduros qarsaklar boshlanib ketadiki, asti qo'yaverasiz.

Bir amallab tomoshabinlarning qo'lidan qutuldik. Shu zaylda ishimiz ham bitdi... jo'nadik... Vazifamiz og'ir edi, birodar, og'ir edi. Xotinlar, qizlar bilan hazil-huzul qilish totlilikka totli. Totli-yu, lekin nima uchundir mening ko'nglimga sig'maydi. Ba'zi-ba'zida to'pponcha o'qi eshitilganday bo'lib qo'yadi. Endi davringiz o'tdimi demoqchi bo'lasan-ku, shundaymi? Bilmayman, o'zim ham bilmayman. Bir amallab tirikchiligimizni o'tkazib yuribmiz.

XUDO HAQQI, KILOSI SAKSONGA TUSHDI

Boshqa safar Toshko'prikdan Hafiz og'aning "Bir xalta sigaret" hikoyasini aytib berganimda Navro'z kuni edi, ayoli Hafiza onani qoshiga chaqirdi.

— Onasi Hafiza, — dedi, — o'tgan yilgi Navro'zda va'da qilingan qo'zichoqni bugun olaman!

Hafiza ona qirqdan oshgan, to'lachadan kelgan musulmon ayol bo'lib, ko'rinishdan kaklikdek semizgina edi.

— Jonim Hafiz, Navro'zga atalgan qo'zichoq safsatadan boshqa narsa emas!

— Yo'q, Hafiza, mana ko'rasan, qo'zichoqni bugun, albatta, shu bugun sotib olib kelaman!

Haqiqatan ham, Hafiz og'a ayoliga shunday deb so'z berdi va Toshko'prikning qo'y bozoriga chiqdi; qo'llarini orqasiga qo'ygancha suruvdan suruvga o'tib qo'y-qo'zilarni ko'zdan kechirdi va bittasining narxini so'radi:

— Og'a, qo'zining narxi qancha?

— Olti lira, Hafiz og'a!

— Voy, men eshak sotib olayotganim yo'q-ku! Hozir eshakning narxi olti lira turadi.

— Nimalar deyapsiz, og'a, nimalar? Buni qo'chqor deyishadi, qo'chqor! Ustiga minib anhordan o'tib ko'ring!

— Hoy! Qara, buningning old tarafi qo'zi-ku! Minib bo'larkanmi? Bo'ladigan narxdan gapir, olaman.

Hafiz og'a qo'zichoqqa ishtahasi ochilgan bo'ri kabi, bir tomondan shunday gaplarni gapirar, boshqa tomondan esa qo'zichoqning haqiqiy qiymatini hisoblardi. Olti liraga emas, sakkiz liraga olsa ham arziydi! Shunga qaramasdan, qo'llari orqasida tebranib-tebranib oldga tomon sal yurdi:

— Yonimizdagi pul bunga yetmaydi, — dedi, — ko'p so'rama!

Vaqt allamahal bo'lib qolgandi. Qishloqlik suruvini yig'ishtirib ketishni xohlardi.

— Xo'p, Hafiz og'a, — dedi, — siz qancha bermoqchisiz, gapiring-chi? Sizningcha, molimning hech qadr-qimmati yo'qmi?

— Yonimda uch lira bor, shuni beraman! Kechki bozorda Hafiz tog'aning halol pulini olsang ol. Yo'q, bo'lmaydi desang, yana bahona qidiradigan bo'lsang, boshqa qo'zichoqni olaman!

Gapni cho'zmaylik. Hafiz og'a u dedi, bu dedi, o'n besh kilolik qo'zichoqni to'rt liraga savdo qildi. Bo'ynidan ip bog'lab uyiga olib keldi.

— Onasi Hafiza, eshikni och, eshikni!

Hafiza ona azon obdastasini olishga tayyorgarlik ko'rdi. Bir marta uh tortib:

— Xayriyat, qo'zichoqni olib kelibsiz, og'a, — dedi.

— Albatta, onasi! Sen uni devorning yoniga olib borib tur, men hozir qo'shnilardan beda olib kelaman!

Xo'p, mana, qo'zichoq ham olib kelindi, endi uni so'yish kerak. Hafiz og'a bu haqda hech o'ylab ko'rmagan ekan. Darvoqe, qo'zichoqni kimga so'ydirsa ekan? Eh-a, Ilyosning ko'r Ismoil o'g'lini qaysi kuniga asrab qo'yibdi? Bu bola o'z qo'lida tarbiya topgan. Qo'zichoqqa shundoq pichoq tortsa tamom, olam guliston. Bu fikr unga ma'qul keldi va ularnikiga yo'l oldi. Hafiz og'a Toshko'prikda qo'y so'ydiradigan bo'lsa, pul berishi kerak...

Og'a zudlik bilan o'sha kechaning o'zidayoq ayoli bilan birga Ismoilnikiga xabar jo'natishdi. Ertasiga saharlab qo'lida pichoq bilan yigitcha kirib keldi, qo'zichoq qoni bog' burchagiga oqizildi. Bu ish bir zumda amalga oshdi.

Hafiz og'a go'shtning qanchalik arzon tushganini o'ylab kayfi chog' edi. Endi Hafiza onaga ham bir e'tibor beraylik:

— Og'a, Ismoil qo'zichoqni so'ydi!

— So'ydi! Xuddi shamoldek chaqqon ekan.

— Yigitchani quruq qaytarsak, uyat bo'ladi!

— Nima demoqchisiz, Hafiza ona? Ilyosning o'g'liga pul beramizmi?

— Og'a, pul bermasak ham, aqalli, kechki ovqatga olib qolaylik. Ismoil ham siz bilan ovqatlansin!

— Onasi Hafiza, go'shtning kilosi qirqdan oshganida, bu gapingga rozi bo'lgan bo'lardim.

— Voy, bu ishingiz yaxshi emas, ayb sanashadi, Hafiz og'a. Qo'ni-qo'shniga go'sht tarqatmasak ham, Ismoilni shunday quruq qo'l bilan jo'nata olmaymiz.

Hafiz og'a o'tirib o'ylab qoldi. Ismoil ovqat yeydigan bo'lsa, go'shtning kilosi qanchaga tushadi? U Hafiza onaning qistashiga qarab o'tirmasdan:

— Ismoil, — dedi, — kel, o'g'lim Ismoil. Qo'llaringni yuvib, yuqoriga chiq!

Hafiz og'a Ismoildan oldin yuqoriga, dasturxon tomonga otilib chiqdi. Taomlardan nima bor-u, nima yo'q — shularni ko'rmoqchi! U xonaga kirar-kirmas taom solingan la'lidan biroz nariga qo'yilgan bir patnis o'ramaga ko'zi tushdi. Patnisda qo'zichoqning buyragidan pishirilgan sho'rva ham bor edi. Sho'rvani olib, shirinlikni yig'ma divan ostiga yashirib qo'ydi. Shu payt eshik ostonasidan Ismoil ko'rindi.

— O'... marhamat qilsinlar, nima deyishardi-ya; hech tortinma, o'g'lim Ismoil. Bu yer ham sening uying qatori. Sho'rvaning mazasi qanday, og'am?

— Oh... oh... oh...

Hafiz og'a shu gaplarni aytayotib buyrakdan tayyorlangan sho'rvani qoshiqlab ichardi. Ismoil tortinib dasturxonning bir burchagiga omonatgina o'tirdi. Sho'rvaga bir-ikki qoshiq solgandi, shu bilan sho'rva tugadi. Idishlar olindi. Undan keyin barra ziravorning yoqimli hidi taralgan taom dasturxonga tortildi. Hafiz og'a:

— Ovqatdan ol, Alloh yo'liga, — derdi, — go'sht bor joyga dard kelmaydi, o'g'lim.

Hafiz tog'a sho'rvaga qanoat qilmasdan endi buyrakdan tayyorlangan taomga hujum qila boshladi. Shu payt ostonada yopinchiq tashlagan Hafiza ona ko'rindi. Ammo patnis, o'ramali patnis qayerda? Hafiza ona patnisni qidirardi. Hafiz og'a esa Ilyosning ko'r Ismoilining yegan buyraklari bilan go'shtning kilosi qanchaga tushganini hisoblardi. Shu payt Hafiza ona bir qo'lida xaltacha ushlagan holda dedi:

— O‘g‘lim Ismoil! Uyga qaytganingda bu jigarni ham ola ket, onangga olib borasan.

Hafiz og‘aning ichidan qirindi o‘tdi. O‘ziga-o‘zi: “Yaxshiyamki, shu o‘ramali patnisni yashirganim”, — derdi.

Hafiza onaning ko‘zlari bir chapga, bir o‘ngga qarab shirinlikni qidirardi.

— Og‘a, o‘ramali patnis qayerda, ko‘rmadingizmi mabodo?

Hafiz og‘a qosh-ko‘z ishorasi bilan maqsadini tushuntirolmaganidan yig‘ma divanning tagini ko‘rsatishga majbur bo‘lgandi, ammo og‘zidagi loviyani yutmagani uchun tili kalimaga kelmadi.

— Onasi Hafiza, — dedi. — Shuni Alloh yo‘liga sadaqa qil, nima desam ekan, tashqarida go‘shtning kilosi qirq tanga bo‘lsa, Xudo haqqi, bizga sakson tangaga tushyapti.

AYYUBSULTONLIK YO'LOVCHI

U Bog'chaqapining tor ko'chalaridan biriga burildi. Onado'li voyaga yetkazgan pok qalbli kishilardan biri ekanligi aft-angoridan ko'rinib turardi. Kim bilsin, dala shamolimi yoki boshqa narsami, bu bechora qariyani xuddi palaxmon toshi yanglig' qishlog'idan uchirib shu tor ko'chaga otgandi. Uning ustida shalvar, boshida anchagina uniqqan, atrofi esa shol ro'molning jiyagi bilan o'ralgan shlapa, oftobdan kuygan, ajin qoplagan yuzi, yirik gavdasi, dunyo ishlariga diqqat bilan teran nazar solayotgan ko'zlari uning ziyrakligidan dalolat berib turardi. Faqatgina tinmasdan g'izillab o'tayotgan mashinalar, ketma-ket chalinayotgan signallar, otlarni jon holatda savalayotgan qamchilarning ovozi, olamni larzaga soluvchi shovqin-suronlar, g'alayonlar qariyani biroz hayajonga solib, dovdiratayotgandi; oqibatda boshida sanchiq paydo bo'lgandek ko'z oldi qorong'ilashib, yuragini g'ulg'ula, qo'rquv kabi tuyg'ular zabt etdi, ich-ichidan bu yerdan tezroq ketishni istadi.

U keng qir-adirlar, tog'-u toshlar bag'rida, sokinlik qo'ynida ulg'aygandi, hozir esa Ayyubsultonga borishni ko'zlab ketayotgan bu odamovining yonidan har daqiqada minglarcha odamlar yugurib o'tar, mashinalar g'izillar, tramvaylar ham qaylargadir shoshar, ovozi quloqni qomatga keltirardi. U bu yerlarga qanday kelib qolganini anglolmay atrofiga alangladi, buzilgan eski devor o'rnida turgan taxtalardagi e'lonlarga e'tibor qaratdi. Bir reklamada inson boshi sariq rang ustida og'zini lang ochgancha kulib turar, uning yonida, qizil zamin ustida yashilga bo'yalgan bir to'da odamlar samoda qanot qoqayotgan oppoq qushga anqayib turishardi. Qariya ushbu tasvirga xayolga cho'mgancha razm solib turganida ko'chadan o'tayotgan mashina turtib yuborishiga bir bahya qoldi.

— Hoy oqsoqol, yo'l ber!

Yo'lda ketayotgan odamlar unga kelib turtilar, uni itarishar; u esa xayolini yig'olmay chayqalgancha yo'lida davom etardi.

Yonidagi do'kon derazasidan bosh tomoni yerga qaratilib ketma-ket qo'yilgan hassalar, bir joyga uyilgan paypoqlar, yaltiroq qog'ozlarga o'ralgan ro'molchalar, bir qator qilib terilgan bo'yinbog'lar ko'rinib turardi.

— Yo'l bersangiz-chi, otaxon, — deyishdi yo'lovchilar.

Orqasiga tisarilib ularga qo'rqa-pisa yo'l berdi. Do'kondan chiqayotgan xaridor uning orqasidan itarib:

— Yo'l bering, o'tib ketaylik, — dedi.

Boshidan kechirayotgan har bir daqiqa unga azob berayotgandek battar hayajonga tushar, asabi o'ynab, bu joylarni tezroq tark etishni chin dildan xohlardi. Shu sababli qariya olg'a qadam tashlashga intildi, ammo shu payt ro'parasidan kelayotgan sigaret-furushning shisha qutichasi ustiga yiqilib tushishiga sal qoldi. Bir qadam orqaga tisarildi, orqada esa mayin shabada esib turgan yashil eshik yonida, katta temir panjara bilan o'ralgan maqbara ichida yashil sag'ana bor edi. U eshik oldida yangi uzilgan mevalarni sotib turgan kishiga zimdan razm soldi.

Sotuvchining yonib turgan ko'zlari musofirga tikildi. Bitta tuproqdan, bitta qondan yaralgan bu ikkala sofdil odam tevarak-atrofni qurshagan olomondan yiroqda va bir-biriga yaqin holatda ekanligini payqab yaqinlashdilar.

— Birodar, qabrda yotgan zotning kimligini bilasizmi?

— Ha, bu zot — Arpachi hazratlari.

Arpachi hazratlari avliyolar zotidan edi. Qariya joyida turib qo'llarini samoga ko'tardi va avliyolar ruhiga tilovat qildi.

Keyin u sotuvchining yoniga yaqinlashib so'radi.

— Bular nima?

— Banan, birodar, buni nima niyat qilib yesang, tilaging albatta ijobat bo'ladi deyishadi.

— Shirinmi?.. Birodar, Ayyubsulton paroxodiga qanday borsa bo'ladi?

Sotuvchi unga tushuntirdi.

Bir lahzalik sokinlikdan so'ng qariya yana shovqin-suron ichiga sho'ng'idi. Uning ko'zlari g'ala-g'ovur orasida faqat qandolat

do‘konidagi qaymoqlari ko‘zga tashlanib turgan pahlavalarni, o‘ramalar-u do‘ner kaboblarni ko‘rar, go‘yo shirinliklar unga qarab kulayotgandek, kel, menga qara, kel, menga qaragin deyayotgandek tuyulardi.

Quloqni qomatga keltiruvchi g‘ala-g‘ovur, ko‘zni qamashtirib, ishtahani karnay qilgan yeguliklar oralab yura olmas, odamlar itarishar, turtishardi. Bechora qariya yeguliklarga ko‘z tashlab sudralar, qulog‘i bilan eshitar, muvozanatini saqlashga urinib u yoqdan bu yoqqa tebranib borar va shaxdam qadam tashlashga harakat qilib olg‘a intilardi.

U duch kelgan do‘kon panasiga o‘tib, sarrofning derazasi oldida to‘xtadi. U yerda lov-lov yonib ko‘zni qamashtirayotgan oltin-kumushlarga tikilib-tikilib qarądi, so‘ngra beriroqda sotilayotgan o‘yinchoqlarga, hamyonlarga, yon daftarchalarga e’tibor qaratdi. O‘zi anglab yetolmayotgan minglab mayda-chuydalardan ko‘z uzolmasdi.

Yoniga kimdir tiqildi.

— Paroxod kerakmi? Samsun, Trabzon, Bartin, Sinopga, Oq dengizga, Qora dengizga...

Bu odam to‘xtamay sanayotgan joy nomlari qariyaga o‘z vatanini eslatdi. Qo‘llarini shalvarining cho‘ntagiga, ko‘zlarini esa qarshisida turgan kabobpazning oshxonasiga qadaganicha vatanini o‘yladi. Chuqur xo‘rsinish yuragini ezdi. G‘urbatda yashagan insonga vatan qanday totli... Biroz o‘yga toldi: ajab, vatanimga keta olarmikanman?..

— Vatashdosh, Afyonqarahisorga ham boradimi? U yerdan qishloqqa yayov yetib olardim.

Unga gapirgan odam hayratlandi. Ketarmikan, ajabo?

O‘tirganlar unga qarab kulishdi. U yerda do‘kon derazasi ichida yasan-tusan qilib o‘ziga oro bergan ayollar, erkaklar, yosh bolalar turardi. Ularga tikilib-tikilib qaradi, faqat vaqt yo‘q. Orqadan chopib kelayotganlar qoqilar, itarar, o‘tib ketardilar.

— Qariya, yo‘l ber!

— Shunday turib turing, birodar!

Bir tomondan mashina “yo‘l ber”; to‘g‘ridan kelayotgan aravakash jilovini tortib “oqsoqol, oqsoqol” deya baqirar; tramvay esa jiringlab “yo‘ldan qoch”, “yo‘l ber” derdi.

U mashinadan o'zini zo'rg'a himoya qilib, to'g'riga o'tdi, gazeta sotayotganlar oldiga kelib ulardan so'ramoqchi bo'ldi.

— Ayyubsultonga...

— Qariya, yo ket, yo tur!

Yerda yo'lak toshlari parchalanib yotar, toshlar olinib, temirlar tashlangandi. Bir tomonga uyum qilib qo'yilgandi. Bular orasidan otsiz bir arava titragan holatda lopillab ketardi. Qariya horg'in ko'zlari bilan ularga qaradi va burchakda tamaki sotayotgan kishidan so'radi:

— Ayyubsulton paroxodiga...

Yelka tomonidan bitta qo'l pul berar, yon tarafdan "tilmoch" degan ovoz qulog'iga chalinardi. So'rashga ulgurdi. Bitta qariya unga shahodat barmog'i bilan ko'prik boshi tomonni ko'rsatdi:

— Otaxon, yo'l bering, yo'ldan qoching.

Musofir qariyaning oyog'i temirga urilib yiqilib tushishiga sal qoldi. Kichkina chuqurchalarda to'plangan suvlarni bosib, atrofga loy-u balchiq sachratdi...

— Ko'zingga qarab yur, boboy!

Loy-u balchiq, toshlar orasida dumalayozgan qariya odamlarga turtila-surtila dovdirab borar, holdan toyib, gazeta sotayotgan bolalarga urila-urila ko'prik oldiga keldi; endi o'tishi aniq, Ayyubsulton paroxodini albatta shu yerdan topadi.

To'satdan ko'kragidan itarib yuborishdi.

— Pul, pul, — deyishdi.

— Nimaning puli?

— Ko'prikning puli.

U tushunmasdan atrofiga alangladi, kimdir unga tushuntirishini xohlardi. U duch kelgan odamdan so'rashga chog'landi:

— Hamyurt, mendan pul talab qilishyapti! — demoqchi edi u.

— Qani, o'ylab o'tirmasdan pulni cho'z, qara, hamma pul berib o'tyapti, — deyishdi unga.

To'g'ri, hamma pul berib o'tayotgandi.

— Nega pul? Men qashshoq bir odam bo'lsam, — dedi u.

Bechora qariya hamyonini qidira boshladi. Nihoyat, topdi. Uning bor puli shu hamyonda edi. Bir-ikkita tanga-yu, besh-o'nta chorak orasida turgan o'ntalikni axtararkan, orqasidan mashina kelayotganini ko'rib qoldi. Bir yo'lovchi mashinaga yo'l beraman

deb bu bechora ayyubsultonlik yo'lovchiga turtilib ketdi. Pullari yerga to'kildi. Hayajonlandi, jahli chiqdi; lekin "hay" deydigan, insofga chaqiradigan odamning o'zi yo'q, hamma bosib o'tib ketardi. Bir soatdan beri tentirayotgan qariya bu ko'cha bergan tajribasi bilan tezda o'zini qo'lga oldi, pullarini yig'di va o'ntalikni berib o'tdi.

Ko'prik ustida odamlardan xoli bir joy qidirib atrofga nazar tashladi. Ko'prikning panjarasiga suyanib hovuchida ushlab turgan pullarini sanadi. Shukr, hammasi...

U o'sha yerda, ikki sol orasida baliq ovlayotganlarni diqqat bilan kuzatayotgan o'zi tengi qariyaga yaqinlashib Ayyubsultonga boradigan paroxodning joyini, borish yo'lini puxta o'rganib, ishonch hosil qilgandan keyin barmog'i bilan baliq bozoridan, Yangi masjiddan, Bog'chakapidan, dengizga chiqadigan joydan, ko'prikdan oqib kelayotgan xalqning to'plangan joyini ko'rsatib so'radi:

— Janob, bu qanday joy?

— Ozodlik maydoni, — deyishdi unga.

U o'z-o'ziga ming'irlaganicha "xayriyat" dedi.

MUSTAFO NEJATI SEPETCHIO'G'LI

BINAFSHALAR O'LMAYDI

Qor parchalari erinchoqlik bilan uchqunlab yog'ardi. Havo yer-u osmon oralig'ida qolgan bo'shliqda tosh qotgan-u, vaqt ayoz nafasida erib bitgan, qor esa qahratonda bo'g'ilib qolmaslik uchungina uyqusirab bo'ralardi. Bu manzara samo-yu zamin uzra kechayotgan esankirash edi, go'yo. Kun botishga shaylanayotgan mahali; shahar simchiroqlarini yoqdi, qahratondan muzlay boshlab, mavhum tunni qarshilashga hozirlik ko'rardi.

Shaharga kelib-ketuvchi odamlar orasida kayfiyati qorga moyil kishi bor edi. Odamlar o'tsa-da, qaytsa-da, bee'tibor, u hammaga beparvo...

O'spirin yoshdagi yigit umr yeldek o'tishini tushunib yetgan edi. Bosayotgan har bir qadami umr falsafasidan saboq berardi. Do'ng peshona, kirtaygan ko'zlari izsiz g'oyib bo'lgan bolakay ko'zlarini eslatardi. Qoshlari ko'zlarini yolg'izlatib qo'ygandek. Bir qarashda qoshlari ko'zlaridan qochayotir, burun va peshona birlashgan nuqtada bir-birini itarishar va, nihoyat, charchagandan tek qotishardi.

Bo'ralayotgan qor parchalari kumush qishning oxirgi qoridir; xuddi tun nihoyalab, ko'm-ko'k bahor zamin uzra otilib chiqadi-yu tabiatni iliq taftida eritadigandek. Tun shaharning diqqinafas havosi-yu qayerlargadir shoshayotgan odamlarning tund qiyofasiga, jindak bo'lsa-da, chiroy baxsh eta olsa, tongni qarshilaganimizda ko'klamga yuz tutadigandek. Tun zulmati-yu bo'ralayotgan qor erinchoqligi ortida umid uchqunlari pinhon yashardi.

Yigit beixtiyor to'xtadi. Nima uchun, nima sababdan, bunisi esa qorong'u. Ko'ngildagi bezovtalik oyoqlarga kishan soldi. U olomon ichida anqayib qoldi. Istar-istamas olomonga tikildi. Noma'lum yo'llarda yo'qolgan ko'zlar naq kosasidan chiqqudek chaqnab ketdi. Bu ko'zlar olomonni ko'z kosasiga kiritmoqchi... Bo'ralayotgan qor, tun zulmati, shahar ko'chalari, simchiroqlar,

uylar... keyin, keyin osmon-u falakni ham o'z ichiga olmoqchi. Ittifoqo, ular sovqotmagan bo'lsa-da, unga fahmi yetsa-da, ularni ko'z tafti bilan isitmoqchi; ularni isitib o'zi ham isinmoqchi edi. Negadir uning ko'zlari bora-bora kichraya boshladi; o'sha ko'zlar oldingidan ham ancha kichraydi. Eski palto cho'ntagidagi qo'llar terga botdi. Terga botgan qo'llar beixtiyor bukildi va mushtga aylandi. Behuzur iliqlik butun tanasiga yoyildi. Yuragi hapriqib ketdi. Yuz qiyofasi o'zgardi, qop-qora tusga kirdi-yu kayfiyati tushib ketdi. Atrofdagi chehralar, umuman notanish ko'zlar, tabassumlar esa tamomila yot. U ko'rgan-tanigan odamlar orasida bunday qiyofalarni hali uchratmagan edi... Ular olamga bunday boqmas, sun'iy tabassum ulashmas, tun yog'dusida shafqatsizlarcha, xudbinona sudralib yurishmasdi. Uning yurtida bir ayol yashardi, u mana bu ayollardek qovoq uyib zulmatga burkanmas, ko'klamdan yiroq, qahraton qish qiyofasida tabassum ulashmasdi.

Yigit butun vujudi-yu qalb-qo'ri bilan olomondan ozod bo'lish ilinjida olis samoga tikildi. Uylar derazasida zulmatga qarshi pushti, och qizil shu'la sochilar, ular go'yo derazadan uzoqlashayotgandek tuyulardi. Ammo o'sha umidni topa olmadi. Zulmat deraza-yu pardalar qa'riga ohistalik bilan singib borardi.

Shu mahal qocha boshladi.

To'satdan to'xtadi va atrofga suqlanib qaradi: odamlar boya qanday bee'tibor bo'lgan bo'lsalar, hozir ham shunday munosabatda edilar. Hatto odamlarga turtinsa-da, qochoqqa beparvolarcha, jahl bilan qarab qo'yishardi-yu, yo'lida davom etishardi.

Qaniydi shahar chekkasidagi uylargacha qochib ketsa. Toki odamlar, uylar, hatto havosi-yu suvi ko'zdan g'oyib bo'lgunicha, tirik daraxtlar, shahar olislarda qolgunicha qochsa... Samo-yu zamin o'rtasida daraxtlar-u tuproqlaridan boshqa narsa ko'rinmagan joylarga borsa... Tun zulmatining beg'ubor shu'lasi ostida ko'nglidagi g'uborni yuvish istagi tug'ildi.

Bu istak yarim yo'lda qoldi.

Olomon nihoyasi ko'rina boshlagan bir paytda qandaydir ovoz uni chalg'itdi. Zaif, titroq va ingichka ovoz. Ovoz ohangida yashirin umid yashardi. U beixtiyor ortga nazar tashladi. Ko'zlar

hayajonlanib ovozni qidirardi. Bir burchakda ovozidek zaif gulchi junjikib, qaltirardi: "Binafsha!.. Binafsharang binafsha!. Uch dastagina qoldi... uch..."

Eti jimirlab butun tanasiga iliqlik yugurdi. Gulchiga yaqinlashdi. Go'yo qor parchalari sepalashdan to'xtagan, boya so'z berganidek, tun nihoyalab, ko'klamga olib kelgan edi.

Shoshib ketayotgan odam birdan to'xtab ortga qaytganini ko'rgan gulchi yirtiq-yamoq paltosini yopishni ham unutib sovuqdan muz qotgan qo'lidagi binafshalarni unga uzatdi. Ovoz unga umid bag'ishlagan bo'lsa, demak, yaxshi yigitga o'xshaydi. "Binafshalarim ko'klamni chorlaydi, janob. Binafsha rangli binafshalarim... Atigi uch dastagina qoldi..."

Yigit unga yaqinlashdi. Gulchi: "Uch dastagina binafsha uyingizni nurga to'ldiradi, janob!" — dedi mag'rur ovozda. — "Bular oddiy gul emas, oftobning o'zginasi... Qarang!.."

Gullarni uzatdi. "Bular samimiylik ramzi, janob. Ayolingizga quvonch ulashadi! Bular bahor hidi..." Gulchi gullarini sotolmaslikdan cho'chir, balki xavotiri to'g'ri edi; gullarni sota olmay bir burchakda shunday kutaversa, kun botib qoladi, degan xavotir butun xayolini chulg'ab olgandi. Odamlar yo'l-yo'lakay, bexosdan binafshalarni so'rab o'tib ketishar, shu bois uning xavotiri to'g'ri edi.

Yigit gulchini bu xavotirdan qutqarayozdi. Uning yuziga nur yog'ildi, ko'zlari quvonchga to'ldi, binafsha yanglig' taft sezildi. "Bularning narxi qancha?"

Bu sas faqat gulchinigina emas, balki erinchoqlik bilan bo'ralayotgan qor parchalarini ham titratib yubordi, hatto toshbag'ir zulmat ham to'lqinlanib ketdi. Nogahon cho'zilgan qo'l gulchining muz qotgan qo'lini isitgandek bo'ldi. Gullarni olmay ketsaya? — degan hadik yuragini dahshatga soldi.

— Besh lira, janob. Uchalasi besh lira. Bahorga besh lira ko'pmi?

Binafshalar yigitning qo'lida turardi.

Gulchi horg'in, umidsiz ohangda:

— Ammo siz qancha bersangiz... kun ham botib qoldi, ko'r-yapsiz. Bular oxirgisi. Qancha bersangiz... — dedi.

Yigit binafshalarni ranjitishdan qo'rqib ohista siladi, gulchi bilan suhbatlashishni xohladi; uzoq suhbat qursin, uzoq-uzoqlarga cho'zilsin bu suhbat; toki gulchi charchagunga qadar, qor to'xtagunga qadar, tun nihoyasiga yetgunga qadar davom etishini istardi. Balki u kelgunigacha. Hozir u olislarda; ishonmagani uchun birga olib kelmagan, o'sha olislarda qolgan ayol... Ammo u gulchining xavotiri-yu hadigini anglab yetganida, xayoli puch ekanligini tushundi; qor tinishi, tunning nihoyalashi, ayolning kelishi bari-bari xayol ekan. Ustiga ustak gulchi ham charchab qolgandek sezildi.

Yigit gulchiga boyadan beri cho'ntagida shitirlayotgan qog'oz pulni uzatdi. Ularning bari o'ntalik lira edi, bor-yo'q puli shu edi. Binafshalarni so'lib qolmasin, ko'z yoshlarini to'kmasin degan hadik bilan sekin ushladi.

Yo'lida davom etdi.

Gulchi: "Janob, — dedi. — Janob, pulingizning qaytimi..."

U allaqachon yo'lning narigi betiga o'tib olgan edi. Hatto ortga qayrilib ham qaramadi. Butun tomirlariga yoqimli iliqlik yugurdi. Yuragi shu yoqimli iliqlikdan bahra olar ekan, ko'ngli yorishib ketdi. Binafshalar hovuchida edi. Yuragiga qo'ydi. Shu onda zamin uzra bitta shu binafshalar bor edi, xolos; olislarda qolgan ayol kabi tikilib, tabassum ulashayotgan binafshalar va o'zi. Olamda boshqa hech narsa yo'q. Vaqt to'xtab qolgan edi.

Ammo uning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. Simchiroq yaqiniga kelganida ularni ko'zlari bilan sevishni xohladi. Cho'chib ketdi; qalbi titrab yubordi. Binafshalar so'lib borar, g'unchalar bosh egardi. Terga botib, qiyofasi o'zgardi.

U telbalarcha gulchi tomonga yugurdi. Yirik, dahshatga tushgan ko'zlar gulchini qidirdi.

Gulchi muyulishda yo'q edi.

Binafshalar o'lib bormoqda. Vaqt qop-qora zulmat ostida yirtqich yolg'izlikka o'xshab dahshatga solardi.

Gulchining yo'lning narigi betida yirtiq-yamoq paltoga yopinib, junjikib ketayotganini ko'rdi. Avtomobil halokati o'limni eslatsa-da, bee'tibor uning orqasidan yugurib ketdi. Gulchiga yetib olganida, u aybdorlarcha: "Lekin men ortingizdan baqirdim, janob", — deya yolvordi. "Pulingizning qaytimi uchun..."

— Men pulimning qaytimini so'rayotganim yo'q. Pul uchun kelmadim. Nima bo'layotganini tushunmayapman, binafshalaringni ol, ular hozir o'lib qoladi...

Gulchi yigitning gapidan va qarashidan qo'rqib, binafshalarni qo'liga oldi. Binafshalar gulchining qo'lida birdaniga jonlanib ketganini ko'rib lol qoldi:

— Aql bovar qilmaydi... O'layozgan edi-ku bular...

Yigit cho'chib turgan gulchining ko'ziga qaramadi ham, huzurlanib nafas oldi:

— Qay tomonga ketyapsiz, ota?

Gulchi dovdirab imo-ishora bilan yo'lni ko'rsatdi. Yigit:

—Men ham boray, — dedi. Sizning yoningizda biroz yursam... Zerikkaningizda ayting; men ortga qaytaman.

U gulchi bilan ketayotib qo'lida jonlanayotgan binafshalarga sevinib tikilardi. Ko'zlarida yosh qotib qolgan edi.

— Bular mening qo'limda o'layozgan edi, sal oldin, — shivirladi u.

Gulchi:

— Senga shunday tuyulgan, janob, — dedi. — Binafshalar hech kimning qo'lida o'lmaydi. Ular hammani yaxshi ko'rishadi, ular bahor gullari...

— Mening qo'limda hamma narsa o'ladi, — ta'kidladi u, — hamma narsa... Shuning uchun...

Jim qoldi. Bo'g'zida nimadir tiqilib qolgandek edi. Sukutda qolishdi.

Keyin so'radi u:

— Uyingiz bormi, ota?

— Bor, bolam... kichkinagina kulba. Noqonuniy qurilgan uy. Ho'o'o'v anavi yerda, tepalikda.

U shahar tashqarisini ko'rsatardi.

— Juda yaxshi, kutganingiz. Kutganingiz bormi?.

Chiroq shu'lasida ketib borishardi. Gulchi ko'm-ko'k ko'zlar bilan unga tikildi.

— Bor, — dedi. — O'g'il ham, qiz ham tashlab ketdi, turmush qurishdi. Ammo biz yolg'iz qoldik. Bugun kech qoldim, onasining ko'zi yo'lda.

Yigitning rangi bo'zardi, vujudi titradi. Birdaniga ortga qaytdi. Rangi quv o'chib aftodahol kayfiyatda ortga qaytdi. "Tushundim", — deya shivirladi. Bo'g'ziga yana nimadir tiqilganday bo'ldi.

— Mening qo'limda binafshalar nega o'lganini endi tushundim...

Gulchi chiroq ostida qoldi.

Yigit qorong'u zulmat qa'riga sho'ng'iyotgan edi.

YULDUZ TO‘ZONI

Yoz oqshomi.

Salqin bir kecha. Yulduzlar xuddi osmondan yerga enayotgandek. Go‘yo qo‘l cho‘zsang yetadi.

Ukam Kenan bilan birga tomda yotardik.

Osmondagi yulduzlarni tomosha qilardik.

Churq yetib, og‘iz ochmasdik.

Tun qushlari o‘qtin-o‘qtin sayrar, ora-sira uzoqlardan itlarning vovullashi eshitilardi.

Kenan shu vaqt:

— Aka! — dedi

— Ha!

— Osmonda har bir odamning o‘z yulduzi bor deyishadi, shu gap rostmi?

— Bilmayman, balki to‘g‘ridir.

— Qaysinisi mening yulduzim ekan-a!

— O‘hho‘... millionlab, milliardlab yulduzlar bor, men qayerdan bilay.

— Bo‘ldi, men shu yulduzlarning birini tanlashni xohlayman, sen ham o‘zingga tanla.

Bu menga yoqib tushdi.

— Qani, tanlaymiz.

Kenanga yulduzlar haqida so‘z ochdim.

Maktabda o‘rganganlarimni birma-bir eslay boshladim.

Qara, shu teskari kapgir shaklidagi yulduz Kichkina Ayiq, uning yonidagisi esa Katta Ayiq, deyman va ukamning “Qani, qani, qaysinisi?” degan savoliga aniq-lo‘nda javob beraman.

Kenan hali maktabga bormagan, Xudo xohlasa, bu yil boradi. U nihoyat, yorug‘ bir yulduzni tanladi. Xuddi Kashish tog‘ining tepasida tikka osilib turgan yulduz. Joyini belgilab qo‘ydik.

Men ham bir yulduzni tanladim, bema'nilik, ha, mayli, shunday bo'la qolsin; hali u bola-da.

Shunday deb o'ylashim bilan bir yulduz uchdi. Ortidan nurli bir iz qoldirib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Kenan hayajon bilan:

— Aka, qara, bir yulduz uchdi. Uchib, ko'zdan yo'qoldi. Yulduzlar uchib, qayerga ketadi? — dedi.

— Uni bilmayman, biroq...

— Nima, biroq?

— Deydilarki, agar yulduz uchsa, uning sohibi bu dunyoni tark etarmish.

— Hozir hammi?

— Shunday.

Kenan xafa bo'lib menga yuzlandi:

— Qaramaylik, aka. Ular yana uchar, ehtimol....

— Mayli, qaramaymiz.

* * *

— Tog'am keldi.

Tog'am Olmoniyadan menga velosiped, Kenanga koptok sovg'a keltirdi.

Tog'am meni bolaligimdan biladi, Kenanni bo'lsa hech ko'rmagan. U ancha yillar ilgari Olmoniyaga ketgan, ko'pdan beri uyga kelmagandi. Hozir ta'tildan kelishi bilan uyimiz nurga to'ldi. Ammo tog'am tez orada qaytib ketmoqchi, chunki ta'til muddati oz ekan. U meni quchog'iga olib, havoda aylantirdi, yuzi qizarib, nafasi bo'g'ildi:

— Voy-bo'y, xuddi mening o'zim-a, — dedi.

Onam:

— Ee... Aytadilar-ku, o'g'il tog'aga, qiz bibiga tortadi, deb.

Biz tomonlarda ammani bibi deyishadi.

Men ham velosipedim bo'lishini ko'pdan orzu qilar edim. Lekin badavlat bo'lmaganimiz uchun otam menga velosiped olib berolmasdi. Yoshim ulg'aygani sayin shaharchamizdagi velosipedi bor bolalarga havasim kelib, ular orqasidan yugurar, "Men ham bir marta uchsam", deb yolvorardim. Ular bermasdilar. Bizning

shaharchamiz juda kichkina, sanoqli bolalardagina velosiped bor, ular ham o'ziga to'q oilalarning bolalarida.

Endi mening ham velosipedim bor. Qarab turinglar, hammasining ko'zini o'ynataman, hech kimni uchirmayman. Har kuni yuvib, yaltiratib qo'yaman. Hozir top-toza, yap-yangi. Shaharchamizda eng chiroyli velosiped — mening velosipedim. Hatto unda uchishga yuragim dov bermaydi. Yo o'zim yiqiladigan, yo velosipedga bir narsa bo'ladigandek.

Ammo sabrim chidamadi, velosipedimda ora-sira ucha boshladim. Kenan yonimda yugurar, "Aka, meni ham uchir, menga ham o'rgatsang nima qiladi?" deb yalinardi, lekin velosipedga sira yaqinlashtirmas edim. "Bo'lmaydi, sen hali kichkinasan, oyoqlaring yetmaydi, ket, koptogingni o'yna", — derdim. U bo'lsa yig'lar, depsinar, "Nima qilaman koptokni? Men velosipedda uchishni xohlayman", deb ming'irlagani ming'irlagan edi.

— Yo'q, bo'lmaydi.

U borib meni onamga yomonladi, onam esa yaxshilab ta'zirimni berdi. Kenan butunlay menga qarshi ekan, yig'ladi-siqtadi va, nihoyat, xafa bo'lib, ovozi o'chib, jahlidan tushmay tomga chiqib, kabutarlarni uchirish bilan mashg'ul bo'ldi.

— Uf... kaptarini uchirsin. Meni bir pasgina xoli qoldirsin.

Shaharcha ko'chalarida velosipedimda uchar ekanman, hamma menga qarar, bolalar velosipedimni ushlab ko'rishga intilardilar. "Qochinglar, iflos qo'llaringizni tekkizmang", deb bolalarni yozg'irardim. Ularning velosipedlari eski-tuski. Ustiga-ustak, o'zimizning mol. Meniki-chi, olmon moli!

— Faqat Abdurahmonga minishga ruxsat berdim.

Keldi, velosipedning u yoq-bu yog'ini ko'rgandek bo'ldi, qutlug' bo'lsin, dedi. Uchishni xohlamadi, aslida uchishni bilmas edi.

Abdurahmon yetim.

Otasi yoshligidan hammol bo'lgan. O'tgan yili vafot etdi. Ular juda faqir, onasi ham kasal. Abdurahmon maktabga bormay qo'ydi, bozorda tilanchilik qila boshladi. Har holda, uch-to'rt tiyin topib keladi. Yaxshi bola, bilimi ham yaxshi edi. Abdurahmonga rahmim kelardi. Qaniydi uchishni bilsa, unga velosipedimni berib turardim.

* * *

Tog'am Olmoniyaga jo'nab ketdi.

Yozgi ta'til ajoyib o'tdi.

Na soyga cho'milishga bordim, na baliq oviga. Yoz bo'yi umuman koptok o'ynamadim. Velosipedda uchish bilan kunim o'tdi. Ikkita bayroqcha sotib oldim. Biri Turkiya bayrog'i, yana biri Fenerbag'cha bayrog'i. Ularni rulga o'rnatmoqchiman. Qani endi, bir hushtagim ham bo'lsa, ya'nikim, velosiped signali. Qo'ng'irog'im bor, lekin uni nima qilaman? Otamga aytsam, shahardan menga velosiped signali olib kelib berarmikan?

Kenan men bilan gaplashmaydi, hanuz xafa.

Men velosipedni yetaklab uydan chiqqanimda, u tomda turib menga qarab-qarab qo'yadi. Aslida ukamni bunchalik xafa qilmasligim kerak edi. Ammo, nima qilay? U hali juda kichkina, gapga tushunmaydi.

Yonida yurib o'rgatsam, uch kundan keyin o'zim uchaman, deyishi turgan gap. Aytganini qildirmasdan qo'ymaydi. Uni yaxshi bilaman. Uchishni o'rganib olsa, velosipedni o'ziniki qilib olishi tayin, keyin meni hatto yaqinlashtirmasligi ham mumkin.

Hali shoshilmasin, biroz kutsin. Salgina ishtiyoqim susaysin. Lekin susaymayapti sira. Hatto kechalari ham velosiped tushlarimga kirib chiqadi.

* * *

Bir kuni saharlab eshik taqilladi.

Qanday taqillaganini ko'rsangiz edi. Xuddi taqirlayotgan kimsa uyni ostin-ustun qilmoqchidek.

Bir eshik qo'ng'irog'ini bosar, bir eshikning o'zini urardi.

Apil-tapil yugurib borib, eshikni ochdik.

Otam:

— Nima bo'ldi, Abdurahmon, bu qanday vahima? — deb so'radi.

Kenan yiqilib tushdi, amaki, yuguring, — dedi.

Hayron bo'lib, hammamiz bir-birimizga qaradik.

— Kenanga nima qildi?

— Kenan uyda emasmidi?

— Kenanga nima bo'ldi?

Otam pijamada, onam shoshgancha tungi ko'ylagining ustidan nimanidir kiydi, men esa kalta ko'ylakda edim. Hammamiz tashqariga yugurdik.

Yo'lda ketayotib "Kenan qayerda?" — deb so'radi otam.

Abdurahmon "Oldinda, yo'l chetida, pastlikka dumalab ketibdi", — dedi. Otam bilan onam shunday yugurdilarki, biz Abdurahmon ikkimiz orqada qolib ketdik. Ular muyulishda qayrilib, ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Men Abdurahmondan "Kenan erta sahardan tashqarida nimani qidirayotgan ekan?" — deb so'radim. Abdurahmon yerga qaradi. "Velosipedingni olibdi, uchiribdi, balandlikdan pastga enayotib to'xtata olmay, pastlikka qulabdi. Men uni ketayotganida ko'rdim. O'zi bir tomonda, velosiped boshqa tomonda, boshi qonab yotibdi", — deb zo'rg'a nafas olardi u.

Biz voqea joyiga yetib bormasimizdan muyulishda onam bilan otam ko'rindi. Otam Kenanni quchoqlab olgan, Kenanning boshi otamning qo'lida go'yo jonsizdek pastga osilib turardi, onam tizzalariga urib "O'ldi o'g'lim, o'ldi", — deya dod-voy solardi.

Otam yonimizdan o'tar ekan: "Bor, buvingga xabar ber, biz kasalxonaga ketayotirmiz, xavotir olmasin", — dedi.

Abdurahmon ikkimiz turgan joyimizda qotib qoldik. Bir pasdan keyin u yelkamga turtib: "Xafa bo'lma, balki faqat hushidan ketgandir", — dedi.

Bo'g'zimga nimadir tiqilgandek bo'ldi, ho'ngrab yubordim. O'zimni hech to'xtata olmayman. Ko'z yoshlarim tinimsiz oqadi. Abdurahmon ham yig'ladi. Qo'lini yelkamga qo'ydi.

Qishloq kasalxonasida shifokor yo'q.

Ikki doya, bir hamshira, bor, xolos.

Bolani zudlik bilan shaharga, kasalxonaga olib borish kerak, deyishibdi. Bir "jip" mashina topib, Kenanni zudlik bilan shaharga olib ketishibdi. Buvim esa deraza oldida cho'kkalagancha ko'zini yo'ldan uzmasdi. Tinmasdan duo o'qirdi. Qo'shnilar ham uyimizga kirishdi.

Abdurahmon bilan borib, velosipedni ko'rdik. Egri-bugri bo'lib ketibdi: rul qiyshaygan, chirog'i singan. Hech ko'z oldimdan

ketmayapti. Velosipedni uyga keltirib, hovlining bir chekkasiga suyab qo'ydik.

Oh, Kenan, oh! Nega bunday qilding?

Ammo ayb menda. Uni velosipedga mindirganimda edi, havasi sal bo'lsayam pasayarmidi! Shunda bu falokat ham sodir bo'lmagan bo'lardi. Ayb menda. Tuz ham totmadim. Ayvonda o'tirib qoldim. Ko'zim velosipedda. Ming la'nat. Kenanga bir narsa bo'lsa-ya? Ukam o'lib qolsa-ya. Siqilib ketdim. Ortiq yig'lashga holim qolmadi. Nima qilsam ekan? Shahardan biror xabar ham yo'q. Qaniydi Kenanning ahvoli yaxshi, xavotir oladigan joyi yo'q degan xabar kelsa.

Tomga chiqib kabutarlarga don sepdim. Vaqt tezroq o'tsin deb tovuqxonani tozaladim, suvlarini yangiladim. Kenanning eski bir taxtadan yasalgan o'yinchoq mashinasi bor edi. G'ildiragi singan, u ham bir tomonga ag'darilib yotardi. Unga yangi g'ildirak yasab, o'rniga qo'ydim. Chiroyli bo'ldi. Ammo Kenan kichkina bola emas, endi buni o'ynamaydi. U endi ulg'aydi, bu yil maktabga boradi.

Buvim ayvonda turib chaqirdi: "Nabiraginam, kel, bir-ikki luqma ovqat yeb ol", — dedi. "Qornim to'q", deb javob berdim. Tomdan pastga tushishni xohlamadim, velosipedni yana ko'rishni istamayman.

Oqshom bo'ldi, hamon xabar yo'q.

Qo'shnilarimiz buvimga sho'rva keltirishib, "Xabar bormi?" deb so'rashdi, xabar yo'q.

Men hamon tomdaman.

Keyin pastga tushdim. Yugurib velosiped yoniga bordim. Rulga butun og'irligimni tashladim, biroz to'g'rilandi, sudrab Abdurahmonning uyiga olib bordim.

Abdurahmon hayron bo'ldi. "Nima bo'ldi? — dedi. Xabar bormi? "Yo'q", — dedim. "E-e", — dedi. Bu velosipedni senga olib keldim, pochchang temirchi-ku, balki tuzatib berar", — dedim. "Yo'g'-e", — dedi; u nima deb tushundi, bilmadim.

Men: "Buni senga bermoqchiman", — dedim. Abdurahmon: "Qanday bo'lar ekan? Ta'mirdan chiqarib, yana minarsan", — dedi. "Yo'q, yo'q, men bu velosipedda endi uchmayman, seniki bo'lsin", — dedim.

Shunday deyishim bilan ko'zlarim yana yoshga to'ldi. Boshqa gaplashmadik. Abdurahmonni shu yerda, eshik oldida hayron qoldirgancha undan uzoqlashdim.

Kelib yana tomga chiqdim.

Osmonga qarab yotib ko'zlarimni Kashish tog'ining ustida porlab turgan yulduzga tikdim. Bu — Kenanning yulduzi, ikkalamiz tanlagan edik.

Yulduzga tikila-tikila kechgan kunlarni xayolimdan o'tkazdim. O'tgan yozni. Ariqdan tutgan baliqlarimizni. Pastki mahallani futbolda 6:2 hisobida yutganimizni.

Yulduz uchdi.

Yulduz uchib pastlay boshladi.

Kenanning yulduzi uchayotir.

Kenan o'layotir.

Ollohim, Ollohim, Kenan o'layotirmi?

O'rnimdan uchib turdim, bir ko'zim yulduzda. Yulduz, ortidan nurli iz qoldirib, yaqinlashib kelayotir. To'g'ri makkajo'xorizor yoniga, Sulton pichanzori ustiga tushayotir. Tomdan o'qdek otilib tushdim. Oyoq yalangman. Yugurdim. Shaharcha ko'chalarida yeldek uchdim. Bir ko'zim yulduzda.

U tushayotir, men yugurayotirman.

Shaharchadan chiqdim, makkajo'xorizorga yetib bordim.

Makkajo'xorizor bo'yi mening bo'yimdan baland, barglari yuzimni tilardi. Yulduzni ko'rmay qoldim. Yulduzga nima bo'ldi? Makkajo'xorizordan chiqdim, pichanzor tomon yugurdim. Atrof kuppa-kunduzdek yorug', moviy-yashil yorug'lik. Suv yanglig', dengiz yanglig'.

Yulduz tushayotir.

Shukrki, sekin-sekin enayotir.

Bir fazo kemasi kabi yorug'lik taratgancha enayotir.

U qo'ndi, men yaqinlashdim; u tushdi, men bordim.

Pichanzorning o'rtasiga yetdim.

Yulduz tushib keldi, keldi, kelayotib porladi, porlab zarralarga aylandi, men qo'llarimni uzatdim, ikki kaftimni ochdim, yulduz kelib, qo'limga tushdi.

Xuddi tushdagidek suhbatlasha boshladik.

— Sen Kenanning yulduzisan, shundaymi?

— Shunday.

— Xush kelibsan, ahvoling qalay?

— Yaxshiman, ammo quladim, uchib kelayotib quladim.

— Hechqisi yo‘q, men seni yugurib tutib oldim.

— Tashakkur. Ozgina kech qolganingda yerparchin bo‘lardim.

— Buncha yengilsan? Nega yulduzlar uchadi?

— Har bir jonzotning bir umri bor, umri oxirlasa, nur so‘nadi.

— Biroq men seni tutdim, qara, hali ham porlab turibsan.

— Demak, umrim soati tugamagan.

— Xo‘sh, endi nima qilamiz? Seni hamisha kaftimda tutib turolmayman-ku.

— To‘g‘ri. Nima qilmoqchisan?

— Nima qilay?

— Meni biroz balandga ko‘tar-da, keyin butun kuching bilan “Yo, Olloh! Bismilloh!” deb menga qarab pufla!

KO‘ZLARIDA MEHR YO‘Q

Paromda, ichi gazeta-jurnalga to‘la ikki tomonga buklog‘liq kattakon sumkasini tasma bilan bo‘yniga osib, qator tizilgan avtomobillarni oralab o‘tarkan, birdaniga bir avtomobildan qizil sochli ayol boshini chiqardi va sarxushona ovoz berdi:

— Senda “Yangi moda” jurnali bormi?

— Bor...

— Ber!

Sumkaning ichidan jurnalni chiqarib uzatdi.

— Necha pul?

— Uch yarim lira...

Ayol unga besh liralik pulni uzatdi. Bolakayning qaytimini berish uchun cho‘ntak kavlayotganini ko‘rgach, ayol:

— Qolsin, — dedi. — Qaytimi senda qolsin!..

Yaltiragan brilliant uzukli, qip-qizil manikyurli qo‘lini oynadan chiqarib, jurnalni oldi.

Juldur kiyimli gazeta sotuvchi bola bilan lyuks mashinaning lyuks ayoli bir-biriga boqdi.

— Sening isming nima?

— Xolid...

— Necha yoshdasan?

— O‘n uch...

— Qayerda yashaysizlar?

— O‘q maydoni yo‘lidagi kulbada...

— Uyda kim bor?

— Keksa ota-onamdan boshqa hech kim yo‘q...

Ayol bolaga ma’nosizlarcha baqrayib o‘tirgan yonidagi ko‘rimsiz, sochiga oq oralagan kishining tizzasiga turtdi:

— Xuddi o‘zi-ya, shunday emasmi?

— Xuddi shunday!

Ertasiga Xolid bo'yniga tasma bilan osilgan bo'm-bo'sh sumkasini ko'tarib, O'q maydoni yo'lidagi kulbasiga qaytib kelganida o'sha lyuks mashinani eshigi oldida ko'rdi.

Sochlari va tirnoqlari qip-qizil ayol bilan sochiga oq oralagan ko'rimsiz kishi ota-onasining ro'parasida taxta o'rindiqda o'tirishardi...

— Xolid bir kunda qancha topadi?

— 8–10 lira...

— Bu pul yashashga yetadimi?

— Xudoga shukur...Go'sht yemagandan keyin...

— Xolidni bizga bering! Biz sizga har oy kuniga o'n liradan u topib turgan pulni to'lab turamiz. Uni gulday tarbiyalaymiz, o'qitamiz, odam qilamiz.

Xolid hech narsani tushunmay baqirdi:

— Men ota-onamni tashlab ketmayman!

Ayol Xolidga o'girildi:

— O'g'lim, har kuni go'sht yeysan! Chiroyli kiyimlar kiyasan. O'sha o'zing ko'rgan avtomobilda maktabga qatnaysan! Haftada bir marta ota-onangni ko'rishga kelib turasan...

Xolidni Suodiyadagi villalariga olib kelishdi. Sochlarini chiroyli qirqtirib, ustiga yaltiroq simli sviter kiydirishdi. Yirtiq jinsi shimi va rezinka poyabzali o'rniga sof matodan tikilgan moviy jinsi shim va sutrang mokasin...

"Ularni yoqib tashla!" deyishlariga qaramay, Xolid eski-tuskilarini bir to'rvaga solib, karavotining tagiga yashirib qo'ydi.

Xuddi arining uyasiga o'xshagan bir uy... Kirganning ham, chiqqanning ham ma'lumi yo'q... Non opkelgan kim, yegan kim bu ham noma'lum... Qizil sochli va tirnoqli ayolga har kuni bir — to'da mehmon keladi va ular oqshomdan tonggacha karta o'ynashadi... Dasturxon masxarabozning kiyimiga o'xshash rango-rang, turli-tuman yevropacha ichkiliklarga to'ladi, uyni badbo'y araq hidi tutib ketadi...

Ayolning yigirma yoshlardagi qizi bilan o'g'li ham uydan qachon chiqib, qachon qaytishi noma'lum sharpaga o'xshaydi...

Sochiga oq oralagan, ko'rimsiz kishi ham qorasini ko'rsatmaydi. Mehmonlarni uning o'zi emas, devorga ilig'lik surati kutib oladi.

Oradan bir oy o'tmasdanoq, Xolid qattiq siqila boshladi. Eng avvalo, uni bu uyga nega olib kelishgani va nega bunchalik yasantirishganining sababini bilolmasdi. Hech kimdan mehr va muruvvat ham ko'rmasdi. Har gal noz-ne'mat to'la dasturxon yoniga o'tirganida gazeta tarqatuvchi og'aynilari bilan ishkambachining oshxonasida ichgan sho'rvani sog'inar, o'ziga hissiz va xudbinona tikilgan nazarlar orasidan ota-onasining mehr-muhabbatga to'la ko'zlarini axtarardi.

Bir kuni qizil sochli va tirnoqli ayol stolda karta o'ynarkan, unga dedi:

— Xolid, yotoqxonamga chiqib, pardoz stolim ustida turgan atirni opkel!

Ilk daf'a bu xonaga qadam bosib, pardoz stoli ustida kichkina bolakayning kumush ramkaga solingan suratini ko'rdi.

Qarang-ki, xuddi uning o'zginasi...

Bu bolakay qizil sochli va tirnoqli ayolning o'lgan bolasimikan yo?.. Agar shunday bo'lsa, uni har turli moddiy ta'minlayotganlari qatorida ruhan nihoyatda begona ekanliklarining boisi ne? Faqat marosim kunlariga taalluqli bir soxta motam ifodasi o'laroq, bu o'likni qo'g'irchoq sifatida eslatib turish vazifasi yuklatilganmidi unga?

Xolid bu haqiqatni o'ylamayoq angladi va shuncha mo'l-ko'llik ichida cheksiz yo'qsizlikka giriftor bo'lganini payqadi.

Bir kuni gazeta sotuvchi og'aynilaridan biri uni yo'lda uchratib, qizg'in tabriklaganida unga shunday javob berdi:

— E, qo'y buni! Menga bu odamlarning ko'zlari yoqmaydi!

— Ko'zlariga nima qipti?

— Ko'zlarida hech narsa yo'q!..

— Yaxshi-ku...

— Ko'zlarida hech narsa yo'qligi menga yoqmayapti-da!

Agar ularning yonida aqlliroq bir kishi bo'lsaydi, Xolidning javobini shunday yakunlagan bo'lardi:

— Ko'zlarida mehr yo'q!..

Oradan bir-ikki oy o'tib, Suodiyadagi villadan Taqsimdagi uyga ko'chadigan bo'ldilar. Bu Respublika kuni bayramiga to'g'ri keldi. Bayram munosabati bilan Xolidga qishki kiyimlar sotib

olindi. Xolid hadya qutilarini quchoqlab, xonasiga chiqib, to'shakka uzangan ham ediki, pastki qavatdan shirakayf ayolning ovozi eshitildi:

— Xolid, Xolid!

Javob bo'lmadi.

Qizil sochli va tirnoqli ayol bir necha bor chaqirsa-da, javob bo'lmagach, yuqori qavatga chiqdi va Xolidning xonasiga kirdi.

Yozlik kiyimlar ham, qishlik ust-boshlar ham va o'sha kungacha olingan barcha narsalar to'shakning ustida yotardi... Xolidning juldur kiyimlari yashirib qo'yilgan karavotning osti esa bo'm-bo'sh edi...

VIOLONCHEL

Zahro Xonim oltmish besh yoshli istanbullik keksa ayol...

Necha yoshdaligini tushuntirarkan, "Sulton Rashod taxtga chiqqanida 6 yoshda ekanman", deydi. Oyog'ida bolalarnikidek kichkina lokli kavush, yuzini burniga qadar chorshaf bilan o'rab olgan, umri tugashga yuz tutgan tiplardan... Bir qizil tanli Nyu-Yorkning Brodvey ko'chasida o'zini qanday his qilsa, u ham tug'ilib o'sgan Istanbulida xuddi shunday.

Oqsaroy tomonda, ko'p qavatli oddiy uylar orasida qisilib qolgan, fonusli, yerga qapishgan bir pastqam taxta uyda yashaydi.

Tashqariga onda-sonda bir chiqadi. Biri ro'paradagi uyda, ikkinchisi Beylarbeyida yashaydigan "qiyomatlik dugonalari"ni ko'rishga boradi. Tongdan boshlab uyini supurib-sidirishdan boshqa ishi yo'q. Taxta polni yog'och moyi va mushk qorishmasi bilan yog' tushsa yalagudek qilib yuvib-artmasa, xonani xushbo'y hidlarga to'ldirmasa ko'ngli joyiga tushmaydi...

Musulmon uyining hidi...

Bu hidning nomi shunday!

Zahro Xonimning ishi bu bilan bitmaydi. Kechasi allamahalda kelasolib, o'zini yeguliklar turadigan javonga uradigan tekinxo'r o'g'li uchun ovqat pishiradi, azon sasi eshitilar-eshitilmas darrov sajdagohini yoyib, namozini o'qiydi, so'ngra burchakdagi

ko'rpachada o'tirib, boshi o'rog'lik holda bir maromda ming'illab Qur'on o'qiydi.

Ora-sira loviya sochib fol ochib qo'yadi. Nuqul o'g'lining taqdiri ustida fol ochadi va uning kelajagini bilishga urinadi. Taqdirni Ollohdan boshqa bilolmasligini bilsa-da, bu odatini hech tashlay olmaydi. Har safar fol ochganidan keyin bir soat tavba va istig'for qiladi.

Har bir loviya donasining ustida jinsi va turiga ko'ra: erkak, ayol, yosh, keksa, ojiza, bokira, qotil, politsiyachi, davlat arbobi, daydini bildiradigan xususiy belgilar bor. Bir loviyaning beli oq, boshqasiniki yashil ipak belbog' bilan o'rog'lik, birining boshi, boshqasining quyrug'i yo'q.

Zahro Xonim hech qachon bu loviyalar orasidan o'g'li uchun qutli mujda bergan biron loviyani ko'rgan emas. Nuqul qora xabar bergan bu loviyalar...

Zahro Xonim qirq yoshlarida tuqqan va eri o'sha yili o'lgandan so'ng sochini supurgi qilib o'stirgan bu farzandi hayotdagi omadsizligi yetmaganday, hatto loviya folida ham peshonasiga porloq bir istiqbol yozilmagan inson... Zahro Xonimni g'amga botirgan ham o'g'li Hayotining turmushdagi iqbolsizligidan ko'ra, loviya folidagi baxtsizligi... Go'yo hayotda baxtsiz bo'lgani uchun folda shunday ko'ringan emas, balki folda shunday chiqqani uchun hayotda baxtsiz.

Zahro Xonimning 25 yoshli o'g'li Hayoti litseydan haydalgan... Jazbandchilar bilan ulfatchilik qilishdan boshqa narsani bilmaydi, har sozdan biroz chaladi, kallasida qalin va hurpaygan soch, tuflisining uchidan yoqasiga qadar zamonasining tantiq yoshlariga xos kiyingan, ulardan bir namuna... Katta o'tloq ichidagi bir jinsga mansub o'tdan biri...

Bu dunyoda orzusiz odam bo'lmagani singari, Hayoti ham orzusiz emas. Uning birdan-bir ishqi, niyati, tilagi, g'oyasi hayotda bir violonchel egasi bo'lish... Maktabda hech narsa o'rganmagan bo'lishiga qaramay, havaskorlarcha o'rgangan va, ehtimol, eng zo'r deb bilgan narsalari orasida dovul va violonchel bor edi. Biroq uning violoncheli yo'q... Jazdagi ulfatlari unga deyishadi:

— Bilasanki, guruhimizdagi har bir kishi o'z sozini o'zi keltiradi... Sen onangga qistalang qilib, o'zingga bir violonchel ol! O'rtacha bir violonchelni 1000 liraga olish mumkin. Undan keyin safimizga qo'shilasan va shunday dovruq qozonasan-ki, noming G'arbga ketadi. Ko'rasan, senga Yevropa, Amerikadan takliflar yog'ilib ketadi!.. Sening shu qadar buyuk iste'doding bor... Hech ikkilanma! Darhol violonchel top!..

O'sha kundan buyon Hayoti savdoyi bo'lib qolgan.

— Ona, menga bir violonchel olib ber!

— U nima?

— Bir cholg'u asbobi... Kattaroq kamonga o'xshagan bir narsa... Tizzaga tirab chalinadi.

— Bunaqa shayton asboblariga beradigan pulim yo'q!

— Ona, bu menga juda kerak! Otamdan qolgan uch oylikdan birini bersang yetadi.

— Unda nima yeb-icharkanmiz?

— Sandig'ingdagi pullarni bilmaydi, deb o'ylaysanmi?

— Ular mening o'limlik pullarim...

Oradan bir necha kun o'tadi.

— Ona, menga bir violonchel olib ber!

— Nima qilasan uni?

— Jaz guruhiga qo'shilaman! U yerda o'z musiqalarimni chalaman! Turkiyada, so'ng Yevropa va Amerikada dong'im chiqadi... Boy bo'lib ketaman... Sen uchun shohona uylar, saroylar qurdiraman!

— Yaxshisi, bir kun bo'lsa-da hammollik qilgin-u, uyga bir bosh piyoz olib kel! Men ham shukur namoziga bosh qo'yib, o'g'limdan muruvvat ko'rdim deyay!

— Ona, menga bir violonchel olib ber! Nari borsa 1000 lira!..

— Har liramga 1000 oltin bersalar ham 1000 lira bermayman!

Ancha vaqt shunday o'tdi.

Bir kuni qo'shnilar taxta uy ichidan mudhish bir shovqin eshitishdi. Xuddi og'ir sandiqni sindirganda chiqadigan tovush...

Hayoti onasiga baqirardi:

— Oltinlarni qayerga yashirding? Ularni sandiqdan qachon olding?!

Keksa ayolning nozik va zaif sasi eshitildi:

— Men o'lmasdan oldin ularning qayerda ekanini bilolmaysan!

— Sen o'lsang buni kim menga aytadi?

— Aytishadi! Senga xabar berishadi.

Endi o'zini butunlay yo'qotgan Hayoti uyga har kecha tongga yaqin kelar, onasini ko'pincha namoz o'qiyotgan holda ko'rar, yuziga eshikni qarsillatib yopib, xonasiga kirib ketar va kechgacha uxlardi. Javonda unga qo'yilgan ovqatga qo'l urilmas, bu ovqat so'ngra mushuklarga berilardi.

Bir yoz kechasi... Oddiy uylardan birining yuqori qavatidan g'iyq-g'iyq degan qisqa musiqa ovozi eshitilardi. Boshqa sas yo'q...

Birdan taxta uyning qop-qora devorlarini kimdir musht bilan ustma-ust taqillatgani eshitildi. Ha, taxta uyning yuqori qavatidagi derazadan bir qo'l chiqib devorni taqillatayotgan edi:

— Hu Xadicha Xonim, hu!

Taxta uyning tom ro'parasiga tushgan boshqa bir taxta uyda bir fonus derazaga yaqinlashdi.

— Nima gap, tinchlikmi, jigarim?

— O'ldi!

Ro'paradagi taxta uydan qop-qora bir ko'lanka chiqib, tezda Zahro Xonimning eshigidan ichkariga yo'naldi. O'ng tomondagi eshikni ochib, ichkariga kirdi va eshikni orqaga itarib, g'iyq etib yopdi.

Tashqariga ovozlar eshitilardi:

— Qur'on o'qib o'tirarkan, birdan mazasi qochdi. Qaragin, "Yosin!" surasi ochiq turibdi...

— Beylerbeyidan chiqib, bu yerga kelganing juda yaxshi bo'libdi-da, men yolg'iz boshimga hech narsa qilolmasdim.

— To'g'ri aytasan! Bu ham Ollohning bir hikmati!

— Ko'zlarini yopib, engagini bog'laylik!

— O'g'li qayerda?

— Qaysi razolat botqog'ida ekanini kim bilsin! Tongga yaqin keladi.

— Yaxshiyamki, o'limlik pullarini olib kelgan ekanman... Omonatni topshirib, qutulay!

Ertasiga oqshom payti taxta uy ro'parasidagi narigi taxta uyda yonma-yon o'tirib Zahro Xonimning ruhiga Qur'on o'qiyotgan qiyomatlik dugonalari birdan tuklarini tip-tik qiladigan bir sasni eshitib, seskandilar. Zahro Xonimning kechagina o'ligi chiqqan taxta uydan violonchel ovozi eshitilardi. Violonchel qahqaha otayotgan edi.

ZILZILA

Esma Xotin arzinjonlik...O'sha yerlik bir qora ishchiga turmushga chiqdi.

Onado'lidagi har bir ayol singari, har yili bola tug'adi.

Oradan olti yil o'tdi. Esma Xotinning qornida bir, o'ng qo'lida bir, chap qo'lida bir, uyida ikki bolasi bor... Hammasi bo'lib 5 bola...

Eri dashnom qildi:

— Bunchalik ko'p tug'averma, xotinjon, bilasan-ku, mening qo'lim qisqa, buncha bolani boqolmayman...

Esma Xotin uni qayirib tashladi:

— Buni sen o'zing o'ylashing kerak. Qolaversa, nega rizq deb qo'rqyapsan? Rizq deb qo'rqish gunoh ekanini bilmaysanmi? Olloh yaratganiga rizqini ham beradi.

— Shundayku-ya, ammo Olloh bizga aql ham bergan, tadbirli bo'lishni amr etgan. Men shuncha og'izni to'ydirolmayman...

Esma Xotinning kuchli-quvvatli eri besh bolasini olib, Istanbulga yo'l oldi.

Eshitishiga qaraganda ishning ko'zini biladigan hammollarga Istanbulda ish ko'p ekan. Gazeta chiqadigan Bobiali degan mahallada hammollik qilganlar biroz pul yig'ib, chayqovchilikka yetarli sarmoya to'plasa, undan keyin oq qog'oz tijoratiga tashlasalar bas, boy bo'lib ketisharkan.

Esma Xotinning eri shu ish bilan shug'ullana boshladi va chayqov bozordan rosa pul topdi. Ko'p o'tmay ostida xususiy avtomobil, bo'ynida qip-qizil galstuk... Galstugini "uchburchak" deyishadigan bichimda bog'lar, oynaga qarab, o'z-o'ziga besh ketardi:

— Endi biz ham janob bo'ldik!

Endi o'qib-yozish borasida ham biroz olg'a bosgan, podsholarning tug'rosiga o'xshatib imzo otishni ham o'rganib olgan edi.

Esma Xotin bo'lsa hamon ilgarigiday... Oqsaroy tomondagi oddiygina uyda yashaydi, eng kattasi 9, eng kichigi, 1 yoshdagi bolasi yonida...

Endi uning yeb-ichishdan tashvishi yo'q, faqat qashshoqlikdan battar bir falokatga giriftor bo'lgan... Besh vaqt namozida va har doim Ollohni yod etadigan Esma Xotin erining bu yo'lidan mamnun emas va tomog'idan o'tayotgan luqmalar harommikan deb shubha qiladi...

Nihoyat erining sumkasida muddatli cheklar, dasta-dasta tilxatlarni ko'rib, gap nimadaligini tushundi:

— Sen odamlarga qarzga pul tarqatyapsanmi?

— Ha, shunday, nima bo'pti?

— Bu ishdan ne foyda olasan?

— Ustama foiz olaman! Har oyda o'n foiz... Iloji bo'lsa bundan ham ko'proq...

— Foiz olish harom ekanini bilmaysanmi?

— Nima qilay xotinjon, yashash kerak-ku... Endi qancha tug'sang tug'aver!..

— Yana bola tug'ish to'g'risida gapirmay qo'yaqolay. Olloh 9 bolamni harom ovqat yeyishdan asrasin!..

— Qanday asrasin?.. Ularning jonini olsinmi?..

— Qanday xohlasa, shunday qilsin!..

Bobiali hammolligidan millionerga aylangan erining turish-turmushi Esma Xotinga borgan sari malol kela boshladi. Oxiri bir kuni ayol oyoq tirab turib oldi:

— To'qqiz bolamni olib, Arzinjonga ketishimga ruxsat ber. U yerda kichikroq bir uyni ijaraga olib yashayman, katta bolalarimizni boshlang'ich maktabda o'qitaman. Otamdan qolgan yerni ishlata olsam, balki senga muhtoj bo'lishdan qutularman ham.

Bo'ynidagi qizil galstugini hech yechmaydigan sobiq hammol Esma Xotinni to'qqizta bolasi bilan Haydarposhodan kuzatib yubordi va Beyo'g'lidagi uyga ketdi...

Esma Xotin Arzinjonda 9 bolasi bilan ikki xonali uyda yashay

boshladi. U bir kuni kechki payt xufton namozini o'qish niyatida tahorat qilish uchun hovlidagi quduq boshiga borgan ham ediki, oyog'i ostidagi tuproq, xuddi stol ustidagi dasturxonni tortib olishganday, birdaniga surilganini his qildi va yerga yiqildi.

Yer ostidan kelgan qo'rqinchli tovushlar orasida zamin o'ynadi, titradi, cho'kdi...

Esma Xotin:

— Ana, qiyomat boshlandi! — deb o'yladi. Boshini ko'tarib uyiga qaradi va uy xuddi bir-birining ustiga qulagan qarta qog'ozlaridek ag'darilib tushganini ko'rdi.

Ikki kundan so'ng yetib kelgan eri Esma Xotinni shahar tashqarisidagi qabristondan topdi.

Xotin yuz-ko'zini timdalab tashlagan, yig'i bilan qahqaha o'rtasidagi qandaydir tovushlar chiqaradigan telbaga aylangan edi...

Erining uni turg'azish uchun cho'zgan qo'llari ustiga yiqilarkan, hayqirdi:

— Bularning hammasiga sen sababchisan! Olloh bolalarimning harom tomoq yeyishlariga rozi bo'lmadi, shuning uchun ularni bu yerga jo'natdi.

KAKLIK QO'SHIG'I

O'ya yonoqlari qizarib, moviy ko'zlarini yilt-yilt suzgancha deraza yonidagi o'rindiqda o'tirib xonada suhbatlashayotganlarning so'zlarini xuddi uzoqlardan kelayotgandek eshitardi. Shu payt Zahroxonim:

— Erning noni — ko'cha noni, bolaginam, — dedi. — Sen ham esing borida o'z o'rningni top. Onang senga yomonlikni ravo ko'rmaydi...

Onasi kuyunib gapini davom ettirdi:

— Zahroxonim, bilasiz, u xuddi baldoqsiz uzum, men uni avaylab-asrab katta qildim. Siz bilan qachonlardan beri yon qo'shnimiz. Keyin arslondek bola, noni qo'lida. O'qiyman degandi, mana, o'qishni ham tugatdi. Mening ikki kunlik umrim qoldimi-yo'qmi, Xudo biladi, ko'zim tirik paytida o'rnini topib ketsin deyman-da. Otasining bo'lsa parvoyi falak...

— Ha... bu tabiiy, albatta, erkak kishi qiz bolaning ko'nglini tushunarmidi?..

— Keyin el-yurtga nima deyishimni ham bilmayman. Unisi bo'lmaydi, bunisi bo'lmaydi, odamlar uning yo jazmani bor, yoki qandaydir qo'rquvi bor deyishmaydimi. Elning og'zi...

O'yaning yosh vujudi to'satdan tiklandi. Jizzaki ovoz bilan:

— Oyi, iltimos qilaman, bo'lmag'ur gaplarni gapirmang! — dedi. — Qo'rquvi bor degani nimasi. Ey Xudo!.. Odamlarning mendan boshqa ishi yo'qmi? Oyi, el-yurt degani nima? Mening el-yurt bilan nima ishim bor?

Onasi Makbulaxonimning yonoqlari qip-qizil tusga kirdi:

— Mana shunday qiz bu, ko'rdingmi, singlim, — dedi. — Itga o'xshab odamlarning yuziga irillagani-irillagan. Qoshimga chorlab bitta-ikkita maslahat berolmayman. Menga qolsa, jahannamning qa'riga ketmaysanmi!..

O'ya to'nini teskari kiyib dedi:

— Ha, albatta, ketaman, u yerlar — men biladigan joylar.

— Tiling kesilgur...

— Oyi, Xudo haqqi, iltimos, asabimga tegmang...

Zahroxonim gapga qo'shildi:

— Asal qizim, bu gaplarning asabga tegadigan joyi yo'q. Turmush quradigan biz emas. Biz berayotgan maslahat faqat sening baxting uchun, qizginam. Onalarning boshqa dardi yo'q.

Keyin Makbulaxonimga:

— Qani, o'rningdan tur, Ramziyagacha birga ketamiz, sal o'zingga kelarsan, — dedi. — Alloh xayringni bersin. Hozir nima desang ham, bari bekor. Allohning o'zi bandasidan boxabar.

Ikkala xotin uyni tark etishdi. O'ya bir lahza deraza oldida o'tirib qo'shni bog'dagi olma daraxtining pushti gullarini tomosha qildi. Keyin to'satdan piqillab yig'lashga tushdi. Ko'zyoshlari pushti yonoqlaridan duv-duv yumalar, o'zi esa pastki labini tishlagancha ho'ngrardi.

Albatta, u sevib qolgandi. Qanday qilib!.. Qiziq, kim unchalik ishqni quchoq ochib, shirin quvonch bilan qarshi olganikin? Qiziq, sevib qoldim deb kim u kabi quvonchidan telba bo'lganikin-a... Ko'zyoshlari yonoqlaridan sizib tushar, pushti olma gullari titrar, uning qulog'ida o'z ovozining chinqirig'i eshitilardi:

"Oh!.. Junaydbek tog'a, siz ekkan olma daraxtining gullari naqadar ajoyib". O'sha paytlarda har bir narsada yana nimadir bo'lardi. "Inson sevib qolganida yumuq ko'zlari bilan shovullab turgan dunyoni yam-yashil bog'lardan iborat bo'lgandek ko'radi, — derdingiz. — Pushti rang xo'rozqand shakarlari bor, bilasizmi, ularda aql-hushni oladigan pushti rang, inson diliga orom beradigan hidlar bor. Ishq mana shunday narsa".

Uni ilk bor o'tgan qishda, yomg'irli kunlarning birida Kadiko'y paroxodida uchratgandi. O'ya yuqori salonda, orqadan ikkinchi qatorda o'tirgandi; o'sha kuni yaqinda nashrdan chiqqan jurnalni qiziqib ko'zdan kechirayotganida yosh yigit kelib bo'sh joylardan birini tanlab qarshisiga kelib o'tirdi. U shunday ho'l bo'lgan ediki... O'yaning kulgisi qistadi, kulgisini yashirish uchun labini tishlab, qoshlarini chimirib oldi. Vaholanki, yosh yigit qiz yomon xayolga bormasin deb uning yelkasi bilan qulog'i orasidagi bir nuqtaga qa-

rab oshkora kulardi. U girdida suv sizayotgan shapkasini yechganida O'ya ko'z qiri bilan uning keng peshonasini, moviy ko'zlarini, sochlari qayrilgan joyida esa jarohat izlarini ilk marotaba ko'rdi. Baland bo'yli, yoqimtoy yigit bo'lishiga qaramay, unchalik xushbichim emasdi. Faqat uning xatti-harakatida shunday ishyoqmaslik, kulganida esa bezori bolakaylarni eslatuvchi shirin tantilik bor ediki, undan O'yaning ko'ngli yorishib, quvondi, ichida uning bo'yniga osilish istagi uyg'ondi. Yosh yigit qizning qo'lidagi jurnalga qarab darhol sumkasini ochdi va xuddi shunday jurnalni olib xo'jako'rsinga qiziqish bilan varaqlay boshladi. O'ya o'sha yerning o'zidayoq unga ism qo'yishga ulgurdi: "Jurnal!"

O'sha kundan keyin har doim bitta paroxodda, bir-birining qarshisida o'tirib borib-kela boshladilar. Endi katta shahar olomoni ichida bir-biriga oshiyon ikkita inson bor edi. Ular bir-birini kuzatib tanisha boshladilar. Hozir O'ya uning bor-yo'g'i uchta ko'ylagi borligini, doim xursandligini, haftada ikki marotaba ko'ylak almashtirishini va paypoqlarini rezinali bog'ich bilan bog'lashini bilardi. Bafra ma'dan sigaretidan chekardi, modaga mos portsigari bor edi. Iqtisod fakultetini tugatib, hozir bankda ishlardi. Ko'ylaklarining yoqasi tekis va galstuklari juda go'zal edi, ammo shimining pochalarida har doim loy dog'larini ko'rib ko'ngli behuzur bo'lardi. "Jurnal" esa O'ya haqida ko'p narsani bilardi. U akademiya talabasi bo'lib, juda chiroyli kiyinardi. U bu qishda o'ziga oppoq jemper to'qib, yangi palto sotib oldi. Yana uning vazmin qiyofasi ostida qandaydir shaytonlarcha qarash yashirin edi. Dugonalari bilan suhbatlashganida munosabat bildirishib mayda-chuyda gaplardan bir-birlariga oid turli narsalarni bilib olishardi. Biri kech qolganida boshqasi o'zini band kishi ko'rsatib, "Salom!" o'rniga nigoh tashlash bilangina kifoyalanardi. "Jurnal" tek turganida O'ya kulib yubormaslik uchun qoshlarini chimirib, labini tishlardi. O'ya tek turganida esa "Jurnal" joyiga yaxshilab joylashib olib o'sha qiyofasi bilan oshkora kulardi. Agar bir necha kun ko'risha olmaydigan bo'lsalar, birga ro'baro' o'tirgan paytlarida oldindan ogohlantirib qo'yishardi. Do'stiga: "Ertaga Anqaraga ketyapman. Samih, ukam, seni ko'ra olmasligimdan qanchalik xafa ekanligimni bilmaysan", — derdi. O'sha payt O'yaga ko'zi

tushib kulmaslik uchun nafasini yutib qizarib ketardi. Keyin "Jurnal"ning chetga qarab kulganini bilardi. Bir kuni O'yaning do'sti: "O'ya, ertaga kechki payt Halega kela olasanmi?" — deb so'radi. Agar O'ya "ha" desa, ertasi kun kechki payt "Jurnal" bilan kinoga borishardi. Masalaning antiqa tomoni shunda ediki, O'yaning ko'pni ko'rgan tog'asi kinoda doimo ikkinchi qatorga o'tirganlarini va aynan shu qatorda uzun bo'yli to'q sariq odam kelganida jiyanining uyatdan qizarib ketganini sezmasdi. Ular churq etmasdan o'tirishganida qosh uchi bilan berilgan savol, lablarning qimirlashi-yu, yelka harakati bilan bir-birlariga allanarsalarni anglatishardi: "Salom! Nima, shamollaganmisan? Ko'rgilik-da! Bu sumka yangimi, kichik xonim! Buyursin. Bugun ertalab yoningizda ko'rgan qiz kim edi, janob? Ko'zlaringiz juda ham porlardi... Shunday charchaganmanki, mendan hech narsa so'rama... O'ya, jonim, sochlaringni nimaga bunchalik kalta kestirding... Mayli, xafa bo'lma, yarashibdi. Ey Xudoyim, shimingning pochalaridagi loyni qara?.. Qizaloq, sen juda yoqimtoysan. Voy-bo'y, lablaringni ham bo'yaysanmi? Zinhor!.. Sen mening kayfiyatimni buzolmaysan?" Yana nimalar, nimalar... "Jurnal" O'yaning erkak do'stlarini sabr-toqat bilan qarshi olardi, ammo O'ya uning yonida qizlarni ko'rishni aslo xayoliga keltirmas, tezda achchiqlanib u yerni tark etardi. "Jurnal"ni paroxodma-paroxod sarson qilar, bandargohda kutdirar, nihoyat, bir kecha uni tushida ko'rib bardosh berolmay paydo bo'lardi. Yuzma-yuz o'tirgan paytlarida "Jurnal" bir oh tortar va joyiga o'tirib do'stiga: "Azizim, — dердi. — Tavba, sening jahling yomon. Gapimni eshit, bunday qilmaslik kerak". O'ya ichidan kulardi, necha kundan beri saqlab yurgan ginalarini unutib, qayta farog'at og'ushida yashashga va shirin xayollar surishga oshiqardi... Odamzod yashaydigan uy juda go'zal bo'lishi kerak deb o'ylardi. Uyiga olib boruvchi yo'l juda go'zal yo'l edi. O'zicha shaharning chekka mahallalariga qarab tog'-u qirlarga yaqin, asfalt yo'ldan keyin keladigan tuproq yo'lni o'ylardi. Ko'klam chog'i inson poliz yoqalab shamol shivirini eshitib asta-sekin qadam tashlaydi. Shahar uzoqlardan, dengiz ila samoning g'aroyib moviyligi orasidan, yengil tuman pardasi osha yaqqol ko'rinardi. Uzoqlardan ovozlar eshitilardi. Qaldirg'ochlar

uchib o'tar, faqat shu payt samo gumbazining balandligi-yu, tevarak-atrofning bepoyonligidan bosh aylanib ketardi. Agar maymunjonlar tugagan bo'lsa, ularning bizga tanish bo'lgan qip-qizil rangini xayolga keltirish qiyin emas. Uy yo'lning chap tomonida, ulkan bog' ichida bo'lib, bog'ning paxsa devorlaridan uzumlar osilib turishi muqarrar edi. Bu bo'lmag'ur narsa emasdi. O'ya bunday uylardan ko'pini bilardi. Bog'ning bir burchagidagi katta yong'oq daraxtining ostiga kattakon dumaloq stol qo'yib, ustiga yashil yopqich yopardi. "Jurnal" o'sha yerda farang ko'ylagining yengini shimarib kresloda yonboshlab gazeta o'qirdi, bir qarashida soch farqi ochilgan joyidagi yara izi ko'zga tashlanardi. Xayoli shu yerga kelganida O'ya bo'ynini egib kulimsirar va: "Kim biladi, yoshligida devorga tirmashib yurgan shumtakalardan bo'lgan ko'rinadi", — derdi. Ikkita farzand ko'rishadi. Biri qiz, ikkinchisi o'g'il. Qiz sariq, o'g'lon esa otasi kabi tatarga o'xshash, qovoq, qovoq, qovoqqina! Yana shumtakaniyam shumtakasi. Bog'ning boshqa burchagidagi tovuqxona yonidan qizaloqning qo'ng'iroqdek ovozi jaranglaydi. "Oyi, kisht... o'g'lingizga qarang..." "Oh, to'ng'iz popukli, kisht-a!.." — deydi. O'ya bunga qat'iyan ishonadi. O'g'il unga ro'mol o'rab baqiradi: "Hoy qiz, men senga tovuqlarning oldiga kelma demaganmidim..." — deb. O'ya doimo nimanidir qovurayotganida o'ylanib qoladi. Masalan, qizib turgan yoqqa tushar-tushmas bir zumda nimpushti bo'lib qizargan bo'rsildoq bo'g'irsoqlarni pishirganida. Kichkinagina oshxona kursisiga o'tirib o'choq boshida yonoqlari olov yanglig' lov-lov yonib zerikkanidan baqirmoqchidek ko'rinadi. Ba'zan terlaganida ensasiga yopishgan sochlarini yuqoriga yig'ib, soch ilgichga yig'ishtirib "Jurnal"ni chaqirardi. Bu yerda ham xayoliga kelgan ismni qo'yadi. Chunki "Jurnal" uning qiziqqanini bilgani uchun ismini shu paytga qadar yashirib kelardi. "Jahit... Sutchi keldi, sut olib qolgin, jonim". "Jurnal" unga qarab beg'am kishidek kulib, keyin esnaydi, stol ustidagi sut idishni olib o'rnidan turadi. O'ya ba'zan o'z ovozini eshitgandek, uning kalovlangan holda bog' eshigi tomon ketayotganini ko'rgandek bo'ladi va yig'lagisi keladi. U shu payt yugurib borib Beyhanni tutib olib bir yig'lar, bir kulardi: "Xudo haqqi, yaqinda o'g'irlab ketaman, — derdi. —

Kechalari doim uning ovozini eshitaman. Alloh jonimni olsa ham, eshitaman. O'tgan kecha tushimda o'sha bog'ni ko'rdim. Bolalarga deb qizil gulli mis krujkalar oldim. Yashil stol yopg'ichining ustida, oh, qanday chiroyli turardi ular..." U yo'lda ham, maktabda, uyda, hatto uyquda ham xayol surishni davom ettirardi. O'zini hech qachon sochlari tarang tortib yig'ilgan, qora ko'ylak va poshnali tufli kiygan yosh ayol qiyofasida ko'z oldiga keltirolmasdi. U hamisha kichkina sport bluzkasi, yengi shimarilgan xirqasi va kulimsiraganda burni jiyirilgan yosh qizcha bo'lib qolaverardi. Zero, "Jurnal" ham shumtaka o'g'lidan boshqa qiyofada emasdi. Bolalarga kelsak, ularning sochlari har tarafga yoyilgan, shumtaka, bebosh, baland tog' hidlari anqib turgan, yovvoyiroq bo'lishlarini xohlardi. O'ziga-o'zi: "Menda mahalliy ruh bor, — derdi. — Qara, hali ham yo'q narsa haqida o'ylayapman".

Keyin... Hozir O'ya ho'ngrab-ho'ngrab yig'lardi, ishqning ta'rifi o'zgardi. "Telbalik onlarida muhtasham telba holatida dunyodan hatlaganingizni va bo'shliqqa tushib parcha-parcha bo'lishingizni o'ylang. Bu Ishq".

"Jurnal" birdan g'oyib bo'ldi. Hozir O'ya — do'stlari kulib aytganidek — zanjirband telba edi. Na uyga, na qayiqqa sig'adi, na o'tiradi, na joyida turadi, na yig'laydi va o'ttiz sakkiz yarim haroratli isitma bilan aylanib yuradi. San'at nima degani, dars nima degani... ona... ota... kino, ovqat, uyqu... nima degani?! Nima degani ekan-a! Izzat-nafs, obro'-e'tibor, shon-shuhrat, yosh qiz g'ururi... nima degani?! Nima degani! Folchi kelsin! Albatta, unga ishonadi, ishonganida qanday. Kelsin niyat, kelsin ishq qo'shiqlari...

Keyin kunlarning birida o'sha oqshom paroxodida uchrashdilar. O'ya behuzur holatda o'ychan o'tirardi. Orada to'satdan paroxoddagi olomonning g'ala-g'ovurida hamma narsani bir zumda ko'rdi. "Jurnal"ning barmog'ida yilt-yilt qilib nikoh uzugi yonar, yonida esa bir qiz. Bu qiz kim? Uning o'rtadan ochilib, zich taralib ensasiga yig'ilgan yaltiroq qora sochlari, qop-qora ko'zlari, gilosdek qip-qizil lablari va inson ko'zini jovdiratgan g'oyatda ajoyib oyoqlari... Durkun ko'kragi, xandon pista rangidagi kastum-yubka va yoqasida rangi o'chgan sariq gullari... uning e'tiborini tortdi. Vaholanki, O'ya "Jurnal"ni ko'rganida boshini o'girib olib faqat

bir qarash bilan: "Iltimos qilaman, siz bilan hech qanday aloqam yo'q", — deya sitam ko'rsatmoqchi edi. U yana qarshisiga o'tirib, yelkasi va qulog'i orasidagi bir nuqtaga tikilib kulmoqchi edi va do'stiga: "Semih, juda yomon kasal edim. Gapimga ishon, ukam, faqat sening ismingni aytib alahsiradim. Meni tushingda ko'rmadingmi?" — demoqchi edi. Holbuki, ular yonidan o'tayotib O'ya bor kuchini yig'di-da, yana boshini ko'tarib qaradi va "Jurnal" ko'z-ko'zga tushganida siqilgan bir holatda boshini o'girdi.

O'ya hali ham hayron, qanday qilib hushidan ketib qolmasdan o'tiribdi. Nima uchun o'kirib-o'kirib yig'lamaydi. Faqat qalbi bo'g'ziga tiqilib urilar, quloqlari g'uvillab, zo'rg'a nafas olardi. Issig'i ko'tarilganini sezar, faqat buyuk sukunat ichida o'tirardi.

"Jurnal"ning unga xiyonat qilganiga hech ishonmasdi. Daftariga faqatgina: "Sevganimning nayi qoldi cho'zilib yerda", — deb yozdi. O'sha sarg'ish-moviy ko'zlari va yoqimsiz holatida "Jurnal" yaxshi odam edi. Faqat taqdir, qismat. Faqat o'sha dastlabki kechalar tongga qadar yig'lab derdiki: "Allohim, Allohim, mening yaxshi niyatlarimga afsuslanmaysanmi? Allohim, menga rahming kelmadimi?.. Stolning yashil yopg'ichi bilan, bolalarning gulli krujkalari nima bo'ladi endi! Eh, mening popukli sariq qizim bilan shumtaka o'g'lim. Endi "Jurnal" meniki emasmi? Endi do'stlarim "O'yaning "Jurnal"i" deyishmaydimi? Ustiga-ustak, men o'sha go'zal qizni yoqtirmadim. U qiz "Jurnal" uyga kelgan paytda eshikning orqasiga berkinib qo'rqitishni va o'sha soch orasidagi jarohatiga bo'sa berishni ham bilmaydi. Mana bunday oyoq almashtirib o'zini ko'z-ko'z qilib o'tiradi".

Tunning yengilgina shabbodasi esardi. Olma gullari titrar va O'ya yana shu tariqa ko'zlarini yiltillatib, yonoqlarini olovday lov-lov yondirib o'tirardi. U endi yig'lamas, faqat jiddiy qiyofada yangi muhandis jazmanni qanday qaytarishni o'ylardi. Zahroxonimning safsatalari xayoliga kelganida o'zini tutib turolmasdan kulib yubordi! "Qiz tushmagur... — degandi. — Odamlarning qizlari shifokor, muhandis deb jon berishadi. Qizlarga rassomlik-passomlik nima bo'lardi? Qani, bir erga tekkin-chi, biz uyingga borib qo'lingdan choy ichaylik. Qiz o'stirdik deb biz ham biroz kerilaylik".

NAIM TIROLI

YIGIRMA BESH QURUSHGA AMERIKA

Menga qolsa, o'rnimdan qo'zg'almas edim. Har kuni gazeta va kinolarda harbiy kemalarni ko'raverib, juda zerikkandim. Shunday bo'lgach, Bosforda langar tashlagan Amerika flotini ko'raman deb o'z tinchligimni buzamanmi? Bundan tashqari, xususiy da'vat, mehmondorchiliklar, muhim kishilar va yoxud amakisi borlar uchun ekanligini bilar edim. Men bo'lsam, na muhim odamman va na badavlat amakim bor. Qutidagi qiyomni yalab, qirg'oqqacha piyoda yurib borib, uzoqdan kemaga qarash uchun ovora bo'lish menga yarashmaydi. Ammo sen, sevgilim, o'z so'zingda turib olib, butun ishlarni buzding. Sen biror nimani iltimos qilsang, men yo'q deyishim mumkinmi, axir? "Yur, kemalarni ko'ramiz" deding. Shunda badavlat amakim yo'qligi va muhim odam emasligim esimga tushdi. Buni eslash men uchun yaxshi emasdi. Bunaqangi sayrdan hech qanday naf ko'rmasdim.

Xudoga shukurki, sen o'zing ham layoqatsiz va kichik odam ekanimni bilarding. Buning uchun xafa bo'lishning hojati yo'q edi. Biz Do'lmabog'chaga bordik. Men kichkina bog'ning skameykasida o'tirib, kemaga qaraymiz va u yoq-bu yoqdan gaplashamiz deb o'ylagandim. Evoh, evoh! Ish-uyda o'ylaganing ko'chaga to'g'ri kelmaydi deganlaridek bo'lib chiqdi. Shunday odamlar ham borki, ular uchib ketayotgan qushdan pul shilib olmoqchi bo'lishadi. Qandaydir bir firibgar daqqiyunusdan qolgan bir yarim metrlik durbinni texnika universitetining oldidagi zina yonidagi sepoya ustiga o'rnatib olib, o'n qurush to'lasangiz kemalarni ikki daqiqa tomosha qilasiz, deb o'tkinchilarga taklif qilardi.

Men sening fazilatlaringni ta'riflab o'tirmayman, azizim. Men bilamanki, sen ham xotinlarga xos bo'lgan zaiflikdan xoli emassan. Sen biz ham tomosha qilaylik deding. Bog'chada o'tiradigan joy yo'q edi. Hammayoq bekorchilar bilan to'lib-toshgandi. Amer-

ika dengizchilari qirg'oqqa to'xtovsiz tushib turardi. Ular yosh va kelishgan edi. Shu qisqa vaqt ichida ular qanchadan qancha tanish orttirmadi, deysan! Ularning ichida Beyo'g'lidan kelgan mashhur fohishalar, univermag sotuvchilari va eng qizig'i, kollejlardan kelgan yosh-yosh qizlar ham bor edi.. Ular amerikaliklar bilan sayr qilishni baxt hisoblab, o'zaro musobaqalashardilar. Yangi tanishlar darrov qizlarning qo'ltig'idan qo'lini o'tkazib olardi; ular qahqah urib, gaplashib pastdan yuqoriga — Taqsimga chiqib ketishardi. Ularning u yerda nima ish qilishi ma'lum.

Ba'zi amerikalik epchil matroslar tarixiy yodgorliklarni ko'zdan kechirardilar, bozorda qo'lga ilinadigani nima bo'lsa: zanglagan qilichmi, chilimning uzun charm ichagimi — sotib olardilar. Beyo'g'lidagi pivoxona va mayxonalarning doimiy mijozlaridan ko'pchiligi tun yarmigacha ichiladigan va yeyiladigan barcha narsani yeb yutardilar-da, keyin to'da-to'da bo'lib u yoq-bu yoqqa kirib chiqardilar, baqirishib ashula aytardilar.

Qattiq shamol esib etaklarni hilpiratardi. Aviatashuvchilar va kreyserlarda zarracha hayot alomati yo'q. Ular ulkan dengiz hayvonlariga o'xshab Bosfor o'rtasiga mixlab qo'yilganday qotib turardi. Biz pristanga borib, kemalarni tomosha qilishga va qirg'oq bo'ylab qaytib kelishga jazm qildik.

Pristandagi olomonni ko'rdig-u, darhol o'sha yoqqa yugura ketdik. Qirg'oqqa bog'lab qo'yilgan bir necha motorli qayiq to'lqinda chayqalardi. Juldur kiyingan allaqanday kishilar qayiqlarning tumshug'ida turib olib, bir lahza ham to'xtamay qichqirishardi. Shamol kuchayganda ular: "Yigirma besh qurushga Amerika!" Janoblar, fursatni qo'ldan boy bermanglar! Yigirma besh qurushga Amerikani ko'rasiz!" deb yana ham qattiqroq qichqirardilar.

Pristandagi kishilar navbat bilan bitta-bitta qayiqlarga tushishardi. Ziyoratchilardan sakkiz-to'qqiz lira to'plangach, qayiq suzib ketardi.

Sen churq etmasding. Sen bu safar yigirma besh qurushga Amerikani ko'rsatishim kerakligini bilarding! Chindan ham kamdan kam bo'ladigan bunday hodisadan chetda qolish yaramasdi. Yigirma besh qurushga nima qilish mumkin? Axir, bu pulga

somsa yoki pirojniy olish mumkin edi, xolos-da. Shu payt men Amerika uchun bir pirojniyni qurbon qilardim, albatta. Yigirma besh qurushga Amerika! Bunday arzon molga kim aldanmaydi, deysiz!

Motorli qayiqlar har o'n besh daqiqada pristandan suzib ketardi. Hammadan ham bizga yaqin turgan qayiqdan:

— Qani, Amerikani yigirma besh qurushga ko'rishni xohlovchilardan yana ikkitangiz keling! — degan ovoz eshitildi.

Biz qayiqqa tushdik. Hali o'rnimizga o'tirmasimizdan qayiq suzib ketdi. Biz bekorchilarning ichiga tushib qolgandik. Ularning ko'pchiligi xotinlar edi. Ular qayiqning yopiq tomonida shamoldan panalab o'tirishardi. Bizdan tashqari palubada yana sakkiz kishi: keng gardishli fetr shlapasini bostirib kiyib olgan ikki talaba, sochini erinmay ho'llab taragan tilla tishli pakana kishi, uch keksa — ko'rinishlaridan qishloqlik bo'lsa kerak va bir o'rta maktab o'quvchisi bor edi.

Sen paltongga mahkamroq burkanib olib, qo'llaringni menga uzatding; o'zim ham paltomning yoqasini ko'tarib olgandim; men qo'llaringni isitib, silab-siypalardim. Qishloqilar bizni ko'rsatib, shivirlashgan kezlari ham bo'ldi. Ular katta shaharda axloqning buzilganligini gaplashgan bo'lsalar kerak. Xo'sh, agar biz bir-birimizga yoqib qolgan bo'lsak, buning nimasi yomon? Buning taajjublanadigan joyi yo'q.

Qattiq sovuq shamol esardi. To'lqin sapchib, yo'limizni to'sardi. Osmonni qora bulut qoplab oldi. Biz kemalarga yaqinlashdik. Biz avval eskadra minonosetslari orasidan o'tdik, ammo u yerda hech kim bizga e'tibor bermadi. Kreyser oldiga kelganimizda yo'lovchilar qiziqib qolishdi. Bu kreyserning jangovar faoliyati to'g'risida gazetalarimiz har kuni jar solardi. Palubada sandiroqlab yurgan dengizchilar bizga qarab qo'llarini silkitishardi. Shamol sochlaringni to'zg'itib yuborgandi. Sen juda ajoyib eding! Endi men Amerika kemalarini ko'rib lazzatlanishing uchun sarflagan yigirma besh qurushimga achinmasdim. Sening to'zg'igan sochlaring va shamoldan qisilgan ko'zlaring shu payt hamma narsani — Amerikani ham, yigirma besh qurushni ham, kemani ham, dengizchilarni ham unutishga majbur etardi...

Aviatashuvchiga navbat kelganda hamma hayajonlandi. Necha qavat? U yerda hamma narsa — liftlar, langarlar... bor edi. Aviatashuvchidan motorlarning sekin gurillagan ovozi eshitilib turardi. Palubada bir necha o'nlab samolyot bor edi. Ziyoratchilar har xil fikrlarni ayta boshlashdi. Sochini ho'llab taragan kishi qishloqilar bilan inoqlashib qoldi. U aviatashuvchida atom bombasi bor, deb ta'kidlardi. Qishloqilar bu muttahamning gaplariga ixlos bilan quloq solishardi va, o'z navbatida, atom bombasi to'g'risida gazetadan o'qiganlarini aytishardi.

O'rta maktab o'quvchisi bo'lsa, kemamizdagi shamoldan qiyshayib qolgan bayroq dastasini to'g'rilashga urinar va bu bilan u amerikaliklar oldida obro'yimizni saqlamoqdaman deb o'ylab gerdayar edi.

Biz pristanga qaytayotib, "Yavuz" kreyseri oldidan o'tayotganimizda kimdir:

— Manavi arslonga qaranglar! — dedi.

Boshqalar ham xuddi shuni kutib turishgandek edi. Odamlar kemaning jangovar sifatlari to'g'risida gapira boshlashdi va oradan sal o'tmay, dunyoda bunaqangi boshqa kreyserni topib bo'lmaydi deb bir-birlarini ishontira boshlashdi. Talabalar bu gaplarga e'tibor berishmadi. Ularni ko'proq qayiqning yopiq joyida o'tirgan yosh xotinlar qiziqtirardi. Biz qirg'oqqa qarab suzdik. Boshqa qayiqlar kemalarga tomon yo'l oldi. Ular xuddi qo'rqqandek kemalar oldidan bir yoniga qiyshayib o'tar edi. Yigirma besh qurushdan ayrilib, qirg'oqqa tushdik.

Chamamda sen mamnun eding. Burningning uchi sovuqdan qizargandi. Ana shu ko'rinishda sen men uchun go'zal va qimmatli eding. Sen bir nima deding va men bir lahza cho'ntagimda bir qurush ham qolmaganini, ishim chatoqlik ekanini, xonamda qandalalar qish uyqusidan uyg'ona boshlashini unutdim...

* * *

O'shandan beri oradan necha oy o'tganini bilmayman. Bosforga do'st Amerika kemalari yana keldi. Bir-biriga o'xshagan narsalarni eslashning ham gashti bor. Istanbul Amerika matroslari bilan yana to'lib-toshdi. Nima ham qilardim: sen bilan ajralishga

to‘g‘ri keldi. Men seni unuta olmasligimni sendan yashirmayman. Gazetalarda harbiy kemalarning suratini ko‘rganimda o‘sha o‘zim yigirma besh qurushga ko‘rgan Amerikani va o‘zimning yigirma besh qurushli baxtimni o‘ylayman. Tanishgan o‘sha olifta seni kemaga olib borish uchun taklifnoma olganini eshitdim. Endi sen xursanddirsan! Agar sen men bilan qolganingda men senga nimani ham taklif qila olardim? Yigirma besh qurush to‘lab, qayiqda sayr ettirishga majbur bo‘lardim. Sen suyunganing uchun men xursandman. Amerika kemalarini ziyorat qilish kichkina baxt emas!

SHOIR NAJMI AFANDINING BAHOR QASIDASI

Hatija Gulfam xonim sekin eshikni ochib oyoq uchida ichkariga kirdi. U bir necha kun oldin bosh vazir maqomini olgan Abdulqodir Hulusi Posho uchun zavjasi bag'ishlamoqchi bo'lgan qasida haqida fikrlashishni xohlar, bag'ishlov qanday yozilayotganiga qiziqardi. Ammo xonaga ikki qadam qo'yar-qo'ymas xonimning ozg'in va bug'doyrang chehrasi birdan qip-qizil tusga kirdi. Shoir Najmi Afandi siyohdoni bilan qalamini bir tomonga uloqtirib, qog'ozlarini chor atrofga yoygancha yangi sadri a'zamni madh etib ulug'lovchi baytlar bitish o'rniga uyquga ketgandi! U xurrak otganida siyraklashib qolgan tishlari ko'rinar, bosh kiyimi esa yon tomonga qiyshayib turardi.

Hatija Gulfam xonim qattiq zarb bilan xo'jayinining yelkasiga turtkiladi. Najmi Afandi birdan ko'zlarini ochib tepasida turgan zavjasini ko'rdi, yonoqlariga qizillik yugurdi, qariyb g'ayrishuuriy bir harakat bilan qo'li siyohdonga, qalam va qog'ozga cho'zildi. Siyohdon bilan qalam uning shundoqqina yonida, eski joyida turardi. Lekin u pastga tushgan qog'ozlarni tezda yig'ib ololmadi. Hatija Gulfam xonim jahl bilan yerga egilib qog'ozlarni yig'ishtirdi va unga bermasdan oldin nimalar haqida yozganini bilishni xohladi. Qog'ozlarni ko'rib miyasiga qon urildi. Sahifalarning barchasi hali ham top-toza edi. Hatto vazirning ismi ham yozilmagandi. Shoir hozirgacha muqaddimani o'ylab, kirish qismida sayr qilardi!

— Peshin vaqti ham tugay deb qoldi. Holbuki, sen nonushtadan beri shu yerdasan. Bu yig'ma divanda senga ilhom emas, uyqu keladi! Shuncha vaqtdan beri bitta bayt ham bitmadingmi? Agar shunday ishlashda davom etsang, bosh vazir mansabdan chetlashtirilgunicha hatto qasidangning yarmi ham tugamaydi!

Hatija Gulfam xonim bo'ylari baland, yuzlari cho'zinchoq, chamasi, o'ttiz besh-qirq yoshlar atrofidagi ayol edi. Ayniqsa, baland bosh kiyimi va to'rt qatlangan uzun ko'ylagida juda ham yo'g'on ko'rinardi.

Najmi Afandi janjalning ilk uchquniga o'xshash bu dashnomdan latifa aytib chiqib ketmoqchi bo'ldi.

— Shunday gaplar yurgan bo'lsa, biz ham qasidamiz bag'ishlovini o'zgartirib, uni yangi vazirga taqdim qilaveramiz!

Hatija Gulfam xonim uning ustidan kulgandek yelkasini qoqdi:

— Ajab, hozir aytgan gaplarimga ishondingmi? Agar uyda to'shak bilan yostiq bo'lmasa, asar dunyoga kelmaydimi? Noming unutilib ketadi-ku, axir. Agar bir narsa yozib Poshoga taqdim etsang, u madhiyangga ham, o'zingga ham e'tibor bergan bo'lardi! Jilla qursa, qo'lingda biror hunaring bo'lganida, "Bozorga borib, do'kon och", — degan bo'lardim. Kimsan, davlat arbobi Harputizoda Xayrulloh Afandi farzandi Hatija Gulfamning taqdirida baqqolning harami bo'lish yozilgan bo'lsa, Rabbim yaratgan taqdiriga nima ham deya olardim?"

Najmi Afandining yarmi oqargan, dumaloq va sap-sariq soqolga o'ralgan oppoq yuzida charchoqqa o'xshash alomat bor edi. Yuz birinchi marta uning nasl-nasabini e'lon qilib, ta'rifga til ojiz istehzolar zahrini sochib, rangsiz, nozik dudoqlarini bujmaytirib zavjasi (baqqol harami bo'lish ham yozilsa-ya!) ekanligini ilova qilib, ko'z qovoqlarini bazo'r yumib ochdi. Keyin yoza boshlagan va uyquga tolib yerga tushirib yuborgan qog'ozlarini qo'liga oldi, o'z odatiga ko'ra ikki buklab qalamini siyohdonga botirdi. Qalam ikkilanib tortingandek qog'oz ustida asta-sekin chatirlab yoza boshladi.

Hatija Gulfam xonim yana bir marotaba yelkasini qoqdi:

— Harakat qil, shoyad, yaxshi bir asar yaratsang. Oldinlari qanday oson, qanday chiroyli yozarding-a! Peshonangda borini ko'rasan, endi senda she'riyat javhari tugadi!

Najmi Afandi javob bermas, faqat qo'lidagi qog'ozning titrashidan uni chulg'ab olgan asabiy holat sezilib turardi.

Hatija Gulfam unga emas, yana to'xtab qolgan qalamga e'tibor qaratdi va xo'jayinida shoirlik nomiga xos biror alomatning qol-

magani haqidagi fikri yanada kuchaydi. Hozir ko'ngildagidek asar yoza olmasa ham, Najmi Afandining oldindan qozongan nomi va shuhrati bor edi, bu nom va shuhrat yangi sadra'zam huzurida qanchalik egilsa, qanchalik pastga tushsa, shunchalik ko'p ehson ko'rishi mumkin edi.

— Janob Poshoni ko'klarga ko'tarishni unutma. U kabi vazirni asrlar ko'rmaganini, bilmaganini bir necha marotaba takrorla!

— Xo'p bo'ladi, Gulfam, xo'p. Yetti qavat yer tagiga tushishga loyiq bo'lgan bu kimsani arshi a'loga olib chiqaman!

Eriga pichoqdek o'tkir nazar bilan tikilgan ayol javob berishga, unga qarshi chiqishga botinmadi va bu yerda yana biroz qoladigan bo'lsa, noxush so'zlar aytishdan qo'rqib xonani tark etdi.

* * *

Muhtasham va qimmatbaho mo'yna ichida sadra'zam Abdulqodir Hulusi Poshoning keksaygan vujudi — bir qancha illatga mubtalo bo'lgan esa-da — haybatliroq ko'rinardi. U eng nafis hind matolaridan tikilgan yostiqlarga suyangan holda Najmi Afandining tabrik qasidasini ohista o'qidi. Uning to'xtab-to'xtab o'qishidan mamnun bo'lmaganligi shundoqqina sezilib turardi. Najmi Afandi xonaning eshikka taqalgan burchagida hurmat saqlagan holda yupqa to'shak ustida tiz cho'kib o'tirardi.

Sadra'zam Posho qasidani o'qib tugatgandan so'ng boshini ko'tarib huzurida tiz cho'kib iltifot-u ehson kutayotgan kishiga tikildi. Uni tanilgan shoir deb huzuriga taklif qilganidan pushaymon bo'ldi. Posho o'qigan uzundan uzun she'rdan aslo zavq-shavq olmadi. Eski muhorabalarning ta'rifi-yu hamd-u sanolarini hech uchratmadi. O'zining jahongashta qahramonga o'xshatilmaganidan g'azabi qaynadi. Holbuki, boshqa shoirlar — Nafi bormi, yosh Usmon bormi, hatto mo'ylovini burab jangga ketdi, qinidan chiqmagan qilichini yov boshlarini sapchadek uzib tashlardi deb uni ko'klarga ko'targandi? Qarshisidagi miskin esa hatto maqomining juda ko'p yillar davom etishini duo qilishni ham unutgandi. Bu maqomning mulk va davlat uchun mislsiz saodat va iqbol davrini ochishiga bo'lgan ishonchini hatto dadillik bilan aytmagandi. Ha, bu qasida za-

monasining barcha shuarosi tomonidan taqdim etilgan she'rlarning hammasidan sayoz, hammasidan haroratsiz, jumlalari esa o'ta g'aliz edi. Va yana kim biladi, bu bag'ishlov nega hamma qasidalardan kech taqdim etildi. Abdulqodir Hulusi Posho asar haqida bahs qilishga jazm etmadi, faqat Najmi Afandining ayoli tomonidan qilingan qistovlarga mag'lub bo'lib qasidaning oxirgi baytida zikr etgan ism haqida mag'rurona bir harakat bilan so'radi:

— Ayoling Mahmud Xayrulloh afandining qizimi?

— Ha, olampanohim.

Abdulqodir Hulusi Posho yoshligida Xayrulloh afandidan ko'p yaxshiliklar ko'rgandi va bu qasida Hatija Gulfam talabiga muvofiq teskari yozilgandi, ya'ni Xayrulloh afandi katta davlat arbobi bo'lgani holda Abdulqodir Hulusi Poshoning hech narsaga erishmagan lutf-diydasi, quli sifatida ko'rsatilgandi.

Qisqa sukutdan keyin Posho dedi:

— Uni hayotligida tanirdim. Olim va fozil insonlardan biri erdi.

Keyin u shuncha iltifot qilgani yetarli ekaniga ishonib, derazadan bog' tomonga qarash uchun boshini o'girayotib tahqirlagan bir ovozda:

— Xazinabon afandining oldiga bor! — dedi.

Sadra'zamning teri ichiga botgan, lekin chaqnab turgan ko'zlari egilib oyog'ini o'payotgan shoirga qiyo ham boqmadi. Oyoq o'pishni man etish uchun qo'li bilan imo-ishora qilib o'tirmadi. Go'yo uning ko'zlari Najmi Afandiga qaraganda uning shaffof tanasini teshib o'tmoqchidek tuyulardi!

Najmi Afandi xonadan chiqqach, xazinabon yoniga bormasammikan deb o'ylab qoldi. Faqat, hayhot, agar uning oldiga bormasa, uyiga quruq qo'l bilan qaytadi. Alaloqibat uyida Hatija Gulfam bor. Uning sitamlari-yu istehzolari, zahar-zaqqum so'zlari Najmigagina ayon.

Najmi Afandi xazinabon huzuriga chiqish uchun, chamasi, yarim soatcha kutdi. Va har xil odamlar orasida o'zini yolg'iz va xo'rlangandek his etib navbatini kutarkan, yuragi siqilib ichida dedi:

"Bir martagina ismlari qalamingizdan to'kilgani uchun o'zgalarni xorlaydigan, hatto hajv qilingani uchun emas, faqat shu uchun ismlari kelgusi asrlarga tanilajak va tanilmoqchi bo'lgan g'ofillar! Soyayi davlatimizda abadiyat qozonganlari holda bizga marhamatlarini taxmin qilgan surbetlar!"

Xazinabon afandi ko'sa soqolli, qosh-u ko'zi, og'zi-burni beto'xtov o'ynaydigan odam edi. Xirillagan ovoz bilan:

— In'om uchunmi? — deb so'radi.

Javob kutib o'tirmasdan yonidagi bir qancha alvon shohi xaltachalar orasidan eng kichigini tanlab olib Najmi Afandiga uzatdi.

Bu odamning ko'zlari hatto Najmiga qaramas, uni ko'rmas ham edi!..

* * *

Xayrulloh afandi o'g'illari qatorida qizlarini ham o'qitishga e'tibor qaratganidek, bo'lajak kuyovlarining ham mavqe va mulklariga emas, balki bilimiga, aql-u idrokiga qaragan, yaxshi ta'lim olgan qizlaridan bittasini zamonasining iste'dodli, yosh shoirlaridan biri Najmi Afandiga uzatgandi. O'sha vaqtdan buyon bu iste'dod kashf etilib, Najmi haqiqatan ham zamonasining buyuk va tanilgan shoirlaridan biri bo'lgandi. Faqat uning bitta nuqsoni, ya'ni loyiq deb topilgan butun hurmat va e'tiborni sezishga mone nuqsoni bor edi. Najmi Afandi xushomadgo'ylikdan yiroq, u kundan kunga soni ko'payayotgan joriyalardan ajralib haramdan tashqariga chiqishni xohlamagan podshohni o'z qasidalarida Alloh tomonidan davlat va millatga berilgan inoyat sifatida ko'rsata olmas, saroy ayollariga pora berib katta mansablarni egallagan va atrofini zulmga ko'mib mol to'plashdan boshqa narsani o'ylamagan davlat arboblarini olqishlab, xizmatlarini ko'klarga ko'tara olmasdi. Ruslar va avstriyaliklarga qarshi janglarda ketma-ket yengilib betartib qochgan piyoda askarlarning mag'lubiyatini qandaydir g'alaba sifatida tasvirlay olmas, bora-bora ortayotgan zulm ostida ezilayotgan mamlakatni saodatga g'arq bo'lgan o'lka deya e'lon qila olmasdi. Va shu tarzda ijod qilganlarni doimo o'ziga soyabon yaratib, ular marhamatiga ko'milganlar va kun sayin martabalarga erishgan hamda erishayotganlarni ko'rganda

qo'li qalamga bormasdi. U asta-sekinlik bilan shunday vaziyatlarga to'qnash keldiki, o'zi uchun yozgan, o'z qalbi hislaridan tug'ilgan bitiklarni ham ma'qul ko'rmay yirta boshladi. Chamasi, bir yillar bo'ldi-yov, uning qalami tamomila yozishdan to'xtagandi. Mayda-chuyda bor-budini sotib kun kechirayotgandi u.

Otasi ularga yashash uchun hech qanday boylik qoldirmagani Hatija Gulfamni hali-hanuz g'azablantirardi; u isyon ko'tarib bir qancha mulkdan uning bir qanchagina olmosga kelganini tushungandi.

— Katta davlat arbobining qizi bo'la turib to'y-u yig'inlarga zirag-u uzuklarsiz boramanmi? — deb baqirardi.

Aynan shu asnoda bosh vazirlikda o'zgarish yuz berib, bu maqomga Hatija Gulfamning otasidan vaqtida ko'p marhamat ko'rgan Abdulqodir Hulusi Posho o'tirgandi. Hatija Gulfam Najmini tabrik qasidasini yozishga majbur qilib, Xayrulloh afandining kuyovi ekanligini ham qistirib o'tishni talab etgandi. Najmi sadr-a'zamning huzuridan qaytganida uni eshik ostonasida ko'rib, odatlanmaganiga qaramay, eshikning ochilgan ovozini eshitib yugurdi.

— Poshoni ko'rdingmi? Nima ehson berdi?

Najmi Afandi lom-mim demadi, qo'ynidan kichkinagina pulxaltani olib unga uzatdi. Xaltaning kichikligini ko'rib Hatija Gulfamning ko'ngli buzildi; ichidagilarni darhol bo'shatdi, sanab bo'lgach:

— Odatda, she'riyat ostonasiga endi qadam qo'yayotgan shoirga shuncha in'om beriladi! — deb ming'irladi.

U yovqarash bilan boshini ko'tardi va xo'jayinining yuziga yana bir bor tikildi. Va uning sochidan tirnog'igacha shalabbo bo'lganini o'sha paytda ko'rdi. Najmi Afandi juda sovqotgandek terisi oppoq tusga kirdi; dir-dir titrab, jag'lari bir-biriga urilardi.

Chindan ham, Posho huzuridan qal'a devorlari yaqinidagi uyigacha qattiq yomg'ir ostida qaytgan, yomg'ir esa suyaklarigacha singib ketgandi.

* * *

Najmi Afandi vaziri a'zam huzuridan qaytayotib yomg'irda ivigan o'sha kundan beri olov ichida yonar, uch kun o'rnidan tursa, besh kun to'shakka mixlanar, kundan kunga kuch-quvvat-

dan ayrilib borardi. Olib kelgan in'omidan juda ham oz qolgandi. U hushiga kelgan paytlarda Hatija Gulfam tepasiga kelib ("Yangi bir narsa yozishing kerak! Yangi bir narsa izhor etishing kerak!" — deya) tazyiq o'tkazar va do'q qilardi.

Shoir bo'lsa:

— Holdan toyganman, xotin! Meni biroz o'z holimga qo'y! — deganida:

— Senga kim pahlavonlik qil dedi, holsizlig-u quvvatsizligingdan shikoyat qilasan. Senda shoirlikdan hech narsa qolmagan! — deya kinoyalar va achchiq so'zlarni aytishdan hech toymasdi.

Bu xotin sadri, a'zamni ham, Abdulqodir Hulusi Poshoni ham madh etish qanchalik og'ir ekanligini tasavvur qilolmasdi. Abdulqodir Hulusi Posho esa hatto madrasadagilarni ham jonidan to'ydirgan, borgan viloyatlarida zulmni haddan oshirgandi; bir qancha jangda qo'mondon bo'lib, har safar dushman oldidan qochib, nihoyat, zulm va hiyla soyasida yig'ib to'plagan boyliklaridan bir qismini saroyga pora berib bu maqomga erishgandi. Bunday odamni madh etish, uni yuksak fazilat egasi sifatida ko'rsatib, mislsiz deb ko'klarga ko'tarish Najmi Afandiga og'ir, juda ham og'ir edi. Kelajakda tarix bu vazirning hamma gunohlarini albatta fosh etganida, unga o'g'ri va pastkash degan tamg'alar yopishtirilganda u uchun Allohning marhamati va ne'mati yog'ilsin deb qasidalar yozgan Najmi Afandining holi qanday kechadi? Xotinining ming qistov-u undovlariga qaramasdan, u har xil turdagi yangi qasidalar yozmas, qalbi esa nimagadir rozilik bermasdi.

Sog'lig'i sal yaxshilangan kunlarning birida qo'shnisining uyidan qaytgan Hatija Gulfam unga so'z ochdi:

— Uyda bir haftaga yetgulik aqchamiz qoldi. Yoza boshlagan she'ringni bir hafta ichida tugatmasang bo'lmaydi. Baxting bor ekan, yozish fursati keldi.

Najmi Afandi so'radi:

— Nima bo'ldi? Yoki Abdulqodir Hulusi vazifasidan chetlashtirilib, uning o'rniga biror oriyatli inson tayinlanmoqchimi?

Gulfam bu latifasimon savolga javoban gapini davom ettirdi:

— Sadra'zam Posho Emirganda villa qurdirayotgan ekan. Bizning dunyoda bo'layotgan voqealardan xabarimiz yo'q! Bu im-

orat bitish arafasida emish! May oyining oxirlarida Posho u yerda katta ziyofat uyushtirmoqchi, unga juda ko'p mehmonlar tashrif buyurmoqchi ekan. Bu villa munosabati bilan qasida taqdim etmasang bo'lmas!

Najmi Afandi zanjirlar shaqir-shuqurini eshitgan zindon mahkumi yanglig' boshini tebratdi. Iloji yo'q, bu haqda albatta yozishi kerak edi. Yozish bilan zalolat, falokat bitmaydi, qo'ynidagi qasida bilan bosh vazir huzuriga boradi, surbet xizmatkorlarga yalinib asarini Poshoga olib kiradi, xizmatkorlarning qo'pol va beodoblarcha otgan qahqahalarini, qabihona so'zlarini eshitib, kim biladi deysiz, yana kimlar orasida, qancha payt, necha soat kutishi kerak!

O'tgan gal yozgan qasidasida madhiyabozlig-u ta'zimkorlikni ko'rmagan Poshoga bu yangi qasidasining ham yoqmasligi kundek ravshan edi.

Istanbul osmoni hamon bulut bilan qoplangan, shamol esgan, salqin havo edi. Faqat qandaydir sezilmas bir narsa bahor kelganini eslatardi. Shamoldami, havodami, daraxtlarning yalang'och butoqlaridami, tuproqdami bir narsa yashirin ediki, u allaqachon bahor kelganini va shu bahor daf'atan o'z chehrasini ko'rsatib, xuddi eskirgan dunyoga ilk bahor nafasini purkayotgandek tuyulardi. Har tomonga suzilib kirgan va hali hanuz hech bir yerda ko'zga ko'rinmagan bu bahor juda go'zal va toza bir mo'jiza edi. Qalblarni sevgiga to'ldirib, til ta'riflashga ojiz go'zallik, pokiza va kishini mast etuvchi mo'jiza edi. Najmi Afandi necha kundan beri tark etolmagan yotog'ida ko'zlarini ochar ekan, deyarli tuzalganini sezdi. Qasidani yozish orzusi o'z-o'zidan paydo bo'ldi, tashqaridan hech qanday kuchga muhtoj emasligini his etdi. Fikrida g'alati bir mavhumlik, ruhida top-toza bir hayajon, nur bor edi. Ruhidagi bu hayajon juda ko'p andisha va iztirobni o'chirib, dunyoga kelajak bahor qasidasi yozilar ekan, uni o'ylashga majbur etgan majburiyatlarni ham butunlay unuttirdi. Hatija Gulfamning yopiq bozorda uzuk sotishdan o'qraygan qiyofasi, takabbur va loqayd sadra'zam uchun uzun iqbol tilash zarurati, har yil bahorda uni yurt va millatning boshchisi sifatida duo etishdek gunohni, uning chirkin zavq uchun qurilgan Emirgan ko'shkini jannatga o'xshat-

ish majburiyati — bularning hamma-hammasi unutildi. Najmi Afandi faqat bahor qasidasini yoza boshladi. Odamlari yolg'on gapirmagan, hiyla ishlatmagan va gunohga botmagan, ifloslik bo'lmagan, o'g'rilik uchramagan, ayb va jazo qilinmagan, oyoq o'pilmagan va oyoq o'ptirilmagan mamlakatdagi bahorni tasvirlay boshladi.

Hozir uning qalami qush pati yanglig' yengil harakatlanmoqda edi. Tasvirga tortilgan har bir rangning tilsimlari to'kilar, topib yozilgan so'zlardagi har bir sasning aks sadosi eshitilardi. Bahor ming bir hidi bilan, toza shabadalari, shaffof nurlari va toza yomg'irlari bilan qasidasida boshdan oyoq hukmronlik qilardi. Bu qasidada na Abdulqodir Hulusi Posho, na uning to'rt qo'l bilan zich yopilgan maqomi, na qurilish yerini zabt etib, ashyolarni tortib olib, ishchi haqini bermasdan qurdirgan ko'shki bor edi.

Bu bir bahor qasidasi, bu tabiatdagi yangilanish faslining qasidasi edi.

Hatija Gulfam har safar baland dakana o'ragan boshini eshikdan ichkariga suqib qaraganida uning butunlay ijodga ko'milganini ko'rib orqaga qaytardi. Ilhom parisining qirq yilda bir ziyoratiga sazovor bo'lgan shoirni o'z holiga qo'yishim shart deb o'ylardi u.

Najmi Afandining qo'lidagi qog'ozlar bayt bilan to'lganda ruhi ham, boshi ham yengillashar, horg'in va xasta vujudidagi iztiroblarni his etmasdi. Va yonoqlari o'ynar, ko'z oldi yengilgina qorong'ilashib, xuddi tomirlaridagi qon asta-sekin bo'shashib borardi. U yozdi, yozdi, yozdi. Yoqutdan, zumraddan, olmosdan va inju marvariddan nihoyasiz bir zanjir kabi so'zlar, fikrlar, tashbehlar va tasvirlar bir-birini quvlashib ruhidan va miyasidan beto'xtov qalami orqali qog'ozga tushdi. Yozdi... beto'xtov yozdi. Tabiatning boshqa mavsumlari kabi umri faqat ikki-uch oydan iborat bir bahorni emas, hidlari abadiy boshni aylantirgan, ranglari abadiy mast qilgan va shabbodalarning ilohiy yelvizaklari insonni umrbod silagan ilohiy bir bahor qasidasini yaratgandi. Va qanchalik charchaganini, boshqa safar ham o'tib ketmaydigan horg'inlik bilan betob bo'lganini faqat shu paytdagina tushundi. Qo'li qog'ozlarni tark etdi, qalamni yoniga qo'ydi va boshi bolishga

tushdi. Yarim ochiq deraza panjaralaridan kirgan shabada unga bahorning ilk hidlarini olib kelar, keyin esa yerga egilib sahifalari tarqalgan qasidaning satrlariga bo'salar qoldirardi.

Shoir Najmi Afandi uyquga ketdi.

* * *

Hatija Gulfam ichkariga oxirgi marotaba kirganida qog'ozlarning yerda yoyilib yotganini va erining uxlaganini ko'rdi. Hatto uning holiga e'tibor bermasdan darhol yerda sochilib yotgan qog'ozlarni oldi va o'qiy boshladi. Qizining tahsil olishiga Xayrulloh afandi ko'p g'amxo'rlik ko'rsatgan, turmushga chiqmagan qiziga erkak zoti ko'rmagan tahsilni berdirgandi. Hatija Gulfamda qo'lidagi bahor qasidasining go'zalligini his etish imkoni yo'q edi. Ayol tasvirlar va tashbehlar nafosati, dabdabasi bilan to'la qasidani oxirigacha o'qidi va tushundiki, unda Sadra'zamga doir biror duo ham, Emirgandagi qasrga oid hech qanday tasvir va madhlar ham, in'om olishni ta'minlaydigan biror bayt ham, hattoki so'z ham mavjud emasdi. Ko'zlarida g'azab uchqunlari yongan Gulfam qo'lidagi qog'ozlarni yotoqda yotgan vujudga, yostiqlarning o'rtasiga ko'milgan boshga uzatib:

— Janob, maqsading meni telba qilishmi? Hatto Abdulqodir Hulusi Poshoning ismini ham yozmabsan-a! — deya baqirdi.

Faqat keyin hayrat va dahshatdan ko'zlari kattalashib, qo'llari bilan yomon tushni itarayotgandek o!.. o!.. deya ikki qadam orqaga tisarildi va yig'lay boshladi.

Yillarning yillarga emas, asrlarning asrlarga topshirajaklari haqidagi bu ilohiy qasidasini yozar-yozmas Najmi Afandi uyquga, abadiy uyquga ketgandi. Yarim ochiq deraza panjaralaridan bahor unga ilk hidlarini va salqin shabadalarini olib kelar va ularni minnatdorona in'om etardi.

RASIM O'ZDENO'REN

AZOBLI O'LIM

Yoz kutilganidan ham erta keldi. Quyosh nurlari olamni qizdirib, ekin-tikinlarni hali pishib yetilmasidan sarg'aytirib yubordi. Irmoq suvi, to'shagining yon-atroflarida sariq, usti loyqa qayroq-toshlarini ochiqda qoldirib, tubga oqdi. Bu esa yil qurg'oqchil kelishini anglatardi. Bahorda esa boshlagan odatiy beto'xtov shamol daraxtsiz tog'-tepaliklardan olib kelgan chang-to'zonlarni ekinlarning, suvsiz sabzavotlarning ustiga separdi. Yaproqlar yupqa chang yopinchig'i ostida qoldi, qoraygan yashil barglar ko'rinmas holatga keldi. Tog' yonbag'irlarining u yer-bu yerida ko'zga tashlangan quruq, qora makilar, bo'g'uvchi oydinlik ichida, tabiatga butunlay fojeiy manzara bergandek bo'ldi. Irmoqdan kelayotgan suv oyoq bilagi balandligida, juda iliq, turg'un va loyqalanib oqardi.

Bu yer "M" viloyatining qishlog'iga qarashli bo'lib, u qishloq va shahardan ham ancha olisda, hali yo'llar ochilmagan, uch tomoni tog'lar bilan o'ralgan, oldi "D" irmog'i bilan tutashgan ekinzor edi. Ekinzor shaharga qarashli bo'lmagani uchun ob-havoning yomon kelishi oqibati ko'pincha sezilardi. Qishda esa bu yerlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, bor jonzot o'z qobig'iga o'ralib olar, hech qanday tiriklik belgisini ko'rsatmasdan, ochlik, o'lim dahshati bilan olishib, umidsizlikda, ayozli, beshafqat qahratondan ko'klamga arang yetishardi. Shunday onlarda sovuqdan va qurg'oqdan qovjirab, ko'pdan kulmagan, tirishib qolgan chehralarda tabassum uyg'onardi.

Yer olti-yetti xo'jalikning ekinzor maydonidan iborat edi. Aholining soni ham yigirmaga yetar-yetmasdi. Ular yashash uchun nimaga bu yerni tanlaganlarini hech kim bilmasdi, balki shu tog'ning tuprog'i qulaydir, ya'ni hayot kechirish oson tuyulgandir-u, lekin nega aynan tog'-u toshlar orasida hosilsiz kovak tanlashganini bilib bo'lmasdi; ularga yashash uchun qulayroq

joyni ko'rsatishsa, bu yerni tashlab ketgilari kelmasdi. Faqatgina shubha va gumon bilan yashashardi. Ob-havo yaxshi kelib, hosil mo'l bo'lsa, o'sha yili bir necha eshak g'allani shaharga olib borardi. G'allani kiyim-kechak, yog', tuz, gugurt kabi narsalar bilan ayirboshlashardi. Bunday olish-berish bo'lgan joyda pulga ehtiyoj sezilarmidi? Ekinzorning o'ng tomonida jandarm binosi bo'limi qurilgan bo'lib, bu bino tepalik ustida joylashgan edi. Ohakka bo'yalgan, tuproq tomli imorat edi u. Jandarm bilan qishloq odamlarining munosabati yaxshi. Bir-birlariga ul-bul ishlarda yordam berib turishardi. Ba'zan qadrdonlashib ham ketishardi.

Ekinzorda faqatgina Shehmuz ismli kishining ikkita yilqisi bor. Ekinzorda yana sakkiz-o'n bosh qoramol va qo'riqchilikka qo'yilgan itlardan boshqa jonivor yo'q edi. Shehmuz otini jandarmlar so'rab kelishganida, ijaraga berib, kuniga ot boshiga o'n lira ijara haqi olardi. Jandarmlar shu kunlarda ekinzordan besh kilometrcha uzoqlikda yangi militsiya binosini qurishayotgan edi. Shuning uchun ham ular tez-tez Shehmuzning yilqilarini ijaraga olib turishardi. Biroq ijara haqini to'lashda ba'zi bir muammolar tug'ilar, jandarmlar ishni kechiktirib yuborishardi.

Birdan jazirama boshlanib, ekinlar quriy boshlaganida, Shehmuz ham, boshqa hamqishloqlari singari, bu yil bir qancha pushta ko'proq sabzavot ekishga majbur bo'ldi. Ammo bir qancha pushta tuproqni tayyorlash uchun yonbag'irlarning toshini ajratib olishga majbur bo'ldi. Shu sababli bu ish bir necha kun vaqtni oldi. Ekin uchun zarur bo'lgan suvni irmoqdan tunukadan idish yasab olib kelishdi. Yo'g'on tayoqning ikki uchiga bog'langan ikki tunuka idishdagi suvni yelkalarida ko'tarib olib kelib, har bir ekinning tagiga tog'ora bilan suv quyishdi. Shu tarzda suvni qo'ldan kelgancha isrof qilmaslikka harakat qilishdi. Ammo ikkinchi marotaba suv olib kelishganida dastlab sug'organ joylari allaqachon qurib qolganini ko'rishdi. Tuproq qonib suv ichmasdi. Ammo bunaqa mehnat ular joniga tegdi. Agar mehnat qilishmasa kelgusi qish balosidan osongina xalos bo'la olishmasdi. O'lib qolishlari ham tayin edi. Ular tinmay mehnat qilishar, ter to'kishar va, nihoyat, sillalari qurib holdan toyishardi.

Oftob kundan kunga odamlar va ekinlar ustiga yanada kuchliroq jahl bilan saraton olovini to'kardi.

Shehmuz bor kuchi bilan quruqshab qolgan, qattiq tuproqqa "xix" deb kirkani suqdi. Shu payt yuragida qandaydir og'riqni sezib yerga gup etib yiqildi.

Tushlik vaqti edi.

Yon-atrofda qimirlagan jonzot ko'rinmadi. Moviy, musaffo osmon tiniq, ko'rkam bir shaklda hamma yoqni o'rab olgan edi. Yonbag'ir etaklarida betartib tarzda sochilgan uylar oftob nurida qovrilar, tomlar chodiridan osilib turgan qamishlar orasidan ko'z qamashtiruvchi nurlar cho'g'lanar, xuddi kimdir yerda olov purkayotgandek. Shehmuzning xotini Xadich jazirama issiqdan pana izlab, chodirning kichkinagina soyasiga kirib olib, mis tog'orada kir yuvardi. Yonidagi taxta ustiga ho'llangan bir juft kiygiz tashlangan edi. Chang-to'zonga belangan besh-olti yoshlardagi ikki bola qo'lidagi kulcha nonlarni cho'kkalab olgan holda yeb, onasining harakatlarini kuzatishar edi. Shehmuzning o'n yetti yoshlardagi o'g'li Qambar esa yerda yonboshlab, bosh likillatayotgan ikkita buzog'iga quruq o't tashlardi. Tashqarida esa boshqa hech kim yo'q.

Qambar boshini ko'targanida, birdan otasining yerga yiqilganini ko'rdi. Qo'lidagi o'tni irg'itib, cho'chib u tomonga qaradi.

Ona, — deb ovoz berdi, — ana u tomonga qarang.

Onasi boshini ko'tarib, Qambar ko'rsatgan joyga qaradi. Erining yer qulab yotgan soyasini ko'rdi. Qo'llarini tog'oraning ichiga silkib angraydi.

— Yugur tez, bolam! Nima bo'ldi? Voy, yana nima ko'rgulik!

Qambar qo'lidagi o'tlarni uloqtirib, otasi tomonga qarab chopib ketdi.

Shehmuz ikki bukilgancha yerda ingrab yotardi. Yuzi terga botib ketgandi, peshonasidan tomchi-tomchi ter oqardi. Aft-angori qo'rqinchli darajada sarg'aygan edi. Qambar otasiga yaqinlashdi.

— Hushidan ketibdimi? Ming'irlab otasini qo'ltig'idan tutib ko'tarishga harakat qildi u, ammo eplay olmadi. U otasini ko'tarmoqchi bo'ldi, ammo Shehmuz o'likka o'xshab g'ujanak bo'lib qolaverdi. Qambar uddasidan chiqolmay garang edi. Shehmuz qirq

besh yoshlarda, basavlat bir kishi edi. Qambar esa ozg'in, novchagina bola edi. Otasini ho'ppa deganda ko'tara oladigan kuchi yo'q edi. Shu payt Hadich yetib keldi va o'g'liga:

— To'xta, oldin yotqizaylik, — dedi.

Shehmuzni yerga yotqizishdi. O'g'il otasining ikki qo'ltig'idan ushladi, xotin esa oyoqlaridan tutdi, sudray-sudray uygacha olib kelishdi.

Ayol:

— Har holda hushidan ketgan, — deb ming'irladi.

U erining hushidan ketganligiga ishonardi. Chunki Shehmuz bunday hodisani bundan bir necha yil oldin ham boshidan kechirgan, o'shanda ham qimirlamasdan haftalab yotgan edi. Shu-shu Shehmuz sog'lig'ini yo'qotgan edi. Yon-atrofda qishloqma-qishloq kezib, "tabib"lik qilayotgan Bakach Ali yana shunday yurak xuruji kuchaysa, Shehmuzni olib kelishlarini tayinlagan edi. Shu sababdan ham ayol xavotirga tushdi. Shehmuzni ichkariga olib kirishdi. Ayol darhol yerga to'shak soldi, yostiq qo'ydi. Shehmuzni zo'rg'a to'shak ustiga chalqancha yotqizishdi, ona-bola chuqur-chuqur nafas olishib, ko'ylaklarining yengi bilan terlarini artishdi. Haligi ikki bola esa onasining etagiga yopishib, qo'rquv va hadik bilan otasini kuzatishdi. Kulcha nonning yarmi hali ham qo'llarida turardi.

Ular churq etmay, hayron bo'lgancha, tikilib turishdi.

Bu yer qorong'i, uzun uy edi. Eshik ochilishiga qaramay, ichkari zim-ziyo zulmat edi. Eshik ostonasida, shipga yaqin joyda, kichkina, oftob tarafga ochilgan darcha bor edi, u yerdan ichkariga quyosh nuri xira tushardi. Nimagadir kattakon xonaga undan boshqa deraza qo'yish hech kimning aqliga kelmagan. Eshikning chap boshidan qarshi devorga kenop cho'zilgan edi. Uning ustiga bir tomonga to'plangan kigiz otilgan edi. Bu kigiz kenop bo'ylab yopilganda xonani ikkiga ajratardi. Ichkariga kirganda, dastlab hech narsa ko'rinmasdi. Darchadan sizib kirgan nur xonani yoritishga ilk lahzalarda zaiflik qilardi. Ohaksiz devorlar, g'ishtlarning u yer-bu yerida osilib turgan somon parchalari xonaga g'alati ko'rinish berardi. Yerga uvada bo'lib ketgan, chang-to'zonga bulg'angan kulrang gilam tashlangan edi. De-

vorda pilik chiroq osig'liq turardi, bu chiroq hatto kechasi ham, juda zarur bo'lmaguncha, yoqilmasdi. Yozda oy nurida, qishda o'choqda qolgan qo'r jilvalari bilan kun o'tkazishga odatlangan edilar. Zero, yorug'likka hojat yo'q edi. Yozda tashqarida, tomda yotishardi. Devor atroflariga bitta-ikkita ko'rpacha solingan edi. Bir burchakda usti jun gilam bilan yopilgan adyollar, to'shaklar turardi. Eshik yonida bir qancha sopol va temir idish-tovoqlar yuvuqsizligicha qoldirilgan edi. Kenopning narigi tomonidagi devorlardan bittasiga dastali non taxtasi tirab qo'yilgan edi. Uning yonida esa o'tgan yildan qolgan, yanchilgan bug'doy, un solingan chipta qoplar yotardi. Zaxiralari deyarli tugab qolgan, chipta qoplardagi un yarimlagan edi. Xonada boshqa hech narsa yo'q edi. Yana yon-atrofda bir nechta suyanchiqsiz bo'yra kursilar ham betartib yotardi.

Ayol cho'kkalab olib unsiz yig'lar, chora topolmay, ich-etini kemirardi. Ko'zlari qorong'ulikka moslashganidan keyin erining yuzidagi terlarga ko'zi tushdi. Etagining uchi bilan terlarni artdi. Keyin esa nimagadir erining yuziga suv sepish xayoliga keldi. Tashqariga chiqib, bir tog'ora suv olib keldi. Bir hovuch suv bilan Shehmuzning yuzini shapatiladi. Ammo suvning hech bir ta'siri bo'lmadi. Ayol o'g'liga sardobadan suv olib kelishni buyurdi. Qambar o'zini kattalardek tutib, xavotir bilan tashqariga otildi. Ayol yosh bolalardan biriga:

— Sen borib, Arab otani topib kel, — dedi.

Arab ota ekinzordan allaqayerga qazish ishlari bilan ketgan erkaklardan ancha ortda qolgan, ancha keksa kishilardan edi. Oldinlari Shehmuz ham qazish ishlariga borardi, ammo bir necha yil oldingi kasallikdan keyin tez charchab qolaverganidan qazish ishlariga boshqa bormaydigan bo'ldi, yuragi xapriqib ketib oyoq-qo'li o'ziga bo'ysunmay qo'ydi.

Bolaning tashqariga chiqib: "Arab ota! Arab ota!" deb baqirgani eshitildi. Qambar sardobadan suv olib keldi. Ayol qo'lini suvga botirib, erining yuziga shapatilab, uni hushiga keltirishga tirishdi. Bir tomondan esa:

— Qani-qani, gapiring... la ilaha illolloh... qani, — deb shivirlab Shehmuzga gapini takrorlashni so'radi. Ammo Shehmuz

sarg'aygan holatda cho'zilib yotar, hatto ayolning nima deyayotganini ham eshitmas, lablari titrardi, xolos.

Avvaliga bola xonaga kirib, Arab ota kelayotganidan xabar berdi; bola ortidan, biroz o'tib Arab ota kirib keldi. Ayol eshik ostonasida Arab otani ko'rdi deguncha u yer-bu yerini to'g'rilab o'rnidan turdi va uni eshik ostonasida kutib oldi.

— Keling, ota, — dedi, — keling, ularga bir qarang.

Arab ota soqollari o'sib, oq oralagan, keksa, uzun bo'yli, gavdali odam edi. E'tibor berib qaraganda, uning zaif, ojiz odam ekanligini sezish qiyin emasdi. Soqollari chakkasining cho'kkan joyini yopmagan edi. Ko'zlari qorong'ulikka moslashguncha miq etmay, qotib eshik oldida turdi.

— Keling, ota, — deya gapiŋi takrorladi ayol, — marhamat qiling. Shehmuzni bir ko'rib qo'ying-chi, nima bo'lgan ekan?

Arab ota Shehmuzning yerda, rangi sarg'ayib yotganini ko'rib:

— Subhonolloh! — deb shivirladi. — Shu tog'dek Shehmuz...

— Hushidan ketgan ko'rinadi, — dedi ayol, — jazirama oftobda ishlash... Garchi yuragi har doim ozgina zirqirab tursa ham ertalab biror dardi yo'q edi, shikoyati ham yo'q edi. Ertalab uning polizga ketishiga ko'nglim bo'lmagan edi, lekin bu haqda gapirishga tilim bormadi. Bir-ikki marta aytaman, deb og'iz ham juftladim, ammo oldinlari: "Endi meni odam o'rnida ko'rmaysanmi?" deb xo'p urishgan edi. Shuning uchun hech narsa deya olmadim, ammo, Xudo haqqi, bunday charchab qolishini o'ylamagan edim. Qani, bir ko'ring-chi, ota, yo dam solasizmi?

— Tashvish chekma, Hadich qizim, — dedi u, — bu kunlar ham o'tar-ketar.

Keyin Shehmuzning yoniga kelib, tiz cho'kdi:

— Bismilloh, — deb Shehmuzning bilagini qo'llari bilan uqalay boshladi. Arab ota ko'zlarini qisib duo qilardi.

Hadich bolalarga:

— Qani, sizlar tashqariga chiqing, — dedi, — buzoqlarga qarang, ularga yem-xashak bering.

Bolalar xursand bo'lib tashqariga chiqishdi.

Arab ota duosini o'qib tugatdi.

— Bakach Alini topishimiz kerak, — dedi, — u bunday bemorlarga qanday malham qo'yishni yaxshi biladi. Men uning shunaqa kasalning peshonasiga muz qo'yganini o'z ko'zim bilan ko'rgandim. Ammo yoz oyining o'rtasida muz...

Arab ota ayta boshlagan gapiga hatto jilmayishni ham ep ko'rmadi.

— Bakach Alini olib kelish kerak, ammo kim ham bilardi hozir u qayerlarda yurganini? — dedi o'ychan.

Qambar:

— Men uni topaman, qayerda bo'lsa ham topib olib kelaman, — dedi.

— Ishi yo'q paytlarda u Ch...da qoladi, — dedi ayol.

— Ey Xudoyim, jandarmlar ham otlarni bir joylarga yubormagan bo'lishsin, — dedi Qambar.

Ayol:

— Baland ovoz bilan baqir, — dedi.

Qambar eshik oldiga chiqdi, sal nari borib, hovuchlari bilan og'zini ikki tomondan yopib:

— Leytenaaant! — deya baland ovozda baqirdi, jandarm militsiya bo'limi tomonga qarab. Yon-atrofda bir muddat hech kim ko'rinmadi. Qambar bir necha marotaba bor ovozi bilan baqirdi. Va nihoyat, militsiya binosining oppoq ohak suvog'ida askar qorasi ko'rindi va u qo'lini pastga qarab chayqatdi.

Qambar leytenantdan otlarning shu yerda bor-yo'qligini so'radi. Leytenant nima deganini tushunmadi. Qambarning kichik tepalikdan pastga yugurib tushayotganini ko'rdi. Bir-birini eshitadigan masofaga yetib kelishganida:

— Otlar shu yerdami? — deb baqirdi Qambar yana bir marotaba.

— Yo'q, — deb javob berdi leytenant, — bugun ertalab qurilish yog'ochini tortishga olib ketishdi. Ular ertaga qaytishadi.

Qambarning joni chiqdi. Leytenant yaqinlashib:

— Otni nima qilmoqchisan? — deb so'radi Qambardan.

— Otam hushidan ketib qoldi, — dedi Qambar. — Nima bo'lganini o'zimiz ham bilmaymiz. Bakachni olib kelmoqchi edim.

— Ular ertaga kun botgandan keyin qaytishadi, — dedi leytenant, — otang ichkaridami?

— Ichkarida, — dedi Qambar, — Arab ota ham ichkarida.

Ular tomga qarab birga yura boshlashdi.

— Endi nima qilmoqchisan? — so'radi leytenant.

— Yayov ketaman, — dedi Qambar.

Tomga yaqinlashganida:

— Ona! — deb ovoz berdi Qambar.

Onasi tashqariga chiqdi.

— Otlar ertaga kun botmasdan oldin qaytmaydi, deyapti leytenant, — yayov boraman.

Leytenant:

— Juda erta bo'lsa, ertaga asrga, bilmadim tushlikka qaytishar, — dedi, — erta kelishiga ko'zim yetmaydi. Chunki tortadigan qurilish yog'ochlari ko'p edi. Cherdakni shu haftada tugatishmoqchi.

Qambar onasidan qo'njli botinkasini so'radi. Ayol borib botinkani olib keldi. Qambar issiqda qovjirab ketgan qo'njli botinkasini oyog'iga zo'rg'a ildi, botinka oyog'iga yaxshilab kiyilgan-kiyilmaganini sinash uchun bir necha marotaba yer tepdi.

— Otlar qaytib kelsa, kutishsin, — dedi Qambar leytenantga.

— Qorong'iga qolma, — dedi onasi, — tezroq kel.

— Xo'p bo'ladi, — dedi Qambar.

Dastlab u yugurib yonbag'irdan tushdi, keyin uzoqdan uning ikki bukilib tepalikka tirmashayotgani ko'rindi.

Qambar quyosh nurlarida hansirab olg'a qadam tashlardi. Uzun oyoqlari bilan katta-katta qadam tashlaganda, toshlar va quruq tuproqlar ustida oyoqlari sirpanib ketardi. Va, nihoyat, toshloq yonbag'irni kechib, vodiyda yo'lini davom ettirdi. Uyi yiroqlarda qolib, ko'zdan g'oyib bo'lgan edi. Har ikki tomonida so'lg'in, suvsiz bug'doy dalalari, oldida esa chang bosgan, uzun so'qmoq cho'zilgan edi. Yurganida qadamlaridan chang ko'tarilardi. Bu yo'l yozda dala ishchilari tomonidan ochilgan bo'lib, torgina yo'l edi. Bu yo'lga qadam qo'ygan yo'lovchining oyoqlariga bug'doy poyalari tegar, ko'ylagiga pitroqlar yopishardi. Tuproq, bug'doy va pitroq to'dalari orasidan kelayotgan issiq harorat Qambarning

vujudini qizdirib yubordi. Qambar chang bosgan, issiq yo'lni bo'shashmasdan kechib o'tdi. O'zan yo'nalishi kesilgan joylarda bug'doy dalalari o'sib yotibdi. O'zandan kechmasdan, shu yerda biroz o'tirib nafas rostlab olishni xohladi u, soyasida o'tirish uchun daraxt axtardi, ammo biror daraxtga ko'zi tushmadi. O'zan bo'ylab bitta ham daraxt ko'rinmasdi. O'zanning qarshi tomonida, ko'z ilg'ay oladigan darajada cho'zilgan paxta dalalari bor edi. G'o'zalar yerdan faqat bir qarichcha balandlagan edi. Quyosh hovurida suvsizlikdan qurib borardi. Qambar o'zan qirg'og'iga o'tirdi. Yuzidan chang aralash ter quyildi. Qo'li bilan yuzidagi terlarni artdi. Ancha vaqtdan beri qo'njli botinkasini kiymagani uchun oyog'i uringan edi — bog'ichlarini bo'shashtirib botinkani oyog'idan yechdi. Paypoqsiz oyoqlari ter, chang qo'shiluvidan kir bo'lgan edi. Halqumiga achchiq hid urildi. Sal nariroqda bir kaltakesak uni tomosha qilardi. Yonidan kichkina tosh olib, jonivorga qarab otdi, kaltakesak o'tlar orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. "Katta yo'lni kechsam, qishloqqa hech qancha yo'l qolmaydi", deb o'yladi u. Bu fikr xayolidan o'tar-o'tmas, darhol tuflisini kiydi va yo'l harakatiga tushdi. Katta yo'l ustida boshqa qishloq yo'q edi. Katta yo'lga yetib borish uchun bir soatcha vaqt ketardi. O'zanni tomosha qilib, "D" irmog'iga borishni mo'ljalladi. Chanqagan edi, o'zanga tushdi, u yerdan yurganida, oldidan kaltakesaklar, buqalamunlar chiqib qochadi. Quyoshning tik nurlari endi tepadan orqasiga uradi. O'zan ichidagi oq, yaltiroq qayroqtoshlarga tekkan oftob nurlari yalt-yult etib, ko'zlarni qamashtirdi. Biroz o'tgandan keyin tosh ustida yurish Qambarni charchatib qo'ydi. Qaytadan paxta dalalari yonidan, o'zandan chiqdi. Olislardan, ranglari quyuqlashgan qator tollar ko'rindi. Yangi kuch bilan qadam tashlay boshladi. U yerga borgunga qadar tez-tez yurdi. Bitta tol tagida odam turganini ko'rdi. U Qambarni ko'rdi va unga beparvolarcha qaradi. Qambar irmoqqa tushdi. Suv kamayib qolibdi, hatto irmoq ichidagi sal kattaroq toshlar ham ko'rinib turardi. Hovuchlab suv ichdi, ammo chanqog'i bosilmadi. "Agar ko'p suv ichsam, shishib ketaman", deb o'zini bosdi. Suv urib yuzini yuvdi, ko'ylagining tugmalarini yechib, ho'l qo'lini ko'ksiga bosdi. Keyin tol tagiga ketdi. U yerda o'tirgan odamga salom berdi va notanish kishi salomiga alik oldi.

— Sen Shehmuzning o‘g‘limisan? — deb so‘radi notanish kishi.

— Ha, — dedi Qambar.

— Juda terga botib ketibsan.

— Ko‘p yurdim, — dedi Qambar.

— Qorning qalay?

— Hali ochiqmadim... Kechqurungacha amallayman.

Notanish kishi yonidagi tugunni Qambarning oldiga irg‘itib:

— Och qolgansan, ol, — dedi, — tugun ichida pishloqli non bor... sal oldinroq kelganingda birga yerdik.

Qambar xohlamadi.

— Otang hozir nima qilyapti?

— Hech narsa... kasal.

Qambar birdan esiga tushib, notanish kishidan:

— Bakach Alini ko‘rmadingizmi? — deb so‘radi. — Uni izlab kelayotgan edim.

— Bakachning ma’lum joyi yo‘q; qidirasan, topsang topding.

Qambar u bilan tanishganidan xursand bo‘ldi, birga o‘tirishni xohlasa-da, kech qolishini o‘ylab, undan ruxsat so‘radi. U:

— Oq yo‘l, — dedi, — otangga mendan salom ayt, Arafachi Ali salom aytdi, degin.

— Salomat bo‘ling, — dedi Qambar ortiga qaramasdan, — albatta, aytaman.

Qambar bu safar bir muddat irmoqni miriqib tomosha qildi. Keyin olisdan katta yo‘lni kesib o‘tgan ko‘prik ko‘ringanida yo‘lini o‘zgartirib, o‘sha tomonga burildi. Ko‘prik u yerdan juda olislarda, Ch... qishlog‘i oftob tig‘ida, yong‘inga o‘xshab moviy, titroq tumanlar ichida gurillab yonayotgandek edi.

Qishloqda hech kim ko‘rinmasdi. Hatto biror jonzot ham. Hamma pana joylarga yashiringan edi. Go‘ng uyumidan yon-atrofga badbo‘y hid taralib, har tomonga tarqab ketgan edi. Tom soyasida yotgan it Qambarning notanish hidini bilib, tilini osiltirib, ko‘zlarini suzgancha istar-istamas xirilladi. Boshini o‘girishga eringanidan, bir muddat ko‘zlari bilan Qambarning yurishini kuzatdi. Qishloq xuddi tarki dunyo etilib, odamlari qochib ketgandek edi. Qambar qishloq ichiga kirgan yo‘l boshida turib yon-atrofga

alangladi. Hech kim yo'q edi. Yo'lida davom etdi. Sakkiz-o'ntacha uy narida, tom soyasida, eski-tuskiga o'rangan xotin ko'rindi. Qarimi-yoshmi — buni aniq bilolmadi. Qambar unga yaqinlashib:

— Singlim, mabodo Bakach Aliga ko'zingiz tushmadimi? — dedi.

Ayol javob bermadi. Qambar gapini takrorladi:

— Otam kasal bo'lib qoldi. Bakachni izlayotgan edim... shu yerda bo'lsa...

Ayol yelkalarini silkib:

— Bilmayman, — dedi.

Qambar yo'lida davom etdi. Yo'lda dardini to'kadigan biror jonzot ko'rinmasdi. Keyin mahalla oqsoqolini topib, undan surishtirishga qaror qildi. Oqsoqolning eshigini topib qoqdi. Ichkaridan javob kutmasdanoq eshikni ochib, hovliga kirdi. Bu yerda hech kim yo'q edi. Qambar nima qilishni bilmasdan:

— Oqsoqol! — deb ovoz chaqirdi.

Kutdi. Hech kim ko'rinmadi, ovozi javobsiz qoldi. Hovli burchagiga yig'ilgan go'ng uyumining ustida yirik, qora chivinlarning g'uvullagan tovushi eshitilardi. Qambar ikkinchi marotaba baqirishga jur'at qilolmay kutib turdi. Bir qancha vaqtdan keyin eshik ochilib, hovlida oqsoqolning uyqusiragan ukasi ko'rindi. U uyqusi qochgan bir ahvolda Qambarga tikilib:

— Nima xohlaysan, ho'v bola? — deb so'radi.

— Bakachni izlayotgan edim, aka, — dedi Qambar, — shu yerda emasmikin?

— Hoy sening Bakachingni ham... — deya so'kindi, — hov bola, bu yerda Bakach nima qiladi?

— Bir so'rayin dedim-da, aka, — dedi Qambar past ovozda, — otam kasal edi...

— Sening otang Shehmuzmi?

— Ha, — dedi Qambar.

— Otangga nima bo'ldi?

— Bilmayman, aka, dalada yiqilib qoldi, ichkariga kiritdik...

Oqsoqolning ukasi biroz vaqt o'tgach:

— Bakach biroz oldin shu yerda edi, lekin hozir yo'q, "G"ga ketmoqchi edi... — dedi.

Qambar qaytib ketishga shaylandi.

— Bu yerga kel, — dedi u, — senga ayron berishsin. Hozir ketganing bilan Bakachga yetolmaysan. U shamol kabi uchib yuradi, hatto tozi itlar ham unga yetolmaydi.

Qambar bola olib kelgan ayronni ichdi. Yengi bilan og'zini artdi.

— Mana shunday, — dedi u, — terlaring sovisin, oqshomdan oldin yo'lga chiqaman, dema.

— Ketgani yaxshi, — dedi Qambar.

U gapini takrorlab o'tirmadi.

— O'zing bilasan.

Qambar eshikni ochib tashqariga chiqdi.

Yo'lda hech kim ko'rinmasdi. Keng, ko'z ilg'ay olmas darajada cho'zilgan mahallada bitta ham jonzot, ozgina bo'lsa ham shamol ko'rinmasdi. Xuddi oftob ostida karaxt bo'lib qotib qolgandek edi. "D" irmog'i ortda, juda olislarda qolgan edi. Bir soy topib ichiga sho'ng'ishni, o'sha yerda shunday salqingina, to'ygunicha qolishni ko'ngli judayam tusadiki! Yurishi sekinlashdi. Ammo yurishda davom etdi. "Kun botmasdan "G"...ga yetib olaman", deb o'yladi u. Oyoqlaridan ko'tarilgan chang, uning terlagan, yalang'och orqasiga yopishardi. Yuzlariga ter quyilib, ko'zlarini achishtirardi. Bora-bora oyoq kiyimini ham yechdi, bog'ichlarini bir-biriga bog'lab, botinkasini yelkasiga osdi. Jaziramadan va jimjitlikdan yig'laydigan bir ahvolda, hech narsa o'ylamasdan, yo'l uni "G"...ga olib borgunicha ko'zlari olayib, oyoqlarini karaxt holatda sudrardi.

"G"...ga yetib kelganida asr vaqti bo'lib qolgandi. Quyoshning yondiruvchi nurlari kamaygandi, ammo tuproq yana ham g'alati, yopishqoq bir issiqlik purkardi. Qambar yo'lda ketayotib dastlab uchragan odamdan Bakachni so'radi. U kishi Bakachning qayerdaligini ko'rsatdi. Qambar o'sha tomonga qarab yurdi. Ularning eshigini qoqdi. Haqiqatan ham Bakach o'sha yerda ekan. Qambar tezlik bilan otasining kasal bo'lganini, uni uyiga olib ketish uchun kelganini aytdi. Bakach Ali ingichka va uzun teriga o'xshagan, sog'lom, qirq yoshlardagi kishi edi. U Qambarga:

— Bir-ikkita boradigan joyim bor, kun botmasdan ishim tugaydi, — dedi, — sen shu yerda biroz o'tirib, damingni ol.

Qambarni ichkariga kiritishdi. Charchaganidan shunday sillasi qurigan ediki, tagiga solingan ko'rpachaga darhol cho'zildi, oradan ko'p o'tmay, uzoq uyquga ketdi.

Bakach Ali qaytganida, Qambar hali ham uxlab yotgan edi.

Kun botdi, oqshom ham tushdi. Qambarni uyg'otishdi.

Bakach Ali ko'p chalg'imasdan yo'lga chiqishlarini uqdirdi. Tayyorlangan ovqatdan shoshilib bir-ikki luqma yeb, yo'lga tushishdi. Bakachning orqasida xurjuni bor edi, u qayerga borsa, xurjunini ham birga olib yurardi. Xurjunda ba'zi bir mayda-chuyda zarur narsalar bilan o'zi tayyorlagan dori-darmonlar, giyohlar bor edi. Yo'lda ketayotib Bakach Qambardan otasining kasalligiga doir belgilarni so'radi. Qambarning so'zlarini eshitgandan keyin:

— Hmm, — dedi, — qaytadan yurak xurujini boshdan o'tkazipti, shoyad bu safar ham qutulsa... Allohning o'zi yordam bersin.

Yo'l bo'yi gaplashmay tez-tez yurishdi. Bu safar Qambar kelgan yo'ldan yurishmadi. Narigi qishloqni aylanib o'tishning keragi yo'q edi. Qisqa yo'ldan katta yo'lga chiqishdi. Oy nuri toshlar va yaproqlar ustida yaltirardi. Yon-atrof xira oq rangga burkangan edi. Katta tekislikda hasharot ovozlari, ba'zan tungi qushlarning sayrashi eshitilardi. Ko'p o'tmay, katta yo'ldan kechib, narigi tomondagi baland-past dalaga o'tishdi. Bu yerda qiynalib yurishsa-da, ammo odatiy ko'nikma bilan qayerga oyoq bosish lozimligini bilib olg'a siljishdi. "D" irmog'iga yetib kelishdi. Shu payt yengil shabada ham esa boshladi. Bakach:

— Yuzingni yuvishni xohlaysanmi? — so'radi Qambardan.

Ular qirg'oqqa tushdilar. Ikkalasi ham yuzlarini yuvishdi. Biroz nafas rostlab, yana yo'lga otlanishdi. Tunning hashamatli bo'shlig'i qurbaqa ovozlari bilan jaranglardi. Irmoqning narigi qirg'og'ida bir qancha chiyabo'rilar ayanchli uvillardi.

Qambar birdan:

— Mana, militsiya bo'limi! — dedi sevinib, — chiroqlari yonyapti.

Charchoq ham birdan unutildi. Tepalikka yetib borishganda, uylarda ham chiroq yonib turganini ko'rishdi. Qambar kichik tepalikdan pastga yugurib o'zini tashladi. Pastda Bakachni poy-

ladi. Ichkarida o'tirganlar ularning oyoq tovushlarini eshitdilar. Hadich ularni eshik ostonasida kutib oldi. Kutilmagan hayajon bilan:

— Tez keling, — deya imladi, — tez... Endi sizlarni kelmaysizlar, deb o'ylagan edim. Shehmuz vidolashmoqchi shekilli, Ali... ko'zlari bejo...

Ular xonaga kirdilar. Bakach Ali kasalning oldiga keldi. Bolalar allaqachon uxlab qolishgan edi. Arab ota hali ham shu yerda ekan. U bemor yonida, cho'kkalab duo o'qirdi. Bakachga boshini imlab, salom berdi. Bakach sovuqqonligini buzmasdan:

— Vaalaykum assalom, — dedi, — yaxshimisiz, ota?

Arab ota boshini sekingina tepaga-pastga liqillatib, yaxshi ekanligini bildirdi.

Bakach chiroq so'radi. Qambar devorda osig'liq turgan chiroqni otasining bosh tomoniga olib keldi va chiroqni kursi ustiga qo'ydi. Shehmuzning yuzi asalari shirasi yanglig' sap-sariq bo'lib ko'rindi. U behush yotardi. Bakach Shehmuzning issig'ini o'lchadi, badani olovdek lovullardi. Suv so'radi. Darhol olib kelishdi. Suv bilan Shehmuzning butun tanasini namladi. Ko'ylagining ustidan ham biroz suv sepdi. Hadichga:

— Tashqarida olov yoqing, — dedi, — tog'orachada suv qaynating, mana bu dolchinni ham suvga soling, birga qaynasin.

U xurjunidan bir parcha dolchinni olib, ayolga uzatdi. Keyin yana xurjunidan tunuka quti ichidagi turli giyohlardan tayyorlangan suyuq pastani oldi. Bu pastani tanasiga singdirish uchun uqalay-uqalay Shehmuzning ko'ksiga surdi.

— Nafas qisilganda qo'llaniladi, ko'ksini yumshatadi, yurakni kengaytiradi, — deya izoh berdi, — Allohning izni bilan birozdan keyin o'ziga keladi.

Hadich tashqarida olov yoqib, ustiga suv qo'yib, ortga qaytdi.

— Xo'sh, — dedi Bakach, — hozir qaynagan dolchinni ham ichirsak o'ziga keladi.

Ayol Bakachga "sog' bo'ling", deb duolar o'qirdi.

— Kunduz kuni hech o'ziga keldimi? — so'radi Bakach.

— Yo'q... — javob berdi ayol, — shunday olib kelganimizcha yotibdi.

— Uzoq vaqt dam olishi kerak, — dedi Bakach, — bundan keyin dalaga chiqmasin...

— Ishqilib o'ziga kelsin, u yog'i Allohga ayon, — dedi ayol yig'lamsirab.

— Ertaga ertalabgacha o'ziga keladi, — dedi Bakach, — ertalab bir ilojini qilib shaharga olib borish kerak... Otlaringiz shu yerdami?

Shu payt dolchin qaynab chiqqan edi. Hadich borib qaynoq tog'orachani olib keldi. Biroz sovishini kutgandan keyin Bakach Shehmuzni orqasidan ushlab boshini ko'tardi, Hadich yordamida dorini qoshiq bilan ichira boshladi. Shehmuz hanuz hushsiz yotganidan malhamni qiynalib ichirishdi. Shehmuzning bir necha qoshiq dolchin suvini ichishi hammaga umid bag'ishladi. Birozdan so'ng hamma bir chekkaga surilib kuta boshladi va nihoyat ko'zlariga uyqu kela boshladi.

Hazin, holdan toydirgan kun kechasida hech kim chivinlarning oromni buzuvchi ving'illashini eshitmasdi.

Ertasiga ertalab, haqiqatan ham, Shehmuz o'ziga keldi. Ammo bu uzoqqa bormasdi. Vaqti-vaqti bilan yana hushidan ketar, shu holatda tushunarsiz gaplar gapirib, alahsirardi. Bir marotaba alahsiraganda, aniq-lo'nda qilib "Qambar!" deb ovoz berdi. Qambar shu paytda tashqarida otlarining kelishini poylardi. Ular Qambarni chaqirishdi. Lekin Qambar otasining oldiga kelganida xuddi uni Shehmuz chaqirmagandek bo'ldi. Qambar hayron bo'lib otasining yuziga tikildi. Peshin vaqti, qo'shni uylardan Shehmuzni ko'rishga kelib-ketuvchilar ko'rindi. Shehmuzning yuzini ko'rganlar dastlab umidsizlikka tushishdi. Bakach Ali peshingacha bir necha marotaba Shehmuzning butun tanasini suv bilan namladi. Havo juda quruq, issiq bo'lganidan suv tezda qurib ketardi.

Peshinga qarab jandarmlar Shehmuzning otlarini olib kelishdi. Otlar holdan toyib sillasi qurigan edi. Bakach Ali Shehmuzni ot ustida olib ketish xavfli ekanligini, ammo kasalni shaharga olib borish kerakligini ham aytdi. Bundan o'zga chora yo'q edi.

Qambar otlardan bittasini tanlab yo'lga hozirladi. Shehmuz hushiga kelgan bo'lsa-da, judayam horg'in ko'rinardi. Uni qiyinchilik bilan otga mindirishdi, yiqilib tushmasin deb arqon bilan mahkam bog'lashdi.

Bakach Ali Qambarga shaharga borgandan keyin qayerda tushishni, kimlarga uchrashish, nima qilish lozimligini ipidan ignasigacha tushuntirdi. Qambar shu paytgacha shaharga borib ko'rmagan edi.

Ular yo'lga chiqishdi. Qambar otning no'xtasidan ushlab, ehtiyotkorlik bilan yonbag'irdan pastga tushayotib, ayollarning xuddi o'likning ortidan yig'lab, dod-voy solayotgandek ovozini eshitdi. U imkoni bo'lsa, depsinib quloqlarini mahkam berkitishni xohlardi. Ammo o'sha ehtiyotkorlik bilan tepalikni oshib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Oftob har tomonni telbalarcha o'z hovuriga burkardi. Qambar ot no'xtasidan ushlab ortga qaramasdan yo'lida davom etdi. Shehmuz yirik, qadoqli, tomirlari bo'rtib chiqqan qo'llari bilan behol, egarning old taxtasiga yopishgan edi. Ot har qadam tashlaganida u yerda, egar ustida, jonsiz narsa singari, chayqalib borardi.

O'zanning bir yeriga borganida, Qambar ot no'xtasini jonivorning bo'yniga tashladi. Ortga qaytib otasini belidan, oyoqlaridan ushlab, jonivorni sekingina xandaqdan o'tkazdi. Otasi ko'zlari yarim yumuq holatda xirillab nafas olardi, balki hali ham behushdir. Qambar hech narsa haqida o'ylamasdi. Shaharga borganida esa nima qilishini aniq, qat'iy ravishda bilmasdi. Unga kimdir yo'l ko'rsatishiga, yordam qilishiga umid qilardi. Uning ko'ngliga tushunarsiz g'alati g'ulg'ula, anglay olmas qo'rquv tushgan edi.

U ulkan, toshli tekislik o'rtasida, karvondan ayrilgan, yo'llarini yo'qotgan yo'lovchiga o'xshardi. Shunday behol, juda sekin harakat qilardi. Oxiri ko'rinmas tuproq parchasi ustida ta'qib etayotgan so'qmoq, ularni o'z manziliga olib boradigandek ko'rinmasdi. Umidsiz bo'shliq ichra bekorga chayqalayotgandek edilar.

Shehmuz xirillab yo'taldi. Qambar otasining borligini shu paytda sezgandek ta'sirlandi, qayrilib ortiga qaradi. Otasiga yaqinlashdi. Shehmuz dahshatli holatda, rosa terga botgan edi. O'g'il nimadir qilish kerakligini o'yladi. Bakach unga, otasi terlasa, tuzli suv ichirish kerakligini tayinlagan edi. Egar orqasiga bog'langan suvdonini oldi. Uning ichiga tuzli suv solingan edi. Suvdonning qopqog'ini ochdi. Suvni otasiga ichirmoqchi edi, lekin bo'yi yet-

madi. Otasi bunday holatda unga yordam berolmasdi. Otasini otdan pastga tushirishi kerak edi. Ammo bu holatda uni quchoqlab tushirishi mumkin emasdi. Yon-atrofiga alangladi. Olisroqda bitta qoya ko'rindi. Jonivorni no'xtasidan ushlab, qoyaga olib bordi. Qoya ustiga chiqib, suvdonni otasining og'ziga tutdi. U qiynalib tuzli suvdan bir-ikki qultum ichdi. Qambar otasini pastga tushirib, biroz chalqancha yotsa yaxshi bo'ladi, deb o'yladi. Lekin buni amalga oshirish uchun kimningdir yordami kerak edi. Agar otasini shu tarzda pastga tushirsa, yana qaytadan bitta o'zi otga mindirishi amrimahol edi. Otasiga ilojsiz tikildi. Otasining bu holatda, ot ustida qo'yib, o'zi bir necha soniya bu yerda o'tirishiga ham ko'ngli yo'l qo'ymadi. Qaytadan yo'lga chiqishdan boshqa chora yo'q edi. Jonivorning no'xtasidan ushlab tortdi. Qoya ostidan chiqqan ikkita yirik, kulrang kaltakesak ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qambar otni qaytadan so'qmoqqa burdi. Shu paytda olis moviy samoda, juda olislarda yolg'iz o'zi osilib turgan kichkina, oppoq bulut to'dasini ko'rdi. Birdan Qambarning ko'ngliga yomon xayollar kela boshladi. Osmonda qachondan beri bunday bulut ko'rinmayotgan edi. "Uh, nahotki..." — shivirladi u. Chalg'imaslikka harakat qilib, yo'lida davom etdi. Yo'lda hech narsaga duch kelmaganini hisobga olganda, shaharga yana besh-olti soatlarda yetib borishlari mumkin edi. Tezlikni sal oshirsa, otasi qiynalardi. Shu sababli yurish tezligini oshirmadi. Ammo ko'nglidagi qo'rquv hissi bora-bora ulg'aya borardi. Uzoqdan katta yo'l ko'rindi. O'tayotgan mashinalarning shovqini butun tekislikni ko'kka ko'taradi. Mashinalar shunday tez o'tishardiki, Qambar hali boshini ko'tarib ulgurmay, fursat o'tmay, ular ortidan katta chang buluti qolardi. Shu joyda yo'lni o'zgartirib, tepaga chiqish kerak edi. Chunki katta yo'lga borish ko'p vaqtni olardi. Shimoli-g'arb tomondan ko'ringan tepalikni oshsa, katta yo'lga chiqardi. U jonivorning boshini o'sha tomonga burdi.

Hali tepalikka yetmasdan, yonbag'irning bir tomonida ikkita jandarm ko'lankasiga ko'zi tushdi. E'tibor berib qarasa, bular o'zlarining militsiya bo'limidagi jandarmlar ekan. Jandarmlar ham uni ko'rdilar. Qambar qo'l silkidi. Ular ham Qambarga qo'l silkishdi. Qambar ular tomonga qarab yura boshladi, jandarmlar ham

unga yaqinlashishdi. Bir-birlariga yaqin kelib qolganlarida jandarmlardan biri:

— Ey, aqldan ozdingizmi? — deb baqirdi, — qayerga ketyapsizlar shu issiqda?

Qambar:

— Shaharga, — dedi, — yordam bering, otamni pastga tushiraylik.

Qambar jandarmlarni ko'rib-ko'rmas ko'zlari sevinchga to'ldi. Tepalikda bittagina, ulkan archa daraxti bor edi. Hammasi birgalashib o'sha tomonga yurdilar. U yerda Shehmuzni silkitmasdan sekin pastga tushirishdi. Daraxt soyasida chalqanchasiga yotqizishdi. Shehmuzning yuzi oq-sariq tusga kirgan edi. Peshonasi terga botib ketgandi. Qiynalib zo'rg'a nafas olar, og'zini ocholmay, "suv" deb xirillardi. Qambar garchi otasi istamasa-da suv bermoqchi edi. Borib suvdonni olib keldi. Otasining og'ziga bir necha qultum tuzli suvdan quydi. Shehmuz yana hushini yo'qotdi. Harbiylardan bittasi suvdonini oldi va qopqog'ini ochib, Shehmuzning yuziga iligan suvdan sepdi, ammo suvning hech qanday ta'siri sezilmadi. Jandarm:

— Ortga qaytsangiz yaxshi bo'lardi, — dedi, — uni shahargacha olib borolmaysan... u hozirdan...

Gapini oxirigacha tugatmadi. Narigi jandarm:

— Bu ot biznikimi? — deb so'radi.

— Ha, — dedi Qambar.

— Voy, shu jonivorda yo'lga chiqib bo'ladimi?

— Shaharga boraman, — dedi Qambar qat'iy ohangda, — agar bormasam hamma meni ayblaydi, otasini o'ldirgan deyishadi...

— Hech kim hech narsa demaydi, ortga qayt, bu ot juda holdan toygan, sizni shahargacha olib borolmaydi.

Qambar:

— Borishim kerak, — dedi. Shu paytda nimaga o'jarlik qilayotganini o'zi ham bilmasdi. Shaharga borishni ko'ngliga qat'iy joylab olgan edi.

Birinchi jandarm:

— Hech bo'lmasa oz-moz tamaddi qilib olaylik, — dedi.

Ular tugunlarini ochdilar. Qambar og'zidagi luqmani xohishsiz chaynardi. To'satdan ko'nglini g'ulg'ula bosib, umidsizlikka tushdi. Shu mahal boshqa bir suvdonda Bakach Ali otasi uchun bergan sovitilgan dolchin borligini esladi. Borib, suvdonni olib keldi. Otasining og'ziga bir necha qultum tutdi. Shehmuzga hech qanday ta'sir ko'rsatmasdan, iliq dolchin suvi halqumidan pastga dumaladi. Ikkinchi jandarm suvdonining qopqog'ini ochib, ichidagi suvni oxirgi tomchisigacha Shehmuzning yuziga, ko'ksiga quydi. Shehmuz sezilar-sezilmas seskandi. Keyin uchalasi birgalikda Shehmuzni avaylab ko'tarib, qaytadan otga mindirishdi. Uni qaytadan egarga mahkam bog'ladilar. Qo'llarini egarning old taxtasiga qo'ydilar.

— Yigirma besh kilometr yo'l nimaligini bilasanmi? — so'radi jandarmlardan biri.

Qambar tushunmasdan uning yuziga tikildi. Jandarm izoh berdi:

— Bu, besh soat, degani... Ya'ni kun botishidan oldin shaharga yetishni xayolingdan chiqarib tashla. Va qaytsammi-qaytmasammi deb o'ylab o'tirmasdan, ortga qayt...

Qambar jandarmlarga qilgan yaxshiliklari uchun rahmat aytib, xayr-xo'sh qildi.

Birinchi jandarm:

— Orada otga ham dam ber, — deya oxirgi marta nasihat qildi.

Qambar otning no'xtasidan ushlab, asta-sekin tepalikdan tushishga chog'landi. Sal yurgandan keyin orqasiga qaraganida hech kimni ko'rmadi. U yana vahshiy, ayovsiz tuproq ustida yolg'iz o'zi qolgan edi. Ko'ngli cheksiz-chegarasiz g'amga botdi.

Qambar boshini quyi egib, o'ychan qadam tashlar ekan, qadamlari soya ichiga kirganini payqab qoldi. Boshini ko'tarib osmonga qaradi. Samoda bulut to'dalari o'ynardi. "Xayriyat, yomg'ir", deb o'yladi, bunga ko'p e'tibor bermasdan. Qadamini biroz sekinlashtirishni xohladi.

Shunday deb xayolga botganida, yuziga maydagina yomg'ir tomchisi tushdi. Shu paytda otasining yo'talganini, yo'talgandek xirillaganini eshitdi. Havo birdaniga qorayib, yomg'ir sharros

quya boshladi. Atrofda boshpana uchun hech narsa yo'q edi. Uzoqlarda chaqmoq chaqdi. Ot to'satdan hurkib ketib, kishnay boshladi. Boshini orqaga qarab itarganda, no'xta Qambarning qo'lidan chiqib ketdi. Ikkinchi chaqmoq chaqdi. Chaqmoq ortidan samo gumburladi. Qambar qo'lidan chiqib ketgan no'xtani tutish uchun ortga qaytdi. Ot hurkib, tuproqda depsindi, old oyoqlarini ko'tarib, orqa oyoqlari ustida yengil chayqaldi. Qambar no'xtani ushlab oldi. Jonivor sudrala boshladi. Maydon qop-qora tusga kirdi. Yomg'ir birdan jalaga aylandi. Yirik yomg'ir tomchilari ko'z ochirmasdi. Yomg'ir suvlari bo'ynidan, halqumidan pastga quyilib oqardi. Nima qilish kerakligini-yu, qayerga borishga hayron bo'lib boshi qotdi. Oyog'i ostidan kichkina jilg'alar oqardi. Ot yana bir marotaba uzuq-yuluq kishnadi. Qambar otni tinchlantira olmadi. Jonivor nimadandir cho'chib hurkardi. Qambarning ustboshi yomg'irdan shalabbo bo'ldi. Esayotgan shamol ko'ylagining etaklarini hur-hur uchirardi. Jala shunday shiddat bilan yog'diki, maydonda hech narsa ko'rinmay qoldi. Sel oyoq ostidagi toshlarni sudray boshladi. Qambarning qo'lidan hech narsa kelmay, faqat "evoh, evohki, evoh", — deb g'ijinardi. Yig'lagudek ahvolda edi. Endilikda u hamma narsani unutdi, ammo no'xtani qo'yib yubormasdan, mahkam ushlab turdi. Narigi qo'lining yengi bilan yuzini artmoqchi bo'ldi. Yuziga urayotgan jaladan qutulish uchun ortga qaytdi. Ot bilan yuzma-yuz turdi. Jonivor og'zini ochib, g'alati, qo'rqinchli holatda tishlarini ko'rsatib, xuddi unga qarab tirjayardi. Shu payt otasiga ko'zi tushdi. Shehmuzning bo'yni osilib qolgandi. Ko'ylaklari ho'l bo'lib, namlikdan tanasiga yopishgan edi. Oyog'i uzangida jonsiz tebranardi. Qambar hozirgacha hech payqamagan qo'rquvga tushib: "Ota!" deb ovoz berdi. G'uvullash ovozini uchirib ketgandek bo'ldi. Otasi uni eshitmadi. Qambar to'satdan qarorini o'zgartirdi. Qishloqqa qaytmoqchi bo'ldi. Otasining kiyim-kechagini yangilash kerak edi. Ammo bunday jala quyishi kimning aqliga kelibdi, deysiz, agar bilganida yonida ehtiyot shart bir sidra kiyim-bosh olib chiqarmidi. Qambar kuch bilan otning boshini narigi tomonga burdi. Jonivor nimagadir yurishni xohlamasdi. Qambar nima qilishini bilmasdan otning orqasiga bir tepdi. Ot turgan joyida yana bir marotaba kishnab depsindi. Silki-

nishdan Shehmuz ikki bukilib qorni bilan yotib qoldi. Boshi egarning old taxtasiga tegdi. Jonivor xuddi ustidagi yukni yerga otib bo'shalishni istardi. Qambar otning sag'risiga tegib oldga o'tmoqchi bo'lganida, otasini bog'lagan arqon oyoqlarini shilib yuborgan edi. Arqonni biroz bo'shatmoqchi bo'ldi, ammo qo'lini arqonning ostidan o'tkaza olmadi. Otasining ustidan yomg'ir tomchilari sizardi. Shu mahal birdan otasining julga teggan yuzini ko'rdi. Uning og'zi ikkiga ajralgan edi. Uning ko'ngli aynib, qo'rquv bilan qo'lini otasining biqiniga tekkizdi. "Ota!" deb sekingina ovoz berdi. Shehmuz hech qanday javob bermadi. Qambar bor kuchi bilan no'xtani tortdi. Bu safar ot silkinib yura boshladi.

Jala uzoqqa cho'zilmadi. Ular kelgan yo'ldan ortga qaytishdi. Zamin allaqachon loyga aylanib, tepalikning yorilgan joylaridan mayda sel qoldiqlari oqardi. Qambar terdan, yomg'irdan suyaklarigacha jiqqa ho'l bo'lgan edi. Sal oldin duch kelgan qoyagacha ortga qaramasdan yurdi. O'sha yerga yetib kelganida otni qoyaga yaqinlashtirdi. Cho'ntagidan pichoqni oldi. Otasini bog'lagan arqonlarni kesdi. Jonivorning qorinbog'ini bo'shatdi, egarni qo'li bilan ushlab otni qimirlatmaslikka harakat qilib bir muddat shunday poyladi. Keyin qaytadan qorinbog'ni zichlab bog'ladi. Qoyaning ustiga chiqdi. Otasining bog'lanmagan o'ng oyog'ini, egar orqasidan aylantirib, narigi oyog'ining yoniga qo'ydi. Boshini o'zidan yon tomonga tortdi. Holbuki, endi uning qorni egarga tayanib, bosh-oyoqlari ikki tomondan osilib turardi. Bu safar kesib olgan arqon bilan otasini orqasidan julga yaxshilab bog'ladi. Shu mahal uning og'zidan qon oqa boshladi. Oqayotgan qon Qambarning ustiga sachradi. Qambar hech narsani tushunolmay no'xtaga yopishdi. Jonivorni kelgan yo'ldan sudray boshladi. Uning yuzi xuddi dokadek oqarib ketgandi. Shamol ularni o'zlari bilmagan bir vodiyga qaytarib borayotgandek edi, etaklari shamolda hurhur esib borardi. U qayrilib no'xtaga osilardi. Umidsiz, bemaqsad, hech kimni kutmay.

RAFIQ XOLID KARAY

YAMOQCHI

Kema sohildan uzoqlashib Marmar dengizi tomon yo'l olganida yo'lovchilarni kuzatishga chiqqanlar ustlaridan og'ir yuk tushganday yengilladilar:

— Bechora... Arabistonda yo'lini topib ketar... — dedilar, chin dildan qayg'urayotganiga hammani ishontirmoqchiday yasama ohangda. Kelganlar mahzun bir kayfiyatda uylariga qaytdilar.

Otasidan ayrilib yetim qolgan kichkina Hasan, onasi ham vafot etgach, uzoq qarindoshlari va qo'ni-qo'shnilarining yordami bilan ammasining yoniga, Falastinning chekka bir qishlog'iga yuborilayotgan edi.

Hasanning o'zi bundan bexabar, biroq kemaga chiqqanidan behad baxtiyor edi. G'irillab ishlayotgan chig'irni, ustiga bir nimalar yozilgan qutqaruv halqalarini, quritishga osib qo'yilgan ko'ylaklardek arqonlarga bog'langan qayiqlarni, navbat almashinish payti chalinadigan qo'ng'iroqni tomosha qilib to'ymasdi. Hasan besh yoshda edi. Biyron tili va chuchuk so'zlari bilan kemadagi yo'lovchilarni rosa kuldirardi.

Kema u yer-bu yerda to'xtab, yo'lovchilarni tushirayotganida bir xomush tortardi. Ayniqsa, issiq mamlakatlar tomon yaqinlashganda nihoyatda siqilgan edi. Kemada qolganlar u tushunmaydigan tilda gaplashishar edi. Unga Istanbuldagidek: "Hasan, kel!", "Hasan, ket!" deyishmas edi. Ismi ham o'zgargandek edi. Endi uni "Hasan" deb emas, "Hassan" deb chaqirishar edi: "Taal, hun ya, Hassan!" deyishardi. Hasan ham bu gapni eshitganida ularning yoniga chopib borar edi. "Ruh ya Hassan!" deganlarida ularning yonidan uzoqlashar edi.

Hayfa shahriga borishganida uni poyezdga olib chiqdilar.

Endi ona tili tamoman eshitilmaydigan bo'ldi. Hasan burchakka tiqilib o'tirgancha indamay o'tiraverdi. Kimdir savol bersa ham javob qaytarmasdi. Oynadan bog'-rog'larni tomosha qilib keta-

yotgandek ko'rinsa-da, xayoli butunlay boshqa yoqlarda edi. Ichini nimadir tirnayotgandek, bo'g'ziga nimadir tiqilayotgandek edi.

Ma'lum vaqt o'tgach, oqish gul va yam-yashil yaproqlarga burkangan apelsin bog'lari tugadi. Zaytunzorlar ham siyraklashdi.

Yonbag'rida echkilar o'tlab yurgan qaqroq, chars va qurama tog'lar orasidan o'tib borishar edi. Echkilar qop-qora edi. Quyoshning ayovsiz tig'i ostida xuddi moylangan mahsi misoli yaltirab ko'rinardi.

Bu yerlar ham ortda qoldi. Bepoyon tekisliklardan o'ta boshladilar. Atrofda na dov-daraxt, na suvli dara va na biron uy ko'rinardi... Faqatgina ba'zi-ba'zida yirik-yirik hayvonlar uchrab qolardi. Uzun oyoqli, uzun bo'yli, o'rkachli, bukri bu hayvonlar poyezdlarga qiyo boqmasdan yo'lida davom etardi. Og'zida oqimtir ko'pik, nimanidir chaynab, horib-charchab orqama-orqa tizilishib, ortida hech qanday iz qoldirmasdan og'ir-vazmin ilgarilab borishar edi.

Hasan bularning barini erinmay kuzatib boraverdi. Oxiri chiday olmadi. Yonida o'tirgan askarga qo'li bilan imo qilib so'ragan bo'ldi. Askar kulib javob berdi:

— Gamal! Gamal!

Hasanni bir bekatda tushirib qoldirishdi. Bo'ynida, peshonasida, qo'llarida va quloqlarida turli-tuman, shoda-shoda oltin taqinchoqlar osilib turgan qora chorshafli, qora qayrilma qoshli, katta qora xolli ayol Hasanni quchoqlab ko'ksiga bosdi. Hasan onasinikiga o'xshamagan, g'alati hidli, yumshoq va bahaybat bu ko'krak ichiga ko'milib ketdi. Ayol u tushunmaydigan tilda tinmay: "Ya, habibi! Ya ayni! " derdi.

Ammasining yonidagi xotinlar ham birin-ketin uni bag'riga bosishardi. Quchoqlab o'pishar, aylanib-o'rgilishar, quvonib alqashardi. Bir necha bola ham kelishgan edi. Uzun ko'ylaklari ustidan xirqa o'rniga kamzul kiygan, sochlari jingalak, boshiga do'ppi kiyib olgan bolalar...

Hasan, begonasiragancha ularni kuzatib turardi.

Oradan bir necha hafta o'tsa hamki, hech kim bilan gaplashmay, og'ziga tolqon solgandek indamay yuraverdi.

Arab tilini sekin-asta tushuna boshlagan edi, biroq mittigina qalbida paydo bo'lgan isyon sabab gapirmay yuraverdi. Hasan katta bir ofatdan qochib dengizga sho'ng'igan va suv ostida nafas olishga harakat qilayotgan odamday qiynalayotgan edi. Shunday bo'lsa-da sukutini buzmasdi.

Jim yuraverdi.

Endi uning ham belbog'li uzun ko'ylagi, nimchasi, do'ppisi va qizil kavushi bor edi. Sochlarining o'rtasidan kaftdek joyini qoldirib aylanasiga taqir qilib kesishdi. Peshonasida bir tutam soch qoldirishdi. Qattiq va barkashday patir nonga ham ko'nikdi. Yerga solingan dasturxon atrofida o'tirib ham sanchqi, ham non o'rniga o'tadigan bu patirni qanday yeyishni ham uddalay boshladi.

Kunlarning birida ammasi ko'chadan baqirib o'tib borayotgan yamoqchini to'xtatib uyga taklif qildi. Hovliga yelkasida kattakon bir qop ortib olgan, qo'liga ixchamgina kursi va temir cho'kichni ko'tarib olgan, eski kiyimli bir odam kirib keldi. Qopida muqovaday o'ralgan uzun teri lenta bor edi. Ammasi yamoqchi bilan gaplashgandan keyin, uning oldiga tovoni yemirilgan, tagi ko'chgan bir necha oyoq kiyimni olib kelib qo'ydi. Yamoqchi kursisiga o'tirdi. Hasan ham qiziqib uning qarshisiga cho'kkaladi. To'rt yoni devor bilan o'ralgan, pastak qumsuvoq uyda siqilgan Hasan hayrat va qiziqish bilan yamoqchining harakatlarini kuzatib o'tirdi. Muqovaga o'xshash qalin teri lentaning ikki yoni keskin, ingichka edi. Sopsiz pichog'i bilan kesishini, og'ziga bir hovuch mixni to'ldirib olishini, keyin ularni birma-bir Istanbulda bir maymunda ko'rganidek tishlari orasidan chiqarib oyoq kiyimlarning tagiga tez-tez mixlashini, teri qiyqimlarini, kir suvga botirib yumshatishini, tosdagi qatronga barmog'ini botirib oyoq kiyim tovonlariga surtishini, hech birini ko'zdan qochirmay kuzatib o'tirdi. Bir mahal qayerda va kimlar bilan o'tirganini unutib, shunchalik berilib ketganidan ona tilida so'radi:

— Mixlar og'zingizga sanchilmaydimi?

Yamoqchi hayratlanib boshini ko'tardi. Hasanning yuziga uzoq tikildi:

— Turkmisan?

— Ha, Istanbuldan keldim!

— Men ham o'sha yoqdan kelganman. Izmitdan!

Yamoqchining soch-soqoli o'sgan, ko'ksi ochiq, shimining tizzalariga yamoq tushgan, tishlari kemtik va yuz rangi ham sap-sariq edi. Ko'zlarining oqi ham sarg'ayib ketgandi. Hasan yamoqchining turk tilini bilgani va Istanbulga yaqin joydan kelgani uchun faqat ishiga emas, ko'rinishiga ham diqqat bilan qaray boshlagan edi. Kemtik tishi bois gapirganda xushtak chalayotgandek tovush chiqarardi:

— Bu do'zaxdan battar qishloqda nima qilib yuribsan?

Hasan o'zi bilganicha javob qaytargan bo'ldi. Keyin Qonlichadagi uylarini tasvirlay ketdi. Qo'shnisining o'g'li Mahmud bilan baliq ovlaganlarini, onasi bilan doktorga ketayotib tunneldan o'tishgani, bir marta eshiklari oldiga oppoq tez yordam mashinasi kelganini, ichida yotoqlar borligini... Hammasini to'lib-toshib hikoya qildi. Bir mahal yamoqchidan so'radi:

— Siz nima qilib yuribsiz bu yerlarda?

Yamoqchi "tarixi uzoq" deganday boshini sarak-sarak qildi va ming'irladi:

— Bir gunoh qilib qo'ydim, qochishga majbur bo'ldim!

Aslida gapirgan Hasan edi, olti oydan beri soqovday yashagan Hasan... Tinmay, uning nima deganiga ham quloq osmay, yonoqlari quvonchdan qizarib, nafas olishni ham unutib, lablarini cho'chchaytirib, billurday ovozi bilan bidir-bidir gapirgan edi. Tiliga nima kelsa qaytarmadi. Yamoqchi esa ham ishlar, ham orasira "Ha, shundaymi?" deya gapga aralashib qo'yar va Hasanning hikoyasini berilib tinglardi. Endi qaytib bora olmaydigan ona tuprog'ining, vatanining bir darasini, bir shamolini, bir qo'shig'ini tinglayotganday ham zavq, ham g'amga botib tinglardi. O'tgan umrini, yo'qotgan yurtini ko'z oldiga keltirib, to'lg'onib-to'lg'onib tinglardi. Yanada ko'proq tinglash uchun ham atayin sekin ishlardi.

Nihoyat oyoq kiyimlar tamom bo'lib ishi tugadi. Temir qozig'ini yerdan sug'urib oldi. Qolipini matoga o'radi. Mixdonni yopdi. Mayda-chuyda anjomlarini xaltasiga o'rab joyladi. Buyumlarini shoshmasdan to'pladi.

Hasan yig'laguday bo'lib so'radi:

— Ketyapsizmi?

— Ketyapman, ishim tugadi...

Anjomlarini saranjomlab bo'lgach, qarasaki, jajji hamyurti piq-piq yig'lamoqda... Sassiz, titrab-titrab yig'lamoqda. Uning ko'z yoshlari xuddi vagonning toza oynalaridan suzilayotgan yomg'ir tomchilari misoli bir-biriga urilib-surilib, tez-tez oqib tushmoqda edi.

— Yig'lama! Qo'y, yig'lamagin!

Yamoqchi boshqa so'z topolmadi. Buni eshitgan bola bor ovozi bilan ho'ngrab yig'lay boshladi. Qaytib turk tilida gapiradigan odam topolmasligini bilgani uchun ham yig'lardi.

— Yig'lama dedim senga! Yig'lama!

Bu gaplarni aytayotib, uning ko'ngli yumshadi, to'lib-toshdi. O'zini tutishga harakat qildi, ammo eplay olmadi. Ko'zlaridan shashqator oqqan yoshlari soqollaridan oqib Arabiston cho'llarida toblangan ko'ksiga tomib, seskantirganini sezdi...

OVOZ

Beyshahardan Konyaga kelayotgan yuk mashinasi Barsak-deresi deb atalgan bo'g'ozda buzilib qoldi. Shofyor va yordamchisi motor qopqoqlarini ochdi. Ustida o'tirib kelishayotgan ko'rpachani ko'tarib, tagidan bir to'da moslamalarni olib o'rtaga to'kishdi. Undan keyin ta'mir ishlari soatlab davom etdi. Ba'zan ikkalasi ham mashina oldiga surilib orqama-ketin yotar va qo'llari bilan motorning old tomonini burar, ba'zan yana bittasi shofyor sifatida gaz bosar va motorni ishlatar, boshqasi esa yana bir harakatni boshlardi.

Peshin quyoshi sochayotgan nur ostida yuk mashinasining linoleum eshikli korpusi chidamaydigan darajada qizib ketdi. Yo'lovchilar mashinadan bitta-bitta sakrab tarqala boshladilar. Ularning bir qismi shofyorni qiziqish bilan kuzatishar, agar u dam olish uchun motordan sal boshini ko'tarib turib qolsa: "Bo'ldimi?" — deb hayajonlanishardi.

Xavotirga tushgan bir necha yo'lovchi, men va do'stim bo'g'ozning g'arbiga, soya-salqin tomoniga qarab yurdik va bir qoya ustiga o'tirib yon-atrofga alanglagancha kuta boshladik.

Yuk mashinasi turgan joydan sal nariroqda, yo'l chekkasida ikkita chodir, ular atrofida bir qancha belkurak va bitta qo'larava bor edi. Yana nariroqda esa tosh sindirish-u qum tashish bilan mashg'ul bir qancha yo'l ishchilari ko'rinardi.

Kun botayotgan mahal qarshi tarafimizdagi tepa ustida ko'ringan archa daraxtlari tomon ketar ekanmiz, qizargan nurli yo'llar vodiyni shiddat bilan egallayotgan g'ira-shiralik ichiga g'arq bo'lib borardi. Salqin bahor kunlaridan biri edi, o'rtada oqayotgan kichik soy ming'irlashga o'xshash sas taratardi.

Yo'ldan bir qancha mashinalar o'tib ketar ekan, ba'zilari yuk mashinamiz yonida biroz to'xtab, shofyordan biron narsa kerakmi deya so'rardilar. Ichida bo'sh joyi bo'lgan yuk mashinasi,

qorong'i tushayotganidan xavotirlanib bo'lsa kerak, shofyorning boshini qotirgan yo'lovchilardan ikki nafar ayolni oldi-da, Konyaga olib ketdi.

Boshqa yo'lovchilar guruh-guruhga ajralib o'tirishar, bir-birlariga nimalarnidir tushuntirishardi. Yonimizda o'tirgan, bu yerga yaqin qishloqlardan biridagi baqqol, yog'och oyoqli qariya o'rnidan turib avtomobil tomon bordi, qopini orqalab shofyorga haqorat toshlarini otib yo'lga chiqdi.

Juda yoqimli oqshom bo'ldi. Yo'l ishchilari chodirlariga qaytib olov yoqa boshlagandilar. Yuk mashinamiz shossening bir chekkasida go'yo ulkan hayvon o'ligi kabi harakatsiz turardi. Shofyor va uning yordamchisi usti-boshi moy-u tuproqqa bulg'angan, yuzlaridan qora ter oqqan holda bir chekkada o'tirib dam olishardi.

Yo'lovchilarning aksariyati bunday hodisalarga ko'nikkanlari uchun boshlarini tebratishar va savat-u tugunlarini ochib bir narsalarni tamaddi qilishardi.

Yana biroz vaqt o'tib qosh qorayganda shofyor yo'l ishchilaridan fonar olib ishini davom ettirdi. Biz, yo'lovchilar, daf'atan cho'kkan sukunat ichida o'tirgan joyimizga cho'zilgancha miq etmasdik.

Kun botgan tepalik orqasidagi daraxtlar to'satdan ko'kimtir va so'lg'in nurga ko'mildi. Do'stimning yuziga tikildim. U ko'zlarini qarshi tomonga qadab olgandi. Yonbag'ir ustiga siyrak ekilgan qora archalar oydinlashayotgan ko'k yuzida titroq soyalar chizardi. Do'stim bu manzarani tomosha qilib:

— Oy qayerda bo'lsang ham ko'rinadi-ya! — dedi.

Xuddi shu payt ko'klam hidi atrofni to'ldirgan havoda sozning mayin ovozi titradi. Qo'shiqchilik bilan shug'ullanib, musiqa maktabida ishlayotgan do'stim jim qoldi. Qoshlarini chimirib qo'shiqni tinglay boshladi.

Yo'l ishchilarining chodiri tomonidan taralayotgan soz ovozi birozdan so'ng to'xtab qolgandek bo'ldi va erkak ovozi shu paytgacha biz eshitmagan, ammo bizga notanish xalq qo'shig'ini kuylay boshladi:

Aylandim toldan uzilgan za'faron bir yaproqqa,
Sahar yeli, sovur meni, qiynagil yuz xil meni;
Changlarimni bu yerlardan olib ketgil uzoqqa,
Yalang oyoqlaring bilan o'zing, mayli, ezgil meni...

Bu safar men ham jim qoldim. Soz takror nag'masini boshlasa-da, qulog'imdan hali hamon o'sha ovoz jarangi ketmasdi.

Do'stim "Bu nima?" degandek menga qaradi.

— Ajoyib... — deya ming'irladim.

Sas takrorlanib butun vodiyni jaranglatib yubordi:

Olib sozim chiqdim g'urbat ko'rishga,
Qaytib yorga keldim yuzim surishga,
Nima keragi bor chetga aytishga,
Sendan ayro tushgan holim ko'r meni.

Umrimda hali bunchalik ta'sirchan, shirali ovozni eshitmagandim. Qo'shiq so'zlarining g'oyat bama'ni bo'lgani, maftunkor ovozning esa yoqimli taralganiga hayratlanardim. Do'stim sapchib o'rnidan turib meni imladi. Ishchilar chodiriga qarab yura boshladik.

Chodir oldida to'rt-besh nafar kishi o'tirar, atrofida esa belkuraklar yoyilib yotardi. Chodir eshigiga osilgan fonar tebrangancha vodiy ichiga nur taratar, qorong'ilikka g'arq bo'lgan bosh soyalari esa o'qtin-o'qtin tebranib turardi.

Yigirma yoshlar chamasidagi bir yigit chodir oldidagi ag'natib qo'yilgan arava ustida o'tirib soz chalardi. Boshi ko'ksiga egilganligi, ko'zlari yerga tikilganligi bois yuzini ko'rishning iloji yo'q edi. Fonar nurlari yoritgan peshonasi terga botib ketgandi. Sozning uzun dastasi hayratomuz tezlikda pastga-tepaga sirg'angan barmoqlari tagida tirik jonzotdek titrardi. Soz simiga tegayotgan kichkinagina o'ng qo'l ishonch bilan harakatga kelar va soz tanasiga har gal yaqinlashganida yog'och bilan jonzot o'rtasida yashirin, qandaydir serma'no va muhim suhbat bo'layotgandek tuyulardi.

Chodir va biz turgan joyni yorug'lik yalab o'tdi va vodiyning boshqa burchiga qadar cho'zildi. Boshimizni ko'tardik, qarshimizdan oshib yuqoriga ko'tarilgan oyni ko'rdik.

Soz chalgan yigit ham boshini ko'tarib ko'zlarini biroz yumdi, xuddi qarshisida turgan oydinlik yuzlab tinglovchilarni kashf etdi. Keyin soz chalayotgan barmoqlari sekinlashdi, ko'zlari yumildi, tomog'i qirildi va yuzi qizardi. Biz hayrat bilan uni tomosha qilarkanmiz, mayda dudoqlari orasidan oppoq tishlari ko'rindi va yigit bu safar xitob qilgandek ashulasini davom ettirdi:

Oyning nuri tushar sozim ustiga,
So'z so'zlagan yo'qdir so'zim ustiga.
Kel, ey hilol qoshlim, tizzam ustiga,
Oy bir yondan, sen bir yondan quch meni.

Avtomobilning boshqa yo'lovchilari ham to'planishgandi. Hamma hayrat bilan qip-qizil yuzli yigitchaga tikilardi. U sirli tilda gapirayotgan qo'llarini soz ustida harakat qildirishda davom etdi va goh yerga, goh bag'ridan otilib chiqishni istagandek sapchigan soziga tikilardi. Biroz dam olgandan keyin bu safar boshini ko'tarmasdan yanada sekin, lekin oldingidek shirali, ko'ngil tubidan kelayotgan sehrli ovozda quyidagilarni kuyladi:

Sakkiz yildir hech bormadim yurtimga,
Dard malhamin izlamadim dardimga.
Kelar bo'lsang bir kun tushib ortimga,
Quldan emas, yuragingdan so'r meni.

Keyin sozini ikki zarb bilan chertib yoniga tashladi va boshini ko'tardi. Yig'ilgan odamlar "yashavor" deya baqirishardi. U hech kimga e'tibor bermasdan bo'shliqqa qaradi. Yengilgina tabassum qilishga urindi.

Do'stim uning yoniga suqilib borib so'radi:

— Isming nima, o'g'lim?

— Ali!

— Qayerliksan?

— Sivaslikman.

— Soz chalishni qayerdan o'rganding?

— Bilmasam? Yoshligimdan beri chalaman.

— Kuylashni-chi?

— Uni ham shunday... Keyin bir-ikki usta oshiq yonida yurdim.

Do'stim menga qaradi:

— Favqulodda ajoyib sas, azizim, yillab izlasak ham, bunday shirali ovozni topolmaymiz. Men bu bolakayni shundayligicha qoldirmayman! — dedi. Keyin yana unga yuzlanib yoshini so'radi. Yigirma ikkida ekan. Cho'ntagidan daftarini olib bir narsalar qayd etdi va yigitchaning manzilini bilishni istadi. Bola oldiniga hayron bo'ldi. Aytadigan hech qanday manzili yo'q edi. Bugun bu yerda bo'lsa, ertaga u yerda yo'l ishlarini qilardi. "Beyshehir yo'lidagi sivaslik Ali deb so'rasangiz bo'lmaydimi?" — dedi. Nihoyat, Konyaga borib kelganida uchraydigan xonimning ismini aytdi. Do'stim ularni ham yozib oldi. Bu paytda boyadan beri yonimizda turib biz bilan birga soz tinglagan shofyor:

— Janoblar, mashina xizmatingizga tayyor! — dedi.

Yigitchaga yana bir qancha qo'shiqlar ayttirishga tayyorlangan do'stim boshqa yo'lovchilarning tezlik bilan o'tirgan joylaridan turganini va to'rvalarini, sumkalarini ko'tarib yuk mashinasi tomon yo'l olganlarini ko'rib uf tortdi, keyin o'rnidan turgan Aliga qarab dedi:

— Seni izlatib topganimda tezda yetib kel. Senga pullik ish topaman, yana usta oshiqlar yonida ishlab soz chalish mahoratingni oshirasan, bo'ladimi?

Ali hech narsaga tushunmasdan do'stimning gapini ma'qulladi:

— Mayli, bek!

Yelkasini qoqib:

— Mayli, ko'rishguncha xayr! — dedik.

Hamma yo'l ishchilari birdan:

— Omon bo'ling, — deyishdi va biz ulardan uzoqlashganimizda birodarlari Alining atrofida kulishib nimalarnidir suhbat-

lasha boshlashdi. Har holda do'stimning so'zlarini o'zlaricha izohlab, bundan Ali uchun porloq natijalar chiqarishga harakat qilishardi.

Do'stim Anqaraga kelgandan keyin haqiqatan ham o'sha yigitchaning ishi bo'yicha yelib-yugurdi. Uni musiqa maktabiga joylashtirishga azm-u qaror qilgandi. Unga bunchalik e'tibor qaratayotgani haqida gap borganida:

— Bilmaysan, ukam, — derdi. — Yigitchaning sasi qulog'imdan ketmayapti, men musiqaga yot odam emasman, menga qolsa, o'zimni inson ovozining zargari deya atagan bo'lardim, ammo uning ovozichalik ovozni hozirgacha kam eshitganman.

Men ham unga o'xshab o'ylashga harakat qilib aqlli ko'rinish uchun shunday derdim:

— Albatta, haqqing bor. Ammo o'sha sasning bizda zo'r taassurot qoldirishida u jaranglagan kechaning hech qanday ta'siri yo'qmikan? Oy nuri! Sharillab oqishi goh eshitilib, goho yo'qolgan kichik soy... Ikki tog' orasida cho'zilib yotgan vodiy, nihoyat, biz hech kutmagan yo'l ishchilari chodiridan tabiat bag'riga yoyilib ketgan sas... Bularning bari o'sha kechaning hurkak jimjitligida bizni g'alati romantik olam bag'riga otib, oddiy yoki sal yaxshiroq ovozni bizga ajoyib qilib ko'rsatgan bo'lmasin!

Do'stim bu gapimga parvo ham qilmasdan sivaslik Alini toptirib Anqaraga olib keldi va bu yerda uning ovozini eshitib tarbiya berish, kashf etish fikridan qaytmasdi. Qanchalik munozara qilmaylik, uning iste'dodi ham quyi darajada ekanligini inkor etmasdi.

Do'stim hozirdan shirin xayollar og'ushida sayr qilardi. Sivaslik Alining bir kun mashhur va dunyoga tanilgan tenor-opera artisti bo'lib Ovrupo shaharlarida konsertlar uyushtirishini o'ylardi:

— Uning frak ichidagi vujudini va oppoq ko'ylak yoqasidan otilib chiqqan qip-qizil chehrasini ko'rish favqulodda ajoyib narsa bo'ladi! — derdi.

U, nihoyat, niyatini amalga oshirdi. Bir necha joylarga murojaat qilib sivaslik Alining Anqaraga olib kelinishini ta'minladi. Bu ishlar bilan shug'ullangan muassasalar ham aslida yangi iste'dodlarni izlayotgandilar. Tez-tez imtihonlar uyushtirib opera mug'an-

niysini yetishtirish uchun talabalar tanlovini o'tkazishardi. Bu orada u Konyada o'tkaziladigan tanlovga yozildi. Biroz qidiruvdan keyin bizning yosh opera artisti paydo bo'ldi. Yo'l xarajati Konya hokimligi tomonidan ta'minlanib Anqaraga jo'natildi.

Imtihon bo'ladigan maktabning direktori qabuliga kirar-kirmas bir chekkada qo'lida sozi bilan kutayotgan sivaslik Alini tanib qoldim. Yonoqlari yana biroz qizargan, qarashlari nimadandir cho'chiyotganini ko'rsatardi. Poshnasi bosilgan tuflilarining orqasidan to'piqlari emas, yirtiq paypoqlari ko'rinar va bu hol tovonlarini qizdirayotgandek tez-tez oyoqlari holatini alishtirardi. Sozini qurol kabi chap oyog'ining ustiga tirab, dastasini ikki barmog'i bilan qisib olgandi. Xonada gaplashib kulishayotganlarning yuziga qaramas, ko'zlarini yerga va qarshi devorga qadagancha turardi.

Xonadagilar bilan salomlashganimdan keyin Ali bilan ko'rishdim. Safari qanday o'tganini so'radim. "Yomon emas!" — dedi. Qo'lidagi soz yangi edi. Kulimsirab yuziga qaradim, u tezda mening fikrimni tushundi: "Biz kelib to'xtagan karvonsaroydan topdim, sakkiz qog'oz berib oldim. Mening siniq sozim bilan janoblarga kuy chalib berish yarashmaydi har holda!" — dedi.

O'sha oqshomda ko'rganim tim qora va chiroyli ko'zlarini menga yarim ochiq holatda tasavvur qilgandim, hozir yorug'likda bunga amin bo'ldim. E'tibor qaratib ushbu yirik va parishon ko'zlarning doimo tush ichida yashashini sezdim. Bir lahza o'zimni uning o'rniga qo'yishni xohladim.

Kim biladi, u bu yerga nimalarni o'ylab keldiykin? Har holda do'stimning xayolidan kechgan opera mug'anniyligi va frakli Ovrupo konsertlari u uchun begona edi. Ammo u Anqarada kattalardan bir nechta kishining uni tinglashini, balki besh-o'n tanga berishi mumkinligini o'ylagan bo'lsa ajab emas. Balki yana o'zini porloq istiqbol kutayotganini orzu qilar, agar ovozi manzur bo'lsa, oddiy xodim, hech bo'lmaganda, darvozabon kabi ishlarga tayinlanishini va ora-sira "katta" majlislarda soz chalib bir-ikki tanga topishini umid qilardi. Har holda u valilarning ba'zan bunday oshiqlarni asrashlarini, ularga majlislarida soz chaldirishlarini eshitgandi.

Turli millatga mansub musiqashunoslarning turk, olmon, fransuz lahjalaridagi suhbatlaridan yon-atrof shovqin bilan to'lardi. Bir mahal direktor xonasining eshigi ochilib, ichkariga ikkita kishi kirdi. Ularning bittasi maorif taftishchisi edi. U bundan biroz avval vakillikka murojaat etib imtihon qilishlarini xohlagan bolani olib kelgandi. Oq-sariq, to'lachadan kelgan, to'lqin sochli, jasur qarashli bu yigit o'rta maktabni tugatgani va ovozining ustozlariga yoqqani haqida aygandi. Xonada turganlar "hay hay!" dedilar. Zero, ular tenorning ikkalasini ham tinglamoqchi, imtihon qilishmoqchi edilar.

Hammamiz birga xonadan chiqdik. Do'stim xursand, o'ziga ishonch hissi bilan imtihon xonasini ochdi. Parket to'shalgan bu yer bir tomoni yangi qurilgan sahnali keng zal edi. Sahnaning bir chekkasida esa bir oyoqli pianino bor edi. Xona birdan odamlar bilan to'ldi. Guruh-guruh bo'lib turkcha va fransuzcha gaplasha boshlashdi. Ba'zi bir tortishuvlar, bir-biridan ustun kelmoqchi bo'lganlarning ma'nosiz shovqini boshimni g'uvlatib yubordi. Yosh olmon ayoli pianino oldiga o'tirib klavishlarga qo'l cho'zdi. Sivaslik Ali umrida ko'rmagan musiqa asbobiga hayrat to'la nigoh bilan boqdi, keyin, ehtimol, begonasiramaslik uchun loqayd bo'lishga harakat qildi. Shu orada yosh musiqashunoslardan biri sahnaga oqqa bo'yalgan temir kursi qo'yib, Aliga:

— Qani, o'tir, — dedi.

Boshqa bir musiqashunos gapga qo'shildi:

— Azizim, kursiga o'tirib shuhrat qozonib bo'larkanmi? Tikka turib aytsin!

— Mayli, aytganingni qilding ham deylik, ammo tikka turib soz chalib qo'shiq kuylagan xalq oshig'ini ko'rganmisan?

Tortishuv asnosida Ali ko'zlari bilan xonaning kasalxona laboratoriyasiga o'xshash oppoq, yalang'och devorlarini, katta, pardasiz derazalarini tomosha qilar va xonani shovqinga to'ldirayotgan tumonat odamga xuddi laboratoriya stoliga yotmoqchi bo'lgan bemorning vrachlarga tikilishiga o'xshash xijolatli nazar tashlardi.

Mening yonimdagi yosh musiqashunoslardan biriga:

— Uni kursiga o'tiro'izib qo'shiq kuylatish to'g'ri emas, chordana qurib kuylashga odatlangan, balki siqilar! — dedim.

U bir lahza "to'g'ri" degandek menga qaradi-da, keyin:

— Yo'q, jonim, bu qanday munosabat! Fransuzlar oldida chordana qurib o'tirishi to'g'rimi? Mehmonlar bizning ustimizdan kulishadi! — dedi.

Ali oppoq temir kursiga olov ustiga o'tirgandek o'tirdi. Soz ushlagan qo'llari titrar va bujmaygan peshonasidan kipriklariga, behi tukli yonoqlariga ter tizilib oqardi.

Gaplashayotganlar asta-sekin jim bo'lishdi. Hamma bir burchakka yaslandi va to'g'ri kelgan o'rindiqlarga o'tirishdi, ko'zlarini esa sahna o'rtasida yolg'iz o'zi qolgan Aliga tikishdi.

Yosh yigit ikkala tizzasini zichlab bir-biriga yopishtirib tishlarini qisdi. Sozni quchog'iga oldi. Ammo uni ko'nglidagidek joylashtira olmadi va hayajonlanib atrofga alangladi. Unga tikilayotgan ko'zlarni ko'rib hayajoni yanada ortdi. Ter sariq nimchasiga to'xtovsiz to'kila boshladi. O'ng qo'li bilan gilos daraxti qobig'idan qilingan mizrobini oldi, torlarini bir necha marotaba paypasladi.

Ovozlar uni bir lahza o'ziga keltirgandek bo'ldi. Yuziga sukunat ifodasi yugurdi. Yana biroz chalgandan keyin kuylashga hozirlanib bo'ynini o'ynatdi. Yo'talishdan uyalgandek bir holda edi. Nihoyat, ko'zlarini bizdan olib qochib shipga, tepamizdagi burchakka tikib xalq qo'shig'ini kuylay boshladi.

Ovozi yana ham go'zal, ammo qandaydir shitirlash bilan qorishiq edi. Ovozi balandlashganda o'sha begona ovozlar pasayib, uning ovozi o'z kuchini ko'rsatardi. Alining o'zi ham buni bilib turardi. Xayolini bir joyga yig'ib olishni istadi, ammo bu harakati bilan faqat tomoq paylarini yana biroz taranglashtirdi va yonoqlari yanada ko'proq qizardi.

Ulkan bir g'ayrat sarf etdi. Jag'i yonidan pastga-tepaga cho'zilgan, ikkita kichkina ustun kabi qimirlamay turgan dumaloq, qatlama go'sht bo'laklari yaqqol ko'rinardi. Ali butun vujudi bilan qo'shiq aytishga urinardi. Nihoyat, qo'shiqni tugatdi va sozni qo'liga olib o'rnidan turdi.

Olmon musiqashunoslaridan biri shu zahotiyoq:

— Yomon emas, yomon emas... Narigi yigitni ham eshitaylik... — dedi va boshi bilan yosh oq-sariq yigitchani ko'rsatdi.

Chehrasida o'ziga ishongan kishining tabassumi bilan sahnaning to'rt poyali zinasidan ko'tarilgan yigitcha tezda, hatto xonadagilarning jim bo'lishini kutmasdan, plastinkalarga yozilgan xalq qo'shig'ini kuylay boshladi. Avvalo, yengil va shirin chiqqan ovozi asta-sekin balandlab butun xonani to'lqinlantirib yubordi. U haqiqatan ham chiroyli kuylardi. Ba'zi bir joyda xonanda boshqalarga taqlid qilgani, beo'xshov qiliqlar ko'rsatganiga qaramay, mukammal ovoz sohibi ekanligi sezilib turardi. Qo'shiqni tugatar-tugatmasidan yana boyagi olmon ayol: "Ofarin! — deb qichqirdi. — Bu bolani tarbiya qila olamiz!"

Shu orada ko'zim Aliga tushdi. Xonadagilarning hech biri bilan ishi yo'q kishidek ko'zlarini bo'shliqlarga olib qochar va yuragi siqilgan odamdek ko'rinardi. Pianino oldidagi yosh ayol uni qo'li bilan yoniga imladi. Nomzodlarning eshitish qobiliyati sinab ko'rilishi kerak edi. O'ng qo'li bilan oson metodni chalib olmonchada:

— Buni aynan takrorla! — dedi.

Turk musiqashunoslaridan biri izohladi:

— Pianino ovoziga qarab kuyla-chi!

Alining hayajon to'la ko'zlari bir menga, bir do'stimga tikilardi. Men ichimdan "evoh" dedim. Bechora yigitcha umrida ko'rmagan, ovozini tinglamagan, nomini ham eshitmagan asbobning qarshisiga olib kelindi. Unga aytilgan so'zning ma'nosini hatto anglamasdi ham.

Izoh berishni xohladim:

— O'g'lim, xonim qanday chalgan bo'lsa, shunday ovoz ber.

Pianino oldidagi ayol bir xil kuyni takrorladi, Ali katta kuch bilan yana bo'ynini kerib:

— Bir xabar yo'lladim jonon elingga... — deya boshladi. U yerda o'tirgan odamlar kulib yuborishdi, Ali esa darhol jim bo'ldi.

— Yo'q, qora ko'zim, — dedim, — qo'shiq aytmaysan, ovozingni chiqarishing kerak.

Siqilib hiqildog'idan bir nechta ovoz otildi, u yerda yuragi siqilib turgan olmonlardan biri qo'li bilan oq-sariq tenorni chaqirib: "Bu yigit aytsin", — dedi.

Pianinodan ketma-ket yurib chiqqan sadolar ovozlar daryosi holida tiniqlashib yigitchaning og'zidan to'kilardi. Ishni tez yakunlashni xohlaganlar Aliga yana bitta qo'shiqni kuylatdilar. Hamma narsaning shu bitta qo'shiqqa bog'liq ekanini sezgan Ali bu safar avvaliga qaraganda juda ko'p kuch sarf qilib eng chiroyli qo'shig'ini kuyladi. Hech ham yomon emasdi. Hatto u yerda o'tirganlar "mukammal" degandek bosh tebratishdi. Ammo qo'shiq tugab, Ali sozi bilan bir chetga chiqar-chiqmas darhol uni unutishdi. Oq-sariq yigitcha yana plastinkalardan o'rgangan bir tangoni kuyladi. Albatta, yigitchaning chiroyli ovozi bor edi. Endi imtihon yetarli deb hisoblanib, bu bolaning qaysi yo'nalishda ketishiga doir tortishuvlarga o'tildi. Budjet masalasi o'rtaga tushdi. Iyundan oldin talabalikka qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risida turli bahslar bo'ldi. Ulardan hech biri shu xona burchagida o'tirgan sivaslik Aliga e'tibor bermasdi. Uni bu yerlargacha olib kelgan do'stim bahslashayotganlar yonida hech narsani eshitmasdan turardi. Ikkalamiz ham Alining yoniga borishga jur'at etolmas, hatto uning yuziga qarashga ham botinolmasdik.

Men sekingina boshimni ko'tarib lol holatda o'tirdim. Alida hech bir fojiali xatti-harakat bo'lgani sezilmasdi. Bo'mbo'sh ko'zlari bilan oldingidek devorlarga tikilardi. Go'yo bu xonadagilar u bilan zarracha ham aloqador bo'lmagan kimsalar edi. Yuzida gina, oz bo'lsa-da qahr alomati ko'rinmasdi. Hatto haddan ziyod uzoq davom etgan siqilishdan, iskanjadan qutulganday sokin, dam olgandek turardi. Ko'zlari oq-sariq tenorga duch kelganida bir muddat qarab turdi, balki biroz hayrat va qiziqish uni o'z domiga tortgandi. Bu qarashlardan kichkinagina bo'lsa ham hasad, hatto g'ayr ham izlab ko'rdim, ammo hech narsa topa olmadim.

Sozi yana qurol kabi o'ng oyog'ining yonida edi. Bu oyog'i sezilar-sezilmas harakat bilan yerdan ko'tarilib yana parket ustiga tushardi. O'sha payt ichimda nimaningdir buralganini sezdim. Yosh yigitning tushkunligi, xafaligi, butun umidlarining chilparchin bo'lganligi — hamma-hammasi shu oyoq harakatida

o'zini namoyon etardi. Butun vujudiga hokimlik qilgan yuzidagi nozik titrash bilan hatto ichidagi alg'ov-dalg'ov jarayonlarni ham aks ettirmagan, ko'zlari cheksiz chuqurlik va sukunat ichida yumshoq nur bilan porlagan bu odam karaxt bo'lib, o'ng oyog'ining sekin va asabiy qimirlashi bilan o'zini muvozanatda ushlab turardi. Umrimda hech qanday inson chehrasi, hech bir yig'i menga bunchalik achchiq, bunchalik ma'noli ko'rinmagandi.

O'zimda kuch topib uning yoniga bordim. Albatta, u bilan gaplashish, unga bir narsalar deyish lozim edi. Konyaga qanday qaytadi? Kissasidagi oxirgi pulini ham sarflab soz sotib olgandi. Endi nima qiladi?

Yoniga borar-bormasimdan oyog'ining harakati to'xtadi. Do'stim ham borgandi. Bir zumda to'qilgan yolg'onni ayta boshladi:

— Ali, bolajonim! Sening ovozingni yoqtirishdi, ammo yoshing biroz katta ekan. Bu yerga yigirma yoshdan katta bo'lganlarni olishmaydi. Sen uchun harakat qilib xususiy narsa qildiramiz. Balki bu uzoq muddat davom etishi mumkindir. Sen Konyaga qayt, ish hal bo'lganida seni topdirib xabar beramiz.

Ali bu yolg'onlarning hammasini favqulodda ajoyib, ahamiyatli narsadek, qoshlarini sekin ko'tarib tinglar, ularni eslab qolishga harakat qilardi. Biroq uning ko'zlari menga tushganida seskanib ketdim. Nimagadir tim qora, katta ko'zlar menga bu loflarning bir foiziga ham ishonmaganini aytib turardi.

Biror narsa qilish uchun:

— Keling, restoranda ovqatlanaylik! — dedim.

Xonadagilarning tortishuvi hali ham davom etardi. Ular hatto bizning tashqariga chiqib ketganimizni ham sezishmadi.

Bir kabobxonada qornimizni to'ydirdik va shu asnoda hech narsa haqida gaplashmadik. Uni aldashga imkon yo'q edi. "Seni chaqirib ovora qildik, kechirasan!" — degan gap ham aytilmadi.

Men shular haqida ko'p o'yladim, kabobxonadan chiqdik. Ali nimadir deyishni xohlagandek bir necha marotaba yutindi va bo'ynini egib:

— Sizni uyatga qoldirdim, janob, aybga buyurmaysiz! — dedi.

Keyin hayratlanajak narsadan bahs etgandek ko'zlarini yengilgina ochib davom etdi:

— Men u xonada o'z ovozimni topolmadim!

U bizdan nari ketdi.

Ertasi kuni ertalab oramizda yig'ilgan bir qancha lirani unga berish va uni Konya avtobusiga mindirib salomatlik tilash uchun Haymana xoniga ketgan do'stimga karvonsaroy sohibi sivaslik Alining sozini ikki liraga pullab yo'l puli qilganini va sahar qorong'usida ketayotgan yuk mashinasiga minib Konyaga jo'naganini aytdi.

SABOHADDIN QUDRAT OQSAL

MAYDON

Istanbulning kichik mahallalaridan birida, bandargoh maydonida turardim. Shabboda ufurayotgan havoda paroxod kutayotgandim. Men bo'g'oz paroxodlarining kechikib kelishini yoqtiraman. Unga judayam ahamiyat bermasdan, o'z-o'zimga agar paroxod kelmasa, shu yerlarda qolaman va o'zimni qandaydir chalg'itadigan biror narsa o'ylab topaman derdim. Ichimdagi ovoz besabrlik bilan tezroq paroxod kelsin deb qaysarlik qilsa, boshqa ovoz javob berishga shay turardi: "Nima qipti, bu yerda suv, havo, quyosh, daraxt, shamol bilan birga qolaveraman. Hammasining o'z ovozi, o'z tarovati bor".

Havo qanchalik sovuq bo'lishiga qaramay, paroxodni kutib bandargohga tiqilgan olomonga, sigaretning achchiq dudini istar-istamas simirib vaqtini behuda o'tkazayotgan odamlarga hayrat bilan boqardim. Kun degan narsa qanchalik qisqa bo'ladi-ya. O'n-o'n besh daqiqadek vaqtni faqat paroxod kutishga ajratib, umringning o'n-o'n besh daqiqasi behuda o'tib ketayotganiga ahamiyat bermagan kishi umrining aziz daqiqalari behuda o'tayotganiga qanday chidaydi. Shunday ekan, inson har doim baxtini topa olganicha yashaydi. Birin-ketin o'tib ketayotgan odamlarga e'tibor berishi kerak. Agar daraxt, suv, shamol hey odamlar, bizdan bahramand bo'ling deya baqirsa, to'g'risi, paroxodni kutayotgan yo'lovchilarning bandargohda tiqilib turishini tasavvur ham qilolmagan bo'lardim.

O'tgan kunlarimni o'ylayapman. Shunday aprel oylaridan biri edi. May oyimidi, yana bilmadim. Keyinchalik, uni yo'qotganimdan keyin ko'p vaqtgacha xayolimdan ketmagandi, ammo birga bo'lgan paytlarda ham yolg'iz qolishni istagan qiz bilan bandargohdan paroxodga tushib ketgandik. O'sha oyning kunlari shu darajada issiq ediki, paroxodda oyoqlarimni yengilgina qarshi divanga tegizib, menga butun kun charchog'ini unuttirgan favqulodda

ajoyib, go'yo ichimga balki uch oy, besh oy so'nmaydigan sigaret yoqqandim. U ham o'zini unutgandi, aftidan, horg'in ko'rinardi. Hatto u bilan qayerga borganimizni ham eslolmayman. Faqat namozshomda qaytganimizni bilaman, xolos. O'sha kecha undan, hamma narsadan to'ygan odamdek kinoga bordim. Film o'g'rilik haqida ekan. Film avvalida favqulodda go'zal ayolning yaltiroq olmos marjoni o'g'irlanadi, keyin esa bir yarim soatlar chamasi o'g'ri qidiriladi. O'g'ri topilarmidi, yo'qmi — unisini ham eslolmayman, lekin ayol o'z sevgani bilan turmush quradi. Kinodan chiqqanimda yomg'ir shig'alab yog'ardi. Oh, bu o'xshashi yo'q tuproq, maysa hidini ayting. Yomg'ir tinar-tinmas atrofga qanday tarovat bag'ishlaganini tuyganingizda edi. Qiz bilan kichkina sayrdan keyin yolg'iz o'zim mojarodan iborat filmni tomosha qilib chiqqanimda hali ham yomg'ir yog'ar, tinganidan keyin esa tuproq, maysa hidlarini atrofga taratganida aprel, balki may kechasi qanday go'zal bo'lar ekan-a. Uyga kelganimda yolg'iz o'zim yotoqda yotishdan xursand bo'lib faqat sevgan insonim xayoli-yu dardi bilan darhol uyquga ketardim. Chala yarim uyqu holatida yotoqning faqat ushbu oylarga xos bo'lgan hidini, unutilmas xushbo'yligini eslayman.

Hozir bularning bari o'tmishda qolgandi. Shu voqeadan ikki yil o'tgandan keyin men yana o'sha maydonda kechikayotgan paroxodni kutib o'tgan kunlarimni, xayolimni o'g'irlagan go'zal havoni, insonlarni, qayiqlarni, ro'paramdagi telefon ustuniga qo'ngan qushlarni, chekkada turgan somon yuklangan mashinani, uzoqlardan o'tayotgan dengiz katerining bir xil ovozini-yu Istanbulni qanchalik sevaman. Bularning hammasini ularning ahvolidan, dardidan, sevinchidan tushunaman. Yuqorida aytganimdek, kechikkan paroxod ham insonga turli xotiralar bilan ovunishga bir muddat fursat beradi, qayerlarda bo'lsa ham unda saodat deb ataluvchi tuyg'u paydo bo'ladi.

Keyin nima uchun odamlarni kuzatayotib baxtli bo'lishni eplay olmaymiz. O'rtamiyona tomoshabin bo'lsak-da, teatr nima bo'lganda ham bizga hayotni o'rgatadi. Eshitishdan biroz bahra olamiz-u, insonlarni kashf etishni bilmaganimiz, insonlar taqdirini ko'z oldimizga keltira olmaganimiz uchun ularni ko'rishdan, faqat

tomosha qilishdan nariga o'tmaymiz. Xo'sh, nima uchun? Bir marotaba o'rganib ko'raylik. Balki bo'lar, balki bo'lmas. Bu boshqa masala. Kim biladi, balki masalaga quloq musofiri sifatidagina emas, ko'z musofiri sifatida ham qarash lozimdir. Keyinchalik inson bularning shaydosiga aylanadi.

Maydondan o'tayotgan odamlarni zimdan kuzatardim. Ular uzoqdan juda kichkina ko'rinishardi. Faqat yuzlaridan ajrata olardik. Bu maydondagi odamlarning o'zlari kim? Ulkan sahnaning son-sanoqsiz odamlarimi yoki prototiplari?

Men shu mahallada ishlayman. Ishim shu yerdaligi bois mahalladagi odamlarning ko'pini taniyman. Mana bu ikkita bolaning kim ekanligini, ular nima ish qilishini ham bilaman. Uzun bo'yli, sariqdan kelgan bolaning kichkinagina, bir qavatli uyi bor. Kuz yog'ingarchiligida tomidan chakka o'tib, mo'risi nuray-nuray deb turgan kulbayi vayrona. O'tgan qishning qahraton kunlarigacha buvisi bilan birga shu yerda yashadi, keyin kampir vafot etib, yolg'iz o'zi qoldi.

Kim biladi, bu bola bir qavatli uyning kichkinagina xonasida na tush ko'rib, na esnab, na kerilib yayramasa kerak. Tushida qo'rqib, titragan holatda uyg'onib, keyin nimagadir uxlay olmasdan, boshini choyshabi tagiga suqib, nafasi siqilib yotsa, ajab emas. Bunday kechalarda tong yorishishni bilmaydi, kechalar uzaygandan uzayadi. Tong oqarib yorug'lik chor tarafni yoritganida dahshatli tush ko'rgan odamlardek u ham iztiroblarini o'sha xonada qoldirib ishiga otlanadi.

Narigi bola esa shu atrofdagi qishloqlarning birida yashaydigan polizchining o'g'li. Doim mahzun holatda turishidan o'gay o'g'ilga o'xshaydi. U shunday mehnatkash bola bo'lishiga qaramay, polizchi agar hosil barakali kelsa, yomg'irdan ko'radi, agar teskarisi bo'lsa, o'g'lidan ko'radi. Ammo bola churq etmaydi. Faqat g'amgin bir holatda yuradi, balki uning ko'rinishi shundaymi, bilmadim. Uni bir necha marotaba ko'kat, meva ortilgan arava ustida ma'yus ovoz bilan turku kuylaganini ko'rganman.

Huv nariroqda turgan sochlari jingalak, to'lachadan kelgan, och jigarrang kastum-yubka kiygan ochiq chehrali ayol shu atrofdagi maktablarning birida to'quvchilikdan dars beradi. U onasi va

kichkina singlisi bilan birga yashaydi. Ularga qaraydi. Bu kecha ularning uchovini dasturxon atrofida ko'rishni juda-juda xohladim. Ular o'zaro suhbatlashmasdilar. Faqat bitta-ikkita tovoq, sanchqi ovozi eshitilardi, xolos. Albatta, shunday. Ular alohida-alohida bo'lib olib butun kunni xomxayollik bilan o'tkazardilar. To'qish o'qituvchisi balki o'sha kecha yotog'iga kirganida xayol surib: "Eh, nima qilib qo'ydim-a, o'tgan oy mening qo'limni so'ragan Tahsil shu'basida ishlovchi Muharrambekka "yo'q" dedim. Uning nima kamchiligi bor edi? Juda ham xunuk emasdi har holda. Har kecha bir-ikki qadah ichsa, nima bo'libdi? Balki u ichganida yanada yoqimli, yanada sevimli bo'lar. Onam. Bu ishga xalaqit bergan ham onam", — derdi.

Qarang, anavi ro'parada kelayotgan semiz, kalta bo'y, bitta oyog'i biroz sudralgan odamni ham taniyman. Ko'chmas mulk dalloli. Bu odamchalik baland ovozda kulgan, bu odamchalik zo'r qimor o'ynagan boshqa kishi hali dunyoga kelmagandir. To'rtinchi o'g'lonni uchta o'g'lon ro'parasidan qochirgan paytida otgan qahqahalarini eshitganingizda edi, balki o'sha paytda hayotning go'zalligini yanada yaqqol ko'rishingiz mumkin bo'lardi.

Hayot go'zalligi... Inson hayotning go'zalligini hammavaqt his qila oladi. Hozir ko'rganingizdek, hatto kechikkan paroxodni kutib ham. Bas, hamma narsani, borliqni, insonlarni, tuyg'ularimizni, buyumlarimizni sevaylik. Ichimizda tashqi dunyoni ilk bor zavq bilan his qilgan bolaning beg'uborligi bo'lsin. Hatto eng mayda yomg'ir tomchilariga ham qiziqib qarashni o'rganaylik. Shunday qilsangiz, bandargoh maydonida o'n daqiqada, istasangiz, xotiralar dunyosiga berilib ketib bundan bir kecha yillar ilgari yashagan lahzalarni yangidan boshingizdan kechirasiz. Istasangiz, maydondan o'tgan insonlarni tomosha qilib xayolingizda ular haqida romanlar yozasiz, romanlar yozib keyin uni yana o'zingiz o'qiysiz.

SABRI SARAN

FOTOGRAF

Bahriya ko'chasining bir burchagida baliq qovuryaptilar, boshqa bir tomonida buxankasi yigirma besh qurushdan sovib qolgan non sotmoqdalar. Har narsaning yomoni va har narsaning eng arzoni Bahriya ko'chasida sotilar edi. Bu yerda Shishxona va To'zqo'poran ko'chalarida o'tmay qolgan, achib ichi tushgan qovunlar, bemaza tarvuzlarning bozori chaqqon edi. Qora pashshalar chang bosgan shirinliklar betida uchib-qo'nib uymalashib yotardi.

Bahriya ko'chasini cho'ltoq supurgisi bilan tozalay olmasligiga ko'zi yetgan qorovul dam olgani burchakka o'tirdi. U o'zining cho'ltoq supurgisi bilan Bahriya ko'chasidagi hamma axlatni tozalay olmasligini bilgani uchun tinchgina o'tkinchilarga, bir-biriga turtinishib urishib-so'kinishayotgan bo'yoqchi va lo'li bolalariga, etik moylovchilarga qarab o'tirardi, o'nboshilari bo'lsa Bahriya ko'chasiga qayrilib qaramasdi ham. U Shishxona, To'zqo'poran ko'chalarida jindak axlat ko'rib qolguday bo'lsa bormi, baqirib-chaqirib so'kinardi. Rosti, Bahriya ko'chasi toza bo'lib ham qayerga borar edi deysiz? Baribir, shu zahoti yana hamma yoqni axlat bosib ketardi. Boy va katta kishilarning mashinalari bu yerlarga sira yo'lamasdi. Bahriya ko'chasining juda iflosligidan uni axlatxona desa bo'lardi. Bunda dang'illama uy va katta daromad keltiradigan saroylar bormiki, ko'cha toza tursin. Bahriya ko'chasida "past tabaqa" deb ataladigan oddiy xalq yashaydi, xolos.

Qorovul og'zini qo'li bilan bekitish kerakligini xayoliga ham keltirmay qop-qora, chirigan tishlarini ko'rsatib bemalol esnadi, tamaki xaltasini olib, yo'g'on qilib papiros o'ray boshladi. Sal nariroqdagi sartarosh bilan Sayyor fotograf xaridor kutib, bekorchilikdan safsata sotishar, daromad kam bo'lgani uchun kunlarini zo'rg'a o'tkazishar edilar. Urush tamom bo'lganiga ancha vaqt

bo'ldi, lekin Bahriya ko'chasidagi arzonchilikka qaramay, narsalarning narxi hali ham juda baland edi...

Metrikam esimga tushdi. U yirtilib, butunlay titilib ishdan chiqqandi. Ikkita surat oldirib uni allaqachonlar yangilash lozim edi. Surat oldirish uchun hech vaqt topa olmay yurdim. Fotografga bordim.

Sartarosh meni soqol oldiradi deb o'yladi shekilli:

— Marhamat! — deb taklif qildi.

— Yo'q, men suratga tushmoqchiman,— deb javob berdim va fotoapparat qarshisida turgan eski, qing'ir-qiyshiq, xaslari to'zigan qamish stulga o'tirdim. Ehtimol, ertadan beri surat oldirish uchun bu bechoraning oldiga kelgan birinchi kishi men bo'lsam kerak.

Fotograf:

— To'g'riroq o'tiring! Boshingizni sal yuqoriroq ko'taring! — Meni to'g'rilab o'tqazib, apparat oldiga keldi-da, boshini qora xalta ichiga tiqdi. Xalta ichida men chappa ko'rindim. Apparat ko'zgusida oyog'im yuqorida, boshim pastda bo'lib qoldi. Bu fotografiyaning siri bo'lib, undan tashqari chiqmasdi. Men uning sirini ilgari o'rta maktabda o'qigan edim, lekin bunga hozir ancha bo'ldi, unutdim.

Hamma narsani kitobdan o'qib, uni hayotga tatbiq qilmasang, esdan chiqib qolar ekan. Ammo fotograf o'z hunarini tashlab ketgan bo'lsa ham, qancha vaqt o'tgan bo'lsa ham bu sirni, baribir, hech qachon unutmaydi. Chunki uning tirikchiligi shu bilan.

Bu sirning hikmatini so'ramoqchi edim, lekin shu vaqt qora xaltadan boshini chiqargan fotograf:

— Ko'zoynagingiz yaltirayapti, maylimi! — dedi.

— Hechqisi yo'q, mayli — yaltiray bersin.

— Biroz bu yoqqa qarang... Ana shunday... Yaxshi...

U yana qora xaltasini kiyib oldi. Fotograf obyektivni buradi, shtativning bir oyog'ini kaltaroq qilish uchun uni boshqasiga almashtirdi.

Qorovul o'ragan papirosini tutatib chekdi. Sertuk burun katagidan chiqayotgan pag'a-pag'a tutun ostida Bahriya ko'chasi yo'qolib ketganday ko'rindi. U butun borlig'idan, ota-onasidan, bolalaridan va vatanidan — bor narsasidan ajralgan edi... Ertaga

uning o'zi ham dunyodan o'tadi. Yoshi ham bir joyga yetib, pishib qolgan.

Shahar boshqarmasi ko'chalarni yoshlar supursin deb buyruq chiqardi. Shu sababli yurtlarini tashlab pul ishlagani shaharga kelayotgan yosh yigitlarning soni kundan kunga ortmoqda. O'z uyida taxir zaytun yog'ida pishirilgan bug'doy "palov"i va tamaki xaltasida tamakisi bo'lgani uchun Xudoga shukur qilishi kerak! Bundan ortiq unga tag'in nima ham kerak edi? Bahriya ko'chasi birato'la yo'qolib ketmaydimi? Bu uning parvoyiga ham kelmasdi, Bahriya ko'chasini istagan vaqtida topa olar edi. Uni topish uchun paroxod yoki tramvayga o'tirishning hojati yo'q. Hozircha Xudo bergan oyoqdan qolgani yo'q. U qayerda bo'lsa ham piyoda yurib, Bahriya ko'chasini topa olar edi.

Qorovul hissiyoti bilan mening hissiyotim orasidagi farqni, uning supurgisi va Bahriya ko'chasi haqidagi bu xildagi fikrlar meni bir necha daqiqa apparatning menga to'g'rilangan obyektivi qarshisida xayol surishga majbur etdi va men o'zimni butunlay unutib qo'yibman.

Fotograf mening xayolimni tarqatib yubordi:

— Diqqat qiling! Suratingizni olaman! Bir... Ikki... Uch...

Qimirlamasdan, ko'zlarimni fotograf ko'rsatgan tomonga tikkan edimki, fotograf:

— Bo'ldi! — dedi.

Men yengil nafas olib o'rnimdan turdim. Nima bo'lsa ham fotografning hukmronligidan qutuldim. U endi menga ortiqcha buyruq berib: "Bunday o'tir, unday o'tir! Bu yoqqa qara! Diqqat!" deb ayta olmasdi. Men ham istagan tomonimga qaray olaman.

Chapani bashara, og'zi yapaloq, pochasi keng shim kiygan yosh yigit sartaroshning do'konchasiga kirib ketdi.

— Qani, og'ayni, pardoz berib meni bir yaxshilab yaltirat! — dedi.

Bu yigit Zibaga borishga jazm qildi, chunki u yerda bir do'sti bor edi. Yo'lda bir-ikki qadah ichib, bir quti "yenija" papirosidan oldi, bunaqa mayda xarajatdar uchun qirq lirani ayirib qo'ydi. Balki sevgilisi ham o'ziga o'xshab siyqasi chiqqan tajribakordir,

balki endigina ochilib, yetilgan, so'lim bir qizdir. Uni uyidan olib chiqib, o'z uyiga olib borsa:

— Bu mening xotinim, — desa qanday bo'larkan-a?

Uyidagilar uning kimligini va qaysi uyaning qushi ekanini qayerdan bilishadi? Shu yerda qalin qog'ozga yopishtirilgan suratni ko'rdim. Allaqanday bir soldat o'ng qo'li bilan o'q teradigan patrontashni, chap qo'li bilan stulning bir chekkasini ushlab, gullar ichida menga qarab kulib turardi. U menga qarab kularmidi yoki o'z qishlog'ida qolgan onasigami, yoki uzoq o'lkalarda qoldirgan sevgilisigami?.. Bilib bo'lmasdi... Bu jumboqni yechish menga qiyin edi. Bu surat "Istanbul xotirasi edi. Xotiraning bir uchida uchib borayotgan qushning surati, qushning tumshug'ida bir xat bor edi.

Bu qush uning qishlog'igacha uchib borib, bu xatni intizor onaga yetkazib bera olarmikan? Ehtimol, soldat allaqachonlar xizmat muddatini tugatgandir, ijozat so'rashga balki ehtiyoji yo'qdir. Ehtimol, ruxsat olgan bo'lsa, taxta qal'a ko'chalarida chorig'ini sudrab anqayib yurgandir, balki allaqaysi tog' boshida soqchilik qilayotgandir. Kichik fotoapparatga ustalik bilan shuncha ko'p suratlar joylashtirilgan edi. Bu surat yonida boshqalarning surati ham bor edi.

Hushim ketib, Bahriya ko'chasida xayol surib yurib mudragan qorovulni ham, sartaroshxonadan o'zini silliq qilib, yaltiratib chiqib ketgan chapani yigitni ham ko'rmay qolibman. Suratdagi manzara meni mahliyo qilganidan o'zimni butunlay unutib qo'yibman. Bu suratlar fotograf hayotini boshqa ko'pgina kishilarning hayoti bilan chambarchas bog'lagan edi.

Mana shu bola yetimchalikning nima ekanligini, ko'cha o'rtasida boshpanasiz qolishning qiyinligini bilarmikin? Bu bola devor tagida yoki ko'prik ostida yotishning insonda qanchalik unutilmas iz qoldirishini, bir insonni qanday qilib odamgarchilikdan chiqarishini hech vaqt tushuna olmas edi. Holbuki, bu bola ota-onasiz qolgan, ko'chada o'ziga bir boshpana izlab, uni topa olmas edi.

Mana bu suratdagi ikki sevishganni qarang, bir-birovini quchoqlab turishlari qanday yaxshi, qarab turib qizg'anasan kishi...

Orqalarida qarag'ayzor o'rmon bilan dengiz ko'rinib turibdi, oldilarida apparat bilan fotograf borligini unutganlar. Ajabo, ular fotografdan suratlarini olib ketgandan keyin nima qildilar ekan? Xilvatroq joy topib dam oldilarmi yoki qo'l ushlashib ko'chaga chiqdilarmi? Bu turish va bu muhabbatdan keyin ko'chaga chiqib keta olmas edilar. Ular hali ham bir-birovlarini sevarmikanlar yoxud ko'ngillari sovib ajralishib ketdilarmikin? Balki ikkovlari turmush qurib, bola-chaqalik bo'lgandirlar. Ajabo, ular uylanganliklari uchun xursandmikinlar yoxud pushaymon yeb ajralishib ketdilarmikin?

Baxtli bo'lish juda qiyin. Ayniqsa, turmush kechirish juda qiyin, odam xotirjam nafas ololmaydi, yurakning ich-ichidan qaynab chiqqan kulgi lablarda o'rnashmaydi.

Fotograf ham baxtli bo'lish uchun uzoq yillar azob chekdi, urindi, sillasi quridi. Ammo yirtiq-yamoq chorig'i bilan egnidagi juldur jaketi yangi bo'lmadi, uyda uni och-yalang'och bolalari kutar edi. U qahraton sovuq bo'lganda va yomg'ir yoqqan kunlari ish qila olmagani uchun ko'pincha uyga qo'li bo'sh qaytar edi. Bolalari yig'lar, ozg'in, nozik xotini hech narsa demay qayg'uli boshini quyi solardi, nochorlik uning qalbini qurt kabi kemirar, qayoqqa bosh urishini bilmasdi. Shunday paytlarda fotograf bir necha marta fotoapparatini chilparchin qilmoqchi bo'lardi. Lekin xotini:

— Senga nima bo'ldi? Aqlingdan ozdingmi? — deb yupatar edi uni. Uning bo'g'inlari bo'shashib ketar, qo'llari yana o'z holiga qaytardi. Aqldan ozmay bo'larmidi, axir! Fotoapparatni emas, balki bu la'nati hayotni chilparchin qilmoqchi bo'lardi. Vafosiz, zolim, rahmsiz fotoapparat emas, balki o'sha la'nati, adolatsiz hayotning o'zi edi.

Uyda o'lim sukunati hukm surganda ham, qalbini qora umidsizlik qoplaganda ham, soldat boyagi-boyagi — kulimsirar, sevishganlar esa, boyagi-boyagi — quchoqlashishini qo'ymasdi, ularning hech narsadan xabarlari yo'q edi. Ularga kulmoq, yig'lamoq, quchoqlashmoq va ayrilmoq, baribir, farqsiz edi.

Ammo fotograf bo'lsa, ular bilan o'zining falokatini, baxtsiz turmushini aytib hasratlashar, qor, yomg'irli va iztirobli qora kun-

larini aytib, ularga bechoralikdan kirtayib qolgan ko'zlari bilan dam-badam qayg'uli boqar, hatto ko'z yoshi to'kardi. Soldatning kulimsirashi, sevishganlarning quchoqlashishi uning hayoti va uning noniga vosita edilar. Ammo bu non ko'p qattiq edi, soldat yig'lar, sevishganlar bir-birovlaridan ajralishar, ularning baxtli bo'lishlari imkonsiz edi.

— Ro'molchangiz bormi? — deb so'radi fotograf, suratni yuvib bo'lib, qaychi bilan uni kesarkan.

— Bor-u, lekin...

Ro'molchani chiqarib, tozaroq joyini qidirdim. Suratni ro'molchaga o'radik. Ko'zoynaklarim suratda yaltirab tushibdi. Bu yaltiroqlik meni ko'r qilib ko'rsatibdi-qo'yibdi, ko'zlarim ko'rinmasdi.

— Suratda ko'zning ko'r bo'lib ko'rinishining ahamiyati yo'q, — dedim, — ammo dunyoda shunaqa ochiq ko'z ko'rlar borki... — Birdan so'zni shartta kesib:

— Qancha pul berayin? — dedim.

— Oltmish qurush.

Fotograf shu kungi non pulini ishlagan bo'ldi. Nondan boshqa uning tuzi, yog'i, qatig'i, kerosini, uni ham bo'lishi kerak, ularni qayerdan topadi? Kun uzun bo'lishiga qaramay, kechki soat beshda shom bo'ladi, ana-mana deguncha qorong'i tushadi. Fotografning vaqti juda ziq.

Bir kunlik nonning pulini fotografga berib, u yerdan chiqib ketdim.

Qorovul o'rnidan turdi, uzun sopli supurgisini yelkasiga qo'yib, qaltiragan oyoqlarini istar-istamas sudrab, taxir zaytun moyida pishirilgan bug'doy "palovi"ni yeyish uchun imillab jo'nadi. U Bahriya ko'chasining axlatlariga bir hovuch axlat qo'shib o'tib keta berdi.

TRUBANI KO'TAR, TRUBANI TUSHIR!

Hammayoq chang va to'zon... Yalangoyoq insonlar va taqasiz hayvonlarning izlari tushgan yo'llardan vizillab avtomobillar o'tmoqda.

Uzoqdan semiz itlarning hurishi oynalarni dirillatdi:

— Vovv... vov... vov.

Bu vovullash o'tkir bir tish kabi kon mudirining badaniga botdi. Mudir yuzini burishtirdi. Quloqlari dikkaydi. Siz, it vovullashini eshitgan odamga bir narsa bo'larmidi deb aytarsiz? Siz bilan menga shunday, albatta. Hech narsa bo'lmaydi. Qishloq itlarining hurishi begona ekanimizni eslatadi. Bu begona bir kishiga qarshi ko'rsatilgan hayrat va yolg'izlikning ilk ishorasidir. Agar yana biroz ta'sirchan bo'lsangiz, u sizda bir qo'rquv, bir cho'chish paydo qiladi, xuddi iligingizdan tishlab olayotganday bo'ladi. It hurishini eshitgach, zavod mudirining kallasiga o'tkir tish botganday bo'ldi, birdan chaqmoq chaqilganday, miyasi yorishib ketdi. Qorong'ilikda xayolidagi xotiralar uyg'ondi, bir-birini turtib, birin-ketin safdagi askardek tizildi. Mudir, semiz bir it hurigan yerda farovonlik bo'lishini anglaydigan tajribaga ega bo'lib, zakiy, xullas, o'z ishining omili edi. Ahvoli xarob bechora qishloqlarning darmonsiz, tulagan, ovozi kuchsiz itlari bo'ladi. Boy va kibor qishloqlarning qo'riqchilari ham mag'rur, boshlari kekkaygan va haybatli, ovozlari tog'dan toqqa bir dovul kabi tarqaladi. Mudir bu narsalarni o'yladi va:

— Ishchilarning kundalik ish haqi o'ylaganim kabi oz emas shekilli?..— degan fikrga keldi.

Avtomobil bu kelgindi odamni oz vaqt ichida ko'z ilg'amas yam-yashil bir dengizga olib chiqdi. Bu dengiz o'rtasida rango-rang lolaqizg'aldoqlar suv ustida uchgan kapalaklardek hilpiramoqda edi. Daraning boshqa tomonida sap-sarg'ayib pish-

gan bug'doylar mushtumday boshoqlarini selkillatib, bosh egib salom beradilar. Har narsa — maysalar ham, atrofdagi daraxtlar ham, yaproqlar ham yetilgan edi. Yiqiq devorlardan mo'ralagan butoqlar pishgan mevalarni changli yo'llarga to'kkan edi. Kumush qo'rg'oshin rudasini ishlab chiqaruvchi zavod boshlig'i bu boy vodiyni bir ko'rishdayoq uning go'zalligiga mahliyo bo'ldi.

* * *

Mudir qishloq aholisidan shirin muomala, samimiy bir do'stlik ko'rdiki, har kun ziyofatdan ziyofatga yurdi. Har bir ziyofat unda yangi bir dunyo kashf etgandek his tug'dirar edi. Go'zal va barakali qishloqning noz-ne'matlari uni juda maftun etdi. Bir haftadan keyin zavod mudiri qishloq boylariga o'zi ziyofat berar, arman tarjimon vositasi bilan har kun yangi bir narsa o'rganib olardi. Bir kun qishloq oqsoqoli Umar og'o jingalak soqolini silab turib, bu yerlarning shuhrati to'g'risida shunday bahs etdi:

— To'ram... Luqmoni hakim o'limga chorani shu yerdan topgan, kitobga yozgan. Faqat na choraki, kitob suvga tushib, siyohi yuvilib ketgan... O'limga chora qolmadi, lekin Luqmoni hakim kitobidan yuvilgan siyohlar bu yerning tuprog'iga qorishgan; shuning uchun bu yerga nima eksang bitadi: yalang oyoq bilan yer bossang, darrov odam ham unadi. Bir hissaga ellik hissa bug'doy boshqa qayerda bor, to'ram?

Mudir xuddi prujina singari sapchidi va:

— Birga ellikmi?..— deb so'radi.

— Ha, albatta, siz nima deb o'yladingiz, to'ram!..

Mudir shundan keyin yer egalarini bitta-bitta chaqirdi. Tarjimonni olib, shunday og'olar yashaydigan uylarga ham bordi. Har joyda hammaga, ayrim-ayrim so'zladi:

— Men Luqmonning qishlog'ini juda yoqtirdim. Ehtimol, bola-chaqalarimni olib kelib, shu yerda o'rnashib qolsam. Sizlardan benihoyat xursandman. Yevropaning firibgar odamlari qayoqda-yu, sizlar qayoqda?.. Men bu yerda o'zimni tinch, bexavotir sezaman... Menga biroz yer sotmaysizlarmi?..

— Sotamiz... ammo har tanobi ellik liradan kam emas. Kamiga bermaymiz...

Mudir "Kumush qo'rg'oshin" zavodi ish boshqaruvchisiga uchradi va dardini aytdi:

— Agar bilsang,— dedi u,— shu yerdan yer-suv egasi bo'lish zavod uchun ham, biz uchun ham yaxshi... Sen bilan o'rtoq bo'lardik... Bir chorasini topib, biroz yer sotib olabilsak edi... Qishloqilar ko'p pul so'ramoqdalar... Bu narxga sotib olishning iloji yo'q...

Ish boshqaruvchi:

— Ortiqcha o'ylab o'tirishning hojati yo'q, oson...— dedi.

— Qanday qilib?..

Ish boshqaruvchi kulimsiradi:

— Juda qulay... Agar zavod trubasini biroz pasaytirsangiz, ish bitadi qo'yadi. U vaqtda bir tanob yerni o'n qurushga ham qimmat deymiz. Azot va gugurt kislotasi qo'lidan nimalar kelmaydi!

— Xudo haqqi, sen ulug' odamsan. Biroq trubani pastlatish uchun biror bahona topish kerak.

— Topgan narsangni qara... Buni Hojiqqa topshir...

U qishloqilarning og'zidan kirib, burnidan chiqadi.

— Boplaydi deysanmi?..

— Bu ish uning uchun hech gap emas!

Hojiq qishloqilar orasida e'tiborli odam edi. Shuning uchun har kim uning gapiga kirar edi. Qat-qat burushgan ensasi, yog' bosgan yoqasi, oq tushgan salqi mo'ylovi, quyuq qayrilma qoshlari uni ajoyib bir maxluqqa o'xshatardi. Falsafadan, tasavvufdan bahs etardi. Ayniqsa, Bektoshi tariqatlarini va sehrlarini bir Bektoshi eshonidan yaxshi bilar edi.

U qishloq choyxonasida ulfatchilik qilib o'tirganlar orasiga kirdi, birisi unga tamaki xaltachasini uzatdi:

— Hojiq og'o, qani, bir cheking,— deb iltifot qildi.

Bugun u hiylakor bir qiyofada edi. Hayajon bilan, xuddi bir falokatdan xabar berayotganday so'zga kirishdi:

— Biz hammamiz Yaratganning qulimiz. Yo'llarimiz boshqacha bo'lsa-da, Quddusi sharif bilan Makka bizni ayira olmaydi. Oxirgi makonimiz Parvardigori olamning dargohidir.

— Shunday, shunday... Hojiq og'o...

Boshqa bir odam yonidagining qulog'iga:

— Muborak odam... Qaniki musulmon bo'lsa...— deb pichirladi.

Qishloqilardan ba'zilari:

— Bu Hojiq og'o ajoyib odam!— dedilar.

Keksa bir qishloqi Hojiq og'oning so'zlari ta'siridan ko'zlariga jiqqa yosh oldi. Yonidagi sherigiga sekin shivirladi:

— Bu odamni yashirincha dinga kirgan deydilar.

— Yolg'on bo'lsa, rostga aylansin!

Hojiq og'o samimiyat bilan so'z boshladi:

— Gap o'rtamizda qolsin... Ko'rayotirsizmi, huv... yotoqxona ustidagi sarv daraxtini... Endi bu tomonga bir qarang, uzundan uzun truba! Hozirga qadar zoti Sharifning sarvi daraxtidan ham yuksak narsa bormidi bu qishloqda!

Qishloqilarning hammasi birdan javob qaytardi:

— Yo'q!..

— Hozir bor... o'sha truba...

— Truba... oh, o'sha truba...

— Sizlarga achinaman... Xudo haqqi ikki kundan beri ko'zimga uyqu kelmaydi, qishloq ustiga biror falokat tushmasin deb qo'rqaman. Zoti Sharifning g'azabi insonni o'ylashga majbur etadi.

— To'g'ri... Gunohkormiz.. Faqat nima qila olamiz, u xaloyiqning so'ziga quloq solarmidi?

— Quloq soldirish kerak!

Yosh va qarilarning ingichka, yo'g'on ovozlari eshitildi:

— To'g'ri... to'g'ri!.. Lekin fransuz dardimizni tushunmaydi-da!

— Men uning yoniga boraman... Qishloq aholisi trubani yarmiga qadar pasaytirishni so'rayotir deyman. Mudir musulmonlarning e'tiqodlarini hurmat qiladi. U musulmonlarning do'sti. Turklarning Pier Loti nomli bir do'sti bor edi. O'rgilay sizlardan, hamma gazetalar uning suratini bosib chiqargan edi. Bizdagi mudir ham xuddi o'shaning jiyani. Yarim musulmon hisoblanadi. Amakisining uyida machiti bor edi.

Qishloqilar shundan so'ng unga umidvor ko'zlarini tikib, dedilar:

— Hojiq og'o, shu ishni uddalasangiz...

— Ish bitdi deya bering... Insonlar bir-birlari bilan do'st bo'lishlari kerak. Bir Xudoning bandasimiz... Dunyoda yaxshilik qoladi...

Truba yarmiga qadar pastlatildi. Qishloq yengil nafas oldi. Truba pastlatilgandan keyin qishloq bir falokatdan qutulganday sevindi. Mudir Hojiq og'oga bir qancha sovg'a berdi, qishloqilar ziyofatga chaqirdilar.

* * *

Endi truba bo'g'uvchi gaz chiqaradigan zambarak og'ziga aylandi. Yillarcha to'xtamasdan, dam olmasdan bombardimon qildi. Qaysi bombardimon bu qadar qonli bo'lgan, bu qadar uzoq davom etgan! Yigirma to'rt soatda bir marta ham o'chmaydigan o'choq, gugurt va azot kislotasi yomg'iri ostida atrofni bulg'adi. Aptekalarda, kimyoxonalarda shishachalarda saqlanadigan zaharlar bu yerdan bir daryo kabi oqdi, sel kabi har yerni bosdi. Shamol bu og'ir gazlarni yerlarga o't singari yog'dirdi. Marmar ustiga to'kilgan azot kislotasi uyi qanday parchalasa, titilgan paxtaga aylantirib yuborsa, tuproqlar ham xuddi shunday xarob bo'ldi, go'zal rangini yo'qotdi. O'lim sezgisi beradigan bir ahvolga tushdi. Maysalar bir ondayoq sarg'aydi. Keyingi yilda baquvvat daraxtlar qup-quruq bir skeletga aylandi. Bahor kirishi xuddi kuz kirganday bo'ldi va hech kim bahor kelganini sezmadi. Baland bo'yli ko'katlar so'lib, qurib qoldi. Nozli go'zal chechaklar dengizi quridi. Hammayoqni poyonsiz bir cho'l qopladi. Go'yo dunyoning vahshiy podalari oyoqlari bilan, tishlari bilan, tirnoqlari bilan, bu yerni toptadi. Bu yerdagi shamollar endi zahardan boshqa bir narsa emasdi.

Vodiyda faqat ajal urug'i ekilib, qashshoqlik o'riladigan bo'ldi. Quvnoq ovozli, semiz gavdali, ko'zlari chaqnab turgan, o'rgatilgan, aqlli hayvonlar sekin-sekin ahmoqlashdi. Ho'kizlar nimjon, nasli yo'qolib ketayotgan chayonga o'xshab qoldi. Otlar kishnashni, chopishni unutdilar. Boshi gangigan, g'aroyib bezovta bir maxluqqa aylandi. Ikki yildan so'ng, ovozi uzoqdan mudirning qulog'iga nishtarday botgan itning tuklari to'kildi, qorni terisiga yopishdi. Endi u vovullamas, zo'rg'a og'zini ochib, vovullashga o'xshash zaif bir ovoz chiqara olardi. Otlar arvoh singari sekin-sekin sudraluvchi suyaklar yig'indisi holiga tushdi. Ba'zilarining otxonadan chiqishga ham madori qolmadi, ba'zisi bir ondayoq tappa tushib o'ldi, ba'zisi o'rnidan turolmay qoldi.

Bahor tomirlarga va hamma jonlarga jo'shqin bir hayot nash'asi beradi. Holbuki bu bahorda na qo'zichoqlarning go'zal ma'rashi, na bir eshak, na sevimli bir toy ovozi eshitildi. Insonlar ham so'ldilar. Qoq suyaklarini burushiq bir teri kafan singari chulg'adi. Dudoqlar qurigan po'panakka o'xshaydi. Ko'kimtir bir doira, o'lik tusi nursiz ko'zlar atrofini qopladi. Endi qishloq aholisi hassaga tayanib, yo'tala-yo'tala, har ikki qadamda bir to'xtab, harsillab yuradigan bo'lib qoldi. Barchasining o'pkasini qo'rg'oshin changi qopladi. Ot ustiga qo'l tekkizmasdan sakrab minadigan chavandozlar ham endi o'rnidan qo'zg'alish uchun qo'ltiqtayoqqa va odamlarning yordamiga muhtoj bo'lib qoldi...

Kunlar shunday o'ta berdi. Har bir o'tgan kun go'yo qishloqilarning tomirlarini kesib, qonlarini tinimsiz oqizmoqda edi... Qishloqilar so'nggi yordam manbayi deb hisoblab, kon mudirining yoniga yugurdilar:

— To'ram, bizga qancha bersang ber, yerlarimizni sotmasak bo'lmaydi...

— Og'o, siz yaxshi odamsiz-ku, lekin nima qilaylikki, Xudo bir ofat berdi.

— Bir mahal yer olmoqchi ekaningizni eshitgan edik-da, shuning uchun keldik...

— Yerlaringiz nobop... Qancha so'raysiz?

— Ey jonim, qancha bo'lardi deysiz...

— Men bu yerlarni mulk bo'lsin degan maqsadda emas, sizga bir yordam bo'lsin deb olaman. Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom deydilar. Tanobini yarim liradan olaman.

— Nima ham qilaylik?.. Mayli, siz aytgancha bo'lsin...

Kon mudiri barcha qishloqilarning yerlarini sotib oldi. Qishloqilar xurjunlarini yelkaga ortib, chang yo'llarni bosib uzoqlashdilar. Lekin har qadam, har iz bir xotira qoldirar edi. Oyoqlari yurmadi, qishloqlarini qumsay-qumsay nochor ketdilar. Ba'zilari o'ldilar, ba'zi birlari ish topolmay sarsonlikda yurdilar, birisi dara burchagida, birisi daraxtlar tagida achinarli bir holda, yurtdan judolik hasratini chekib azoblandi. Bir qanchalari tog' sirtidan o'z qishloqlariga mo'ltirab qarab, kulimsiragandan keyin, tosh parchasi ustida jon berdilar. Sog' qolganlar qo'llaridagi ozgina pul bilan

nima qila olardilar? Izlariga qaytdilar, har yoqqa bosh urdilar, oxiri ma'dan zavodiga ishga kirdilar... Bu bir tasalli edi. Ham pul ishlaydilar, ham o'z qishloqlaridan ajralmaydilar. O'choq odamni eritib yuboradigan bir mashina kabi ishladi. Ma'dan o'choqlari yonida qabr toshlari qo'yilmagan, son-sanoqsiz benom odamlar go'ristoni cho'zilib ketdi.

Truba hamon yarim, chunki hali yana sakkiz-o'n odam o'z yerini sotmagan edi. Yiqqan boyliklarini birga to'plab, har narsani ilgarigidek saqlab kelardilar, ulardan biri falaj bo'lgan bir pahlavon, boshqalari o'spirinlar edi. Oxiri, bu mol egalarining ham omborlari bo'shaldi, quduqlaridagi suvlar quridi. Hayvonlari o'ldi. Shod-xurramlik va qah-qahalar bilan to'lib-toshgan uylardan endi pashshaning g'ing'illashiga o'xshash ingrashlar eshitilardi. Bu — kasal yotganlarning, falajlarning ingrashi edi... Nihoyat, ochlik ularning ham ishlarini bajardi. Ular ham yerlarini sotmoq istadilar. Lekin hech kim pul bermadi. Bir kun yetti nafar qishloqini kon yo'lida yonma-yon ag'darilib yotgan holda topdilar. Bir o'spirinning qo'ynidan shunday bir iltimosnoma chiqdi:

"Kumush-qo'rg'oshin zavodi mudiriyatiga. Afandim, qorin to'ydirish uchun, ma'dan o'chog'iga ishga qabul etishingizni iltimos qilib so'raymiz".

* * *

Uch qishloqda sotilmagan yer qolmadi. Yigirma-o'ttiz ming tanob yer atrofiga chegara tortildi. Yangi kanal ochildi, tuproq o'g'itlandi va zavodning trubasi yana baland ko'tarildi. Truba avvalgidan ham baland ko'tarilganidan, sarv daraxti uning yonida kichkina bir novdadek bo'lib qoldi.

Uch qishloqning Yamandan qaytib kelgan yosh askarlari o'z qishloqlarini joyidan topolmay hayron bo'ldilar. Ularning ro'parasidan chiqqan yer-mulk boshqaruvchisi:

— Qishlog'imizni qidiramiz deb, bu yerda o'g'rilik qilasizlar... Bu yerda qishloq-mishloq yo'q. Yo'qoling... kelgan joyingizga qayting. Hoy shaytonlar... yo'qoling bu yerdan: bo'lmasa jandarmga xabar beraman,— deb quvlab yubordi.

DEHQONNING O'LIMI

Shaharga boradigan dehqonlar yo'l yoqasidagi ungurdan boshi majaqlangan bir odamning jasadini topib olishdi va uning kimligini bila olmay, jandarmga xabar qilishdi. Jandarm ko'p o'yladi va surishtirib ko'rdi, ammo bu noma'lum odamning o'limiga nima sabab bo'lganini aniqlay olmadi. Bu ishni, yo'lto'sar ham o'g'rilardan ko'rish mumkin emasdi, chunki u juda kambag'al, ustboshi yupun bir odam edi.

Cho'ntagining biridan besh qurushlik, ikkinchisidan yigirma besh qurushlik pul chiqdi. Lekin noma'lum odamni bu yerga — jar yoqasiga kim, nima uchun olib keldi? Go'yo, keksayib qolgan bu odamning o'limiga hech qanday sabab yo'qdek ko'rinardi. Bu, albatta, xotin talashib o'lgan emas edi, albatta. Oshiq o'z raqibini hech qachon shu xil nayrang bilan nomardlarcha o'ldirmaydi. U dushmanining yuragiga dadil xanjar uradi. Shuningdek, kishi, dushmanim meni osonlik bilan jarga itarib yubora qolsin, deb qo'rqqanidan unga orqasini o'girib turishi ham ehtimoldan juda uzoq narsa. Ammo oshiq orqadan urilmaydi. Odam jonsiz kesak emaski, uni bir tepib chuqurga yumalatib yuborilsa.

Mana shu taxminlarning hammasi muhokama qilindi va nihoyat dehqon o'zini o'zi o'ldirgan degan xulosaga kelindi. Balki, shundaydir. Biroq yana taajjublanasan kishi: o'zini-o'zi o'ldirish qishloqda juda kamdan kam sodir bo'ladigan hodisa. Lekin har qanday bo'lganda ham, bu odamning o'limi haqida qandaydir bir izoh bo'lishi lozim. Dehqon o'zini o'zi o'ldirgan degan gapga ishonish juda qiyin. Ammo bu taxmin jandarm uchun ham, guvohlar uchun ham ancha qulay edi: bu bilan jandarm tergov olib borishdan, guvohlar esa so'roq berishdan qutular edilar.

Keling, men sizga bu dehqonning nima uchun o'lganligini hikoya qilib berayin. Qishloqda bori-yo'g'i birgina ho'kiz bor edi, dehqonlarning hammasi o'z yerlarini shu ho'kiz bilan haydar edilar. Buning sababini surishtirib o'tirmang. Urush vaqtida juda ko'p qoramol yig'ib olindi. Undan keyin molga o'lat keldi va, nihoyat, dehqonlar sudxo'rdan olgan qarzlarini to'lamaganlaridan keyin, sudxo'r qarz badaliga dehqonlarning qolgan mollarini tortib

oldi va hammasini bozorga haydab olib borib, sotib yubordi! Xullasi kalom, dehqonlarda yer haydash uchun hech qanday hayvon zoti qolmadi. Shundan keyin dehqonlar o'zlarining ho'kizsiz yashay olmasliklarini bilib, bir fikrga keldilar. Ular pul yig'ishib, urush vaqtida jarohatlangan va urushdan keyin ko'p vaqt sudralib yurib sog'ayib ketgan bir qari ho'kizni sotib oldilar. Ho'kizning tuyoqlari va shoxlarida hech bir sog' joyi yo'q, quloqlari tilim-tilim bo'lib ketgan, ammo dehqonlarga muqaddas edi. Urush vaqtida u qayerlarda bo'lgan bo'lsa, shu yerdagi har bir polk uning tuyoqlariga o'zining tamg'asini bosgan, shoxlarini o'ygan va quloqlarini kesib, belgi qo'ygan edi.

Uni xipchin bilan bir urganda, zo'rg'a tebranib qo'yardi-da, omochni tortib ketaverardi. Ishdan keyin esa, dehqonlar o'zlarining umumiy mulki bo'lgan va butun qishloq uchun muqaddas hisoblangan bu ho'kizni navbatma-navbat minib qaytishar edilar. Kunlardan bir kun, o'z yerini haydab olish uchun jasadi yo'l yoqasidagi jarlikdan topilgan dehqonga navbat keldi. O'sha kun u o'rnidan juda barvaqt turdi: uning oldida bugun o'z yerini haydab olish va shu yo'l bilan o'zining bir yillik taraddudini ko'rish vazifasi turardi. Buning uchun u oldindan tayyorgarlik ko'rib qo'ygan edi. Dehqon yupqa bilan suvda qaynatilgan biroz kartoshkani o'rab beliga boyladi, oyog'iga yirtiq chorig'ini ilib, ho'kiz turgan saroyga qarab yo'l oldi. Agar ishonsangiz, dehqonlar o'zlarining peshonasidagi bu birgina ho'kizni shu qadar silab-tarab boqar edilarki, u turadigan og'ilxona, hatto dehqonlarning o'zlari turadigan kulbalaridan ham toza edi.

Dehqon endigina yo'lga tushib ham ediki, oldidan birdan jandarm chiqib qoldi... U jandarmni ko'rib, taqqa to'xtadi va... turgan joyida toshdek qotib qoldi.

— Sen,— dedi jandarm unga, — yo'l solig'ini to'laganing yo'q. Shuning uchun yo'l qurilishida o'n kun ishlab berishing kerak.

— Xo'p bo'ladi, og'o, — dedi dehqon so'zga kirib, — ishlab beraman, faqat bugun emas, o'n, o'n besh kundan keyin. Men sizning oldingizga o'zim izlab boraman. Lekin bugun o'z yerimni haydab olishim kerak. Xudo haqqi, haydab olaman-u, sizning ol-

dingizga boraman, albatta ishlab beraman... Qancha yil askarlikda xizmat qilganman, og'o!..

Biroq jandarm uning gapini eshitib ham o'tirmadi.

— Qani, yur, oldimga tush!..

Dehqon unga hali u deb, hali bu deb yalina boshladi. Biroq yalinishi hech qanday foyda bermadi... Nihoyat, dehqon — oldinda, jandarm uning orqasidan yurib qishloqdan chiqib ketdilar.

Oradan o'n kun o'tgandan keyin, dehqon yana qishloqqa qaytdi. Qaytishga-ku qaytdi-ya, ammo... bu qanday qaytish bo'ldi deng endi? Cho'loq! Oyog'i kunda kabi og'ir, go'yo biqiniga temirdan qilingan keli sopi boylab olgandek bo'lib qaytdi. Cho'loq bo'lib qolgani ham mayliga-ya, ammo buning ustiga yerini haydab ola olmaganini aytmaysizmi!..

Dehqon endi o'zining bir yilgacha nima bilan tirikchilik qilishi va bola-chaqasini qanday qilib boqishi haqida o'ylay boshladi. U, bu fikrga shu qadar berilib ketgan ediki, hatto, cho'loq oyog'ini tuzatish uning xayoliga ham kelmas edi. Vaqt esa allaqachon o'tib ketgan bo'lib, ho'kiz ham boshqa dehqonning yerida qo'shilmoqda edi.

Kun orqasidan kun, hafta orqasidan hafta o'tib borar edi... Dehqonning oyog'i tuzalmagani-tuzalmagan, buning ustiga u hech qanday ish ham topa olmadi. Uning uchun endi gadoylik qilishdan bo'lak iloj qolmagan edi. Nihoyat, u o'ziga shu hunarni kasb etdi.

Oradan bir necha oy o'tgandan keyin, cho'loq haqiqiy gadoga aylandi. Endi u ilgarigi yer haydab yurgan vaqtdagidan ko'ra ancha durust hayot kechira boshladi. Uning uchun tekin yeb, tekin ichish qulayroq kelib qoldi. To'g'ri, u bir umrga cho'loq bo'lib qoldi, lekin shunday bo'lishiga qaramay, uning ishi yurishib ketdi. Shu ahvol bilan oradan ko'p vaqtlar o'tdi.

* * *

Bir kuni dehqonlar "Temir yo'l o'tarmish!.." degan sevinchli xabar eshitib qoldilar.

— Ishonma bunga! Pomeshchik o'zining ortiqcha yerini sotmoqchi bo'lsa hamma vaqt shunday mish-mishlarni tarqatadi.

Pomeshchikning gapiga qaraganda temir yo'l o'tarmish va do'num yerining narxi osharmish... E, qo'ysang-chi, uning otasi ham shunday qilib boyib olgan edi.

— Yo'q. Endi haqiqatan ham yo'l o'tadi.

— Men bunga hech qachon ishonmayman!..

— Xudo haqqi, men muhandislarni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Ular tezda bu yerga yetib kelishlari kerak...

Dehqonlar shunday deb gaplashib turganlarida, birdan ustlariga kalta charm to'n va boshlariga charm qalpoq kiygan muhandislar planlarini ko'tarib kelib qoldilar. Buni ko'rgan dehqonlar sevinchdan dong qotib qolgan edilar... Bizning qahramonimiz ham shu kez sevinganlar orasida edi.

Yo'l qurilishida ishlashni xohlagan dehqonlar to'da-to'da bo'lib ro'yxatga yozilar edilar. Muhandis esa yo'llarni o'lchashga kirishdilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay, dehqonlar bu yangilik oldida taslim bo'lgan edilar.

Qishloq choyxonasida yangi xabar tarqaldi. Oqsoqol xalqqa qarab:

— Temir yo'l xuddi Sari Alaiddin avliyoning qabri ustidan o'tishi kerak ekan. Shuning uchun u kishining qabrini bizning qishlog'imizga ko'chirib olib kelishmoqchi,— dedi.

— E-he-e! — dedi bir dehqon bizning cho'loq dehqonimizning yuzlariga tikilib,— endi sening ham oyog'ing tuzaladi. U avliyo hamma cho'loqlarning oyog'ini tuzatadi.

Odamlar uning qabrini ziyorat qilib ketish uchun hatto yevropadan ham keladilar... va o'z yurtlariga butunlay sog' bo'lib qaytadilar...

Unga shu yerdagi qari chollar:

— Ha, xursand bo'laver, oyog'ing ham tuzalib ketadigan bo'ldi endi! — deyishdi. Faqat bizning cho'log'imiz besaranjom bo'lib, ulardan savol so'ray boshladi:

— Avliyoning qabrini qachon ko'chirib keladilar?

— Tag'in ikki soatdan keyin u shu yerda bo'ladi.

Bu xabar cho'loqni juda qattiq ranjitdi... U endi pul topishdan mahrum bo'lish xavfi ostida qoldi. Axir, oyog'i tuzalib ketsa, kim unga bir pul beradi deysiz?.. Agar u yo'l qurilishiga ishga

kirsa, ishlashga to‘g‘ri keladi, gadolik qilsa-chi, to‘ralardek yashaydi.

— Dam o‘tmay avliyo shu yerda bo‘ladigan bo‘lsa... Nogiron oyog‘im, albatta, tuzalib ketadi... Eng yaxshisi, endi men avliyoning oyog‘i yetmaydigan tomonga qarab boshimni olib qochishim kerak. O‘sha yoqqa borib, yana boyagi-boyagi gadoychiligimni qilaveraman...

Cho‘loq darhol shunday qarorga keldi va hassasini qo‘liga olib, cho‘loq oyog‘imni tekinga bermayin deb, yo‘lga tushdi. U daqiqa sayin oyog‘iga qarab qo‘yardi: go‘yo birdan uning cho‘loq oyog‘i tuzalib qolayotgandek edi. Har safar oyog‘iga qarab qo‘ygach, ikki qo‘lini osmonga ko‘tarib, tilak tilardi:

— O‘-o‘, Xudo, men qishloqdan chiqib ketmaguncha avliyongni bu yoqqa yubormay tur!

U yo‘lda bir-ikki yo‘lovchiga duch kelib:

— Avliyoni olib kelayotganlari yo‘qmi? — deb so‘rar va tezroq uning ajoyib mo‘jizalarni yaratuvchi kuchi haqida turli rivoyatlar tarqalgan qishloq chegarasidan tashqariga chiqib olish uchun shoshilar edi...

U uch soatga yaqin yo‘l yurdi. So‘ngra o‘tirgisi va biroz dam olgisi keldi. Biroq uning miyasiga: “Bordi-yu, agar qarshimdan birdan avliyo chiqib qolsa nima qilaman!..” — degan fikr keldi. Shu dam birdan uning qulog‘iga qo‘rqinchli shovqin eshitildi... Dehqon shaldiragan temir tovushlarini eshita boshladi... So‘ng quloqni teshadigan darajada hushtak chalindi va qandaydir: “Pish, pish... pish-pish...” deb pishqirgan g‘alati ovoz eshitildi:

— Evoh, sho‘rim qursin! — dedi hayqirib dehqon. — Xuddi o‘sha, avliyo!.. Nafas olishini qara... Axir, undan boshqa kim shunday qilib nafas ola oladi?.. Xudoyo, meni o‘z panohingda saqla! Mening cho‘loq oyog‘imni unga ko‘rsatma... Meni cho‘loq qilgan ham sen o‘zing eding, shafqatli Parvardigori olam, shu tufayli men bir burda nonga ega bo‘lgan edim. Endi meni cho‘loq oyog‘imdan judo qilma?..

Shovqin hamon yaqinlashib kelmoqda edi... Atrofni chang-to‘zon bosdi. Buni ko‘rgan dehqonning quti uchdi, vujudini qattiq qo‘rquv bosdi. U ichida: “Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissa-

lomning muborak peshonalari bulut bilan qoplangan bo'ladi, deb aytishadi. Aftidan, bu avliyoning peshonalarini ham xuddi shunday bulut qoplab olganga o'xshaydi..." degan vahimali o'ylarni o'ylay boshladi.

Dehqonning o'tini yorgan bu bahaybat narsa, tor izli temir yo'l ustidan yuradigan oddiy bir parovoz edi, xolos. Ammo siz bu parovozga dehqonning ko'zi bilan qarang!.. Uning boshida qop-qora bulut, orqasida allaqanday ulkan gavdasi bor. Muborak boshlarini tuman qoplagan bu avliyo muqaddas makonga tomon o'zlari ko'chib kelmoqda...

Dehqon o'zining cho'loq oyog'ini yashirish maqsadida darhol teskari o'girildi va yon tomoni bilan turib oldi. U shu zaylda bir daqiqacha turdi-da, so'ng to'g'ri kelgan tomonga qarab qocha boshladi. Qochib borayotib cho'loq oyog'i bilan bir butaga qoqildi va jar tepasidan uchib ketib miyasi bilan ungurga tushdi.

SAID FOIQ ABASIYONIQ

XARITADAGI BIR NUQTA

Bolaligimdan beri qay mahal xaritaga ko'z tashlamay birdan orollarni izlay boshlayman; shahar, viloyat, turfa joy nomlaridan keyin moviy sohilga ko'zim tushadi... Har holda "Robinzon Kruzo"ni o'qiganman, hatto unutib ham qo'yganman. O'sha asar ta'sirida xaritadagi moviy kengliklarni ko'rib kimsasiz orol nomini o'qiganimda xayolga sho'ng'ib ketganimni o'zim ham bilmay qolaman. Romanlarni o'qiyverib orollarni yaxshi ko'rib qolganman deb aytolmayman, lekin kim biladi, balki shu sababdandir. Ko'zim xaritadagi orollarga tushdi deguncha ko'nglimdagi beg'ubor tuyg'ular, mehr-u muhabbatga yo'g'rilgan hislar junbishga keladi. Hali hamon ko'zlarimga tikilayotgan kuchuk, shuningdek, kamgap, og'ir, vazmin, tirishqoq, egniga shol tashlab olgan baliqchi, chirigan linoleum hidi va taxtalari qoraygan, bo'yog'i o'chgan, og'ir va qo'pol sandiq, sandiq ustidagi qush, to'r, baliq, pul, sohilda o'ynayotgan biram g'aroyib bolalar, oriyatli odamlarning kulbalari, qaldirg'ochlar, dulgar balig'idan qaynatilgan sho'rva, ko'katlar hidi, bug' purkayotgan qora qozon va ufqlari kaftdekkina ko'ringan tumanli dengiz xayolimda jonlanib ketadi.

Tabiat ko'pincha bizga do'st bo'ladi. Hatto u dushmanga o'xshab ko'ringan paytida ham odam bolasiga o'z kuch-qudratini, tajriba-yu imkoniyatlarini beradiki, bu jihati bilan u ko'zga ko'rinmaydigan ota qiyofasiga kiradi; uning bo'ronida qayiqni suvga tashlagan zahoti suzishini, uning shamolidan kulbalarning tomi uchib ketganida bizga yanada pishiqroq bo'lishni, hunar o'rganish lozimligini uqtiradi; yirtqich hayvonlarga to'qnash kelgan vaqtimizda mushaklarimiz kuchini sinaydi. Men u yerda, to'rt tomoni suv bilan o'ralgan joyda, odamlarning bir-biriga bo'lgan buyuk va haqiqiy do'stligi, jismonan baquvvat odamlar, kecha-kunduzini halol kechirib, bir-biriga xolis yordamlashishni buyurgan shamollar, dovullar, dengiz yirtqichlari borligini tasav-

vur qilardim; qoyalarda har kun, har hafta mavj urib toshayotgan dengiz to'lqinlari faqat tabiat qonuniyatlari asosida yashashini, kuchli va jismonan baquvvat insonlar zaif insonlarga yordam berish uchun, zukko aql egalari zehni o'tmas, sust, og'ir va sekin qabul qiluvchi insonlarga, hatto do'stlaridan qimmatli maslahatlarini ayamasligini bilardim; yemishga zor odamlarga issiq ovqat berib, ular bilan baham ko'rganida ovqat hidi mushk-anbar kabi hid taratishini bildirib, balki bildirmasdan shunday mukarram, shunday mo'tabar onadan tug'ilganini xayoliga keltirgani haqidagi o'ylar bilan xaritadagi moviy kenglik o'rtasida, ulkan qit'alar qirg'og'idagi katta dengizlarning bir tomoniga yopishtirilgan orollarga qarab xayolimda turli tasavvurlar paydo bo'lardi.

Yotoqxonamga ham shunday xaritalardan birini osib qo'ygandim; kechalari uyqudan oldin o'qiyotgan kitobimga ishonch hosil qilolmasam, zerikib qolaman va kitobdan chalg'igan paytlarimda ko'zim xaritaga tushsin degan maqsadda osib qo'yganman, albatta. Xaritani ko'rdim deguncha undagi nuqtalar orollarga aylanib qolar, orollarni ko'rganimda esa to'satdan bo'ronlar-u shamollarning guvillayotganini, itbaliqlarni, keyin birdaniga orolning oriyatli kishilarini esga olardim. Xaritada turli-tuman ola-chipor shakldagi orollarga qarab yoshi ancha joyga borib qolgan keksa cholkampir xayoli yoki hislari kabi xayolga sho'ng'ib nuqtalarning shakl-shamoyilsiz narsalarni kashf qilgani diqqatimni tortardi.

Bir kuni yarim kechasi to'satdan motorli qayiq moyga bulg'angan holda bandargohga yaqinlashdi, chiroqlari qon rangida yonayotgan xaritada nuqta bo'lib ko'ringan orolga chiqib ketdim. Yaltillab ko'ringan soqoli uch kundan beri ustara ko'rmagan, oppoq, o'rta yoshli, po'stinli paltoga burkanib olgan, yoqalari ko'tarilgan bir odam jilmaygancha darrov menga yaqinlashdi.

— Keldingmi, ukam? — dedi.

— Keldim, og'a, — deyman.

— Endi ketmaysan-a?

— Ey, — deyman, — bir marotabami?.. Bir marotabami?..

— Orolimizdan yaxshi orol yo'q.

— Yo'q ekan, aka, — deyman.

— Otam sizlarga umr...

Ko'zimiz oldi loyqalanib taxtadan pana qilingan ko'zga tashlanmas bog'li uyga kiramiz. Osma chaylaning ostidan o'tamiz.

— Men yuz-qo'limni yuvib olay, huv ana... — deydi, — uyga kirmasdan o'ng tomonda chashma bor, — eslatib yuboradi, unga qarab yuraman.

Hayajondan, xafaligimdan va uyatdan titragancha suvni yuzimga urib-urib yuvardim. Ikkita-uchtacha kishi bo'ynimga osilishadi. Qo'shnilar ovozi keladi. Hurkib ketgan tovuqlar qaqaqlar, onam yig'lar, akam non kesar, singlim stakanlarni to'ldirar, men esa devordagi to'rlarni tomosha qilaman.

— Aka, bugun havo janub shamolimidi? — deyman.

— Shamol turganida janub shamoli boshlandi. Peshinga kelib G'arbga tomon burildi. Hozir G'arbda qora sovuq esyapti, ammo havo o'zgaradi, qora sovuqqa aylanadi.

— Aka, qora sovuqning oxiri qorga aylanadimi?

— Sen kelgan joylarga qor yog'adi, ammo bizga ko'p yog'maydi... Sen o'zing tuzukmisan? Ko'rinishing yaxshi, ofarin!

— Xudoga shukr, aka!.. Qishloq qanday?

— Sen bilgan o'sha qishloq, ukam! Har doimgidek... Bolalar qarta o'yiniga qattiq berilib ketdi; boshqa kamchiliklar yo'q.

— Ular qartani pulga o'ynashadimi?

— Yo'g'-e, ukajon! Pul qayoqda ekan pulga o'ynasalar. Tutgan balig'iga, qayiqchasiga, qarmoq ipiga yoki qarmoq ignachalariga o'ynashadi. Qani pulga o'ynab ko'rsinlar-chi...

Ana fransuzlarning "l'enfant prodigue" degan bitta yigiti bor. O'sha bola men edim; yotoqxonamga isrofgarlikdan, telbalig-u darbadarlikdan qaytgandek bo'laman. Chiroqni o'chirishim bilan hali uyquga ketmay turib zarrin nurlarini sochayotgan erta tong quyoshi, qayiqlar, baliqchilar qishlog'idagi barcha odamlar ko'z oldimdan o'ta boshlaydi. Darz ketgan uchiga gullar va baliq surati solingan qo'shaloq qayiqlar bir lahzada uzoqlashadi.

Bugun dengiz tikilayotgan ona timsoliga o'xshaydi. U shuncha noz-u karashmalar bilan jilvalanib, shu qadar nurli, sokin, rezina etik misoli yaltillab ko'rinardi. Uning ertasi bor. Dengiz to'lqini siniq shisha parchalari yanglig' keskir va sovuq bo'lgan paytlarida esadi, suv jonivor boshidan kirib chiqadi.

Mana, bolaligim va yoshligimda ko'rgan xaritalardagi orollar, so'ngida bir kuni sog'inganimdek tasodifan bitta orolga tashlab ketishdi. Yoshim o'rta yoshlarga yetgandi, ammo nihoyat asl uyimga qaytgandim. O'n to'rt yoshlardagi sariqchadan kelgan bolakay go'yo birpasda ulg'ayib qolgandi. Motorli qayiq meni katta shaharlar tomon olib ketgandi. U yerda hayot kechira boshladim. Cho'ntaklarim pul ko'rdi, ayollar bilan maishatda bo'ldim. Turli hislar qurboniga aylandim. Qimor-u o'g'rilikni, qamoqxona-yu fohishaxonalarni ham ko'rdim. Cho'ntakkesar o'g'rilar bilan do'st tutindim. Shilqimlik qildilar, men ham shilqimlik qildim. Ochlikda kun kechirdim. Pul o'g'irlab or-nomusimni ham yo'qotdim. Sevib sevilmadim. Mana, hozir holdan toyib, hamma narsamdan ayrildim; meni o'sha joylarga olib borgan motorli qayiq bilan yana ortga qaytgandim.

Endilikda or-nomusli odamlar orasida boshimni quyi solib, jiddiy, maishatdan yiroqda, sabr-toqat bilan, yomonlikni ko'z ishorasidan ilg'ab olib jasoratdan so'yilajak hayvon qiyofasida unsiz, sokin, og'ziga urib, luqmasini ol qabilida baliq oviga chiqib, yaxshiliklardan sog'inch hissini tuyib, umrimning so'nggi kunlarini shu yerda, oxirgi sovuq nafasimni baxtiyor holatda yakunlamoqchi edim.

Kuz uzoq va ajoyib o'tdi. Chayladagi yaproqlar qizillikning eng so'nggi manziligicha asta-sekin qizarib, qizillikning rang o'yinlari jarayonida xazonga aylanmasidan oldin ancha vaqtgacha chayqalib turdi.

Asta-sekinlik bilan odamlar orasiga kirishga harakat qilardim. Otamdan meros qolgan uyimiz onam tufayli yashnab turardi. Men esa oldinlari u yerda boshini qumga tiqqan tuyaqushga o'xshardim. Endi butun tun-u kunim shu yerda o'tardi. Tevarak-atrofdagi odamlarning barchasi menga qaraganda juda yaxshi, judayam or-nomusli, boya aytganimdek, uyiga qaytgan isrofgar bola qiyofasida atrofga razm solardim. Mening niyatim hatto asar yozish emas. Baliq ovlashga bormoqchiman. O'n qurushga qahva olib, yigirma qurushlik qishloq tamakisidan tutatmoqchi edim. Barcha yo'qotgan narsalarimni: insoniylik, jasorat, sihat-salomatlik, yaxshilik, soflik, pokdillik, do'stlik, halol mehnat, sokinlik — ham-

ma-hammasini qaytadan topmoqchi bo'ldim; balki qaytadan odam bo'lolmasam, hatto pokiza hayot qo'ynida ko'nglim talpinayotgan ma'yus, sharmandali o'limni kutmoqchi edim. Xayolimga ora-sira asar yozish orzusi, orzusi emas, yomon xulqi, bu yagona yomon xulqni muvaffaqiyatlar va shon-shuhratlarga yo'ymasdan, "o'ylasam Alloh jonimni olsin!" fikri bilan qaytadan o'zimni topa olsam, qog'oz-qalamsiz tog'lar qa'riga otilib, baliq ovlashga chiqmoqchi edim. Hech narsa yozmoqchi emasman, bilaman, insonlar meni unchalik xushlamaydi. Meni yoqtiradigan birorta odam ham yo'q. Baliq ovlashga boradigan bo'lsam: "Katta mol-mulki bo'la turib unga baliq tutishni kim qo'yibdi? Jinnimi bu? Ulushini ham olmaydi?" — deyishardi. "Ota mulkini xasga chiqargan tentak, ter to'kib mehnat qilmaydi, yaxshiyamki, onasi bor, bo'lmasa, uyini ham allaqachonlar sotib havoga sovurardi, hozir esa boshpanasiz daydib yurgan bo'lardi", — deyishardi. U odamlar hech qachon qaytadan tomchilab, daqiqalarni his qilib, ich-etimni yeb ezilayotganimni; shamollar, dengiz va to'rni sevganimcha o'limni kutayotganimni bilishmasdi.

Nima ziyoni bor edi. Xayolimda men ularni orol odamlarining hayoti bilan o'lchayman, eng katta nuqsonlarini besabrlikdan topib tortingan holatda yaxshi ko'raman; sigaret, orol choyi, qog'oz o'yinlari bilan shamolli kunni o'tkazib yotog'imga qaytib begunoh xotiralarni quvgancha; yaxshi odamlar, qahramonlar, oriyatli odamlar, birovning haqqini yemasdan, peshona teri bilan qattiq tabiatdan g'avg'o-yu do'stlik bilan non topib, bir-birlariga fidokorlik qilib yashagan odamlarni kuzatganimni his etib shirin, qattiq va tushsiz uyquga ketmoqchi edim. Erta saharlab yana shamollar, yomg'irlar hamrohligida uyg'onmoqchi edim. Oynalarini bug' qoplagan qahvaxonada qo'llari mehnatdan qadoq bo'lgan, chehralari oftob va shamoldan chizilgan insonlar orasida bugungi kunimni ham gunohlarsiz, yana ham to'g'rirog'i, yomonliklarga qo'l urmasdan o'tkazmoqchi edim.

Ular orasiga tomoshabin sifatida jimgina kirib olib ko'ngildagidek baxtiyor yashadim. Hatto shaharga ham tushmasdim. Hamma narsa men o'ylagandek edi. Faqat ulush masalasida xunuk hodisalar bo'lganini eshitardim, lekin uni ham eshitmaslikka olardim.

Erta tong. Qayiq xayolimdagidek baliq ovlashdan qaytgandi. Savatlar paroxodga berilgandi. Hozir uning to'rlari dengizga tegib-tegib borardi.

Baliqxonada hali umrim bino bo'lib uchratmagan, hatto bebaho o'n-o'n beshtacha dulgar balig'i qayiq tirgaklarida hali ham tirik, nozik, zarga o'xshash qanotlari bilan titrab yotardi. Ular birozdan keyin ishlarini tugatib, o'rta barmoqlariga bitta-yarimta dulgar balig'ini taqib olib ketishmoqchi edilar. O'ylaganimdek, ko'p uylarda dulgar balig'idan sho'rva qaynatishadi.

Qayiq tozalaganlar sakkiz kishidan iborat edi. Ulardan yettitasi bizning oroldan. Sakkizinchi kishi esa ozg'in, sariq, kasalmand edi, uni shu paytgacha hech ko'rmagan ekanman. Shunday samimiy, mehr bilan ishlardi.

Baliq ko'p ilina boshlagani eshitilgan zahoti tashqaridagi odamlar ham yordamga kelishardi. Tashqaridan kelib to'rni tortishga yordam bergan odamlarga ulush berilmasdi. To'r dengizchisi va raisga ko'ngli tusaganicha baliq berilardi.

O'sha odam ham bitta-yarimta dulgar balig'i olish niyatida baliq haqini ado etish uchun qo'lidan kelgancha harakat qilardi.

Va nihoyat, hamma ish nihoyasiga yetdi. Rais ikkita dulgar balig'ini orqa tomoniga otdi. Dengizchilardan biriga:

— Buni bizga olib bor, — dedi, — boshqa baliqlarni ulush sifatida tarqat.

Uchtacha kishi baliq oldi. Tashqaridan kelgan kishi bitta dona menga ham bersinlar degan niyatda kutib turdi. Uning chehrasida yoqimli tabassum va mehnatdan tug'ilgan xafif qizillik sezilardi. Bu qizillik uni ulush tarqatayotgan odamning qo'lida bittagina baliq qolguniga qadar tark etmadi. Keyin bu qizillik birdan g'oyib bo'ldi. Yuzidagi tabassum oldiniga tahlikali holda qotib qoldi. Bu odam umr bo'yi shunday soxta tabassum bilan yashaydi deb o'ylagandim. Yuzidagi kulgu to'satdan xuddi chirigan meva tusiga kirdi. Ko'zlari hayratdan kattalashdi. Qayiqdagi odam oxirgi baliqni suv yo'li bekatiga otdi. Uning yuz ifodasi nima bo'lganda ham yana oldingidek toza, mamnun, yangi uzilgan meva holatini egalladi. Ikki qadam tashladi. Qo'lini baliqqa cho'zish uchun egildi. Ammo nariroqda bosh barmog'iga yirik

dulgar balig'i taqib kattakon etik kiygan dengizchi oyog'ini baliq ustiga bosdi.

— Nima bu, — dedi, — hamshahrim? To'xta qani. Tog'dan kelib bog'dagini quvmaylik.

U kishi qo'lini oldi. Hech narsa demadi. Gapira olmasdi. Gapiradigan holatda emasdi. Suv yo'li bekatining qahvaxonasi tomonga qarab ketdi. Tashqaridan qahvaxona oldida kuzatayotgan odamlardan biri ovoz berdi:

— Qo'ysangchi-yey! U odam ham mehnat qildi. Bitta baliq bersang nima bo'pti? Qayerlardan kelgandir.

— Biz nima qilaylik, kelmasinlar edi. Biz ularni chaqirib keldikmi? Bu baliqning bitta-yarimtasi ham ahamiyatli. Baliq ilinmagan paytda yaqinlashishmaydi, ayniqsa, to'r tozalashga navbat kelganida. Talon-toroj etish yo'q, hamshahrim!

Qayiqda o'tirgan odamlar o'rnidan turib: "Bu ayb emasmi, unga baliq berib yubor", — demadi.

Bitta-ikkita odam o'ylaganimdek gapirgandek bo'lishdi. Kutardim. Hozir taxmin qilgan odamlarimdan biri ulush qilib berilayotgan baliqlardan bittasini, eng kichigini unga qarab otishini kutardim. Rais qahvaxona oldida qahvasini zavqlanib ichar, qayiqning asl dengizchisiga kayf bilan qarardi.

Bitta kishi voqeaga aralashdi:

— Bu ayb-ku, — dedi, — ayb!

Bu gal ichidagi gaplarini, hatto ulush sifatida berilgan baliqlardan eng kichigini otib yuborar deb taxmin qilgan odamlardan biri:

— Sen aralashma, ko'raylik-chi, akaginam! Ko'p gapira boshlading. Ayb nima degani? Ayb ko'rpa ostida, — dedi.

— Bu dengiz otangizning mulki hisoblanadimi?

— Bo'lmasa, uning otasining mulkimi?

— Yo'q, lekin u kelgan qayig'ingizda ishlagandi.

— Kim uni kel deb chaqiribdi, kelmasin edi.

Baliq ololmagan kishi qahvaxona skameykasiga kelib o'tirdi. Qahvachi yuziga tikildi. Qahvachiga:

— Turamiz, hozir turamiz, — dedi.

Oyoqqa qalqdi. U uchun behudaga gap eshitgan kishiga:

— Hechqisi yo‘q, hamshahrim, — dedi, — hechqisi yo‘q. Bermasinlar, ular xohlashmayapti.

U ko‘zi tushgan paroxod tomonga qarab yurdi. Kichik qadamlar bilan Sharlo kabi sakrab uzoqlashdi.

O‘z-o‘zimga so‘z berdim. Hatto asar yozmoqchi emasman. Asar yozish ham hirsdan boshqa nima ham edi? Bu yerda, or-nomusli odamlar orasida sokin o‘limni kutmoqchi edim; hirs, g‘azab menga nimaga kerak? Qo‘limdan kelmadi. Tamakiga yugurdim, qo‘limga qog‘oz-qalam oldim. O‘tirdim. Orolning tanho yo‘llarida kezayotib zerikkan paytimda kichik chiviqlarni yo‘nish uchun cho‘ntagimda olib yurgan pakkimni qo‘limga olib qalamni yo‘na boshladim. Yo‘nganimdan keyin qalamni olib o‘pdim. Endi yozmasam jinni bo‘laman.

SAMAD OG'AO'G'LI

O'TTIZ YILDAN SO'NG

Mayda satrlar bilan yozilgan xatni konvert ichidan olar ekan, eski qadrdoni ko'z o'ngida gavdalandi. Ushbu maktub undan kelgandi. Ko'z oldida o'ttiz yil oldingi, oxirgi manzara namoyon bo'la boshladi.

Ular mebeli eskirib qolgan, pardalari yirtilib, oynalarini chang bosgan kichik xonada bir-biriga qarama-qarshi holatda o'tirishardi. O'rtadagi stolda jomadon yo'lga tap-tayyor bo'lib turardi. Stol tagida esa tuklari qalin, yaltiroq, momiqqina mushuk xurillab yotardi. Iliq kuz quyoshi titroq nurlarini devorga sochardi.

Ayol o'tirgan kreslo suyanchig'iga barmoqlarini urib asabiy ohangda: "Yo'q, yo'q, — derdi, — bu haqda boshqa o'ylamayman. Men ketyapman. Bu hayot emas, aksincha, sudralib yurmoq degani. Menga uylanganingda bergan va'dalaring shumidi?"

"Faqat siz bilan turmush qurayotganimda muhabbatdan boshqa narsa va'da qilganim yo'q".

U vazminlik bilan javob berishga harakat qildi.

"Ha, men senga hech narsa va'da qilganim yo'q. Albatta, hozir ham seni sevaman. Shunday ekan, men o'z va'damda turibman. Modomiki sen ketishni xohlayotgan ekansan, bu yog'ini o'zing bilasan!"

Ayol o'rnidan turdi va jomadonni dast ko'tarib eshik tomonga yura boshladi. Shu payt u erining o'z ortidan yugurib "ketma" deyishini istardi. Biroq er o'rnidan turaman deguncha ayol ko'cha eshigidan tashqariga chiqib bo'lgandi, ortidan eshik qattiq yopilib, biror sas chiqmadi. O'sha kuni besh yillik hayotining eng oxirgi kuni edi, uning qalbida na quvonch, na iztirob bor edi, hatto u hech narsa haqida o'ylamasdan karaxt holatda soatlab kresloda miq etmasdan o'tirdi.

Mana, o'sha kundan beri oradan o'ttiz yil ham o'tibdi. O'sha voqeadan keyin uni bir marotaba ham uchratmadi. Boshida u haqi-

da ba'zi bir xabarlarni olib turdi. Keyinchalik hamma narsa moziy qa'riga sho'ng'idi-qoldi. U hozir oltmish besh yoshda. Uning hayotida boshqa biron jonzot yo'q bo'lganidek, uning boshqa biron kimsaga kerakligi ham qorong'i edi. Yolg'iz o'zigina xotiralariga ko'milib so'nggi azoblari bilan yashardi.

Bir qancha satrlardan iborat maktubni o'qidi. Ayol ko'rishish uchun uchrashuv belgilab, uchrashuv joyi sifatida shaharning eng yaxshi qandolat do'konini ko'rsatgandi.

Na xat, na bu da'vat uning qalbida hayajon uyg'otdi. U maktubda belgilangan kuni kundalik kiyimlarini kiyib odatiy ko'rinishda qandolat do'koniga yo'l oldi. Burchakdagi kichkina stollardan biriga o'tirib uni kuta boshladi. Qandolat do'koni chiroyli ayol-u erkaklar bilan to'la edi. Ular har xil tilda gaplashar, do'kon xizmatchilari esa shosha-pisha xizmat ko'rsatishar, ora-sira xursandchilikdan otilgan qahqahalar quloqqa chalinardi.

U umri davomida bunday lyuks joylarda kam bo'lganini xayolidan o'tkazdi. Holbuki, uning ichki olamida ular kabi hayotdan zavq olayotgan insonlardan biriga aylanish orzu-istagi yo'q emasdi. Shunday ekan, nima uchun u ham ularga o'xshab bu olamda emin-erkin nafas ololmaydi, ulardan nimasi kam? Yoki u shu holatda yashashga majburmi? Faqirlik vajidanmikan bu? Sen ham odamsan; mana eplolmading. Hozir azobingni tortyapmanmi? Uning qalbidagi qanchadan qancha orzulari, qanday ehtiroslari yonib-so'nib bitgandi. Hozir esa o'shaning cho'g'idan asar ham qolmagandi.

To'satdan yon tarafdan ayolning titroq ovozi eshitildi:

— Kuttirib qo'ymadimmi?

U boshini ko'tardi, ro'parasida turgan ayolga ko'zi tushdi. U o'sha edi. Ha, ha, o'sha... Faqat, Xudoyim-ey, inson ham shunchalar o'zgaradimi? Yumaloq chehra sohibasining yuziga ajinlar tushib, sochlariga oq oralagandi, o'ttiz yil oldin uni tashlab ketgan kelishgan, go'zal ayol bilan uning o'rtasida qanday yaqinlik bo'lishi mumkin? Uning faqatgina ko'zlari o'sha-o'sha edi: samimiy, nurga to'la, och jigarrang ko'zlar!

O'rnidan turishni o'ziga ep ko'rdi, duduqlanib:

— Kechiring, xayolga berilib ketibman, — dedi, xolos.

Ayol jilmayib:

— Bezovta bo'lmang, bezovta bo'lmang, — deb o'tirdi. Ular bir lahzagina bir-birlariga termildilar. Birinchi bo'lib ayol gap boshladi:

— Ancha keksayib qolibsiz. Yillar ko'z ochib yumguncha o'tib ketmoqda. Faqat ortda qolgan izlargina kishini larzaga solmasdan qo'ymaydi.

— To'g'ri, ancha keksayib qoldim. Agar bilsangiz, hayotning ming bitta jilvasi-yu hodisotlari ruhimizning ham, jismimizning ham bevaqt keksayishiga sababchi bo'ladi. Siz ham anchagina keksayib qolibsiz. O'rtamizdagi farq shundaki, siz xursandsiz.

— Xursandmanmi? Balki. Zero, quvonch, saodat kabi tuyg'ular qanchalik nisbiy ekanligini hozir anglagandek bo'lyapman. Holbuki, ushbu daqiqada sizni ko'rganimdan behad xursandman. Faqat, do'stim, yana oldingiday ters, qattiq, jizzaki xarakterim bor, xursandchilik meni tezda tark etadi.

U bu so'zlarga javob berishni xohlamadi. Bu so'zlar ortida qanday ma'no yashirin ekanligini qalban tushunib turardi. Sobiq xotini suhbatni birga yashagan damlari, vidolashgan lahzalari asosida davom ettirmoqchi edi. Holbuki, u bu mavzuga to'xtalishni xohlamas, uning go'yo ikki do'st o'rtasida kechgan oddiy muloqot tarzida qolishini istardi.

Ammo ayol gapida qat'iy turib oldi:

— Savolimga javob bermayapsiz. Siz hali ham o'sha-o'shasiz. Ruhan hech o'zgarmaganingiz ko'rinib turibdi. Yoqtirmagan savolni javobsiz qoldirish!.. Bu so'zlarni gapirayotib sizdan qo'rqib ketyapman, xuddi ilgarigidek o'rningizdan turib ketmoqchideksiz?

U ayolning gaplarini biroz andisha bilan g'azabli va so'lg'in kayfiyatda tingladi. Tavba, o'ttiz yildan keyin uni uchrashuvga taklif etgan sobiq xotini ushbu lyuks qandolat zalida, shahardagi kazo-kazolarning ko'zi oldida o'limidan oldin bir marotaba haqorat qilishni istayaptimi? Mana, uning yuzida, qarashi o'zgarmagan ko'zlarida o'sha mensimaslik belgilari ko'rindi. U o'ttiz yil oldingi asabiy holatiga qaytishni xohladi. Ammo ayol uning qo'llaridan ushlab ohista jilmaydi. Bu qo'lni, bu qo'ldan o'tgan iliq harorat shunchalik tanish ediki, oradan o'tgan yillar xuddi ipi

uzilgan tasbeh donalari kabi stol ustida sochilib yotgandek edi, uning ichki olamida sobiq xotiniga ilk bor sevgi izhor qilgan kunlaridagi hayajon bilan bo'sa olish istagi paydo bo'ldi va u tomonga siljiy boshladi. Ayol mayin ovozda: "Endi juda kech, azizim, juda ham kech", — dedi va qo'llarini tortdi. Yonlaridan o'tayotgan xizmatchi nima ichmoqchi ekanliklarini so'radi. Er xotiniga tikilib qaradi:

— Men ko'pdan beri qo'l urmagan ishni qilmoqchiman, spirtli ichimlik ichaman. Bitta araq.

— Xo'p, — dedi ayol, — siz araq iching, men achchiq choy ichishni xohlayman. — Keyin sobiq eriga qarab:

— O'sha kundan keyin, — deya gap boshladi, — siz qilayotgan ishlarni, hamma xatti-harakatingizni zimdan kuzatib yurdim. Bu o'ttiz yil ichida men nimalar qildim? Bular ahamiyatga molik narsalar emas. Turmush qurdim, bola-chaqali bo'ldim, farzand saodatini-yu azobini tatib ko'rdim. Bularning bari har bir inson hayotidagi tabiiy hodisalardan biri hisoblanadi. Men bugun faqat sizning hayotingiz haqida eshitishni xohlayman.

— Qanday xohlaysiz? — deya javob berdi erkak. — Men shu daqiqalarda siz bilan yana qayta diydorlashganimdan baxtiyorman. To'g'ri, bu faqatgina zavq, xolos. Juda sovuq izg'irindan qochib issiq xonaga kirganda tuyadigan zavq yanglig' hol.

U jim qoldi, lablarida bilinar-bilinmas o'zgarish sezildi, ayol ich-ichidan qandaydir ajoyib, go'zal, nozik bir narsaning parcha-parcha bo'lib uzilganini his qildi. Yana xuddi o'sha masxaramuz tabassum deb o'yladi, uning chehrasida eng samimiy, eng haroratli, eng hayajonli paytlarida ko'zga tashlanuvchi holat aks etardi! Mana hozir yoshi oltmishdan oshyapti; uni tashlab ketganimda yoshgina edi, hozir esa ancha keksaygan. Faqat uni tashlab ketish uchun ruhimda uyg'ongan katta kuch yana uning yuzlarida o'z ifodasini topdi, yana samimiy bo'lishi kerak bo'lgan paytda o'zini yaqqol namoyon etdi!

Er gapida davom etdi:

— Siz bilan ajrashgandan keyin, yana ham to'g'rirog'i, siz meni tashlab ketganingizdan keyin (bu so'zlarga urg'u berib, dona-dona qilib gapirdi) umrimning qolgan qismini yolg'izlikda

o'tkazdim deya olaman. Ko'p ishlar bilan band bo'ldim, boylik ham orttirdim, kitob ham yozdim, siyosatga ham aralashdim, turli sayohatlar uyushtirdim, keyinchalik esa bularning bari jonimga tegdi. Hozir esa o'tirib o'tgan hayot yo'llarimga nazar tashlar ekanman, bolalik onlarimning butun davri, komediyalar, bema'niliklar — hamma-hammasi butun hayotim davomida o'z aksini topganligiga iqror bo'ldim va bundan hayratlana boshladim.

Ayol sobiq erining yuziga rahm-shafqat bilan tikildi:

— Ha, hayotingizda yuz bergan barcha voqealardan xabarim bor. Sizga hozir bir gapni aytishni xohlayman. Gaplarimdan zinhor-bazinhor jahlingiz chiqmasin, o'sha paytlarda shirin tushlaringizni bo'lib, zo'rlab uyqungizni buzgan lahzalardagi kabi qattiq va qo'pol so'zlar bilan dilimni og'ritmang. Sizga buyuk muhabbat qo'ygan xotiningiz edim. Menda bu muhabbatni uyg'otgan na moddiy tomoningiz, na bo'lak fazilatingiz edi. Zero, go'zallikdan ham, boshqa fazilatlardan ham ortiqcha nasibangiz yo'q edi (ayol shu onda bilinar-bilinmas bir ko'zini yumib oldi, u bilan birga yashagan damlarida unga sof sevgisini izhor qilgan paytlarini esladi). Ha, meni sizga bog'lagan tuyg'u — bu xayollaringiz edi. Ular faqat sizgagina tegishli emasdi. Menga, dunyoga keltirishni xohlagan bolalaringizga, yurtga oid xayollardan iborat edi. Sizni hayratlanib tinglardim. Puldor, mashhur, buyuk shaxs bo'lishni chin dildan xohlardingiz. G'oyalaringizni aytayotib har qanday falokatlarga duchor bo'lganimda ham, har qanday saodatlarga erishganimda ham o'zimni sizning bag'ringizda va yoningizda his qilaman derdingiz. Kunlardan bir kun menga bitta inqilobchi hayotini gapirib berdingiz, bu dunyoda xotini yashagan joylaridan so'z ochdingiz. Ayol inqilobchini qamashsa, u bilan qamoqda yashar, u yerdan qochsa, birga qochar, inqilobda va hatto xandaqda ham yonidan bir qadam jilmasdi!..

Bolalarga mehringiz baland edi. Bizning farzandlarimiz bo'lsa, ularni qanday katta qilishimiz haqida gapirib erinmasdan uzoq vaqt xayollarga berilardingiz! Ularning har birining hayot yo'llarini o'ylardingiz, meni bu xayollarga sherik qilardingiz. Bu xayollar rang-barang va xuddi harakat qilayotgandek edi. Bir narsa mening e'tiborimni tortardi, tahayyuringizda menga g'alati va

juda ajoyib tuyulgan bir xususiyat sezilardi. Unda falokat va fojiaga katta o'rin berilgandek edi. Hatto o'rin beribgina qolmasdan, tafsilotlar bayoniga ham o'tardingiz. Tug'ilmagan farzandlarimiz haqida gapirganingizda mening xayolimda tez-tez bir o'y paydo bo'lardi, ya'ni siz farzand borasida taqdir bizga nimalarni yozganikin derdingiz. Keyin esa shunday gaplarni gapirardingiz: bolasi uchun aqldan ozgan er-xotinni tasavvur qilaman. Bu er-xotinning bolalari besh yoshga to'lganida bu olamni tark etishgan. Ayol bilan erkak har safar vafot etgan bolalarining bosh tomonida turib bir-birlariga tikilgancha: "Allohim, — deya munojot qilardilar, — bizga ato qilgan farzandni umri bilan bergin!" Faqat bu munojot so'zlari hech ijobat bo'lmadi. Oradan yillar o'tar, tug'ilgan bola nobud bo'lishda davom etardi. Nihoyat, ayol eri bilan vidolashdi: bizdan tug'iladigan farzandlarning rohati bizga nasib qilmadi; taqdirim senga bog'langan ekan, farzand ko'rishning hech imkoni yo'q; menga javob ber, men bolani boshqalardan topishga harakat qilaman!

Bu xomxayollarni menga aytayotib bolalaringning besh yoshgacha qanday ulg'ayganlari, ota-onasi ularni qanchalik sevishi, qanday parvarish qilgani, keyin esa o'sha mash'um beshinchi yil kelganida qanday umidsizlik chulg'agani, bolalarning qanday kasalga duchor bo'lgani, qanday o'lganini eng nozik nuqtalarigacha aytaverarding, aytaverarding!

Ayol biroz sukutdan keyin gapini davom ettirdi:

— Men haqimdagi xayollaring qanday ziddiyatli edi, yo Rabbim! Bir kuni menga sen mendan oldin bu dunyoni tark etasan, men esa umrimning oxirigacha boshqa hech bir ayolning yuziga qayrilib ham qaramayman deganding. Ajabo, shunday bo'lishi mumkinmi? Nima uchun bo'lmasin?.. Bu irodaga bog'liq. Sen xayolimda har doim jonli holatda gavdalanib turarding. Suratlaringni ro'paramga qo'yib, ular bilan er-xotinlar gurunglashgandek suhbatlashardim. Ovozingni plastinkalarga yozdirardim. "Erta sahardan kechgacha uyimizni sen bilan tasavvur qilaman", — derding va mening qanday o'lim topishimni, qabrda qanday chirishimni tasavvur qilib: "Qiziq, — derding, — o'limingdan ancha vaqt o'tgandan keyin bir kun borib go'ringni kovlayman va

sendan nima qolgan ekan deb qabringga nazar solaman. O'shanda sening bir tutam soching bilan bir-ikki bo'lak suyagingni topaman-da, ularni uyga olib kelaman!" — derding. Faqat bunday dahshatli, fojiaviy xayollaring bilan birga yana men haqimda xilma-xil niyatlaring ham bor edi: "Seni o'z qo'lim bilan voyaga yetkazaman, senga atab kitoblar yozaman, men yozgan kitoblarning hammasi sening asarlaring hisoblanadi, men bir vositachiman, xolos, deb butun dunyoga jar solaman", — derding. Menga qanday keksayishimizni, bir-birimizga nisbatan e'tiborsizlik holatiga kelganimizda birgalikda o'tgan umrimizni sarhisob qilib gurunglashishimizni, farzandlarimizning, nevaralarimizning atrofimizda girdikapalak bo'lishini tasavvur qilib, keyin: "Yo'q, — derding, — sen mendan bir oy oldin o'lishing kerak. Men sendan keyin bir oy yashayman. U ham bo'lsa, butunlay yo'qlikka ketishingning iztirobini totish, shu bilan birga, eng so'nggi zavqqa erishish uchun!"

Keyin yana kiyim-kechaklarim-u uy-ro'zg'or buyumlariga oid xayollaring bor edi. "Kiyim-kechaklaring-u ro'zg'or buyumlari orqali o'rtamizda mustahkam rishta bog'lanardi. Bu shunday munosabatki, uyimizni ular quradi, ulardan bittasi buzilgan taqdirda butun xonadon zulmat qa'riga tushadi. Shu sababdan uyimizning to'kisligini ta'minlaymiz", — derding.

Er ayolning asta-sekin siz deyishdan voz kechib, sen deya murojaat eta boshlaganiga e'tibor qaratdi. Bu eski holatning qayta jonlanishimi yoki samimiy bo'lib ko'rinish istagida tanlangan yo'lmidi, bilmadim.

Ayol gapida davom etdi:

— Boylik orttirish niyating ham bor edi. Boy bo'lamiz, boy bo'lamiz! "Hayotdagi bor ehtiyojlarimizni, butun orzu-istaklarimizni, qolaversa, eng ahamiyatsiz narsalarni ham qondirishga harakat qilamiz", — derding. "Bu boylikka to'g'ri yo'ldan, hidoyat yo'lidan borib erishamiz. Qanday bo'lishini bilmadim-u, ammo bu niyatimizga albatta erishamiz. Boyligimizdan samarali foydalanamiz, yetim bolalarni katta qilamiz, o'qitamiz, maktab, kasalxonalar sotib olamiz. Bu xayrli muassasalarning barchasiga sening nomingni beraman. Vafotimizdan keyin ikkalamizni ham yaxshi so'z bilan eslashadi", — deb qo'shib qo'yarding.

Bir qancha loyihalar qilding, tijorat, matbuot, zavod-fabrika kabi joylarning loyihalarini chizding. Faqat bu loyihalarni chizgan paytingda oddiygina xizmatchi eding. Menga: "Bir necha yil shunday yashayman. Keyin sarxush hayotga sho'ng'iyman, o'sha paytda o'z qo'llarim bilan hamma loyihalarimni amalga oshiraman", — degan balandparvoz va'dalarni berarding. Bu va'dalarni berishingga hech bir zarurat yo'q edi. Men o'sha paytlarda sendan ham, xayollaringdan ham juda mamnun edim. Sen va xayollaring bilan mo'jazgina uyimizda baxtiyor umr kechirardim yoki hayotda yashayotganimni his qilardim.

Oraga sukunat cho'kdi, ayol ma'yusona nazar bilan eriga tikildi.

Ajinlar qoplagan, keksaygan chehra o'sha paytlarda unga bag'ishlagan shirin hayajonli damlarni eslatdi. Ayol erkak ovozining ko'zi oldida gavdalanganini, xayollar ichida kechirilgan umr bir qancha yillardan keyin to'satdan g'alati, sirli o'zgarishga yuz tutganini sezdi.

— Davom eting, — dedi er. — Yoshligimning butun sog'inchlarini ko'milib qolgan joylaridan bitta-bitta tortqilab yuzaga chiqaryapsiz. Bularni men allaqachonlar unutib yuborgan ekanman. Hozir boshqa kimsaga tegishli hikoyani tinglayotgandayman.

Ayol: "Bu gaplardan keyin aytmoqchi bo'lgan gaplarimning bari achchiq. Endi sizga qulab tushgan qasr haqida so'zlab bersam, ha, qulab tushgan qasr haqida", — deya fikrini qaytadan bayon qila boshladi.

— Ilk turmush qurgan paytlarimiz shunday xayollar bilan yashadik, to'g'rimi? Hozir boshqa birovga tegishli hikoyalar deb eslaganim xayollar ichida. Shuni bilginki, men bularni kimgadir tegishli hikoya deb gapirmayapman. O'z mojaromni, bu mojarom ichida sening ham borligingni aytmoqchiman.

Xayollaring asta-sekin o'zgara boshladi. Buni ilk marotaba suhbatga aralashganingdayoq sezib qoldim:

— Bilasanmi, — deding, — men nimani xohlayapman, masalan, deylik, qo'limga oddiy tasodif bilan lotereya chiptasi tushib qoldi, shu tufayli katta pulga ega bo'ldim. Farzandlarimiz tug'ildi. Men bu pullarning hammasini senga va bolalarimizga sarflab, o'zimga kam pul qoldirib, kunlarning birida sizlarga bildirmay

g'oyib bo'ldim. Meni juda ko'p vaqt izlaganingizdan keyin topa olmasdan xunob bo'lasiz va umidingizni ham uzasiz. Keyin esa yillar o'tib farzandlar ulg'ayishadi, sen balki turmush qurarsan yoki yolg'izlikda o'tarsan. Bir kun yarim kechasi eshigingni keksa odam kelib taqillatadi. Bu odamning chehrasi senga kimnidir eslatadi. Faqat bunga e'tibor bermaysan. Qariya sen bilan gaplashadi, bolalarni so'raydi va yana ortiga qaytib ketadi. Shu odam menman! Yillab dunyo kezib, hayot, olam nima ekanligini anglab yetdim. Sening uyingga kelishimdan maqsad o'zimni tanitish yoki xayolingning qaysidir burchaklarida g'oyib bo'lgan ering o'rniga bir qariya qiyofasini ko'rsatish uchun emas. Faqatgina o'zimni senga tanitish, buni tushunish uchundir.

Sen shu gaplarni gapirganingda men seni hayrat bilan tinglardim. Ilk marotaba mendan uzoqlarda, o'z ichingda menga ko'rinmas tahayyurga cho'mgan eding.

Keyin sening chehrangdagi ikkinchi o'zgarishning guvohi bo'ldim. Ba'zan gapirayotib men haqimda kamroq munosabatda bo'lib, menga sevgini tushuntirish, men uchun o'ylaganlaringni gapirish yoki mening so'zlarimni tasdiq etish uchun suhbatga berilarkansan, lablaringda nafis, bilinar-bilinmas jilmayish sezilar va chehrangdagi bu jilmayishda qandaydir ma'no bo'lardi. Yaqinda shu holatni yana bir marotaba ko'rdim. Seni hayajon bilan, hatto mast holatda tinglagan paytlarimda bu jilmayish yuzingda aks etishi hamono butun vujudim titrab, o'zimni baland joydan yiqilgandek his qilardim. Fikr-u xayollaring seni tark etgan paytda, odatda, dahshatli bir holatga tushasan kishi. Insonlarga xos barcha fazilatlaring daraxt po'stlog'i kabi shilinib tushadi va buning ketidan zulmatga chulg'angan, nafratni qo'zg'atadigan janjalkash ruh maydonga keladi. Vaqti-vaqti bilan oldimda turib sevmagan ba'zi kishilardan qanchalik nafratlanishingni, ularni qanday iskanjalab o'ldirishni xohlashingni gapirib berarding. Odamni o'ldirish uchun turli mashinalar, vositalar, usullar o'ylab toparding. Bir kuni menga pichoq mashinasi haqida gapirding. Daraxt kabi yuztuban yotqizilgan odamning boshidan oyog'igacha mashina bilan tep-tekis, bir-biriga teng, mayda-mayda qilib olti bo'lakka qanday bo'linishini, yana boshqa bir kuni esa tiz

cho'ktirilib temir ustiga egdirilgan odamning boshiga bir qancha masofa balandlikdan necha tonnalik sharning tushishini va uning bu boshni qanday qilib tep-tekis holatga keltirishini hatto eng nozik joylarigacha e'tibor qaratib ravon gapirib berding. O'sha paytda vujud bilan boshning tipirchilayotgan baliq dumi bilan gavdasiga o'xshashligini aytding. Chehrangga qo'rquv bilan tikildim. Ko'zlaring porlab vajohatingni aks ettirardi. "Nima bo'lyapti senga?" — deya baqirgan paytimda o'zingga kelding, "Qo'rqma, — deb javob berding. — Bunday mal'un odamlarga nafratim shu qadar kuchliki, ularni yo'q qilish uchun shu joylarigacha o'ylayman".

Senda yana bir narsa qayta jonlana boshladi. Ilgarigidek quvnoq, hayajonli, haroratli emasding. Bora-bora kamgap bo'lib, birga ko'rishgan paytimizning ko'p qismi sukut bilan, ko'zlaring yumilib o'yga tolganing holda o'tardi.

Bora-bora menga nisbatan oldingi, avvalgi munosabating o'zgardi. Orada "uh" tortib qo'yarding; "sen bo'lmaganingda, nima qilishni o'zim bilardim. Hozirgacha butun g'ayratimni sening borliging so'ndirdi", — derding. Sening keskin gaplaring menga ta'sir kuchini kamaytirar, "Zinhor noto'g'ri tushunmagin, sevgilim", — deya gap qistirib qo'yarding. Sen bilan hamisha, kundan kunga o'zimni baxtiyor his qilaman deyishni xohlagandim; buyuk ishlarni niyat qilgan insonlar yolg'iz bo'lishi kerak, qalbida zarracha ham zaif tomoni bo'lmasligi lozim, ishq, rahm-shafqat tuyg'ularidan uzoqlashishi kerak.

Ayol: "Agar istamayotgan bo'lsang, boshqa gapirmayman, dilingga ozor berdim, shekilli", — dedi.

Er tush ko'rayotgandek birdan uyg'onib, xayolini bir joyga jamladi, duduqlanib:

— Yo'q, aslo, gapingizda davom eting; hozir bir gap gapirdingiz. Demak, men sizga o'sha paytlar buyuk ishlarga chog'langan kishilar hayotda bemehr va berahm bo'lishlari kerak degandim, shundaymi? Qanchalik noto'g'ri qarorga kelgan ekanman-a! Yo'q, yo'q! Mana, o'lim ostonasida turibman, buyuk ishlar buyuk qalb bilan, butun koinot sevgisini-yu marhamatini qalban his qilib, buyuk qalb bilangina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Muhab-

batsiz, mehrsiz buyuk asarlar dunyoga kelmaydi. Muhabbat va mehr buyuklikning ozuqasi hisoblanib kelgan, — dedi.

Ayol yana gap boshladi:

— To'g'ri, buyuk ishlarga chog'langan kishilar bemehr va berahm bo'lishi kerak derding, insonlardan biror malay sifatida foydalanishni bilganlar hayotda g'olib bo'ladilar. Faqat maqsadga erishish uchungina, zarurat yuzasidangina insonlarga kulib qaraysan, oyoq-qo'llarini o'pasan, ularga sodiqligingni isbotlaysan, fidoyiligingga ming bitta misollar keltirasan. Kun kelib kuch-qudrat sohibi bo'lganingda esa ilk zarbalaringni har xil fidokorlik qiyofasida qo'llaringni ushlab senga balandparvoz gaplar gapirgan insonlarga berasan. Ular sen ko'rsatgan munosabatdan hayratlanib yoqa ushlashadi, nonko'r, beburd, xoin deb atashadi. Buning nima ahamiyati bor? Bu faryodlarning barchasi ular qalbidan aytiladigan so'nggi so'zlardan iborat. Keyin butunlay jim bo'lishadi!

Tasavvuring meni birma-bir andishaga solgandek salbiy tus ola boshladi. Bir necha marotaba menga puldor bo'lish uchun bitta chora borligini, bu chora esa boshqa insonlarni talashdan iborat ekanligini gapirganding, hatto bir kuni, bilasanmi, nima deganding: "Bir kun sahar-mardon uyg'onganimizda qanchalik osonlik bilan boyib qolganimizga guvoh bo'lamiz. Mana, men ishlagan bo'lim hisobchisi har oyning birinchi kunida ishchilar maoshini berish uchun 150 ming lirani sumkaga solib bo'limga olib keladi. Hisobchini yo'lda, hatto bo'limdagi xonasida hali sumkasini ochib ulgurmasidan chuv tushirish mumkin, hech kim mendan shubhalanmaydi. Hamma hisobchidan shubhalanadi. Pulni bankdan olgan u bo'lsa, pul solingan sumka uning qo'lida bo'lsa, albatta, undan gumon qilishadi. Shunday ekan, pulni yo'qotgan shaxsan uning o'zi bo'lib chiqadi. Nima bo'lardi? O'n yilga qamaladi, xolos. Bilmasdan qilingan yaxshilikni qarshi olish oson. Hayotdan bor umidi puchga chiqadi, keksayadi, holdan toygan alfozda qamoqdan ozod qilingan kuni unga allaqayerdan jo'natilgan o'n ming lirani topadi. Shu bilan uning achchiq qismati unutiladi va unda hayotni qaytadan boshlash umidi uyg'onadi!"

Bunday taxayyur-u o'y-fikrlar og'ushida yashaganimizga qaramay, hayotimiz o'zgarmadi; sen o'sha oddiy ishchiligingcha

qolding va biz o'sha-o'sha faqirlikda kun kechirdik. Qaniydi, shundayligicha qolsa ham rozi edim. Bundan ham yomoni, senga ogohlantirishlar berila boshlandi, buyruqqa bo'ysunmaganing uchun turli jazolar qo'llashdi. Ishdan uyga asabiy, charchagan holatda qaytadigan bo'lding. Sening nima sababdandir bunday holatga tushganingni ko'rib: "Nima bo'ldi?" — deya so'raganimda menga baqirib dilimni og'ritarding, ovqatni shosha-pisha yeb divanga cho'zilgancha uyquga ketarding. O'sha paytlarda yonimda sen bo'lsang ham, o'zimni o'z uyimda yolg'iz his qila boshladim va tuyg'u bilan birga menda sen haqingda, uyimiz, turmush va saodat haqida yangi-yangi fikrlar tug'ila boshladi. O'z-o'zimga, voajab, men aldandimmi derdim, bu kishi xayol mashinasidan boshqa narsa emasmi derdim. Mana, yillar o'tmoqda, ishingda hech qanday yangilik yo'q, hatto ishingga yomon baho berishmoqda. Sening bora-bora asabiy, qo'rs va qo'pol bo'lishing, fikrlaringning kundan kunga badbinlashishi, xulqingda ro'y berayotgan salbiy holatlarning ishingga aloqasi bormi? Sendan g'olib chiqmaydi, shunday ekan, istiqbolini o'z qo'llarida tutgan insonlarga dushman bo'lib orzularini yanada qisqaroq yo'llardan, yomon yo'llar orqali haqiqatga aylantirishni o'ylarding!

Bunday natijaga kelishingga butun borlig'im bilan asta-sekin ishona boshladim. Endi seni xuddi begonani tadqiq etgandek tadqiq va tahlil eta boshladim. Bora-bora uyimiz ko'zimga begonalashib, fayz-tarovatini yo'qotib bordi, ro'zg'or buyumlarining eskirganini, qandaydir qashshoqlik hukm surayotganini his qila boshladim.

Bu o'y-xayollar bilan birga men ham senga nisbatan qo'pollik qila boshladim. Menga xayollaring haqida gapirganingda so'zingni bo'ladigan bo'ldim, hatto hamma loflaringdan to'ydim, shuni eslaymanki, hayotimiz faqat shunday davom etadi deb javob qaytarardim. Bu javoblar sening asabingga tegib shiddat bilan uydan bosh olib ketarding.

Asta-sekin uy ichida ikki begonaga, ikki dushmanga aylanib bordik. Bular haqida o'ylab o'z-o'zimdan nafratlanardim. Shunday vaziyat yuzaga kelgan ekan, nima uchun seni tashlab ketolmayman? Bu savolga shunday javob qaytarardim: "Men ketadigan

bo'lsam, bu yanada baxtsizlikka yuztuban bo'ladi! Biroz kutay. Balki hammasi o'tkinchi tushkunlikdir, balki yaqin kunlarda yaxshilikka qaytishi mumkindir!"

Hayhot! Butun umidlarim chippakka chiqqan ko'rinardi va sen uydan ishga otlanganingda sir-sinoatga to'la holatni kashf etardim. Ba'zida bir-birimizga lom-mim demasdan kun kechirardik. Asta-sekin shunday andishaga keldim: bu kishi meni vaqti kelib tashlab ketadi, hatto bir satr ham so'z yozib qoldirmasdan uyni tark etadi! Buni xayolimga sig'dira olmasdim. Or-nomusim va izzat-nafsim bunday zarba ostida poymol bo'layotganidan qalbim jarohatlandi. Or-nomus va izzat-nafs tushunchasi shu tarzda o'zini namoyon etishi, sening har bir xatti-harakating or-nomus va izzat-nafsimga tegayotganini seza boshladim. O'sha paytlari menga aytgan so'zlaring dilimni og'ritdi va sendan juda qattiq ranjidim. Buning ta'siri yomon bo'ldi. Men ham sendek munosabatda bo'lishni xohlab sening qo'pol gaplaringga taqlid qila boshladim. Ba'zida hatto og'zimdan yomon gaplar chiqqanini bilmay qolardim, sen esa qo'rquvdan yuzlarimga tikilarding. Bir so'z bilan aytganda, beodob, janjalkash xotinga aylangandim.

Mening tabiatimdagi bu o'zgarish seni butunlay xayolparast qilib qo'yishga olib keldi. Yarim kechasi ovoz chiqarmasdan uyga kirib kelarding va erta saharlab yana meni ko'rmasdan yo ko'rmaslikka harakat qilib sekingina chiqib ketarding. Mendan qo'rqa boshlaganingni seza boshladim. Senga shunday tuyulardiki, bir kun kelib men ishxonangga borib boshliqlaring oldida har xil qiliqlar ko'rsatadiganday edim.

Ayol bir necha soniya jim qoldi. Keyin chuqur nafas olib, oh, u kunlar iztirobini eslasam, deya davom etdi:

— Xuddi butun vujudim nozik iplar bilan qattiq bog'lab qo'yilganday edi. Bu nozik iplar qo'llarimni qirqar, yara-chaqa toshtirardi. Ruhimni iskanja bo'lib siqqan og'riqlar butun badanimga tarqalib, soatlab yotog'imda behush yotardim. Dunyodagi hech qanday iztirob ayol iztiroblaridan tug'ilgan og'riqdek o'ldirguvchi, ko'ngilni buzguvchi bo'la olmasa kerak. Men badbaxtgina emas, balki undan beshbattar edim.

Bo'lib o'tgan voqealarga qaramasdan, hali hamon seni sevishimni bilaman. Bu sevgi senga rahm tarzida zohir bo'lgandi. Ha, senga ich-ichimdan achinardim. Ahvoling aftodahol edi. Go'yo o'zingni tushda yashaganday his qilarding. Ust-boshingga loqayd, soqollaringni olmasdan yurarding.

Nihoyat, o'sha kun, sendan ajralishim kerakligini tushunib yetgan kunim keldi.

Ayol jim qoldi. Er ayolining yuzi sarg'argan holatda ekanini, ko'zlaridan esa marjondek yoshlar tirqiraganini ko'rdi. Qo'lini sekingina uning qo'li ustiga qo'ydi. Ammo ayol qo'lini tortib oldi va:

— Ha, o'sha kun keldi, — deya gapida davom etdi. — Ko'chada edim. Qaytganimda shlapangni garderobda ko'rdim, uyda ekanligingni payqadim. Hech qanday qasdim yo'q holda ichkariga sekin qadam bosdim. Sen xonada eding. Eshik qiya ochiq ekan. Yotoqda o'tirib kichik tirqishdan ikki qo'ling bilan yuzingni berkitib olgancha o'kirib yig'layotganingni ko'rdim.

Yana sekingina ortimga qaytdim, uydan tashqariga otildim. Ko'chalarda soatlab bekordan bekorga aylanib yurdim.

Nima uchun yig'laganingni o'yladim. "Faqat o'zi uchungina emas, men uchun ham yig'ladi. Meni baxtli qila olmaganini tushunib yetdi. O'zining hayotni tark etishida mening to'siq bo'lganimni ko'rdi. Ammo bu haqda menga nega so'z ochmadi? Shunday ekan, uning o'zini yolg'iz tashlab ketmayin. Uni abadiy tashlabgina ketmay, o'z hayotini o'zi istaganicha yashashini ham ta'minlashim lozim. Bu mening unga qilgan oxirgi yaxshiligim bo'lsin. Buni o'zimning oxirgi vazifam deb bilaman".

Ajralishga qaror qilib uyga qaytdim. Senga seni xoli qoldirishimni, hayotingni bir marotaba bo'lsa ham mensiz o'tkazishingni aytishni istamasdim. Boshqa sabab-u bahonalar qidira boshladim. Chunki sening or-nomusing va shon-shuhratingga tegmasam, mendan ajralishga rozi bo'lmasligingni tushunardim.

Aslida bu sabab va bahonalar uzoqlarda edi. Qashshoqligimiz, pulsizligimiz, faqirligimizda!

Ikki kundan keyin jomadonimni yo'lga shay qilib qo'ydim, senga bir og'iz gapim bor dedim. Yuzim tund, ovozim qahrli edi.

O‘tirdik. Men yaxshi bir xonadonni orzu qilgandim, men yaxshi hayot kechirish uchun yaratilganman. Turli-tuman kiyimlar kiyishni, sayr-u sayohat qilishni xohlayman. Sen menga bularni ta’minlab berolmading. Sen men bilan turmush qurib, shunday hayotni va’da qildingmi? Nimalarni gapirib, qanday qilib meni safsatalaringga ishontirding? Bolalarcha, tarqoq xayollar og‘ushida ezilgan insondek umrimni bekorga sarflash niyatida emasman! — dedim.

Sen lablaringdagi mal’un jilmayish bilan mening ko‘zlarimga jimgina tikilib turarding.

Bu safar baqirib yubordim: sendan javob kutardim. Sen bo‘lsang esini yegan ahmoqdek yuzimga tikilarding.

O‘shanda menga yana lablaringdagi o‘sha jilmayish bilan: “Senga uylanganimda muhabbatdan boshqa narsani va’da qilmaganman. Seni hali ham sevaman, demak, va’damni unutganim yo‘q. Modomiki ketishni xohlayotgan ekansan, bu yog‘ini o‘zing bilasan”, deding!

E’tirof etish joizki, sendan ajralishga qaror berish bilan birga modomiki ketishni xohlar ekansan, ketaver degan javobing tanamga nashtardek botdi. Ichimni it tirnagandek bo‘lardi. Bo‘g‘zimga tiqilgan hayqiriqni zo‘rg‘a ichimga yutib jomadonimni oldim-da, ko‘chaga otildim.

Ayol gapini tugatdi va sobiq eriga yuzlandi. Hozir nihoyasiz sukunatda daf’atan porlab yuborgan va yonoqlari go‘yo bir soat ichida yana ham chuqurlashgan chehrasi hech qachon, hatto yoshlik chog‘larida ham bunchalik go‘zal bo‘lmagandi.

Er:

— Nima uchun qabrdan chiqib kelib menga bu gaplarni gapirdingiz? — deb so‘radi.

Ayol uning ko‘zlariga tikilib-tikilib, gapini bittalab, asta-sekinlik bilan javob berdi:

— Qabrga kirmasdan oldin sizni oxirgi marotaba ko‘rish uchun...

U shosha-pisha o‘rnidan turdi, hatto sobiq erining qo‘lini siqmasdan eshik tomon yura boshladi.

QADIMDA

Ota-bola atelyelar shovqinida yurib borishardi. U beixtiyor shovqinga quloq tutdi. Temirchining "taqa-tuq" ovozini eshitib, temirchi bobosi va ulug' ota-bobolari ko'z oldiga keldi: qadimda yashagan odamlarning sabrini, iymon-e'tiqodini esga solgan "taqa-tuq" ovozlar olomon ichiga sho'ng'ib ketgunigacha ortidan beto'xtov ergashib kelaverdi. Bola esa o'zi bilmagan, ammo ko'zi quvnaydigan narsalar tomon yurishga oshiqardi.

— Tez qaytamizmi, dada?

— Vaqt-soati yetganida yo'lga chiqamiz, — dedim men.

— Temirchidagi ishimiz bitsa, aylanamiz, degandingiz-ku?

— Albatta, bolam, aylanamiz...

Negadir ko'nglini g'ashlik chulg'adi. Ko'z o'ngida tarixiy imoratlar, sassiz qirg'in barotlar birma-bir namoyon bo'la boshladi. Shahar esa uning bolaligi-yu, o'zgargan qiyofasini yashirincha o'z muhofazasiga olgan edi. Uning qalbini hayajon egalladi. Tong qo'ynida suzib yurgan tumanlar bir o'pirilib tushdi-yu, asrlar bo'ylab izma-iz kelayotgan yorug'lik yashillikka chulg'angan g'am-g'ussaga qorishib ketdi. Allakimdir uning qo'llaridan tortqilab, yelkasidan turtmoqchi bo'ldi. Yonidan o'tib ketayotgan odamlar, bir lahzaga yon qo'shnisini eslatar, keyiniga esa yana o'z qiyofasiga kirib ko'zdan g'oyib bo'lishardi.

— Mana bu buyuk jome'. Aytgancha, bu haqda senga hikoya qilib bergandim-a. Uning ichida favvorali hovuzcha bor.

U gap orasida orqasiga chalishtirgan qo'llarini osmonga cho'zib, minoralar-u qubbalarni ko'rsatar, burun zamonlarda yuz bergan zilzila va yong'inlarni hikoya qilib berardi. Jim qoldi. Go'yo o'tmish qa'riga singib borayotgandek. Bozor va jome' ichida nimalar bilandir kuymalanayotgan odamlar go'yo musavvir yaratgan miniaturani, o'tmishning bir parchasini jonli namoyon etayotgandek tuyulardi. Nogahon unga ism bergan otasi, sochiqchi

Hilmi afandiga ko'zi tushdi. U obdastani yerga qo'yib, ro'molcha bilan yuz-qo'lini artib turardi. Bir lahzalik bolalik onlariga qaytganida, Hilmi afandini juda keksayib, mung'aygan qiyofada ko'rib, quvonchi g'am-g'ussaga aylandi. Qariyaning yelkasidan turtdi, chol tushidan uyg'ongan odamdek cho'chib atrofga alangladi.

— Ota, — dedi. — Meni tanidingizmi? Men Rustam afandining o'g'li Tayyarman...

Chol uning ismini takrorladi. Birdan ko'zlari chaqnab ketdi.

Ular quchoqlashib, bir-birini bag'riga bosdi. Tayyar go'yo go'dakni bag'riga bosgandek edi. Qachonlardir derazamiz oldidagi skameykaga o'tirib, Bursa ishg'olini, yunonlarning bu yerlarga qanday kelib qolgani-yu qanday parchalanib ketganini hikoya qilib bergan o'sha salobatli odam, mana shu odammidi-a?

* * *

Ular hol-ahvol so'rashgandan keyin "Qani, namoz o'qib olaylik", — dedi Hilmi ota.

Cholning to'ng'ich o'g'li Fathi avtohalokatga uchrab olamdan o'tgan ekan. Kenja o'g'li esa kimyogar, uchta farzandning otasi. Ular birga yashashadi. Tayyar bolalikdagi do'sti Fathini esladi.

"Demak... Fathi..." — dedi kalovlanib.

— Samiha xolang falaj bo'lib qoldilar. Hozir biroz tuzuk. Uy ichida nari-beri yurgan bo'ladi. Ba'zida: "Samiha, tezroq tuzalsang-chi, Cho'pon Chashmaga, Sariq Maydonga sayrga chiqaylik", deyman. O'tgan kuni mashinaga o'tqizib Amir Sultonlarnikiga olib bordim. Ko'zlarimga ishonmasdim, xolangga qaytadan jon kirib, shunday yayradiki, asti so'rama. Men esa hayajonlanib: "Kafanlikni yirtting, kampir", — deb yubordim. Mana shunaqa gaplar, bolam. Otang bilan aka-ukadek birga katta bo'lganmiz. Hozir esa oramizda yo'q. Bu dunyoning tashvishlaridan qutuldi. Xo'sh, bolam, demak, sen bir-ikki kungagina kelgan ekansan-da.

— Ha, ota, ish qidirib kelgandim.

— Bo'lmasa ketdik, bolam, Samiha xolangni ko'rib kelasan. Xudoyimning bergan rizqini birga baham ko'ramiz.

— Rahmat ota, ayolim xavotir oladi, anchadan beri, kelaman, o'n besh kuncha qolaman, deyman-u, imkoni bo'lmaydi, ota.

— Hunarmandchilik shunday kasb, o'g'lim. Nima qilmoqchi eding?

— Shu joylarni bir aylansam, deyman, Yashilga boray, mahallamizni ko'ray, so'ng marshrutga o'tirib, Yalovaga borsam.

— Mayli, sen aytgancha bo'laqolsin.

Ular quchoqlashib, qayta diydorlashdilar. Sal vaqt o'tib, Tayyar ortga nazar tashlaganida, mo'ysafid olomon orasida asta-sekin ko'zdan g'oyib bo'ldi.

— Dada, kabob yemaymizmi? — dedi o'g'li.

— Do'stim Rejaining do'koniga ham kiraylik. Keyin kabobpazga boramiz, bolam.

Ko'cha boshida ixchamgina gul bozori. Chiroy ochgan chinnigul-u atirgullar orasida sochlari to'kilgan, yumaloq yuzli kishi kulimsirab turardi. Uning vitrinadan chiqishi eshik oldida paydo bo'lishi bilan bir xil edi. Ular har doim ko'rishganlarida mana shu do'kon eshigi ostonasida to'xtab bir tutamgina hayotini ostin-ustun qilib yuborgan damlarni-yu dilni quvontirgan voqealarni eslab, birga suhbat qurishar, keyin esa boshqa-boshqa shahar odamlariga o'xshab vidolashishardi.

Quchoq ochib ko'rishishdi. Rejai ochiq tabassum bilan gap otgan bo'ldi:

— O'ho', katta bo'p qopsanmi? — dedi. — To'lishibsan!

Bir qo'li bilan qornini siladi.

— Dard minib shunday holga tushdim.

U bor ovozi bilan qahqaha otdi. Keyin chirog'iga qarab:

— O'g'lim, ana u yerdan ayron so'ra, — dedi. U ichkariga kirib o'tirish uchun o'rindiq izlay boshladi.

— Qani, kel-chi, nafasingni rostlab ol!

— Sen ishingdan qolma. Ish uchun kelgandim, yo'lovchi yo'lda kerak.

Rejai ko'zlarini moshday ochib:

— Yo'q, men seni qo'yib yubormayman. Bu safar aslo ketkizmayman... Kechasi biznikida qolasan. Ey, do'stim, nimalar bilan ovorasan, shundan gapir, olamda nima gap, bola-chaqalar degandek?

Tayyar suv to'la paqir yonidagi qush qo'nmas skameykaga o'tirdi.

— To'ng'ichim hozir harbiy xizmatda, o'rtancha o'g'lim litseyni tugatdi. Bunisi esa yaqinda maktabga boradi. O'zingdan so'rasak?

Rejaining bolalarcha beg'ubor tabassumi bir zumda yuzdan aridi.

— Qizimni turmushga uzatdim. Narigi qizimning umri...

— Gapirma!

Keltirilgan ayronga istar-istamas qo'l cho'zishdi.

— Ismini tilga ololmayman, u dardi bedavo kasalga yo'liqdi. Qizim sog'ayishi uchun borimni tikdim. Qordek eridi-ketdi. Endi dardimni kimga ham aytaman. Nima bo'lganini o'zimiz ham bilmay qoldik.

— Boshing omon bo'lsin!

Oraga jimlik cho'kdi, Rejai sigaret uzatdi. O'g'ilning sabri chidamadi:

— Ketdikmi, dada? — deb yubordi.

— Yo'q, bu kecha sizni qo'yib yubormayman. Jigarim, ayolingni ham olib kel, deyman, lekin hech kelmaysizlar. Ko'pdan beri biznikiga kelmay qo'yding. Oqibatsiz bo'lding sen, Tayyar!

— Kelamiz, birodar. O'n besh kun, bir oycha qolaman. Mening bod kasalim bor, dam olish joylariga kelaman, deyman-u, hech ishdan bosh ko'tara olmayman...

— Hayot tashvishlarini aytmaysanmi...

— Eheee. Kim bo'lishidan qat'i nazar, hamma dard yukini yelkalab yuraverarkan.

— Bugun biznikiga borsangiz yaxshi bo'lardi, Gulshan chuchvaraga unnagan edi, maza qilib yerdinglar.

— Chuchvarami? Momolarimiz pishirgan chuchvarani eslaysanmi?

— Jim! Senga hech narsa deyolmayman, lekin buvim pishirgan chuchvarani qo'msayman, Xudo haqqi. Hozirgilar chuchvaraga qiymani solishadi. Buvim go'sht chopish uchun antiqa pichoqlardan foydalanardi.

(Keyin kimlar uylandi, kimlar ajrashdi, shunga o'xshash mavzularda gap ochildi. Fayyozning kazino ochgani, Nurining ustachilik (mashina) qilgani, Salimning birdaniga boyib ketgani, hech narsa qolmadi...)

Ular Rejai bilan xayrlashgandan keyin xuddi to‘p o‘ynagan maydondan qaytgandek bo‘lishdi. Birozdan so‘ng, qo‘ng‘iroqli eshigidan uyiga kirayotgandek bo‘ldi. Osuda hovli uzra sekin-asta zulmat cho‘kayotgandek edi. Onasi hozirlagan shirin taomlardan tanovul qilmoqchi edi. Qo‘shni uylarning derazalarida g‘ira-shira yorug‘lik ko‘ringandek bo‘ldi.

Derazamizdan Yashil maqbara yaqqol ko‘zga tashlanib turardi. Erta tongni kuzatganimda bulut xuddi maqbarani qo‘riqlayotgandek tuyulardi. Har gal ertalab uyg‘onganimda derazadan uni tomosha qilardim. Rahmatli bobom uyimizni Yashil maqbara ko‘rinib turadigan joyga qurdirgan edi, har doim dilimiz nurga to‘lib, tilimizdan duo tushmasin, deb.

— Arg‘imchoqda ham uchamizmi, dada?

U o‘g‘lini eshitmaganga olib, yo‘lida davom etdi.

— Sen o‘sha uylarni ko‘rmay qolding... Bizning uyni... Yong‘in ko‘p joyini olib ketdi. U paytlari tekislik ham tekislik edi-da. Keyinchalik tekislik shaharga aylandi. O‘sha eski uylar o‘rnida ko‘p qavatli binolar qad ko‘tardi. Qolaversa, Bursaning o‘sha uylari jome’-yu maqbaralarga, buloqlar-u ariqlarga yarashgan edi. Mana, qara, mana bu — bizning ko‘cha edi.

Turnaqator tizilgan binolar orasida yakkam-dukkam moviy, oppoq rangga bo‘yalgan uylar ko‘rindi. Sut-qatiq, mayda-chuyda sotayotgan sotuvchilar baqir-chaqir bilan o‘tib borishardi. Xuddi oldinlaridek. Ayollar deraza oldida qo‘llarini yonoqlariga tirab, uzoq-uzoqlarga tikilishardi. Yuzlarida Qrim yoki Bolqon ayollaridagi g‘am-g‘ussa ko‘rinadimi? Bunday g‘am momolar hayotida bo‘lmaganmidi? Shunday o‘ylar bilan Fathi akaning qutichadek tor, buzish kuni kutilayotgan, oynalari singan va qora zulmatga ko‘milgan uyi ro‘parasidan chiqib qoldik. Fathi aka qayerlarga ketganikin? Nima bo‘lgan ekanikin? Tayyar kulba derazasiga xayolan uchlari naqshinkor pardalarni ildi. Eshik yoniga chirmovuq gul ekib, bo‘yini tomga chiqardi. Shu payt oshiqona ovoz bilan g‘azal o‘qiyotgan Fathi aka ko‘z oldiga keldi.

Ichganda dudoqlar arg‘uvon bo‘ldi, oh!

Fathi aka kechalari ishlardi. Foytunchilik qilardi, u bir qizga oshiq bo‘ldi. Unga qizni bermaganlari uchun ichkilikka ruju

qo'ydi. Ichardi, ammo hech kimga ziyoni tegmasdi. Pastki mahallada yong'in chiqqanida, alanga ichidan uch bolani qutqargani uchun ham uni hech kim g'iybat qilmasdi.

Ichaylik, oshiqlar muhabbati-chun,
Bo'laylik g'amdin yiroq, ayo soqiy.

Barcha uylarning hovlisida marmar toshlar bo'lardi. Bizning uy unchalik katta emasdi. Bobom o'z qo'llari bilan qurganlar. U darajada chiroyli uy, deyolmayman. Chunki bu uy bobomning shijoati va hunari tufayli yuzaga kelgan edi. Uyning orqa tomoni tog' etaklariga tutashgan bo'lib, oqshomlari tog'lar binafsharangga burkanib ko'rinardi. Erta tongdagi shabada oshxona derazasidagi taxtacha ustiga terilgan chiroyli gul-u lolalarning peshonasidan silab o'tardi. Shu mahal hovlida suv ovozi... Bobom, buvim turib tahorat olardilar. Undan keyin buvim qo'rani yoqib qahva qaynatgichini olovga qo'yardilar.

Bizning mahallada hamma bir-birini tanirdi. Uylarimiz, xonalarimiz ham bir-biriga o'xshab ketardi. So'rilar, karavotlar, naqshlar, gullar — bari-bari... Biz o'sha so'rilardan, kichkinagina derazalardan keng dunyoni tomosha qilardik. Sen qarama, bizning derazalarimiz ajoyib edi. Ha, juda ajoyib edi. Devorlar oppoq. Ohak hidini qanchalar yaxshi ko'rishimni bilsang edi. Bog'imizda bir tup anor va bir tup tut daraxti bor edi. Ho'v anor daraxtining qizil qandilga o'xshash gullarini qanchalik yaxshi ko'rishimni bilsangiz edi, qachon anor daraxtini ko'rib qolsam, yuragim g'alati bo'lib ketadi. Chunki anor — jannat daraxti. Tut daraxtiga kelsak, u ham muqaddas daraxtlardan biri hisoblanadi. Tut daraxti ipak demakdir. Ipak qurti tut daraxtining yaprog'i bilan ulg'ayadi. Keyin pilla o'raydi. Hali hamon eslayman, buvim pillalarni qaynoq suvga tashlaganida yon-atrofdan "viyik-viyik" degan ovozlar kelardi. Bu ovozlar hammaning uyidan eshitilardi. Millionlab ovozlar shovqini. Ular azob chekkani uchun baqirisharmidi yoki yanada chiroyliroq narsaga aylanish uchun sevinchdan qichqirisharmidi, men faqat shu haqda o'ylardim. Ayollar u paytlarda yaxshi ishlar bilan mashg'ul bo'lishardi. Chiroyli narsalarga qarashardi. Kelinlarga: "Chiroyli narsalarga qarang", — deyishardi, bundan maqsad esa dunyoga keladigan farzandning ham botinan, ham zohiran go'zal

bo'lishi edi. Qurtning yanada chiroyli narsaga aylanishi kapalak yoki ipak hisoblanadi, o'g'lim. Uyimiz haqida gapirib bergandim-a? Uyning taxta eshigi bor edi. Qo'ng'iroqli eshik. Uy ichiga kirganingda, tosh yotqizilgan hovli va boqqa ko'zing tushardi. Suvlar muzdekkina bo'lardi. Muzlatgichga ehtiyoj yo'q edi. Suvni to'ldirib dasturxonga olib kelguncha grafin bug'lanib ketardi. Ammo sen meni eshitmayapsan.

O'g'lining xayoli eshik oldida sakrab o'ynayotgan bolalarda edi. Ular qirq yil burungi yelkasi bukik bolalarga hecham o'xshamasdi.

— Bayramlarda nima qilardik, bilasanmi? Foytunga minardik. Otlarni qanday chiroyli qilib yasatishardi-ya. Ko'chalar foytun qo'ng'iroqlarining ovozlari bilan to'lib ketardi. Bir tomonda ola-bula qo'ylar bir-birini itarishar, biz esa foytun ichida o'tirib uyimizga qo'l siltardik. Nimaga bularni gapirayapman-a?...

U Hanifa xolani bozorda, gilos sotuvchilar qatorida ko'rib qoldi. Yo'lakka shivit, soy o'tlari, petrushka, ko'katlarni yoyib olgandi. Har ikki tomonida qorako'z sardinya va gul ekilgan ikkita tuvak bor edi. Gulning to'p guli yashildan moviyga aylana boshlagan edi. Keksa ayol gulli ko'ylagining ustiga hirqa kiyib, boshiga atrofi moviy munchoqlar qadalgan ro'molni o'rab olgandi. Yoyiq savatdagi ko'kat bog'lamlarini bir silkitib, inqillab-sinqillab boshqa ko'katlar yoniga qo'yardi. U so'z ochdi. Ayol seskanib boshini ko'tardi, uning ko'zlari ma'yus boqardi. Qo'lidagi gullarni tashladi. Keyin savatiga egildi. Ro'molini to'g'rilab, qaytadan tikildi.

— Men Rustam afandining o'g'li Tayyarman.

U Tayyardan ko'z uzmay qarab turaverdi.

— Rustam afandini taniyman. Alloh rahmatiga olgan bo'lsin. Seni eslay olmadim. Oradan ancha yillar o'tib ketdi.

Ha, ammo u ayolni yaxshi eslardi. Hanifa xola mahalladagi bolalarning ko'nglini rom qilib olgan ayollardan edi.

— Siz mening buvijonimsiz.

— Faqat seningginami? Qancha bolalarning buvijonisi bo'lganman. Oh, bolajonim-ey, oh!

Gapini oxirigacha aytolmadi.

U ro'parasida Usmonbek davrida yashagan momoning qarsillagan katta chinor yanglig' "oh" chekib egilganini, ro'molining bir uchi bilan ko'z yoshlarini artganini ko'rdi.

Balkonli uyning supasida o'tirib, ulug' ota-bobolari va aziz avliyolar hayotidan hikoyalar so'zlab, bolalar qalbiga yetkaza olgan Hanifa xola shu yo'lakda ko'rgan ayolmidi? Hanifa xola yana o'sha supaga o'tirib, qo'lida anor sharbati quyilgan billur qadah tutgan holda, tilla ziraklarini titratib Usmon G'ozi hikoyasini so'zlab o'tirardi. Hanifa xola to'ylar, tug'ilgan kunlar, barcha quvonch-u g'amga sherik edi. "Qadimda..." deb hikoyasini boshlar edi u. Bolalar churq etmay, hikoyaga quloq solishardi. Shu bilan birga uni Bursa poytaxt bo'lgan davrda, shaharga mehnati singgan ayollardan biri sifatida tilga olishardi. Hanifa xola yetim-yesirlarni atrofiga to'plab olardi yoki to'quv dastgohining oldiga kelib, bo'z to'qir, turkular kuylardi.

— Nima bo'ldi, Hanifa xola? Nimalar o'zgargan, ayting!

Ayol ko'z yoshlarini yashirib u yoq-bu yog'ini to'g'rilagandek bo'ldi va savat ichidan bir shisha oldi. Shishada giyoh sharbati bor edi. Top-toza yorug'lik, shafaq ranglari shisha ichiga to'plangan edi.

— O'g'lim qachonlardan beri Olmoniyada. Harbiy xizmat yoshiga yetgan nevaram bor. Oldinlari xo'jam hayotligida rohat-farog'atda edim. O'g'limning do'koni bor edi. Uning ishlari yurishmadi, qarzga botdi. Bobosidan qolgan hamma merosni sotib sovurdi. Undan keyin esa "Bu yerda hayot yo'q", — deb Olmoniyaga jo'nab ketdi. Ko'pam nolimay-u ora-sirada menga paypoq, ro'mol kabi mayda-chuydalar olib keladi. Demoqchi bo'lgan gapim shuki, ota bo'lmasa, o'choqdan osonlikcha tutun chiqmas ekan. Hozir nevaramning xayolini kimlar o'g'irlagan bo'lsa o'g'irladi; yomon odatlar chiqardi. U biz ishongan narsalarning hech biriga ishonmaydi. Ikki yil oldin ketgan edi, qandaydir talonchilikka aralashib qolibdi. Men buni hazm qilolmadim. Kelin ham, men ham nasihat qilganimda, bizdan xavfsirab o'g'lini qo'riqlardi. Ichimda bir dard paydo bo'ldi. Mening nevaram shunday holga tushdimi, deb burchak-burchaklarga tiqilib, yoqamni yirtib yig'lardim. Bozorga har doim ham kelavermayman. Onda-sonda.

O‘zimda kuch topa olsam. Mana shunaqa gaplar, bolajonim. Men endi oldingi quvnoq ayol emasman. Shuginalarni sotib chalg‘iyman, dardimni unutaman.

Savatning chiziqli yopqichini bir chetidan oralab, bir bog‘lam moychechak oldi; silkitib, ko‘katlarning yoniga qo‘ydi. Oraga asrlar sukunati tushdi. Atrofga tong nafasini hali ham tark etmagan gullar hidi taraldi. Xuddi shu on O‘rxonbek ot o‘ynatib kelayotibdi-yu ayol esa uning poyiga gullar sochmoqda edi. Ularni sal oldin Edebalining xonimi bilan tutishgan edi. Shuning uchun ko‘ngliga ozor berishdan tiyilib, ularni inju marjonlar kabi yonma-yon tizardi.

Tayyar, ayolning yelkasiga turtdi.

— Hanifa xola, shu Qorako‘zni menga sotasizmi?

— Albatta. Qayerga olib bormoqchisan?

— Istanbulga.

— Yo‘lda zahmat chekmaysanmi? To‘xta, bolam, qog‘ozga o‘rab beray.

— Ayolim juda xursand bo‘ladi.

— Oftob tushadigan joyga qo‘y. Bular quyoshni juda yaxshi ko‘radi. Shamolni yoqtirmaydi.

— Bo‘pti, momo.

— Savdoni endi boshlayapman. Inshoolloh, omad olib kelsang. Shugina uchun nima bersang, ber.

Tayyar egilib, ko‘kat hidli qo‘lni o‘pdi. Ko‘nglidan chiqqanini ayolning qo‘liga berdi.

O‘g‘li ham sevingandek tuyuldi. “Charchasangiz, men olaman, dada”, — dedi. U miyig‘ida kulib qo‘ydi. O‘rtasi qora, barglari quyuq pushti gulli moychechakning sinib qolishidan xavotir olib, uyqusiragan qora ko‘zlarini ochdi-da atrofiga alangladi.

USMON CHO'LOQ

Oldingi direktor juda ko'p xizmatchilarni ortiqcha saqlagan deb o'ylab, maktabning yangi direktori ish boshlagan kunining birinchi haftasidayoq o'n xizmatchidan to'rttasini ishdan bo'shatib yubordi. Bu o'zgarishdan keyin oshpaz yordamchisiz qoldi. U kun bo'yi internatdagi uch yuz o'quvchiga ovqat tayyorlayman, deb juda qiynaldi. Nihoyat chidayolmay, tushki ovqatdan so'ng peshbandini yechib, direktorning oldiga kirdi-da:

— Men bir o'zim ishlay olmayman, boshqa oshpaz toping! — dedi.

Direktor internat xizmatchisi cho'loq Usmonni chaqirib kelishni buyurdi. Usmon o'z ishini bajarish bilan birga, oshxonada ham yaxshi ishlay oladi: pechka oldida uxlash o'rniga, kartoshka, piyoz tozalash, qozon-tovoq yuvish, guruch va bug'doy saralashning uddasidan chiqadi, albatta, deb o'ylardi.

Oradan o'n besh daqiqa o'tsa hamki, Usmon hamon kelavermadi. Direktor yozuv stoli yonidagi yumshoq kresloda yaslanib olib, Usmonni toqatsizlik bilan kutar va sigareta chekib o'tirar edi. U asabiylashgan holda, hadeb nemislarnikiga o'xshash sarg'ish murtini yulqirdi.

Direktor maktabga kelgan kunidan boshlaboq, qo'niyolik bu keng yelkali yigitni yoqtirmadi. Usmon ham, kimki unga yoqmasa, o'ziga yoqmagan kishidan hech qanday yaxshilik kutmas edi. Nima ham qilsin, u shunaqa odam edi...

— U shu yerda ko'p vaqtdan beri yashab, yildan yilga qorin solib ketyapti, — der edi u haqda direktor.

U yordamchi xodimlardan anchasini haydab yuborish yoki o'z tili bilan aytganda: "O'zgarish yasash" to'g'risida o'ylab yurar ekan, eng avval Usmonni bo'shatish haqida o'yladi. Lekin u vazirlik hamda viloyatlardagi katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan o'qituvchilarning iltimosiga ko'ra, uni maktabda qoldirishga majbur

bo'ldi. Ular Usmonga yuraklari achigani va uning maktabda o'n yildan ortiqroq vaqtdan beri ishlab kelayotganligini hisobga olib, o'z ishida qoldirishni iltimos qildilar. Mana shu o'qituvchilarning obro'si va istaklari direktorni Usmonni ishdan bo'shatish to'g'risidagi mo'ljalidan voz kechishga majbur qildi.

Direktorning toqatsizligi daqiqa sayin orta borardi. Bundan tashqari, uning tajanglik odati ham bor edi. Uning qo'l ostidagi kishilari, u buyurdimi — qayerda va nima ish bilan mashg'ul bo'lmasinlar, shu zahotiyoq uning oldiga yetib kelishlari va "Buyursinlar, xizmat?" deb qo'l qovushtirib turishlari shart edi. U shuni xohlar edi. Dumaloqdan kelgan va boshida mutlaqo sochi yo'q, tepakal Dilovar og'o eshikni sekingina ochib kirib kelayotganda, direktor yana qo'lini cho'zib qo'ng'iroq chalmoqchi bo'lib turgan edi.

— U yozilib kelgani ketgan ekan, afandim, keldi,— dedi Dilovar og'o.— Chaqiraymi?

— Boshqa vaqt yo'q ekanmi? Mayli, kirsin!

Usmon oqsoqlanib direktorning kabinetiga kirib keldi. Uning egnida ilgarigi direktor sovg'a qilgan uzun va ancha urinib qolgan qora chakmon, kalta jun shim va oyog'ida yungdan to'qilgan oddiy tufli bor edi. Usmon beliga oq jun belbog' bog'lab olgandi. U qo'llari bilan belbog'ni ushlab, oqsoq oyog'iga suyanganicha to'xtadi.

— Chaqirgan ekansiz, afandim? — deb so'radi u.

Direktor indamadi. U o'ng qo'li bilan hamon mo'ylovini tortqilar, chap qo'li bilan esa stolni chertar edi. Direktor undan: "Qayerga yo'qolib ketding?" deb so'ramoqchi bo'ldi-yu, lekin bu esi past qayerda yurgani va nima qilganigacha bekam-u ko'st gapirib o'tirmasin, deb o'ylab shashtidan qaytdi. Direktor g'azab ichida yonib turgan ko'zlari bilan bu ajoyib qiyofaga boshdan oyog'igacha qarab chiqqandan keyin:

— Bu yer ota-bobongning xudoyixonasi emas. Men sendan bergan buyrug'imning so'zsiz bajarilishini talab qilaman, — dedi qat'iy ravishda.

Usmon unga Onado'lining juda itoatkor hamda muloyim kishilari bunday paytlarda qanday qilib javob berishga ko'nikib

ketgan bo'lsa, bu ham xuddi shunday qilib bosh qimirlatib qo'ydi. Biroq direktor bu odatni yoqtirmas edi. U o'zining qo'l ostidagi kishilari uning buyrug'ini eshitganlaridan keyin, qo'llarini lablari va peshonasiga olib borib: "Bosh ustiga" deb aytishlarini hamda shundan keyingina o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lishlarini xohlardi. Ana shunday vaqtlarda u buyruq berib, o'zi shundan huzur qilardi. U arafa kuni internatning yaxshilab tozalanmaganini tekshirib, Usmonni urishib bergan edi. Usmon bo'lsa, yana o'z bilganicha ish qila boshladi. Bundan direktorning g'azabi qo'zg'adi:

— Bu yerga kelganimdan beri, sizlarga menga "bosh ustiga", "xo'p, jonim bilan" degan javobni o'rgatgunimcha tilimga tuk chiqdi.— Direktor ovozini baland qilib buyurdi:— "Xo'p, jonim bilan".

— Eshitaman, afandim!— deb takrorladi Usmon.

— Ha, ana, mana bu joyida... Endi mening aytganlarimni yaxshilab uqib ol! Bundan buyon sen har kuni, muttasil tushki ovqatdan so'ng oshpazning ixtiyorida bo'lasan. Uning qanday ish buyurishidan qat'i nazar, idish-tovoq yuvishdan boshlab hamma ishni qilasan. Bilib qo'y: bundan keyin mening amrimdan bo'yin tovlasang', senga direktor kim va nima ekanligini ko'rsatib qo'yaman! Tushundingmi?

— Tushundim, afandim.

— Ana endi oshxonaga bor. Qani, jo'na!

Usmon turgan joyidan qimirlamadi. U ma'yuslanib turar va bir narsa deb so'ramoqchi bo'lib, xuddi yosh bolalardek ko'zlarini pirpiratib iljayib turardi.

— Nimaga qarab turibsan?— deb so'radi direktor.

— Izolatorda ikkita kasalim bor.

— Xo'sh, nima bo'pti?

— Ularga ichim achiyapti, ikkalasi ham qattiq tumov. Agar iloji bo'lsa, loaqal shu bugun ham ularga qarashga ruxsat etsangiz. Men ularga banka qo'yaman, yaxshilab terlashsa, oshxonaga ertadan keyin borsam. Bir savob ish qiling, afandim...

Direktor xuddi bir narsa chaqib olgandek, o'rnidan sakrab turib, mushti bilan stolni urib, shunday qattiq baqirib berdiki,

Usmon o'zining aytgan va aytmoqchi bo'lgan so'zlariga ming-ming pushaymon bo'ldi.

— Qanaqa ish ekan bu shunchalik kechiktirib bo'lmaydigan? Yo'qol ko'zimdan.

Xijolat bo'lgan Usmon kabinetdan egilib-bukilib chiqib ketdi, direktor esa uzoq vaqtgacha g'azabini bosolmasdan, o'zicha g'udrandi.

— Uni qarang-a, izolatorda ikkita kasali bor emish! Ularga ichi achirmish... Savob ish emish... Tag'in qayoqdagi bo'lmag'ur narsalarni aytadi? Bezbet! Ablah!.. Menga odamgarchilikni o'rgatmoqchi bo'lganini qarang! Yo'q, uni oldingi direktor juda taltaytirib yuborgan, taltaytirib!

* * *

Usmon shungacha ham internatda, ham izolatorda ishlab keldi. Uni ishga olganlaridan buyon o'n yil o'tgan bo'lsa ham, hamon shu yerda ishlab kelardi: maktablarda na doktor va na hamshira bo'lishi mumkin emas edi.

Izolator deb maktablar qoshida joylashgan va unga beshtadan ortiq karavot sig'maydigan xonalarga aytiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu "izolator"larda hech qanday dori-darmon yo'q bo'lib, bemorlar, o'quvchilar o'zlariga o'zlari qarar edilar. Agar ular tez vaqt ichida sog'ayib ketmasalar, ularni kasalxonaga yuborardilar. Kimning baxti bo'lsa, u o'lmasdan, maktabga sog'ayib qaytib kelardi.

Cho'loq Usmon maktab ishiga kirgan yili qor yog'ib turgan qish kunlaridan biri edi, tong yorishar-yorishmas uyqudan uyg'otib bir o'quvchini dafn etishga yuborishdi. Dafn marosimida na o'qituvchilar va na o'quvchilar bor edi... Usmon, kasalxona imomi va ikkita hamshira o'likni zambilga solib, ko'mish uchun uni shu yaqin-atrofdagi mozorga olib borgan edilar. Marhumni go'rga tushirib, ustidan qor aralash yaxlagan tuproq to'kishdi. Imom sovuqqa qotgan lablarini pichirlatib, naridan beri Qur'on o'qidi, shundan keyin Usmon bo'sh zambilni yelkasiga ko'tarib oldi va hammalari mozordan chiqib ketdilar. Usmon keyincha, bu o'lgan bola Qo'niyo yaqinidagi yetimxonadan kelgan, hech kimi yo'q

yetim bola ekanini surishtirib bildi. Bola izolatorda yotgan paytlari birdan kasali og'irlashadi, u yerdan kasalxonaga olib bordilar. Yiringli plevrit kasali bilan og'rigan bola kasalxonada qazo qiladi.

Bolaning ko'rgiligi Usmonni tashvishga soldi. Haftalar ketidan haftalar o'tdi, Usmon esa o'z bolasiga qanday qayg'ursa, unga ham xuddi shunday qayg'urib eng sevimli farzandidan ayrilgan kishidek har kun maktabda g'amgin bo'lib yurdi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, u o'sha qishloqdan maktabga kelgan o'quvchini o'z o'rtoqlari bir kun kasalxonaga olib ketishayotganini ko'rib qoldi. Usmon cho'loqligiga qaramay, ularning oldiga yugurib borib, bolani oldi va izolatorga eltib qo'ydi. Bola qattiq yo'tal va bel og'rig'i bilan kasallangan edi. Usmon uni o'zi qarab tuzatdi. U armiyada sanitar bo'lgan va ancha vaqtgacha gospitallarda ishlagan bo'lib, kasallarga qanday qarashni yaxshi bilardi.

Keyinroq borib u armiya doktorlari kabinetida ko'rgan va ichiga dorilar solib qo'yadigan kichkina quti yasab oldi. Usmon uning ichiga yod, paxta, spirt, bosh og'rig'i dorisi va malham solib qo'ydi. Oldingi direktor Usmonning bu ishlariga ishonchsizlik bilan qarab, uning ustidan kulib yurdi. Lekin keyinchalik haqiqatan ham Usmonning ishning ko'zini bilishiga iqror bo'ldi. Shundan keyin u Usmonning rahmdil odam ekaniga ishonch hosil qildi va unga marhamat ko'zi bilan qaraydigan hamda ayrim vaqtlarda, hatto, pul berib yordamlashib turadigan ham bo'ldi.

O'sha vaqtdan buyon oradan o'n yil o'tdi, lekin hech kim Usmonning bu sevimli ishini qilishiga to'sqinlik qilmas va u mayib bo'lgani uchun og'ir ish qilishga ham majbur etmas edi.

Usmon hozirgi direktor to'g'risida o'ylab: "Hech odamgarchiligi yo'q ekan, — der edi.

Bordi-yu, o'z holiga tashlab qo'yilgan bu bolalar og'rib-netib qolgudek bo'lsa, bunga faqat uning o'zi aybdor bo'ladi. Qani edi, endi men bularning hammasini to'g'ri uning yuziga qarab ayta olsam!"

Xizmatchilarni qisqartirish yo'li orqali keladigan iqtisodiy tejash yo'lidan boshqa, direktor yana bir yangilik kiritdi: dam olish kunlari maktab binosi bekitib qo'yiladigan bo'ldi. Hech qayerda pechkalarni yoqish mumkin emas edi. Bu ishlarning direktorga

nima uchun kerak bo'lib qolganiga Usmon tushuna olmas edi. Ehtimol, u bir yil mobaynida shunday qilib tejalgan pullarni o'z jig'ildoniga urmoqchimi? Kim biladi...

Shu sababdan ham dam olish kunlari o'quvchilar faqat ikkita joyda to'plana olar edilar, xolos: biri maktab bog'i bo'lib, bolalar bu yerda havo yaxshi va izg'irinsiz bo'lgan paytlarda oftobda isinar edilar, ikkinchisi—yarim vayron bo'lgan, devorini o't bosgan machitning yerto'lasi edi. Sovuq qattiq kelgan yillari uning yarmigacha zax bosgan devorlari yaxlardi. Ana o'sha yerda o'quvchilarni namoz o'qishga majbur qilar edilar.

Kecha Usmon Doruleytimdan kelgan, hammasi bo'lib o'n besh choqli bola bilan yarim xaroba machitning yerto'lasida uchrashib qoldi. Bolalar taxlab qo'yilgan eski gilam ustida sovuqdan titrab o'tirar edilar. Usmon bunday ishlarning butunlay man qilingan bo'lishiga va agar direktor buni bilib qolgudek bo'lsa, unga qattiq jazo berajagi va, hatto, ishdan ham bo'shatib yuborishi mumkinligiga qaramay, o'sha zahotiyoq o'quvchilarni izolatorga olib bordi va ularga arg'uvon daraxti bargidan qilingan choy ichirib, yotqizib qo'ydi. Shunga qaramay, ularning ikkitasi shamollab qolgan bo'lib, ularni izolatorda olib qolishga to'g'ri keldi. Agarda ular og'ir tortgudek bo'lsa, u vaqtda kasalxonaga jo'natishga to'g'ri kelardi. Usmon ularni ko'rib, gripp kasaliga yo'liqqanliklarini bildi. Usmon direktorning oldiga kirganda, bolalarni davolash, ularga banka qo'yish uchun javob olaman degan umidda edi.

Kechga qadar Usmon oshxonada kartoshka artib, bug'doy tozalash va idish-tovoq yuvish bilan ovora bo'ldi. "Ruxsat berasanmi yoki bermaysanmi?" derdi u o'zicha gapirib, kech kirishini kutar edi.

Kech kirdi, qo'ng'iroq chalindi. Oradan bir soat o'tgach, hamma uyquga ketdi. Maktab jimjit, qorli qish kechasi qo'ynida uxlardi. Usmon direktor kabinetining kalit teshigidan quloq solib tingladi.

Direktor bo'ydoq bo'lib, kechasi maktabda qolar edi. Xudoga shukurki, har gal juda kech yotadigan direktor, bu safar ancha barvaqt yotib olibdi. Uy ichi qop-qorong'i va jimjit edi. O'zida yo'q xursand bo'lgan Usmon qaddini rostlab, eshik oldidan ketdi.

Izolator ham qop-qorong'i edi. Usmon lampani yoqib, temir pechkaga o't qo'ydi. Bolalar isitma ichida yotganlari uchun Usmonning kelganini ham payqamay qoldilar. Usmon tezda shkafdan choynakni olib, to'ldirib suv quydi-da, ichiga bir chimdim arg'uvon bargidan solib, pechkaga qo'ydi. So'ngra javondan paxta axtarib topa olmadi, olib qo'yishibdi. U alam qilganidan qo'lidagi paketni g'ijimlab yerga tashladi. Ichiga yod quyilgan shishada ham hech narsa yo'q. Spirtdan ham juda kam qolibdi. Deyarli hamma bankalar darz ketib havo chiqadigan bo'lib qolgan, ikkitasigina butun edi.

Usmon buni avvaldan bilardi, lekin banka olish uchun maktabdan chiqa olarmidi? Chunki direktor Usmonni erinmay, tez-tez yo'qlab turardi. U bu ishlarning hammasini direktor qilganligi haqida, hatto, ko'ngliga ham keltirmadi. Endi u o'ziga kerakli narsalarning hammasini ham topadi. Uning ko'zi paxtalik ko'rpalarga tushdi. Yaxshi, paxtasidan olib ishlatish mumkin. Ammo yodni, bankani qayerdan oladi? U bo'sh karavotlardan birining ustiga o'tirdi. Xuddi chakkalariga mix qadalgandek boshi og'irdi. Peshonasini ter bosdi. Qozon-tovoq yuvaverib qo'llari shilinib ketgan edi. U shu shilingan qo'li bilan soqolini silagan vaqtda achishgani yanada ko'proq bilindi. Og'riq natijasida hadeb boshini chayqar va xayol surib o'tirar edi. Usmon kutilmaganda o'zining soyasiga diqqat bilan qarab qoldi. U qimirlar ekan, soyasi devorga sig'maydigan darajada katta bo'lib ko'rinar edi. Bahaybat soyasi qalbida qandaydir jasorat uyg'otardi.

U qat'iyat bilan o'rnidan turdi. Miyasiga darhol: "Rizqimni Xudoyim faqat shu maktabga boylab qo'yibdimi?" — degan fikr keldi. Ichki mahallalardan birida Hasna opa degan bir doya xotin yashardi. Usmon u ayolning taxminan yigirma choqli bankasi borligini esladi.

U qulog'ini ro'mol bilan mahkam bog'lab, keyin oq jun belbog'ini yechib, qaytadan beliga yaxshilab o'rab oldi-da, qorovul Sha'bonga sezdirmaslik uchun sekin-sekin yurib, maktabdan tashqari chiqib, qor bosgan ko'chalarga kirib ketdi.

Sha'bon juma oqshomlari tashqaridan bevaqt qaytadigan bo'ydoq o'qituvchilarni kutib kech yotardi. Usmon shoshilib tez

yo‘l yurganidan zo‘rg‘a nafas olar, qo‘llari sovuq qotib ko‘m-ko‘k ko‘kargan holda qaytib kelganida, Sha’bon endi darvozani bekitmoqchi bo‘lib turgan edi. U Usmonni ko‘rib birdan seskandi:

— Yuragimni yorib yubording, nima qilib yuribsan? Qayerda eding va qanday chiqding? Gapir! Kim senga maktabdan chiqishga ruxsat berdi? Qanday qilsam bo‘ladi yoki direktor janoblarini uyg‘otaymi?— dedi u.

U o‘zining ketma-ket bergan savollari bilan Usmonni gangitib qo‘ydi. Usmon qorovulning qo‘liga sekin o‘n qurush pul qistirdi. Qorovul uning qo‘lidan pulini olar ekan, mo‘ylovini silab:

— Mayli, bu safar indamayman. Bu ham bo‘lsa seni hurmat qilganligimdan, Usmon og‘o. Bundan keyin bunaqangi o‘n qurush bilan mening og‘zimni yopa olmaysan. Mayli, bor bo‘lmasa!— dedi.

Usmon izolatorga qaytib keldi. Pechka o‘chay-o‘chay deb qolgan edi. U pechkaga o‘tin qaladi. Uy hammomdek isib ketdi. Usmon yenglarini shimarib ishga kirishdi.

U bemorlarga banka qo‘ydi; ko‘krak va bellariga yod surdi, kigiz bosdi, so‘ng ko‘rpa bilan o‘rab qo‘ydi. Keyin ularga arg‘uvon bargidan damlangan choydan bir necha qoshiq issiq-issiq ichirdi. Bolalar Usmonning aytganini qilib, yuvosh qo‘ziday indamay yotardilar. Usmon ularning terlashini kutar edi.

Usmon eshikni qulfladi va chiroqning piligini pastga tushirib, bo‘sh turgan karavotga cho‘zildi. Shundan keyin yuragi biroz taskin topdi. U katta ishni qoyil qilib tamomlagan kishidek mag‘rur va xotirjamlik bilan shipga qarab yotar edi... Usmon o‘zicha, agar har kim meni bemorlarning oldidan olib chiqib ketishga urinsa, nima bo‘lsa bo‘lsin boshiga stul bilan tushirishga tayyorman, qani, tumshug‘ini tiqsin-chi! der edi.

U o‘rnidan turib, sigara o‘radi-da, yana yotib, shiftga tomon tutunini burqiratib cheka boshladi. Tezda u qopqog‘i ochiq qolgan pechkadan chiqayotgan yorug‘lik nuriga qo‘shilib qizarib borayotgan halqa-halqa tutun qo‘ynida ko‘milib ketdi.

Usmon dam o‘tmay sakrab o‘rnidan turib, uxlab yotgan bolalar oldiga keldi. U bolalarning hali terlamaganini ko‘rib, tashvish tortdi. O‘chib qolmasin deb pechkaga yana o‘tin qaladi va joyiga

kelib yotdi. Uy shu qadar isib ketdiki, hatto nafas olish ham qiyinlashib qoldi. Issiqdan juda qiynalgan Usmon deraza yoniga kelib muzdek oynaga yuzini qo'ydi.

Nihoyat tong ota boshladi. Qo'shni uylardan xo'rozlarning qichqirgan ovozlari eshitildi. Tashvishlangan Usmon o'rnidan sakrab turdi. Ehtimol, u qanday qilib uxlab qolganini sezmay qolgandir. U darhol bolalarga qaradi. Qarasa, ular shunday terlashibdiki, asti qo'yavering! Bolalarni rangi siniqib, lablari po'rsildoq bo'lib ketgan edi. Usmonning chehrasi ochildi. U xuddi charchamagandek edi. Miriqib kerishib qo'ydi. Bolalar ham unga minnatdorlik bilan qarab yotardilar. Usmon bolalarning egnilaridagi ko'ylaklarini yechib oldi va pechkaga qo'yib quritib qaytadan kiydirdi hamda choyshablarini almashtirib berdi. Na Usmon bir og'iz so'z so'zlaydi va na bolalar. Ular bir-birlariga tabassum qilib qarar edilar.

Usmon pechkaga o'tin qalab bo'lgach, o'rnidan turdi:

— Men hozir pastga tushib sizlarga issiq ovqat olib kelib beraman. Tag'in ustilaringizni ochib yubormanglar, sovuq yeb qolasizlar!.. — dedi.

Bolalarning harorati anchagina pasaygan edi. Ular anchagina tetik bo'lib, bir-biriga kulimsirab qaray boshladilar. Ammo qorinlari juda och edi. Usmon ko'p hayallamay qaytib kirdi. Eshik ochilishi bilan bolalar xursand bo'lib, o'z karavotlariga borib o'tirdilar. Usmon ikki ko'zi liq to'la o'tinli xurjunni yelkasiga ko'targan holda kirib keldi. Qo'lidagi patnisda ikki tovoq ovqatning bug'i chiqib turardi. Ko'zlarini katta ochib yutinganlaricha, tovoq atrofini qurshab olgan bolalarga:

— Bilaman, bu ochlik sabil kishining iligini quritib yuboradi. Olinglar, yenglar. Men oshpazga yog'liqroq qilib quyib ber degan edim. U ham shunday qilib quyib berdi, — dedi Usmon xursand bo'lib. — Ichida mushtday-mushtday katta go'shtlari ham bor. Xuddi ilikdek tomog'ingizdan liqqa o'tib ketadi.

Bolalar sho'rvaga non to'g'rab, ishtaha bilan yeya boshladilar. Usmon olib kelgan o'tinlarini karavot tagiga bekitib qo'yib, o'rnidan turganda, qo'li shimining cho'ntagiga tegib esladi.

— Ey esim qursin! — dedi.

Shimining cho'ntagidan yarimta limonni olib, tamaki yuqlarini puflab tozalagandan keyin, uni siqib suvini tovoqlarga tomiza boshladi.

— Bolalarga limon bermay, o'zlari yeyishadi,— dedi va karavotni ko'rsatdi:— O'tinni qayerga yashirganimni aytib yurmanglar, izolator uchun kuniga ikki quchoq o'tin beradilar. O'zlari esa ertalabdan kechgacha yoqadilar. Men buni sizlar uchun o'g'irlab olib keldim. Qachon sovuq qotsanglar, pechkaga tashlanglar...

Usmon juda charchagan bo'lsa kerak, bo'sh karavotlardan birining ustiga o'tirib, bolalarga indamay qarab o'tirardi. Uning ko'z oldida o'tirgan bolalardan birining boshidagi qop-qora va jingalak, ikkinchisining boshidagi sariq va mayin sochlarini hamda cho'pdek ingichka bo'lib ozib ketgan bo'yinlarini ko'rib, ko'ziga yosh oldi.

Bolalar ovqatlanib bo'lganlaridan so'ng, u tovoqlarni yig'ishtirib olib, xurjuniga solib qo'ydi. So'ngra chap qo'lida tovoq, o'ng qo'lida xurjuni, qulflab qo'yilgan eshikni ochdi-da, ostonadan bolalarga uzoq termilib qaradi va shunday dedi:

— Men qaytib kelarman yo kelolmasman, sizlar o'zlaringni shamollatib qo'ymanglar. Choynakda choy, shkafda qand bor. Tushki ovqatga palov bilan bulg'ur keladi. Men oshpazga aytaman, sizlarga go'sht solib beradi. U juda ochiqko'ngil odam. Sizlar bemalol dam olib yotaveringlar.

Bolalar ustlariga ko'rpalarini tortib, uyquga ketdilar.

Bu kun Usmonning hayotida yana bir baxtli kun bo'ldi. Oshxonaga kiraverishdagi zinada u Sha'bon bilan to'qnashib qoldi. Sha'bon direktor Usmonning izolatorga kirishini man etganligini yaxshi bilardi. U Usmonning qo'lidagi sumka bilan patnisni ko'rib, sekin so'radi:

— Buning nima, Usmon og'o? Izolatorga yana kirdingmi? Yoki direktorga aytaymi? Devorning qulog'i bor deydilar. Oyni etak bilan yopib bo'larmidi, Usmon og'o, xo'p, mayli, men aytmayman.

Usmon belbog'idan tamaki xaltachasini olib Sha'bonga uzatdi:

— Ma, xaltaning tamakisini bo'shatib ol! Men keyin kelib xaltani olib ketaman.

JANOZA

Uyning bor-yo‘g‘i bittagina panjarasi bor edi, uni katta ochib qo‘yishlariga qaramay, xonaning ichi juda issiq, havo dim va og‘ir. Xotin o‘ziga o‘zi: “Munchalik terlashiga qaraganda havoning issiqligi bejoroq ko‘rinadi”, deb qo‘ydi. So‘ngra kasalga tomon egilib, ko‘z yoshi va erining teridan ho‘l bo‘lgan ro‘molcha bilan uning peshonasini artdi.

Turib-turib beixtiyor xo‘rsinib yig‘lar, kasal faqat havoning issiridan terlamaganini yaxshi bilardi. Erining ko‘zlari bir nuqtaga xira tikilgan, kun o‘tgan sayin madorsizlanib borar, jon talvasasida ekanligi aniq edi.

Xotin o‘z turmushida, mana shunday bo‘lib o‘lgan ko‘p kishilarni ko‘rgan edi. Hozir o‘z erining boshqalar singari xor bo‘lib o‘lishini aqliga sig‘dirolmasdi. Uncha yaxshi eslolmasa ham, ammo ikkovlari o‘ttiz, balki qirq yildan beri birga turmush kechirib, birga azob va iztirob tortgan edilar. Eri qiyinchiliklarga chiday olardi. Umr bo‘yi yo‘qsizlikka tan berib, o‘z yelkasida uning og‘ir yukini ko‘tardi, ammo endi-chi... “Ey Tangrim! Men usiz qanday kun kechiraman?” Chol unga faqat er emas, balki gavjum bir oila boshlig‘i edi. Xotin uni otasi singari sevar, u ham xotinini xuddi onasidek ko‘rar, unga bir birodar, bir do‘st, bir hamdard kabi shafqat va muhabbat bilan qarar edi. Ammo eri keyingi vaqtlarda uni anchagina qiynab qo‘ygan, nimjon, injiq bolaga o‘xshab qolgandi. Xotin sapchib o‘rnidan turdi, eshik taqillatilmasdan ochilgan edi. Eshikdan sariq sochli, sariq pijama kiygan, oyog‘ida erkakcha shippak bir xotin kirib keldi.

— Ruqiya yanga, kasalning jon berishi juda cho‘zilib ketdi. Mahallamizdagi mayda bolalar qo‘rqqanlaridan kechalari uxlay olmaydilar. Bunday ingrab, oh-voh qilib yotgan kasalni uyda uzoq saqlash to‘g‘ri emas, qo‘ni-qo‘shnida “orom ham bo‘lmaydi” dedi.

Ruqiya barmog'ini og'ziga yaqinlashtirib, qo'shnisiga "jim" deganday ishora qildi. U kasalning jon berayotganini sezishi kerak edi. Oyoq uchida sharpa chiqarmasdan yurib, eshikka yaqinlashdi va pichirlaganday uzr so'radi.

— Kasalxonaga olsinlar deb qancha urinsam ham qabul qilmadilar, "o'rin yo'q" deb bahona qildilar. Undan keyin, o'zing bilasan, katta isyonga qatnashgandan keyin unga ish bermadilar... Oxirda shunday bo'ldiki...

Ammo qo'shni yosh bo'lgani uchun katta isyon to'g'risida bir narsa bilmas edi. Uni faqat keksalar bilar, birovga og'iz ochib, bu to'g'rida bir narsa so'ylashga botina olmas edilar.

Qo'shni xotin yelkasini qisdi:

— Bu so'zlarning menga hech aloqasi yo'q, bolalarim o'likni ko'rmaganlari uchun undan juda qo'rqadilar,— dedi.

Keksa xotin ikki qo'li bilan og'zini to'sib, qo'shniga sekingina bunday so'zlarni so'ylash munosib emas demoqchi bo'lib:

— O'lik dedingmi? Tirik-ku, ko'rmayapsanmi?— dedi.

— Tirik deysanmi? Ko'zlariga qaragin! Bir-ikki soatgacha tirik qolishiga ko'zim yetmaydi.

— So'zing to'g'rimi? Sen shunday gumon qilasanmi-a?

Ruqiyaning ko'zida qo'rquv va umidsizlik alomatlari sezila boshladi. Qo'shni xotin birdaniga yumshadi.

— Yangajon! So'zimga quloq sol, yig'lama. Hammamiz shu yo'lning kishisimiz. Qanday bo'lmasin yoshini yashab, oshini oshadi, uzun umr ko'rdi, balki saksondan oshgandir, shunday emasmi?

— Sakson yoshda deysanmi? Yo'q, uncha emas, bechora oltmish beshdan ozgina oshdi. Ammo buning nima ahamiyati bor! Yashadi, umr ko'rdi, ammo hozir jon berayotir. Kampirini musofir elda, begonalar orasida yolg'iz qoldirib o'layotir...

* * *

Ko'chada baqirib-chaqirib o'ynab yurgan bolalarning kulgilari, boshqa tomondan esa pashshalarning g'ing'illab uchishi sezilardi. Uy, xuddi egasi ko'chib ketganday huvillardi. Shu jimjit hovlining sakkiz xonasida sakkiz oila yashardi. Boshqa vaqtlarda bu hovlida

g‘alvadan turib bo‘lmasdi, ammo bugun ichkarida jon berayotgan kasalning tovushidan boshqa tovush eshitilmasdi.

Qo‘shni, bu holning tag‘in bir-ikki soat davom etishini so‘yladi. U Ruqiya seza olmagan narsani yaxshi sezgan edi. U begona bir xotin edi-da.

* * *

Ruqiya temir karavot yonida o‘tirib kasalga qarar edi. Endi avvalgidek uning peshonasida ter ko‘rinmas, yuzi tinchlangan va ulug‘ bir salavot bosganday rohatlanib uxlardi.

Ruqiya bezovtalanib:

— Ey erginam, bechora erginam! — derdi.

Birdan tikka turib kasalga yaqinlashdi, qaltirab, titragan qo‘llari bilan kasalning ko‘zlarini yumdi, so‘ngra qaytib kelib o‘z joyiga o‘tirdi, qimirlamasdan allavaqtgacha shunday o‘tirdi.

* * *

Eshik sekingina ochildi, eshik orqasida bir xotin qo‘rqqanidan baqira boshladi: “Ey Xudoyim! Ey ulug‘ Tangrim!” So‘ngra yugurgan kishining oyoq tovushi eshitildi, Ruqiya qayrilib qaramoqchi bo‘ldi, ammo boshi aylanganini sezib, kursining ustida mixlanganday qotib qoldi. Hayratdan yuraklari yorilgudek bo‘lgan qo‘shni xotinlarning rangi-quti o‘chib, g‘amli yuzlar bilan birinketin ichkariga kira boshladilar.

Xotinga yaqinlashib, uni ovutmoq uchun bir narsalar so‘ylagandan keyin, go‘yo yonlaridagi motamzada bechorani esdan chiqarganday suhbat boshladilar:

— To‘g‘risini aytsam, qutuldi, tortmagan azobi qolmagan edi, bechoraning.

— O‘zi ham yaxshigina pishib qolgan edi-ya...

— Ruqiya yangam endi biroz tinchiydi. Bu yoshdagi keksa xotinning ishlab, ikki kishini to‘ydirishi oson emas.

— Bir kasalni yaxshigina parvarish qilish uchun pul kerak, pul!

To‘satdan yosh bir xotin shovqin solib, gapga aralashdi:

— Qanday bo‘lmasin bir iloj qilish kerak, o‘lik bu kecha bu yerda qolmasin. Kun botmasdan ko‘milishi kerak.

Ruqiya bu so'zlarni eshitib g'ijindi. Boshqa bir xotin:

— Bemahal bo'lib qoldi. Peshin namoziga ulgurmaydi...

— Qaydam, Xudo asrasin, havoning issig'ida o'likni bolalar bor joyda uzoq to'xtatib turish yaxshi emas

U nariroqda turgan Ruqiyaga yaqinlashib:

— Singlim, Ruqiya, mening so'zimga quloq sol: g'aming og'ir, oson tutib bo'lmaydi, katta musibat, endi nima qilish kerak, erim o'ldi deb, odam o'zini o'ldirmaydi-ku. Sen kimsasiz bir mushtiparsan, shuning uchun, singilginam, eringning eng oxirgi xizmatini qilib, o'z xotinlik vazifangni bo'yningdan soqit qilishing kerak.

— Ha, albatta.

— Bo'lmasa tur o'rningdan, janozaning chorasini ko'rish kerak.

Ruqiya o'rnidan turdi, karavotga yaqinlashdi, erining qo'lini hovuchiga oldi:

— Yo'q, bo'lmaydi, qo'llari sovigancha yo'q. Uni bu oqshom uydan chiqarmayman.

Yosh xotin xuddi buyruq berganday qilib:

— Yo'q! Ruqiya yanga, o'likni bu oqshom bu yerda qoldira olmaysan, o'lgan o'ldi. Tirik qolganlarni, ayniqsa, yosh bolalarni o'ylash lozim, mas'um go'daklar qo'rqib, oqshom bilan uxlamay chiqadi.

Ruqiyaning ko'zlari yig'idan to'xtab, lablari quridi.

O'z-o'zicha g'uldiradi:

— Shunday bo'lsa, ayt, qani, nima qilayin?

— Borib mahalla qorovuli Hasan og'oni topishing kerak. U bir yo'l ko'rsatar, bunaqa ishlar uning vazifasi, bir necha qurush olaman deb har ishni qiladi.

— Juda ham charchaganman, qimirlashga holim yo'q.

— Hamshira, biroz g'ayrat qil, men o'g'limni yuborayin, doktorni topib kelsin, u kelib o'likni ko'mishga ruxsat beradi, ungacha sen ham borib Hasan og'oni toparsan.

* * *

Qorovul Hasan uyida yo'q edi. Ko'cha boshidagi choyxonaga chiqqandi. Ruqiya qahvaxonaga yaqinlashib so'radi:

— Hasan og'o shu yerdalarmi?

— Shu yerda, shu yerda. Karta o'ynayapti. Hasan og'o bu yoqqa qara, seni bir keksa xotin so'rayapti.

Ruqiya sekingina bir stulga o'tirdi. Qorovul o'yinini bitirgandan keyin unga yaqinlashib:

— Ruqiya yanga, nima gap bor? — deb so'radi.

Xotin hayron bo'lib unga qaradi:

— Sizlarga Xudo umr bersin, erim...

— Hay attang, Xudo rahmat qilsin, bechora, qanday yaxshi odam edi.

O'z ko'nglida har kishiga baqirib aytmoq istagani bu haq so'zni boshqa birovning og'zidan eshitib juda sevindi Ruqiya.

— Tetik bo'l, Ruqiya yanga, bechora qutulibdi. Keyingi kunlarda rosa qiynalgan edi. Maqsadni angladim, sen uyingga boraver, nima lozim bo'lsa men qilaman, xotirjam bo'l, erta peshin namozidan keyin jasadni chiqaramiz.

— Xudo sizdan rozi bo'lsin, bolam.

Bu so'zlardan keyin Ruqiya entikib qo'shimcha qildi:

— Bilasizmi, qo'shnilar o'lik bugun chiqsin deydilar.

— Bu mumkin emas, hozir vaqt kech bo'ldi. Peshin namozigacha machitga kelish mumkinmi? Shokir amakini kofir singari ko'mmaymiz-ku.

* * *

Qorovulning og'zidan chiqqan "kofir" so'zini u o'zicha o'ylay-o'ylay madorsiz, eriganday qadam bosar edi. Erining ruhini shod qilish uchun zamzam suvi izlab topishni o'ylash ham esiga kelmagan edi. Odam o'lganda o'qiladigan arabcha duolarni bilmaganidan, uning arvohiga bir fotiha ham o'qimagan edi. Shuning uchun hozir bir narsalar qilishi lozim edi... Juda ham dindor deb tanilgan otin Jamila esiga tushdi. Bu xotin Qur'onni hatm qilgan edi. Boshiga mushkul ish tushganlar unga yugurar edilar. Otin Jamila uning so'zini tinglagandan keyin:

— O'liklarning arvohiga duo o'qimoq musulmonchilikning shartlaridan biridir,— dedi.

— Xudo yorlaqasin seni.

— Shundayku-ya, ammo sening ering uchun bir narsa qilolmayman.

Ruqiya birdaniga o'zini yo'qotganday bo'ldi:

— Nega?

— Sababi shuki, mening haqqimni to'lashga puling yo'qligini so'ylading.

— Shundayku-ya... ammo...

— Nasiyaga duo o'qib bo'lmaydi. Qarzdor kishi arvohni tinchita olmaydi.

— Ammo shariatimizda halol degan bir narsa ham bor-ku. Duoni o'qigandan keyin, Xudoning huzurida, birovdan bir narsa so'ramaganingni so'ylasak, u arvoh sendan qarzdor bo'lmaydi. Kelasi hafta pulingni beraman.

— E badbaxt xotin-ey! Musibat sening aql-u hushingni olib qo'yibdi. Sen meni imonsiz deb o'yladingmi? Xudodan hech bir narsani bekitib bo'ladimi?

— Men senga Xudoni alda, demadim-ku...

— Sen uyingga bor, menga rahmatlikning kiyimlarini keltir.

Ruqiya boshini egdi:

— Kamzulini bir kun avval qarzga berdim, shimini bo'lsa, bechoraga bir sho'rva qilib berayin deb sotdim.

— Hammalaring, bir-biringning boshiga uradigan, bir-birovlaringdan battar kishilarsizlar, narigi dunyoni sira o'ylamaysizlar.

— Ammo juda og'ir kasal edi, keyingi kunlarda terisi bilan suyagi qoluvdi, xolos.

— Sho'rvang uni o'limdan qutqara oldimi? Qutqara olmadi, shunday emasmi? Ammo duo ruhini azobdan qutqaradi, anglaysanmi?

Ruqiya kissasidan yigirma besh qurushlik pul chiqarib yalingansimon:

— Hozircha sen shuni ol, keyin tag'in ko'ramiz...— dedi.

— Bu nimasi! Nima demoqchisan? Hech jahonda yigirma besh qurushga ham duo o'qiladimi? Bu pulga odam o'likning boshiga yoqish uchun ikkita ham sham ololmaydi.

Ha, shunday, aytmoqchi, sham ham olish kerak, ammo bu Ruqiyaning esiga ham kelmagan edi.

Ko'chaning muyulishidagi baqqol dindor, musulmon odam deb tanilgan bir kishi edi. Har juma kuni machitga borib turar, namozini kanda qilmas edi. Ruqiya olmoqchi bo'lgan shamlarini do'kon peshtaxtasining ustiga qo'yib turganda, do'kondor:

— Ruqiya yanga, bu shamlarni nima qilasan?— deb so'radi.

— Erim uchun olayotirman.

Baqqol voqeani anglagan edi, hovuchlarini kattaroq ochib:

— Xudo rahmat qilsin!— deb fotiha o'qidi.

Ammo yigirma besh qurushni ko'rar-ko'rmas duosini unutdi va:

— Tag'in yigirma besh qurush berishing kerak! — dedi.

— Ertaga olib kelaman.

Baqqol shoshilib peshtaxta ustidagi shamlardan birini olib qutiga solib qo'ydi. Undan keyin:

— O'lik boshiga nasiya sham yoqish gunoh bo'ladi! — dedi.

Ruqiya bir sham bilan uyiga qaytib keldi.

* * *

Uyga qaytganda qo'shnilari uni zina ustida to'planishib kutar edilar, ulardan biri:

— Doktor kelib ko'mishga ijozat berdi, Hasan og'o keladimi?— deb so'radi.

— Yo'q, bugun kech bo'ldi, ertaga kelar emish.

Ruqiya ichkari kirib eshikni yopdi va karavotga yaqin kelib, tiz cho'kdi. So'ngra qo'llarini yuqori ko'tarib:

— Xudoyim, sen mening bechora va benavoligimni bilasan, xatmi Qur'on qilishga pulim yo'q, uning joyini jannat qil deb senga yalinaman. Chunki u bir yaxshi odam edi. Ham menga va ham boshqalarga yaxshilik qildi. Hayotni sevar, o'z ishini sevar edi. Mehnat tufayli insonning saodatga erisha olishiga, boshqalari to'sqinlik qilmasalar, tag'in ham yaxshi bir turmush qurish mumkin ekaniga ishonganicha dunyodan shunday o'tdi. Jasur, yaxshi niyatli, kelajak umidi bilan yashagan bir kishi edi. U sening rahmatingga loyiq bir kishi. Uzoq yillar u bilan birga turmush kechirgan xotin bo'lishim bilan men undan dunyo-yu oxirat roziman.

Ruqiya ko‘z yoshlarini oqizib quritdi, qo‘llari titrab o‘rnidan turdi. So‘ngra bir shisha olib, shamni uning og‘ziga qo‘ndirib yoqib qo‘ydi.

* * *

Uyga hech quyosh yorug‘i kirmasdi, xona hali ham qorong‘i edi. Shamni yoqdi, uni qayerga qo‘yayin deb birpas ikkilandi. Boshining o‘ng tarafigami, yoxud chap tomonigami yoqib qo‘ysa yaxshi bo‘lar ekan? Shamni o‘ng tomonga qo‘yib, o‘zi karavot yonidagi kursiga o‘tirdi.

* * *

— Shu vaqtgacha Hasan og‘o kelmadimi?

Eriga tikilib o‘tirgan Ruqiya tovush kelgan tomonga qaradi. Sham o‘chgan, tong oqargan edi. Qo‘shnilar allaqachon turib, tor uyga kira boshladilar. Kelganlardan birisining qo‘lida bir bardaqda qahva bor edi:

— Ruqiya yanga, shuni ich, biroz yuragingga quvvat bo‘lsin,— dedi.

U qo‘l ishorasi bilan qahva ichmasligini bildirdi:

— Tashakkur etaman.

— Yo‘q, yo‘q, bo‘lmaydi!

Boshqa biri qo‘shimcha qildi:

— Endi hozirlanishing kerak.

Oqshomlik sariq kiyim kiygan xotin:

— Endi ko‘p cho‘zmasdan bu ishni tugatish lozim, bolalarim qo‘rqqanlaridan kechasi bilan mijja qoqmay, yig‘lab chiqdilar.

— Nimadan qo‘rqdilar, shu jonsiz bechora choldanmi, uning qo‘lidan nima ham kelar ediki... Tong otguncha, menga bir og‘iz so‘z so‘ylarmikin deb yalindim, Xudoning zorini qildim, og‘zini ochmadi. Har narsa, har ish bitdi endi.

— Hasan og‘o nega kelmaydi? Balki pul masalasida kelisha olmagandirsizlar? Necha pul istadi?

— Pul to‘g‘risida so‘zlashmadik.

— Ha, demak, shuning uchun kechikkan u. Ruqiya yanga, borib, uni topishing kerak.

* * *

Hasan og'o unga:

— Shokir amakining janozasi peshindan keyin chiqadi. Qassobning qaynanasi o'lgan, hozir borib uni ko'mib kelamiz. Peshin namozida janoza o'qiladi. — So'ngra kechirim so'raganday kulimsirab qo'shimcha qildi: — Achchig'ing chiqmasin tag'in Ruqiya yanga, o'zingga ma'lum bo'lsa kerak, bizning mahallada o'ziga tuzuk kishilar har kun o'lavermaydi, shu payt menga g'animat. Sendan o'n besh liradan ortiq so'rashga og'zim bormaydi. Ammo, qassob masalasiga kelsak, ish boshqacharoq bo'ladi, tushundingmi?

Keksa xotin hayron qoldi:

— O'n besh lirami?

— Mayli, bo'lmasa, bu ishni o'n uchga tushiramiz. Ahvoling uncha yaxshi bo'lmaganini bilaman, yanga,— dedi.

— Xudo xayringni bersin.

* * *

Ko'zini ochganda qayerda ekanligini o'zi ham yaxshi bilmas edi. Atrofini qurshagan xotinlar unga suv berib, qahva ichirishga urinmoqda edilar, ammo u qo'l ishorati bilan hammasini rad etib, bir og'iz ham so'z so'ylamas edi. Jin chalganday buralib, tovlanib, na so'z so'ylay olardi va na bir narsa o'ylay olardi. Uyning ichida oyoq sharpalari, bolg'a taqillashi va erkak kishilarning tovushlari eshitilmoqda edi. Ular zinalardan chiqib-tushib turar edilar. Uyni xotinlar o'rab olgan edi. Ular goh pichirlashib, goh shang'illashar, tashqari chiqib, tag'in qaytib kirardilar.

So'ngra bir narsaning g'ijirlashi eshitilib, zinalarda yana oyoq tovushlari sezildi. Erkaklar ketib, xotinlar keksa tulning oldida qolgan edilar.

Eski odat bo'yicha xotinlarning janoza orqasidan ergashishlari munosib emas edi. Ruqiya aqli-hushini to'plab bir silkindi, o'zicha: "Umr bo'yi hech bir orzum ro'yobga chiqmadi, boshqalarning qilgan ishlari menga bir tushday ko'rindi. Endi bo'lgani bo'ldi, eng keyingi birgina orzum panjarani ochib, yoshli ko'zlarim bilan murdani nazarlardan g'oyib bo'lguncha kuzatmoq va boshqa tul xotinlar

singari: "Meni qoldirib qayerga borayotibsan?" deb ovozim boricha baqirmoq va o'ksib-o'ksib yig'lamoqdan iborat, baxtiyor bo'lishga haqqim yo'q edi, endi bo'lsa, yig'lamoq, erimning janozasi orqasidan sochim va yuzimni yulib baqirmoqqa haqliman", der edi.

Tentirab, yiqilib, turib panjaraga tomon yugurdi. Panjara anchagina narida edi, u bo'lsa butunlay ezilib bitgan edi, ko'ziga u yerga yetish juda qiyin ko'rindi. Chindan ham panjara ancha uzoqda edi. Ularning hayotlarini bir-birovlariga boylagan kun ham ko'p uzoqlarda qolgan edi. U kunni juda yaxshi eslar edi: boshqa yosh qizlar singari u ham oq kelin kiyimi kiyishni, boshiga gulchambar taqilishini o'ylagan edi, shunday bo'lishi kerak bo'lsa ham, ammo kelin bo'lgan kechasi simob rangli g'ijimlangan ko'ylakdan boshqa kiyadigan narsasi yo'q edi.

Do'mboq, yonoqlari qip-qizil, qo'g'irchoq singari bolalari bo'lishni orzu qilgan edi. Qo'g'irchoqdek bolalar tug'ildi, ammo ular xuddi mumdan yasalgan qo'g'irchoq singari ranglari so'lg'in va quti o'chgan edi.

Hozir bolasi yo'q, hammasi o'lib ketgan edi. Eri uchun esa alohida va davomli bir ish topilishini tilagan edi. Ichida ertaga nima bo'lar ekan, degan qo'rquv bo'lmagan bexavotir turmushni orzu etgan edi. Faqat bularning hammasi bir xayol, hech bir vaqt amalga oshmagan shirin tush bo'lib qola bergan edi. Dunyo va zamona uni butun orzu va tilaklaridan mahrum etgan edi. Hozir o'rtada tiriklik emas, bir o'lim bor. O'lim oldida butunlay boshqa turli harakat etish kerak edi.

* * *

Panjarani ochib ko'nglidagi butun alam va hasratlarini hayqirib aytish uchun egildi. Ammo tobutni ko'rgandayoq, faryodi lablarida muzlab qoldi:

— Ey Xudoyo, bu nima gap, bu qanaqa tobut?

— Tovushingni chiqarma, jim tur, Ruqiya yanga, machitda g'arib-bechoralarga atalib yasalgan tobut. Shokir amakining uzun bo'yiga mo'ljallangan emas-ku... kaltalik va torlik qilishi turgan gap... O'lik tobutga sig'sin deb, bir tarafining taxtasini ko'chirdilar, shuning uchun oyog'i tobutdan sollanib borar edi.

Ruqiya erining oyoqlariga qarab baqirdi:

— Ey Xudoyim, o'zing rahm qil!

Tobutni tor ko'chadan to'rt kishi sekin-sekin ko'tarib o'tayotgan edi. O'likning oyog'i eng keyingi salomini berayotgan bir odam qo'li singari, uni ko'targanlarning yurishlariga moslangandek, tinmay qimirlar edi.

* * *

Kampir eng keyingi orzusini ham bajo keltira olmadi: baqirolmadi, dard-u alamini bo'zlab, dunyoga yoya olmadi, tobutdan chiqib turgan bu oyoqlarni ko'rgandan keyin, tomog'idan oh-u fig'on o'rniga, qahqahalar otila boshladi, o'zi to'xtovsiz kular edi... Burishib terisi suyakka yopishgan qo'llarini eri bilan xayrlashish uchun qimirlatar ekan, qahqahalari ko'chani to'ldirib yangrar, ko'zlaridan duvillab to'kilgan yoshlar daryo bo'lib oqib tushmoqda edi.

O'G'LIMIZ

Xotinim g'ira-shira ko'rina boshlagan deraza tokchasi oldida o'tirardi. Butun kechani o'sha joyda o'tkazibdi bechora.

"Sen shu paytgacha yotmadingmi?" — dedim.

Qaddini rostladi. Kulrang deraza tokchasi yonida bor-yo'g'i bir ko'lankadan iboratdek ko'rinardi. Ammo bu ko'lankada birga o'tkazgan yigirma yildan ortiqroq umrimizning har bir kunidan nimalardir bor edi.

"Azon o'qilyapti," deya pichirladi u.

Ovozida qandaydir mahzunlik bor edi. Go'yo uyimiz bu dunyodan batamom olislab, hatto his-tuyg'ular ham yetib bora olmaydigan darajada uzoqlab ketgandek edi. Go'yo xotinim Qur'onda va'da qilingan saodatni behuda kutayotgandek edi. Yurish-turishlarida botiniy mag'lubiyatning mahzun sukunati sezilardi. Oshxonaga o'tdi. Uni go'yo tushda ko'rayotgandek edim. Sandal va pechkaga ko'mir solgandan keyin tahorat olishga chiqdi. Keyin joynamozni solib namozga turdi.

Derazadan tong oqargani ko'rina boshladi. Rangsiz, sokin va salqin sahar pallasi. Yotoqning iliqligi, lohas tuyg'ular, ayqash-uyqash o'ylar... Xayollarim parishon bo'lgandi.

— Voy tavba-yey...

— Ha, nima gap?

— Keldi...

— Shukr, nihoyat kepti-ku...

Ammo masala faqat shundan iborat emasdi. Xotinim meni bunga umuman e'tibor bermaydi deb o'ylaydi, chamamda. O'zi aytmasa ham xafa bo'lganini sezaman.

— Indamay o'tiraverasizmi? Axir bu uchinchi marta qaytarilyapti...

— Xo'sh, nima qilay, aytgin?

Nima qilish kerakligini haqiqatan bilolmayman. Ammo unga: "Erta-perta o'zim gaplashib qo'yaman, " — deyman chor-nochor.

Qachon keladi o'sha ertangi kun?.. Osmon tiniq moviy tusga kirgan edi. Kun, yashashimiz kerak bo'lgan yana bir yangi kun boshlanmoqda. Xotinim haqli. Bu muammoni tezroq hal qilish kerak. O'g'lim yotog'iga amal-taqal kirib bormoqda. Unga bu ishlarning abasligini tushuntirishim kerak. Buning behuda isyon ekanligini anglatmog'im lozim. Yotoqdan sakrab turdim. Xotinim bezovtalanib:

— Qattiq gapirib yubormang-a, dadasi. Nima bo'lgandayam endi...

Davomini aytolmadi. Unga tikildim. Ko'zlaridagi ma'noni anglash mushkul edi. Oh, o'zimning oy yuzli, qora sochli bolam-a... Eshikka yaqinlashganimda xotinim yelkamga choponimni ildi.

* * *

Xonasi binoning kungay tomonida edi. Derazasi kenggina bog'ga qaragan. Qarshidagi uy ortidan ko'tarilayotgan quyosh nuridan devorlar sarg'ish-pushti tusga kirgandi. U uxlab bo'lgandi. Kiyimlari stol ustida pala-partish sochilgan... Pijamasining ustini kiymabdi. Yotog'ining yonboshiga ohistagina o'tirdim. Ichimda g'alati hislar g'ujg'on edi. Unga qaray olmasdim, ammo ichim u bilan to'lgan edi. Xuddi ancha oldin bir marta bo'lgani kabi. U paytlar kichkina bola edi. Terlamaga chalingan, isitmalab alaxsirardi. U buni hozir eslamaydi, albatta...

* * *

Fevralning qorli bir tunida tug'ilgandi... Otamning qo'liga tutqazganimda butun vujudimni g'alati hissiyot qoplagan edi. Unga ism qidirganimda muazzam qomus menga bo'm-bo'shdek tuyulgan edi. Unga eng chiroyli, eng jarangdor va koinot kabi purma'no ism qo'yishni xohlardim. Alohal Umar deb ism qo'ydik. Bu ism unga juda yarashgan edi. Uning ismida tarix sahifalariga bitilgan barcha Umarlarning iqbolini ko'rardim.

Ilk kulishi... Ilk tishi chiqqan kun... Birinchi bor talaffuz qilgan so'zi... Onasiga tomon, yosh, go'zal va behad baxtiyor onasiga tomon tashlagan ilk odimlari... Keyin yettiga to'lgan kun... Maktab-

ga olib borganimda rosa yig'lagan edi... Go'yo dunyosiga uydan boshqa joyni qo'shishni istamayotgandek yig'lardi. Biroq bundan qochib bo'lmasdi. U ham boshqa bolalar kabi ko'cha, maktab va bozor orasida kun sayin qat'iylashadigan umrga mahkum edi.

O'n to'rtinchi yosh. Qaysarliklar, ishtahasizliklar... Bizga yangi bir sherik, sheriklarning eng yengilmasi... Xotinimning tugamas tashvishlari va mening ilk qayg'ularim... Avval maktabni, keyin universitetni tamomladi. O'sha paytlari uni biroz bo'lsa-da kam-ko'stsiz yashasin deya xotinim to'yidan yodgor uch-to'rt taqinchog'ini sotgandi... O'shanda u birinchi muhabbatining shafqatsiz yakunidan sarosimaga tushdi, bizni ham rosa parishon qildi.

Shu tariqa biz unga bor-budimiz bilan bog'lanib qolgandik, dunyomizning bus-butun hududi u bilan edi.

"Sen bizdan birdaniga uzoqlashib ketding. Muhabbatimiz ortgani sayin sen bizdan siqilaverding. Men buni ilg'ardim. Biz seni asragimiz-avaylagimiz kelardi. Sen esa "o'z holimga qo'ymayapti" deb o'ylading. Ammo onang... Men bilardim. Sen endi xonangni bezaklari, hatto uyni ham umuman yoqtirmay qolganding... Uchishni o'rgangan palaponday ko'zingni boshqa shoxlarga tikkanding. Ehtimol, ertangi kun haqida o'ylayotgandirsan, hashamdor uy, keng xonalar... Hatto bizga atalgan xonani ham unutmagandirsan, bunga imonim komil. Lekin menga shu yer yetadi, o'g'lim... Boshqa joyning keragi yo'q. Biroq onang... Buni sen ham yaxshi bilasan, ba'zi-ba'zida ukalaringni qanday o'qitishing, biz uchun nimalarni orzu qilganingni to'lib-toshib aytib berasan. Faqat nega bir-birimizdan yashirishimiz kerak?! Sen orzularingni aytayotganingda ovozingda titroq paydo bo'ladi, bo'g'zingga nimadir tiqilganday bo'ladi... Chorasizlik degan baloning azobi shunchalik og'ir bo'ladimi, bolam... Ammo sen bu narsalar uchun o'zingni qiynama. Qo'lingdan kelganini qilyapsan, hayot degani shunday ekan, na chora...

Eh, shu zormandaga bunchalik ruju qo'yganingni yaxshi tushunaman. Mubtalosiga aylanmasligingga ham ishonaman... Ammo onang... Yana... Yana tashqarida nima qidirayotganingni ham, uyda o'tirolmasliging sababini ham juda yaxshi bilaman. Balki biror betayin g'alchadir. Men ularni malomat qilmoqchi emasman.

Mushtipar onang shunaqangi betayinlarning bittasiga ilakishib qolishingdan qo'rqib yuragini hovuchlab o'tiradi. Ozroq hayallab qolsang vahimaga tusha boshlaydi. Ko'z qamashtiradigan ko'cha va tungi klublarni bir zumda ertaklardagi yalmog'izlar yashaydigan g'orlarga aylantirib yuboradi o'zicha.

Ammo bu gaplarning nima keragi bor? Go'yo sen bularni bilmaydigandek aljirashimni qara... Shu narsalar tufayli qanchalik qiynalayotganingni bilmaymanmi? Sen bizga e'tibor qilma. Hamma ahmoqlik bizning o'zimizda. Go'yo biroz betob bo'lishingni kutayotganga o'xshaymiz. Har doim bizga eng yaqin bo'lgan kunlardagidek qolishingni xohlayapmiz. O'zgarishing mumkinligini tan ololmayapmiz. Bor gap shu, xolos, bolam. Mana shuning uchun ham senga tik qaray olmayapman, yuzimni sen tomon o'gira olmayapman. Onang ham shunday. Hozir biz seni uyg'otolmaymiz. Chunki tan olishga irodamiz yetmasa ham bilamizki, endi sening uxlashing ham o'zgargan. Avvallari bizni kutayotgandek uxlarding. Ha, o'g'lim, endi uyqung ham o'zgargan. Hatto asl o'zgarish uxlashingda bo'ldi. Sen uyqularingda ham bizdan uzoqlashding, bolam..."

Boshimni o'girib, unga boqdim. Qararkanman, bodli qo'limga jon kirgandek bo'ldi. Ichimga birdaniga yorug'lik kirganday yengilladim. Go'yo ko'p yillardan beri qidirayotgan qadrdonimni, sirdoshimni topgandek edim. Tonggi oftob nurlari uni bezovta qilmasin deya deraza pardalarini tortdim. O'zimnikiga o'xshagan qalin va qora soqolli yuzidan sekingina o'pib tashqariga chiqdim.

Nonushta payti xotinim hamishagiday o'yga tolib o'tirardi. Men esa kichik o'g'limning choyiga uni yoqtirmasligini bilganim uchun sekingina ko'rsatmay limon siqib qo'ydim.

QURBON

— Sanam, qizim, yana bir cho'mich ber shu sho'rvangdan. Juda mazali bo'pti, qo'ling dard ko'rmasin.

Sanam — bahor xabarchisi sovuq peshin pardalar orasidan kirgan oqshom quyoshida qor va shamoldan endigina bosh ko'tarib chiqqan boychechak edi. Harakatchan, ammo nozik. Hoji bobo-ning maqtovi bilan yonoqlariga qon yugurdi. Kandakori patnisga chiroyli qilib terilgan chinni kosalar qizg'ish mis rangida tovlanardi. Kosalarning yaltiroq gullari, qush rasmlari, turli-tuman naqshlar, ayniqsa, ularning rangini ayting... Yana Hijozdan keltirilgan xurmolar... Zaytun moyida sho'rva, kotlet pishirgan, pashmak holvayam tayyorlab qo'ygandi. U Hoji bobo-ning kosasiga cho'mich-ni bo'shatayotganida uch yil oldin "yuz ko'rar"da taqilgan oltin bilaguzuklari yengilgina jiringladi.

— Osh bo'lsin, Hoji bobo, — dedi tabassum bilan. Kulimsirashi bir muddat lablarini tark etmadi: — Xush kelibsiz.

Uning qarshisida qayinsinglisi qora ko'z, qora libosli Xotun quyoshga ters holda o'tirgandi. Yuzi kasalmand odamnikidek suzilgan edi. Terisi eniga yetmayotgandek ko'rinardi. Ko'zlarini qisdi, ro'molini yaxshilab siqdi. Etagini tizzasidan pastga tortib tuzatgan bo'ldi. Sanamning tabassumi g'oyib bo'ldi. Qo'lini qayerga qo'yishni bilmay kalovlandi. Keyin tizzalari orasiga qo'yib o'yladi: "Xotun qora bulut go'yo, u tomonda haliyam qish".

— Har doim aytaman-ku, — dedi Hoji bobo sho'rvaning bug'idan titragan mo'ylablarini qo'li bilan artib. — Doim aytaman, Sanam qizimni qo'li juda shirin deb. Qachon kelsam turli-tuman ajoyib taomlar pishirib qo'yadi oldimga...

* * *

Hoji bobo o'tgan safar arafa kuni kelgan edi. Qo'chqorning shoxlariga taqinchoqlar taqishgandi. Ko'chadan olib kelayotgan-

larida bolalar qiziqib atrofidan ketmagandi. Har yerda qizil tasmalar hilpirar, atrof bayramona bezatilgan edi. Havolar salqin, hammasi yaxshi edi. Har doim shunday, deb o'ylardi qariya. Har doim Ismoil keltiradi, Sanam pishiradi. Butun oila jamuljam bo'ladi doim. Hoji boboni hamma birgalikda kuzatishgandi.

— Senga nima olib kelay, Sanam qizim? Aytaver, tortinmagin, xo'pmi! Xurmomi yo atir? Uyalma. Qara, hammalari bir nimalar aytdi, faqat sen aytmading.

— Sog'-omon borib kelishingizni tilayman. Yo'lingiz ochiq bo'lsin...

* * *

— Bu nima deganingiz ota? Albatta pishiradi-da, — deya boboning so'zini bo'ldi Xotun. Hojini kutib olish oson ish ekanmi? Rahmatli onaginam hayot bo'lganlaridami... Ha, pishirish ham ish bo'ptimi? Asl ish degani...

Sanamning yuzi-ko'zi qip-qizil bo'ldi, tinib qoldi. Xotunga jon kirdi, o'ynoqi to'qlidek joyida o'tirolmay qoldi. Ham chaynalar, ham nimalarnidir pisanda qilgisi kelar edi. Sanam egachisining yuziga tashvish-la boqdi.

Hoji bobo qizining nima deyayotganini tushunolmadi. Nondan kattaroq burda sindirib sho'rvaga botirdi. Keyin og'zining ikki chetidan toshgan nonni barmoqlari bilan ichkari itardi.

— Hoji bobo, zaytun yog'i ham qimmatlashib ketdi.

Shu paytgacha lom-mim demay o'tirgan Usmon afandi xotini ochgan mavzuni davom ettirdi. O'ziga qolsa, indamasdi. Ammo xotini qayta-qayta tayinlagandi: "Otamga, albatta sezdirib qo'yishimiz lozim!"

Hoji bobo indamay kotletga qo'l uzatdi, bir dona oldi, eshitmadi chog'i. Usmon afandi eshikka tashvishlanib bir qarab qo'ydi-da:

— Zaytun yog'i ham qimmatlab ketdi, deyman, — dedi.

Hoji bobo uncha ahamiyat bermagandek ohangda: "Ha, to'g'ri aytasan, o'g'lim, ammo qimmatlashsa dehqonlar ham foydasini oladi-da. Qimmatlashmasa pul aylanmaydi, shundaymasmi? Bu xalq boshqa qayerdan topadi pulni?" dedi.

Usmon afandi shu tobda botayotgan quyosh nuri ostida ancha keksa ko'rinardi. U Xotunga boqib, istamaygina gapini davom ettirdi:

— Yaxshi-ku, lekin xalq deganingiz ishlamasa pulni qayerdan topadi? Dangasalikdan osoni yo'q. Qarang, har kuni do'konda oqshomgacha tik turib jonim chiqqudek ishlayman. Oziq-ovqat yaxshi ketmagan paytda hatto ayollar paypog'ini ham sotdim. Soch sovuni deysizmi, nima so'rashsa o'shani topib sotdim. Bir zum o'tirmadim erta-yu kech. Bizniki jon emasmi?

— Eh, nimasini aytasiz! — dedi Xotun. Ovozi qoyalarga urilib qaytgan dengiz suvidek yumshoq, muloyim jarangladi.

— Ish deganing hamma joyda ham shunday emasmi? — dedi Hoji bobo quloq osmasdan. — Sanam qizim, zaytun yog'idan ozroq to'k.

Usmon afandi nochor vaziyatga tushganidan alami kelib yutindi. Xotunga qaramay yana gap boshladi:

— Qizingiz Xotunni menga berganingizda kim edim, Hoji bobo? — dedi. — Bor davlatim otamdan qolgan kichikkina do'konim edi. Torgina...

Yana yutindi. Haqiqatan boshqa yana nimasi bor edi? Hozir ikki mingni indamay qarz berdi Hoji boboga. Kim beradi hozir shuncha pulni? Aytishga oson. Qaytdi, ziyofatini yana boshdan oxir o'zi ko'tardi. Nomi qarz, ammo Hojidan so'rab bo'larmidi? "Eshit, Usmon afandi", — degandi Xotun: "Qarz berish savobdir. Ayniqsa hojiga. Ham farzandimiz yo'q. Qarz yarim farzand, degani. Otamning shundoq ham bir oyog'i go'rda. Qishloqda dalasi bor, o'lganda..." Usmon afandiga qolsa, o'shancha pulni Ismoilga berardi, foizga. G'azabi bo'g'ziga tiqildi:

— ...Kichik bir do'kon, uyam bo'lsa torgina...

— Burchakda edi lekin, — so'zga aralashdi Hoji bobo.

Usmon dovdirab qoldi. Birdan yurishni eplolmaydigan dorboz holiga tushdi.

— Burchak, markazda, yaxshi sotiladi deyishadi, bekor gap! — dedi Usmon afandi baland ovozda. — Nimagadir erishish uchun ishlash kerak. Ishlamaganni Olloh ham bandam demaydi.

— Olloh harakat qilganga beradi, to‘g‘ri aytasan, o‘g‘lim Usmon afandi, — dedi Hoji bobo. — Ham ishlaganni, ham rizqini ishlab topganni sevadi Xudo.

Qariya yana uzanib bir dona kotlet oldi. Yengillagandek bo‘ldi.

* * *

Bobo o‘tgan safar bayram arafasida kelgandi. Qurbonlik qo‘chqorlar atrofida bolalar qiyqirib o‘ynashgandi. Havo ham yaxshi edi. Bayramlar doim shunday bo‘ladi, deb o‘ylagandi. Keyin qon oqizildi, izlar yuvildi, ming shukr! Negadir yomg‘ir tinmadi o‘shanda. O‘sha yomg‘irli kunlarda Ismoil butun kun ish qidirish bilan ovora bo‘ldi. Har oqshom charchab, ezilib, bir ahvolda uyga qaytardi. Yo‘q! Kirmagan eshigi qolmadi: “Bizning hunar o‘lib boryapti, Sanamim. Ammo men bo‘sh kelmayman, boshqa ishga kirmayman. Qanchagacha chidasak ham...” Qozonda sho‘rvadan bo‘lak ovqat qaynamasdi. Mayli-da, issiqqina, odamga ishonch bag‘ishlaydi. Dasturxondan turiboq, kandakorlik ustaxonasiga o‘tadi. “Men harakat qilsam isinaman, Sanamim, sho‘rvani issig‘i birpasda ketadi, sen pechkani yoq”. Ko‘mir ozgina qolgandi.

— Chidamaydi deb o‘ylama, tag‘in, — dedi Sanam. — U oson, nima demoqchi edi. Men Usmon afandidan surishtirib ko‘rdim. Balki dedim... Bilmadim, balki undan...

— Yosh bolamisan, Sanam? Usmon afandi alvasti Xotuniga nima deydi?

— Otangdan so‘ra, bo‘lmasa. Berar, uch-to‘rt tanga. Kichkina bo‘lsayam bir do‘kon tutsang, yetib ortadi bizga. Qo‘ling gul, tezda qaytaramiz, axir.

— Otamni bilasan-ku, Sanam! Na eshitadi, na yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

— Seni yaxshi ko‘radi-ku.

— U boshqa masala.

Sanam sovuq peshin mahali eri och-nahor holda katta umid bilan ishlagan naqshinkor, bir-biridan nafis, qirmizi kandakorilar ustiga qo‘yilgan taomlarga, o‘z qo‘li bilan pishirgan yeguliklarga parishon bo‘lib boqib o‘tirdi. Bir luqma totib ham ko‘rmagandi. Ko‘ngli ozdi. “Ismoil kelaqolsa edi. Achchiqlanmasa bo‘lgani. Oz-

.....

So'fiy, tinchliksevar, og'ir-bosiq podshohning ulkan davlatining miyasi bo'lgan devon ahli o'ylay boshladi.

Yetti yildan keyin ilohiy taqdir sababli "yovuz" otini ko'targan, har qanday mag'rur kishini, har qanday jinoyatchini bir lahzada-yoq sindiradigan badfe'l Ismoil Safaviyga elchi yuborilishi kerak edi. Shahzodaligida vaqtini ot minish, jirit o'ynash, qurol emas, kitob o'qish bilan o'tkazgan Boyazid Vali juda yumshoq tabiatli edi. Faqat she'r, hikmat, tasavvufni xush ko'rar, urush, jangdan nafratlanar edi.

Vazirlar suyukli podshohlarining huzur-halovatini buzmaslikni eng katta vazifalari deb hisoblashardi.

Shu bilan birga hududlarda bo'layotgan g'avg'olarning keti uzilmasdi. Bosniya, Afloq, Qoramon, Belgrad, Transilvaniya, Xorvatiya, Venetsiya yurishlari ketma-ket bo'lib turar, Modon, Koron, Zonkiyo, Santamarvo fath qilingandi.

Taxtga chiqar-chiqmas "yerga soyasi tushadi" deya otasining haykalini olib tashlab, savob olishga uringan zohid Xalifaning zamonida ham Istanbul fotihining azm-u irodasi-yu dahosi so'nmaganday, o'chmas bir mash'ala, azaliy bir ruh singari hamon yashayotgandek edi. Endi oyoq uzataman deganda, urush ustiga urush chiqardi. Sharq hanuz qon, otash, zulm ichida qovrilayotgandi.

Ag'darilgan, so'ngan Oqqo'yinli saltanatining xarobalari ustida shoh Ismoil degan bir devona saltanat barpo etgandi. Otasi bilan katta bobosining qasosini olish uchun tentakona bir g'ururga asir bo'lgan bu quturgan shoh o'tgan yerida tik daraxt qoldirmas, aql bovar qilmaydigan vahshiylik bilan o'ng-u so'lga hujum qilardi. Unga sig'inib borganlarni ham bergan ziyofatlarida katta qozonlarda qaynagan suvga tashlatgan, mag'lub etgan O'zbek podshohining kallasidan qadah yasatib, sharob ichgan yovuz shoh haqiqatan ham tengi yo'q bir zolim edi.

Boyazid devonining odobli, yumshoq, axloqli, taqvodor vazirlari uning vahshatlarini eshitishga toqat qilolmasdilar. Bu zolim bir kuni bizning chegaralarimizga ham, albatta, tajovuz etishi,

sharqiy viloyatlarni bosib olishga urinishi turgan gap edi. Buni barcha bilardi.

Bultur Zulqodiriya hokimi Alouddavlaning qizini xotinlikka so'ratdi. Alouddavla qizini bermadi.

Shoh Ismoil berilgan rad javobidan g'azablandi, o'ch olish uchun himoyasiz Zulqodiriya yerlariga bostirib kirdi, Diyorbaqir, Xarput qal'alarini oldi. Baland toqqa qochgan Alouddavlaning o'g'li va ikki nevarasi qo'liga asir tushdi.

Shoh Ismoil bu bechoralarni otashda qovurtirib kabob qildirdi. Bunday dahshat sharq olamida eshitilmagan edi.

Urushishni istamagan podshoh Yahyo Posho boshchiligida Anqaraga bir qo'shin yuborishdan boshqa ish qilmadi.

Bu shoh qanchalik zolim bo'lsa, shunchalik ayyor ham edi. Usmoniylar yeriga kirgani uchun uzr so'rab, ketma-ket elchi yubordi. Podshoh davlatiga qarshi bo'lgani uchun emas, faqat Alouddavlaga qarshi bo'lgani uchun Usmoniylar davlati yerlariga kirganini takrorlardi.

Xullas, devonda bu hiylagar, zolim, sitamkor jo'jaxo'rozga yuboriladigan elchi topilmayotgan edi. Chunki o'zini Usmoniy xoqon bilan teng deb bilayotgan, hatto butun sharqda jahongirlikka da'vo qilayotgan bu devona huzuriga davlat timsoli bo'lib kelgan elchiga nisbatan, shubhasiz, ancha-muncha badkirdorlik qilishi, qarshi chiqsa elchining, ehtimol, terisini shildirishi, aql bovar qilmaydigan vahshiylik bilan o'ldirishi mumkin edi.

Sadra'zamning o'ng tomonida halidan beri qabr toshi singari jim jit, beharakat o'tirgan qirmizi ukparli salla o'rnidan turdi. Astagina chapga yuzlandi.

— Men shu elchilikka juda munosib bir odamni bilurmen, — dedi. — Otasi mening do'stim edi. Biroq u davlat ishini qabul etmagay.

— Kimdir u?

— Muhsin Chalabiy.

Sadra'zam bu odamni tanimasdi, so'radi:

— Shu yerda istiqomat qiladirmi?

— Shundoq.

— Nima ish qiladir?

— Badavlat odam. Vaqtini o'qish bilan o'tkazadir. Uni tanimaydirsiz, xo'jayin. Kattalarga hech iltifot qilmagay. Shon-shuhrat istamagay.

— Nechun?

— Bilmasmen, lekin balki "zarari tegadi" deb o'ylasa kerak.

— G'alati!..

— Ammo bisyor jasur. To'g'risini aytadir. O'limdan qo'rqmas. Ko'p urushlarga qatnashmish, yuzida qilich izlari bordir...

— Bizga elchi bo'lmasmikin?

— Bilmasam.

— O'zini bir ko'rsak...

— Bilmasmen, chaqirilsa, huzuringizga keladirmi?

— Qanaqasiga kelmas?

— Kelmas, tamom, vassalom... Birovga bo'yin egmas. Uning nazarinda shoh bilan gado birdir.

— U davlatini yaxshi ko'rmasmu?

— Yaxshi ko'rsa kerak, deb o'ylaydirmen.

— U holda biz uni bizga emas, davlatiga xizmat yuzasidin chaqirurmiz.

— Sinab ko'ringiz, xo'jayin.

.....

Sadra'zam shu oqshom katxudosini Muhsin Chalabiyning Uskudordagi uyiga yubordi. Davlatga, xalqqa oid bir ish yuzasidan u bilan gaplashmoqchi ekanini, o'ylab o'tirmay ertaga huzuriga yetib kelishini bildirdi.

* * *

Bomdod namozidan so'ng saroyning hind gazlamasidan qilingan og'ir pardali kichik, nimqorong'i qabulxonasida kotib qoldirgan qog'ozlarni o'qiyotgan sadra'zamga Muhsin Chalabiy kelganini bildirdilar.

— Bu yerga olib kelingiz... — dedi.

Ikki daqiqa o'tmay xonaning sadaf qadalgan yong'oq yog'ochidan yasalgan eshigidan qalin shopmo'ylovli, haybatli, baquvvat, ochiq chehrali bir odam kirdi. Yupqa, qora qoshlari ostidagi

ko'zlari porlar edi. Belidagi kamarda quroli yo'q. Qo'l ostidagi barcha a'yonlarning tavozelariga o'rgangan sadra'zam uning etagiga bosh urishini biroz kutdi. Binafsharang gazlama qoplangan, katta zarrin shokilali kursi ustida hayron qarab turdi.

Sadra'zam nima deyishini bilmadi. Bunday qaddini g'oz tutgan, boshi tik odamni umrida birinchi marta ko'rayotgan edi. Hatto saroy vazirlari ham uning oldida ta'zim berib turishardi.

Muhsin Chalabiy g'oyat tabiiy bir ovozda dedi:

— Meni ko'rishni xohlagan ekansiz, nima demoqchi edingiz, janoblari?

— Haligi...

— Aytavering, janoblari...

— Marhamat, o'g'lim, qani, bu yoqqa o'tir, keyin...

Muhsin Chalabiy tortinmay, egilib-bukilmay, g'oyat tabiiy bir harakat bilan ko'rsatilgan ko'rpacha ustiga o'tirdi.

Sadra'zam hanuz qo'lida ushlab turgan o'rama qog'ozlarga boqar ekan, ichidan "Bu qanaqa odam o'zi? Ajabo, tentakmikan?" derdi.

Holbuki, yo'q, unday emasdi.

Bu Chalabiy degani juda aqlli kishi edi. Birovlarga va ikki yuzlamachilarga muhtoj bo'lmaydigan darajada badavlat edi. Chamlija o'rmoni orqasida katta yer-mulki, chorvasi bo'lib, halol yashar, birovga yaltoqlanmasdi. Faqir-fuqaroga, g'ariblar, nochorlarga yordam qilar, uyi doim mehmonga to'la bo'lardi. Taqvodor edi. Biroq mutaassib emasdi. Din, millat, vatan, podshoh ishqini qalbida pinhon saqlaganlardan edi. Davlatining buyukligi, muqaddasligini teran anglardi. Yagona shiori "Ollohdan boshqaga egilmaslik, qulga qul bo'lmaslik" edi... Uning ilmi, kamolidan barcha xabardor edi. Shoir edi. Ibn Kamol u haqda gap ketsa "menga saboq berib qo'yadi" derdi. Biroq u bunday maqtovlarga beparvo edi... Qirq yoshdan o'tgandi. Oldida ochilgan mansab, mavqe, porloq kelajak yo'llariga hech uchmagan edi.

Bu oltin to'shamali, yaltir-yultur, jannatmonand yo'llarning oxiri doimo ishkal bo'lishini yaxshi bilardi. Uning nazarida insoniylikdan buyukroq ne'mat yo'q edi. Inson Ollohning yerdagi

xalifasi edi. Olloh insonga o'z axloqini berishni istagan, inson barcha mavjudotdan ustun edi.

Quyrug'ini likillatib egasining oyog'ini yalaydigan ko'ppakka yaltoqlik xo'b yarashadi. Lekin insonga...

Turli kamsitish-u haqoratlarni ichiga yutib, davlat ishida o'sish ishtiyoqida bo'lgan yaltoq, ochko'z masxarabozlardan, hamiyatsiz qullardan, kaltakesak singari sudralib laganbardorlik qiluvchilardan nafratlanardi. Hatto ularni ko'rmaslik uchun odamlardan o'zini olib qochardi. Faqat urush bo'lgan vaqtlari Ko'ngilli qismlarga qo'mondon bo'lib, maydonga chiqardi. Huzurida emin-erkin, tabiiy o'tirishi sadra'zamni juda hayron qoldirdi. Lekin jahli chiqmadi.

— Tabrizga bir elchi jo'natmoq niyatidadirmiz. Sen bizning elchimiz bo'lib bora olurmisen, o'g'lim?

— Menmi?

— Ha.

— Ne munosabat bilan ayni men?

— Munosib odam qidirib topa bilmadik. Shuning uchun...

— Men hozirga qadar davlat ishlarida ishlamadim.

— Nega?

Muhsin Chalabiy biroz o'ylandi. Yutindi. Kulimsiradi.

— Chunki men bo'yin egmayman, qo'l, etak o'pmayman, — dedi. — Holbuki, zamonamizning zo'rlari nuqul bo'yin egib, qo'l, etak, hatto oyoq o'pib, ming turli yaltoqlik, ikkiyuzlamachilik qilganlari uchun hozirgi mavqelariga erishdilar, atroflariga ham xuddi shunday pastkashliklarni takrorlaydigan olchoqlarni to'pladilar. Ko'z qorachiqlari, xodimlari, himoya qiladiganlarining hammasi olchoq, riyokor, axloqsiz yaltoqlar, benomus masxarabozlar, orsiz laganbardorlardir. Mard, to'g'riso'z, or-nomusli, vijdonning hur ovoziga quloq osadigan bir kishini ko'rsalar bormi, hamon g'arazgo'ylik qilib, yo'q qilishga chog'lanadilar. Gedik Ahmad Poshoni nega xanjarlashdi?

— ...

Sadra'zam tishlarini asta siqdi. Ko'zlarini qisdi. Qo'lidagi qog'ozni g'ijimladi. G'azablana olmayotgan edi. Lekin jahli chiqqan vaqtlarda bo'lgani singari, yonoqlari ucha boshladi.

Vazirlik u yoqda tursin, hali beylarbeyi bo'lgan vaqtlarida ham hech kim unga bunday qo'rs so'zlamagan edi. Yana: "Ajabo, tentakmikan?" deb o'yladi. Tentak bo'lmasa, bu ne qo'rslik? Bunday qo'rslik davlat nizomlariga zid emasmi? Ko'zlarini yanada qattiqroq qisdi.

Ichida "Buning boshini uzdirsammikan" deb o'yladi. Navbatchilarni chaqirishga chog'landi. Birdan qayerdandir vijdonning teran ovozi eshitildi:

"Mana, sen ham yaltoqlik, riyo, qo'l, etak o'pish yo'li bilan ko'tarilganlar singari erkin aytilgan, to'g'ri gapni yoqtirmayapsan. Sen ham ro'parangda mard odam emas, oyoqlaringni yalaydigan bir it, sharmandalarcha egilib-bukiladigan bir olchoq, oriyatsiz turishini istayapsan".

Qisilgan ko'zlarini ochdi. Hovuchida g'ijimlangan qog'ozni yoniga qo'ydi. Yana Muhsin Chalabiyga boqdi. Keng peshonasining o'rtasida qilich yarasining kattakon izi qolgan... Yonoqlari qirmizi... Soqollari qirtishlangan, yo'g'on bo'yni oq... Bukri burni biroz kattaroq... Sallasi kichikroq... Xuddi "Shohnoma" sahifalaridagi qadimiy qahramonlarga o'xshaydi.

Ha, peshonasida jarohat izi bo'lgan bu odam qilich ololmagan tirik qahramon edi. Insofli sadra'zam vijdon ovozini g'ururiga bo'g'dirmadi. "Xuddi biz axtargan odamning o'zi..." dedi ichida.

Bunday oriyatli kishi davlati, millatiga qilinadigan haqoratni ko'tarmaydi, o'limdan qo'rqib, haqoratga indamay ketmaydi. Sekin bosh irg'ab dedi:

— Seni Tabrizga elchi qilib yuboradirmiz...

Muhsin Chalabiy so'radi:

— Orangizda shuncha muhrdorlar, kotiblar, domlalar bor. Nega ulardan birini tanlamayapsiz?

— Sen shoh Ismoil degan yaramasning kim ekanligini bilurmisen?

— Bilaman.

— Davlatingni yaxshi ko'rasanmi?

— Yaxshi ko'raman.

Sadra'zam qaddini ko'tardi. Orqasiga suyandi.

— Unday bo'lsa, ko'p a'lo, — dedi. — Bu yaramas "Elchiga o'lim yo'q" degan qoidani nazariga ilmaydur. Biz bilan raqobatlashish da'vosidadir. Ochiq maydonda bizga nisbatan qilolmaganini yuborgan elchimizga ko'rsatishni xohlamog'i mumkin. Ehtimol, qiynab, o'ldirar. Chunki u Ollohdan qo'rqmaydi. Holbuki, elchimizga qilinadigan haqorat davlatimizga qilingan haqoratdir. Bizga shunday odam darkorkim, gar haqorat eshitsa, boshidan qo'rqmasun. Haqoratni aynisi kabi o'ziga qaytarsun. Agar davlatingni yaxshi ko'rsang, bu fidokorlikka hozir bo'lmog'ing darkor...

— Qabul qildim. Janoblari, faqat bir shartim bor...

— Qanday?

— Modomiki, bu fidoyilik ekan, evaziga hech narsa talab qilinmaydi. Davlat uchun biron narsa evaziga qilinadigan fidoyilik ne bo'lsa bo'lsin, shaxsiy manfaatdan boshqa narsa emasdir. Menga maosh, mansab, pulning keragi yo'q. Faxriy bo'lgani uchun bu xizmatni zimmamga olaman. Shartim shu.

— Biroq, o'g'lim, bu qanday bo'ldi? Uning elchisi g'oyat muhtasham kiyingan erdi. Otlari, xizmatchilari dabdabali-yu as'asali erdi. Bizning elchimizning otlari, xizmatchilari undan-da muhtasham, yanada hashamatli bo'lmog'i darkor... Bular uchun xazinadan senga, albatta, bir necha ming oltin berurmiz.

Muhsin Chalabiy o'girildi. Oldinga boqdi. So'ng boshini ko'tardi.

— Yo'q, — dedi, — xazinadan bir chaqa ham olmasmen. Lozim bo'lgan otlarni sotib olish, xizmatchilarni bashang kiyintirish xarajatini o'zim ko'tarurmen... Hatto...

.....

Sadra'zam ko'zlarini katta ochdi.

— ...Hatto egnimga shoh Ismoil umrida ko'rmagan chiroyli bir libos kiyurmen.

— Nima erkan u?

— Zardo'z To'ro'g'lidan Hindistonning ipak matosidan tikilgan, taqinchoqlari Venetsiyadan keltirilgan "Pushti dur to'n"ni olurmen.

— Nima deding?! Bunchalik pulni qayerdan olursen, o'g'lim?

Sadra'zamning kalovlanib qolishi bejiz emasdi.

Bir oy ilgari tikib bitirilgan, usti eng nodir pushti durlar bilan ziynatlangan bu to'nning nomini Istanbulda eshitmagan kishi yo'q edi. To'nni podshohga tuhfa qilish uchun vazirlar, elchilar To'ro'g'liga murojaat qilishar, u bo'lsa narxini tobora oshirardi.

Muhsin Chalabiy bu to'nni qanday olishini aytdi:

— Yer-mulkimni, chorvamni, uy-joyimni garovga qo'yib, tujjorlardan o'n ming oltin qarz olurmen. Ikki ming oltinni ot olishga, xizmatchilarimning yasan-tusaniga sarf eturmen. Qolgan sakkiz ming oltinga bu to'nni olurmen.

Sadra'zam bu ishni aqldan deb bilmadi.

— Qaytib kelganingdan keyin bu to'nning senga keragi bo'lmagay. U dabdaba uchun lozimdur, xolos. Mol-mulkingni qo'ldan ketkazursen. Faqir bo'lib qolursen.

— Yo'q, sakkiz ming oltinga oladigan bu to'nni olti oy keyin To'ro'g'li mendan qaytib olur. Yetti ming oltin bilan mol-mulkimni garovdan chiqarib olurmen. Qolgan qarzlarimni to'lay olmasam, boringki, otamdan yodgor qolgan chorvam davlatga fido bo'lsin... davlatdan nuqul olish kerak ermas... Biroz berish ham kerak...

— ...

Muhsin Chalabiy bilan suhbatlasharkan, sadra'zamning hayrati oshib borardi... Ko'ngli taskin topdi.

Xullas, yaramas, jo'jaxo'roz bir hukmdorga haddini bildirish uchun yuboriladigan elchi topilgan edi.

Tabassum qilar, bosh chayqar edi. Devonning tegma-nozik, qo'rqoq, hisobdon xizmatchilari joni-yu molini qattiq yaxshi ko'radigan odamlar edi. Ulardan biri elchi qilib tayinlansa, davlatining sha'nini emas, oladigan ehsonini o'ylashi turgan gap.

Sadra'zam Muhsin Chalabiyni ovqatga taklif etdi. Biroq muvaffaq bo'lolmadi. Uni eshikkacha kuzatdi.

Olti oy ichida Muhsin Chalabiy katta yer-mulki, chorvasi, do'konlari, bog'ini garovga qo'ydi. Tujjorlardan pul yig'di. Otlar oldi, xizmatchilarini yasantirdi. Bularning hammasi haqiqatan ham hech ko'rilmagan darajada hashamatli bo'ldi. Qaytgach to'nni

berib, yetti ming oltinni qaytarib olish sharti bilan To'ro'g'lidan mashhur pushti dur to'nni ham oldi. Yoshgina xotini bilan ikki bolasini bir qarindoshinikida qoldirdi. Olti oylik nafaqa pulini qo'llariga berdi. So'ng podshohning maktubini qo'yniga solib, yo'lga tushdi.

Yo'llarda to'xtab-to'xtab olg'a yurarkan, yangi elchining dabdaba-yu as'asasi, ayniqsa, pushti durli to'nning ovozasi butun Onado'lidan oshib, shoh Ismoilning yurtiga yetib bordi.

Muhsin Chalabiy nihoyat Tabriz qal'asiga viqor-u ulug'vorlik bilan kirib bordi.

Bu kichkina poytaxtning bezakka, kiyim-kechakka o'ch xalqi Istanbul elchisining to'nini ko'rib, hayratdan dong qotdi.

Shahar, saroy, butun anjumanlar to'n haqida shov-shuvlarga ko'mildi.

Shoh Ismoil "pushti dur to'n" haqida faqat ertaklardan eshitgan, uning nima ekanini hali ko'rmagan edi. O'zi hali ko'rmagan narsa egasi bo'lgan bu badavlat elchiga nisbatan yuragida g'araz uyg'ondi. Haqoratlar bilan uni ezib tashlashga qaror qildi. Huzurida qabul qilishdan oldin taxtining orqasiga jallodlarini qo'ydi. Taxti oldidagi ipak ko'rpachalar, ipak gilamlarni oldirdi. O'ng tomonidan vazirlari, chap tomonidan tansoqchilari joy oldi.

Muhsin Chalabiy keng, qimmatbaho tosh ravoqli ochiq eshikdan shaxdam qadam tashlab, ichkariga kirdi. Yurdi. Har doimgiday boshi baland, ko'ksi g'oz edi.

Qo'ynidan chiqargan maktubni o'pdi, boshi ustiga qo'ydi. So'ngra taxt ustida qizil, moviy, binafsha ipak kiyimlarga chulg'angan, zarlar, tug'lar, bayroqlar bilan o'ralgan holda bechorahol qush singari jim qo'qqaygan shohga uzatdi.

Oyog'i o'pilmagan shoh jahldan bo'zardi. Ko'zlari qoraydi. Maktubni oldi.

Taxt oldidan chekingan Muhsin Chalabiy atrofga nazar tashladi. O'tiradigan hech narsa yo'q edi. Kulimsiradi. "Meni majburan oyoq ustida, ehtirom vaziyatida tutib turmoqni istashyapti shekilli", deb o'yladi. Biroz o'yladi. Bu haqoratga javoban nima qilishi

kerak? Shartta ustidagi pushti dur to'nni yechdi. Taxt oldiga yozdi. Shoh Ismoilning vazirlari, sarkardalari esankirab, hayrat bilan tikilib turishardi. Keyin u bu qimmatbaho to'n ustiga chordana qurdi. Dev, ajdarholarning suratlari tushirilgan qirrador qubbani, zarrin gumbazni gumburlatib yo'g'on tovushda:

— Maktubini bergan ulug' podshohim O'g'uz Qoraxon naslidandir, — deya hayqirdi. — Dunyo yaratilganidan beri uning otalaridan hech kim qul bo'lmagan. Hammasi podshoh, hammasi xoqon o'tgan. Otalari dunyo yaratilganidan buyon bo'lgan podshohning elchisi hech bir begona o'lka podshohi huzurida tik turmaydi. Chunki o'z podshosi qadar asl podshoh dunyoda yo'q. Chunki...

Muhsin Chalabiy turkchalab qo'pol baqirarkan, shoh bo'zarar, qorayar, hayajondan ocholmagan qo'lidagi maktub dir-dir titrar edi. Taxt orqasidagi jallodlar qilichlarini yalang'ochlagan edilar.

Muhsin Chalabiy rosa baqirib-chaqirdi. Yaqinlari, vazirlar, jallodlar, tansoqchilari hukmdorlarining sabr-toqatiga hayron bo'lib turishardi. Hatto ba'zilari ming'illay boshladi.

Muhsin Chalabiy so'zini bitirgach, ruxsat-puxsat so'rab ham o'tirmay o'rnidan turdi. To'g'ri eshik tomonga yo'naldi. Shoh Ismoil qotib qolgandi. Chaldiran mavzesida sindiriladigan g'ururi bugun shu turkning olov sochgan ko'zlari ostida erib bitgan edi. Muhsin Chalabiy tashqariga chiqayotganida, xuddi o'ziday tosh qotgan xodimlariga:

— Uning to'nini beringlar, — dedi.

Tansoqchilardan biri yugurib borib, taxt oldida yozig'liq yotgan to'nni oldi. Turk elchisining orqasidan yetib bordi.

— Marhamat qiling, to'ningizni unutdingiz, — dedi.

Muhsin Chalabiy to'xtadi. Kuldi. Chiqayotgan eshigidan orqaga qayrilib, shoh eshitadigan baland tovushda dedi:

— Yo'q, unutganim yo'q. Uni sizlarga qoldiraman. Saroyingizda ulug' bir podshohning elchisini o'tqazish uchun gilamingiz, ko'rpachangiz yo'q ekan. Buning ustiga bir turk yerga yozgan narsani qaytib kiymaydi. Buni bilmaysizlarmi?

* * *

...O‘tgan yo‘llaridan kecha-kunduz to‘xtamay jadal yurib qaytdi.

Uskudorga kirganida Muhsin Chalabiyning cho‘ntagida bir miri ham qolmagandi. Yasangan a’yonlariga dedi:

— Bolalarim! Ostingizdagi otlarni, egar-jabduqlarni, ustingizdagi liboslarni, belingizdagi naqshinkor xanjarlarni sizga hadya etdim. Mendan rozimisiz?

— Rozimiz... Haqqingiz onamizning oq sutidek halol bo‘lsin, — degan javoblarni eshitgach, ular bilan xayrlashdi. Chuqur nafas oldi. Uyiga bormasdan, dengiz sohiliga shoshdi. Bir qayiqqa mindi. Sadra’zam qarorgohiga bordi. Maktubni shohga topshirganini, hech qanday kamsitilishga duch kelmaganini, shohning ruxsatini kutib ham o‘tirmay, beparvolarcha o‘rnidan turib, Istanbulga qaytganini so‘zladi.

Zotan sadra’zam uning vazifasini qoyillatib ado etishiga amin edi. Yo‘llar, beylar, qaroqchilarga oid bir qancha savollar berdi. Chalabiy o‘rnidan turib ketishga chog‘langan vaqtda dedi:

— To‘ning yoningdamu, men uni sotib olmoqchimen, o‘g‘lim, — dedi.

— Yo‘q, olib kelmadim.

— Eronda sotdingmu?

— Yo‘q, sotmadim.

— O‘g‘irlatdingmu?

— Yo‘q.

— Unda ne qilding?

— Hech narsa!

— ...

Sadra’zam oyoq tiradi, qayta-qayta so‘radi. Lekin to‘nga ne bo‘lganini bilolmadi.

Muhsin Chalabiy qilgan ishi bilan g‘ururlanadigan darajada past odam emasdi. O‘sha oqshom Uskudorga qaytdi. Ertasiga yetti ming oltinni qaytarib, to‘nni olish uchun kelgan zarrindo‘z To‘ro‘g‘liga ham to‘nni nima qilganini aytmadi.

Istanbulda bunga qiziqqanlar mashhur “pushti dur to‘n”ning “qanday, qayerda, nega” tashlab kelinganini bilolmadi.

Tabriz saroyidagi mojaro tarix sahifalariga qorishdi, sir bo'lib qoldi.

Faqat bir vaqtlar badavlat bo'lgan Muhsin Chalabiy bu to'n uchun olgan qarzlarini uzolmadi, yer-mulki, chorvasi, butun mulkini garovdan qutqara olmadi. Elchilikdan xotira bo'lib qolgan oti, naqshinkor egar-jabduqlarini sotib, Quzgunchuqda chog'roq bir bog' sotib oldi. Shu yerda dehqonchilik qildi. Bola-chaqasini shu yo'l bilan boqdi.

O'lguniga qadar Uskudor bozorida sabzavot sotdi. Nihoyatda faqirona, juda og'ir, juda yo'qsil yashadi. Shunday bo'lsa-da, na birovga bo'yin egdi, na bor boyligini yerga otib qilgan fidoyiligi bilan maqtanib behudaga kerildi.

"INSOF" USTAXONASI

Nihoyat, dastlabki qor ham yog'di... Usta Yusuf dazmol bosiladigan stolning chetiga o'tirib olgan holda, ko'zoynagini peshonasiga surib qo'yib, ko'chaga qaradi. Dazmol olib keladigan qiz oyna oldida, mening yonimda Yusufning o'g'li — kichkina Mustafoni quchoqlaganicha ohista tushayotgan qorni tomosha qilardi. Bichuvchi Yanko va mashinachi Niko manqal ustiga engashib, uvishib qolgan qo'llarini isitishardi. Ularning yuzlarida alanga yallig'i o'ynardi.

Stol ustida dazmollanadigan pidjaklar, chala tikilgan shim va kamzullar qalashib yotardi. Ovqatlanadigan stol ustidagi soat besh marta zang urdi. Uy oldidagi ilonizi ko'chalarda tramvay, trolleybuslar yugurardi; o'tkinchilar xuddi sharpadek shovqin-suronsiz u yoq-bu yoqqa o'tib turardi. Bizning issiq xonamiz g'ira-shira yorug'. Hammamiz, hatto, usta ham bir zaylda dong qotib o'tirardik: allaqanday falokat yaqinlashayotganday hech kim churq etmasdi. Bo'ron boshlanishidan oldin bo'ladiganday xonada kishini ezuvchi jimjitlik hukmron edi: hozir biror falokat yuz berishini sezib turardik. Har kim o'zi bilan o'zi ovora edi.

— Dada, hozir bo'rilar o'rmondan chiqqandir-a? — deb so'radi kichkina Mustafo.

— Ha, o'g'lim! — deb yo'g'on ovoz bilan javob berdi Yusuf.

U stoldan sakrab tushdi, mo'ylovini buradi-da, qissa aytganday qilib:

— Albatta, chiqishdi... Bo'rilar shunaqa sovuq havoni yaxshi ko'rishadi! — dedi.

To'satdan qizning ovozi eshitilib qoldi:

— Usta aka, dazmolni tugatganingizdan keyin Mustafo bilan kinoga borsak maylimi?

Shu payt gapga bichuvchi Yanko aralashdi. U manqalda kuchsiz yonayotgan ko'mirdan papirosini tutatib oldi-da, yo'talini zo'rg'a bosib dedi:

— Bolalarning tashvishi ana shu-da! Oh, koshkiydi, men ham shularning o'rnida bo'lsam! — U xuddi og'riganga o'xshab qizargan ko'zlarini devordagi bir nuqtaga tikdi-da, qo'shimcha qildi: — Ko'mir anqoga shafi. Bir kilosi yigirma besh qurush-a! Bu hazil emas. Non-chi? Tuz-chi?

— Vino-chi? Araq-chi? — luqma tashladi Niko. — O'lishdan boshqa chora yo'q.

Yusuf bu gaplarni eshitib yuzini burishtirdi: ular uning kayfiyatini tamoman buzishdi. Yusuf jingalak sochli o'g'lining oldiga keldi-da, uning boshini quchoqladi, keyin boloxona eshigining oynasiga peshonasini qo'yib, pastda o'yinchoq mashinalarga o'xshab g'izillab ketayotgan avtomobillarga razm soldi. Nazarimda u tamoman boshqa narsa to'g'risida o'ylayotgan edi. Ehtimol, shu tobda u o'zicha zarrin ramkadagi kartinada tasvirlangan ulkan shaharda yurgandir.

Bir vaqtlar u bu shaharda xotini bilan birga o'zining baxtiyor yillarini o'tkazgandi. Endi xotini uyini ham, o'zini ham, bolasini ham tashlab chiqib ketdi va ajralish to'g'risida sudga ariza berdi. U, balki o'sha vaqtda bugungidek birinchi qor yoqqan kunni xotirlayotgandir. O'shanda ular shaharni ikkiga ajratib turgan daryo yoqasidagi qahvaxonaga kirib, oyna oldidagi stolga o'tirib qahva ichishgandi. Ular bir-biriga jimgina tabassum bilan qarashardi. Xuddi o'sha kuni ular birga hayot kechirishga qaror qilgandilar. Ular uylanishdi va ko'p yillargacha baxtiyor yashashdi. Keyin o'g'il tug'ildi, bu o'g'il shodlik manbayi bo'ldi. Ammo urush boshqalar qatorida ularning boshiga qashshoqlik va ochlik keltiribgina qolmay, balki ularning baxtini ham olib ketdi.

Men go'yo Yusufning o'z hayoti haqidagi hikoyasini yangidan eshitardim. U buni har kuni bir necha marta hikoya qilib berardi. U chuqur xo'rsindi-da, go'yo o'g'lini birov tortib oladiganday bag'riga mahkam bosdi. U kichik Mustafo bilan birga bo'lish qanday baxt ekanini o'ylardi.

— Xudoga shukur, — dedi u kutilmaganda.

Hammalari kulishdi.

Katta Yanko esa:

— "Maestro" yana xayol suryapti, — dedi.

— Yigitlar, qani ishga! — dedi Yusuf.

Eshik taqilladi.

— Borib qaray-chi, kim keldiykin, — dedim men va eshikka qarab yugurdim.

Yuzini sepkil bosgan, semiz malla kishi — uyning egasi meni bir chetga surib, dahlizga kirdi.

— Marhamat, janoblar,— dedi u o'zi bilan birga kelgan kishilarga murojaat qilib va ustaxonaga qarab, yo'l boshladi. Hamma uning ketidan ergashdi. Biz xonaga kirganimizda kimdir chiroqni yoqdi. Ustaxonani tamaki tutuni bosgandi. Biz xuddi jinoyat ustida qo'lga tushgan kishiga o'xshardik. Usta Yusuf dovdiraganicha ko'zoynagini peshonasiga surib qo'ydi. Yanko bilan Niko bo'lsa boshini quyi solib turishardi. Qizcha qizil parda orqasiga yashirinib, nima bo'lishini kutardi. Jimlikni xo'jayin buzdi.

— Afandim,— deb murojaat qildi u o'zi bilan birga kelganlardan biriga,— men sizga aytgan bino mana shu. Sudning qaroriga binoan bino bo'shatilishi kerak. Bu janob bilan,— u Yusufni ko'rsatdi,— hech qanday oldi-berdim yo'q. Shartnoma xotinining nomiga yozilgan. Xotini esa shartnomadan voz kechdi. Mana sudning qarori... Mana, — u yana ustaga ishora qildi. Uning ovozida mazax ohangi bor edi. — Bu kishi norozi bo'lgandan keyin, binoni majburan bo'shatish to'g'risida sudning chiqargan qarori...

U o'z darsidan mamnun bo'lgan o'qituvchidek jim bo'lib qoldi.

— Usta Yusuf, — dedi xo'jayindan ham yo'g'onroq bo'lgan boshqa bir janob, — gap nima ekanligi senga ma'lum. Bu janob,— u xo'jayin bilan birga kelgan boshqa kishiga ishora qildi,— amaldor. Biz binoni bo'shattirgani keldik.

Semiz kishi ishora qilgan janob tomog'ini qirib dedi:

— Men binoni majburiy tartibda bo'shattirishga va kalitini egasiga berishga vakil qilib tayinlangan kishiman.

— Hozir hammayoq qor-ku, — dedi usta o'zini tutib turolmay.— Qishda-ya... Shunaqa bo'ronda...

— Mening ishimni to'g'ri-noto'g'ri deyishga haqqingiz yo'q. Biz — qonun qullarimiz.

Bu gaplar xo'jayinning joniga tegdi shekilli, bahsni to'xtatmoqchi bo'lib, eshikka yo'l oldi va oradan ko'p o'tmay, ilgaridan

tayinlab qo'yilgan to'rt hammolni boshlab keldi. Biz bir chekkaga o'tib, bu holni jimgina kuzatardik. Xona kimoshdi savdosini eslata boshladi. Oyna, javon, stollar — hammasi ko'chaga chiqarildi. Zinapoyada to'polon. Yusuf u yoqdan bu yoqqa yugurib:

— Xudo haqqi, buyurtmachilarning mollari yo'qolmasin! Oynani sindirmanglar!..— deb har qaysisiga nochor yalinardi.

Biz nima qilishimizni bilmasdik: birov manqal oldida turar, birov ko'chaga chiqarib tashlangan narsalar oldida ivirsib yurardi. Men kichik Mustafo bilan ustaga qarab turardim. Usta hammollarning orqasidan yugurib:

— Yo Olloh, ne kunlarni boshimizga solding!— deb to'ng'illardi.

Bir soatdan keyin hammasi tugadi. Ozg'in amaldor binoning kalitini xo'jayinga berdi. Yusuf hamon u yoqdan bu yoqqa yugurib yurardi.

— Yigitlar, — dedi u, — ko'zoynagimni sindirib qo'ydim, hech nimani ko'rmayapman!

Voqea sodir bo'lgan joyga shu o'rtada turadigan ikki kosib bilan bir necha ishsiz kishi keldi. Yuzlari qontalashib turgan Xalil qassob shunday dedi:

— Sho'rlik Yusuf, butunlay aqldan ozdi!

— Ha, aqldan ozmaydigan ish emasmi bu!— uning gapini tasdiqladi tamakifurush Qosim og'o.— Kishini qishda ko'chaga haydashdan maqsad yangi ijarachidan ko'proq pul olish. Ablah!

Ular nima haqdadir o'zaro gaplashdilar-da, usta Yusufning narsalarini qo'shni ko'chadagi baqqolning bo'sh omboriga tashiy boshladilar. Yanko bilan Niko allaqanday narsalarni surupga o'rab, xuddi kafanga o'ralgan murdadek qilib olib chiqib ketishdi. Ular uylariga qarab jo'nashdi.

Xalil qassob bilan baqqol Yusuf va Mustafoni olib yo'lga tushdi. Yusuf mast odamlardek qoqinib borardi. Ularning ketidan qorovul ergashdi. U o'tmishdan xotira bo'lib qolgan zar harflar bilan "Insof" tikuvchilik ustaxonasi" deb yozilgan qizil peshlavhani olib borardi.

SO'ROQ

Nimaga duchor bo'lganini bilolmadi. "To'xta!" dedilar, to'xtadi. Ular politsiyachi edilar. Qo'llarida to'pponchalari bor edi. "Qo'lingdagilarni yerga qo'y..." dedilar, polietilen to'rva va yarmigacha ichilgan sharob shishasini yerga qo'ydi. "Qo'llaringni ko'tar, qimirlama" dedilar, qo'llarini ko'tarib, qimirlamay kutib turdi. Yoniga kelishdi. Bittasi polietilan to'rvani titkiladi, boshqasi cho'ntaklarini kovlashtirdi. "Pasportingni ko'rsat" dedilar. Qo'llarini tushirib, pasportini olib berdi. Pasportni ko'zdan kechirgach, "Shu" dedilar bir-biriga qarab. Keyin "Biz bilan borishing kerak" dedilar. "Men og'aynimnikiga ketayotuvdim" demoqchi bo'ldi, lekin ayta olmadi. Ularga ergashdi. Mashinaga chiqdi. Politsiyachilardan biri polietilen to'rva bilan yarmigacha ichilgan sharob shishasini ham olvolgandi. Shishaning og'zi ochiq edi. "Tiqini yo'qmi?" deb so'radilar. "Yo'q, tashlab yuborgandim" dedi. "Unday bo'lsa, o'zing ushlab o'tir, lekin aslo to'kako'rma" dedilar, yarimlagan shishani qo'liga berdilar. Mashina qo'zg'aldi. Biroz o'ziga kelib, es-hushini yig'ishtirib olgach, so'radi:

— Meni nega olib ketyapsizlar?

— Jim bo'l, — dedilar.

Jim bo'lmadi:

— Aybim nima? — dedi qat'iyat bilan.

— Jim bo'l, markazga borganingda so'raysan, — dedilar.

Jim bo'ldi.

Og'zini ochishga ham yo'l qo'ymasdan, eni bo'yiga teng bo'lgan kichkina xonaga qamadilar. Bu xona, xonadagi bitta-yu bitta kursi, temir karavot, chog'roq stol, stol ustidagi lojuvard kuldon unga tanish edi. O'tirdi, sigareta tutatdi. Sigaretani yarmigacha chekkach, o'chirdi. O'rnidan turdi, xona bo'ylab odimlay boshladi.

Qiladigan ishi og'ir edi. Ishdan keyin anchagina ichib olgandi. O'zini horg'in his qilardi. Kamzulini kursining ustiga otib, ka-

ravotga chalqancha yotib oldi. Politsiya ko'rmagan, mahkamaga tushmagan, nazoratda tutilmagan odam emasdi. Aybi ne ekanini bilsa, ko'ngli joyiga tushgan bo'lardi.

Nimadir qilishi kerak. Oyoqqa qalqdi. Qulflangan eshikni taqillatdi. "Nima gap?" dedi eshik ustidagi radiokarnay. Ilk vaqtlardagi kabi emasdi, nemischani yaxshi bilardi.

— Meni nima uchun olib keldingizlar? — deb so'radi.

— Kut, — dedi radiokarnay.

Biroz ranjigan ovozda:

— Qo'yilgan aybni bilishga haqqim bor. Aybim nimaligini bilmoqchiman, — dedi jahl bilan.

— Kut, — dedi radiokarnay. — Hozir kayfing bor, kut...

Harqalay, shu yerda tunashi aniq bo'ldi. Tishlarini g'ijirlatdi. Siqilgan tishlari orasidan ona tilida so'kindi.

Shu Germaniyaga ishga kelganidan beri boshi balodan chiqmaydi. Buni qarang... Bu yurtga kelmasidan oldin ichkilik neligini bilganmidi, qimorga yaqin yo'laganmidi?! Neki yaramas odat bo'lsa, shu yerda o'rgandi. Shularning o'zi bo'lsa, qaniydi? Bulardan battarroqlari ham bor-da...

Sigareta tutatmoqchi bo'ldi, voz kechdi. Avvaliga karavotning chekkasiga o'tirdi, so'ngra uzandi. Bu yerga kelganidan keyin orttirgan yomon odatlari holva, zotan bu odatlardan qimor, xotinbozlikni allaqachon tashlagan, qolganlarini ham, agar o'zi istasa, bugunoq tashlashiga ishonchi komil, aslida, eng muhimi — boy bergan narsalari. Pul topish uchun bu yerlarga kelgan, pul ham topgandi... Ammo topganidan ko'proq yo'qotgandi... Pul topaman deb baxtini yo'qotdi... Or-nomusini aytmaganda, puldan tashqari nimasi bo'lsa, hammasini yo'qotdi...

Ko'zlarini yumdi. Yanada to'g'rirog'i, ichkilik va horg'inlik ta'sirida og'irlashgan qovoqlari o'z-o'zidan yumildi. Ko'zlari yumildi deguncha, xayoli uni o'n to'rt yil keyinga olib ketdi.

Cho'rumda qurilayotgan "Merih" mehmonxonasining taxta qoliplarini qo'porishayotgandi. Havo issiq edi. Terlab ketishgandi. Ishbayga kelishganlari uchun saharmardondan tinmay ishlagan, xiyla charchagan edilar. "Biroz dam olaylik, Mamish" dedi yordamchisiga. O'tirib, sigareta tutatdilar. Balanddan shaharni tomo-

sha qilib, undan-bundan gaplashib o'tirishardi. "Mamish, — dedi birdan, — anavi xaloyiqni ko'ryapsanmi?"

Barmog'i bilan hukumat binosi joylashgan ko'chani ko'rsatayotgandi. Mamish ko'zlarini qisib, o'sha tomonga tikildi va uymalashgan xaloyiqni ko'rdi.

— Kimlar ular?

— Qo'yaver, — dedi Mamish. — Ular chet elda ishlash uchun yozilayotgan odamlar. Ish va ishchi ta'minoti idorasi u yer.

Ko'zlarini ochdi deguncha, o'n to'rt yil oldingi voqealar shundoqqina ko'z oldiga keldi.

Germaniyada, politsiya mahkamasida, nazorat ostida o'tiribdi. Bitta sigareta chekkudek vaqt ichida o'sha uymalashgan xaloyiqni ko'rmaganida yoki ko'rsa-da, Mamishdan so'ramaganida, balki shu pallada bu yerda o'tirmagan bo'lardi. "Merih" mehmonxonasining ustida o'tirarkan, taqdiri besh daqiqa ichida o'zgarib ketgandi. Birdaniga bu masalaga qiziqib qolgan, bir hafta so'rabsurishtirib, bordi-keldisini bilib olgandi. Germaniya degani to'q, farovon, jannatday mamlakat ekan. U yerda ishchilar devorlariga gulqog'oz yopishtirilgan, issiq suvi bo'lgan uylarda shohona yashar, par to'shaklarda uxlar ekanlar. Ketganlar orasidan "yomon" degani chiqmadi. Lekin yozilgandan keyin darhol jo'natishmas ekan. Navbati kelganlar jo'nab ketardi. Yozilganlar shunchalik ko'p ediki, olti oy, hatto bir yil navbat kutayotganlar bor edi. Har narsaning yo'li topilganiday, bu yerda ham osongina va tezda jo'nab ketishning iloji bor ekan. Er-xotin birga yozilishi darkor edi. Zero ayol ishchilar hech kuttirmasdan, nari borsa ikki oy ichida jo'natilardi. Xotin u yerga borar-bormas, erini chaqirib olishi mumkin ekan. Shunday ekan, er-xotin birga yozilgani maqbul emasmi?! Xotin ikki oy oldin ketsa nima bo'pti, qiyomat qoyim bo'larmidi?..

Bu gaplarni Mamishga aytgan edi, ters javob berdi. "Aqldan ozdingmi, usta? — dedi Mamish. — Xotin deganni yot ellarga yolg'iz jo'natib bo'larkanmi? Qolaversa, g'urbatda senga pishirib qo'yibdimi? Nima, ish yo'qmi, shu yerda ham xohlaganingcha ish topiladi, ishlayver. Ajnabiylarning yuzi ham qursin, puli ham... Pul u yoqda tursin, oltin bersalar ham u yoqlarga ketmayman men..."

Ichida Mamishga "Kallavaram!" degandi. "Odam degani tuqqan joyida emas, to'ygan joyida yashashi kerak. Yevropani ko'ramiz, maza qilib yashaymiz, istaganimizcha yeb-ichamiz, mol-mulk topamiz, buning nimasi yomon? Bu kungacha o'larday ishladik, ammo birimiz ikki bo'lmadi. Ahmoq! Eshshakday ishlashdan boshqa nimani ham bilarding sen?"

Mamish haqida ana shunday deb o'ylagandi. O'zi bo'lsa, ertasigayoq xotinini yetaklab, Ish va ishchi ta'minoti idorasiga olib bordi va uzundan uzoq navbatga turdi. Gal kelib, ularni qayd etishayotgan chog'da amaldor: "Janob, — dedi, — begoyimning navbati oldinroq kelishi mumkin. Bir o'zini yuborasizmi?" "Yuboraman", — dedi ishonch bilan. Ikki bola tuqqan bu manjalaqi endi yo'ldan ozarmidi? Agar salgina boshqacha oyoq olganini bilsa bas, sichqonning iniga yashirinmaydimi, topib asfalasofilinga jo'natadi.

— Yozaver, afandim, yozaver, — dedi u. So'ngra ichida: "Mening xotinim sen bilgan yengiloyoqlardan emas... Ishonmasam, shuncha yildan beri qo'ynimda olib yotarmidim" deb qo'ydi.

Shuncha yildan, shuncha voqealardan keyin endi u haqiqatning yuziga tik boqadigan bo'lgandi. Xato qilgan ekan. Mamishning ogohlantirishlariga quloq solmay, xotinini yolg'iz jo'natgani, o'zi kelib xotinining ahvolini, bu yerning vaziyatini o'z ko'zi bilan ko'rganidan keyin ham yurtiga qaytmagani, bolalarini olib kelgani, guvohnoma va mashina olgani... xato ustiga xato bo'lgandi. Endi bo'lsa, bu xatolarning jazosini tortayotgan, iztiroblar ichida qolgan edi. Birovga dardini to'kolmasdi.

Uxladi.

Qanchalik uxlaganini bilmaydi, qulog'iga eshitilgan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlardan uyg'onib ketdi. Oldiniga tush ko'ryapman, shekilli, deb o'yladi. Tush ko'rmayotganini, uyg'oq ekanini anglagach, ko'zlarini ochdi. Xonaning eshigi ochiq va ostonada ikkita politsiyachi turar edi. Hayron bo'ldi. "Mening uyimda politsiyachi nima qilib yuribdi?" deb o'yladi. Atrofga alanglab, politsiya mahkamasida o'tirganini tushundi. Ishdan charchab chiqqani, tramvayda bo'sh o'rindiq bo'lmagani uchun oyoqda ketgani, xo-

tini qovog'idan qor yog'ib kutib olgani, hamishagiday — hatto to'shakda ham bo'lganiday — javragani, janjal chiqargani, shundan keyin paltosini yelkasiga ilib, narigi ko'chadagi tovuqchiga borgani, yarim tovuqni yerkan, bir shisha sharob otvolgani, italyan baqqoldan go'sht konserva, non, sharob, meva, turshak olgani, bir daha narida yashaydigan yagona va abadiy do'sti Mohirnikiga ketayotganida politsiyachilar tomonidan qo'lga olingani, bu yerga olib kelingani kinofilm tasmasiday ko'z oldidan o'tdi. Aybi yo'qligini darhol esladi. Oxirgi marta yo'l hodisasi sabab bo'lib, guvohnomasini oldirgach, mashinasini ham sotib, tinchigandi. Qahvaxonalarga bormas, qimor o'ynamas, janjallashmasdi. Balki keyingi olti oy ichida bu mamlakatda ayb hisoblanishi mumkin bo'lgan eng arzimagan ish ham qilmagandi. Mo'minlarcha ertalab ishiga ketar, oqshom pallasi uyiga qaytardi. Agar uyida g'avg'o qo'padigan bo'lsa, indamay tashqariga chiqar, yegulik, ichimlik olib, Mohirnikiga ketardi. Politsiyachilar uning "Nega meni bu yerda tutib turibsizlar?" deyishiga imkon ham bermay:

— Bu yoqqa kel, — deyishdi.

— Qayoqqa? — deb so'radi.

— So'roqqa.

O'rnidan turdi. Kamzulini kiydi. Sochlarini tartibga keltirdi, yon tomonga qiyshaygan galstugini to'g'riladi, chiqdi.

Tergov xonasida qonuniy huquqlari eslatildi. Tarjimon va advokat kerak-kerakmasligi so'raldi.

— Kerakmas, — dedi.

Kim ekani aniqlandi. Qonuniy haqlari eslatilgani, advokat va tarjimon xohlash-xohlamasligi so'ralgani, "Kerakmas" degan javobi bayonnomaga yozildi. Undan keyin xotini va qizi uning ustidan shikoyat qilgani aytilgani, bunga "Bo'lishi mumkin" deb javob bergani yozildi.

(Zero, ancha oldin xotini bir marta doktordan "Badanida kaltak izlari bor" degan xulosa olgan, qizini guvoh ko'rsatib, "Erim meni do'pposlaydi" deb politsiyaga shikoyat qilgan edi. Shu boisdan hatto qamalishiga ham bir bahya qolgandi. O'shandan keyin u xotiniga qo'l ko'tarmaydigan bo'ldi. Baqirib-chaqirar, lekin aslo urmasdi. Chunki el-yurt orasida ikkinchi marta sharmanda bo'lish

yaxshi emasdi. Xotini g'irt asossiz ravishda shikoyat qilgan bo'lsa kerak. Hatto xotin-qizlar huquqlari jamiyati a'zosi bo'lgan o'sha haromi doktor xotindan soxta hujjat olgan bo'lishi ham mumkin. Xotinining haqiqatda kim ekanini faqat Germaniyaga kelganidan keyingina bildi. Undan har narsa kutsa bo'ladi. Lekin hozir uning hech qanday aybi yo'q. Shu boisdan osongina qutulib chiqishini bilar, xotirjam edi. "Bo'lishi mumkin" degandi...)

Shikoyat mavzusi o'qila boshladi deguncha, uning qattiq dahshatga tushgani, ko'zlari olayib, qinidan chiqquday bo'lgani, og'zi lang ochilib qolgani, yuz-ko'zi, hatto butun a'zoyi badanini ter bosgani, yuragi haddan tashqari gursillab ura boshlagani bayonnomaga yozilmadi. Faqat "Yo'q... Yo'q...Yo'q... Bularning barchasi yolg'on" deb baqirgani yozildi.

Shikoyat sud meditsinasi tomonidan tasdiqlangani aytilib, "Mast bo'lganing uchun nima qilganingni o'zing ham bilmagandirsan" deya, qilmagan gunohni bo'yniga qo'ymoqchi bo'lishganida qachonlardan beri vayrona qalbi yana bir marta vayron bo'lgani yozilmadi. Politsiyachilardan birining belidagi to'pponchani tortib olib, o'z chakkasidan otib, joniga qasd qilmoqni o'ylagani ham yozilmadi. Bu xatti-harakati aybni e'tirof qilish bo'lishini o'ylab, tentaklikdan voz kechgani, o'ziga o'zi: "Hech bo'lmasa buning tuhmat ekanini isbotlaguncha yashashim kerak" degani bayonnomaga yozilmadi.

"Men savdoyi emasman. Men buzuq emasman... Sizlar aytganday o'z qizimga qanday tajovuz qilishim mumkin?! Yolg'on!.. Hammasi yolg'on!" deb hayqirgani, so'ngra birdan yuragi xuruj qilib, yerga yiqilgani yozildi.

Bayonnoma kasalxonada yozib tamomlandi...

KUTILMAGAN MEHMON

Dastlab oyoq tovushi eshitildi, sal o'tib kimdir eshik qoqdi. Allamahalda meni chaqirayotgan kim ekan dedim. E'tibor bermasdan yotaverdim. Ammo yana eshigim taqillaganida yotgan joyimdan turdim. Chiroqlarni yoqdim, zinadan tushdim. Biroq eshikni ochmadim.

Eshik ortidan ovoz berdim:

— Kim u?

Jimjitlik.

Qayta so'radim:

— Kim u?

Jim jitlik.

— Gapirmasang daf bo'l, — deb baqirdim.

Zinadan tepaga chiqdim.

Chiroqlarni o'chirdim. To'shakka cho'zildim.

Ammo uyqu, o'chib ketgan uyqular... Boshimni yostiqqa qo'ysam-da, qaytadan uxlolmadim.

Oz muddat kutib yotdim.

Qaytadan bir ovoz ismimni aytib chaqirdi.

E'tibor bermadim.

Yana biroz vaqt o'tdi.

Keyin yana eshik taqilladi.

To'shakdan turdim. Chiroqlarni yoqdim. Zinadan pastga tushdim. Yana eshik ortidan ovoz berdim:

— Kim u?

Jimjitlik.

— Kim u? — dedim. — Kimsan? Mendan nima xohlaysan o'zi?

Sukunat. Keyin ovoz eshik ortidan emas, g'or tubidan kelayotgandek eshitildi:

— Men, — dedi. — Men eski do'stingman, tanimadingmi?

— Yo'q, — dedim. — Ovozing menga hech kimni eslatmayapti. Tanimadim. Ismingni ayt.

U ismini aytdi, bu ism menga butunlay notanish edi. Ya'ni aytilgan ism men bilgan do'st-u birodarlarimning ismi emasdi.

— Seni tanimadim, — dedim. — Sen mening do'stim emassan.

— Demak, shunday, — dedi. — Demak, biz shunchalik tez unutilib ketibmiz-da. Juda yaxshi. Ketyapman. Endi seni hech ham bezovta qilmayman.

— To'xta, — dedim eshik ortidan. — Menda qanday ishing bor edi?

— Modomiki meni tanimas ekansan, — dedi eshik ortidan kelayotgan ovoz, — nimaga mening kimligimni bilishga qiziqyapsan? Xayrli tun.

Uzoqlashayotgan oyoq tovushini eshitdim.

Shu payt bir narsani tushundimki, xonamga chiqib yotsam, meni chaqirgan bu ovozni qaytadan eshita olmayman. Boshqa eshigimni qoqmaydi.

Eshikni ochdim: qandaydir soya bog' tomonga qarab oqsoqlanib ketardi.

— To'xta, ketma, — dedim. — Seni tanimagan bo'lsam ham kela qol.

Qayrilib ham qaramadi.

— Bu xotira pastligidan, — deb baqirdim uning ortidan. — Keksalik... Bekorchi gapni qo'y. Menga qara, endi esladim seni (yolg'on bo'lsa ham), sal oldin ovozing begona ovoz edi, ammo hozir seni ko'rganimda... (aslida hech narsa ko'rmayotgandim oqsoqlanayotgan sharpadan boshqa) esladim, eski do'stim, nega menga qaramaysan? Kel, choy ichaylik, birga dardlashaylik, o'tgan kunlarni eslaymiz.

Qorong'ilikda yon tomonga qaraganini sezdim.

— Hech narsani eslolmayapsan, — dedi. — Na o'tgan kunlaringni, na eski do'stlaringni, na eski dardlarni.

— Safsatani yig'ishtir, — dedim. — Uyqusiragandim. Sen ekanligingni qayerdan bilay?

— Sal oldin meni uyingdan haydading-ku, — dedi.

— Ammo sen ovoz bermading, — dedim.

— Haqiqatan ham kelishimni xohlayapsanmi? Chindan ham uyingga kirishimni xohlayapsanmi? Mendan qo'rqmaysanmi? — dedi.

— Safsatani bas qil, — dedim. — Bunday havoda, yarim tunda qayerga bormoqchisan, qani, ichkariga marhamat.

SOLIQ

Ot dupuriga quloq solib turgan cho'pon bola uzoqda amlokdor bilan jandarmlarni ko'rdi-yu, "Soliqchi keldi!" deb qichqirdi. U podani ham tashlab, qishloqqa yugurdi.

Ot yo'rg'alatib kelayotgan uch otliq qahvaxona oldidagi chinor tagida otdan tushdi.

G'izillab ketayotgan cho'pon bolani ko'rish bilan voqeadan xabardor bo'lgan dehqonlar bir zumda uylariga tarqalishdi, darvozalar yopilib tambalandi, tuynuklarda esa sarg'ayib ketgan fas kiygan yoki ro'mol yopingan boshlar dam ko'rinib, dam g'oyib bo'la boshladi.

— Ko'zing ko'r bo'lgurlar... Nimaga tum-taraqay bo'ldilaring? Qani, bu yoqqa chiqinglar. Ho', oqsoqol, ho', bu qishloqda odamzod bormi o'zi? — deb o'shqirdi serjant Salim otining bo'yniga to'rva ilarkan.

Keyin u otning jilovini jandarmga tutqazgan novcha, ko'sasimon amlokdorga o'girildi:

— Mustafo afandi, men senga aytdim-ku, tayoqsiz ish yurmaydi deb. Bu itvachchalarning hunarini bilaman. Ho' oqsoqol! Hasan oqsoqol!..

Cholvorini kamar o'rniga lampa pilik bilan bog'lab olgan bir chol jilmayib, ularga yaqinlashdi:

— Xush kelibsiz, xush ko'rdik, — dedi, qani marhamat qilib o'tiringlar, kal Alimiz betob bo'lib uyida yotibdi, bo'lmasa qahva bilan mehmon qilardik, lekin...

Serjant tutaqib ketdi:

— Bizlarni ko'rib hammang tum-taraqay bo'lasan-u, tag'in tilyog'lamalik qilasanlar.

Cholning soqoli titrab ketdi:

— Og'alar... axir, nimani olasiz? Yigitlarimiz askarlikka olindi, sigir-buzoqlar haydab ketildi. Axir, dehqon hech narsa ekolma-

di-ku... O'tgan yili qurg'oqchilik bo'ldi. Xudodan yomg'ir tiladik. bo'lmadi, bu yil Delichay soyi toshib ketdi, sakkizta sigir nobud bo'ldi, zovurlar to'lib, ekinni suv bosdi, ariqlar to'ldi. Husayn tuyaning o'g'li ko'r Mehmed botqoqqa botib o'ldi. Onasi esa aqldan ozdi. Kecha qorovullar yoqqan gulxandan o'rmonga o't tushdi. Xotin-xalaj bolta ko'tarib o't o'chirishga yugurdi. Qulingiz bo'lay, biz bechoralarni xonavayron qilmang.

— Soliqni hech bo'lmasa don bilan to'langlar,— dedi amlokdor.

— Qishda dehqonlar nima qiladi keyin? Ahmadlar oilasidan Qora Yusuf toqqa chiqib ketgan edi, bundan to'rt kun burun sakson kilo arpa so'ratib yuboribdi. Ayollar u qilib, bu qilib, muhojir Mehmedning kenja qizidan zo'rg'a o'ttiz kilo arpa berib yuborishdi. Ekinni yig'ishtirib xirmon qilgan edik, amlokdor keldi, donning hammasini to'kmagansanlar, deb turib oldi, sira gapga ko'nmadi... Axir Xudoning shafqati bilan... Delichay, haytovur. toshmadi, lekin yomg'irdan hosil chirib ketdi.

U ko'kragidagi qoramtil medalga ishora qildi:

— Taqsir, biz ham dunyo ko'rganmiz, askar bo'lib g'olib chiqqanmiz. Jonim tasadduq, bizni xonavayron qilmanglar.

Amlokdor bilan serjant kulgi aralash papiros chekishayotgan edi. Ularning muloyim basharasini ko'rgan dehqon dadillashdi:

— Qishloqning boqimondasi bormi! Xudo guvoh, yo'q; ming marta shukurki, soliqdan qochgan odam ham yo'q. Esimni taniganimdan beri bilamanki, qishlog'imizdan yo'lto'sar ham chiqqan emas. Hukumatga itoat qilamiz. Bir himmat qilib yuboring, soliq boqimondaga qolsin, kelasi yil... Xudo xohlasa.

Qalin tanishlarning do'stona gapiga o'xshab ketadigan bu suhbatni eshitmoq uchun erkak va ayol dehqonlar sekin-asta davra olishdi.

— Yaxshi, gaplaringiz to'g'ri, lekin davlatga pul kerak, — dedi amlokdor muloyim tovush bilan.— Chegarada urush olib boryapmiz. Bu qishloq soliq to'lamasa, unisi boqimondaga qoldir desa, unda nima bo'ladi?

Bir kampir mug'ambirlik qildi:

— Afandim, Chinorli qishlog'ida pul ko'p, u yerdagilar toqqa qochganlar bilan hamtovoq. Ayollari kontrabandistlar bilan apoq-chapoq. Bu yil o'shalardan ola qolinglar.

Amlokdor javob qildi:

— Davlat, kambag'alning solig'ini boy to'lashiga yo'l qo'ymaydi. Qani, gap cho'zilib ketdi. Qog'ozlar tayyor. Soliqni don bilan to'laydiganlar u tomonga, pul bilan to'laydiganlar bu tomonga o'tsin.

Qizil soqolli bir muhojir gapirdi:

— Sakkiz majidiyam bor edi.

— Olib chiq...

Oqsoqol g'azab bilan unga qayrildi:

— Xudodan ham qo'rqmaysan sen xoin... Zoting xoin bo'lmasa, muhojir bo'lib kelarmiding? Sen-ku to'larsan... Buni bilamiz. Lekin bu faqir-fuqaro nima qilsin? Afandim, bu to'ng'iz qo'pgur muhojir juda boy, to'rtta xotini, sakkizta kalvachchasi bor... Unga ishonmang, o'tgan yili qishloq solig'i olinayotganda, donini yerga ko'mdi, otini qirga yashirdi, ho'kizini og'ilga qamab, jandarmlarni laqillatdi...

Muhojir ham otib qoldi:

— Afandim, oppoq soqoling qonga bulg'angur bu chol, tamaki kontrabandistlari bilan sherik. Hozir butun qishloq uchun ham soliq to'lashga qodir. Ruminiyadan bu yoqqa muhojir bo'lib kelganmiz, bizga qilmagan hiylasi qolmadi. Ko'zing ko'r bo'lgur chol, topgan bo'lsam, halolini topgandirman. To'rtga qadar sunnat emasmi axir? Afandim, buning sandig'iga limmo-lim tilla bosilgan. Yerga yotqizib, besh-o'n marta tayoq uring, gapi boshqacha bo'ladi...

Jandarm serjanti bu mojaroga quloq solib turgan dehqonlarga qamchi o'qtaldi:

— Qani, tezroq bo'linglar! Pulni darrov olib kelinglar.

Xaloyiq bir zumda tarqaldi. Amlokdor qulog'ining orqasidan qalamni olib, qo'lidagi ro'yxatga qarab, familiyalarni baland ovoz bilan o'qir, qarzdorlar metrika qog'ozini ko'rsatib, iflos tangalarini bergach, patta olib qaytishar edi.

Soliqni don bilan to'lash payti kelganda o'lponchilar xuddi vabo, tif kasalligi singari yopirilishdi. Oqsoqolning boshi yorildi, qaysi bir xotinga g'o'la otib, belangi qilishdi, yetti-sakkizta kishi maydon o'rtasida darra yedi. Kaltak yegan odam ko'paygan sari jandarmlarning dahshati ortib boraverdi. Ular sigir-buzoqlarini, echkilarini yashirgan dehqonlarning uyini tintishar, xotin-xalaj uvvos solib yig'lar, xo'rozlar qichqirar, tovuqlar qaqillar edi...

Serjantning o'zi eshikni yelkasi bilan itarib ochib, Mustafoning uyiga kirdi. Qari kampir uni qarg'ishga ko'mdi. Mo'ylovi dikkayib ketgan serjant Salim boshiga joynamoz yopayotgan qizga qarab do'q urdi:

— Ombor yo'lini ko'rsat bizga!

U miltig'ini qo'liga olib, ichkari kirdi. Qiz indamay orqasidan bordi. Kulcha yuz, anor yonoq qiz g'ira-shira qorong'i omborda go'zalroq bo'lib ko'rindi. Jandarmni qaltiroq bosdi:

— Qiz... Bug'doying qishga asrab qo'yilgan ekan, juda achinarli ish bo'ldi. Onangga bizdan salom aytib qo'y, sizdan hech narsa olmaymiz,— deya uning ko'kragiga qo'l tashladi.

Tashqaridagi qiy-chuv orasidan zinadagi oyoq tovushi eshitilmasdi.

— Sharmanda, hayosiz...— dedi qiz qizarib-bo'zarib.

To'satdan ombor eshigi ochildi. Hali murti chiqmagan, rangi sap-sariq bir o'spirin ichkari kirdi. Salim serjant har ehtiyotdan miltiqqa yopishdi. O'spirin o'zini uning ustiga otdi. Qiz yolvordi:

— Qo'ying, aka, keyin sizni qamoqqa tiqishadi...

Jandarmning miltig'iga yopishgan o'spirin uni tortib olishga urinardi. Miltiq otiladigan vaziyatga qo'yilgan bo'lsa kerak, tor ombor ichida o'q ovozi eshitildi. Qip-qizil qonga bo'yalgan qiz:

— Voy, o'ldim, oyi,— deya yerga yiqildi.

Ertasiga ertalab amlokdor bilan jandarmlar mollarni haydab ketishdi. Hukumatga qarshilik ko'rsatishda va o'z singlisini o'ldirishda ayblangan o'spirin ham tumanga olib ketildi.

HAQORAT

Bekatdan uch qadam narida sakrab tramvayga chiqdim. Shu ondayoq, trotuardan qattiq hushtak tovushi eshitildi. Vojatiy odamlarni bir-biriga mingashtirguday tormoz berdi va zinapoyada bir politsiyachi ko'rindi.

— Harakat vaqtida vagonga chiqqan kim?

O'quvchilik vaqtidan qolgan odatim bo'yicha qo'l ko'tardim.

— Tush pastga!

Men tushdim. Tramvay yana o'z yo'lida davom etdi, politsiyachi meni oldiga solib olib ketdi. Birinchi ko'chaga qayrildik. Meni Beyo'g'li rayonidagi uchastkaga olib kelayotganini angladim. Politsiya uchastkasi deyildimi, jonim chiqadi, chunki bir marta adabimni yeganman... Odatda go'yo men kushxona hidini sezayotganday bo'lardim; ba'zan qo'y kabi mazlumlashar, ba'zan esa yangi askarga olingan o'spirinday fe'lim buzilardi.

— Afandim,— deb gap boshladim.— Men bilamanki...

— Hech narsani bilmaysan, — dedi u, — bir yuz-u ikki qurush to'laganingdan so'ng, tramvay yurib ketayotganda chiqish taqiq ekanini o'rganib olasan!

— Haqlisiz. Lekin paroxodga kech qolmayin, deb shoshilib turuvdim. Bu safarcha kechiring..

— Ortiqcha gap tinglashga vaqtim yo'q, — dedi va itarib-surib olib ketaverdi.

— Unday bo'lsa, — dedim, — bir yuz-u ikki qurushni hozir to'lab qo'ya qolay, meni uchastkaga olib borib yurmang... So'ngra pattasini o'zingiz olib, yirtib yuborarsiz.

Politsiyachi ko'zlarimga tikilib qarab, bir lahza o'ylanib qoldi.

— Ber, — dedi, — lekin shuni bilginki, har kimga bunaqa yaxshilik qilavermayman. Shu sababdan Xudoga shukur qil.

Men cho'ntagimni kovlar ekanman, u gapida davom etdi:

— Agar komissarimizning qo'liga tushsang, bir yuz ikki qurush bilan qutulib ketolmasding...

Shu asnoda uchastka tomonidan boshqa bir politsiyachi ko'rindi. Meni yo'l o'rtasida qoldirib, bir chetda allanimalar haqida pichir-pichir so'zlashdilar. Qulog'imga shu gaplar eshitildi: "Sendan shikoyat qiladilar,— dedi boyagi.—Senga bergan pullarining nomerini yozib olishgan ekan. Komissar mushkul ahvolga tushib qoldi. Bunga ehtiyot bo'l, qo'yib yubormasdan olib borgin". Ish chappasiga aylandi, lekin shunday bo'lsa ham politsiyachi yonimga kelar-kelmas, hech narsa bilmagandek, tayyorlab qo'ygan pulimni uzatdim. Uzatishim bilan baravar, ko'zlarimda chaqmoq chaqtirib, betimga bir tarsaki tortildi.

— Sen eshak o'g'li eshaksan,— dedi politsiyachi,— qani, mening ko'zlarimga bir qara-chi!

Uning ko'ziga qaraguday holim bormidi? Burnimdan lablarimga tomon issiq bir narsa oqib tushdi. Ikkinchi marta tarsaki tortmoqchi bo'lganda, qo'llariga mahkam yopishdim.

— Men nima qildim, nega urayotibsan?

— Pora berib meni aldamoqchisan. O'rtog'im ham guvoh!

— Yaxshi, sen o'zing ber demabmiding?

— Sen menga tuhmat qilmoqchisan-a! Burningni art, yur tezroq!

Yurdik. Ikki daqiqadan keyin uchastkaga yetib keldik. Politsiyachi navbatchi komissarga salom berib, dedi:

— Buni tramvaydan tutib keldim, afandi, menga pora bermoqchi bo'ldi. Mana bular esa, menga hujum qilganda, shinelimdan uzilib tushgan tugmalar...

Stol ustiga ikki dona tugma tashlaganini ko'rdim. Tugmalarni o'z ko'kragidan qachon uzib olganini bilmaganim uchun hayron qoldim. Har holda faqat gugurt cho'pi bilan ilinib turgan bo'lsa kerak. Komissar tepakal, burishgan yuzli bir odam: "Qani, o't bu yoqqa, o't, bezori!" deb, menga skameykani ko'rsatdi-da, keyin orqadoshiga qayrilib dedi:

— Mana bu janoblar sendan shikoyat qilayotirlar, Usmon afandi. Sen ularni tramvaydan tushirib, uchastkaga olib kelayotganingda yo'lda har biridan bir liradan olib qo'yib yuborgan emishsan!

Ikki o'spirin komissar qarshisida edi. Men ularni orqalaridangina ko'rardim. Oyoqlarida qalin tagcharmli, baland poshnali tufli bor edi. Pochalari surnaydek ingichka, jaketlari yana bir qarich uzun bo'lsa zo'rg'a tizzalarini berkitardi. Sochlari orqalariga silliq qilib taralgan. Ulardan biri qo'lini orqasiga qilib turgani uchun, barmog'ida qizga unashtirilganda taqiladigan uzuk yarqirab ko'rinmoqda.

— Bir pul ham olganim yo'q,— dedi politsiyachi.— Bu janoblarning yonlarida bittadan qiz ham bor edi... Qizlarni ham tramvaydan tushirdilar. Mendan iltimos etdilar, o'zlarining kim ekanliklarini so'zladilar. Men ham generalning o'g'li bilan deputatning jiyanini uchastkaga sudrashni ularning sha'niga ep ko'rmasdan, hurmat yuzasidan qo'yib yubordim.

— Yaxshi, lekin, — dedi komissar, — senga bergan ikki liraning nomerlarini esda saqlab qolgan ekanlar. Usmon afandi! Birisi 003 206, ikkinchisi 112 771...

Politsiya darrov hamyonini chiqarib, stol ustiga qo'ydi.

— Buyuring, janoblar,— dedi komissar,— o'zingiz boqing. Hatto politsiyachining cho'ntaklarini tintib qarashlaringiz ham mumkin, men sizlarga ruxsat beraman.

Yigitlar hamyonga yaqinlashmadilar. Hamyonni komissarning o'zi bo'shatdi. Hamyon ichidan bir lira ham chiqmadi. Komissar qo'l qovushtirib nasihatomuz gap boshladi:

— Siz asilzoda yigitlarsiz. Sizlarni qanchalik hurmat qilsak, mening qo'l ostimda ko'pdan beri ishlab kelayotgan politsiyachini ham shunchalik hurmat qilib, izzatini joyiga keltirish sizning vazifangizdir. Hozir bizga tuhmat qilingani ochiqdan ochiq ma'lum bo'lib turibdi. Agar bu gunohingizning quyrug'iga "haqorat" moddasini matashtirib, bir protokol yozguday bo'lsam, ishingiz chatoq bo'lishini ko'rib turibsiz... Lekin otalaringizga bo'lgan hurmatimiz bunga yo'l qo'ymaydi. Agar o'jarlik qilib shikoyatingizdan kechmasangiz, o'zingiz bilasiz... O'jarlik etmasangiz sulh, qiling-da, shu bilan bu masalani tugataylik...

Yigitlarning ikkovi birdan javob berdi:

— Xo'p, afandim. Shikoyatimizni qaytib olamiz.

— Unday bo'lsa, Usmon afandidan kechirim so'ranglar.

Galma-gal samimiy do'stona gaplar boshlandi: "Afv etasiz, o'tinib so'rayman. Astag'furullo. Ozodsiz. Tashakkur bildiraman. Oq yo'l bo'lsin. Bizdan hurmatlar. Falon-piston..."

Ular chiqib ketar-ketmas komissar bilan Usmon afandi o'zaro g'o'dillashdilar: "Jirrakilar!" Endi gal menga keldi.

Uning qarshisiga kelar-kelmas:

— Hey it,— deb boshladi komissar.

— Bekorga haqorat qilmang!

— Kim aytdi senga buni? Ipakday muloyim qilib qo'yaman. Bu yerda xo'jayin biz, siz yo'lovchi, sening onangni ham, xotiningni ham so'kaveraman.

Jim turdim. Chunki bu qadar jirkanch tartiblar qarshisida talpinmoq behuda edi.

— So'zla, eshitay-chi,— deb davom etdi,— sen davlatning rasmiy formasini kiyib yurgan politsiyachiga qanday qilib pora bermoqchi bo'lding va xizmatini bajarib turgan paytda nega hujum etding? Istanbulni tog' ichi deb o'yladingmi? Qayerliksan o'zing?

Bo'lgan voqeani gapirib berdim. Endi po'pisalar to'xtadi. Menga nasihatgo'ylik qilishga boshladi. Qonundan, tartib-intizomdan, haqorat moddasidan, politsiyachining sharafidan, nomusidan va uning hech qachon yolg'on so'zlamasligidan bahs etdi. Politsiyachining bitta tugmasini uzgan kishi o'n sutka qamalishini eslatdi. Gapirib turib, to'lashim kerak bo'lgan bir yuz ikki qurushni jazo pattasini yoza boshladi. Otim nimaligini, ota-bobom kimligini, yoshimni, ishimni so'rab javobini olgandan keyin, menga ot qo'yganning dini-imonini, otamning sharob chanog'ini, menga ta'lim berganning nasli-nasabini birma-bir so'radi.

Stol ustiga qo'ygan pulim besh liralik edi. Menga qaytarish uchun kassadagi mayda yetmay qoldi. Komissar o'z cho'ntagidan pul olib, kvitansiya bilan menga uzatdi. Endi ozod bo'lib chiqib ketishim kerak edi. Komissarning qiyofasi xuddi suv ichib qongan otday yetarli darajada yumshagan edi. Birdan u:

— Qani, ko'ray-chi,— dedi,— sen ham Usmon afandidan kechirim so'ra!

Usmon afandi bilan ko'zimiz to'qnashdi. Uning pastkash basharasida xijolatdan asar ham ko'rinmadi. Men indamadim. Komissar takror aytdi:

— Kechirim so'ra, bo'lmasa yerto'lada uxlamay chiqasan!

Men kechirim so'radim: "Kechirasiz, Usmon afandi!"

Usmon afandi meni kechirdimi, yo'qmi — bilolmadim. Lekin men o'z-o'zimni, pastlashganimni hanuz kechira olmadim. Eshikdan chiqib ketayotgan paytimda, komissar shunday dedi: "Agar yoqmagan bo'lsa, buni ham hikoya qilib yoz, so'ng yana ko'rishaylik!"

* * *

Chekib yotganimiz jafolar ichida eng kichkina voqea hisoblangan bu "haqorat" hikoyasini mamlakatimda qushtili[1] bilan yozish qulay edi. Lekin Usmon afandi bilan komissarning tili bir ekanini anglamoq qiyin bo'lardi. Chunki komissar cho'ntagidan chiqarib menga bergan liraning birisi 003 206 nomerli edi.

[1] **Qushtili** — kinoyali, yashirin til. Bu tilda ba'zan oddiy tilning har bo'g'imidan so'ng "be" tovushi qo'shiladi. Masalan: "ketib" o'rniga "kebe tebib"...

BEPUL INTERNAT

— Sening ishlaring tugagandan keyin, Misr bozorida biz yoqtirgan somsapaz bor-ku, esingda bo'lsa, kanareyka qushlari bor, ana o'sha yerga borib, birga tushlik qilamiz. Qirq yilda bir ziyofat qilsak, nima bo'pti-a? Shuning uchun Chag'ao'g'liga yayov borib kelsak ham charchamaymiz, to'g'rimi, mening asal qizim? Ko'nglimiz shirinlik tusab qolsa, shirinlik ham yeymiz, ko'prikni ham sayr-u sayohat qilib qaytamiz.

Ona-bola ertalabki olomon ichida begonalardek tez-tez yurib borishardi.

Ona bolaga tinmay gapirib ketardi.

Onaning sergapligiga sabab, u o'tgan kun kasalxonaga hamshira bo'lib ishga olingan edi.

U paytlarda qizcha uchinchi sinfda o'qirdi.

Qizchaning fartugi oqarib, uvadasi chiqqan edi.

Qish kirib keldi.

Bu esa muyulishdagi ko'mirchidan ko'mir olish kunlarining boshlanishi edi. Qizcha qo'ra yoqishni ham o'rganib olgandi. Avvaliga eshik bo'sag'asida tutantiriqqa olov yoqar, keyin ko'mirlarni ular ustiga joylashtirardi. Kaynarni qo'yganida ko'mir chatirlab, atrofga mitti uchqunlarini sochardi. Ko'mirlar qizarib olovga aylanguncha hamma narsani — orqa partada o'tirishini, "Qizil oy" bo'limida ovqatlanishni, milliy bayramlarda she'r o'qiy olmaganini unutar, olovning moviyligi yo'qolgunicha eshik ostonasida kutardi. Xonaga qo'rani olib kirganida eslagan narsalari g'oyib bo'lib, yong'oq daraxtidan yasalgan, onasi ko'z qorachig'idek asragan stolda dars qilishga o'tirardi. U olovning alanga olishini juda ham xush ko'rardi. Onasi cho'g'ning kulga aylanishi kerakligini, chunki shunda ertagacha isita oladigan harorat qolishini uqtirardi. Kullari chiroyli, yaltiroq cho'g' ustida bittasini — eng qizarganini, eng moviysini ochiqda qoldirardi. Dars qilayotib, orada dam olish

uchun qo'raga qaraganida, issiqqina turgan yagona cho'g' xona haroratini saqlab turardi.

Mana, o'sha "hamshira bo'lasan" degan kun ayol eshik ochib, uyga kirganida, nimadir o'zgardi. Chunki onasi u bilmagan-ko'rmagan holatda edi. Shodon suhbatlari va tabiatning toza havosi xonaga fayz bag'ishlagan edi.

— Meni ishga olishyapti, bir-ikki kunda ish boshlayman. Bosh hamshiraning oldiga kirdim, to'lachagina ayol ekan. U menga savollarni yog'dirib tashladi: "Bundan oldin nima ish qilgansan? Ering qachon vafot etgan? Bu ishda tinim yo'q. Faqat bilimning o'zigina yetarlimas, balki shijoatli ham bo'lish kerak. To'shaklarni to'g'rilash, tupuk idishlarni to'kish, "o'rdak"larni pokiza tutish kerak. Balki vaqt kelib, bemorlarning issig'ini o'lchaydigan darajaga erisharsan. Haftada ikki kun izn olishing mumkin, bozor kuni tunda qaytib kelasan. Farzandlaring bormi? Unga ko'z-quloq bo'ladigan odaming yo'q, shundaymi? "O'zini o'zi eplay oladi, esli-hushli", — deysan. Lekin hali kichkina ekan. Sinfda qolmaganmi? Qizingga ofarin. Hali yosh, chiroyligina ayol ekansan. Bu yerda har xil odamlarga duch kelasan. Og'ir-bosiq bo'l. Bir narsa bo'lsa, sendan so'rayman. Hammaga ma'lum "Qanjiq dumini likillatmaguncha..." hikoyasi. Bo'yoq-so'yoq surish ham mumkinmas. Yanog'ing va labingning rangi tabiiymi? Hozircha bilishing kerak bo'lgan narsalar shu. Shifokorlardan, undan-bundan shikoyat qilish yo'q. Bir ishda qolishni istagan kishi ish avvalida, nima bo'lsa ham, ko'nikadi. Uyqung yengilmi?" O'ylab ko'r, qizim. Mana ish ham topdik. Birinchi maoshimga bir cheki ko'mir olaman. Senga esa bir juft rezina etik. Balki izn olib kelgan kunlarim birga kinoga tusharmiz. Kelajakni bilib bo'lmaydi. Agar yaxshi ishlasak, kim nima ham derdi? Uy egasiga xabar bermaymiz. Endi kechalari qatiq olib kelganida, ko'cha eshigini qattiq yopmasin. Aytdim-ku qizim, biz ishlagandan keyin... Uyqum ham yengil. Necha yillardir uzuq-yuluq uyquga odatlandim...

Onasi ishni boshlaguncha uning nomi "Bizning kasalxonadagi ishimiz" bo'ldi.

Uydan ketadigan ilk tun baqqoldan kunjut holvasi olishdi. Pishloqdan sho'rva tayyorlab, stolga moviy gulli dasturxon

yozishdi. Bu dasturxon otasi yashagan kunlarda yozilgan, quvonch-u shodlik va jasurlikning xotirasi edi. Negadir ular har doim otasini hayot deb bilishardi. Xuddi otasi barhayot. U kishi shunday odamlardan ediki, o'limning makkorligi unga hech ham soya sololmasdi go'yo. Har kun kechqurun uyga non ko'tarib keladigan kishining bugun yo'qligi, sassiz xonalarga singib ketgandek go'yo.

"Hali yosh edilar", — degandi onasi. "Sakkiz yoshda ham farzand otasiz qoladimi?"

Garchi shart bo'lmasa-da, ona dasturxonni bir-ikki marotaba artdi. Tovoqdagi pishloqning "jizir-jizir"i tinmagan edi. Kunjut holvasining shakari bo'shashib, kamayib borardi.

— Uy egasi bilan gaplashdim. Sen hech qo'rqma, qizim, kechalari xonaning eshigini mahkam yopib uxla. Uy egasi namozga turganida, eshik qoqib uyg'otadi. Uy egasiga: "Hali bola-ku, — dedim. — Bola uyquga to'ymaydi, kimdir uyg'otmasa, o'zining turishi qiyin". Har kun ertalab holva bilan non yeysan. Sen choyni xush ko'rmaysan. Qo'lim kuyadi, deysan. Maktabdan qaytganingda, qo'rani yoqib issiqqina o'tirasan. Kechalari olovning qopqog'ini yopgin. Mening asal qizim, aytganlarimni aslo unutma-ya. Xayolim uyda bo'lmasin. O'zing aqlli qizsan. Kechalari hecham qo'rqma. Hozir aytdim-ku, uyda yolg'iz o'zing bo'lmaysan. Sen qo'rqoq qiz emassan. Qara, senga nimalar olmoqchiman. Og'ir bemorlar uchun maxsus ovqatlar olib kelishadi, ulardan ortib qolgan qaynatilgan tovuqmi yoki boshqa ovqatmi, ulardan senga paketga o'rab olib kelaman. Yashirincha olmayman, ular baribir chiqindiga to'kib tashlanadi. O'zimizcha ziyofat uyushtiramiz.

— Oyijon, men siz aytayotgan ovqatlarni yemayman. Boya "O'rdak"larni pokiza tutish kerak", degandi-ku haligi ayol, menga o'sha o'rdaklarini aytib berasiz.

Ona jim qoldi.

Og'iz juftlab aytmoqchi bo'lgan so'zlarini aytishdan voz kechib, sukut saqladi. Ular kechqurun yotoqqa kirganlarida — uzoq vaqt birga yotdilar — qizcha ertaga jismoniy tarbiya darsi borligini ham unutdi. Holbuki, u jismoniy tarbiya darsiga qatnashmas-

di. Darsga kirmaydiganlar koridorlarda, har doim ochiq qolgan ostki qavatdagi jo'mraklarning ovozini eshitib, nursiz deraza oynalaridan qish faslini, shahar binolarini tomosha qilishardi.

— Kalta shim, rezina krossovka, kalta paypoqlar, albatta, oq rangda bo'lishi kerak. Oq mayka-bluzka kerak. Terlaganda almashtirish uchun ikki dona bo'lsa yana ham yaxshi. Namoyishda, ya'ni 23-aprel va 29-oktabrda hamma guldek chiroyli kiyinishi kerak. Mening qo'limdan kelmadi, degan gaplarni eshitmay. Xohish bo'lsa bas. Kam ta'minlangan bolalar uchun ham ataganimiz bor. Ammo buni juda zarur kiyimlarga ajratishni qaror qildik. Fartuk bilan qatnashadiganlar! Fartuklar silliq dazmollangan bo'lsin. Qizlarda mato lenta. Hamma ozoda bo'lishi kerak. Toza yurish har bir turk farzandining vazifasi. Nima deyapman sizga? Tishlar har kun yuvilishi kerak. Quloqlarda sariq kir ko'rsam, "og'rib qoldi", "qulog'im oqdi", degan bahonalarni eshitib o'tirmay tag'in, chizg'ich bilan kaltak yeysiz..

Maktabning ostki qavatidagi jo'mraklar negadir hech yopilmasdi...

Tanaffusda o'quvchilar jo'mrak boshiga to'planishardi.

Chanqagan ham, chanqamagan ham bari suv ichardi. Bir-birini itarishib, suv hovuchlaridan sizib yeng ichiga kirishi bog' sayridagi baqiriqlarning boshlanishi edi. Darsga qo'ng'iroq chalinguncha eshitilmagan suv sasi, sinfga kirgandagina eshitilardi.

Qizcha onasini quchdi.

"Hamma aytganlaringizni qilaman, oyijon, siz xafa bo'lmang. Odatda tushlikni maktabda qilaman. Xayolingiz menda bo'lmasin".

Ona miq etmadi.

Ayol hamon uyg'oq edi. Vujudi rohat olib, bo'shashmagandi.

Qizcha onasining issiq taftini tuyish uchun pinjiga kirib oldi. Uzoq vaqtgacha tunga quloq tutdi. Uxlashni istamadi. Umrida birinchi marta kechaning uzunligini his qildi.

Qizcha ertalab uyg'onganida eshik taqillardi.

Onasi yonida yo'q.

Maktab fartugi, qalin ipdan to'qilgan paypoqlari, yung hirqasi kursi ustida taxlab qo'yilgan edi.

Tashqaridan urilgan eshik ovozidan uyg'onganini tushundi va o'rnidan turdi, "Xolidaxon xola", deb ovoz berdi.

Uy egasi ayol hojatxonaga (ular bitta hojatxonadan foydalanishardi) paqir bilan suv to'kardi.

Qizcha kiyinib, stol atrofiga o'tirdi.

Qish yorug'ligi bo'z pardalar orasidan ko'rinib, tanani junjiktirardi.

Qizcha maktab sumkasini olib xonadan chiqarkan (bugun ertalab tuz ham totmadi) ortga tisarilib kursiga o'tirdi. So'ng unsiz yig'lay boshladi.

— Sen maktabni juda yaxshi tugatding. Faqir bolaning boshlang'ich maktabni yaxshi baholar bilan tugatishi oson emas. Bizni bepul internat maktablariga olisharmish. Menga shunday dedilar. Mahalla oqsoqolidan faqirlik ma'lumotnomasini olib chiqayotganimda, notanish xotin: "Men ham o'g'limni harbiy maktabga bermoqchiman, ammo bir molni garovga qo'yish kerakligini eshitib, chorasiz qoldim, opaginam", — dedi. "Mol qayerda-yu, biz qayerda? Agar molimiz bo'lganida birovlarning eshigiga bosh egib borarmidik?" Bizda unday narsa bo'lmaydi. U ayolning gapi to'g'ri emas. Ma'lumotnomani olib chiqdim. Hech kim bilan maslahatlashmadim ham. Harbiy maktablar pullik. Qurol yo'qmidi, yo harbiy kiyim yo'qmidi? Hech narsani so'ramadim. So'rashning keragi ham yo'q. Sen bugun imtihonga kirasan, bergan savollariga burro-burro javob ber. Agar mingga yaqin o'quvchi qatnashsa ham, ular orasidan yuz-yuz elliktacha o'quvchini tanlab olisharkan. Senga omad yor bo'lsin, mening aqlli, esli-hushli qizim. Bekorchi gaplarga quloq solma! Mening qizim sinfda qolmaydi. Davlat xarajati behuda ketmaydi. Bularni maktab direktoriga bir-bir tushuntiraman. U meni tushunadi. Axir u ham bizga o'xshagan odam-ku, asal qizim. "Mening qizim necha yillardan beri ertalablari o'zi uyg'onadi", — deyman. "Hech kimga erkalanmaydi. Hatto uning bosgan qadami ham eshitilmaydi", — deyman. "Bolalikni hammamiz boshimizdan kechirganmiz-ku?" — deyman.

Ular qiyalikdan yuqoriga chiqayotganida, hammollar orqasiga yuklangan qog'oz to'plari ustiga yomg'ir tomchilay boshladi.

Mayin iyun yomg'iri.

Ona-bola yo'ldan o'tish uchun DAN xodimining mashinalarni to'xtatishini kutishdi.

Yomg'ir tezlashdi.

Ona-bola bu ahamiyatga molik kunda yasanib olishgan edi. Ona bo'yniga ipak sharf taqib olgan, qizcha esa sochini ho'llab, toshli to'g'nag'ich bilan yig'ib olgan edi.

— Qo'rqyapsanmi? Ertalabdan beri lom-mim demading. Qani, qani, Solibozoridan bu toshli to'g'nag'ichning juftini olib beraman. Keyin bizni ishga tayinlashadi. Sen maktabni tugatib, muallima bo'lganingda, men kasalxonada ishlamayman. Birga borib kelamiz. Uyimizga kreslolar olamiz. Men ularga gulli chit yopqichlar tikaman. Mehmon kutadigan kunimiz ham bo'ladi. Mehmonlarga izzat-ikrom ko'rsatish uchun, agar unutmagan bo'lsam, anasonli kulcha pishiraman. Xarajatlarimiz chegaralanmaydi. Balki, kichkina gilam olarmiz. Kasal axlatini to'kishdan, koridordagi yugur-yugurlardan qutularman. Ana u lizol hidi yo'qmi, ichingni junjiktirib yuboradi. Hatto o'limni eslash bilan barobar. Biz boradigan joy tog' etagida bo'ladi, mening tilla qizim. Hamma Istanbulda qolaylik, deydi. Bilganlardan hammasini so'rab-surishtirdim. Albatta, hukumat seni qabul qiladi. Biz Istanbulni nima qilamiz? Bizga bittagina uy, qishda ko'mir saqlaydigan joyimizda o'tin-ko'mir bo'lsa bas. Yana oshxonamiz ham bo'ladi, to'g'rimi?

Agar "kafil", u-bu narsa deyishsa, demaydilarku-ya, bu ana u xotinning uydirmasi, o'g'liga ishonmagani. Bu haqda undan-bundan surishtirib ham o'tirmadim. Faqat sen muallima bo'lganingda nima bo'lishini bilib oldim. Bizni qayerga yuborishsa, o'sha yerga ketamiz, shundaymi?

— Bu maktabda o'qishni xohlaganlarning barchasi men kabi kambag'al bolalarmi, oyi? Buni ham surishtirdingizmi?

— Ha, albatta, kambag'al bolalar, bepul internat uchun imtihon topshirishadi.

— Unday bo'lsa, bu yerda mening omadim keladi. Siz xafa bo'lmang. Sinovni juda yaxshi topshiraman. Endi bu yerda do'stlarim bo'ladi. Haftada ikki kun siz kasalxonadan, men maktabdan

chiqib uyga qaytamiz. Sizga ham mehmon keladigan kunlarda baqqol pishirig'idan olaman.

Imtihon bo'ladigan maktab yo'lning narigi tomonida edi.

Ular qo'rqa-pisa ko'chani kesib o'tishdi.

Orqa ko'chadan yurishdi. Baland devor yonidagi eshik oldida to'xtadilar.

Bu maktabning o'quvchilar kiradigan eshigi edi.

Ichkaridan g'ala-g'ovur ovozlar eshitilardi.

Yomg'ir tosh devor orasini yorib chiqqan yam-yashil o'tlarni yaltiratib turardi.

— Bizdan ham erta kelganlar bor ekan. Kech qolgan bo'lmaylik tag'in?

Farrosh kiyimidagi xotin tosh yo'ldan ular tomonga qarab yurdi.

Ona hayotdan bezigan, xavotirli qarashi bilan qizining masalasi bo'yicha atrofni kuzatardi.

Ona hurmat bilan so'radi:

— Voajab, biz kech qolibmizmi? Ko'pchilik bolalar allaqachon kelib ulgurishibdi.

Ayol bee'tibor:

— Bepul internat maktabining imtihonlariga hamma erta bilan barvaqt keladi. Hech kim kech qolmaydi.

Ona-bola bir-biridan ayrildi.

Qizcha chekkasi devor bilan o'ralgan tosh yo'ldan yura boshladi.

Ayol maktab binosi oldidagi kursini tom tagidan nariroqqa tortdi va unga o'tirib, ip yigira boshladi.

Qizcha muyulishga yetganda ortga qayrildi. Ona tashqari eshikda, yomg'ir ostida jilmayib turardi.

SUZILIB TUSHAYOTGAN QUYOSH NURI

Ey yaratgan Egam! Men hamma narsani unutdim. Kerak bo'lsa, qirq sakkiz yil yashagan umrimni ham, umrimning yarmidan ko'p vaqtini olgan ma'murlik hayotimni ham unutdim. Ha, ha, unutdim, bu xonaga kelib-ketuvchi odamlarning chehralarini, ovozlarini ham unutdim... Endi ularni xotirlash kerak deb o'ylamayman ham, bunga aqlim ham yetmaydi... Mana shunday holatdaman. Vaholanki, Yenido'g'on va vazirliklar orasidan o'tuvchi uzun yo'lda erta-yu kech o'ylab yurish uchun qandaydir xayollar kerak bo'ladi. Ortda qolgan kunlarim asfalt ustida iz qoldirib, bir yarim soatdan ko'proq davom etgan yo'l qisqargandek tuyulardi. Tong salqinida vazirlik eshigi oldida paydo bo'lardim. Demak, eski qadrdonlarimni, ularning ovozlari-yu suhbatlarini, qalam o'ynatishlari-yu kulishlarini hali unutmagan ekanman. Kutilmaganda xayolimni o'g'irlagan xilqat ro'paramdagi stolga o'tirgan daqiqadan boshlab hamma narsa xotiramdan o'chdi. Xuddi eski bitikning ilk jildini yopib, ikkinchi jildiga hozirlik ko'rayotgandek ichimga shunday xursandchilik, baxtiyorlik to'ldiki...

Xo'sh, u judayam go'zalmidi? Balki o'z e'tiqodimdan ham ayrilgandim. Uni hech qanday ayolga o'xshata olmadim. Ha, u kelgan kunida undan voz kechdim. Keyinchalik unga e'tibor qarata boshladim. Arzon kashtandan tikilgan ko'ylagi ezilgan, biroz eskirgan, balki sal kirlanib, nam tortgandek edi. Kichik-kichik laxtalardan tikilgan ko'ylagining yoqasi odatdagidan ko'ra uzunroqmi deb xayoldan o'tkazdim. Shundog'am u yozuv mashinkasi ustiga egilmasa ham, ko'ylagining bir tomoni, chap tomoni, sal-pal o'ziga katta ko'rinardi. Xonaga tushayotgan nurni to'sib o'tirardi. Ko'zlarining ustiga, qoshiga qalin qilib bo'yoqlar surgandi. Uning uchun bo'yoq fabrikasida bo'yoq tayyorlanishini yuz marta o'ylab ko'rdim. Shunday ekan, uni bo'yoqsiz tasavvur qilish mumkin emasdi. Shu sababdan uning chehrasi bo'yalmaganini xayolim-

ga keltirolmayman. Nodon bo'lsam kerak, o'zimcha lablarining bo'yog'ini istagan paytimda artib tashlab, istagan paytimda yangidan bo'yardim. U ham yaltiroq, ham qizil ediki, naq yuzidan ajralib turardi.

Uni kimdir orqali, qaysidir yo'llar bilan bo'lim mudiriga jo'natishgani haqida idorada turli mish-mishlar yurardi. Har kun u haqida gap borardi; quloq berib tinglardim ham. Bu mish-mishlar qisqa muddat ichida keraksiz sigareta tutunlari kabi o'z-o'zidan g'oyib bo'lardi. U dastlab kelgan kuni bo'limdan chiqib uyiga ketayotgan damlarni umrim bo'yi unuta olmasam kerak. Xuddi men quduq tubidagi limmo-lim suvlar bilan to'lib-toshib yer yuziga chiqaman? Xotinimning hayotda qiyinchiliklar tufayli kulgichlariga yopishib qolgan o'sha shirin tabassumlari... Maktabdan kela solib suv boshida oyoqlari, qo'llari, yelkalarini yuvgan bolalarimning yog'och shippak tasmalaridan siqilgan oppoq barmoqlari... U yer-bu yeri sal-pal ko'kargan, ammo ohak suvog'i top-toza shiplarimiz... Qanchalik charchagan bo'lsangiz ham, qanchalik asabiy, g'azabda bo'lsangiz ham, bir zumda orqa umurtqalaridan oqib ketgan o'sha billur nafasli derazalar, pardalar, gultuvaklar... Yo'q, xuddi bir sandiq qopqog'i yopilib, boshqa sandiq qopqoqlari, hatto shkaflar, ko'chalar ochilgandek edi.

Ular naq ro'paramdagi stolga o'tirishdi. U uzoq vaqt quchog'iga, keyin mushtiga ko'z tashlab o'tirdi-da, boshini ko'tarib menga qaradi. Bexos yo'lda ketayotib o'sha qarashlarini o'yladim. Tekis yo'llardan yurish juda zerikarli edi. Keng ko'chadan Jebejiga o'tib, Ulujandan yuqoriga qarab yurib ot bozoridan park yo'li bilan Bentderesiga tushdim... Shamol xuddi menga eshdek g'ir-g'ir esib sochlarimni o'ynardi. Tuflimning og'irligi sezilmas, to'pig'i qismas, bog'ichlari ham bo'shashmasdi. Qancha-qancha tog' teshiklarining ichidan kun bo'yi, umr bo'yi yer tepib, mingdan bir nur taqdim etgan tor tuynuklarni balki "kut, bolam, kut" deya toshbaqalarga o'xshab yashaymizmi? Hali shunday cho'qqilar ochilsinki, yuklar tushib, iplar uzilsin... Oh! Bayon qilishga tilim ojiz, ammo ishontirish ham mushkul, balki buning chorasi ham yo'qdir. Burnimdan ijodxonaning hidini tarqatib yubormasin deb shamolni, uning mehr bilan silab-siypashini ham

unutib yuborardim. Yon-atrofimda shashqator bo'lib oqib kelayotgan odamlardan, ularning ovozlaridan batamom qutulgandim. Shahardan ham, ko'cha-ko'ydan ham qutulganimni angladim. Kimgadir qoqilib ketmaslik uchun muvozanat saqlashim kerak degan o'ylarni ham xayolimdan chiqarib tashladim. Bunday kechgan bir kun ham, bir soat ham, bir nafas ham xotiramda yo'q edi. Qanday qilib beo'xshov, sharpasiz xilqat yillab chang bosib yotgan ijodxonaga kelib qoldi? Yoki Tangri meni sinab ko'rmoqchimikan! U keldi; chumchuqlar sergo'sht oyoqchalarini sermab shoxdan shoxga qanday uchgan bo'lsalar, shartnoma ham rahbar stoliga xuddi shunday kelib qo'ndi. Rahbar uni qabul qilib, ijodxonagacha birga keldi va unga ish stolini ko'rsatdi. Nima bo'lgan bo'lsa shu paytda ro'y bergandi. Tor o'sha yozuv mashinkasi stollari... Ammo u uchun xuddi stollar ham kengayib qolgan, chuqurlashgandek edi go'yo. Mashinkaning silindridan balki birozgina qalinroq beli bor edi. Bir siqimgina. Hayron qolasan kishi, xayolimga kelgan dastlabki fikr o'sha bel ichidagi a'zolar qanday joylashgani edi; jigar nima qiladi, taloq, oshqozon qanday sig'adi — shular haqida o'ylardim. Kimsasiz dasht-u biyobon o'rtasidagi bitta buta, ildizli buta kunlarning birida o'ylash qobiliyatiga ega bo'lib, fikr yuritsa bormi, mendan farqi qolmasdi. Tomirini tuproqdan tortishga urinib shimol shamoli oldida qanchalik tipirchilamasin, bari behuda. Nimagadir uch kunlab olinmagan soqolim o'sha oqshomda kaftlarimga yopishib qolardi. Siyraklashib qolgan sochlarimning har tolasi Samanpazari yelida pir-pir etganini sezardim. Ey Xudoyim-ey! Qo'llarim palto cho'ntagida, bir qo'limda tanga-chaqalar, narigisida esa issiqqina, kattakon eshik kaliti. Qiziq, ertadan kechgacha taksida yurgan odamlar shunday kerilib yurganida o'ynoqi bo'lishadimi? Uning kichkinagina teridan tikilgan sumkachasi bor edi. Sumkasini har ikki daqiqada bir ochganida oppoq gullar kabi ochilgan ro'molchalar chiqarar, shu ro'molchalar bilan burunlar-u bo'yinlarini artardi. Yana yuzimga tikilib qo'yardi. U xuddi "senga shu yetar!" deyishimni xohlardi.

Parkka kirib nam skameyka ustida o'tirdim. O'tirib oqshom quyoshi nurlariga g'arq bo'lgan quruq butoqlarning naqadar chiroyli, go'zal ekanini umrimda ilk bor his etdim. O'sha sovuqda

ham to'qima ko'ylagim terlab qornimga yopishib qolgandi. Ammo qornim yo'q, qapishib ketgandi. Kino artistlarining kindiklari qanday chuqurlashib ketgan bo'lsa, meniki ham xuddi shunday edi. Eriy boshladim. Dik etib skameykadan irg'ib turdim... Ketayotib yo'l qisqarganidan ko'nglim ranjib, odamlar yoniga yaqinlashishdan cho'chib tog' etagidagi mahallaning tor asfalt yo'liga chiqib oldim.

Xonadagi kulrang, iflos devor-u pardalar daf'atan g'oyib bo'ldiyu, uning o'rnini nimpushti, bulutsimon, to'qima ro'mollar egallab oldi. Ter hidi anqib turgan uchta xotin, shippak kabi eskirgan to'qqizta do'st — bir-birimizning pinjimizga kirib qolgandek edik. Shunday cho'chib qolgandik. U bizga o'ninchi bo'lib qo'shilishga harakat qildi-ya, biz tinchlana olarmidik? Guvillagan dovul yanglig' g'uv-g'uv esgan ikkinchi oq-qorani tanigan vakil ham ertasi kuni taslim bo'ldi. O'sha yerda ming yil yashasam ham, nayrang boshida, qora jildli daftar ichida sharmanda bo'lmasligimni bilsam, mendan jirkanishiga aqlim yetsa, achinmayman. O'zimni yo'q hisoblayman; xuddi polyuvgich bo'lib yoyilaman. Yakka o'zim, soat avvalida bitta, maxfiy, yoqasi bo'rtgan yoniga bir qarayin...

Allamahalda uyga keldim. Xotinim lampa ushlab bo'z ortida, rayhon panasida kutardi. Bolalar allaqachon uyquga ketishgan. Burchakdagi o'choqda viqir-viqir ovqat qaynardi. Asal xotin bu, zerikmaydigan inson; tugatar. Uzib-yulib kelishdi, uflab-puflab tozalashdi, gullar taqib unga berishdi. Nimaga men uni olib kelmayman, uning o'zi keladi bu yerga? Qandaydir shabadalar bilan ko'cha eshigi oldida kutib oldi. Yoqa oralig'i ham shunday, yonog'idagi kulgichi ham. Beli? Hidlar orasida uyalganimdan orqaga chekinib, xilqatning belini o'ylayapman. Ichki a'zolar, ichak-chavoq, jigar, balki taloq, yurak, oshqozon... Qiziq, ularning terisi parisimon ekanmi! Qush tuxumichalik kichkina oshqozoni, oq ipakdan iplar kabi torgina ichaklari!

Bolalarning yog'ochdan yasalgan oyoq kiyimlari eshik orqasida bir qator terib qo'yilgandi. Bizning xotin ham bu oqshom boshiga ola-chipor lungi tashlab olgandi. "Ko'chagacha chiqib seni kutdim..." Har gapining birida yuzimga tikilib: "Bugun ko'rinishing boshqacha yoki ichdingmi?" — derdi. Unga qanday

qilib tushuntirishni bilmasdim. Unga kechinmalarimni boshdan oyoq gapirib berishni xohlardim. Lekin hech narsa demadim. Balki tong yorishib, uzoqlardan xo'rozlar qichqirgandir. Balki derazalar ochilib Yenidog'onning o'sha timdalovchi yeli ko'ksimizga urilgandir. Kim biladi, qanday hid taratardi uning sarv daraxtidek suzilishi. Balki kun bo'yi gapirsam ham hikoyam nihoyasiga yetmas. Butun hafta ham tugamas. Aytmadim.

Yotdik.

Yotog'imizning hech qanday jozibasi yo'q edi. Otaginam ham shu yotoqda dam olgan ekanlar. Ammo issiqlik desangiz, iliklaringizga qadar singardi. Xotinimni ichiga olib ham kifoyalanmaydi; u jonivor nordonligini yuvib, eritib yuboradi. Uch bolani etagida o'stirgan ayol deb o'ylamaysiz uni. Qo'llarini quchog'iga qo'yib mushtdek bo'lib yotardi, qattiqqina edi. Undan voz kechish xayolimning bir chetiga ham kelmaydi. Nimagaki uning yonidan qimirlashga kuch topa olmayman. Tong otishini o'ylab qolaman. Yo'l bo'yi teraklar, sovuqbardosh jiydalar, xom g'isht devorlar jonlanib, ilgarilash uchun meni kutishardi. Insonlar bilan hasharotlar oyoqlarini qo'lga olib, ko'zini ishqalab men o'taman deya bir-biriga tirsak qo'yishardi. Bizdan nariroqda, kim bilsin, qaysi yo'llardagi binolar soyasida balki u ham bo'lim tomonga kelayotgandir. Istamaygina odimlaysan; bu daf'a Injasuv arig'ining mog'orli izini surdirish istagiga tushasan. Yana kech borishning suyukligini, isnod ta'mini totsang, dunyolar senikidir. Menman! Endi undan ayro, undan uzoq, unga tegishli bo'lmagan mahalla odami bo'laman. Yoki bandasi. Zanjirlar bilan kishanlangan hayot, yurish, keyin esa cho'kayotib hushini yo'qotish. Yaratgan Egam Odam Atoga o'xshab meni ham ming yil yashatganda edi! Daraxtlardan jimir-jimir qilib suzilib kelayotgan quyosh nurlari bir necha daqiqa ichida mo'l gultuvakni osmonga ko'tarishga kuchi yetar; ammo undan menga qarab urayotgan taft yonimdan kelayotgan issiqchalik emasdi.

Xotinim bir-biriga berkilgan kunlarning tikishini yechib, yolg'iz o'ziga yarashgan ko'rinishda o'tirgan joyini tashlab yarim kechadan keyin paypoq yamash bilan o'zini chalg'ita boshladi. Menga ko'zi tushmaydimi? Bolalarni suv boshidan olib kelib sandiq xonasida qornini to'ydirib, keyiniga to'shaklariga ko'mib

uxlatishining hikmati nimada ekan? Sarv daraxtlaridan suzilib tushayotgan oy nuri emas, endi kun nuri edi. Buni bilib turardi. Qanotlarini tashqariga qarshi kerib odamni bir zumda shubhalantiruvchi o'yinlarini asta-sekin ko'rsata boshlardi. Albatta, unga aytaman. Boshqa kimga ham aytardim? Kalxatlar-u zag'izg'onlar, balki qaldirg'ochlarning palaxmonlardan, tayoqlardan hurkmasdan "Hozir o'tadi, qimirlamang, bolajonlarim!" kabi gaplaridan ular mening yo'limga ko'z tikkanlarini kimlar, qanday tushunadilar? Voz kecha olmaydigan yagona inson qanday qilib siqilsin, yiqilgan damlarimda meni topib: "Paypog'ingni yech, to'pig'i yirtilibdi yana..." — deya olardi. U meni yeb tugatadi, to'pig'imga qaragan o'sha xotin meni yeb tugatadi. Dunyoning barcha yozuv mashinkalari, nuqtali vujudlarining qo'rqituvchi nurini ochib ustimga hujum qilsalar-da, to'pig'imdan ûshlab so'kadigan, olib ketadigan o'sha!

G'ira-shira qorong'ilikda terak shoxlari orasidan taralgan nurni ko'zlarimiz bilan simirib, bir-birimizga qarab o'tirardik. Bu o't-yostiq ham, bu oqshom ham qanday yumshoq edi! Tong otganida meva-sabzavot sotuvchilarning "Oq yo'l, aka!" kabi so'zlaridan baxtiyorligimdan terimga sig'may ketaman! Suyaklarim qimirlar: tong otsa novvoylar ham, sandiqli otlarini to'xtatib: "Xayrli kun qo'shni!" — deya yaltoqlanib quyoshning suzilishiga yo'l ochsalar! Iflos mushuklar bilan qishloq bo'yidan yegulik qidirishga chiqqan qichima itlar ikki tarafga tizilib: "Yo'ling ochiq bo'lsin, baxtli odam!" — deya dumlarini tebratsalar!

Tushuntirmadim. Uni o'chirib boshqasiga meni tushunishi uchun yolvorish ham xayolimga keldi, lekin yolvormadim. O't-yostiqqa yana rohat, yana bezgin deyman, ariq yonida uzungina cho'zilib yaslandim. Ichimdan Yaratganga qarab bo'g'iq ovoz bilan hayqirdim:

— Shukrlar bo'lsin senga!

CHAQALOQ

U shunday tez yurmoqda ediki, yarim beligacha changga botib borardi. Tepadan, tikkasiga yondirib turgan quyosh uni anchagina esankiratib qo'ygan edi. Yurib borarkan, ora-sira ikki tomonga lapanglar, oyoq kiyimi yirtig'idan kirib turgan olov singari issiq tuproq oyoqlarini kuydirardi.

Ismoil ham yurmoqda, ham hech tinmasdan o'zicha eshitilar-eshitilmas allanimalarni g'udullamoqda edi. Quchog'ida ola-bula belboqqa bir chaqaloq o'ralgan. Chaqaloqning boshi Ismoilning o'ng qo'lidan tashqariga og'ib qolgan, yuzi jigarday qip-qizil. Qizil yuzini chang pardasi qoplagan. Chaqaloqning ko'zlari yumuq. Bo'yni juda ham ingichka...

Chang yarim beliga chiqqan. Ismoil ham yurmoqda, ham g'udullamoqda... Ter, uning ustidagi yo'l-yo'l choponidan tashqari chiqib, chang bilan qorishib loyga aylangan. U yon-bu yonda bug'doy o'rib, bog' bog'lovchilar ko'rinadi.

Ismoil bir tomonda bog' bog'lab ishlab turgan erkak-u xotinlar yoniga bordi. Quchog'idagi chaqaloqni arava ostiga, nam tuproq ustiga qo'ydi. Yonboshda sariq bir it tilini bir qarich chiqarib uxlamoqda. Aravaga tirmashib chiqdi: bochkadan bir kosa suv oldi, ko'tarib ichdi. Suvning ortganini ham ochiq, junli ko'ksidan pastga qaratib quyib yubordi.

Yelkasini g'ildirakka tirab o'tirib oldi. Oyoqlarini uzatdi. Oyoq kiyimining yirtiq joyidan bosh barmog'i ko'rinib turardi. Tirnog'i o'sgan, barmoqning osti taram-taram yorilgan...

Bog' bog'layotgan xotinlardan biri suv ichmoq uchun arava tomonga yurdi. Arava yoniga kelgach, rangi o'zgarib ketdi. O'zi mahmadonagina edi. Katta qora ko'zlarini baqraytirib:

— Nima bo'ldi, Ismoil qardosh, bu yerlarda nima qilib yuribsan? — dedi.

Ko'zini arava ostiga tikdi:

— Voy, marhuma, — dedi,— voy marhuma Zolam, voy ko'zlari surmaligim!

Egilib, bolani quchog'iga oldi.

— Bo'yni osilib qolibdi,— dedi,— bu endi odam bo'lmaydi. Voy Zola. Voy surmali Zola... Zola kabi xotin yo'q edi.

Ko'kragini bolaning og'ziga tutdi. Bola oldi.

— Boq,— dedi: Ismoil qardosh. Bolaning nimjonligi ochlikdan. Issiqda ham ancha holdan ketgan. Hurini chaqirayin, emizsin. Emchaklari to'liq. Bolasi uyda qolgani uchun ertalabdan beri sutini yerga sog'ib tashlamoqda.

Bolaning og'zidan emchagini tortdi.

— Quruq bo'lsa ham qo'yib yubormayapti. Hey, Huri qizim! Qizim Huri-yu... Kel! Kel!

Huri, ishlab turganlar o'rtasidan chiqdi.

— Kela qol, Huri! Zolaning bolasini ko'r... Kel, emizib qo'y.

Huri kelib, bolani olib, orqasini o'girdi.

— Voy,— dedi,— birov birovning rizqini yeyolmas ekan. Chidolmay turgan edim... Ko'kragimga sut to'lib ketgan edi. Sal qolsa yerga sog'ib tashlamoqchi edim... Birov birovning rizqini...

Boyagi mahmadona xotin davom etdi:

— Zola kabi xotin yo'q edi. Zolaning tengi yo'q edi. Turp qazigani borardik. Kulib turardi. Biram sochlari bor edi, bir quchoq... Tovlanib turuvchi sochlar... Bir qusuri bor edi. Yalang oyoq yerni bosib yura olmasdi. Hech oyoq kiyim topolmasa, oyog'iga chipta bog'lardi, yalang oyoq hech yerni bosmasdi. Bir qusuri bor edi... Yalang oyoq...

Huri bolani emchagidan ayirdi. Bolaning ko'zlari hamon yumuq edi. Faqat jag'i o'ynardi. Jag'ida, og'zining yoni-verida sut yuqi qolgandi.

— Tuproqqa sog'ib tashlamoqchi edim,— dedi Huri uh tortib. — Voy Zola rahmatli! Bolasi bunday sarson bo'lib qolmasa nima edi-ya?

Mahmadona xotin:

— Qardosh, — dedi, — Zola qanday o'ldi?

Hurining quchog'idagi chaqaloqni ko'rgan bir-ikki xotin, ishlarini tashlab arava yoniga keldilar. Yirtiq ro'molidan oppoq sochlari tashqari chiqib turgan Havo ona:

— Nima u, — dedi, — Zolaning bolasimi? Voy Zola!

Ko'zlaridan bir-ikki tomchi yosh tomdi.

— Voy, surma ko'zli Zolam. Qora ko'zginam. Bebaho qizim... Qanday bo'lib o'ldi, qo'zim! Qanday o'ldi?

Pakana, yuzlari ichiga cho'kkan qora Elif:

— Qanday o'ldi, Ismoil? Nima qilding? — deb so'radi.

Ismoil tinmay g'udullamoqda edi. Bo'yni osilib tushgandi. O'rnidan turdi. Orqasini qo'li bilan qoqdi. Huridan chaqaloqni oldi, qo'llari ustiga yotqizdi. Keskin bir tovush bilan:

— O'ldi, — dedi, — doktorga olib bordim, ukol qildirdim, foydasi bo'lmadi. Baribir o'lib qoldi.

Tez-tez yurdi-da, ketdi. Uzun oyoqlaridagi keng, yirtiq, qora cholvori shalvirar, cholvorining yirtiqlaridan ishtoni ko'rinib borardi. Xotinlar uning orqasidan qaraganlaricha qoldilar. Havo ona lablarini burishtirib ohista dedi:

— Dardli o'g'lon. Boyaqishni ko'ringlar, naqadar dardli! Qon yig'lamoqda... Hech qaysimizning yuzimizga boqmadi. Xotinini o'zi o'ldirganga o'xshaydi...

Chakak-chakak bo'lib ketgan qora xotin:

— Voy, jonim onam, Zolaga hech qaramagan, boqmagan, afting qurgur... Kezsin endi bolani ko'tarib, qishloqma-qishloq kezsin... Kezsin... yigirma kungacha doktorga olib borgani yo'q... Zola kabi xotin bormidi! Amina kampir o'lmaganda edi, Ismoilday sahroyi bir odamga Zola qurbon bo'larmidi!..

Huri o'tirgan joyida dedi:

— Kishilarning eshigida qoldi boyaqish. Ismoil juda mard yigit, lekin tortinchoq.

Havo ona:

— Bolani boqadigan birortani topa olarmikin?

Mahmadona xotin, ishlovchilar yoniga ketayotgan joyidan qaytib keldi:

— Narigi qishloqda boqadigan bir xotin bor edi. Xudo hech kimning bolasini onasidan ayirmasin.

Havo ona:

— Onasi o'lgach, o'zi ham o'la qolsa bo'lardi, Xudoyim. Nima bo'lardi? Nima uchun onasidan keyin qoldirding, Parvardigor? Bir o'ksiz bola bilan dunyoni to'ldirmoqchimisan? Voy Zola... Ish qistov vaqti... Ismoil nima qilsin?

Kun tepada edi. Hammayoqni chang-to'zon qoplagandi. Uzoqlarda, qishloqning berigi yonida jimirlagan nafis bir harorat tumani bilinar-bilinmas ko'kka ko'tarilmoqda edi. Keng vodiy go'yo bir alanga ichida yonmoqda, dala boshida turgan qalaylangan idishlar kun nurida yalt-yalt etardi.

Ismoilning ko'zlari terdan achishmoqda. Yo'lning bir chetida chang bosib oqarib ketgan, siyrak ko'lankali bir tut daraxtni ko'rdi. O'sha tomonga qayrildi. Chaqaloqning boshi qo'lining ustidan pastga osilib tushgan, ingichka bo'yni cho'zilib ketgan edi.

Chaqaloqni tut ostiga joylashtirdi. O'zi ham o'tirib, ustidagi ko'ylakni yechib siqdi. Olib borib, yo'lning qiyasida chang bosgan maymunjon butasi ustiga yoyib qo'ydi. Cholvorining pochalari loy bo'lgan ekan, ishqalab tashladi.

Chaqaloq ingramoqda edi. Yuzini, ko'zini pashshalar qoplagan edi. Qo'lini qattiq silkitib, pashshalarni haydadi. Chaqaloq yig'isini to'xtatmadi. Ismoil bolani tebratdi:

— Alla, qo'zim,— dedi,— allllla...

Bolaning yig'isi to'xtamadi. Yigit ko'ylagini shiddat bilan buta shoxidan tortib oldi, kiydi va yo'lida davom etdi... Chang-to'zon yarim belidan pastini ko'rsatmas edi. Chaqaloqning bo'yni osilib qolgandi, ingichka bir tovush bilan chinqirmoqda edi. Yo'ldan bir yuk mashinasi o'tdi. Havoda bir nafasda chang buluti ko'tarildi. Chang buluti ichidan chiqqandan so'ng Ismoilning burniga o'tkir bir botqoqlik hidi keldi.

O'ng tomonda qishloqqa qadar sholipoya cho'zilgandi. Yo'l chekkasidagi zovurda ustini chang pardasi qoplagan ko'lmak suv bor edi, keng sholipoya ustidan issiq quyosh ostida bug' ko'tarilmoqda. Sholipoya maydonining chekkasida, yo'lga yaqin bir joyda qo'liga kurak ushlagan, egniga bo'z chopon kiygan, oq soqolli, beli bukchaygan bir chol suvchi turardi, yuzidagi dona-dona ter uzoqdan ham ko'rinmoqda edi. Ismoil uning oldidan jadallab o'tib

ketdi. Boshi chaqaloqning boshi tarafga egilgan, qimirlamasdan boqardi. Suvchi:

— Hoy, — dedi, — ko'zingga qara, bola sho'rlikning boshi osilib ketibdi-ku.

Ismoil eshitmadi. Boshini osiltirgancha, yurib o'tdi-yu, ketdi. Suvchi:

— Xudo ko'rsatmasin, — dedi. — Bu kun dushmanlarning boshiga tushsin... Juda qiyin...

Ismoil jadallab qishloqqa kirdi. Chang, tor ko'chalarda mol tezaklari ust-ustiga to'plangandi. Tuproq ichida bir to'da tovuqlar titkilashib yurar, qip-qizil uzun tillarini osiltirgan itlar uxlab yotishardi. Qishloq ichida doriga birorta durustroq daraxt topilmas edi. Zovur chetlarida chang bosib, daraxt ekanliklari ham bilinmay ketgan mayda tollar bor edi, ular hali daraxt bo'lib yetishmagan, pastak butazor singari edi.

Ismoilning qarindoshlari turadigan uy qishloqning o'rtasida, qamishdan yasalgan, ustiga poxol bosilgan bir chayla edi. Hovlidagi eski, yog'ochlari singan, g'ildiraklarining temiri ko'chgan bir arava ostida tovuqlar, itlar yotardi. Bir o'rdak orqasidan mayda-mayda jo'jalarini ergashtirib yurardi.

Eshik ochiq edi. Uzun bo'yli, barvastaligi uzoqdan bilinib turgan bir xotin oyoqlarini qorniga bukib, boshini ostona yoniga qo'yib uxlab yotardi. Ismoil, boshi chaqaloq tomonga qayrilgan, yuzi ma'yus holda, eshik og'zida o'ylangancha turib qoldi. Bola ingrashdan to'xtamagan edi. Xotin boshini sekin ko'tardi. Bir to'da pashshalar uchib ketdi. Ko'zlarini uqaladi.

Jannat kampirning sochlari oppoq edi. Faqat bir qism sarg'ish tolalar bor edi, xolos. Qolgan sochlari hammasi sut kabi oq edi. Ingichka, oldinga qarab bukilgan beliga yirtiq, popuklari to'kilgan, kim biladi, qaysi zamondan qolgan bir belbog' o'ralgan edi. Kichkinagina ko'zlari pirpirab turardi. Erkaklarniki kabi zo'r iyagi yuziga mag'rur tus bergandi. Chaqaloqni qo'liga olib erkalatdi:

— Alla qo'zim, allla, o'ksizim. Allla qadrsizim... Allla.

Uy ichida u boshdan bu boshga qo'llarida chaqaloqni silkillatib yurardi...

— Allla, qadrsizim, allla...

Bola xuddi burab qo'yilgan patefonday tinmasdan chinqirardi.

— Odamlar, Ismoil, Zolaga qaramadi, deyishadi... Boquvsizlikdan o'lgan emish... Qaraydigan-netadigan odam yo'q. Yolg'iz o'zi... Sho'ring qurgurning gunohi bo'yningga... Shunaqa deyishayotirlar...

Tashqaridan ichkariga qarab bir ko'lanka uzandi. Qora cholvor ostidan semiz oyoqlari bilinib turgan, tor yelkali Do'ndi nomli juvon kirib keldi. Qoshlari, kipriklari qalin edi. Dudoqlari orasidan oppoq tishlarini ko'rsatib, har zamon bir kulimsirardi. Ko'zlari katta edi... Kipriklarining soyasi yuziga tushardi. Jannat kampirning quchog'idagi chaqaloqni oldi. Orqasini o'girib ko'kragini chiqardi. Bolaning og'ziga obordi. Bola ko'kragini oldi. Chinqirishdan to'xtadi.

Tashqarida bir qo'liga pichoq, bir qo'liga po'stlog'i archilmagan tol navdasi ushlagan holda ikkita qip-yalang'och bola turardi. Qorinlari do'mpaygan, bo'yinlari ingichka. Kekirdaklariga qadar loyga belangan edi. Loy qurib, taram-taram bo'lib yorilgan. Bolaning biri boshini ichkari cho'zib mo'ralab qoldi.

— Ahad,— dedi,— bir ko'rgin!..

O'rta barmog'ini ko'rsatdi.

— Bo'yni mana shunday ingichka. Shunday ingichka...

Ikkinchi bola ham bo'ynini cho'zib mo'raladi.

...Ismoilning ovozi go'yo o'zidan chiqmas, balki yonidagi devordan, yerdan va boshqa joylardan chiqayotganday edi. Ko'zlari yarim yumulgandi. Ko'zlarining oq-qorasi belgisiz, xomush edi...

— Xolajon,— dedi u,— oyoqlaringni o'payin, xolajon, bunda mening hech gunohim yo'q. "Bas, xotin dedim, Zola dedim, oz qoldi dedim... Sen dedim, ketma dalaga... Men o'zim yakka ishlayman... O'zi ham dedim... ozgina ish qoldi. Gapimga kirmadi. "Men, dedi, shunday kunni tilagan edim. Ish o'z-o'zimizniki bo'lsa, birovlar uchun ishlashdan qutulsam, o'lguncha ishlayman degan edim. Suyaklarim to'kilib tushguncha ishlay beraman. Sen, dedi, qarollikdan, birovning eshigida yurishdan o'zing ham endi shu yil qutulding... Men necha yillardan beri shu kunni kutmoqda edim. Sheriklik, qarollikdan yaxshiroq, dedi. Yarmisi birovniki bo'lsa, yarmisi meniki". Shuncha qistasam ham uyda qolmadi. Og'ir

oyoqli xotin... Qorni burniga yetay deb qolgan. Ishlab turganda yuraklarim ezilib ketardi. "Zola der edim, shunday qilma derdim". Yo'q derdi..., shu kunni kutib keldim. O'zim uchun ishlaydigan vaqtni ham ko'rarmikanman derdim. Birovlarning eshiklarida ezila berib, belim bukildi. Juda ham berilib ishlardi. "Men bu kunni orziqib kutardim. Otam birovlarning eshiklarida xizmatkorlikda o'lib ketdi. Men ham kishilarning eshigida surinib yurardim". Telba kishidek doim "men bu kunlarni kutardim" der edi.

Itlarning tillari bir qarich osilgan, qushlar tap etib havodan tushadigan issiq kun edi. O'roq o'rardik. Kun tepamizda edi. Issig'i ustimizga mix kabi sanchilmoqda edi. Zola orqasiga bir kattakon bog'ni ko'tardi. Ikki odam bir bo'lib ko'tara olmas edi. "Jon xotin, o'zingni bunchalik urintirma" desam, "Men shu kunni kutardim" der va ko'zlariga jiq yosh olardi.

Bir vaqt qarasam xirmonga borib yetmasdan, yarim yo'lda yukni yelkasidan tashlab yubordi. "Nima bo'ldi, xotin?" dedim. "Sanchiq, dedi. Zo'raydi. Ertalabdan beri bunchalik emas edi, endi hozir zo'rayib ketdi. Pichoq sanchilganday bo'layotibdi, dedi. O'ldiradigan darajada dedi. Men uyga boray, sen ishingga qara, ishlayver, yeydigan narsamizni chumoliga tashlab qo'yma, o'z joyimizda o'zimiz uchun tirishib ishlaylik". Qornini ushlaganicha qishloqqa qarab yo'l oldi. Bir joyga borib yiqildi...

...Ismoilning ovozi o'zgardi. Lablari titradi. Dastlabki gapirishi to'xtadi. Endi o'z ovoziga qaytdi, yig'lamsirayotgan kabi chiqayotgan ovoz tetiklashdi.

— Og'oning oldiga borib arz qildim. "Og'o" dedim. "Xotinim o'layotir... Doktor kerak" dedim. "Albatta, doktor..." Og'o kuldi. "Ismoil, dedi, ular yotib-yotib tiriladilar. Doktur-muxturning keragi yo'q. Ularning joni temirdan. Nimaga hovliqasan?" dedi. "Ishingga qarayver" dedi. "Yo'q" dedim, "Og'o, bor mol-jonim, ona sutiday sizga halol bo'lsin. Menga yigirma besh lira pul topib bering". Qaytarmadi, berdi. Bir arava topib, doktorga olib bordim, doktorning eshigiga kelsam, doktor yo'q. Doktor yaylovga ketgan ekan. Shaharni boshdan oyoq aylanib chiqdim. Oxiri bir feldsherni topdim. Kelib Zolani ko'rdi... So'nggi nafas... Qulog'imga egildi... "Bu o'tib qolibdi-ku" dedi. Dedimki, "O'tsa o'tgandir, o'li-

shini o'zi sezgandi... Sen bir ukol qil, mayli..." "Men, dedi, o'sal yotgan odamga ukol qila olmayman. Nima foydasi bor?" Oldiga pulni qo'ydim. "Aha, dedim, senga pul kerak. Ukol qil. Pul ketsa ketmaydimi? Shu yog'ochga ukol qildiramanmi, otimgami — senga nima? Senga daxli yo'q-ku! Qani, ukol qil, birodar" dedim. "Ko'nglim armonda qolmasin, xaloyiq onam, xotinim qolmay so'kmasin, do'st-dushman ichida", dedim.

Yaxshi odam ekan, ukol qildi. Yana bir ukol qildirdim. "Yana bir marta ukol qil, birodar, Zolaning menda haqi juda ko'p" dedim. Bir marta ukol qildi... Ayni peshin, kun issig'ida aravani qo'shdim. Oftob yondirmoqda... yo'lga chiqdik... O'ladigan bo'lsa ham qo'rg'onda o'lsin dedim. Kun shu qadar issiq ediki, aslo chidab bo'lmasdi... Olamni olov bosganday, hammayoq lovillardi. Yarim yo'lga kelganda Zola qaddini rostladi. Bir narsalar gapirmoqchi bo'ldi, gapirolmadi, boshi qo'yi tushdi. Og'zidan chiqqan: "Ming yiling... Bolaginam..." degan so'zlar qulog'imga chalindi. Ohistagina, sezilar-sezilmas gapirdi.

Jannat kampir:

— Shuncha yildan beri boyaqish endi o'z ishida ishlayotgandi, u ham nasib qilmadi. Voy,— dedi,— bechora Zola...

Ismoil:

— Ko'zlarini yonga o'girdi. Qarasam, nafas olmayotir. Bola quchog'ida... Qarasam, nafas yo'q... Oftob uribdi. Hushimni yo'qotdim. Boshqasini bilmayman. O'zimga kelib qarasam, chang va tuproqqa belashib yotibman. Hamma yonim achishib og'riydi. Aravani ot olib qochgan bo'lsa... shunday yonib turgan oftob ostida... Otlar deb o'yladim, olib borib bir jarlikka yumalatgan bo'lsa... Tirik vaqtida tuzuk bir kun ko'rmadi... O'ligi dedim, o'ligi xor bo'lmasin; bola dedim, qurt-qumursqaga yem bo'lmasin. O'lmasdan qolarmikan? Onasiz bola yasharmikan? Onasiz bolaning yashaganini kim ko'rgan? Birovlar onalik qila olmaydi. Shunday bo'lsa ham yugurayin, yoni-verimga qarab borayin, bola tushib qolmaganmikin...

Shu ahvolda chopa-chopa kelib qarasam, qishloq o'rtasida odamlar to'planibdi... Qaysi qishloq? Haligacha qaysi qishloq ekanini bilmayman. Bir qishloq, xullas... Odam shunday ko'p to'plan-

ganki, igna tashlasang yerga tushmaydi. Qulog'imga "o'lgan" degan tovush eshitildi. To'g'ri olomonning ichiga kirib bordim. Arava olomon o'rtasida, bola ham onasining quchog'ida yotibdi. Yuzi-ko'zi chang bosgan... Ko'zlari yumuq... Ayollar yig'lamoqda. Qaysi qishloq ekanini bilmayman. Ayollar to'xtamay yig'lar edilar.

Aravaga minib olib, haydab ketdim. Kimsan o'zing? — demadilar. Bu o'lik sening kiming bo'ladi? — deb so'ramadilar. Qayoqqa ketayotirsan o'zing? — demadilar. Og'izlaridan churq etgan gap chiqmadi. Hayronlikda orqamdan qarab qolaverdilar. Bola mening qo'limda qoldi... Ish zamoni, kuch zamoni... Yuqori qishloqqa olib keldim. Sariq qiz degan emizuvchi bir ayol bor ekan. Bolani unga berib, qishloqqa qaytdim. Ikki kundan so'ng bolani olib kelib, oldimga uloqtirdilar... "Mening sutim" degan emish u xotin, "o'z bolamga yetmayotir. Birovning bolasini deb o'z bolamni o'ldirmayman". U tomonlarda emizadigan biror ayol topolmadim. Kimga bersam, qaytib tashlab ketdi. Ish ko'p vaqtida qo'l-oyog'im bog'lanib qoldi. Sut bersang sut ichmaydi. O'lib ham qo'ya qolmaydi. Ajab og'ir bir hol. O'lsa-ku, bu azoblardan qutulardi. Bir qo'limda bola ari kabi g'ing'illab turadi. Bir qo'lim ishda... Juda shoshib qoldim. Mana, ko'rib turibsiz... Bir onasi sensan. Nima qilsang qil. Ish, kuch zamoni... Hamma narsamiz ochiq-chochiq yotibdi.

Jannat kampir boshini osiltirgancha, qimirlamay turardi. Birmuncha vaqtdan keyin boshini sekin ko'tardi.

— Ismoil...— dedi. So'ng jim bo'ldi.

Ovozi titroq, yig'i aralash chiqmoqda edi.

Ismoil:

— Nima deysan, xola,— dedi,— bir narsa degin-chi?

— Ismoil,— dedi Jannat kampir,— hamisha birovlarning eshigida ishlashdan qutuldik, endi o'z xo'jaligimizda tinmay ishlayotirmiz... tuzukroq kun ko'rmadim deb zorlanardi Zola... Shunday emasmi? Bolamga yaxshi qaranglar, degan edi.

Oqshomga yaqin tog'asi uyga keldi. Baland bo'yli bir odam edi. Oftobda qoraygan yuziga somon parchalari, qipiq, chang yopishgan edi.

— Ismoil, — dedi u, — kecha-yu kunduz bolasini bag'riga bosib yuradi deb aytishadi... Jinni bo'libsan.

Chaqaloq, o'rtadagi ustun yonida bir jun to'shak ustida yig'lab yotardi. Kampir ko'zi bilan imlab qo'ydi, chol gapni boshqa yoqqa burdi.

— Demak, shundaymi, Ismoil? Ahvolingni eshitib yuragimiz ezildi.

Jannat kampir:

— Hoy kishi,— dedi,— Masdulloga xabar qil, kelsin. Cho'loq Amin bilan uning xotini bola emizadi. Yana Huri ham bor, lekin u boyaqish o'z bolasini vaqtida emizmaydi. Masdulloning xotinida sut ko'p. O'zi ham ozoda xotin... Masdulloga odam yubor. Xotini, agar Masdullo rozi bo'lsa, emizaman degan edi.

Birozdan keyin Masdullo, yuborilgan odam bilan birga kirib keldi. Past bo'yli edi. Ko'm-ko'k kamzulining yoqasidagi bir parcha qizil latta birinchi qarashdayoq odamning ko'ziga chalinardi. Qunt bilan taralgan sochlari yangi kepkasi ostidan chiqib turardi. Cholvori ham yangi edi. Oyog'ida ham poshnasi past, Adana shahrida tikilgan sariq tuflisi bor edi.

Tog'a, Masdulloning qo'lidan ushlab, yoniga o'tqizdi.

— O'g'lim,— dedi,— jon o'g'lim, Masdullo...

Ustun ostida chirqillab yotgan bolani qo'li bilan ko'rsatdi.

— Mana, ko'ryapsanmi... Xudo hech kimning boshiga solmasin. Bandaning boshiga ne ishlar tushmaydi. Qul o'lmas, rizqi kamimas. Xotiningning suti ko'p emish. Bola bechorani emizsin, Ismoil buni unutmaydi. Nima deysan? Yaxshilik unutilmaydi. Yaxshilik qil — suvga sol, suv bilmasa baliq bilar, baliq bilmasa Xoliq bilar... Bir yaxshilik qilib ko'r... Bilarlar...

Masdullo boshini quyi solib, ingichka lablarini yumib, hech bir narsa demasdan turardi.

— O'g'lim,— dedi chol,— hozir ish, kuch zamoni... Uyda hech kimi yo'q... Xotin yo'q, bola ham yo'q... Ismoilning peshonasi... Ko'z oldingga keltirib ko'r... Tosh bo'lsa ham odamning yuragi erib ketadi... Ismoil g'arib bir yigit... Endigina xizmatkorlikdan qutuldi... Yana bola tufayli ora yo'lda qolmasin... Nima deysan, o'g'lim Masdullo? Biror narsa deysanmi?

Masdullo vaziyatni buzmay, boshini quyi solib, qimirlamay o'tirardi.

— Yaxshilik qilish fursati har vaqt uchramaydi. Qara, bunga Xudo ham rozi. Jannatning eshigini ochasan... Sening xotining boqmasa, bu bola o'ladi. Bitta jonni qutqazib qolasan. Bir jonning tirik qolib, yashashiga sabab bo'lasan. Chinqirib yotishini qara... Bunga hech qanday yurak chidab tura oladimi?

Masdullo o'rnidan turib yurdi. Bir oyog'ini ostonadan nari qo'ygandan keyin, boshini orqaga qayirdi:

— Amaki, — dedi, — amaki! Masdulloning xotini xizmatkor deb senga kim aytdi? Mening xotinim xizmatkor emas!..

Achchiq qilib, chiqib ketdi.

* * *

Ismoil boshqa yerga burilmasdan, to'ppa-to'g'ri bolasini qoldirib ketgan Aminaning uyiga bordi. Aminaning uyi, ustiga yopilgan poxollari eskirgan, devorlarga tappi yopilgan, tezak aralashtirib suvalgan birgina derazali kichkina qamish uycha edi. Ichkarida juda oz ashyosi bor edi. Bir burchakda arqonga bog'langan buzoq turardi. Buzoq bog'langan burchakdan sigir tezagi va siydik hidi kelmoqda edi. Bolalarning beshigi buzoq yonida edi. Ikkala bola kirlikdan qop-qora bo'lib ketgan, yorilib ketgan eski beshik ichida yonma-yon yotardilar. Yumuq qo'lchalari bir-birlariga chirmashgandi. Uy ichi boshdan oyog'igacha iflos. Bir qarich keladigan kichkina darcha ostida, ustlari po'panak bosib ketgan ikki yog'och paqirdan suv sizg'ib turardi.

Ismoil beshik yonida turdi-turdi, qaradi...

— Singlim, — dedi, — singlim, Amina, bu bolaga nima bo'lgan?

Bolaning terisi suyagiga, qorni beliga yopishib, ko'zlari ichiga cho'kib ketgan edi. Chidab turolmasdan tashqariga chiqdi. Amina xaltani silkitib gapirib turgan edi:

— Buni qara, Elif ovsin, uning keltirgan narsalarini qara, bo'yning uzilgur, daroz tuyaning qilgan ishini ko'rgin... Tag'in qaqqayib bolaga qarab, bolaga nima bo'ldi deb so'raydi... Ochiq

mozor bo'ldi... Bo'yning uzilgur, ikki kilogina shakar keltiribdi... Tag'in bolani emiz emish...

Qo'liga tushgan narsani xaltadan olib u yon-bu yonga irg'itdi.

— Bola o'ladi. Mening bolam o'ladi. O'lsa ham el-yurtning gapidan qutula olmayman.

Qora Elif:

— O'ziga olib borib tashla, singlim,— dedi,— olib borib tashla!

— Shunday qilmasam, bolam o'ladi, axir... Birovning bolasini boqib, o'z bolasini o'ldirdi deb gap qilishadi.

Ismoil devorga tiralib turgan joyida qaddini rostladi. Chuqur bir uh tortdi. Mast kishiday gandiraklab chiqib ketdi. Ikki kundan keyin Amina, qarg'ab-qarg'ab bolani keltirib, Jannat kampirning oldiga tashladi.

— Yurt nima deydi, agar meniing bolam o'lib qolsa, yurt nima deydi! — dedi.

Jannat kampir ham bolani otasiga jo'natdi.

* * *

Xirmon bir odam bo'yi yuksaklikda. Kun erta edi. O'rtadagi g'aram anchagina ko'payib qolgandi. Ismoil qo'lidagi panshaxani bog'larning ustiga otdi. Xirmonning soya tomonida turgan ko'zani boshiga ko'tardi. Yanchuvchi yog'och ustida ingichka bo'yinli kipriklari uzun bir bola turardi. Bola oldindagi ikki zaif to'riq otni hadeb qamchilamoqda edi, hali uqalanmagan boshoqlar ustida gir aylanmoqda edi. Hammayoqni kishining dimog'ini achituvchi somon, qurigan o't hidi bosgandi.

Ismoil, xirmonning ko'lankali joyida chinqirib yotgan chaqaloqning og'ziga sut to'ldirilgan va bo'g'ziga emizik kiydirilgan araq shishasini to'g'riladi. Bola ovozini o'chirdi. Sekin-sekin ema boshladi. Ismoilning o'ng tizzasi yerga tiralgan edi. So'l chakkasidan cho'zilgan uzun, chuqur yara o'rni chang va somon parchalari bilan to'lgandi, yirtiq, yo'l-yo'l ko'ylagining yoqasi ochiq, jun bosgan ko'kragi ko'rinib turardi.

Ko'ylagini yechib, tizzasini yerga tayab shishani tutdi. Temirchining damiday pishillardi. Don yanchib turgan bolani chaqirdi:

— Mamat, kel, kel noningni ye!

Mamat otlarning boshini bo'sh qo'yib keldi, xaltasini ochdi.

Ismoil bir qo'li bilan ovqat yemoqda, ikkinchi qo'li bilan shishani ushlab turmoqda edi. Shisha bolaning og'zidan chiqib ketguday bo'lsa, darrov chinqirib yig'i boshlar, Ismoil uning yig'isiga hech chidab turolmasdi.

Mamat ham ovqat yegani holda gapirardi:

— Qarang, Ismoil amaki, bizning qishloqda bir bola bor edi.

Chaqaloqni qo'li bilan ko'rsatib, davom etdi:

— U ham xuddi shu singari bo'lgan. Onasi o'lgan ekan. Otasi uni quchog'ida olib yurgan... Kambag'al odam bo'lgani uchun hech kim unga qaramas ekan, onam shunday deb gapirgan edi. Hech kimi ham yo'q ekan. Bola ochligidan o'lar holga kelgan, ochligidan yig'layverib esi ketgan. Hozir shu bola bor, kurd o'g'li deyishadi. Onam aytardiki, uning otasi kurd ham emas, boshqa ham emas... Onam shunday derdi. Otasi bir kecha chaqaloqni bir eski qopga o'rab, qishloq o'rtasidagi buloq boshiga qo'yib qochib ketgan emish. Boshini olib ketibdi. Bolani kurd qizi olib, katta qilgan emish. Hozir uni kurdning o'g'li deyishadi. Kurd qizi bola qilib olgan. Otasi boshini olib ketganicha, qaytib qishloqqa qadam bosmagan... Men qayoqdan bilaman, onam shunday deb gapirib bergan edi.

Ismoil birdan o'rnidan turdi. Ko'ylagini oldi, qurigan ekan. Tezlik bilan kiyindi. Bolani qo'lga olib, yo'lga tushdi.

* * *

Ko'r kampir oyoq sharpasini eshitib, yuzini eshikdan yon tarafga o'girdi:

— Kim u, kelgan odam kim? Quchog'ingda chaqaloq bormi? Shu kelgan ovoz chaqaloq ovozi emasmi?

Ismoil:

— Men, — dedi, — ona, bu — men.

Ko'r kampir:

— Aybga buyurma, bolam, ovozingdan taniyolmadim.

Ismoil:

— Menman, ona, — dedi, — Avshar Ismoil... Durmush og'aning eski xizmatkori...

Ko'r kampir, zahar kabi achchiq, yumshoq yig'lamsiragan bir tovush bilan:

— Kuydik, — dedi, — hammamizning ichimiz achidi Zolaga... kun ko'rmadi boyaqish. Iflos oqsoq, Zolaning uvoliga qolsin, bolasining uvoliga qolsin. Chaqaloqni keltirib uning oldiga tashlagan deydilar, shundaymi? Ohh, agar o'g'lim shu yerda bo'lganda, Huri ishga bormas edi. Zolaning gul xotiri uchun bolasini boqar edi... Bolagina qo'lingda yig'lab turmasin, yotqiz uni beshikdagi bolaning yoniga... Yotqizdingmi? Allla, alllla... Onasiz qo'zi alllla...

Beshikni kampir sekin-sekin tebratdi. Ismoil:

— Ona,— dedi,— Mamatning muddati qachon tamom bo'ladi? Qachon tamom bo'ladi axir?..

— Alllla. Allla, kelib qolar, allla...— So'ng g'azab bilan:

— Ooooh, — dedi, — mening o'g'lim. Hukumat kecharmi haqqindan? Alla, allla, allla... Bu yoshga kirdim. Qulog'im bilan eshitmadim. Allla, onasiz qo'zi, alllla... Yo'l kirasi to'plangan, to'plangan Ismoilim, to'plangan qo'zim... Allla, kambag'alim, allla... allla... Hukumat aytarmish, bersin pulimni, so'ng qo'yvoraman o'zini... Aytarmishki hukumat... Allla jonim, alllla. Agar pulimni bermasa o'zi bilar dermish, yota berar o'lguncha... Alllla, yurt qo'lida qolgan bolam, alllla... Oz-moz pul ham emas, qo'zim, bir qarz bilan bitmas qo'zim... Alllla o'ksuzim, allla. Bir Hurining o'zginasi ishlamoqda. Bir xotinning ishlashidan nima chiqar? Alllla, Zolaning chaqalog'i, allla. Necha marta boray dedim, yiqilay dedim hukumatning oyog'iga... Foydasi yo'q deb aytdilar, ellik pora pul bo'lmasa. Alllla, alllla...

Kampirning o'tirgan uyi bir yoniga qiyshaygan ikkita karavot sig'arli kattalikda, devorlari suvalmagan, tepadagi qamishlari surulib, kun nuri tushib turgan, lekin ozoda bir kapa edi.

Ko'r kampir eshik tomonga qarab o'tirar, yuziga yorug' tushib turardi. Sekin-sekin beshikni tebratib, alla aytardi.

— Allla, alllla... Onasizlar shunday tinmasdan yig'lar... Allla, alllla... Uuuuf... menga ham bir narsa bo'lib qolmasa. Alllla, allla. Kunim yaqinlashib qoldi, bo'lmasa... Mamat ketib qolgandan beri meni Xudoning bergan kuni isitma tutadi. Allla, allla. Dirdir titratib isitma tutadi. Hech holim, darmonim yo'q. Allla, gulim, allla.

Allla, tog'larning go'zal chechagi yig'lama, allla... Ooh Mamat o'g'lim shu yerda bo'lganda edi... Allla, alla... Zolaning bolasini bunday eshikdan eshikka surintirarmidim. Allla, allla.

Beshik tebratishdan to'xtadi.

— Qaysi yondagi, Ismoil? Qaysinisi Zolaning bolasi?

Ismoil kampirning qo'lini olib, bolaning ustiga qo'ydi. Ko'r kampir sekin-sekin, bolaning yuzlarini silab ko'rdi.

— Voooy, — dedi, — voooy yetimcha. Faqat terisi bilan suyagi qolibdi-ku. Huri o'rilgan bug'doylarini to'plab tamomladi. Endi paxtasini chopishi kerak... Alllla...

Kun botayotganda Huri keldi. Ichkari kirar-kirmas ishni angladi. Bir yonda ko'r kampir cho'zilganicha, uf torta-torta titramoqda edi. Har oqshomga yaqin bezgagi tutardi. Ismoil ham beshik boshida, sekin-sekin tebratib o'tirardi.

Hurining ko'rinishi yigirma yoshlarda edi. Yuzi oftobda kuyib, qop-qora bo'lgan.

— Ismoil qardosh,— dedi u,— senga nima desam ekan? Senga men nima deyin? Yuragim parcha-parcha bo'lib ezilib ketyapti axir, men senga nima deyin? O'zing ko'rding, men sutimni yerga sog'ib tashlayapman, oqshomga qadar ko'kraklarim shishib ketadi, bolamni emizolmayman-da, yerga sog'ib tashlayman. Men endi senga nima deyman, Ismoil qardosh? Men nima deyin? Agar Mamat bo'lganda edi, Ismoil qardosh...

Ismoil:

— Singlim,— dedi,— Huri singlim, nima istasang beraman. Xirmoningni men yanchaman, xirmonim bitgach, eng so'nggi umidim senda...

Huri:

— Ona,— dedi,— sen nima deysan? Men nima deyin endi? Men nima deyin?

Ko'r kampir uh-uh aralash:

— Qizim,— dedi,— qizim, qora ko'zli, surma sochli xonim qizim, ko'z ko'rib turib chaqaloqni o'ldiramizmi? Hozir ham o'lgandan battar... Zolaning bolasi... Men nima deyin? Zolaning bolasi... Nima deyin? Zoladan qolgan tabarruk...

Ismoil, ustidan tog' qulaganday yengillashdi, uydan chiqdi.

* * *

Huri ikki bolani bittadan qo'liga ushlagan, ko'r kampir esa uning etagini tutgan holda, orqadan kelmoqda edi. Dalaga yetib borganlari zamon tonggi shafaq endi oqara boshladi.

Giyohlarni to'shak singari to'shab, Huri bolalarni yonma-yon yotqizdi. Ko'r kampirni bolalarning yoniga yotqizdi. Tonggi g'ira-shirada hali paxtani o'tdan farq etib bo'lmas edi. Tong yorisha boshlagach, chopiq qila boshladi.

Dalaning hech yerida yaqinda ham, uzoqda ham birorta daraxt yo'q edi.... Birorta butazor ham ko'rinmasdi... Dalaning hamma joyi shunday edi. Ketmonni har urganda, toza tuproq hidi qo'zg'alardi. Quyosh yuksalib, to'rt tomon qizib ketgach, ko'r kampir Huriga:

— Qizim, — dedi, — qizim Huri, bolalar qizib ketdi... Issiqdan o'lib qoladi bular, surmali qizim, beri kel, shu bolalarni mening soyamga yotqizib qo'y...

Huri keldi, ko'r kampirning orqasini kunga teskari o'girib, bolalarni ham uning ko'lankasiga joylashtirdi.

— He ona, — dedi, — kun tepaga kelgach ko'lankang qolmaydi, ko'lankang yo'qolganda nima qilamiz? Voy onajon, innaykeyin nima qilamiz?

Ko'r kampirning lablari qaltiradi. Ingichka, burishgan lablarini kampirning betidagi qatma-qat burishiqlari orasidan ajratish ham qiyin edi. Yuzi, kaft singari kichkina edi. Ajinlar bo'lmaganda ham uning yuziga boqqan odam umri chopiqda o'tganini darrov bilaverar edi. Ko'zlari ichiga cho'kib ketgan edi. Yumuq ko'z qovoqlari ostida ikki soqqaday narsa qimir-qimir etardi. Yupqa bir teri bilan quruq suyaklari qolgan, tomirlari ko'rinib yotgan qo'lining ustida quyosh dog'iga o'xshash bir to'da katta-kichik dog'lar bor edi. O'tirgan yeridan u qop-qora, kichkina bir ko'lankaday ko'rinardi. Chaqaloqlar yig'lagudek bo'lsa, mehr to'la tovushi bilan Hurini chaqirar, emizdirar va alla aytardi:

Bolam, seni uxlatayin, allla, alllla,
Bog'chalarda o'ynatayin, allla, allla.

Ko'r kampirning kuygan kishining yuragiga jazillab tegadigan ovozi bor edi.

Quyosh yuksalgan sari Hurini chaqirar, chaqaloqlarni o'ziga yaqinroq yotqiztirar, ustlariga egilib, soya qilardi. Dam o'tmasdan, bolalarning ustiga oftob tushib qolmadimi, deb Huridan so'rab turardi. Ko'r kampir chaqaloqlarni to o'z qorni ostigacha tortib, ularni oftobdan pana qildi. Sekin-sekin tebranib alla aytmaganda, kishining ko'ziga xuddi uxlab o'tirganday ko'rinardi.

Bolam, seni uxlataman, allla, allla,
Bog'chalarda o'ynataman allla, allla.
Olib keldim bolam seni, oooy, oooy
Yashil beshik to'shagidan, allla, allla.
Onasini emmagan bola, oooy, oooy
Onasining hidin bilmas, allla, allla.

Alla aytarkan, o'ng tomonda yotgan Zolaning bolasini oyog'idan silardi.

Bolam seni uxlataman, alla, alla,
Saroylarda o'ynataman, allla, allla.

Kun tepaga ko'tarildi, kun kuydirdi, pishirdi, ammo kampir har qanday bo'lsa ham kun daladan ketguncha bolalarning yuzlariga uning nurini tushirmadi. Kech kira boshladi, quyosh pastga tushayotganda kampirni bezgak tutdi. Kampir sho'rlik dir-dir titrab, yerga yumalab qoldi. Dir-dir titradi, uzoq vaqt issiq tuproq ustida qunishib, ag'anab yotdi.

Har kun shu xilda davom etdi. Kun asr bo'lguncha, kampir chaqaloqlarning yuzini oftobga ko'rsatmasdan olib o'tirar, asrdan keyin bezgagi tutardi...

Besh tanoblik yerning g'o'za chopig'i bitguncha ahvol shunday kechdi. Oxiri, bir parchagina yer qolgan edi. Kaftday kichkinagina bir yer... Na choraki...

Shum xabar tez tarqaldi. Ismoil xirmonini bitirib, bug'doyini tashib turgan paytida kelib so'zladilar.

Urganday bo'ldi. Borib qarasa, Huri yotibdi, yuzi sap-sariq, ko'zlari ichiga kirib ketgan... Ismoil qo'rqa-qo'rqa yaqin kelib:

— Singlim, — dedi, — singlim, Huri, boshing omon bo'lsin. Xudo rahmat qilsin kampirni. Dunyoda bir yorug'lik ko'rmadi... Mozoriga nur yog'ilsin.

Huri yig'lamsiragan titroq bir ovoz bilan:

— O'ldi, — dedi, — ikki kun bo'ldi... Bolalarni yaxshi ko'rardi boyaqish. Shundayam yoqimli alla aytardiki, insonning yuragini eritardi. Bir alla aytishi bor ediki, tog'-u toshni eritardi.

Ismoil:

— Nur to'lsin mozoriga, yorug'lik degan narsani ko'rmadi.

Huri yig'lamsirab, dedi:

— Derazamizning oynasi bo'lmaganidan, yerda uni pashshalar talab yotardi. Kampir shundan kasal bo'ldi deydilar. Bir alla aytardi, yuraklarni eritardi. U alla aytganda, odamning yuragi parcha-parcha bo'lib ezilib, og'ziga kelardi. Bir alla aytardiki, hammani maftun qilardi.

Boshini bir tomonga o'girdi:

— Kuyib ketayotirman, qardosh, — dedi, — to'rt tevaragimni otash qopladi.

Ismoil bir necha vaqt tikilib turgach:

— Singlim, — dedi, — mana bu narsalarni senga keltirgan edim. — Qog'oz xaltadagi shakarni yostiq boshiga qo'ydi. Beshikda bolalar tovush chiqarmasdan uxlab yotishmoqda edi. Beshikdan o'z bolasini olib bag'riga bosdi. Eshik yoniga borib, orqaga qaytdi.

— Singlim, — dedi, — singlim Huri, xirmoning uchun hech g'am yema, men o'zim yanchib beraman. Xirmoning uchun ko'nglingga biror narsa kelmasin.

Yiltirab turgan somon parchalari qorishgan chang yo'l ustidan quyuq bir bulut ko'lankasi o'tdi. Janubda, narigi tomonlarda, uzoqlarda. O'rta dengiz ustida yelkan singari oppoq, to'p-to'p bulutlar bor edi. Keng dala, to'lqinsiz bir dengiz kabi moviylashib, tep-tekis ravishda ko'z ilg'agani qadar uzoqlarga cho'zilardi. Narigi yoqda dalalarni qurshagan ko'm-ko'k tog'larning quyuq ko'lankalari chap tomonga qarab cho'zilgandi. Ismoilning yarim belidan pasti chang ichida ko'rinmas edi.

So'l tomondagi, qishloq ostiga qadar cho'zilgan yashil maydondan, sholipoyadan burunga o'tkir bir botqoqlik hidi urardi.

Yo'l bo'ylab uzangan zovurlardagi ustini changdan qaymoq bog'lagan suvning yuzi shabada tegib burishardi.

Chaqaloqning boshi o'ng qo'l ustida edi. Osilib tushgandi. Ko'zlari ichiga botib ketgan. Bo'yni, boshini tutmaydigan darajada noziklashgan, burishib, qorayib ketgan, terisi suyaklariga yopishgandi. Jag'i osilib, teriday yupqa lablari ham ichkariga cho'kkan. Ochiq og'ziga pashshalar kirib chiqmoqda. Ismoil o'z boshini bolaning boshi turgan o'ng qo'li ustiga egib o'ychan boqmoqda edi. Ham tikilib boqmoqda, ham yo'l yurmoqda edi.

BU HAQDA MENDAN ESHIT

O'quv zali bo'm-bo'sh. O'ng va chap tomonda ikkita uzun stol. Stol atrofiga kursilar terilgan... Devorning to'rt tomoni shipgacha kitob javonlari bilan to'lgan, xuddi akvariumdagi baliqlarga o'xshaydi.

Usmon zerikib kitobga qarardi. Bir soatdan beri kitob o'qimoqchi bo'lardi. Endi o'qishdan voz kechib, kitobdagi suratlarga tikila boshladi. Kitob muallifi butunlay aqldan ozgan ekan-a. Balki yoshligida muzqaymoq olib berishmagandir. O'quv zali bo'm-bo'sh. Odamning uyqusi keladi. Havoda chivinlar vizillaydi. Javon oynalari singan, boshqa oynalar ham tushib ketmasin uchun ular qog'oz qirqimlari bilan yopishtirib qo'yilgan.

U mudrab pinakka ketdi, to'satdan kutubxonachi kirib keldi. Ancha vaqtdan beri qaysi jahannam tubida edi-ya.

Kutubxonachi Usmonning yonidan o'tayotib shunday o'qraydiki: "Hali ham o'tiribsanmi, bekorchi daydi, o'qishdan to'ymadingmi, sanqi?! Tentak, bir ishning boshini tutsang yoki qandaydir ishga nafing tegsa bo'lmaydimi? Yoxud kimningdir dastyori bo'l... Nega safsata sotilgan kitoblarni o'qiysan, bilmayman..."

Kutubxona xodimining boshi gavdasiga nisbatan ancha katta bo'lib, orqasida kichkinagina bukiri ham bor edi. Xuddi o'rtakash qiziqchiga o'xshaydi. Yuzidagi burni katta, burun bilan jag' orasida esa xuddi o'rgimchak to'ri turgandek. Ko'zlari naq kosasining ichida. Yuz terisi o'lik terisiga o'xshardi. Xuddi burungi zamonda qiynalib o'lik terisi bilan qoplangandek. Ayniqsa, yonoqlari biroz bo'rtgan. Quloqlari burishib qolgan.

Kutubxonachi o'tirayotib Usmonga yovqarash nazar solib salom berdi. Usmon nima bo'lganiga hayron, hayratomuz unga tikildi. Xolbuki, unga hech narsa bo'lmagandi.

O'rtada qandaydir sovuqlik hukmron edi. Ular bir-birini yoqtirishmasdi. Bunga arzimagan narsa sabab bo'lgan: Usmon dastlab kutubxonaga kelganida. "Sizda:

"Oshiqning taxta karavoti",
"Hushtakli deraza",
"Sen-Josepning qarg'alari",
"Korchalonlar",
"Siqilish",
"Dunyoning eng go'zal Habashistoni",
"Kessang tuganmas",
"Ipsizlar parki" nomli kitoblar bormi?.." deb so'ragan.

Kutubxonachi haqoratlangandek o'rnidan irg'ib turdi:

"Heyyyy, buzg'unchi, vatan xoini, vaqtni bekorga sovurayotgan, ayyor, hiylakor, lo'ttivoz. Heyyy, bu kitoblarni o'qish mumkin emas, man etilgan. Bu kitoblarni o'qish judayam xavfli. Qani, ayt-chi, u kitoblarni nima qilmoqchisan? Bu kitoblar bugun o'qilmaydi, senga kerak bo'lgan kitoblarni yaxshi bilaman..."

Usmon nima qilishga hayron. Vaholanki, oz bo'lsa-da ma'naviy boyligini oshirishni istardi.

Ikkinchi kuni kutubxonachidan: "Sizda konvert-qog'oz topiladimi?" — deb so'radi. Kutubxonachi sakrab o'rnidan turdi: "Heyyyy, sen bu yerni kanselariya do'koni deb o'yladingmi? Bu yer kutubxona, ha, kutubxona! Ey, devona, men bilan o'ynashma. Bu yer kitob mutolaa qilinadigan joy, tushundingmi?"

Mana shunday voqealar sabab ular bir-birini tushunolmay qolishdi. Usmon yana kitoblarni titkilay boshladi. Kutubxonaga Usmondan boshqa hech kim kelmasdi. Kutubxonachi shu sababli asabiylashardi. Kutubxonaga kelsa-yu, generalga o'xshab yo'l ko'rsatsa. Biroq kutubxonachi ertalab ishga kelganida qulflangan eshik oldida Usmonni ko'rardi. Undan boshqa hech kim ko'rinmasdi. Uni ko'rdim deguncha ko'ngli g'ash bo'laverardi. Bir joylari zirqirab og'rigandek bo'ldi.

Bir kuni Usmondan so'radi:

"Usmon, ukam, sen nima uchun bu yerga kelasan?"

"Bilim va himmat daraxtining soyasida o'tirib noklarini terish uchun", — deb javob berdi Usmon.

"Jinni-pinnimasmisan? Boshqa ishlar bilan shug'ullansang bo'lmaydimi? Do'kon och, yoymada o'tir. Vositachilik yo dayuslik qil. Nima qilsang qil. Ammo o'sha daraxt tagida o'tirma. Chun-

ki bilim va himmat daraxtining soyasi kichkina, u yerga hamma ham sig'maydi. Keyin, ukam Usmon, odam degani issiq jon, kasal bo'ladi. Yoki merosni isrof qiluvchi odamlardanmisan? Agar shunday bo'lsang, bor, qimor o'yna, bu yerda senga nima bor?"

"Lekin, — dedi Usmon, — men kitob o'qib, madaniyatli, nozik ruhli inson bo'lishni xohlayman".

"Qani, bu yerdan tuyog'ingni shiqillat-chi, qovoq..." — dedi kutubxonachi.

"O'zing qovoqsan, tilingni tiy", — dedi Usmon.

"Tiymasam nima bo'ladi?" — dedi kutubxonachi.

"Keyin ko'rasan", — dedi Usmon.

"Menga qara", — dedi kutubxonachi va nihoyat. "Sen qanaqa odam ekanligingni bilaman, sen buzg'unchisan. Qarab tur, hammaga aytib beraman..."

Ammo Usmon gapdan qolarmidi: "Men ham spirt ichganingni aytib beraman, ha-ha..."

"Men spirtdan gaz o'chog'ini yoqishda foydalanaman".

"Bu safsatangga kim ham ishonardi".

Birdan kutubxonachi ho'ngray boshladi: "Ehe, bir paytlar mening ham xotinim bor edi, eskifurushning qizi edi. Kunlardan bir kuni to'satdan olamdan o'tib qoldi. Qanchalik iztirob chekkanimni bilsang edi, uni qanchalik sevardim-a. Shundan beri men na birovning yuziga, na birov mening yuzimga qaraydi, shu sababdan ichaman".

U birdan qo'llarini ko'tarib she'r o'qiy boshladi:

Ichilganda qizil may uzun bo'yli shishadan,
Qo'shiq aytib o'tardik odam to'la ko'chadan.
Hozirgi raqilarda oldingidek ta'm qayda,
Bir piyolani simir qolmay desang barchadan.

"Ofarin, qanday nozik ruh sohibisiz-a, illo-billo, ta'sirli ustoz", — dedi Usmon kutubxonachining vaznli va qofiyali manzumasini eshitib. Va muxlis singari uning basharasiga tikildi, og'zini lang ochgan holatda. So'laklari labining bir chetidan shapirlab oqib yurakni o'ynatardi.

Kutubxonachi Usmonning olqishlaridan ilhomlanib, xayoliga nima kelsa, cho'ntagidagi yon daftarda yozilgan "go'zal" she'rlardan o'qiy boshladi:

"Na kashtanman, na bulbulman,
Hidi ketib qolgan gulman".

"Ofarin, barakallo, o'ho'... Qanday go'zal, qanday cheksiz zakovat, qanday nafis! She'rlar yuragimni yondirmoqda!" — dedi Usmon. Bu safar kutubxonachi qalbiga jilovsiz jo'shqinlik kirib keldi. Hozirgacha u shunday olqishli so'zlar eshitmagandi. Og'zi ko'pirib, ko'zlari yiriklashdi.

"Hozir senga mashhur pyesadan bir parcha o'qib beraman", — dedi Usmonga.

Ovqat yeyish — har kimning fikr-u xayoli,
Fitraji Bertrand-u eski cho'pon, kel bari.
Chalsin sozlar, o'ynasin qizlar,
Qani, qani, ha, qani.

Usmon sakrab, yerda dumalab, baqirib kutubxonachini yanada ilhomlantirardi. "Ofarin, qanday nafis, tengsiz qalb sohibi. Janob, siz o'z bahoyingizni bilmaysiz, qiymatingiz..." — deya hayqirardi baland ovozda.

Biroq kutubxonachi:

— Tahammul mulkini yiqding, Hulogu xonmisan, kofir? — deya Usmonning yanoqlaridan o'pib, haddidan oshdi. Usmon: "Hoy, meni kim deb o'ylading, ahmoq?.." deb boshiga "Fransuz qomusi"ni otdi. Kitob muqovasi yarim kilo kelardi, xodim egilib, boshini qutqarib qoldi. Zo'rg'a tili aylanardi: "Men faqat insonlarni sevishni xohlayman. Men sevishni xohlayman, inson..." deya chaynalardi.

"Hoy, menga qara", — dedi Usmon. Endi sabr kosasi to'libtoshgan edi, ishonmasangiz kuzating. Bu ishni tag-tomiri bilan hal qilishni xohlardi.

"Menga qara, odam jinnisi. Insonlarni sevishni xohlasang, boshqa ish qilishing kerak. Men senga aytsam, insonlarni sevishni istasang, qirqta non yeyishing kerak. Ularni va ularning soyalarini, ko'nglidagi xohish-u istaklarini sevish, o'zingni ham ularga biroz sevdirishing kerak. E'tibor bergin, qanday qilib

itlar, mushuklar, to'tiqushlar o'zlarini insonlarga sevdirishadi. Mana shular singari. Ammo telbalik bo'lganini bilsang, it kabi dumingni likillatib, mushuk singari o'ng oyoqlaring bilan yuzingni silash insoniyatga yarashadimi?.. Insoniyat degani ulkan o'rmonga qiyoslanadi..."

"Sen kimsan?", — deb so'radi hayrat bilan o'rmon xizmatchisi.

"Men ezilgan o'rta tabaqa ziyolisiman".

"Qani, birodar, meni ko'pam ezma, bu yerdan daf bo'l. Yana bir marotaba bu ilm o'chog'iga qadam bossang, keyin mendan ko'rasan..."

Usmon uni yengib chiqolmasligini tushundi, ko'nglida bir narsalar yulinganini sezib, boshqa kutubxonaga qadam qo'ymaslikka ont ichdi, zero, ont ichmaganida ham boshi baloga qolmasdi.

YUK MASHINASIDA

O'n olti kishi sig'adigan yuk mashinasida biz yigirma besh kishi tiqilishib zo'rg'a o'tirar edik. Son-sanoqsiz qirlar, o'ydim-chuqur joylar va tik kesib o'tgan muyulishlardan qanchadan qanchasini bosib o'tgan eski mashina zo'rg'a yurib borardi. Vintlari ham, g'ildiraklari ham, hammasi bo'g'iq tovush bilan xirillar, zang bosgan joylari g'ichirlar, radiatorida esa biqir-biqir suv qaynardi.

Do'l aralash qattiq yog'gan yomg'irdan keyin jazirama qizil tuproqli Chuqurova yerlarini shu qadar qizdirar ediki, yo'l yoqalab o'sib yotgan pastak butalar, giyohlar, chap tomonimizdan erinchoqlik bilan oqib yotgan azim daryo, moviy osmonda parvoz qilib uchib yurgan uzun qanotli qushlar ham — hammasi, go'yo toliqqandek ko'rinardi. O'rtadagi kresloga o'tirgan tepakal komissioner bilan mendan boshqa mashinada o'tirganlardan hech kimning bo'ynida galstugi yo'q edi. Yo'lovchilardan bir qismi kambag'al dehqonlar va uchdan birga yo sheriklikka ishlovchi qishloq xalqi bo'lib, ketmon dasta va bel sotib olib kelish uchun viloyatga ketayotgan edilar.

Tepakal komissioner tamaki hidi bilan qo'y pishlog'i anqigan og'ir havoda bir lahza ham tinmay sayrab kelardi. Komissioner baquvvat tishlari bilan yong'oq chaqib kelar va nuqul tirjayib kular edi. Birozdan keyin oldingi kursida o'tirgan yosh dehqon qizchaga tegisha boshladi:

— Menga qiz bo'lasanmi, ayt-chi? Agar menga qiz bo'lsang, yangi ko'ylaklar tiktirib beraman, chiroyli to'g'nag'ichlar sotib olib beraman, kinolarga olib tushaman...

O'n-o'n bir yashar kichkina qiz quloqlariga qizil tosh ko'zli oddiy isirg'a taqib olgan edi. U dastlab g'uncha kabi kichik lablarida odob bilan kulib qo'ydi, keyin birdan jiddiy tus oldi.

— Ayt-chi, menga qiz bo'lasanmi?— deb so'radi hamon tinib-tinchimagan komissioner.— Agar menga qiz bo'lsang, seni

uyimga olib boraman. Mening juda katta uy-joyim bor, yana sen qatori qizim ham bor. Arg'imchoqdan sakraysizlar, beshtosh o'ynaysizlar, hayinchak uchasizlar...

Qiz bilan yonma-yon o'tirgan qorachadan kelgan ozg'in bir yigit:

— Bekorga jag'ingizni og'ritmasangiz ham bo'ladi, afandim, — dedi. — Qishloq joy, o'zingizga ma'lum... Shaharning noniga bularning qorni to'ymaydi. Chuchmal suvi ham bularga to'g'ri kelmaydi. Ular shunga o'rganib ketgan... Nahotki, bilmasangiz!..

— Sen o'zing qayerdansan? — deb so'radi uning yonidagi kursida o'tirgan keksa dehqon haligi yigitdan. — Yoki shahardan chiqqan qarollardanmisan?

— Yo'q, men ham qishloqdanman...

— Agar o'zing ham dehqon bo'lsang, nega endi "ular shunga o'rganib ketgan" deysan? O'zing-chi, yoki o'zing o'rganmaganmisan?

— Men ham shunga o'rganganman... Shunchaki, gap kelgani uchun gapirdim-da...

— Yaxshi narsa nimaligini bizlar ham bilamiz,— dedi jahli chiqqan haligi keksa dehqon, yana so'zida davom etib. — Ular bizning qo'limizga tushib ko'rsin-chi! Shunday ekan, yaxshi suv turganda, sassiq suvni eshak ham ichmaydi... Eh, o'g'lim. o'g'lim...

— Bu qizcha sening singlingmi? — deb so'radi komissioner.

— Yo'q, — deb javob berdi yigit, — singlim emas, qo'shnimizning qizi...

— Qayerga boryapsizlar?

— Shaharga, mana bu yonimdagi ayol qizchaning onasi bo'ladi...

Mashinada quloqlariga qizil ko'zli isirg'a taqqan qizchadan bo'lak bironta ham ayol yo'q edi. Men o'girilib ular tomonga qaradim. Haligi yigitning yonida ham hech kim yo'q, faqat bir uyum eski-tuski uvada yotardi.

— Axir, qani u ayol? — dedi komissioner hayron bo'lib. — Yoningda hech kim yo'q-ku...

Dehqon yigit javob qaytarmadi. Haligi eski-tuski sekin qimirlab qo'ydi. Janda ichidan terisi suyakka yopishgan kampirning oqargan sochlari, terlagan yuziga yopishgan boshi ko'rindi.

Uning boshi kursida, tanasi esa sirilib pastga tushib ketgan edi. Kirtayib ichiga cho'kib ketgan ko'zlarining tevaragini ko'kimtir bir doira qoplagan edi. Ayolning rang-ro'yi sap-sariq, chakka suyaklari turtib chiqqan, burni uzun, yuzlarini ajin bosgan edi.

— Bu xotinga nima bo'ldi? — deb sekingina so'radi komissioner.

— Sil,— dedi dehqon yigit.—O'tgan kuni suratini oldirish uchun olib borgan edim. Mana bugun shaharga olib boryapman. Har narsa qilgan bo'lsam ham urinishim befoyda: hech qanday umid yo'q. Dori yozib berishgan edi, biroq uni olish uchun pul kerak, tekinga olib bo'ladimi? Sillar kasalxonasiga bor dedilar. Keyin shifoxonaga bordik, borsak, hali ariza yozib kel, hali ma'lumotnoma ko'rsat deydi... Xullas, quruq ovoragarchilik!.. Bor, kel, bor, kel...

U haligi uvadalar bilan ayolning yuzini yopib qo'ydi.

— Eri o'tgan yili xuddi shu kezlarda olamdan o'tgan edi... Olloh taoloning o'zidan boshqa bularning hech kimi yo'q. Agar men ham qaramasam...

— Onasi bechora tugabdi, — dedi komissioner. So'ngra engashib yigitning qulog'iga bir nima deb shivirladi. Yigit yelkasini qisib qo'ydi:

— Menga-ku, baribir, afandim... o'zi nima der ekan, onasi nima der ekan... Agar xo'p deyishsa...

Komissioner qo'lini qizchaning kiftiga qo'yib:

— Menga qara, qizim, sening oting nima? — deb so'radi.

— Selvi...

— Qani, ayt-chi, Selvi, menga qiz bo'lasanmi? Onangning holini ko'rib turibsan, bugun bor bo'lsa, ertaga yo'q... Sening baxtingga, Xudo o'z panohida asrab sog'liq bersin... Men senga chiroyli ko'ylaklar tiktirib beraman, sochlaringga to'g'nag'ichlar sotib olib beraman... Yolg'iz qolib xor-zor bo'lganingdan ko'ra, shunday qilganing yaxshi emasmi?

Qizcha kichkinagina g'uncha lablari bilan kulib, hammasiga quloq solib o'tirdi, keyin birdan yana jiddiy tus oldi.

— Sen unga aytib ko'r,— dedi komissioner dehqon yigitga,— sen unga yaxshilab tushuntir, o'ylab ko'rsin... Onasi bugun bor

bo'lsa, ertaga yo'q. Qiz qo'ldan-qo'lga o'tib, yomon yo'lga kirib ketadi... Mening bo'lsa... tanish-bilishlarim ko'p, hammasi ham katta, obro'-e'tiborli kishilar... Biri sudya, biri doktor, biri muhandis... Men uni biron yaxshi yerga ishga kirgizib qo'yaman, yegani oldida, yemagani ketida — rasmona xonim bo'ladi...

— Azbaroyi Xudo, afandim, siz o'zlariga ayting, ixtiyor o'zlarida... Onasi bo'lsa bugun, bugun bo'lmasa, erta-indin o'ladi... Qiz siz bilan ketsa, har qalay ishlab pul topadi... Sen nima deysan, Selvi? Yoki afandi bilan birga ketasanmi?

Qizcha javob qaytarmadi. Boshini quyi egib, qoshlarini chimirib oldi.

Komissioner ishga jiddiy kirishdi:

— Qizchaning onasidan so'ra, onasidan!..

Yigit eskilarni nari-beri titib:

— Hoy, Sharifa, afandining nima deyayotganini eshityapsizmi? Agar Selvini menga bersanglar, ko'p savob ish qilaman, yaxshi yerga ishga kirgizib qo'yaman, deyapti. Shunga nima deysiz? Chunki siz bugun bor bo'lsangiz, ertaga yo'qsiz...

Bir uyum eski tagida nimadir seskanib tushdi va qimirlab qo'ydi. Keyin eski uyum ichidan haligi bosh ko'rindi. Kirtayib, kosasi chiqib ketgan qora ko'zlari uzoq vaqt Selviga tikilib turdi va birdan eski supra kabi burishib-tirishib qolgan yuzlariga ikki tomchi yosh yumalab tushdi.

— Nima deysiz? — dedi yana yigit. — Siz shunga rozilik berasizmi?

U engashib qulog'ini Selvining onasiga tutdi, keyin qaddini ko'tardi.

— Nima deb javob berdi,— deb so'radi komissioner.

— Nima ham derdi, bechora xotin? Berib yubora qol, deydi-da...

U yana uvadalar bilan xotinning yuzini yopib qo'ydi.

* * *

Madori qurigan kishidek zo'rg'a borayotgan mashina shahar ko'chalaridan aylanib o'tib, kirakash mashinalar turadigan joyga kelib to'xtadi. Hammamizni chang bosib, juda horib-charchagan edik. Selvining yonida o'tirgan haligi yigit uning onasini mashi-

nadan kichkinagina yosh bolani ko'targandek ko'tarib oldi. Selvi ham ularning yonida turardi. Onasining qiziga bergan roziligidan mamnun bo'lgan komissioner Selvining oldiga kelib, uning bilagidan tutdi. So'ng cho'ntagidan o'n lira pul chiqarib haligi yigitga uzatdi. Yigit pulni olmoqchi bo'lib endi qo'l cho'zuvdi, Selvi komissionerning qo'lidan yulqib chiqib, onasiga tomon yugurdi. Yumaloq gavdali komissioner uning ketidan yurdi. U qizchaning oldiga kelishi bilan, qizcha aylanib onasining boshqa tomoniga o'tib oldi. Yigit nima qilishini bilmay qoldi. U qo'lidagi o'n lira pulni g'ijimlab, dam komissionerga, dam qizchaga boqar edi. Komissioner yana qizchaning bilagidan tutdi va jahl bilan siltadi:

— Onang seni menga bergandan keyin, bu nima qilig'ing!.. Seni qara-ya...

Qizcha yana uning qo'lidan chiqib qochdi.

— Bormayman! — deb qichqirdi qiz. — Bormayman, bormayman dedim, bormayman!

— Nimaga bormaysan?

— Bormayman!

— Men senga yangi ko'ylaklar, sochlaringga to'g'nag'ichlar sotib olib beraman!..

.....?

Qizcha churq etmadi.

— Turmushing yaxshi bo'ladi, o'zing uy bekasi bo'lasan!

Qizcha churq etmadi.

Komissioner yigitga o'girildi:

— Sen so'ra-chi, nimaga borgisi kelmayapti ekan?..

Yigit qizchaga bir-ikki og'iz gapirdi. Qizcha ham unga nimalarnidir aytdi.

— Mang, og'o, bergan pulingizni oling endi,— dedi yigit.— Pul — ishlasa topiladigan narsa... O'zim ishlab, o'zim pul topaman, deyapti. Shunday qilarmish...

— Xo'sh, nimaga endi bormas ekan? Onasi bo'lsa, baribir, bugun bo'lmasa, ertaga o'ladi...

— Bilmadim, qizcha shunday deyapti...

— Nima uchun endi bormayman deydi?

— Mehri toshdan emas-ku, axir, afandim... Agar men ketsam, onamga kim suv beradi? Kasaliga kim qaraydi? Onam bechora qurtlab ketadi, deyapti.

Komissioner qizchaga nafrat bilan qaradi. Keyin yigitning qo'lidagi o'n lira pulini olib, hamyoniga solib qo'ydi.

— Xah, iflos!.. Bular yaxshilikni biladimi!..

Ichi to'la portfelini qo'ltiqlagan, ust-boshi chang bu beso'naqay odam nariroq ketgandan keyin, bir dehqon shunday dedi:

— Albatta, bilamiz, nega bilmas ekanmiz sening qilgan yaxshiligingni... O'n lira pul berasan-u, onadan bolani judo qilasan, keyin uni janoblarga olib borib tortiq qilasan, so'ng ular xohlaganlarini qiladilar... Balli, qizim Selvi!

Selvining isirg'asidagi qizil tosh charaqlab chiqib turgan quyosh shu'lasida tabassum qilib turganday porlar edi...

KIMSASIZ SHAHAR

Bu shaharni shu qadar sevib qoldimki... o'tirib yig'lagim keldi. Bu shahar yolg'iz o'zimniki bo'lishini istardim. Ko'chalarida, parklarida, do'konlarida, tramvaylarida hech kim bo'lmasa derdim... Yana qo'llarimni cho'ntagimga solib, ho'l tosh yo'llarda tanho kezgim kelardi. Osmonda quyosh porlab turishini, lekin bir tarafdan mayda yomg'ir savalab, yuzimda shahar salqinligini sezishni istardim. Avtomobillar, tramvaylar to'rt tomonda bo'm-bo'sh yurib turibdi. Balki o'shanda ko'nglim ulardan birortasiga tushishni tusar. Bir sakrab, pillapoyasiga chiqib olaman, mendan bo'lak hech kim yo'q-u, shuning uchun ichkariga kirib, to'rda taltayib o'tiraman. Biroz kezganimdan so'ng, zeriksam sakrab tushaman-da, so'ramay-netmay katta do'konlardan biriga bemalol kiraman. Yo'limni to'sadigan odam yo'q. Qo'limni cho'ntagimga tiqib soatlarcha do'konlardagi narsalarni tomosha qilaman. Balki ko'nglim parkka, dengiz ichiga cho'zilib ketgan qadimiy parkka kirib sayr etishni tusab qolar. U mahal yashil o'tloqlar ustiga yastanib uyquga ketarman... Modomiki ichida mendan boshqa hech kim yo'q ekan, demak, bu shahar meniki... Ha... bu shaharning meniki ekaniga ortiq hech qanday shubha yo'q... Bu shahar meniki...

Yotog'imda shunday xayol surib uxlab qolibman. Ertalab barvaqt uyg'ondim. Ko'chaga chiqdim. Bir kun avval ishlab turgan korxonamdan tamoman ayrilib, ishsiz qolgandim. Oyning oxirgi kunlari edi. Cho'ntagimda bitta kir dastro'mol bilan bo'sh qo'llarimdan boshqa narsa yo'q edi. To'g'ri shahar boshqarmasida xizmat qiladigan bir do'stimning oldiga jo'nadim. Ko'ngilchan do'stim meni juda ham yaxshi ko'rardi. Bo'yniga osilib holimni bayon qildim. O'ttiz uch yoshda bo'lishiga qaramay, sochlari to'kilgan, chakkalari oqargan edi. U uzoq vaqt o'yladi-da, keyin:

— Qardoshim...— dedi... Bilasanmi, men shu yerga ishga joylashgunimcha rosa olti oy ovora bo'ldim. Endi ish qayoqda deysan?.. Bir qancha oliy ma'lumotli kishilar biror daromadli ish olish uchun bir necha oylardan beri navbat kutadilar...

Meni esa bir necha oy emas, bir necha kun kutishga ham qurbim yetmasdi. Indamadim. Nima ham deya olardim?..

Do'stim:

— Agar biror narsaga muhtoj bo'lsang... — dedi.

Kastumining qo'yin cho'ntagiga solgan qo'lini mahkam ushladim-u:

— Hech narsaga muhtoj emasman... — dedim.

Vaqt choshgohga yaqinlashmoqda edi. Ichgan achchiq qahvam foyda bo'ldi, deb u yerdan chiqdim. Bir xilvatda o'z yog'iga o'zi qovrilib yurgan, doktorlik chog'ida har turli yo'llar bilan so'nggi saylovda o'lib-tirilib harakat qilib deputat bo'lib olgan boshqa bir do'stimning yo'lini to'sdim. U shifoxonasini kengaytirgan, yap-yangi saxtiyon kreslolar sotib olgan edi.

— Qarog'im... — dedi, — seni davlat idoralaridan birortasiga tavsiya eta olmayman. Ma'lumki, bizlar amaldormiz... bularning qisqartirilishi... va hokazolar...

Qornim o'lguday ochgan edi. Yonidan tezroq chiqsam-u cho'ntagimdagi ikki yarim lira pulimning yarmiga bir nechta qatiqli kabob olib yesam deb o'ylardim. Do'stim menga ish topib bermadi, lekin bir kartochka berdi. Peshindan keyin do'stimga tanish bir savdo idorasiga borib ish so'rashim kerak edi. Xuddi shunday qildim.

Idora xo'jayini qo'limdagi kartochkani olib o'qimadi, lekin shunday qilishga haqli edi. Hujjat egasining vijdonli kishi bo'lib chiqishi unga nima uchun kerak? Idora egasining ishi boshidan oshib yotardi, hozir vijdonli odamga ham, nomussiz odamga ham muhtojmasdi.

O'sha kuni yana ko'p narsalar qildim... Kechqurun yotog'imga kirganimda o'ttiz besh qurush pulim qolgan edi. E, qo'y-e, dedim o'zimga o'zim. Shunday shahri azimda ochdan o'lib ketmasman-ku? Tong otsin, ishim o'ngidan kelar... albatta, biror chora toparman...

Tong otdi. Hatto, bir qancha tonglar otdi. Men hali ham qo'llarimni cho'ntagimga tiqib, ho'l tosh ko'chalarda sanqib yuribman. To'rt tarafimdan tramvaylar, avtomobillar g'izillab o'tadi... Ko'kda quyosh porlaydi. Bir tarafdan yomg'ir ham shivalab quyadi, tosh yo'llardan yumshoq salqinlik ko'tariladi. Men hech narsa ko'rmas, hech narsa sezmasdim... Orzuyim ro'yobga chiqqan edi... Kimsasiz bir shaharda tanho qolgan edim.

MAHMUTBEYNING GAZETASI

Darhaqiqat, bu hikoyadan biror kimsaning xabardor bo'lishini istamasdim. Ko'p yillardan buyon u tor va xilvat ko'chani, u kichkinagina taxta uyni, do'stim Mahmutbeyning mojarosini yolg'iz o'zim uchun saqladim. Boshqalarning qiziqish va boqishlari ostida erib yo'qolib ketadigan bu xotiraning meniki bo'lishini tiladim, uni begona ko'zlardan yashirdim, hech kimga bildirmadim.

Hozir hamma narsa shu qadar olis va tumanli, mening o'zim ham bu mojaro haqiqatan bo'lgan yoki bo'lmaganidan shubhalanaman, shuning uchun ham aytib bermoqchi bo'lgan narsalarimga kishilar ishonishmasmikan deb qo'rqaman. Men o'z ko'zim bilan ko'rgan, bilgan, tekshirgan mojaroni hikoya qilib bermoqchiman.

Avvalo, shuni aytib qo'yishim kerakki, balki hozir u ko'cha, o'sha uy, o'sha kishi yo'q bo'lib ketgandir. Ko'cha yo'qoldi, uy buzilib ketdi, u odamning nima bo'lganini kim biladi deysiz! Kecha o'sha tomonlardan o'tdim-da, shu narsalarni esladim. Men tanigan, bilgan joylar vayron-tolqon bo'lib ketibdi; uylar, kvartiralar buzib tashlanibdi: xafa bo'lib ketdim. U yerlarda juda ko'p marta kezib va yugurib yurgan edim. Shularni o'ylar ekanman, o'sha tor ko'cha esimga tushaverdi. Shu yaqin orada edi. Ana shu tosh yo'l tugaydigan joyda, bir chashmaning yoqasida bir-ikki uy, bir kvartira, yana bir necha uy bor edi, nihoyat, tramvay yuradigan katta ko'chaga chiqilardi. Hozir bo'lsa chang-to'zon osmonga o'rlardi. Shamol chang-to'zonlarni to'zg'itganida o'sha vaqtlarni esladim.

Xotiramning teran bir yeriga o'rnashib qolgan ekan: birdan qanday qilib jonlandi ekan-a! Birdaniga bir necha yil orqaga qaytdim-u, o'zimni o'sha kuz faslidagi holatimda, maydalab savalayotgan yomgir ostida bir kinofilm afishasi oldidan o'tib ketayotganday his qildim. Bu narsa qayerdan xotirimga tushib qoldi. Har

holda o'sha kuni dilgir edim, bir ko'ngil ochar narsa axtarardim-u, topolmay yurardim. Vaqt o'tkazish uchun bir quti sigareta ham olgan edim... Lekin, ishonamanki, biror jiddiy tashvishim yo'q edi, agar tashvishim bo'lsa, bu tanish tomonlarda nima qilardim, yanada olislarga, juda olislarga, o'zim bilmaydigan, menga notanish bo'lgan joylarga borib, el ko'zidan yashirinardim.

Faqat dilgir edim, xolos. Bu dilgirlikdan qutulish uchun bir quvnoq chehra, bir necha kalima so'z, birgina kulib boqish kifoya edi, ammo ular qani... Birdan u ko'chaga burildim. Ikki qadam qo'yar-qo'ymas to'xtab qoldim. Men shu yerlikman, shu yerda tug'ilib o'sdim. Umrim shu tumanning ko'chalarida o'tdi, ammo, hayhot, bu tor ko'cha menga notanish edi... Tramvay yuradigan ko'chaning orqaginasidan o'tgan bu ko'chaga hech yo'lim tushmagan bo'lsa kerak. Dovdirab qoldim, tumshug'im tagidagi yerlarni ham bilmas ekanman deb o'ylab, atrofni ko'zdan kechira boshladim. Uylarning derazalariga yomg'ir urilardi, kvartiraning balkonidagi kirlarni yig'ib olishni unutgan edilar. Yana biroz yurdim. Uylar qator-qator edi. To'xtab, o'chib qolgan sigaramni yondirib oldim. Gugurtni o'chirayotgan chog'imda, kichkinagina taxta uyga ko'zim tushdi-yu, shartta to'xtadim. Na derazalardan biror odamning ko'lankasi ko'rinar va na ko'chada mendan boshqa biror odam bor edi. Atrofimga alangladim, so'ngra bir nafas sigareta chekib, ikki qadam orqaga qaytdim-da, yana boyagi kichkina uyga qaradim. Qarshimdagi kichkina uy xuddi gazeta sahifasiga o'xshardi. Xuddi shu kechalarda besh qurushga sotiladigan jinoyat xabarlari bilan to'lib chiqadigan gazetalar kabi... Uning yuzi bir gazetaning ikki sahifasining o'zginasi, ustun-ustun yozuvlar, sarlavhalar, qissalar, latifalar, xabarlar va nihoyat, e'lonlar... Bu yerda yirik-yirik harflar bilan bir talay narsalar yozilgan edi.

Avval bosh maqolani, keyin hodisalarni va qissalarning tagidagi "davomi bor"igacha o'qidim... Yuzimga yomg'ir tomchilab, ora-sira momaqaldiroq bo'lmasa, tikka turib tush ko'rayotganimga ishonardim. Yozuvlarni takror-takror o'qidim. Qarshimda xuddi uyga o'xshash bir gazeta bor edi...

Keyin urush harakatlariga oid maqola, ichki hodisalar: suiiste'mol va o'g'rilik, bir vazirga yozilgan ochiq xat, "nohaq", "tuhmat", "o'ttiz yil xizmat" kabi so'zlar bilan to'lib toshgan uzun bir maqola. Har bir maqolaning, ostida bir ishora bor edi... Shuncha maqola qanday sig'dirildi ekan... Derazalarning usti va osti eshikning to'rt tarafi to'ldirilgan, hech bo'sh joy qoldirilmagan edi. Bir burchakda surat bor edi, ma'nosiga tushunmadim.

Gangib qolganimdan asta-sekin qarab tushunganlarim shular bo'ldi: bu g'alati gazetaning bosh muharriri va xo'jayini eski bir amaldor edi, u ishdan haydalgan, uzoq vaqt kasalxonada yotgan ekan. U boshiga tushgan haqsizliklarni xalqqa anglatmoq uchun eng munosib vositani tanlabdi. O'tgan-ketgan o'qib, haqiqatni anglasin deb gazeta chiqaribdi... Biroq bu ko'chadan nechta odam ham o'tardi, deysiz!..

Muyulishga borib, katta ko'chaga chiqadigan tosh yo'l chetidagi kashtanfurushning oldida to'xtadim. Sho'rlikka shunday g'alati qarabmanki, u qo'lidagi qisqichni silkitib: "Hayron bo'ldingmi, beyim?"— deb so'radi. Keyin men so'ramasimdanoq o'zi tushuntira ketdi: chunki har kuni bir necha marta xuddi shu narsalarni boshqa odamlarga ham tushuntirar ekan... U gazetaning bosh muharririning ismini aytib berdi... Ismi Mahmutbey ekan... Bu gazetaning nechanchidir soni ekan... Avval qanaqa narsalar yozgan ekan! Men taxmin qilganimdek, Mahmutbeyni ishdan haydagan ekanlar, u tasodifan mashhur bir kasalxonada bir necha oy yotibdi. Keyin xotini bilan qizi uni uyga olib kelishibdi-yu, lekin eplasha olmabdi... U derazadan xalqqa nutq so'zlagani o'rnidan turibdi, nutq so'zlay olmaganidan keyin ertalab barvaqt o'rnidan turibdi, narvon qo'yib, qo'lida bo'r bilan narvonga chiqib, devorga maqolalar, felyetonlar, ochiq xatlar yozibdi... Ertalab xotini bilan qizi u yozuvlarni o'chirib tashlashibdi, lekin ertasiga ertalab xuddi o'sha narsalar qaytadan yozilganini ko'ribdilar... Cholni sira eplay olmabdilar. Haftada bir marta yakshanba kuni ertalab Mahmutbey narvon qo'yib gazeta yozar, qo'ni-qo'shnilar kelib o'qib ketisharkan... Kashtanfurush:

— Mahmutbey olim odam, — dedi, — sho'rlik bir nohaqlikka uchrab, shunday bo'lib qoldi... U nimalarni bilmaydi deysiz...

Hamma narsaga aqli yetadi, juda yaxshi odam... Qarang, ana derazaning oldida turibdi... Hozir sizni ko'rdi... Bechora naqadar sevindi, bilsangiz. Derazadagi parda ortidan oq sochli bir boshko'ringanday bo'ldi. Bir o'quvchi topilganiga qanchalik mamnun! Uning sevinchini anglardim. U gazetasining kelgusi soni uchun qanday rejalar tuzayotganini, nimalar tayyorlayotganini, miyasida qanday fikrlar paydo bo'layotganini kim biladi deysiz.

Men uchun olam tamoman boshqa shaklga kirgan edi. O'sha kundan boshlab Mahmutbeyning gazetasining sadoqatli o'quvchisiga aylandim. Labimga sigareta qistirib, uzoq vaqt tosh yo'lda turib maqolalarni, yangiliklarni, qissalarning davomini o'qirdim. U meni parda orqasidan kuzatardi, ko'zlarining chaqnayotganini ko'rganday bo'lardim. Har safar kashtanfurushdan kashtan olib, u aytib beradigan yangiliklarni eshitardim. Har kecha shu choyxonaga chiqib, pensionerlar bilan domino o'ynaydi... Ancha durust o'ynardi... Aqli joyida, gaplari ma'nili. Hech kimga gazetasi to'g'risida gapirmaydi. Hech kim ham undan hech narsa so'ramaydi... Qarang, bugun ertalab anovi yozuvlarni yana yozdi, qizi bilan xotini ham unga yordam beradigan bo'lishdi, nima ham qila olardi, sho'rliklar... Qizi narvonni ushlab turadi, u yozayotganida ona-bola bo'r uzatishdi. Ba'zida men ham ularga yordamlashib yuboraman... Nima qilsinlar, boshqa chora yo'q.

Mahmutbeyni yaqindan juda ko'rgim kelardi. Bir kun kechasi u choyxonaga kelib qahva ichayotganida men bir burchakda uni kuzatib o'tirishim kerak. Yakshanba kuni ertalab oftob chiqib kelayotgan vaqtda, u gazetasini yozayotganida borib unga yordam berishim kerak, hatto, bitta maqola ham yozib berishim kerak. Shu ishlarni qilishga juda orzumand edim. Bir-ikki haftadan keyin bu narsalar me'damga urdimi, bilmayman, Mahmutbeyning gazetasini o'qigani kamroq boradigan bo'lib qoldim. Hayotim biroz o'zgarganday bo'ldi, zerikishim bosilayozgan edi. Yangi umidsizliklar, xayolot horg'inliklari qarshisida qolgan edim. Mahmutbeyning gazetasi meni ortiq ovuta olmasdi.

Birdan u mahallani buzishga, xotiramda uzoq saqlanib qolgan barcha joylarni payxon qila boshladilar. Bir kun kelib u yerda na Mahmutbey, na kashtanfurush, na uy va na ko'cha qoldi. Bu hodi-

salarning hammasi uzoq va yolg'on-yashiq safsataga o'xshab qoldi. Hozir haqiqatan yaxshi bilmayman. Mahmutbey va uning gazetasi kuz yomg'iri ostida sanqib yurgan dilgir kishiniig zerikishi, umidsizligiga bir tasalli topish uchun o'ylab chiqargan xayolmidi: yo'qsa, yashayotgan davrimizning og'irligini his qilib, buni barcha odamlarga e'lon etishdan qo'rqmagan bir ertak qahramonimidi! Bu narsaning sirini bila olmayman.

YOSHLIK QAYTIB KELMAYDI

U "Juda ham o'zgarib ketibsan", demoqchi bo'ldi-yu, lekin "Hech ham o'zgarmabsan", deb yuborganini o'zi ham sezmay qoldi.

Ular bir-birlarini ko'pdan buyon tanir edilar-u, go'yo hozir birinchi marotaba uchrashib qolganday edilar. Bu erkak yoshligida qarshisidagi ana shu shahlo ko'zlarga, mayin sochlarga, cho'chchaygan lablarga to'yib-to'yib qaramaganday edi. Hozir qarshisidagi sohibjamolning firoqida yonib, kecha-yu kunduz u haqida o'ylamagandek. Oyoqlari hali ham avvalgidek chiroyli... tuflisi ham... u doimo xuddi shunday ixcham tufli kiyib yurardi. Qani endi hozir ham tashqi ko'rinishi o'n ikki yil avval ko'rganiday bo'lsa!..

Aprel oyining oxirlari, kunbotar payt. Sochlari oqaribdi, yuziga ajin tushibdi. Qani endi, hozir bu ayolga yigirma yoshidagi oshiq-u beqaror bo'lib yurgan paytidagidek qarolsa edi...

— Hech ham o'zgarmabsan, — dedi erkak ayolning ko'nglini ko'tarib.

— Sen o'zgaribsan, — dedi ayol erkakning ko'zlariga tik boqib.

"U yoshligida ham shunday cho'rtkesar, shartaki edi. Har bir so'zning og'ir botish-botmasligini o'ylamay, yuzingga shartta aytardi qo'yardi". Erkak esa mulohaza bilan gapirar, dilidagi gapni tiliga chiqarib gapirmasdi. Ular yoshlikda uchrashib yurganlarida yigit qizning yuragida nima borligini bilolmadi. Keyin, ular ajralib ketdilar.

— Sen hamon o'sha-o'shasan, — dedi erkak ayolga jilmayib.

— Rostdanmi?

— Bilmayman, balki ko'zimga shunday ko'rinayotgandirsan...

"Bekorchi gaplarni qo'ysang-chi!.." demoqchi bo'ldi ayol. Ular bir-birlariga tikilib turardilar.

— Balki o'tirarmiz? — taklif qildi erkak.

Kema qirg'oqdan jo'nab ketdi. Paluba osoyishta edi. Yoqimli shabada esmoqda. Ayol yupun kiyingandi.

— Sovuq emasmi? — so'radi erkak ayoldan.

— Yo'q-yo'q, sovuq emas! — javob qaytardi ayol.

"Menga g'amxo'rlik qilyapti, — o'yladi ayol. — Qiziq, hali ham meni sevarmikin, a? Bo'lmasam-chi, esidan chiqarmagani ko'zidan ko'rinib turibdi. O'n ikki yil avval qanday sevgan bo'lsa, hozir ham shunday sevadi".

Ayol uni universitetda o'qib yurganlarida qandayligini eslashga harakat qildi. Harchand urinmasin, baribir o'sha damdagi qiyofasini sira eslay olmadi.

Yo'q, ayol uni oldingi vaqtidagidek holatiga hecham o'xshatolmadi. Faqatgina uning ayrim so'zlari-yu, qiliqlarinigina eslay oldi, xolos. Yana, bir kuni xuddi shu bugungidek dengiz qirg'og'ida o'tirganlarini, so'ng mo'jazgina qahvaxonaga kirganlarini esladi. Ular qahva ichdilar, qahva quyqumidan fol ochmoqchi bo'lgandilar.

Yigit qizni chin yurakdan sevib qolgandi. Uning nazarida qiz ham yigitni sevib qolganday edi. O, yoshlik... o'n sakkiz yashar inson o'zi haqida avvaldan nimani ham ayta olardi. Yoshlik onlari hech qachon tugamaydigandek: o'tirishlarga, o'yingohlarga, kino va raqs kechalariga borishdan, o'ynab-kulishdangina iboratga o'xshab tuyulardi. Qayerdadir yigit qizni o'zining tongday musaffo sevgisi ila kutib turardi. Qiz esa, xuddi o'yinchoqlar yoniga kelayotgan go'dakdek yigitga oshiqardi. Qiz hammavaqt uni intizorlik bilan kutishini istardi. Qachonki ko'ngli tusagan paytda qiz ularni qoldirgan joyidan olishni xohlardi. Qiz huddi yigit qalbi bilan o'yin o'ynardi. Agar insonning qalbini chil-chil sindirsang, bu yara hech qachon bitmaydi. Qiz esa, qanchadan qancha yosh yuraklarni jarohatlab o'ynardi. O'sha paytda bu yigit bilan qahvaxonada o'tirganidan tortib, to hozirgi kungacha bosib o'tgan

yo'li unga g'oyatda dahshatli ko'rinib ketdi. U dabdurustdan seskanib ketdi-da, ustki kiyimining yoqasini ko'tarib qo'ydi.

— Sovqotyapsanmi, yur, pastga tusha qolaylik.

"Har doim meni o'ylaydi... Tavba, bo'lib o'tgan ishlarni bilaturib ham sevadi..."

— Yo'q, sovqotmayapman, — javob berdi ayol. — Yaxshisi, o'zing haqingda gapir! Nima qilyapsan? Qayerda ishlayapsan?

Erkak unga sigareta tutdi. Lekin ayol rad etdi. Erkak ayoldan ruxsat so'rab cheka boshladi.

"U har vaqt sigaretani shunday ushlardi, — o'yladi ayol. — Jahlim chiqib, chekishni ham uddalay olmaysan, deb ta'na qilganim-qilgan edi. Hozir ham sigaretasi qo'lidan tushib ketay-tushib ketay deb turibdi".

— Senga nimani ham gapiray? — chuqur xo'rsindi erkak. — Ishlayapman. Chet elga ishlagani ketgan edim. Istanbulda bir necha yildan beri bo'lganim yo'q. Mana, kelganimga endi ikki oy bo'ldi. Yaxshi joylashib oldik, birovdan oldin, birovdan keyin yashab yuribmiz.

Gapiradigan hech gap yo'q! Ularning oxirgi uchrashuvlaridan keyin qanchadan qancha suvlar oqib o'tdi. U uylanib, ota bo'ldi. Har doim biror narsani eslamoqchi bo'lsang, ko'z o'ngingda, xotirangda saqlanib qolgan yoshlik kunlaring jonlanadi. Lekin qarshisidagi bu ayol bir vaqtlari qalbining to'ridan joy olgan bo'lib, uning eng yaqin, hech vaqt unutolmaydigan sevgilisi bo'lib qolgandi.

Erkak gapida davom etdi:

— Ishlayapman... Yashash joyim ham yomon emas.

— Xotining, bolalaringning ahvoli qalay? — so'radi ayol. Biroz sukutdan so'ng:

— Baxtlimisan? — deb qo'shib qo'ydi.

Baxt! U o'sha o'tib ketgan qayg'usiz kunlarda, shu mohipaykarning firoqida kuyib-yonib, uni intizorlik bilan kutgan vaqtlaridagina baxtli bo'lgan edi. Endi-chi, baxt qayerda deysiz, uni qancha qidirmay hech qayerdan topib bo'lmaydi. Ahyon-ahyonda nasib etadigan ba'zi xursandchiliklarni aytmasa, umri kundalik tashvishlar bilan o'tmoqda.

Erkak uylanaman, bola-chaqa qilaman, xotinimni astoydil sevaman deb orzu qilgan kunlarini allaqachon unutgan edi. U uylangan ayol oddiygina. Unga tasodifan uylandi. Mabodo sevganiga uylanganida ham balki hayoti shunday kecharmidi? Odatda ko'pincha shunday bo'ladi-ku! Jahonda baxt borligi to'g'risida bosh qotirish bema'ni ish. Baxt yo'q. Baxt deb atalgan narsa xomxayol, ushalmaydigan orzu.

— Baxtliman, albatta, — javob qaytardi erkak. — O'zing-chi?

— Men ham baxtliman, — dedi-yu ayol miyig'ida asta kulib qo'ydi.

"Qayerdagi behuda gaplarni gapiryapman-a... — deb qo'ydi ayol ichida. — Ikkimiz ham qayoqdagi bema'ni gaplarni gapiryapmiz".

Qiziq, ular hozir bir-birlarini qanday qilib tanib qoldilar! Qorong'ida dabdurustdan ko'zlari ko'zlariga to'qnashib qoldi. O'sha avvalgi o'tkan kunlari beixtiyor eslariga tushdi. Ayol ho'ngrab yubormaslik uchun yuzini chetga burdi.

Ko'prik orqada qoldi. Boyo'g'lining qiyofasi xuddi ular kinoda ko'rganlari Manxetten orolini eslatar edi. Erkak birinchi bo'lib: "Qara, sening Manxettening", deb jimlikni buzdi. Ular yonlaridan tunnellar, mehmonxonalar, ko'rfazlar, uylar, kemalar, qayiqlar, tramvaylarning o'tishiga aslo parvo qilmasdilar.

Ochig'ini aytganda, bunaqa voqealar bo'lib turadi. Vaqtning zudlik bilan o'tib borayotganini hech kim sezmaydi. Ha, vaqt zumda o'tadi-ketadi. Aslo uni to'xtatib bo'lmaydi. Sevgi, ishonch — bularning bari ortda qoladi...

Ularning bir-birlarini haddan ortiq sevgan kunlari har holda alohida ajralib turmog'i lozim. Aytganday, qiz yigitni bir lahza bo'lsa-da sevganmidi? Ha, o'sha paytda qiz: "Seni sevaman", degandi. O'sha ondagi hislarning yagona, haqiqiy his-tuyg'ular ekanligini u shu lahzadagina tushundi. Evoh, o'sha damdagi baxt qo'ldan chiqdi, ha, qo'ldan chiqdi! Har bir istagan kishim meni sevib ardoqlaydi, men ham istagan kishimni seva olaman, deb o'ylagan edi u.

Erkak qo'lidagi sigaretani to'lqinlanib oqayotgan dengizga uloqtirib yubordi.

— Istanbulni rosa sog'indim-da, o'zimam, — dedi erkak.

— Nimalarni eslading? — so'radi ayol.

— Bosforni, kemalarni, Boyo'g'lidagi ko'prikni, kinoteatrlarni esladim.

— Yana qayerlarni?

— Yaqin kishilarimni, albatta.

Gapirishga arziydigan gapi bo'lmagan odamlarning suhbati bema'ni bo'ladi. Qaytanga uchrashmaganlari ma'qul edi. Hech bo'lmaganda bu uchrashuv haqida yurakni ezadigan o'ylar bo'lmasmidi? Ana shunda bir-birlari to'g'risidagi o'sha eski xotiralar qalblarida umrbod saqlanib qolgan bo'larmidi! Lekin bu tasodifiy uchrashuv ularning bir-birlariga bo'lgan mehr-muhabbatini mahv etdi.

Ayol: "Nega menga uylanmading?" deb so'rashga jazm eta olmadi. Bu haqda qanday so'ray olardi ham. O'zi uni mensimay ketdi-ku. O'yinchoq kabi o'ynadi-ku! Ular churq etmay, bir-birlariga termildilar. Bu og'ir uchrashuv edi. Oxiri erkak nima deyishni bilmay:

— Ko'ylaging juda chiroyli ekan! Har doimgidek go'zalsan, — dedi.

— Qo'ysang-chi, azizim, axir bu eski ko'ylagim-ku!

— Judayam chiroyli ekan, seni ochib yuboribdi.

Pastda kimdir bir qo'shiqni xushtakda betinim xirgoyi qilardi. Bu xazon bo'lgan sevgi haqidagi qo'shiq edi:

Sevishganlarni hayot,
Bir-biridan qiladi judo.
Izlarini yuvar dengiz,
Bo'lgandan so'ng ular ayro.

Bu qo'shiq so'zlarining endi ularga nima qizig'i bor? O'sha vaqtda aytiladigan qo'shiq butunlay boshqacha edi. Bu esa yangisi ekan. Boshqa kishilar shu omadsiz sevgi haqidagi qo'shiqni eshitib, qachonlardir o'zlarining o'tib ketgan yoshliklarini eslaydilar.

Uzoqda chag'alay charx urib, qanotlarini keng yozib uchardi. Birozdan so'ng hammayoqni qorong'ilik chulg'adi.

— Uyingga ketyapsanmi? — so'radi erkak.

— Yo‘q, o‘rtog‘imnikiga kirib o‘tmoqchiman. Sen-chi?

— Mening zarur ishim bor...

Hammasi behuda gaplar, qalb so‘zlari emas!.. Bu so‘zlar soxta, ko‘ngil uchun aytilgan gaplar. Bu so‘zlar o‘z ma’nosini yo‘qotgan. Xuddi ular avvallari sevishmagandek edi. Faqat bir-birlarini sog‘inib, mehr bilan tikilishlaridangina buni uqib olish mumkin edi, xolos. Bu ko‘zlarda so‘ngan o‘tning uchqunlari asta-sekin yolqinlanardi.

“Uchrashmaganimiz ma’qul edi, — o‘yladi erkak. — Judayam o‘zgarib ketibdi. Bunday o‘zgarib ketishini sira xayolimga keltirmagandim. Qarib qolibdi, ozib ketibdi. Tavba, bu ko‘yga qanday tushdi ekan-a? Hayot naqadar beshafqat!”

Vaqt sevgan odamingning chehrasiga ham raxna solarkan. Balki ayolning ham xuddi shu so‘zlar xayolidan o‘tayotgan bo‘lsa ajab emas. Xuddi savdogarlarga o‘xshash bu semiz erkak qayerdan paydo bo‘ldi ekan! Qani, uning yoshlikdagi ko‘rkam, kelishgan qaddi-qomati?

Ikkisining ham ko‘ngli buzilib ketdi. Ular zumraddek to‘lqinlanib oqayotgan moviy dengizga tikilib o‘tirardilar.

— Bolangning yoshi nechada? — so‘rab qoldi ayol to‘satdan.

— Kattasi to‘rtda, kichigi esa bir yarim yashar.

— Bolang ikkitami? Qay birini ko‘proq yaxshi ko‘rasan?

Ayol oradagi og‘ir jimlikni buzish uchungina ushbu savolni bergandi. Erkak ayolning bergan savoliga javob bermay, miyig‘ida kulib qo‘ya qoldi...

“Qayoqdagi bo‘lmag‘ur gaplarni gapiryapman-a, — o‘yladi ayol. — Tezroq bandargohga yeta qolsak edi! Bu suhbatni davom ettirishning hojati yo‘q. O‘tgan ishlarni eslamaslik kerak, undan qochmoq lozim. Faqat yaqin orada tanishgan kishingnigina sevishing mumkin. Eski muhabbat, sevish-sevilishlar faqat xotiradagina saqlanishi kerak”.

Istanbul oqshomi o‘zgacha edi. Qizg‘ish ufq. Timqora osmon. Chag‘alaylar. Kichik motorli qayiqlar. Yoqimli kuy. Quvnoq xandalar. Ilgari ham huddi shunday bo‘lgan edi. Uzoq yillargacha bularning barchasi o‘z o‘rnida qoladi, lekin nimadir bir umrga qaytmas bo‘lib g‘oyib bo‘ladi. Bu nima o‘zi? Buni tushunish qiyin...

— Avtobusga shoshilyapman, — dedi ayol. — Ertaroq borishim kerak.

Ayol o'rnidan turdi. Erkak uning ketayotganidan xursand bo'lib o'tirgan joyida qolaverdi. U xayolidan: "Ketgani yaxshi. Uning yoshlik paytlarini eslayman", degan so'zlarni o'tkazdi.

— Xayr, omon bo'l. Seni uchratganimdan g'oyatda xursandman, — dedi erkak.

— Men ham. Xayr, yaxshi qol!

Uzoqdan ayolning yengil qadam tashlab, sochining ohista tebranib borishi xuddi yoshlikdagi yurishini eslatib yubordi. Ilk uchrashuv kunlarida ham u xuddi shunday yengil qadam tashlab uning istiqboliga kelgandi. Bir ko'ngli uni chaqirmoqchi bo'ldi, lekin tezda bu fikridan qaytdi.

"Qayoqdagi bo'lmag'ur gaplarni vaysab keldim-a! — o'ylardi erkak. — Nimalar haqida so'zlashni bilmadim. Tuzukroq gap ham aytolganim yo'q".

Uni uyda xotini, bolalari kutishardi. Issiq ovqat kutardi. Bu uning kundalik hayoti. Ayni haqiqat shu. Ertalab ishga, kechqurun oilasiga qaytadi. Ishdan horib-charchab qaytib kelgach, uxlaydi. Sevgisiz kunlar... Uning hayoti shundan iborat. Agarda xotirasida hali ham ilk sevgisi saqlanayotgan bo'lsa, bularning hammasi o'z-o'zidan unutilib ketishi muqarrar. Ushalmagan orzu haqida qayg'urish behuda narsa. O'tib ketgan yoshlik hech qachon qaytib kelmaydi. Inson hozirgi kun bilan yashamog'i lozim.

NOQIYA BUVI

Avgustning eng issiq, eng diqqinafas oqshomlaridan biri. Eranko'y tomonlarda, bog' burchagidagi gilos yog'ochidan yasalgan, ustiga eski sholchalar solingan supada bir qo'lida mushtuk, ikkinchi qo'lida qizil popukli shamshodi tasbehini o'girib o'tirgan Noqiya buviga yaqinlashib salom berdim va ko'kimtir tomirlari qavarib turgan yumshoq qo'lini har doimgidek hurmat bilan o'pdim.

— Umringdan baraka top, bolam.

Har kuni uyga qaytishimda yillarni qaritgan bu keksa ayolning qo'lini o'pib duosini olaman. Yillardan beri o'zgarmagan duoni eshitaverib ma'nosiga ahamiyat ham bermay qo'yganman. Sakson yoshni qoralagan, dunyo ishlaridan oyoq-qo'lini tortgan Noqiya buvi o'tgan-ketgan bilan qanday suhbat qursa, men bilan ham shunday gaplashar edi. Boshqalarni bilmadim-ku, men uni tinglashni yaxshi ko'rardim. O'zi bolalar va katta yoshdagi insonlar bilan suhbatlashishni yoqtiraman. Sharq-g'arb masalalariga uncha tobim yo'q.

Noqiya buvining yoniga o'tirdim. Chekkalari gajakdor yashil ro'moli ostidan xinaga bo'yalgan sochlarining oqargan uchlari chiqib turardi. Bir dona ham tishi qolmaganidan yupqa lablari tortilib qolgan. Ko'zining oqlari ham sarg'aygan, qovoqlari beo'xshov osilib qolgan edi. Eski mushtugidan buriqsigan tutunni uflaganda burishgan yonoqlari, bo'z ko'ylagining yoqasidan bo'rtib turgan suyaklari va qizargan tani ko'rinib turardi. Bularni kuzatib achinishga o'xshash bir tuyg'u qopladi xayolimni...

— Noqiya buvi, issiqqa qalaysiz? Bursa issiqmi, Istanbulmi?

Noqiya buvi dadamning sutonasining katta qizi edi. Ko'chib kelganlaridan beri Bursada yashagan, shu shaharda turmushga chiqib, farzandlarini ham shu yerdan askarlikka yo'llagan mo'tabar ayol edi.

Noqiya buvi askarlarga alohida mehr bilan boqardi. Istanbulga kelganida asosiy ishi juma kunlari Qoratoshga borib askarlarning qaytishini kuzatish bo'lardi.

Harbiy bo'lim idorasi yonidagi navbatchi askarga albatta salom berib o'tardi. Yo'lda askar uchrab qolsa, ular bilan ham suhbatlashardi. Ba'zan ularga yegulik yoki tamaki ulashardi. Buvi ba'zan yo'laklarga tushgan toshlarni (o'z o'g'lidek avaylaydigan askarlarning oyog'iga botmasin deb) tozalab ketardi.

— O'g'lim, Salimiya garnizoni bu yerdan uzoqmi?

— Xola, Salimiya garnizonini nimaga so'rayapsiz?

— Shunchaki...

Bu "shunchaki" aslida muborak ayolning butun umri, boshidan o'tkazganlari, butun o'tmishi edi. Rangi uchgan lablari orasidan oqshom oydinligiga so'zlar yoyildi. Shu tobda, qarshimda uch farzandi vatan yo'lida jon bergan bu pajmurda ayol nihoyatda ulug'vor ko'rinardi. Atrofga boqdim. Devor chetidagi soya-salqinda yaproqlari qurib, to'kilgan, changga botgan, yarmi so'lib-singan bir gul mahzun, aftoda, boshqa yoqda esa tuproq sari egilgan ko'yi qurib qolgan gilos daraxti, sal nariroqda eski, bo'yoqsiz kulbaning g'amnok shakl-u shamoyili ko'rinardi.

— Shahidlarni xotirladingizmi, buvi?

Onaxon yuzimga termildi. Eski yaralarini ko'rsatgan jangchi misoli g'amgin sevinch-la sekingina "ha" deb qo'ydi.

— Bugungiday yoz oqshomi edi. Hasanjonimni ko'rgani borgandim. Bir zobit daftariga qarab turib "tez orada keladi", — dedi. Keyin chiqayotsam bir askar yonimga keldi. "Husayn bizga nasib bo'lmagan maqomga erishdi... Shahid bo'ldi, ona..." — dedi. Yig'lamadim. Chunki otasi ularni beshikdaligidayoq "yo g'oziy, yo shahid bo'lsin, — deb emiz", derdi. Na unga, na Hasanimga, na kuyovimga achindim. U yoqda meni kutadigan bulardan boshqa hech kimim yo'q, axir.

O'z ixtiyori bilan jangga ketgan kuyovimning o'lim xabari kelganida qizim chidolmadi, kuyunib adoyi tamom bo'ldi. O'zi ham juda nimjon edi. Uch oy o'tmay u ham qazo qildi. Men shundan buyon ularning yodi bilan yashab kelyapman. Ular

men uchun to'rt dona qanot, shunday emasmi, bolam? Nachora! O'limli dunyo bo'lgach, shunday janglarda gunohlaridan qutilib ketgani yaxshi emasmi? Quroldoshlarining aytishicha, uchovi ham peshonasidan, ko'ksidan o'q yebdi. Oh, Hasanjonim-a! Qanaqangi azamat, qanaqangi jasur yigit edi... Ketayotib, menga: "Onajon, agar meni sirtidan o'q yedi desalar ruhimga fotiha o'qima. Emgan sutim xarom bo'lsin!" — degandi. Zotan uchovi ham o'limini bo'yniga olib ketgandi. Hasanimdan qoraxat kelganida yig'laganimni ko'rib otasi g'azablangandi. O'sha-o'sha qachonki ichimni alam kuydirsa, ko'zimni chirt yumib olaman. Ular ko'z o'ngimda paydo bo'lishadi: yarali holda kelishadi, kulib qo'limni o'pishadi, yuzimdan o'pishadi... Sening bolalaringga ham nasib qilsin g'oziylik.

Keyin ko'ksidan burishgan, bukilgan joylari yirtilgan bir parcha qog'ozni chiqarib o'pdi. Horg'in ko'zlaridan oqqan yosh qog'ozga tomdi. "Husaynimning so'nggi maktubi", — deya menga uzatdi.

"Otajon!

Qo'llaringizdan o'pib, hammaga duoyi salomlarimni yo'llayman. Sizga bir nimani aytmoqchi edim. To'g'rirog'i, dinimizga ko'ra mujda hisoblanuvchi bir xabarni yetkazmoqchiman. Faqat yig'lamaysiz, qattiq qayg'urmaysiz. Otajon, agar xohlasangiz onamga aytmang. O'zingiz axir "shuncha jangdan salomat qaytdim, murodimga yetolmadim" derdingiz-ku. Mana, Hasan murodiga yetdi... Shahid bo'ldi. Uch kun oldin urushda kiyikdek chaqqonlik, arslondek jasorat ko'rsatgandan so'ng shahodat sharbatini ichdi. Tangri yor bo'lsin. Jon berayotganida yonida edim. Sizdan rizolik so'rab yolvordi. Bir o'q chakkasiga, ikki o'q ko'ksiga tekkan, bir zambarak o'qi qo'lini qo'porgan. O'z qo'llarim bilan tuproqqa qo'ydim. Tuproqqa kirayotib ham yuzi kulardi. O'sha siz bergan otameros pichog'ini ham yoniga ko'mdim. Qinini esa bosh tomoniga belgi sifatida qo'ydim. Bilasiz, rahmatli esini tanigandan beri shu pichoqni qo'lidan qo'ymaydi, yotganida yam yonida olib yotardi... Eh, otajon, dushmanga qanday shiddat bilan tashlanganimizni ko'rsangiz

edi. Ko'z o'ngimga sizning janglardagi jasoratingiz kelardi. Biz ikki qo'shin edik. Dushmanga chaqmoqdek qo'rquv soldik. Ilk kungi jangda qo'mondonimizdan ayrildik. Serjant ham yaralangandan keyin qo'mondonlikni Hasan o'z qo'liga oldi. Eh, otajon, bizdan uzoqda turib Hasanning hayqirishini, uning na'rasidan oyoqlarimiz ostidagi tuproqning, boshimiz ustidagi chinorlarning dag'-dag' titraganini bir ko'rsangiz edi, hayron qolardingiz... Nihoyat, dushmanni tor-mor qildik. Ortidan quvib bordik. Oldinda ko'ksi ochiq Hasan yugurib borardi... Qushdek, shamoldek, olovdek uchib borardi. Shu payt dushman yana bir bor ortga qaytdi. Ana o'sha payt Hasanni yerda ko'rdim. G'azabdan nima qilarini bilmasdi. Peshonasidan oqqan qonlar ichida qip-qizilga bo'yalgan tishlari bilan tepkini bosmoqchi bo'lardi. Miltig'ining o'qlog'ichini tishlashga urinardi. Ko'zlari quturgan arslon ko'zlari kabi kosasidan chiqib ketay derdi. Chorasizlikdan uni o'sha yerda qoldirib jangni davom etdirdik. Dushmanni batamom yenggandan keyin uning yoniga qaytdim. Kelganimni sezib ko'zlarini ochdi.

Siz har doim "men shahid o'g'liman, shahid otasi bo'laman" deb aytardingiz-ku. Mana, ota, niyatingizga yetdingiz. U ham murodiga yetdi. Ham g'oziy bo'ldi, ham shahid...

Sizning va onamning qo'llaridan o'paman. So'raganlarga salom ayting. Bu maktubni leytenantimizga yozdirdim. U ham sizga hurmat bilan salom yo'llamoqda. O'g'lingiz kapral Huseyn".

* * *

Uch yil o'tdi. Noqiya buvi bir haftadan beri og'ir kasal. Bir kuni erta tongda uyg'ondim. Sira esimdan chiqmaydi. Juma tongi edi. Uydagilardan sas-sado chiqmaydi. Hammalari xafa. Kimdir "qolganlarga sabr bersin, buvi omonatini topshirdilar", — dedi. Men shu noxush xabarni g'ayriixtiyoriy tarzda bir necha kundan beri kutayotgandim. Ichimga og'ir qayg'u va qandaydir g'ayritabiiy qo'rquv cho'kdi.

Tobutning bosh tomoniga buvining qizil durrasini, ustiga eskigina ro'molini tashlab masjidga olib ketishdi. Askarlar va far-

zandlarining quroldosh do'stlari kelib mozorgacha yelkalarida tashidilar. Katta yo'lga chiqqanimizda harbiy orkestrga duch keldik. Ikki harbiy qism askar onasining tobuti boshida ajib bir hurmat bajo keltirgan holda ohista o'tib borardi.

Bu vatan o'g'lonining onasiga ko'rsatilgan tasodifiy mukofot edi.

ADIBNING SIRLI O'LIMI

Usta Adib qizil sharobini ichgach, g'urur bilan qadahini stolga qo'ydi. O'zini tutishi, qarashi va yillarning unga baxsh etgan mahoratidan bo'lsa kerak, u ko'proq teatr san'atkorlariga o'xshab ketardi. Mehribon va shavqatli qarashlari, otalarcha xulq-atvori, oq oralagan soqollari bilan atrofidagilarda izzat-ehtirom qozonardi.

Boshqa stollarda ham adiblar, shoirlar, yozuvchilar va san'atkorlar suhbatlashmoqda edilar. Oq ko'ylaklari ustidan qora kapalaknusxa bo'yinbog' taqqan ofitsiantlar lazzatli va qip-qizil qilib pishirilgan baliqlarni, turli-tuman dengiz mahsulotlaridan tayyorlangan yeguliklarni, kalmar, karideslarni ziyofatga qadam ranjida qilgan mehmonlarning dasturxonlariga uddaburonlik bilan eltmoqda edilar.

Yosh Adib ro'parasidagi kishiga tikilib qaradi. Gapirish ohangidan suhbat jarayonida o'zini so'roqqa tutilayotgandek his qildi. Jumlalar orasiga yashirin savollar joylashtirilganday tuyuldi:

— Luis Borgesni o'qiganmisiz? Men uning asarlaridan ta'sirlanganligimni aytishim mumkin. Bitta asarida shunday deydi...

Borgesning nima deganligiga parvo qilmasdan gapini bo'ldi:

— Yo'q, o'qimaganman. Bu yaqin orada o'qimoqchi ham emasman.

Mashhur Adib taajjublandi. Ro'parasidagi kishiga diqqat bilan razm soldi. Yozuvchiga o'xshagan turi yo'q edi, faqat imzo qo'yib, taqdim qilgan kitobi unga juda manzur bo'lgandi. Ishongisi kelmadi. Qo'llariga ko'z tashladi, qalamdan ko'proq ketmon va belkurak tutganga o'xshardi. O'sha maroqli hikoyalarni bu kishi qanday yozdi ekan?! Bo'lishi mumkin emas.

— Menga bergan kitobingizni haqiqatan ham o'zingiz yozdingizmi? — jumlalari bexosdan og'zidan chiqib ketdi.

Haqorat va tahqirlashdan iborat bu savolga pinagini ham buzmadi:

— Men yozdim, shubhangiz bo'lsa, yana yozishim mumkin.

— Sizning kitob yozish-yozmasligingiz mening xohishimga bog'liqmi?

— Albatta, sizning xohishingizga bog'liq emas, lekin yozmoqchi bo'lgan kitobning pulini bersangiz, yozishim mumkin...

— Tushunmadim!

— Tushunmaydigan hech narsa yo'q. Istagan har qanday mavzuda kitob yozib berishim mumkin, siz esa pulini berasiz.

Eshitganlariga ishongisi kelmadi. Yevropada yashagan, katta yozuvchilar bilan tanishgan, adabiy uchrashuvlarda ishtirok qilish baxtiga musharraf bo'lgandi. Vatanida ham hurmat va e'tibor qozongan adiblardan biri hisoblanar, tadbirlarga, muhim uchrashuvlarga, adiblar va yuqori martabali mehmonlar chaqiriladigan ziyofatlarga tez-tez taklif qilinardi. Bir qator kitoblari qayta-qayta nashr qilingandi. Biror mukofot yoki unvonga loyiq ko'rilmaganini hisobga olmaganda oshig'i olchi, to'rt tomoni guliston edi. Agar biror unvon berilmagani yodiga tushgudek bo'lsa, ich-ichidan bir g'ashlik o'rmalab chiqar, qalbini afsus va nadomat, o'xshashi yo'q armon qoplab olardi.

Yosh Adibning kitobi haqida suhbatlashishni istadi:

— Sizning hikoyalaringiz haqida gaplashsak...

— Nima ham dey, bir ahmoqlik qildim, kitob yozganimdan pushaymonman.

Mashhur Adibning qiziqsinishi yana ham ortdi, ko'zlari yanada kattardi. Kim bo'lsa ham yozganlaridan faxrlanadi, g'ururlanadi, yonidagi odam esa u bilgan haqiqatni ostin-ustun qilib, butunlay teskarisini gapirmoqda edi. Qalloblarni tanirdi. Ko'pchiligi chekka mahallalardan chiqardi. Odatda zakiy, osiy va qo'pol bo'lishardi. Vaqt mashinasining dahlizlarida erib, yo'q bo'lib ketishardi. Juda kamdan kam uchrasa ham bitta-ikkita saflariga qo'shilganlar uchrab turardi.

— Hikoyalaringizni maroq bilan o'qidim, qo'lingiz dard ko'rmasin, juda ajoyib kitob bo'libdi. Keyingi paytlarda nashr qilingan asarlar orasida eng saralaridan biri, deb o'ylayman. Xuddi shuning uchun ham sizni bu ziyofatga taklif qildim. Taklifimni qabul qilib, tashrif buyurganingiz uchun minnatdorman.

— To‘g‘risini aytadigan bo‘lsam, meni taklif qilganligingiz uchun xursand bo‘ldim, katta rahmat!

Sharobini bir simirishda bitirdi. Hech narsa demasdan qadahiga yana sharob to‘lg‘aza boshladi.

— Modomiki, siz uchun bu qadar ahamiyati yo‘q ekan, unda nega kitob yozdingiz?

— Sababini sizga gapirib beradigan bo‘lsam, ishonishingiz amri mahol. Yaxshisi, mavzuni o‘zgartiraylik.

— Yo‘q, nega endi? Albatta, ishonaman. Bajonidil eshitgan bo‘lardim. Hikoyalaringizdan juda ham ta’sirlandim, sizning gaplaringizdan keyin qiziqishim yanada ortdi. Maroq bilan o‘qib chiqdim kitobingizni. Ta’riflashim qiyin, hatto ismi nima ekanligini o‘zim ham bilmaydigan, ammo his qilish, yashash mumkin bo‘lgan nozik bir chiziq bor asarlaringizda. Bu chiziqni hikoyalaringizda yaqqol his qilish mumkin. Satrlarning orasida hamohamglik bilan sepilgan uyg‘unlik mavjud.

— Kitobimni ko‘klarga ko‘tarib maqtaganligingizga, qiziqsinishingizga ko‘ra, bu hikoyalarni nima sababdan yozganligimni aytib berishga majburman, shekilli.

Biroz taraddudlangandek bo‘ldi, zero mashhur Adib bilan ziyofatda yuzma-yuz suhbatlashayotgandi. To‘g‘risini aytish kerak bo‘lsa, e’tibordan chetda qoldirilmasdan bu ziyofatga taklif qilganligiga ich-ichidan mamnunlik hissi tuymoqda edi. Haqiqatni aytib qutulish eng to‘g‘risi, deb o‘yladi. Adib va san’atkorlarning orasidan kamdan-kam joy olardi. Dunyodagi mashhur yozuvchi va shoirlardan iqtibos keltirgan holda, hayot hikoyalaridan uzundan-uzun misollar keltirilib suhbatlashiladigan davralarga hech tobi yo‘q edi.

— Chamasi bundan uch yilcha oldin, ishlarim unchalik ham yurishmayotgan paytlar. Faqatgina mening ishlarim ham emas, butun yurtda shu ahvol. Do‘kondorlar, hunarmandlar, kosiblar, kichik sarmoya egalarining ahvoli tang, ularda ishlayotgan ishchilarni-ku, aytmasangiz ham bo‘ladi. Iqtisodiy inqiroz sabab ko‘pchilikning boshi dardda. Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsam, inflatsiya haddan tashqari ortib, pul qadrsizlanib borayotgan bir payt. Yashash sharoiti tobora og‘irlashib, har o‘tgan kun qarzdor-

larning soni yana ham ko'payib borayotgan kunlar. Mening ishlarim ham xuddi shunday bo'ldi, qarzlarim kundan kunga ortib bordi. Mashinamni sotsam ham ulardan qutulishning imkoni bo'lmadi, uyimga ijroiya qo'mitasi xodimlari keldi va nimam bor, nimam yo'q musodara qilishdi.

Mashhur Adib ayni payt yosh yozuvchini jon qulog'i bilan tinglardi. Eshitganlari uni o'tmishga tomon yetakladi. Hayoti bo'yicha hech qachon pulsiz qolmadi, pul degan dardi bo'lmadi, moddiy qiyinchilik nima ekanligini bilmasdan yashadi, hech kimdan qarz olib ko'rmadi. Eng nomdor kollejlardan birida o'qidi. Adabiyot fakultetini bitirgach esa, salom Parij, deya Yevropaga yo'l oldi. Shoirlar, yozuvchilar, san'at va adabiyot to'garaklari... Parij ko'chalaridagi tamaddixonalarda ertalabgacha davom etadigan, tamaki tutuni ostidagi suhbatlar, munozaralar; jasmin hidli jozibador va dilbar ayollar... Hamma narsasi bor edi, qanday xohlasa, shunday yashadi, faqat ichidagi bo'shliqni hech to'ldira olmadi. Yillar davomida izladi turdi. Nimaligini bilolmadi. Balki yosh yozuvchini bu sababdan taklif qilgandi bugungi ziyofatga. Balki ichida bir xil odamlardan qochish, yangi insonlar bilan tanishish istagi uyg'ongandir...

Yosh Adib hikoyasini davom qildirdi:

— Avgustning olov purkagan kunlaridan biri edi. Xonada konditsioner yo'q, issiqdan boshimni qaysi devorga urishni bilmasdan garang bo'lib o'tirgan paytimda bir kishi kirib keldi. Necha yillardan buyon ko'rishmagan kursdoshim ekan. Universitetni bitirgach, xorijga ketibdi. U yerda davlat kutubxonasida ishlay boshlabdi. Vaqt o'tgach, lavozimi oshibdi. Turk tili va adabiyoti bo'yicha kitoblar bo'limi boshlig'i etib tayinlanibdi.

Mahalliy gazetalardan birida nashr qilingan maqolamni maqtay-maqtay adog'iga yetolmadi. To'g'risini aytsam, juda xijolat tortdim. Gazetaga obuna bo'libdi, maqolalarimni o'qib, kuzatib borar ekan.

— Meni diqqat bilan eshit. Sen kitob yozishing kerak. Kitobingdan ikki mingtasini Istanbul kitoblar ko'rgazmasiga kelib olaman. Ikkitadan butun maktablarga va kutubxonalarga tarqatishni rejalashtiryapman, — dedi...

Xuddi kechagiday ko'zlarining oldidan ketmaydi, hisoblash mashinkasini qo'liga olib, suhbatni raqamlarga to'kkani...

Kitoblarning butun adadi bu yerda sotilganida ham Yevropadan keladigan pulning beshda birini ham qoplamasdi. Qarzlaridan qutulganidan keyin ham yoniga yaxshigina pul qolardi. Kursdoshining taklifi maqul tuyuldi, vaqt yo'qotmasdan qo'liga qalamini oldi. Qisqa vaqt ichida kitobni yozib tayyor qildi va mashhur nashriyotlardan biriga yo'lladi.

Nashriyot xodimi:

— Hikoyalaringiz juda yaxshi, lekin ismi-sharifingiz tanilmagani uchun kitoblaringizning sotilishi amri mahol, — dedi. Bu gaplardan keyin butun umidlarim chilparchin bo'ldi.

Yosh yozuvchi har nima bo'lgan taqdirda ham shahdidan qaytmadi. Nashriyot qog'oz, bo'yoq, sahifalash va kitob muqovasining xarajatlarini undan istadi. Do'stlaridan qarz-qavola qilib bu pulni ham to'ladi. Har qancha mashaqqatlar evaziga bo'lsa ham, nashriyotdan chiqqan kitoblarni qo'liga olganida o'zini baxtiyor his qildi...

Unutilayozgan xotiralarni yodga olar ekan, miyig'ida kulimsiradi. Mashhur Adib hikoyani butun diqqati bilan tinglar, voqealar qanday yakuniga yetishini sabrsizlik bilan kutardi.

Ko'rgazmaning birinchi haftasini kursdoshini kutib o'tkazganini eslab aftini bujmaytirdi. Kursdoshi kelishga kelgandiku-ya, yoniga birrovga bo'lsin hol-ahvol so'rashish uchun ham uchrab o'tmasdan, uzun bo'yli, sariqdan kelgan sevgilisi bilan Antalyaning go'zal sohillariga ketganini keyinchalik bildi. Kitoblari ham qanday bo'lsa, shundayligicha qolavergandi qo'lida. O'sha kundan buyon kitoblarini imzolab, tekinga tarqatadigan bo'ldi. Bundan buyog'iga nima bo'lsa bo'lar deganday...

— Mana shunaqa gaplar. Hikoyalarimni o'qiganlar meni yozuvchi deb o'ylashadi yoki yozuvchi deb hisoblashadi, sizga o'xshab.

Aftidan hikoya keksa Adibga qiziqarli tuyuldi. Aqliga kelgan fikrni birdaniga so'zlashga tili bormasa ham oxiri chiday olmadi va:

—...Ya'ni, sizga bitta kitob yozib bering, pulini to'layman desam yozasizmi?

— Pulini oldindan to'lasangiz, albatta, yozaman.

— Bo'pti. Kitobni yozib boshlamasdan oldin sotilish narxidan ortig'i bilan pul to'layman. Lekin asarni men yozgan bo'laman. Buni ikkalamizdan boshqa hech kim bilmasligi kerak.

— Kelishdik. Hayolingizda kitob to'g'risida biron bir mavzu yoki taklif bormi?

Mashhur Adib bir zum o'yga toldi:

— Roman bo'lsin, mavzusi adibning sirli o'limi haqida.

Yosh Adib yozmoqchi bo'lgan asarining janri va mavzusi haqida o'ylab ham ko'rmasdan:

— Bo'pti, kelishdik, — dedi.

Kitobning bo'lishi haqida bir to'xtamga kelishdi. Mashhur Adib belgilangan mablag'ni oshig'i bilan to'ladi. Belgilangan sanada, xuddi shu yerda, xuddi shu stol atrofida uchrashishga kelishib oldilar...

Yosh Adibni bu ziyofatdan keyin ancha paytgacha biror joyda ko'rgan, uchratgan topilmadi. Kunlar haftalarni, haftalar oylarni quvlab o'tdi. Ko'z ochib yumguncha belgilangan muddat, uchrashuv kuni ham eshik qoqdi.

Uchrashuv kuni Mashhur Adib vaqtliroq kelib kuta boshladi. Juda hayajonli edi. Dasturxonni dengiz mahsulotlaridan tayyorlangan noz-ne'matlar bilan to'ldirdi. Ko'zini eshikdan ololmasdi. Kelib-ketuvchilarga, u bilan suhbatlashish orzusida ekanligini bildirganlarga jilmayib qo'ya qoldi, ba'zilari bilan boshini qimirlatgan holda salomlashgan bo'ldi. Mehmoni borligini aytib, taklif va iltifotlar uchun tashakkur izhor etdi. "Kelarmikan?" deb o'ylar, o'ziga o'zi savollar berardi. Vaqt juda sekinlik bilan, imillab o'tardi. Kutdi... Kutdi...

Bir shisha sharobni bitta o'zi ichib tugatdi. Bora-bora umidlari ham puchga chiqdi:

— Kelish niyati bo'lganida shu paytgacha kelgan bo'lardi. Bekorga kutyapman, — deya asabiylashdi. O'rnidan turish uchun tayyorgarlik ko'rib, qadah tagida qolgan sharobni ham ichdi va oxirgi marta eshikka ko'z tashladi.

— Nahotki!

Qavargan papkani qo'lida tutgancha unga tomon kelayotgan yosh Adibdan boshqasi emas edi.

Bir-biriga ko'zi tushgach kulimsiradilar. Salom-alik qilishdi. Kech qolgani uchun xijolat chekkan Yosh Adib sumkadan qavariq papkani chiqarib, stol ustiga qo'ydi:

— Kech qolganligim uchun uzr so'rayman, Istanbul yo'llarining tirbandligini bilasiz, — dedi.

— Bilaman. Hechqisi yo'q. Muhimi kelishingiz edi.

Va'daga vafo qilinganligi sharafiga qadah ko'tardilar...

Mashhur Adib uyiga borar-bormas ko'zoynaklarini taqib, asar mutolaasiga kirishdi. Kitobni ertasi kuni tush paytida o'qib bitirdi. Juda hayajonlandi, xuddi uning hayoti qalamga olinganday edi.

Uzoq yillardan buyon izlayotgan, izlasa-da, topolmayotgan, ismini ham bilmaydigan, ta'riflab ham, ifodalab ham bo'lmaydigan asosnimi desa, fabulanimi desa, topganiga amin bo'ldi. Romanni o'qir ekan, har sahifada ichidagi bo'shliqning yo'qolib borganligini his qildi, hayratlandi. Buning ismi "Teskari muvofiqlik" bo'lsa kerak deb o'yladi.

Qalbini nurafshon qilgan farahlikdan uyqusizligini esdan chiqardi. Zudlik bilan asarni chop qilinishini istardi va uni nashriyotga yo'lladi...Nashriyotning reklama dasturi kutilganidan keyin a'lo natija berdi. Asar kitob do'konlarida, savdo markazlarining peshtaxtalarida o'z o'rnini egalladi. Xuddi non va suvdek sotildi. "Eng ko'p sotilgan kitoblar" ro'yxatidan joy oldi.

Yil yakunida "Adibning sirli o'limi" romani adabiyot sovrinlaridan biriga nomzod qilib ko'rsatildi. Hakamlar hay'ati asarni yuksak adabiyot unvoniga loyiq deb topdi. Tantanali marosimga asar muallifi va nashriyot rahbariyati ham taklif qilindi.

Taniqli san'atkorlar, nashriyot mutasaddilari va kitobxonlar tantanali marosim o'tkaziladigan zalda o'z o'rnini egalladilar. Chiroqlardan taralayotgan rango-rang yog'dular ko'rkamlik baxsh etmoqda edi. Taniqli suhandonlar sahnada o'z o'rnini egalladilar. Ovozkuchaytirgichlardan taralayotgan g'arb mumtoz musiqa ohanglari go'yo dabdaba orasiga singib ketayotganday edi. Mu-

kofotlar taqdim qilinar ekan, kimlardir xursandligidan qo'llarini yuqori ko'tarar, kimlarningdir chehrasiga mahzunlik cho'kar, kimlardir yuzini to'sgan holda yig'lar edilar. Suxandonlar sahna tugmalarini bosgach, zal qaytadan nurga cho'mar, tarovatli musiqa davom etardi.

Mashhur Adib g'oliblik mukofotini olgach, qisqacha minnatdorchilik bildirdi va olqishlar og'ushida joyiga o'tirdi.

Marosim yakunida jurnalistlar birinchilikni olgan san'atkorlar bilan suhbatlashishar, savol-javob qilishar va suratga tushishardi. Mashhur Adib bilan ham suhbatlashmoqchi bo'lgan bir talay jurnalistlar navbat kutmoqda edi. Roman haqida, shunday kunda o'z joniga qasd qilishning sabablari va bu mavzuning adabiyotda qay darajada aks etganligi, tasavvur, hayolot va haqiqat kabi mavzularda fikrlarini o'rganishga harakat qildilar. Ular ichida bo'yniga fotoapparat taqqancha bir chekkada uzoq vaqt kutib turgan jurnalist ayol va nihoyat mashaqqat bilan navbat oldi. Qo'lidagi qandaydir kitobni Mashhur Adibga uzatdi va:

— Kechirasiz, bu kitobga bir ko'z tashlasangiz. Sizning asaringizning naq o'zginasi, faqat hajmi va muallifi boshqa. Nima deb oylaysiz, ko'chirma kitob bo'lishi mumkinmi? — dedi.

Kitobni qo'liga olgan Mashhur Adibning birdan yuzi oqardi, nima deyishini bilolmadi. Yosh Adibning ismi-sharifini o'qigach, hammasini tushunib yetdi. Boshi aylanayotganini, yurak urishining tezlashganini his qildi. Uni diqqat bilan kuzatib turganlarga, jurnalistlarga, dasturxon artofidagi do'stlariga uzoq vaqt ko'zlarini katta-katta ochgan holda qarab qoldi...

Yaqinidagilar yurak xuruji kechirayotganini tushundilar. Adibning qo'lidan tutishdi, ular muzdek edi. Oradan biroz vaqt o'tib, o'ziga keldi. O'rnidan turdi, jurnalistlarga, do'stlariga qaradi va:

— To'g'ri, ikkalasi ham bir xil. Bu roman aynan bu haqda hikoya qiladi, — dedi.

Asta-sekinlik bilan qadam tashlab, zalning chiqish eshigi tomonga yo'naldi. Hech kim hech narsa deyolmadi, nima deyishni ham bilolmadilar, taajjub va qiziqish bilan orqasidan qarab qoldilar, xolos.

Ertasi kuni gazeta sahifalarida Mashhur Adibning dori ichib, o'z joniga qasd qilgani xabari yozildi. Gazetalarni "Adibning sirli o'limi" sarlavhasi ostida maqolalar bosib ketdi.

Asar "Eng ko'p sotilgan kitoblar" ro'yxatida birinchi qatorga chiqib ulgurdi. Qizig'i, har ikki kitobni o'qiganlar hayratdan yoqalarini ushladilar. Sababi, Mashhur Adibning joniga qasd qilishi roman xotimasi bilan bir xil edi...

SANCHIQ

Ko'ksimning chap tomonida yana zirqiray boshlaydi o'sha "qadrdon" bilinar-bilinmas og'riq. Borgan sari zabtiga olmoqda meni. Peshonamdan, qo'ltiq ostlarimdan sovuq terlarning quyulib kelayotganini his qilaman. Yarim asrning hisobini so'rayotganday o'yib yuboray deyapti yuragimni. "Hammasi tugadi!" deyman. "Bu safar hammasi tugadi. Bu sanchiq yo meni o'ldirmoqchi, yoki..." Tilim bormaydi davomini so'zlashga. Taraddudlanaman, shifoxonaga borsammikan yoki uyga ketsammikan? Bir muddat ikkilanib haydayman mashinani. Soatimga qarayman, shifoxonaga yetib olishim yarim soat vaqtimni oladi, uyga boray desam ham yarim soat. Gaz tepkisiga bosaman, qo'lim yopiq bo'lma tomon uzanadi. Cho'ntak konyagi va dori-darmonlar yonma-yon qo'yilgan... Konyakdan ikki qultum ketma-ket ichaman.

Aqlim yo'l chekkasida mashinani to'xtashim kerakligini uqtiradi, lekin men yo'limga davom etaman. Peshonamni reza ter qoplarkan, ro'paramdagi tog'larga qarayman. Olimpos tog'larining cho'qqilarida qor uyumlari bor hanuz. Iyun issig'ida salqintob, muzdekkina bo'lsalar kerak, qani endi o'sha joyda bo'lsam. Ko'zim o'ng tomonimga tushadi. Oq dengiz yastanib yotibdi. Lojuvard, to'q ko'k ranglar moviy, tiniq ko'k, havorang tuslar bilan bir-biriga singib, aralashib, qorishib ketganday... Darhaqiqat, men dengizni sevaman! Dengizlarda had-hudud, chegara, to'siq, g'ov bo'lmaydi. Hammaga birday quchoq ochib, sevgi bilan kutadi go'yo...

Bir yutum yana...

"Uyga ketishning nima nafi bor?" deb ming'irlayman. Chap ko'ksimdagi sanchiq nari borsa do'xtirlik ish. Uyda sodir bo'ladigan holatni ko'z oldimda keltirishga urinaman. Bo'lishi mumkin emas. Uydagi dahmaza-yu g'ala-g'ovur, shovqin-suronga na tobim bor, na sabr-toqatim, na-da darmonim...

Orqadan va ro'paradan kelayotgan mashinalar uzun-uzun signal beradilar... Shoshilinch tibbiy yordam mashinasining "Yo'l ochinglar" deya dod solayotgan og'riqli ovoziga o'xshataman uni. Yo'l chekkasida bir joyda to'xtashim kerak. Asta-sekinlik bilan boshlangan zirqirash: "Olg'a bos, to'xtash yo'q!" deb dalda beradi. "Qani, olg'a, davom et! Sen qachon to'xtagan edingki, endi to'xtamoqchisan? Bu yo'l seni hayotga bog'lashi mumkin, chidashing kerak..." deydi.

Bir yutum yana...

Yana o'sha odamlar. Qo'llaridagi so'yillari bilan paydar-pay zarba uradilar. Bilaklarimni kishan siqadi. Otam va onam keladi aqlimga, ularni ham unutdim. Necha yil o'tdi, eslolmayman ko'rishmaganimizga.

Oh bu og'riq, yuragimning ust qismidagi iztirob. Yarim asrlik hisobini so'raydi mendan.

Shaharga kiray deyapman...

Sevgililarim tantanali namoyish kechasi o'tqazadilar, moviy rangning qavatlarida oqqushlardek raqsga tushib. Birinchi muhabbatim qayerlarda, kim bilsin. Oxirgi bug'doymag'iz yuzlisi qo'l silkalaydi bilmam qayerdan. Bunchalar tez o'tib ketdi vaqt. Sanchiqning ustiga bir g'ashlik kelib cho'kadi.

Bir yutum yana... Mashinani yo'l chekkasida to'xtatishim kerak. Faqat kim olib boradi meni shifoxonaga? Qo'lim cho'ntak telefoniga uzanadi, kimga nima deyishim mumkun bu vaziyatda. Mantiqsiz tuyuladi bu soatda hamma narsa. Oxirgi nafasimni yolg'iz o'zim yashashim kerak, eng to'g'risi bu! Telefonni yon o'rindiqqa uloqtiraman. U ham his qilganday jiringlay boshlaydi. Qaramayman, hozir yo'l undan ko'ra muhimroq, sirpanib, og'ib borayotir shundoq ham. Ajabsinaman, kim telefon qilgan bo'lishi mumkin? Balki ish joyidandir, kim bo'lsa bo'lar... Peshonamdagi terni artaman, hech narsaning ahamiyati yo'qdek tuyuladi. Ro'pa-

ramdan kelayotgan mashinalar ustimga bostirib kelayotganday go'yo. Har biri katta-katta g'ildiraklari bilan yuragimni ezayotganday. Yo'l chekkasida bir joyda to'xtashim kerak...

Bu yer qaysi shifoxona? Xususiy shifoxonami yoki davlat shifoxonasi? Eshikdan kirib, tevarak-atrofga olazarak ko'z tashlayman, anglay olmayman, hech narsaga tushunib bo'lmaydi. Buncha tiqilinch, kasal buncha ko'p bo'lmasa. Otalar, bolalarining qo'lidan tutgan onalar, keksalar, yoshlar; mahshargohga o'xshaydi. Yo'qsa mahshardamanmi? "Aljirama" deyman o'z-o'zimga. "Chorasiz qolgandan keyin qochadigan joy izlayapsanmi yana har doimgiday?"

Hammaning vaqti oshig'ich, kasalligi qistalang, kim biladi necha soatdan beri kutyaptilar. Hamshiralar hovliqib u yoqdan bu yoqqa chopishishadi. Kutish zalida o'tirish uchun o'rindiq izlayman, har yer band. Keksa bir xola ilashadi ko'zimga, o'tirgan joyida uxlab qolibdi. Chuqur va rohatbaxsh uyquda ekanligini his qilish mumkin yuzidan. Uning yonidagi joy bo'shadi, g'ujanak bo'lib o'tiraman u yerga. Hech kim qiziqmaydi, hech kim aloqador ham bo'lmaydi men bilan. Biror tibbiyot xodimiga "Menga tez tibbiy yordam ko'rsatilishi kerak, vaziyatim jiddiy" demoqchi bo'laman, ammo bu yerda hammaga tez tibbiy yordam ko'rsatilishi kerak, hammaning vaziyati jiddiy kabi ko'rinadi. İnsonlarning yuzi kulmaydi, bolalarning qovog'i soliq, rang-ro'ylari buncha oqargan? Yonimda o'tirgan xolaning hech narsadan xabari yo'q, maza qilib uxlashda davom etadi. Chehrasi biram sokin, xotirjamki, tush ko'rayotgan bo'lsa ajabmas, hech kimi yo'qmikan, qiziq!

Yag'rinimdan bo'shalayotgan terning sovuqligini his qilaman. Ko'z qovoqlarimning ustida qo'rg'oshin og'irligi bor, "Ko'zlaringni yum" deb zo'rlaydi. Uyquning qo'llariga taslim bo'lyapman chog'i. Kimdir xabardor bo'lsa, ovoz bersammikan?

Zirqirashning biroz yumshaganligini farq qilaman. Mashinalarning zil-zambil g'ildiraklari yuragimni ezmoqdan voz kechganday. Borgan sari yumilib borayotgan ko'zlarim bilan keksa xolani ko'ra olaman, shunday bo'lsa ham. Orombaxsh uyqusida tushlar olamida kezayotganday. Qulog'imga kelib urilayotgan uzuq-yuluq saslar, oyoq tovushlari tobora uzoqlashib borayotganday...

Oradan qancha soat o'tdi, qancha oy o'tdi, bilmayman. Bitta qo'l yelkamni silkalaydi. Ko'zlarimni ochaman, oppoq bir malak, jannatga tushgan bo'lsam kerak. Jannatga tushadigan odammanmi men? Jannat yoki jahannam bilan ishim yo'q edi u tomonlarda. Biror yanglishlik ro'y bergan, demak.

— Beyafandi, ish soati tugadi, kech bo'ldi!

— Kech bo'ldimi?

Oppoq kiyingan go'zal malak:

— Ha, kech bo'ldi. Ishingiz bitgan bo'lsa uyingizga ketsangiz deyman.

— Uyimga ketaymi? Siz malak emasmisiz?

— Yo'q, mening ismim Pinar.

Atrofimga olazarak ko'z tashlayman. Biroz oldin ismi Pinar ekanligini aytgan malakning ovozi eshitiladi qulog'imga:

— Doktorbey, mana bu yerda bittasi mizg'ib qolibdi.

Yoshgina doktor yaqinlashadi yonimga. Bo'ynida eshitish jihozi ham bor, kulimsirab qaraydi yuzimga. Aftidan tekshirib ko'rmoqchi meni, navbatim kelgan bo'lsa ajabmas. O'ng qo'lim bilan chap ko'ksimni paypaslab ko'raman. Ko'ksimdagi uzv bir maromda urib turibdi, u zirqiragan og'riq, yuragimni qamragan sanchiq yo'q bo'libdi.

— Beyafandi, biror shikoyatingiz bormi, kasalmisiz, tibbiy tekshiruvdan o'tdingizmi, qanday yordam berishim mumkin sizga?

Yana chap ko'ksimni yo'qlayman:

— Yo'q, biror shikoyatim yo'q. Shunchaki kelgandim.

— Tushunmadim.

— Shu yaqin atrofga yo'lim tushdi, bir kirib o'tay dedim, doktorbey. Bo'pti, xayr.

Eshikka to'g'ri yo'nalaman. Shifoxonada uxlashning foydasi bor, demak, davolanmasdan tuzalib ketdim, shekilli. Kech qolgan bo'lsam kerak, soatimga ko'z tashlayman, quyosh botganiga ancha bo'libdi. Tashqariga chiqaman, issiq Oqdengiz oqshomining mayin shabadasi yuzimni siypalaydi. Doktorning va hamshiraning orqamdan qarab turganini his qilaman. Endi mashinaga o'tiray deganimda, yugurgancha malak keladi:

— Beyafandi, onangizni unutibsiz shifoxonada.

— Onamni unutibmanmi?

— Ha, xuddi shunday, onangizni ham olib keting.

— Malak xonim...

— Malak emas, Pinar mening otim.

Orqamga qaytib zalga qarayman, yonimda uxlab qolgan keksa xolani ham uyg'otishibdi. G'aribim tevarak-artofiga qaraydi, qayerda ekanligini topishga urinadi. Yetmishidan oshgan bo'lsa kerak. Chehrasidagi orom va huzur o'rnini bezovtalik egallabdi.

Nima qilsam ekan?

— A... shunaqami?

Xolaning qo'lidan tutaman:

— Qani, xola, ketaylik, — deyman.

Bechora xotin taajjublanib qaraydi menga.

— Sizni uyingizga eltib qo'yaman. Shuning uchun keldim shifoxonaga.

— O'g'lim seni yubordimi?

— Ha, o'g'lingiz bugun ishxonada navbatchi, mendan sizni uyingga eltib qo'yishimni iltimos qildi.

Keksa xola bilan qo'ltiqlashib mashinaga tomon yura boshlaymiz. Doktor bilan malak, uzr Pinarning gaplarini eshitganday bo'laman:

— Sadqayi odam ket, yaxshigina ichgan shekilli, araq hidi kelib turuvdi.

Mashinani haydab, katta yo'lga chiqaman. Chiroqlarning yorug'ligi qamrab oladi yo'lning har ikki tomonini. Osmono'par binolarning derazalaridan asalari mumiga o'xshagan yog'du sizib tushadi. Turli-tuman kattalikdagi qutichalar ichidagi tirband odamlarni ko'z oldimga keltiraman. Ba'zilari o'tirish xonasida televizor tomosha qilayotgan, ba'zilari oshxonada idish-tovoq yuvayotgan bo'lsalar kerak. Hali uyqu soatiga ancha bor.

Yoz issig'ida shahar o'pkasi to'lib nafas olmoqda...

Yonimdagi o'rindiqda o'tirgan xola pichirlab duo o'qiydi menga va o'g'liga.

— Xola, uyingiz qayerda?

Duolarining orasida uy manzilini aytadi.

— Do‘xtirlar nima dedi, kasalingiz nima ekan?

— Qayerdan bilay, bolam. Ertalab barvaqt keldim tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun. Sira mening navbatim kelmadi. Keksalik, biroz ko‘zim ilinganday bo‘ldi, navbatim o‘tib ketgan bo‘lsa bordir. Bunchalar tiqilinch, tirband bu shifoxonalar-ey. Faqat men kasal bo‘lsam kerak, deb o‘ylasam, hamma kasal, shekilli. Ertaga ertalabdan yana kelaman.

Chap ko‘ksimni paypaslab ko‘raman, me’yorida shekilli, hayot qushi “pir-pir” qiladi har doimgiday. Ustidan hech qanday g‘ildirak yurmaydi endi...

Yopiq bo‘lma tomon qo‘limni uzataman, bir qancha qultum qolibdi...

— Do‘xtir sirop berdimi? — so‘radi xola.

— Ha, berdi xola, — deyman parvosiz.

Xolani uyiga eltib qo‘ygach, mashinani Oqdengizning moviy sohillariga to‘g‘ri haydayman. Hozir u yanada sokin, yalt-yult mavjlar o‘ynoqlaydi to‘lqinlarida. Oqdengiz hech o‘zgarmabdi, qanday qoldirgan bo‘lsam, shundayligicha oqib yotibdi, balki ming yillardan beri shundaydir.

Atrof jim jit, sas yoq, samar yo‘q.

Baliqchi mayxonasida musiqali kecha boshlanay deydi...

BEVAQT O'LIM

Soatlarcha yoqqan yomg'irdan so'ng, tuman bosgan uylar, kichik suv havzalari, yomg'irdan so'ng to'kilgan barglarga qarab, Nihatning hozirgina ko'rgan filmi haqida gapirishini hayajon bilan kutyapmiz. Tomlardagi antennalar shamolda tebranar, sarg'ayib, qovjiragan barglar mog'or bosgan temir panjaralar ustidan balkonlarga to'kilar, tarnovlardan tushgan tomchilar sochimizni ho'l qilar, suv oyog'imizdan ham o'tgan, zir-zir titrardik. Nihoyat, Nihat burnidan oqayotgan yomg'ir tomchilarini artib gapira boshlaydi. Namgarchilikdan daraxtlar tagida pana olgan chumchuqlar, qarg'alar, kaptarlar qunishib turar, biz esa og'zimizni ochgancha uni tinglardik. Qahramonimiz Vizantiya qo'shinlariga har tomondan yomg'ir kabi yog'ayotgan o'qlardek hujum qilar, bundan ruhimiz o'sar, nazarimizda shahar torayar, undagi pechkali uylar, ilmsiz o'qituvchilar, bemehr otalar, umuman, bizni bu musibatli shaharga g'arq qilgan barcha narsalar birdaniga jang maydonida ko'rinmas holga kelardi. Asta-sekin Nihat bizni orzulari sari olib kirar, u goh ovozini ko'tarar, goh pasaytirar, hikoya qilarkan, dialoglarda qahramonlar ovoziga aynan taqlid qilar, ba'zida kulib filmning eng qiziq joyida to'xtar, bizga qarab, naqadar diqqat qilayotganimizni o'zicha chamalardi. Ko'zlari bizning nigohimiz bilan to'qnashar, uni jon qulog'imiz bilan tinglayotganimizga amin bo'lgach, hikoyaning cho'qqisi bo'lmish yakunni aytishga chog'lanardi.

Shu payt sharros yog'ayotgan yomg'ir birdan to'xtaydi, so'ng quyosh yuzi ko'rinib, mahalla o'rtasidagi maysa ustida kamalak paydo bo'ladi. Biz panadan chiqib, tovlanayotgan kamalak tomon yuguramiz va sariq, yashil, qizil rangdagi nurli, ushlab bo'lmaydigan yorug'lik atrofini aylanib yuguramiz. Keyin Nihat bizga "Bo'ldi, ketamiz", deydi. Hammamiz odatdagidek daryo bo'yiga, shahar markaziga boramiz. Biz bolakaylar avtobus bekatlari

yonidagi akatsiya, qarag'ay va tollar soyasidan, kinolardagidek to'da-to'da bo'lib o'tib, bekatga yetib kelamiz. Bu vaqtda vokzal qahvaxonasidan ko'tarilgan Orxan Genchebayning "Sen bilmasding..." qo'shig'i shaharning g'amgin, diqiq havosiga qo'shilib ketar, qarshimizdan uzun temiryo'l chiqardi. Oldinda Nihat, orqada biz bolalar temiryo'ldan o'tib, tosh ko'prikka chiqamiz. Qarshimizda fabrikalar orasidan porlab shaharcha ko'rinadi. Ayni dam bulutlar orasidan chiqayotgan quyosh yomg'irda ho'l bo'lgan uy tomlarini, asfalt yo'llarni yarqiratar, oftob oldidagi ko'kimtir bulutlar sekin-asta chekinardi. Bir muddat qo'limiz bilan panjaraga suyanib, yomg'irdan so'ng suvi xiralashgan Qizilirmoqning g'uvillab oqishiga quloq soldik. Yonimizga chumchuq va kaptarlar hurkibgina qo'nishadi. Nihat esa cho'ntagidan askarcha sigaretini chiqarib tutatadi. Uning yomon odatlaridan biri shu asli. Tamaki tutunini shahar tomon puflarkan, "Navbatdagi filmni tinglang..." deydi. Biz darrov boshimizni unga buramiz. Boyagi qushlar birdan havoga ko'tarilib, daryo bo'ylab o'ng-u so'lga uchishadi. Qanot tovushlari, chug'urlashlari birin-ketin daryo shovqiniga qo'shilib ketadi. Tuman ichidagi shahar uzra boyagi yorqin manzara yo'qoladi.

Aslida odamning umr yo'li o'tmish bilan ko'p kesishayotgan bo'lsa, demak, u o'tgan umrini qo'msabdi. Chunki har bir tugallanmagan hikoya, yakun topmagan sarguzasht nihoya topishini istaydi. Kamina ancha vaqt ana shunday kayfiyatga tushib qoldim. Shunda yoshligimdagi ilk shahar manzaralari fotosuratlar yanglig' ko'z oldimdan o'ta boshladi...

Aslida buning ajablanarli tomoni yo'q, chunki kishining ilk qoqilishlari bolaligida, yoshlik yillarida bo'ladi. Shuning uchun shu palladan boshlangan va tugallanmay qolgan hamma narsa yana shu yerdan davom etadigandek tuyuladi ba'zan. Xotiralar, og'riqlar bitmay, o'tmish yaralarini tuzatishni va ularga takror boqishni xohlaydi. Shuning uchun kishi sira o'tmishidan uzoqqa ketolmaydi.

Hozir balkondan bepoyon fazoga qarab turib, cheksiz osmondagi yashil, ko'k, moviy ranglarning qorishib ketganini ko'raman. Parchalanayotgan qora cheksiz bo'shliq uzra o'tmish

manzaralari shu tobda fotosuratlar yanglig‘ ko‘z oldimdan o‘tadi. Go‘yoki bu bo‘shliqni muhrlamoq istagan mohir suratchi hayotning o‘ng va chap tomonlariga bu rasmlarni joylashtirayotgandek... O‘tmish hikoyalarim ichida Nihat, O‘mer, Adem va mahallamizga yaqinda kelgan qizil velosipedli Aynur bor. Bu esdaliklar orasida eslagulik voqealar shu qadar ko‘pki, ular ustma-ust qo‘yilgan. Menga o‘sha muazzam xotiralar tomon yurish yoqadi. Uning iforiga, xotiralarimning izlariga yana yuzma-yuz bo‘laman.

Umrim davomida o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyni maqtagan kishilarga qoyil qolganman. Biroq, kaminada bunday maqtagulik bolalik xotirasi ham, sog‘inib ortda qolgan aziz maskan ham yo‘q edi. Uyga kelishim ham shunchaki, oilaviy ziyoratlar tufayli bo‘lgan. Zero, bolaligim shaharchadagi Qizilirmoqning loyqa suvlari kabi oqdi ketdi. Shuning uchunmi bolaligimni yo‘qotgan bu shaharni negadir sevmadim. Chunki bu yerning har bir burchagida yo‘qotishlar, qon oqayotgan azim yaralari bor. Bu joydagi hayotning g‘ijim manzaralari, uyga qaytish uchun yopilgan eshiklari bor. Zero, biz hamisha yo‘l-yo‘rig‘i kattalar uchun chizib berilgan bu dunyodan nafas ololmasdik. Ana shu hayot ichida o‘qigan hajviy asarlar, uydan qochib ko‘rishga borgan kinolarda o‘zimiz uchun yo‘l topishga harakat qilardik.

O‘sha damlarda qorli tunlardagi dunyomga qayg‘u bilan yolg‘iz tikilarkanman, ko‘z yoshlarim ho‘llagan yostig‘imni quchgancha bu yerdan, bu shahardan qanday ketishni o‘ylar edim. Tor ko‘chadagi muzli qish kunlarida kechgan o‘tmishimni eslash, qanday shaharchada yashaganimni anglatadi. O‘ylab qarasam, o‘sha og‘riqli xotiralar makoni bo‘lmish shaharchadagi eng g‘ussali hikoya Nihat ekan. Chunki u biz kabi shaharcha musibatlariga taslim bo‘lmagan, doim unga burgutdek yuqoridan qaragan. Nazarimda, u shaharga qarshi isyon ko‘targan yagona odam edi. Biz uchun u shaharning turqi-atvori bir xil, ust-boshi abgor, yuzi chandiq bo‘lgan odamlardan o‘zgacha, goh bulutlarda, goh chang ko‘chalarda sayr qilib, o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urib yurgan qahramon edi. Shaharning zulmat qoplagan ko‘chalarida yurarkan, umrini qat’iy qarorlar bilan o‘lchaydigan hamshaharlaridan farqli o‘laroq,

o‘z his-tuyg‘ulari, xohish-istaklaridek emin-erkin edi u. Nihatni bir qolipga solish mushkul, u o‘z fe’l-atvori bilan o‘ng-u chapga shaklsiz og‘ishi mumkin edi.

Nihat mening bir qultum suvni-da bo‘lishib ichadigan yaqin do‘stim edi. Ular qishloqdan ko‘chib kelib, uyimiz yonidan bir hovli qurishgan, oilasi doim yozda qishloqqa ketib dehqonchilik qilishar, qishda esa mahallamizga yana qaytishardi. U bilan o‘rtamizda kelisha olmaydigan narsaning o‘zi yo‘q edi. Biz hatto Zagorni ham u bilan birga yaxshi ko‘rardik, filmlarni ham birgalikda tomosha qilardik. Ba’zida Qizilirmoqda cho‘milish uchun yashirincha qochib ketardik ham. Lekin rostini aytsam, u doim mendan bir qadam oldinda edi. Uning favqulodda bunday jasoratiga, iste’dodiga, boshqaruvchiligiga barcha do‘stlar havas qilishar, sirtimizda tan olmasak ham, bizga to‘daboshiligini e’tirozsiz qabul qilardik. Shu sabab, unga havasim ortar, juda jasur yigit edi. Esimda, daryoga birinchi bor borganimizda, u suzishni bilmasa-da, tez oqayotgan daryoning oqimiga parvo qilmay, mardonavor sakragan. O‘shanda atrofdagilar uni bazo‘r qutqarib qolishgandi. Biroq u odaticha taslim bo‘lmadi, hammamizdan oldin suzishni o‘rgandi. Suv yutib, bo‘g‘ilib, shiddatli to‘lqinga chap bersa-da o‘rgandi. U hatto o‘sha o‘jar suvga-da o‘z so‘zini o‘tkazdi, asov to‘lqinlar uni qabul qildi. Gohida pulimiz bo‘lmay, kinoga kirolmaganimizda ham Nihat kinoteatrga chiptasiz kirishning yo‘lini topar, film tugagach yo‘l bo‘yi kino haqida bizga gapirib kelardi. Aslida uyimizdagi ko‘mirxonani kinoteatrga aylantirish, so‘ng mahalla bolalaridan pul yig‘ish ham uning g‘oyasi edi. O‘sha damda u kinoteatrdan chiqqan chiqindilardan kuygan va yirtilgan plyonkalarni yig‘ib, bir-biriga ulab, oyna yordamida yorug‘lik chiqarib birinchi kinoshouni yaratgandi. Qo‘lbola filmni yorug‘likka tutarkan, kishi istasa nimalarga qodir ekanligini bizga ko‘rsatib bergandi. Shunisi aniq ediki, u o‘zi yaratgan filmidan bizdan ko‘ra ko‘proq narsani ko‘ra olar, bu ham uning fazilati edi.

Bir kuni u meni ko‘mirxonaga chaqirdi. Katta qiziqish bilan hech kimga aytmasdan o‘sha yerga bordim. Ichkariga kirgach esa hayratdan qotib qoldim. U yerda Nihat yaltiroq libos bilan

Zagor qiyofasida kutib turar, uning qo'lida bolta, menga jiddiy qarab turardi. Shu turishida u ters turgan burgutga o'xshar, bu ajib manzaradan og'zim ochilib qolgandi. Go'yo bu yerda faqat Zagor bordek, "Yaqin kelma, afsun buziladi" derdi u jiddiy. Ammo men unga tegishmoqchi bo'ldim. O'sha kuni bu g'ayrioddiy holat kun davomida xayolimdan chiqmadi. Qizig'i, kun bo'yi yonimda bo'lgan do'stim bu tomoshaga qachon ulgurdi, qachon tayyorladi, hayron edim.

O'ylashimcha, Nihat oramizdagi masofani sezganim va uni saqlaganim uchun ham meni hurmat qilardi. Fe'limdagi vazminlik, yuvoshlik chamamda unga yoqardi. Uning qobiliyatlaridan biri, ko'rgan filmlarni shu qadar chiroyli aytib berardiki, biz bolalar kinoni tomosha qilishdan ko'ra ko'proq uni hayrat bilan tinglashni afzal bilardik. Shunday paytda biz uni o'rab olar, hatto kinoni ko'rsak ham, undan tinglagandek zavq olmasdik.

U har gal kinoda bo'lmagan narsalarniyam hikoyasiga qo'shib yuborar, nazdimda filmning qismlari qaytadan to'ldirilardi. Ayniqsa, Behchet Nachar, Qorao'g'lan, Malkocho'g'li va Tarkan haqidagi hikoyalarini boshlaganida biz deyarli nafas olmay tinglar, roviyning har bir so'zi sehrli fotosuratlar yanglig' taassurotimizni ajib manzaralar bilan bezatardi. Shu sabab, har gal darsdan keyin mahallada yig'ilib, intizorlik bilan Nihatni kutardik. Yo'l-yo'lakay vokzalga tushar, temir yo'llarda yurar, keyin tosh ko'prikdan oshib, Nihatni bor vujudimiz bilan eshitardik.

Rostan unga hasad qilmaslikning iloji yo'q edi. Chunki barchamizga suyukli bo'lgan Aynur ham uni sevardi. Ishchilar uyiga kelgan muhandisning qizi bo'lgan bu qizni biz bo'z bolalar yaxshi ko'rib qolgandik. Gapirishlari o'zgacha, harir yubkasi bilan velosiped haydaydigan nozik niholni yoqtirmaslik amrimahol edi. Darsdan keyin ko'chaga yugurib chiqib, Aynurning chiqishini kutardik. Velosipedida do'konga boradimi, shahar aylanadimi, biz uning ortidan qolmas, uni kuzatishni yaxshi ko'rardik. Mahallamizning chang-to'zonli yo'llarida qizil velosipedida sayr etadigan bu qizni kinolarimizda yiqilib yuradigan qizligiga negadir ishonar, shu bilan birga unga yaqinlashishga botinolmasdik. Odamlar Nihat bilan Aynurni qizlar kasb-hunar litseyi ro'parasidagi qandolat-

xonada ko'rishganini eshitgach, ajablanmay qo'ydik. Chunki Nihat hech qachon Aynurni tilga olmas, shu bois biz u bilan gaplashishga juda tortinardik.

Maktabda ta'til boshlanganda Nihat negadir bir muddat ko'chaga chiqmadi. Biz uni ko'rish uchun uyi atrofini aylanib yurdik, lekin u yo'q edi. Keyinroq eshitsak, otasi uni jazolaganmish. Nihatning yana sakkizta aybi ichida maktabga bormay, kinoga borishi, ko'chada sang'ib, ortidan biz kabi bekorchi bolalarni ergashtirishi... "Bu joylarda zerikaman, maktabni tashlab, Istanbulga ketaman va rassom bo'laman!" derdi u. Maqsadiga erishishiga shubha qilmasdim. Biroq u musofirlikda qayerda qoladi, pulsiz nima qiladi, shuni o'ylardim. U esa: "Bu juda oson", derdi odaticha xotirjam.

Bir kuni xuddi shunday qildi. Maktabni tashlab Istanbulga qochib ketdi. Bir oydan keyin esa ko'p sarguzashtlar bilan qaytib keldi. Otasi uni rosa kaltaklaganini hamma bildi, lekin o'zi bu haqda hech narsa demadi, yozg'irmadi. U yana o'shanday zavq bilan Istanbul haqidagi ajib taassurotlarini o'rtoqlariga so'zlab berar, uchrashgan rassomlari, shaharda o'zi guvohi bo'lgan filmni suratga olish jarayoni haqida to'lib-toshib aytib berardi. U gap orasida "Men yana albatta boraman" derdi ishonch bilan. Men u paytda tijorat litseyida o'qir, bankda mashinist bo'lish niyatida edim.

Otasi uning o'qishga qiziqmasligiga amin bo'lgach, armiyaga jo'natdi. Harbiy xizmatdan qaytgach esa, darhol uylantirish payiga tushishdi. Takasaltangligidan to'yib ketgan oilasidagilar uni o'zgarishini intiqib kutayotgan edi. Birozdan keyin u restoranda ofitsiant bo'lib ishlay boshladi. Bu orada men ham litseyni tugatib, universitetga o'qishga kirish uchun Anqaraga ketdim. Keyinchalik faqat uyga qaytganimdagina u bilan ko'rishib turardik. Uylanishga umuman hushim bo'lmasa-da, bu masala men uchun ham hal etishim kerak bo'lgan muhim yumush bo'lib turardi. Nihatga kelsak, nazarimda endi uning burni yerga ishqalangan, biz va nihoyat tenglashgandik. Shunga qaramay, u pastga tushmas, men bilan ofitsiantmas, go'yo restoranning egasidek kibr bilan gaplashardi. Burro tili bilan menga ta'sir qilar, kamina yana maftun bo'lgancha do'stimni tinglardim. Bir kuni dabdurustdan "Boshliqni o'ldira-

man", dedi. Ammo u mening hayotimga qiziqmadi, universitetdagi o'qishlarimni so'ramadi ham. Faqat o'zi haqida gapirar, kazino ochish, u yerda katta ishlar qilish haqida so'zlardi. Ancha vaqt o'qishlarim sabab, Nihatdan butunlay uzilib qoldim, ba'zan onamdan "Nihat nima qilyapti?" deb so'rab turardim. Onam esa uning ismini eshitishi bilan qo'rqib ketar, "Uni unut, uning yo'li yo'l emas!" deb meni koyirdi. Sezdimki, Nihat yana bir boshog'riqni boshlagandi. Keyin bildimki, u o'zi ishlagan restoranni yoqib yuborgan, bu shum xabar shahar bo'ylab tarqalgan, qizig'i bu bo'yicha hech qanday dalil topilmas, restoran butkul yopilgandi. Keyin sevgisi sabab, u bir qizni o'g'irlab ketdi. Qizig'i, u nom-nishonsiz yo'qolgandi. Biroz vaqt o'tgach, onam uni qo'lga tushdi, dedi. Men ishonmadim. Chunki u doim bir chora topardi. Uni ko'rgani bordim, biroq do'stimni ezgin ko'rish men uchun ham ayanchli edi. "Qochib ketaman!" derdi u nazoratchi soqchilarga ko'z qirini tashlab.

Sira yodimdan chiqmaydi, kunlardan bir kuni uning vafot etganini eshitib qo'limda turgan piyoladagi choyni qayerga qo'yishni bilmay qoldim. Tasavvurimda huv o'sha paytdagi ko'mir uyida yarqirab turgan Zagor libosli Nihat turardi. Shunday qilib, mag'rur bu burgut yerga qulab tushdi. O'g'irlab ketilgan qizning opa-singillari yollagan qotillar uni mana shunday yerga qulatgandi. Ichimdan nimadir uzilganini his qildim. Xotiralarim qum soati yanglig' to'kila boshladi. Onam: "O'g'lim, bu yerda Nihat kabi yashaganlarni qo'ymaydilar", dedi. Ko'zlarim yoshlanib, orzularim so'nayotganini his qildim. Shu tobda bolalik xotiralarimga esh qahramon taqdir toshlariga urilib, parchalanib ketgan edi. Odamlarga zulm qilgan, qalbini vayron qilgan shaharning qoq tepasida Nihat burgutdek muallaq qolgan edi.

Ochig'i, hamma vaqt Nihatga havas qilardim. Shoshqin daryoga sakraganida, Istanbulga qochganida, Aynurni sevib, orzularini barala aytib yurganida, Zagorcha kiyinganda, kinoteatrga chiptasiz kirganda, hamma hammasida unga ichki havas bilan boqardim. O'ylasam, u juda tez yashab o'tdi. Yigirma yoshida qiladigan ishi, yashashi uchun hech narsa qolmadi go'yo. Hayot tasbehi o'ta tez tugadi. Umri davomida niyatlari ortidan quvib, shoshib yashadi.

Filmlaridagi rollar kabi u o'z hayotini juda maroq bilan o'ynadi. Tasmadagi filmni esa uzaytirishning imkoni yo'q edi. Agar shoshilmaganda, hamma qatori yashaganda u Nihat bo'lmasdi. Taqdirida shunday qismat, yosh o'lish bor ekan. U vaqt tushunchasini, yashash fursatining ma'nisini ostin-ustun qilib, o'z ajaliga shoshildi.

Nihat shunday qush ediki, uni bandi qilgan ipni o'zi uzgan, faqat qayerga qo'nishi noma'lum qush edi. Biz uning parvozini xavotir bilan kuzatardik. Hamisha muqarrar yolg'iz bu qush tevaragida mag'lubiyat soyasi aylanib yurgan bo'lsa ham, buni sira qabul qilmadi, yerga qulaganicha qayg'urmadi. U biz kabi do'kon rastalari oldida televizorni birinchi marta ko'rganida ham shodlikdan yig'lamadi, ko'zlarini yomg'irdek yoshlamadi. Shundog'am hech narsasi yo'q hayotida yo'qotishlardan umuman qo'rqmadi. U o'z umrida zulmat ichra indamay g'oyib bo'lishni emas, balki oniy lahzada nur taratib, yonib o'lishni tanladi. Bu mag'rur qush qafasga panjaralarini urib o'zini nobud qildi. Ha, Nihat shunday bevaqt va mag'rur o'lishi kerak edi. Shahar devorlariga urilib, undan chiqish yo'lini izlagan Nihatning ko'zlarida shaharga hecham taslim bo'lmayman, degan nafratni ko'rardik. Aslida, yolg'iz o'zi ko'prikka kelsa, to'yib-to'yib yurakdan yig'lasa, balki g'azabini yenggan bo'lardi. Lekin u bunday qilmadi. Aksincha, kaltaklangan yuzi, ko'kargan ko'zlari bilan ko'chaga chiqar, tuman bosgan, rangsiz, bo'yog'i o'chgan, devorlari ilma-teshik uylarga begonasirab qarar, yaralarini yashirmas, bemehr shaharning xurujlaridan qo'rqmas, sinovlarni yuzma-yuz qarshi olaverardi. Biz esa uni hammavaqt tinglashni istardik.

Nihat o'zining quvg'in va notinch hayoti davomida badar ketmish yolg'izligi va undagi zulmni yashirishga urinmadi. U o'ziga rahm qilmadi, yonida bo'lsak-da, qalbini, iztiroblarini bizga aytmadi. U boshidan kechirganlarini hikoya qilmadi, balki orzularini aytdi. Go'yoki o'zi ko'rgan filmlarda yashar, tevaragidagi zerikarli shaharni shu taxlit unutardi. Zero, u chinakam hikoyanavis bo'lib, g'ayrioddiy narsalarni ham juda g'aroyib tarzda aytib berishga, hayotni sarguzashtlar kitobi kabi tartiblashga, hech qursa xayollarda mana shunday erkin va ozod yashashi kerakligini aytib berardi. Aslida hayoti buning aksi edi. Shuning uchun ka-

mina uning hikoyalariga ba'zan hasad qilardim. Chunki bu so'zlab bermish voqealarida o'zi yashardi. Ya'ni yaxshi gapni eshitish uchun hikoyachi emas, o'zi ham tinglovchi edi. Shunday paytda hayajonlanib aytmish gaplarini bizga emas, o'ziga aytayotganiga shubha qilmasdim. Zero, u ana shu aytimlarida nurab borayotgan orzularini qayta tiklab, o'stirardi. Nihat har bir sarguzashtlarida o'zi yaratgan dunyoga chekinar, u yerdagi rang-barang mashinalar, ajoyib qahramonlar, biz hech qachon ko'rmagan bepoyon dengizlar haqida to'lqinlanib so'zlar, biz bolalar bu dunyodan ketmaslikni istardik. Diqqinafas shahar ko'lankasi bu olamimizga kira olmas, badbo'y ko'priklar, loyqa yo'llar, tuman bosgan mahallalar unga daxl qila olmasdi. Chunki Nihat shahar tepasidagi musaffo moviy osmonda burgut singari suzar va u yerdan ko'rganlarini bizga aytib berardi.

Aytaylik, hozir men aytgan bu hodisani agar qadrli do'stim aytib berganida edi, ishonamanki, u buni bu taxlit sodda gapirmagan bo'lardi. Aksincha, uzoqlarga ko'zlarini tikkancha, jo'shqin va baland ovozi bilan qamoqxonalar, yonayotgan restoran hamda o'ldirilishigacha bo'lgan ko'p kechmishlarni qo'shib so'zlardi. "Do'stlarim, men o'sha dardisar restoranni yoqib yubordim. Nimaga hayron bo'lasiz, shishib o'lganim yo'q, ey hamshahar, ishoning, o'z jonimga qasd qildim!" derdi g'urur bilan.

Yodimda, kuzning yomg'irli o'sha kunida mahallaga kiraverishdagi tom panasida biz o'rtoqlariga loyqa yo'llarga, tuman bosgan uylarga qarab, qo'llarini cho'ntagiga solgancha, jarangdor ovozi bilan orzularini aytib berardi. Ammo dunyoning temir qoidasi shunday, yashayotgan odam boshqa, uning hayotini so'zlab bermish roviy boshqa. Bu yerda hamma narsa yarim, kemtik. O'ylasam, biz hayotni uzoqdan kuzatar ekanmiz, Nihat esa hayot yo'llarini juda dadil bosib o'tdi. Shuning uchun u zamon vayronalaridan chiqib, baland pardada o'z orzularini bizga qoldira oldi. Chamamda, bir umr yonida yurib so'z qotmagan kaminaning bunday diydiyolarini eshitganida, menimcha hozir u jimgina miyig'ida kulib qo'ya qolardi...

FARQLI DUNYOLAR

Bir zamonlar kichik sohil bo'yi shaharchasi bo'lgan bu ko'hna shaharcha endi ko'hna shaharcha emas. Ajib apelsin bog'lari, limon, mushmula bo'y taratgan, ko'cha eshigi oldini yasminlar, gullar bezagan ikki qavatli uylar endi yo'q.

Uning eski hayoti poyoniga yetib, yangi bir hayot tarziga kirgan edi. Bir necha yil o'tib, bu yerni shunday azim bir shaharga aylanadi deb kim ham o'ylabdi deysiz? Bir paytlar mahalliy aholi orasida bir nechtagina mansabdor bo'lar, baqqol ko'kchiga hurmat ko'rsatar edi. Endi u zamonlar yo'q. Har narsa begona. Har kim notanish. Yangi mehmonlarni yaxshi tanishmas, har kuni biri ketib, biri kelardi. Ularga qo'shilib do'kondor ham begonalashdi. Katta shaharlardagi oldi-sotdi qoidalariga amal qilina boshlandi.

Kattalar ko'p tilga olardi. Bir paytlar cho'ntagingda puling yo'qmi yoki ozmidi, hech muammo yo'q edi. Nima bo'lganda ham tanish-bilishchilik qilib eplasa bo'lardi. Hozir-chi? Kaftini bergan, arang qo'lini qutqaradi. Birov birovga ishonmaydi, bu esa alohida bir muammo.

Shaharchaning tub aholisi borlikka bor ediku-ya, biroq kelgan begonalar orasida xuddi bir nuqta misol edi. Bir tanishi uchrab qolgudek bo'lsa bormi, yot o'lkalarda ko'rishib qolishgandek sevinib, quchoq ochishardi.

Shaharchaning sohili, top-toza dengizi ifloslangandi. Bu yerlarga qiziqqanlar uch-besh yil ichida hujum qilib, shunday go'zal sohilni beton uyumiga aylantirdilar. Dengizning tubi yaltiramay qo'ygandi. Oldingi sokinligi yo'qolgan, "xohlamayman" degandek to'lqinlarini qirg'oqqa qattiq-qattiq urardi. Avvallari shundaymidi? Qumlarni shikastlab qo'ymay deb qo'rqar edi to'lqinlar.

Kelganlar soni mahalliy aholi sonidan oshgandan oshdi. Ayniqsa, yozda boshqacha bir izdahom. Bir necha yil ichida sanoqsiz mehmonxonalar-u musofirxonalar paydo bo'ldi. Ichlarida malla

sochlisi, bug'doy ranglisi, zanjisi-yu oqish tanlisi, mahalliysi, chet elligi bo'lsa-da, bir bo'lgani yo'q edi.

Yoz poyoniga yetgach, yerli xalq va shahar go'yoki yoz tiqilinchiga chiday olmagandek odatga ko'ra baliqchilar qahvaxonasida berkinib olar edi. Hamma ham bu sassizlikni istamas, istaganlarni ham ayblamasdilar. Negaki qadriyatlar tugab borardi.

Sohil bo'yi shaharchaning shunchalar kattarib ketishini ba'zilar tabiiy qabul qilayotgandi. Chunki dunyo rivojlanib, o'sib borar, bu taraqqiyotdan shaharcha ham o'z nasibasini olishi va zamon bilan hamnafas, dunyo bilan har qanday shaklda aloqada bo'lishi kerak edi. Endi iqtisodi rivojlanib borar va bundan foyda olmog'i lozim edi. Yer-u bog' ishlaridan endi foyda kelmay qo'ygandi. Osti va usti yo'q dunyoda mavjud bo'lgan haqiqatlarni ko'rmoq va bunga moslashmoq kerak edi. Shaharcha.xalqi ikkiga bo'lingandi: mamnun bo'lganlar va bo'lmaganlarga.

Mamnun bo'lganlar "Qo'limiz pul ko'ra boshladi. Mahsulotlarimiz qadrlana boshladi", deb yanada ko'proq sayyohlar kelishini yoqlashardi. Buning uchun qo'llaridan kelgan yordamni ayamas edi. Uylarining buzilib, o'rniga mehmonxonalar ko'tarilishiga qarshi bo'lishmas edi. "Ketsa ketaqolsin, uch-to'rt apelsin daraxti ketgani bilan butun daraxtzor-u bog'lar ado bo'lmaydi axir", deyishar edi. Bunday odamlar o'zlariga, ham chetdan kelgan tadbirkorlar-u tashabbuskorlarga ko'maklashishar, mehmonxona, musofirxona, ta'til qishloqchasi kabi manzillar yoniga turli-tuman do'konlar ochilgandi.

Avvallari ko'chalar orasidagi baqqollik, sabzavot va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun ochilgan do'konlar endi xilma-xil. Baqqolliklar o'rniga marketlar barpo bo'lgan. Baqqolliklar bir-ikki mahallalar orasida uchrab tursa-da, ularning soni kamayib ketgan edi. Marketlar bilan yonma-yon tura olmay, burchak-burchaklarga berkinishgandi ular go'yo. Chetdan kelgan ishbilarmonlar do'kon egalariga yaxshigina pul berishardi. Ba'zilar hatto allaqachon o'z do'konlariga ega edilar.

Sarroflik do'konidan tortib terichigacha, antiqachidan tortib avtoijara xizmatigacha bir talay turfa do'konlar yo'lga qo'yilgan edi. Naq azim bir shaharning o'zi. Ajnabiy kassetalar magni-

tofondan taralgan ovozlari bilan ko'cha-ko'yni boshiga ko'tarar edi.

Shaharcha yoshlari ham endi mehmonxonalardan ish topib mehnat qilardilar. Dastlabki paytlarda xorijiy til oltinga teng edi. Litseyda yaxshi o'rgana olmaganlar durustroq muloqot qila olishlari uchun kitoblardan, kurslardan foydalanar edi. Turizm soyasida bir talay qo'shimcha ishlar ham paydo bo'lgan edi. Taksilar tuni bilan ishlar, diskotekalar tongga qadar ochiq edi. Baliqchilar endi baliq tutmay qo'yganiga hech ham ranjimas edi. Negaki dengiz turlari yo'lga qo'yilgandi. Boshqa kasblarda bo'lgani kabi ular uchun ham yangicha foyda manbayi paydo bo'lgandi. Novvoylar kecha-kunduz non yopardi. Shuncha mehmonxonaga non yetkazish osonmi? Restoranlar bir-birini quvalab tun-u tong xizmat ko'rsatardi. Bu ham iqtisodga hissa qo'shardi. Yana nima bo'lsin?

Shahar tunlari naq ming bir kecha masallarini yodga solardi. Rang-barang yog'dular dengizda aks etganda fosfor nurlar barmoq tishlab qolar edi. Diskotekalarning chiqish joylari taksiga to'la, yoshlar tongga qadar sayyohlarga ko'z tikib o'tirardi.

Bunchalar jadal rivojlanishga qarshi bo'lmaganlar yo'qmidi? Bor edi, albatta. Ular ham o'zaro bir fikrga ega emas edilar. Ba'zi kimlar "Bu voqealar bir kunmas bir kun bo'lar edi, biroq juda tez rivojlanib ketdi. Bunchalik bo'lmasligi kerak edi, reja asosida ketishi kerak edi. Kelgusida shahar bu yukni ko'tarolmay qolishi mumkin", deyishar edi. Boshqalari esa odob-axloqqa putur yetyapti, deb qarshi chiqishayotgan edi. Albatta, ular ham o'zlaricha haq edi. Ammo ularning qo'lidan ham bir ish kelmay qolgandi, o'q yoydan chiqib bo'lgan edi. Muhimi — qolgan qadriyatlarni asrab qolish endi.

O'g'illar diskotekalardan beri kelmay qolgan, uylarda chet el musiqalarini tinglash urfga kirgandi. O'pirilib kirayotgan bu yangiliklarga qarshi bo'lganlar fikriga ko'ra, ma'naviy qadriyatlar boy berilayotgan, oilalarda hurmat hissi ozaygan, farzandlar so'zga kirmay qo'ygandi. Qovun qovundan rang oladi. Yonlarida, bozorda bir sayyoh to'xtasa yoki o'tib ketsa, boshlarini egib olardilar.

"Yaqinlarimiz uchun nima qilsak ekan?" deganlar oz emas edi. "Ular bilan bozorga chiqolmay qoldik, yakka o'zlarini jo'nata olmayapmiz". Sayyohlarning etagi-yu kiyinishlarini ko'rganda jig'ibiyron bo'lishar, "tavba, tavba" deya chetlab o'tardilar.

Shavqi shaharcha yigitchalarida biri edi. Litseyni bitirganiga bir yil bo'lgan, oilaning yagona farzandi bo'lgani uchun otasi balandroq joylarga yubormagandi. O'zi u ham universitetlarda o'qiyman deb o'lib-tirilmasdi. Uning bor dardi chet tilini o'rganish-u, Yevropa edi. Otasining poyabzal do'koni bo'lib, Shavqi o'sha yerda ishlardi. O'qishni bitirgandan so'ng ora-sira qochib qolmasa, ko'p hollarda do'konni saharlab ochar, shu yerda xizmat qilardi. O'ziyam kelishgan bir yigit, mahalladan o'tib-qaytganda yosh qizlar unga mahliyo bo'lar, pichir-pichirlari yaqqol eshitilardi.

Shavqi bunday ishlarning yaqiniga yo'lamasa-da, baribir bu pichir-pichirlar unga xush yoqardi. Uning yoshida boshqalarga yoqish ajib bir his, albatta. Bu qizginalar hamma yigitga shunday qilisharmidi yoki yo'qmi bilmas edi-yu, ammo o'tib borar ekan, ba'zan mo'ylovi ostidan jilmayib qo'yardi.

Bir ajnabiy qiz bilan tanishsin, o'shanda ko'ring Shavqini. Qish paytlari kanda qilmay qatnab turgan otasining do'koniga, yozlari onda-sonda boradigan bo'ldi. Ko'p vaqtini plyajda o'tkazardi. Otasining jahli chiqsa-da, ko'p ham quloq osavermasdi. Yoki onasidan kuch olardi. Shaharchadan bir nechta yoshlar sayyohlar bilan do'stlashib olib, Yevropaga ketgan edilar. Shavqi shunga harakat qilib, bittasini topishni miyasiga quyib olgandi.

Har kuni plyajga borar, dengizga kirardi. Oxirgi paytlarda plyaj unga o'xshash yoshlarni o'ziga ohanrabodek tortgani tortgan. Avvallari oshna-og'aynisi bilan to'p o'ynashardi, endi esa u zamonlar o'tib ketdi. Plyajlar shular bilan rango-rang tusga kirgandi. Oqishi, sarig'i, ust kiyimi bori, yo'g'i — hamma o'sha yerda. Shavqi uchun azim shaharlardan kelgan-kelmagani qiziq emasdi. Nima bo'lsa ham chet ellik va oq-sariqdan kelgan bo'lishi kerak. Negaki o'zi qoragina bug'doyrang yigitcha. Kelishgan yigitku-ya o'zi, ammo nima bo'lganda ham sariq sochlisini sevishi kerak edi nazarida.

Bir kuni yana saharmardondan dengizga yo'l oldi. Sohil hali kimsasiz edi. Bir muddat u yoq-bu yoqni aylandi. So'ng choyshab kabi to'shalgan dengizga kirdi, quloch yozib uzoq suzdi. Sillasi qurib bir qizga yaqin o'tirdi. Oyoqlari suvda. Haminqadar bilgan inglizchasi bilan qizdan ismini so'radi, ortidan tomdan tarasha tushgandek "Do'st bo'lamizmi?" deya so'radi.

Qiz tonggi titroq shabadasida go'zal ovozda "Elizabet" dedi.

Shunda dunyolarga sig'may ketdi yigitcha. Bir muddat qarab turgach, "Suzamizmi?" dedi. Elizabet hech tortinmay rozi bo'lib, Shavqidan oldin suvga kirdi. Uzoq-uzoq suzdilar. Har doim qumda quyosh ostida o'tiradigan Shavqi bu gal Elizabetning soyaboni ostida o'tirdi. O'sha kuni har gal suzib chiqqanida qizning sochig'ida artinar, bu unga bitmas-tuganmas zavq berardi.

Elizabet yigirma bir kunlik ta'tilining bir haftasini Shavqi bilan tanishishidan avval o'tkazib bo'lgan edi. Bo'yi 1,70 bo'lib, naq Shavqi izlagan sariq soch gollandiyalik bir qiz edi. Uzun oyoqlari, xipchadek beli juda go'zal, qo'llari hech ishlatilmagandek edi. Shavqi o'zining qo'llariga qarab uyalib ketdi.

Nihoyat bir kuni Elizabetga poyabzal hadya qilmoqchi bo'lib borganini hisobga olmasak, Shavqi qiz bilan tanishgan kundan beri hech do'konga qadam bosmadi. Tunlarini aytmasak, sevishganlar har kuni birga edilar. Shavqining ko'ziga uyqu kelmas, tungi soat bir-ikkida uxlasa-da, saharlab qizning mehmonxonadagi xonasi eshigida hozir-u nozir edi.

Bir kuni qizni oilasi bilan tanishtirdi. Vaqti kelgan edi-da. Otasi u yoq-bu yoqdan qulog'iga chalinib, o'g'lining qilmishlaridan achchig'i chiqib yurgandi o'ziyam. Uyiga borishayotganlarida Elizabetga doim kiyib yurguvchi kalta-kulta kiyimini kiydirmadi. O'zi olgan guldor matodan tikilgan uzun libosni kiydirdi. Nima bo'lganda ham oilasi bilan ilk bor tanishtirayotgan edi, birinchi kundan qarshilikka uchrashini xohlamas edi.

Qizning ta'tili tugaguniga qadar doim birga bo'lishdi. Har ikkalasi ham bir-biriga shaydo bo'lgandi yoki shunday o'ylashardi. Ta'til nihoyasida Shavqi qiz bilan Gollandiyaga ketishni istayotganini aytdi. Elizabet bunga e'tiroz bildirmadi. Faqat borib oilasi

bilan maslahatmoqchi bo'ldi, shu sabab yigitni albatta olib ketishiga ishontirib, uni vaqtincha qoldirib ketdi.

Oradan ko'p o'tmay Elizabetdan xabar keldi. Maktubda hamma tafsilotlar yozilgan edi. Shavqi maktubni olgan kuni quvonchdan nima qilishni bilmay hayajonga tushdi. Qisqa vaqt ichida hamma kerakli ishlarni bitirib Shavqi yurtidan jo'nab ketdi.

Uning oilasi bunga albatta rozi emas edi, ammo, nachora, bo'lgan ish bo'ldi. Oilasi uni o'zlarining ishida ishlashini, halol sut bilan katta bo'lgan qizga uylanishini istashgan edi. Bo'lmadi. O'g'il ota-onasining qo'llaridan uchib ketgandi. Mahalla-ko'y oldida uyatli bo'lib qolmaslik uchun qayg'ularini bildirmadilar.

Shavqi Gollandiyaga borgach qizning oilasi bilan suhbat qilgach, ularga ma'qul keldi. Unga bir ish ham topib berishdi, yashash ruxsatnomasi olib, qizga uylandi.

O'sha yili Shavqi uyiga kelmadi. Telefon va maktublar bilan aloqa qilib turdi. Bir mashina olib, keyin borishni xohlar edi. Negaki ketganlar odatda shunday qilar edi-da. Ikkinchi yil ta'til olib, yigirma bir kunga kelishdi. Boradigan manzili albatta uyi edi. Mashinani uyning qarshisida to'xtatib, Elizabet ikkalasi tushib kelgach, onasini chaqirdi. Otasi bu paytda odatda do'konda bo'lishini bilardi.

Bir necha kun dam oldilar. Onasi qizning musulmon qizga aylanishi kerakligini, diniy nikoh o'qitish kerakligini uqtirdi. Qo'niqo'shni nima deydi bo'lmasa. Shavqi bularni o'ylab yurib, shu haqda Elizabetga og'iz ochdi. Qiz hech bir e'tirozsiz bu taklifga rozi bo'ldi va Shavqini ham oilasini quvontirdi. Juma kuni hamma ishni birpasda bitirdilar. Endi yigit ancha xotirjam edi.

Elizabet ba'zan yolg'iz, ba'zan Shavqi bilan dengizga borib turardi. Musulmon bo'lgach, yigitning oilasi bilan bog'liq muammo qolmagan edi. Emin-erkin borib kelishardi endi.

Bir kuni Shavqi Elizabetning ortidan dengizga bordi va ko'rgan manzarasidan achchiqlandi. Chunki xotini ust kiyimsiz dengizga kirgan edi.

— Dengizga bunday ko'rinishda kirma.

— Nega endi? — biroz asabiylashdi ayoli. U Shavqining nega bunday deganini anglay olmadi.

— Tez kiyinib, keyin dengizga tush, — deya baqirgach, chiday olmadi.

— Qanday kiray?

— Ustingga kiy.

— Ta'tildaman axir. Istaganimdek kiraman. Avval bir atrofga boq, so'ng baqir.

— Durustroq bo'lib kir dengizga. Menga bunday narsalar yoqmaydi.

— Qanday narsalar? Ko'chada emas, dengiz bo'yidamiz, ko'rmayapsanmi?

— Bo'lsa bo'lsin dengiz bo'yi. Sen ustingga kiy, yetar.

— Men istaganimdek kiraman. Aralashmagin-da, toblanishimga xalal berma.

— Aralashaman, bunga mening haqqim bor.

— Mayli, unisini tushundim. Lekin men shu holatda dengizga kiraman, e'tirozing bormi?

— Men buni qabul qilolmayman.

— Men yomon ish qilayotganim yo'q axir.

— Unda bunisi nima?

— Nimasi nima? Tushunmayapman senga.

— Ko'rmisan, atrofingga bir qara.

— Yigit sharm-hayosiz xotiniga gap uqtirishdan ma'ni topmadi. Elizabet hech unamadi. Shavqi yana bir bor harakat qildi.

— Kiyaqol shuni, birov ko'rib uydagilarga aytsa, nima bo'ladi? Qara, hammaning ko'zi bizda.

— Men erkin ayolman. Bunday masalalarda aralashishingga qarshiman.

G'azabi qaynagan Shavqi xotinini urmoqchi bo'lib qo'l ko'targan edi, atrofdagilar uni tutib qoldi.

— Nima, menga qo'l ko'taryapsanmi? Menga-ya? Hammaning oldida erkakliging tutdimi?!

Elizabet endi jahl otiga minib, baqirishga tushdi.

— Voy, bu nomuslini qarang. Ikki yil oldin meni shunday ko'rganingda hech narsa demaganding-ku. O'shanda nega e'tiroz bildirmaganding? O'sha paytlar menga oshiqmiding yoki tanamgami? Ayt, eshitsin hamma. Erkakmish. Doim shundaysizlar,

badanga oshiqsiz. Chin dildan sevmaysiz odamni. Ikki yil avval nomusing yo'qmidi? Yoki endi nomusli bo'lib qoldingmi? U zamonlar boshqacha fikrlarding. Men ustidan bosib o'tiladigan narvon zinasi emasman. Meni borimcha qabul qil. Qabul qilmasang, sen o'z yo'lingga, men esa Gollandiyaga.

Shavqi bu achchiq tortishuvdan foyda yo'qligini anglagach, ortiga qaramay sohilni tark etdi. Elizabet esa yanada erkin sukunat bilan lojuvard suvga sho'ng'ib asablarini tinchlantirishga urindi...

JANNAT BOG'I

Ustozim Hikmat Turkka bag'ishlayman.

Bu shaharchada juda ko'p bog'lar bor edi, lekin ulardan birortasiyam keksa o'qituvchi Haydar Gurerning bog'idek shuhrat qozonmagandi. Bu bog' atigi to'rt duymgina yerni egallashiga qaramay, odamning jonidan boshqa hamma narsa topilardi: o'rik, nokning har xil turlari, gilos, olcha, zardoli, shaftoli va boshqalar. Uzumning turli navlari ishkom-ishkom qilib ekilgan edi: razzoqi, buvaki, muskati, daroyi, husayni, shivilg'oni, chillaki, kishmish. Sizga uzumning yana boshqa birorta navi ma'lum bo'lsa ayting, ularning hammasi keksa o'qituvchining bog'idan topiladi. Mushmulaning barcha turlari, olmalar, behi, anor. Haydar Gurerning o'zi esa bebaho odam edi! Agar, mabodo, nok yoki olmaning falon navidan o'zida yo'qligini eshitib qolsa bormi, uni topmaguncha qo'ymasdi, mamlakatning har bir burchagiga xat yuborar, so'rab-surishtirar va nihoyat, endigina kurtak olgan niholchani topib kelar va uni o'zi payvand qilardi.

Taftishchi amaldorlar, guberna boshliqlari, bu shaharchaga xizmat yuzasidan keladigan harbiylar, shuningdek, hangomatalablar ham keksa o'qituvchi Haydar Gurerning bog'ini tomosha qilish uchun albatta qadam ranjida qilardilar. Shaharchaga keluvchilar bog' sayrini o'zlari uchun ham farz, ham qarz hisoblashar, keyinchalik boshliqlarga safar natijalaridan hisobot bera turib, gap orasida bog'ni ham qistirib o'tishardi:

— Ruxsatingiz bilan, bey afandim, kechga tomon iste'fodagi o'qituvchi Haydar Gurerning bog'iga boruvdim. Siz, balki u haqda eshitgan bo'lsangiz kerak. Haqiqatanam, bog'misan bog' ekan-da, o'ziyam! U yerda qanday meva daraxtlari yo'q deysiz, bey afandim! Butun boshli dahadan kunduzi chiroq yoqib bunday bog'ni topolmaysiz! Bu bog' shaharchadan bir chaqirim nari-berisida joylashgan, bey afandim.

* * *

Bundan besh yil oldin Haydar Gurer yoshiga qarab, o'qituvchiligining o'ttiz sakkizinchi yili iste'foga chiqdi. U xushchaqchaq, sertabassum, juda ham xushmuomala qariya edi. Pedagogika bilim yurtini tugatganidan keyin uni Gursu okrugiga ishga yuborishdi. Usha joyda u bir yilga yaqin o'qituvchilik qildi-da, keyinchalik ona shaharchasida o'qituvchilik qilayotgan inegyollik hamkasabasi bilan joy almashishdi. O'shandan beri o'ttiz sakkiz yil davomida shu yerda ishladi, shaharchaning deyarli hamma aholisi uning qo'lida o'qishgandi. Kattalarga ham xalq sinflarida yangi alifboni o'rgatgandi. Aslida advokat, muhandis, vrach, o'qituvchi, voliy, harbiylar ham hamma-hammasi uning shogirdlari edi. Bayram kunlari xonadoni uni tabriklagani kelganlar bilan to'lib ketar, yozuv stolida esa otkritkalar, xat hamda telegrammalar keragidan ortiq edi. Odatda ularda: "Bayramni shod-xurramlik bilan o'tkazishingizni tilaymiz. Rafiqangizning qo'lini o'pib qolamiz", — kabi so'zlar bitilgan bo'lardi.

— Buni qari-ya, — deyardi Haydar Gurer rafiqasiga, — hammalari sening qo'lingni o'pamiz, deb yozishibdi-ya.

* * *

Bu voqea may oyining oxirida bo'lgandi. Kunlardan bir kuni Haydar Gurer bog'idagi daraxtlarni sinchiklab tekshira turib, ulkan olma daraxti oldida to'xtadi. Boshini ko'tarib, olmaning barglariga qaradi.

— Yana bargidan ham ko'p meva solibdi-ya. Lekin, afsuski, qarib qoldi. Endi undan yaxshi olma olib bo'larmidi? Ko'm-ko'k hamda kichkina-kichkina bo'lib qoladi. Boz ustiga, bu kampirshoning soyasi apelsinning o'sishiga xalaqit beryapti. Kuzda bitta-yarimtani chaqirib tag-tugi bilan olib tashlashga to'g'ri keladi.

Shu kezda keksa olma ildizidan uchigacha titrab ketdi! Demak, uning bir necha oylik hayoti qolibdi-da. Kech kuzda esa bolta ko'targan sarjinchi paydo bo'ladi. Xo'jayinning hukmiga qarshi borib bo'psan! Hujumni qanday qilib daf qila olarding? Sen axir atigi daraxtsan-ku! Rahm-shafqat so'rab iltijo qilganing bilan kim ham seni tushunib, kim ham nolangga quloq tutardi, deysan!

O'tkir boltaning bir nechta zarbi ostida sharti ketib, parti qolgan tanang gumburlab qulaydi. Sovuq kuz shamoli esib, daraxtlardagi barglar sarg'ayib, xuddi ko'z yoshi kabi ohista yerga tushadi.

Keksa olmaga alam qildi, judayam alam qildi! U haqiqatanam bog'dagi eng keksa daraxtlardan biri edi. Faqat shundoqqina uyning oldida o'sgan, ulkan ko'm-ko'k chodirini tom ustiga tashlagan qora tutgina unga tengdosh bo'la olardi. Boshqa daraxtlar keyinroq ekilgan axir.

Haydar uni, ya'ni olmani, Nigdedan olib kelganda, u yo'g'onligi barmoqday keladigan niholcha bo'lib, bo'yi bir yarim metrcha kelardi. Uni Nigdedan keltirishgan bo'lsa ham, negadir omosiy olma, deb atashadi. Kim biladi deysiz, balki uning ajdodlari haqiqatanam o'z naslini omosiy olmalardan olishgandir, uning onasi yoki buvisi o'sha yoqdan olib kelingan bo'lsa ham ajab emas. Qora tutni esa, aftidan, Tiredan olib kelishgandi, shekilli. Chunki uning mevalari pishganda, bog'ni tomosha qilgani kelgan odamlar: "Voy tavba-yey, Tiredagi qora tutning o'zginasi-ya. Munchayam shirin, munchayam chiroyli bo'lmasa! Darvoqe, Tireda qora tutni shifobaxsh deb hisoblashadi", — deyishardi.

"Mana shunaqa, tutjon, mening qorako'z dugonajonim! Sen yashayver! Senga bir kunmas bir kun hukm chiqarib, kesib tashlashlaridan qo'rqishning hojati yo'q! Chunki sen bu go'zal bog'da hech kimga xalaqit bermaysan, boz ustiga, uyni soya-salqining bilan jaziramadan saqlaysan. Axir, sening barglaringning soyasida bayram dasturxoni tuzashmaydimi? Sen uzoq yillar davomida mevang to'la idishlarda stollarga qo'yilib, maqtov so'zlarini tinglagancha yashagansan! Faqat bu dasturxonda keksa dugonangning mevalari bo'lmaydi. Qismating shunday bo'lgandan keyin nima ham qilarding! Yoshgina qizlar shoxingga arg'imchoq ilib maza qilib uchishadi. Shamol ularning qo'ng'iroq sochlarini hamda ko'ylaklarini hilpiratadi, ular baxt-u shodlikdan entikkancha qiyqirishadi. Sening halokating, mening qorako'z dugonajonim, inson qo'lida emas, sen turgan joyingda o'lasan!", Qayg'uga, qattiq qayg'uga cho'mgandi keksa olmaoy.

— Oh, Haydar Gurer, yaxshisi sen o'sha so'zlarni aytmasang bo'lardi. Nahotki, daraxtlar ham his qilishi, azob chekishi mum-

kinligini eshitmagan bo'lsang? Ko'p yillardan beri menga: "Bolajonim, azizim, birpas sabr qilgin-chi, manavi shoxchangni to'g'rilab qo'yaman! Voy-bo', bu shoxingda mevang judayam ko'p ekanku, qanoting sinib qolmasligi uchun tirgovuch qo'yishga to'g'ri keladi!" — deb alqarding, ehtiyotlarding-ku. Axir, o'zing shunday deganding-ku! Yoki esingdan chiqdimi? Yaxshisi, sen o'zingning hukmingni e'lon qilmay tursang bo'lardi, kech kuzgacha o'z yog'imga o'zim qovurilmasmidim!

Bog' ichida keksa olma qayg'uga tushdi. Demak, tanasini ag'darib, shoxlarini butashadi, bo'lak-bo'lak qilib arralab, harbiy pudratchiga yoki hammomchiga o'tin qilib sotishadi. Ingichka shoxlarimni esa hovlida yoqishadi. U yerda yondim nima-yu bu yerda yondim nima, bari bir emasmi, lekin har holda, soldat oshxonasida yonganim foydaliroq bo'ladi, shekilli. Darvoqe, yo'g'onroq shoxlarimni keyinchalik tirgovuch yoki uzumga poya qilish uchun olib qolishadi. Albatta, undan stol, stul, shkaf yoki etajerka ishlashlarini judayam xohlardi-yu, lekin odatda ular uchun daraxtning boshqa turlaridan foydalanishadi-da.

Boshga tushganni ko'z ko'rar! Bir qancha shoxlaring tok poyalari uchun tirgovuch sifatida xizmat qilishini sezish baxt emasmi, axir? Boshqa daraxtlar uchun ham tirgak bo'lish, o'zingning yosh do'stlaringning ulg'ayishiga yordam berishing qanday yaxshi! Yaqinda qo'shnilar sening novdangdan payvand qilish uchun olishdi, demak, ulardan albatta yangi novdalar o'sib ketishi aniq!

Keksa olma chuqur o'yga toldi. Binobarin, Haydar Gurer bir vaqtlar: "Agar yoshlarga o'zlarini tutib olishlariga yordam bersang, sening hayoting abadiy davom etadi!" — degandi.

CHORSHANBADA YASHAGAN ODAM

Tungi ruhiy og'riqlardan qovoqlarini bazo'r ko'tarib ko'zini ochdi. Soatga qaradi, millar 6:45ni ko'rsatardi. Qo'y yungi bilan to'ldirilgan ko'rpasini silarkan, tashqarida onasining qo'shnilari bilan gaplashayotganini eshitib, yuragiga bir iliqlik kirdi. Yotoqdan turishni istamadi, karavotiga o'tirdi. Ichidagi iztiroblari uni bexalovat qilar, bu hislar uni tobora ta'qib etardi. O'tib ketar, deb o'ylagan bu tuyg'ular uni shu kungacha tark etmadi. Turib yuzini yuvdi, tik holda ovqatlandi, kiyindi, so'ng maktabga ketish uchun mashinasiga o'zini urdi. Mashinani yoqarkan, beixtiyor ko'zgudagi aksiga boqdi. Shu turishda o'zini na yoqtirdi, na yomon ko'rdi.

Salonning isishini kutarkan, ayni dam radiodan "Chorshanbani sel oldi" qo'shig'i yangrardi. Uyqusizlikdanmi juda holsiz edi. O'ylab ko'rsa negadir chorshanbani yoqtirmasdi. Taralayotgan qo'shiq esa hozir unga o'sha iztirobga to'la kunlarni eslatardi. Shu kungacha ne azob ko'rsa, sevgidan ko'rdi. Bu anduhlar kutilmaganda bo'ldi. Ayni dam vujudida bir karaxtlik sezar, xotini uni aldagan kunlar aduhi yuragini ezardi. O'sha paytlarda qattiq og'rindi, eng yomoni — bu aldovni hamma bilishi edi. Koshki faqat o'zlari bilishsa edi. Bu xabar uni yerparchin qilgandi.

O'shanda ham chorshanba edi. Shoshib uyga qaytarkan, birdan ichkaridan chiqib kelayotgan begona kishi bilan yuzma-yuz keldi. Rosti, o'sha daqiqalarda u yillardek yashadi. Soniyalar sukut ichida qolgandi. Uyiga kirarkan, erkak ortidan chiqib kelayotgan xotini bilan ro'baro' bo'ldi. Ayoli unga bu noqulay, hatto abgor holni tushuntirmadi, shundanmi u ham o'zini tutdi, jahlini sezdirmadi. Xotinining yonida turgan o'sha begona erkakka biron nojo'ya so'z ham demadi. So'ngra... ular ketishdi, xotinini esa boshqa ko'rmadi.

Ayni kez o'sha g'ussali kunlarni o'ylarkan, gazetani qo'liga oldi. O'tmishini yanayam eslashga urindi. Qiziq, faqat kuninigina eslay olar, haftaning chorshanbasi edi qurg'ur! Shu payt telefoni umidsiz jiringladi. Hafsalasiz uni qulog'iga tutdi.

— Birodar, hammasini barbod qildim. Kechirolsang kechir. Vijdon azobida qolishni xohlamayman. Buni bilmaydigan odam yo'q edi, tushun. Hozir qayerdasan, ayt, o'sha joyga boraman. Gaplashib olishimiz kerak.

* * *

Osmonda quyosh zaif nur sochar, havo tund, "Bog'lanish yo'li"da shundanmi telefonda gaplashish durust bo'lmay uzildi. Bu orada direktor qo'ng'iroq qildi.

— Muallim, qayerdasiz?

— Yo'ldaman, maktabga ketyapman.

— Axir o'quvchilar sizni so'rashmoqda, darsga qachon yetib kelasiz? Bolalarni bilasiz. Ular bog'da faqat to'p o'ynashni bilishadi. Nima, yaxshi, men ularni kelguningizcha nazoratga olaman. Siz tez yetib keling, janob. Ularning shovqini odamning hiqildog'iga yetdi.

U direktorga gapirarkan, telefonidagi soatiga qaradi.

— Adashyapsiz, bugun darsim 8:50 da. Hali boshlanmagan. Axir bugun payshanbami?

— Nimalar deyapsiz, bugun chorshanba-ku, muallim. Eh, domla o'jarsiz-da. Ta'tilga chiqmaysiz, dam olmaysiz. Qishloqqa borib, bir havo almashtirib kelishingiz kerak.

— Uzr, janob, hoziroq yetib boraman.

Dit-dit-dit...

Yo'lni tuman bosgan, mashina rulini bazo'r boshqarardi. Noqulay ob-havo tezlikni yetmishdan oshib ketishga imkon bermas, hozir qarama-qarshi harakatlanish yo'liga o'tib ketardi. Shu ketishda u pastlikka enib ketayotganini sezmay qoldi. Ko'z oldi qorong'ilashdi, ranglar birma-bir yo'qoldi. Hammayoq birdan kulrangga bo'yaldi. Qizil, yashil ranglar shu rangga evrildi... Xotirasidagi yuz ifodalar kulrang tarzda ko'z oldidan o'tdi. Bu

vaqtda unga qaragan erkakmi, ayol, farqlay olmas, yo'ldagilarga parvo qilmasdi. Biroq shu lahzada bu sovuq rang uni cho'chitar, hozir unga o'nlab, yo'q, yuzlab tikilib turgan ko'zlarni ko'rar, ular haydovchilar-u yo'lovchilar, maktab o'quvchilari, hatto yo'lidagi daraxtlar, shinalar va bulutlar ham unga tikilib turishar, ammo uning o'zi hech narsani ko'rmasdi.

* * *

Uxlay olmadi. Zero, uxlashning iloji ham yo'q edi. Soat ayni daqiqalari bilan yangi kun istiqboliga chiqar va aksiga olib, bugun yana chorshanba edi. Jin ursin, telefon jiringlaganda ham chorshanba edi. O'ziga o'zi gapirarkan, ovozi sust tuyuldi. Lekin birdan qalbini qasos tuyg'usi qamrab oldi. Ochig'i, ruhiyatidagi bunday muvozanatsizlikdan juda charchagan edi.

Telefoniga qaradi. Ekran haftaning aynan uchinchi kunini ko'rsatib turardi. Ochig'i, ishonolmadi. Tavba, g'alati hol.

— Xeylni yo'qotdik, birodar. Bilaman, og'ir, lekin na chora... Oradan shuncha yillar o'tdi axir.

U devorga osilgan taqvimga qaradi. Chorshanba.

— Xo'sh?

— Birodar kelasizmi? Hech qursa so'nggi bor...

Dit-dit-dit...

Darhol xonasiga yugurdi va nikoh guvohnomasini oldi. Tevaragida Xeyl bilan yonma-yon tushgan suratlari turar, ayol nihoyatda chiroyli edi. Suratlarda och pushti libosda, harir labiga nozik bo'yoq yarashgan, qum sochilgan sochlariga hali birorta ham oq tushmagan edi. Nikoh sanasiga qaradi. Ey Xudo! Sana chorshanbani ko'rsatardi.

Odam bolasi degan hayotidagi eng muazzam kunlarni eslab qolishi kerak-ku, nega u eslolmaydi?! Axir ular shu kuni turmush qurishdi, shu kunda ayrilishdi. Unda qaysi kunlari yashashdi?! Yashadimi o'zi? Nega Xeyl ketdi? Sabab nima?

Zalga kirdi. Gazetalar polda sochilib yotar, xotini tirnoqlariga jilo berayotganida ularni ishlatardi, xolos. Keyin qo'lidagi nikoh guvohnomasiga, undan so'ng taqvimga qaradi. Ajabo, hammayoq-

da chorshanba barq urib turardi! Birdan ko'ksidagi sog'inch po'rtanasi toshib, ixrab yubordi. Endi yig'lar, yig'lar, unsiz yig'lardi...

"Shuncha yillar o'tdi, axir".

Nihoyat bugun tugadi. Chorshanba ortda qoldi. Saharlab soatga boqdi, millar 06:45 ni ko'rsatardi. Odatdagidek maktabga bordi, uyga qaytdi. Uxladi, tongda yana uyg'ondi. Chorshanba tugagandek edi. Taqvimda haftalar aylanaverar va yana...

DO'ST DARAXTI

"Nega insonlarning yo'llari ayro tushadi?"

Qizi edi bu. Turib-turib g'alati savollar beradi. Goh dilni achitadi, qonatadi, ranjitadi, shoshiradi. Tinmaydi. Gohida yuragi o'rtasidan qoq ikkiga bo'linadi. Sharillab qon oqadi. Laxta-laxta qon. Ammo bu yaralardan uning xabari yo'q. Ma'sum, ammo ziyrak. Hatto ziyrakligidan o'zi xabarsiz.

Gohida yuragining qoq o'rtasiga o'qlar kelib tegadi. "Dada, ertaga soat nechada turamiz?", "Dada, ertaga maktabga borsam bo'ladimi?", "Dada, nega sizning telefoningiz jiringlamaydi?" kabi savollari bilan uni tinch qo'ymaydi. Ehtimol yuragimni qonatib, ko'ksimdan chiqarib olishsa, shunchalik azoblansam kerak. "Dada, nega siz zalga kirganingizda hech kim o'rnidan turmadi? Kamol amaki kirganida hamma olqishladi-ku?"

Onasiga tortgan. U ham shunaqa edi. "Xushro'y bo'lganingda seni rashk qilardim, albatta!" degandi u kunlarning birida. "Sening arzimas maoshing bilan qachongacha kun ko'ramiz?" Hatto "Agar Karimga tekkanimda..." deya iddao qildi kunlarning birida. "Qo'lidagi pichoqni qornimga tiqib, burab olganida, qonimni g'alton qilishganida edi. Balki o'shanda bularning ko'ngli to'larmidi? O'shanda dillari taskin toparmidi?"

Qon... uzr, qor yog'moqda!

Qizi bilan birga ko'chaga boqishda. Simyog'och yorug'ini ko'rishlari bilan ancha xotirjam tortishdi. Hali qor tinmaganini payqashdi.

Dada, nimalarni o'ylayapsiz?

U qizi tarafga o'girildi: "Qonni!" dedi beixtiyor.

— Qonni? — kuldi bola.

— Dada, bu kecha siz vampirga aylanib qoldingizmi?"

"Qaniydi shunaqa bo'lsa?"

Qiz otasining parishonligini tushunmadi.

— Dada, balki ko'chaga aylangani chiqarmiz?

— Yo'q! — dedi u keskinlik bilan.

Shu onda ayolining zaharli gaplaridan yana birini esladi.

"Senga tegmaganimda, hayotim boshqacha..."

Shu gapdan so'ng o'rnidan turib, ichidagi bor achchiq-tiziq gaplarini xotinining yuziga to'kib olgandi. Ayol ham o'shanda eshikni "tars" etib yopib chiqib ketdi. O'sha ketganicha qaytmadi. O'n sakkiz kun o'tdi. Shuncha vaqt ichida yuragi ozgina bo'lsa-yam yumshamadi. "Kelarmikin?", degan ilinj ham uyg'onmadi dilida. Kelmagani tuzuk. Shunisi yaxshi.

Xotinining gaplari esiga tushishi bilan yana tishlarini g'ijirlatadi. Boshini ko'tarib, simyog'ochdan taralayotgan yorug'likka tikiladi. Qor yana tezlashdi. Yaxshilikkadir balki. Qizi esa, o'z xayollariga berilgan.

"Dada! Nega odamlarning yo'llari bir-biridan ayro tushadi?"

Umr bo'yi bu savollarning hech birini unutmasa kerak. Javobsiz qolgan birgina jumlani ham esidan chiqarmaydi. Har bir savol uning yuragiga o'qdek qadalgan. Ammo bularni bilib qilmadi. Qo'lidagi xavfli yaroqdan xabari yo'q. Onasidan farqi ham shunda. Tinmay savollar beraveradi. Qanday tushuntirsa ekan? Nimadan boshlasa ekan? Yaxshisi, boshlamasligi kerak. Shu yerda to'xtatishi kerak. Vedatdan umuman gapirmasligi kerak!

— Vedat amakiga nima bo'ldi? Nega u bilan hech ko'rishmaysizlar?

Shu payt qahva qaynatkichda qaynayotgan suvdan nigohini uzib, qiziga qaradi. Kichkintoy uning qalbidan o'tayotgan gaplarni qanday o'qiyapti? Vedat haqida o'ylayotganini qayerdan bildiykin?

"Vedat mening 30 yillik do'stim edi! U bilan maktabga borishimizdan avval tanishganman, qizim! Yillar o'tdi. Maktab. Litsey. Universitet. Yillar juda tez o'tdi. Hayot oqimiga qo'shildik. Odamlarni sekin-asta taniyverasan. Yoshlikda odamlar yaxshiroq bo'lishadi. Sabrli, bag'rikeng bo'lishadi. Umidli bo'lib, kelajakka ilinj bilan qarashadi. Amalga oshmagan orzulari uchun o'kinishmaydi. Vaqti o'tishi bilan umidlar ham qisqarib boradi. Sabr-toqat ham... Qo'rquvlar ortadi. Qizim, qorako'zim, jonim!

Tushunmaysan-da, hali yoshsan. Meni jimgina eshit. Boshqa so'rama. Charchadim. Iltimos, so'rama. Quloq sol. Hali oldinda seni tinglamaydigan, sen gapirayotganda jim turib, o'z so'zlarini aytishga hozirlanayotgan do'stlaring bilan yuzlashasan. Ular seni eshitib turib tinglashmaydi. Senga qarab turib, seni ko'rishmaydi. Vedat ham shulardan biri. O'ttiz yillik do'st. Aytishga oson".

"Yaramas meni bir lahza bo'lsa-da eshitmadi. Eshitmadi, dedimmi? O'zi aytmoqchi bo'lgan gaplarga tayyorlanish uchungina meni savolga tutardi. Jimligimni ko'rib, birma-bir tushuntirishga tushdi. Men gapirgan gaplarga aloqador biror so'zni tiliga chiqarmadi. Meni eshitmadi, tinglamadi. Mendan hech narsani so'ramadi. Bir lahza bo'lsa, menga imkon bermadi. Shuni anglashi uchun o'ttiz yil kechdi. O'ttiz yil... o'zini maqtadi. Shuncha yil faqat o'zi haqida gapirdi. Aslida men adashdim. O'ttiz yil buni tushunmasligim mumkin emasdi. Albatta, uning gaplarini tushungandim. Albatta... Ammo kunlarning birida sabrim tugadi. Uning savollarini tushunib, harakatga tushgan, yuziga gapirib tashlagan, portlagan paytlarim ham bo'ldi".

"Ammo o'zimni qo'lga oldim. Nima foydasi bor? Nima qilasan? Do'stlaring bir yerga to'planishadi. Bormaysanmi?"

Qo'lidagi finjonni deraza raxiga qo'ydi. Tashqarida hamon qor gupillardi. Qiziga o'girildi. Nega jim qarab turibdi? Bunaqa uzoq muddat jim qolmasdi. Uxlab qoldimi? Shu on qizining ko'zlari namlanganini ko'rdi. Beixtiyor uni bag'riga bosdi.

— Qizim... yolg'izim! Jonim bolam... Nima bo'ldi?

Qizi yoshiga nisbatan ko'proq narsani anglardi. U otasini tushunardi. His qilardi. Bulki u bilan xuddi kattalardek gaplashmasligi kerakdir? Ko'ngli og'risa-chi? Balki otasi uchun u ham dard chekar? Qizcha birdan otasining bag'ridan sitilib chiqdi. Deraza tokchasidan telefonni oldi. "Qorni rasmga olaman, dada" dedi. Keyin kuldi. Qarang, shu kichkina qiz otasining fikrlarini tarqatishga urinardi. Unga qarab kulimsiradi. Telefonni otasiga o'girib ko'rsatdi:

— Barutchug'il-chi, unga nima bo'ldi, dada?

Kamolga hamma familiyasi bilan murojaat qilardi. Orqasidan ham nasabi bilan chaqirishardi. Juda dabdabali ism. Axir, uning dabdabasiz nimasi bor? Uyimi? Mashinasimi? Ayolimi?

Kiyim-kechaklarimi? Sayohatlarimi? Kitoblarimi? Kamolning sigareta yoqg'isigacha hammasi hoy-u hashamdan so'zlardi. Kamol insonlarning yelkasidagi bir yuk edi. U bilan yuzlashmoq qo'rqinchli edi. Uni ko'pchilik yoqtirar, odamning ko'nglidan joy olishni uddalar, kim bilandir uchrashib qaytganidan keyin ham unda uzoq muddat yaxshi taassurot qoldira olardi. Kamolning oldida qilish mumkin bo'lgan eng yaxshi ish sukut edi. Undan uzoqroq turish kerak.

"Men ham shunday qildim. Jim o'tirdim. Uzoq jim qoldim. Masofa saqladim. Tilingiz ustida ilinib turgan, tig' tegsa qon favvoradek otiladigan insonlar... Do'stlar... oshnalar..." "Eng yaxshisi, tanangizdan bir yaproq uzilib, odamlarning oyoqlari ostiga tushishiga izn berishingizdir. Ha, bunga ishondim. Ko'nikdim. Ha, telefonimga hech kim qo'ng'iroq qilmaydi. O'sha gavjum ziyofatlarga chaqirishmaydi. Oliymaqom majlislarga kiradiganlar ro'yxatida yo'qman. Ammo o'zim shuni istadim. Shunday bo'lishiga o'zim yo'l ochdim. Aynan shuning uchun harakat qildim. Tanamdagi yaproqlar yanada kamaysin, odamlarning oyoqlari ostida chirib bitsin, dedim. Barutchug'il ruhimga solgan yaralar hali bitmadim, qizim. Vedat bag'rimda qoldirgan jarohatlardan hamon qon silqib turibdi. Ha, buyog'i yolg'izlik. Yolg'izlikning qurituvchi dardi, muhlik ozori... Hammasi to'g'ri. Men odamlarni tushunmadim. Men odamlarga qo'shilolmadim. Odamlar ichida yasholmadim".

— Dada, sizdan so'rayapman... Barutchug'il afandi qayerda? Kamol bey?

Qiziga qarab kulimsiradi. Bu kulimsirash emas, bu ilinj, qochishga, yashirinishga urinish...

— Yur, aylanib kelamiz, — dedi. Yaproq esa o'sha zahoti o'rnidan sakrab turdi. Karavotidan gilam ustiga sakradi. Shartta kiyimlariga yopishdi. Tashqariga chiqishdi. Qor yanada ko'paygandi. Qanday yaxshi.

— Ertaga ta'til berishadimi, dada?

Dengiz qirg'og'ida to'xtashdi. Simyog'och ostida yorug'lik orasida qor uchqunlarining o'ynoqlashiga termilishdi. Yo'lda isinish uchun bir kafega kirganlarida, ertasi kuni maktablarda

ta'til berilganini eshitishdi. Yaproqning quvonchdan irg'ishlashi xo'rrandalarning ham kulgisini keltirdi. Bu xushxabardan so'ng, yana biroz aylangilari keldi. Qorbobo yasamoqchi bo'lishdi. Qor yana ham qalinlashayotganini ko'rib, bu ishni ertaga qoldirishdi, keyin uyga qaytishdi.

Ustidagi qorlarni qoqib, qizi birdaniga:

— Siz bilan nega hech kim ko'rishmadi?— deb qoldi.

"Ha, bu Yaproq edi. Sen bilan uchrashishni istagan... Seni tark etgan... Senga qo'l bergan... Senga omad tilagan..."

Qiziga baqrayib qaradi. Qotib qolgandi. Kimdir yuziga tarsaki tushirgandek bo'ldi. Millionlab odamlar ko'z o'ngida kimdir yuziga tupurgandek bo'ldi. Shunday bir hujumki, unga qarshi chiqa olmaysan. "Nima qilyapsan?" deyolmaysan. Mana senga haqorat. Mana senga musht. Senga tegadigan shu ekan. Shovvoz!"

Oradan bir necha soat o'tib, qizining usti ochiq qolmadimikin, deya yotoqxonga kirdi va munisgina orom olayotgan Yaproqning yuzlariga tikilib o'yga toldi. Eshik oldida turgancha, xayolga cho'mdi. Tek qotgancha qizining yuzlariga boqib, o'yladi. O'yga cho'markan, qizidan ko'z uzmay, go'yo nafas ham olmay, kiprik qoqmay o'yladi.

"Xo'sh, men-chi, Yaproq? Mening aybim nima? Mening fazilatim nima? Meni boshqalardan nima farqlab turadi? Mendan ayrilgandan keyin odamlar yolg'iz qolgan paytlarida dillari pushaymon va o'kinchdan aziyat chekarmikin? Uyqulari qocharmikin? O'zim-chi? Axir men ham farishta emasdirman? Odamlar men haqimda nima deyisharkin? Kibrlimi? Darg'azabmi? Maqtanchoqmi? Mahmadonami? Ana, xotini ham tashlab ketdi, deyishar balki? Kim ham bu bilan yashay olardi, deyishar?"

Ayni onda qizining xonasi ostonasida uning yuzlariga tikilib, xayolga berilgandi. Nahotki yaxshi tomonlari bo'lmasa? Xayolida qizi unga tomon talpindi, uning bag'riga otildi.

— Ularning, sizdan aloqalarini uzgan do'stlaringizning ham yaxshi taraflari bor edi. Kamida sizchalik yaxshi edilar! Sizdek yaxshi yo yomon edilar ular ham.

"Yo'q, Yaproq bunaqa deyolmaydi. Ammo, kimlardir menga ham yo'l ko'rsatgan-ku? Kim edi ular? Ehtimol otimni telefonlari-

dan o'chirganlardir? Ehtimol ular ismimni tilga olishni ham istashmas? Ehtimol ular meni o'jar, murakkab, takabbur, ichidan pishgan, hasadgo'y deb bilishar? Har kim bu olamni o'z qarichi bilan o'lchaydi axir. Odamzod o'zining emas, birovning kamchiligini topishga usta".

Hozir ostonada qotib turarkan, qizining yuziga termilib o'tirarkan, "qaniydi, oyoqlarimni tebrata olsam, qaniydi, ichimdagi muzlar erib, turgan joyimdan siljiy olsam" deb o'ylardi.

"Meni shu ishga boshlagan Vedat" deb ming'irladi o'ziga. Koshki Vedat qo'limdan tutib, zo'rlab gazeta tahririyatiga olib bormaganda edi? Menga shu nashriyotni topgan odam esa Kamol edi... Kamol... Ilk kitobimni chop ettirgan ham Kamol Barutchug'il..."

Keyin esa, kredit oldi, ammo baribir uy ololmadi. Taraddudsiz qo'lini cho'ntakka urganicha qoldi. Yo'q, aslida u bu qadar ojiz, tegmanozik emasdi. Hech kim o'z aybini, haqiqiy qiyofasini, o'z kamchiliklarini ko'rolmaydi. Faqat jarohat olgan, kaltak yegan, qalbi yaralangan, ranjigan damlarini eslaydi. O'zini ana shu ozurda holatda ko'radi... Shuni o'ylarkan, kulimsiradi. Kulimsiragancha, ko'zlarini qizining yuzidan uzib, derazaga qaradi. Pardani ochdi. Simyog'ochdan taralayotgan yorug'likda atrofga ko'z soldi. Qor parchalari yanada kattalashgandi. Qanday yaxshi. Ertaga Yaproq bilan qorbobo yasashadi. Qizining karavotiga o'girilib, uni xuddi ilk bor ko'rayotgandek mehr bilan tikildi. Balki ertaga tushdan keyin onasiga ham qo'ng'iroq qilarmiz...

OPAM

Uyimiz oldidan mototsikli bilan o'tdi degunicha, opam darhol deraza tomon yugurar edi. Men ham shu zahoti uning ortidan yugurar edim. Nam Kadir deyishardi uni. Boshqa Kadirlardan, boshqa yigitlardan ajralib turardi u. Chunki unikiday mototsikl boshqa hech kimda yo'q edi. Qip-qizil, yarq-yarq etib tovlanardi. Tunlari bu mototsikl tushlarimga ham kirib chiqardi. "Pat-pat" etib, eshigimiz oldida ohistagina titrab turganini ko'rar edim. Yugurib minib olardim, ortimdan opam ham mingashardi. So'ng uchib ketardik.

Nam Kadir benzin olish uchun xiyol egilib turardi, nam sochlari orqaga taralgan, qop-qora ko'zoynak ortidan hech bir derazaga qayrilib ham qaramasdan ko'chadan o'tib borar, ba'zan shu qadar tez o'tib ketardiki, hatto ko'rishga ham ulgurmas edik. Gilamchining bebosh o'g'li deyishardi uni. Do'kon ishlari bilan hatto bir kun ham shug'ullanmagan, otasining pulini yeb yotadi deyishardi. Opam esa uni juda chiroyli deb aytardi. Artistlarga o'xsharmish. Derazadan turib ortidan boqib qolardik. Opamning ko'zlari sevinchdan porlardi. Quvonchdan meni "Jonim mening" deb o'pib qo'yardi. Har doim ham emas, aynan Nam Kadir o'tib ketganda shunday der edi.

Bu opam ikkalamiz o'rtamizdagi kichik bir sir edi. Nam Kadirning uyimiz oldidan o'tib ketishi, opam ikkalamiz derazaga chiqib unga boqishimiz haqida hech kimga og'iz ochmasdik. Otam bilan akamga-ku aslo! Ayniqsa, akamga zinhor-bazinhor bildirmas edik. Onamdan esa opam ham qo'rqadigandek, ham qo'rqmaydigandek ko'rinardi. Onam Nam Kadirning ko'chamizdan o'tishini, bizning derazaga otilishimizni ko'rib-ko'rmaslikka olardi. Shunday bo'lsa-da hech kimsaga aytmas edik. "Ont ich", der edi. "Xudo ursin", der edim men. "Ikki ko'zim ko'r bo'lsin, de", der edi. "Ikki ko'zim ko'r bo'lsin", der edim men. So'ng opam meni erkalab quchardi. Undan yoqimli is taralar, men esa qani edi, me-

ning ham shunday mototsiklim bo'lsa-da, uni mindirib uzoqlarga olib borsam deb xayol qilar edim.

Opamning ko'chaga chiqishiga, bozorga ul-bul sotib olish uchun borishiga ruxsat berilmas edi. Uning eng yaqin dugonalari ro'paramizdagi uydagi qo'shnimizning qizi Nezahat opa bilan bir ko'cha narida yashaydigan Arnavutlarning qizi Aysel opa edilar. Ikkalasi ham opamdan katta edi. Bir-birlarini "aret" deyishardi. Bu so'z nimani anglatishini hech bila olmas edim. O'lgunga qadar do'stlik degani emish bu. Oxirat bilan buning biror aloqasi bormi deb so'ragan edim, opam yelkasini qisib labini tishladi. Bilmas ekan. Uyimizga ko'proq Nezahat opa kelardi. Yonoqlari qip-qizil, durkun qiz edi. Ko'zlari katta-katta, o'rilgan tim siyoh sochlari yelkasi osha ko'ksiga to'g'ri tushib turardi. Yuqori qavatdagi xonani ichkaridan yopib olishib, nimalarnidir gaplashib o'tirishar edi. Suhbatlari shunchalar maxfiy edimi, bilmadim, meni yonlariga kiritishmasdi.

Men "Akamga aytib beraman", der edim. Opam akamdan juda qo'rqardi. Hatto otamdan ham bu qadar qo'rqmas edi. "Mayli, kelaqol", deyishardi bazo'r shunda. Bir nimalarni pichirlashib, qiqir-qiqir kulishardi. Nezahat opa ularni yonida o'tirishimni hech yoqtirmas, "Ko'chaga chiqib o'ynasang bo'lmaydimi-a, nima bor bizni yonimizda?" derdi. Ammo ulardan ayrilmasdim. "Juda g'alati bolasan-da sen, aslida qiz bo'lishing kerak edi, onang seni yanglishib tuqqan", deya tanbeh berardi menga. Opam sochlarimdan silab jilmayib qo'yar, "O'tira qolsin, opasi", derdi, "bizga zarari tegarmidi".

Men ham bu qo'shni opani hech yoqtirmas edim. To'yida, xotin-qizlar uchun uyushtiriladigan xina bazmiga opam meni ham olib bordi. Rosa o'ynadilar, o'ynayverib hech charchashmasdi. Oradan oylar o'tib biznikiga kelgan Nezahat opani taniy olmadim. Shahlo ko'zlari kirtayib, ol yonoqlari so'lib qolgandi. Opamga nimalardir deb rosa yig'ladi. Opam xuddi bir go'dakni ovutgan kabi uni yelkasidan silab o'tirdi.

Ba'zan opamning ipi yo ipagi tugab, bozorga borishiga to'g'ri kelardi. Ammo onam uni yolg'iz yubormas edi. Birga ketishardi. Nezahat opa bilan Aysel opaga onamdan so'z ochganida "mening jandaram" der edi. Akam esa uning qo'riqchisi edi. Chunki opam

nihoyatda go'zal edi, uning ko'zga tashlanib qolishidan, bozor o'rtasida olib qochib ketishlaridan qo'rqishar edi. U tag-tugli joylarga, badavlat kishilarga loyiq edi. Hamma narsaning o'z vaqti-soati bor, opam hali turmushga beriladigan yoshda emas edi.

O'sha kun onam betob edi, bozorga borishga holi yo'qligidan opamning yoniga meni qo'shib yubordi. Opamga oldiga qarab yurishini, atrofdagi narsalarga qiziqib qolib ketmasligini, xatti-harakatiga hushyor bo'lishi kerakligini qayta-qayta uqtirdi. So'ng menga agar opam u yoq-bu yoqqa alanglab qaraydigan bo'lsa, uyga kelganimda unga aytishimni tayinladi. Onam esa otamga aytardi. Otam opamni eshagimiz to suvdan kelguniga qadar savalashi mumkin edi. Savalardi ham. Bir gal mening oldimda savalagan edi. Juda kichkina edim, ammo yaxshi eslayman. "Boshqa qilmayman", degan edi u, otam esa uni rosa urdi. Nima qilganini bilmasdim. Opamning biron yomon ish qilishiga ishonmas edim. Onamning ortiga berkinib olgandim. "Ulg'ayib bo'lib boshimni baloga qo'yasanlarmi!" deya baqirardi otam opamni savalay turib. Baribir nima bo'lganini bila olmadim. Juda qo'rqdim. So'ng onam bechora yetarlicha jazolandi deb hisobladimi, opamni otamning qo'lidan chiqarib oldi.

Bozorga otlandik. Onam opamning boshidagi ro'molini peshanasiga tushiribroq qo'ydi.

— Ishingiz bitgan zahoti uyga qayting, ko'chalarda sandiroqlab yurish bo'lmasin, tushundingmi? — dedi onam.

— Xo'p, — dedi opam boshini saraklatib, oyoq kiyimini kiyar ekan.

Ko'chaga chiqdik. Opamning qo'lidan ushlab oldim, uning boshi quyi egilgandi. Sekin-asta odimlab shohko'chaga chiqdik. Opam qo'limni qo'yib yubordi. Ro'molini biroz surib, bir tutam sochini peshonasiga tushirdi. Boshimdan silab, "Senga muzqaymoq olib beraymi?" deb so'radi. "Ha", dedim. U jilmaydi. Shirinliklar do'koniga kirdik.

— Menga qara, bu ham oramizda qolsin, — dedi.

— Qaysi?

— Senga muzqaymoq olganim, shirinliklar do'koniga kirganimiz... Xo'pmi?

Boshimni silkidim.

Opam attorlik do'konida o'zi bilan olib kelgan bir parcha matoning rangiga uyg'un ipak izlar ekan, qandaydir jonsarak edi, u yog'ini aylantirib ko'rar, bu yog'ini aylantirib ko'rar, do'kon oldiga chiqib kun nuriga solib ko'rardi. Bozor jim jit, ko'chalar kimsasiz edi. Bu do'konda mos tugma topilmadi, qalin gardishli ko'zoynagi burnining uchigacha tushgan attorning chiqarib qo'ygan tugmalari ham, "Manavinisi bo'ladimi, qizim?" deb ko'rsatgan tugmalari ham mos kelmadi. Boshqa do'kondan izlaydigan bo'ldik.

Attorlik do'konidan endi chiqqan edik hamki, muyulish boshidagi mototsiklga ko'zim tushdi. Nam Kadir och havorang tusda kiyim kiyib olgandi. Lablarida sigareta. Ko'zlariga qora ko'zoynak tutib olganidan qayerga qarayotganini bilib bo'lmasdi. Tirsagim bilan opamni turtdim.

— Qara! — dedim. — Anavi!

Opam ikki barmog'i bilan qo'limni shunday siqdiki, sekingina voylab yubordim. Opam hali ham unga qaramayotgandi. Tavba, qaramasdan qanday ko'rdi ekan Nam Kadirni? Qayrilib qaradim. Nam Kadir kulimsirab turardi. So'ng tezda yonimizdan o'tib ketdi.

Ikki tomoni jild qoplovchilar do'konlari, sartaroshxonalar, attorlik va tikuvchilik do'konlari tizilib ketgan ko'chadan yurib borardik. Uzoqlardan miskarlar bolg'asining sasi kelardi. Tikuvchilar do'konlari yoniga kursi qo'yvolib, oyoqlarini chalishtirgancha, gazlamalarini yoyib o'tirishardi. Shogirdlarining opamga boqib, kulimsirashlari jonimni olardi. Sartaroshlar bu soatda bo'sh o'tirardilar. Bir do'kondagi radiodan bozor bo'ylab og'ir bir xonish taralardi. Opam qo'limdan qattiq ushlab olgan, boshini egib yurib borardi. "G'ul-g'ul" deb sayrayotgan bir kaptarning arz-dodi qulog'imga chalinardi.

Tugma olish uchun bir do'konga kirdik. Ichkarida xarid qilayotgan ikki ayol bor edi. Do'kon torligidan men eshik oldiga chiqib turdim. Sal narida uzumlar osilib turgan qahvaxonaning oldida Nam Kadirning mototsikli turardi. Qayerda ko'rsam ham uni darhol tanib olardim. Old g'ildiragi xiyol qahvaxona tomon qayrilgan

edi. Ammo o'zi bu atrofda ko'rinmas edi. Opamga hech narsa demay qo'ya qoldim.

Uyimiz tomondagi ko'chaga burilganimizda yana uni ko'rdim. Ro'paradagi muyulish boshida turardi. Boshimni ko'tarib, opamga boqdim. Yonoqlari xiyol qizargan, lablarida menga nihoyatda tanish tabassum jilvalanar edi. Bu tabassum uning uchun edi. Yolg'iz uning uchun.

Biz eshikni taqillatib turganimizda mototsikl yonimizdan o'q-dek uchib o'tdi. Ortidan qarab qoldim. Opam qo'limdan tortdi. Peshonasiga tushirgan sochini ro'moli ostiga tiqdi. Barmog'ini labiga olib borib, "jim" degan edi ham, eshik ochildi. Onam ikkalamizga ham ayb ish qilib qo'ygan odamlarga qaragandek qarab turardi.

— Qayerlarda qolib ketdingiz? — keskin so'radi.

— Haligi... — dedi opam boshidan ro'molini olib, sochlarini yelkasi osha ikki yonga tashlar ekan.

Onam opamga emas, menga qarab turardi. Oyoq kiyimim bog'ichini yechayotib "Anavi..." dedim.

— Attorlik do'koniga kirdik, do'konda odam ko'p ekan, shuning uchun uzoq kutib qoldik. So'ng opam qog'ozdan nimalar olishi kerakligini o'qidi, gazlamaga uyg'un keladigan ipaklarni bir-bir solishtirib ko'rdi. Ammo u yerda tugma topa olmadik, boshqa yerdan oldik uni. Ishimiz bitganidan so'ng chiqib keldik, shu...

Onam meni tinglar ekan, opamga yomon-yomon qarab qo'yardi. So'ng bir so'z ham demasdan oshxonaga o'tib ketdi.

Ammo o'sha oqshom juda yomon ishlar bo'ldi. Akam ko'cha eshigidan kirar-kirmas "Qani u???" deb shunday baqirdiki, opamning rangi bo'zdek oqarib ketdi. Pastki labini qattiq tishlab, vahima ichida eshik tomon qarab qoldi. Shu qadar qo'rqqanimdan tizzalarim titray boshladi. Bilsak, akam bizni bozorda ko'rib qolibdi. Opamning yurishi beadab emish. Gilamchining tanti o'g'li ham naq peshimizda turgan emish. Opamning yuziga shapaloq tortib yuborgandi, opamning boshi javon eshigiga qarsillab urildi. Ikkinchi shapaloqdan so'ng yerga yiqilib tushdi. Onam akamning qo'lidan tutib, "Yetar" dedi. Opam qo'llari bilan yuzini berkitib yig'lagancha, yugurib yuqori qavatga chiqib ketdi. Sholchaga qon

tomchilagandi. Akam endi mening ustimga yurib keldi. Qo'lini ko'tardi, ammo urmadi. So'ng onamga baqira ketdi:

— Bu qiz bir o'zi bozorga chiqmaydi demaganmidim? Nima, meni qotilga aylantirmoqchimisiz? Yoniga bir qarich keladigan bolani qo'yib qo'yganingiz nima qilib berardi?.. Ipagingiz bitsin... Bugun olmasalaring qiyomat qo'parmidi...

Onam jim qoldi. Akam hovliga chiqib ketdi. Kranga borib boshini yuvdi. Onam qo'limga bir sochiq tutqazib, "Olib bor" dedi. Akam sochiqni qo'limdan yulqib oldi. Bo'ynida, ensasida sovun ko'piklari qolib ketgandi.

Otam keldi. Opam hali ham yuqoridagi xonadan chiqmagan edi. Onam kechki yemak uchun salat tayyorlardi. O'choqda ovqatni isitdi. So'ng tarvuzni so'yib, kichik bir laganga tilimladi. Juda xafa ko'rinar edi. Otam hech narsaga e'tibor bermagandi. Hovlidagi ayvonda o'tirgandi. Akam ham otamning yonida edi, ammo jim o'tirardilar. Onam qo'limdan tutib tortdi.

— Bor, chaqir shu qizni. Otangni jig'ibiyron qilmasin.

Zinalardan yugurib chiqdim. Eshik ichkaridan qulflangan ekan.

— Opa, menman... eshikni och... Otam ham keldi...

— Bo'la qol, qizim, — dedi onam ortimdan kelib. Ovozida qahr sezilmas edi.

Eshik ochildi. Opamning qovoqlari shishib, yonoqlari qizarib ketgandi. Sassiz chiqdi xonadan. Hech bir so'z demasdan pastga tushdik. Otam hali ham hech narsani fahmlamagandi. Dasturxon boshida ham hech kim gapirmadi. Yolg'iz qoshiq-sanchqilarning sharaqlashi, qo'shni hovlida hurgan itning ovozi-yu chaqaloq yig'isi...

Kechki yemakdan so'ng opam idishlarni yuvib qo'yib, yana yuqoriga chiqib ketdi. Juda xafa, judayam ranjigan edi sho'rlik.

O'sha kuni tush ko'rdim, bir mototsiklim bor emish. Yana aynan Nam Kadirnikiday emish. Qip-qizil. Yal-yal yonadi. Uyning oldiga kelib turganmishman. Opam eshikni ochib tashqariga chiqibdi. Jilmayib turardi. Orqamdan mingashibdi. Mototsikl ko'chaga otilguncha uchib ketibdi. Ro'molini yechib otibdi, uzun qora sochlari havoda hilpirarmish. Ko'chalarda, shohko'chada ham kimsa ko'rinmas ekan. "Jonim mening", dermish opam, "Shirinliklar do'koni oldida to'xtaginda, senga muzqaymoq olib beraman".

ONA CHUMCHUQ

U eski qal'aning janub tarafida joylashgan Katta Masjid yonidagi boshlang'ich maktabning 4-sinfida o'qir edi. Bu shaharda faqatgina bitta 5 qavatli bino bor, qolgan hammasi bog'cha va hovlili ikki qavat uylar. Shaharning bir tomoni ikki qavatli beton uylardan iborat bo'lsa-da, boshqa — eski shahar tarafida ikki qavat g'ishtin uylar yonma-yon qurilgandi. Bu yerlardagi ba'zi ko'chalarga to'rt kishi qator kelsa sig'masdi; juda tor va chalkash ko'chalar. Bunday joylarda ora-sira qo'shnilarning bolalari bilan quvlashmachoq o'ynalardi. Mahallada, hatto shu mo'jaz shaharchada hamma bir-birini to'rt-besh avlodigacha tanirdi. Mahalladan begona odam o'tsa, uning yot ekani darrov bilinadi.

O'qishning oxirgi kunlari. Ikki qavatli maktabning ikkinchi qavatidagi sinfda, uchinchi partada o'tirgan bolaning ko'zlari o'qituvchisida bo'lsa ham, xayolidan boshqa narsalar kechardi. Dars ham ha deganda tugamaydigan. Bola: "Imtihonda bir robot bo'lsa, bizning o'rnimizga javob bersa, zo'r ish bo'lardi-da", — deb o'ylardi. O'qituvchi to'xtamasdan nimalarnidir tushuntirar, ammo bola ustozi aytayotgan hech bir so'zni eshitmayotgandi, go'yoki kar bo'lgandek. Ichida avvaliga bittalab, keyin to'rtta-to'rttalab, ana borsin, beshta-beshtalab yuzgacha sanadi. Sanog'i 85 ga yetganida tanaffusga qo'ng'iroq chalinishi uning ko'nglini behad sevinchga to'ldirdi. Bola sinf eshigiga qarab yeldek yugurdi. Sumkasini yelkasiga ilib maktab binosidan chiqdi. Maktabning bog' eshigiga qarab o'quvchilarning katta bir oqimi ketayotgandi. Bola darhol atrofiga qarab, o'qituvchilarning bor-yo'qligini tekshirgancha yugurib kelib maktab hovlisining tosh devoriga tirmashdi, tepasidagi temirlarni ushlab bir urinishda devor ustiga chiqqach, bu "Hisor"dan Battol G'ozi kabi sakrab o'tdi. Balki bu "Hisor"ni minginchi marta zabt etishidir bolaning. Oyog'ini qo'liga olib uyga yugurib yetishi uzoq cho'zilmadi.

Hovliga kirishdagi katta ikki tabaqali eshigining ichkaridan chiqqan ipini yechib uni ochdi. Tepib ochilgan eshik borib devorga urildi, oshiq-moshiqlari chiqib ketay dedi. Bola ichkari kirgach eshikni ilkis itarib yuborganidan, eshik "taraq" etib yopildi. Bola poyabzalining iplarini bo'shatmasdan majburlab yechdi, uyga kirib, sumkasini xonaning bir burchagiga otdi. Yoqa tugmasini ochib, maktab formasini yecharkan, kiyimning yenglari teskari bo'lib qoldi. Mehmonxonaga yugurib cho'zma otarini yashirgan joyidan oldi, bo'yniga taqdi. Oshxonaga kirib, non idishdan porsildoq non olib, o'rtasidan bo'ldi. Onasining: "O'g'lim, tashqaridan kelding, qo'llaringni yuv", — deganiga ham ahamiyat bermadi. Nonning ichini do'lma qilinadigan baqlajonniki kabi o'yib, tokchada turgan chaman[1]dan qoshiq bilan nonning ichiga surdi. Muzlatkichga qarasa, kesilgan pishloq qolmagan ekan. Yog'li yashil zaytunni siqimlab olib nonining ichini to'ldirdi. Pishloq idishidan bir bo'lak sho'rtak pishloq oldi va hammasini nonning ichiga joylashtirdi. Eshikdan chiqqach, poyabzalining bog'ichlarini yechib yana bog'lashni istamaganidan oyog'iga kavushlarini ilib oldi. Chamanli, pishloqli nonini yegancha ildam yurib ketdi. Zaytunlarning danakchalarini puflab uchirardi. Birozda nonini yeb tamom qilgach, darhol yonidan o'tib ketayotgani quyi mahalladagi masjid hovlisiga kirib, jo'mrakni yuvib, og'zi bilan suv ichdi. So'ng yana yo'lida davom etdi. Ko'p o'tmay qabristonga yaqinlashdi. Ochiq darvozaning temir panjaralaridan mozorlarga qaradi. Ozroq yurdi va qabristonning devoriga tirmashdi. Bu yer uning uchun alohida bir dunyo edi. Avval mozor toshlariga, u yerda kimlar yotganligiga qaradi va o'sha odamlarning bir zamonlar tirik bo'lganligini, yashab yurganligini, mana endi tuproq bo'lib yotganliklarini o'yladi. Devorning ustiga chiqib dorboz kabi yura boshladi. Yo'ldan o'tayotgan ro'molli ayollardan bittasi unga tanbeh berdi:

— Hoy o'g'lim, u yerdan tush, yiqilasan, biror yering sinadi.

Bola qo'lini beliga qo'yib, unga dedi:

— Ishingiz bo'lmasin, xola.

---

[1] **Chaman** — go'sht suvining ichiga maydalangan qalampir va yana yetti turdagi ziravorlar qo'shib tayyorlanadigan sous. Nonushtada ishtahani ochish uchun yeyiladi.

— Bolam, falokat oyoq ostida bo'ladi, nima, sening ota-onang yo'qmi?

— Menga hech narsa qilmaydi, men bu yerning dorboziman.

Bolakay devorning burchagiga borib, tushmoqchi bo'layotgandek tursa-da, ayollarning ketishini kutdi. Ular uzoqlashganidan so'ng yana devor ustida yurishni davom ettirdi. Devorning oxiriga oz qolganda bolaning sabri tugadi, tizzalari qaltiray boshladi. Sekingina pastga tushib oldi. Devorga osilganidan ust-boshi chang bo'lgandi. U changlarni qoqqan bo'lib, biroz yurdi, kecha va'dalashganlari kabi do'sti Yusuf anhorga yaqin katta tolning ostida kutib turardi. Solih ham tez orada yetib keldi. Uchovlon anhor yoqalab chinor va tollar tiqis bo'lgan joyga ketisharkan, shag'alli yo'lda hammasi cho'ntaklariga mayda toshlardan to'ldirib oldilar. Toshlarning yumaloq va bir xil kattalikda bo'lishiga e'tibor berishardi. Yumaloq bo'lmagan toshlar cho'zma otar uchun yaramas edi. Otgan toshlari nishonga aniq bormasdi.

Bolalar chumchuqlarning erkak yoki moda ekanligini boshidagi qoralikdan bilardilar. Cho'ntaklarida juda oz tosh qolgan edi. Shom namozi o'qilgan payti ham ular hali bir dona qush tuta olishmagandi. Bola bir ko'zini yumib, cho'zma otarini qattiq tortdi va qisib turgan yumaloq toshchasini qo'yib yuborganida tolga qo'nib turgan qushning naq ko'kragidan urdi. Qush yerga ag'darilib tushib, patirlay boshladi. Bola yugurib borib qushni ushladi. Cho'ntagini qarab pichog'ini topolmadi. Orqasiga qaytdi. Qushning ko'kragidagi patlari havoda tebranib-tebranib yerga tushayotgandi. Mayda parchalari shabadada uchib, yuzining yaqiniga kelganda bola qo'llari bilan silkidi.

— Yusuf, Solih, suyak sopli pichog'imni unutib qoldiribman. Sizda bormi, qush harom o'ladi.

Yusuf: "Menda yo'q, sen olgansan, deb o'ylagandim", — dedi.

— Solih, senda ham yo'qmi, qara, qush o'ladi hozir...

— Menda ham yo'q, ishonmayapsanmi?!

— Yaxshilab qara-chi, xumpar!

— Hoy, non ursin, yo'q, axir!

Qush oxirgi nafaslarini olayotganida bola uning boshini yulib oldi. Qushning oyoq barmoqlari bir marta yumilib-ochildi, bosh-

qa qimirlamadi. Yusuf qushning boshini qo'liga olib, "Bu moda ekan" — dedi. Qosh qorayib qolganidan va bugun bir dona ham qush tutolmaganidan qizishib, bola unga e'tibor qilmagan edi. Odatda ular boshi qora bo'lgan erkak chumchuqlarni ovlashardi-da.

Shom namozidan keyin ancha vaqt o'tib qoldi. Atrof anchagina qorayib qolgan. Otasi unga har doim "Shom mahaligacha uyda bo'lgin", — derdi. Bola yugurib uyiga ketdi. So'nggi muyilishdan qayrilib, mahallaning chang ko'chasiga kirganida nafasi bo'g'ziga tiqilgudek edi. Bir qo'lida cho'zma otari, boshqa qo'lida esa urib tushirgan qushi bor edi. Uyiga ellik metrlar qolganida qadamlarini sekinlatdi. Cho'ntagidagi bir nechta yumaloq toshchalarni chiqarib otdi. Bir tomondan qushning harom o'lib qolganini hazim qilolmasligini o'yladi.

Bola uyiga yaqinlashib qolganida yon qo'shnilarining mushugini ko'rib qoldi, chaqirdi, ammo mushuk kelmadi. Bola qo'lidagi boshsiz qushni mushukning to'g'risiga otdi. Mushuk uning oldiga bormadi. Bola uy eshigining oldiga borib to'xtadi va qaytdi. Qushni yana olib mushukning oldiga tashladi. Tag'in qaytib eshigining oldiga keldi, qarab turib, mushuk qushni tishlab olganini ko'rdi. Bu qo'shni qiz Shodiyaning mushugi edi. Bola hovli eshigidan ichkari kirmoqchi edi, lekin ko'cha chirog'ining yorug'ida qushni yeyotgan mushukka qarab, joyidan qimirlamay turardi. Mushuk qushning suyakchalarini katir-katir qilib yer ekan, u hovliga kirdi. Bu safar eshikni ehtiyot qilib yopdi. Uy eshigining oldiga kelib oyoq kiyimlarga qaradi. Dadasi uyga kelibdi. Bola oyoq uchida yursa-da, onasi hovli darchasining ochilganini eshitgandi. Zotan, bir qulog'i tashqarida, o'g'lining ko'chadan kelishini kutib o'tirgandi-da. Bola ichkariga kirarkan onasi "O'g'lim, qayerda qolib ketting?" — dedi. Bola darrov mehmonxonaga kirib cho'zma otarini yashirdi. Yuvinish xonasiga kirib, yuz-qo'lini yuvib chiqdi, qo'lida sochiqni ushlab, u bilan mashg'ul bo'layotgandek ichkariga kirdi. Kechki ovqat yeb bo'lingandi; la'li va la'li qo'yadigan yo'q edi. Demak, oshxonada. Yerda faqat dasturxon va dasturxonda bo'lak nonlar turardi. Onasi uning oldiga yasmiqli ovqat olib keldi. Bola ovqatni yeb, ustidan ayron ichdi. Otasi bir chetda-

gi ko'rpachada yelkasini devorga suyalgan yostiqqa qo'yib gazeta o'qiyotgandi. Bola ovqatlanib bo'lgach otasi ko'zoynagini yechib dedi:

— Xo'sh, o'g'lim, bugun qayerda edingiz?

— Do'stlarim bilan anhor yoqasida edik.

— Baliq tutdinglarmi?

— Yo'q, qush...

— Qani, hech qush tutganga o'xshamaysan-ku.

— Bir dona tutgandim. Keyin qarasak, chumchuq moda ekan. Uni ham halollashga pichog'im yo'q edi. Yusuf bilan Solih ham olib bormagan ekan. Men suyak sopli pichog'imni uyda boshqa shimimning cho'ntagida unutib qoldiribman, boshini yulib olishga majbur bo'ldim. Keyin yo'lda kelayotganimda baribir harom bo'ldi deb, qo'shnining mushugiga tashladim...

Otasi bolaning yuziga qarab, "Suf senga, hayvon" — dedi. Bola otasining nega birdaniga qizishib ketganiga hayron bo'lsada, endi uning bir soat tanbeh berishini yaxshi bilardi. Otasi jahl bilan so'zlarini davom etdi:

— Sen bola bir o'zingga, bir o'sha qushchalarning kichikligiga qara. Senga devlar boshing kattaligidagi tosh otishsa, keyin kallangni uzib olishsa qanday bo'lardi?! Ham o'sha qushning polaponlari onasining yemish keltirishini kutib o'tirgandir. Endi o'sha polaponlar ham sen sababli nobud bo'ladi...

Otasi gaplarini tugatgach bolaga ortiq bir og'iz so'z aytmadi. Yuziga ham qaramadi. Otasining bu so'zlari bolaning miyasida chaqmoqdek chaqdi. Bola o'sha qushning polaponlarini o'ylay boshladi. Shu kecha tahvondan ko'rpalar tushurilib, joy solinganda to'shak ustida ukalari bilan kurashib o'ynamadi ham. Yoping'ichini boshigacha tortib polaponlar haqida o'ylayverdi.

Ertasi kuni qush ovlashga chiqmadi. Keyingi kecha tushida devlar cho'zma otar bilan unga o'zining boshi kattaligidagi toshlar otishdi. Bola toshlardan pisib qochishiga qaramay bittasi kelib qo'lini shilib ketdi, boshqa biri oyog'iga tegib yaraladi. Oqsoqlanib qocha boshlagan bolaning sabri tugab, uyining hovlisiga surunib kirdi. Onasi uning bu holini ko'rgach yugurib keldi va devlarning qo'lidan bazo'r qutqardi.

U ko'zlarini qo'rquv va dahshat bilan ochganda bu ko'rganlari bosirqi tush ekanligini angladi. Xonadagi lampaning past yorug'ida devordagi soatga qaradi: tungi to'rt. Hali bomdod namozi o'qilmagandi. Qanchalik uxlashga harakat qilmasin, devlar yana kelishidan qo'rqib uxlayolmadi. O'ng tomonida karavotda yotgan buvisiga, yonida yotgan ukalariga qaradi, uyida ekanligiga to'liq amin bo'lmoqchi edi.

Tong oqarib kelayotgan, tun pardasini ko'k yuzidan ola boshlagan edi. Xona ham anchagina yorishib qolgandi. Bola o'rnidan turib, ustini kiydi, yuz-qo'llarini yuvdi. Zero, dam olish kuni edi. Borib cho'zma otarini oldi, hovlidagi to'nkaning ustiga qo'yib, bolta bilan maydalab tashladi. Maydalangan parchalarini o'tinlarga qo'shdi.

Shu kundan keyin umuman qush ovlashga chiqmadi. Yusuf va Solih bilan ham endi uchrashmayotgandi. Anhor yoqasiga borar, o'tirar, tebranib turgan qamishlarni tomosha qilar, suvning tiniq joylarida ko'ringan baliqlarga qarar, tolzordagi qushlarning ovozini tinglar, hayotni anglashga urinar edi.

TARIQ DURSUN KAKINCH

OTA

Men otamni juda kam bilardim, uni ko'rganimga ancha vaqt bo'lgan, shuning uchun ham u yaxshi odam bo'lganmidi yoki juda yomonmidi, tayin-ta'sirli biror narsa deyishim qiyin. Bolalikda hamma otasini telbalarcha va hattoki ko'r-ko'rona sevadi. Men ham otamni jon-dilimdan yaxshi ko'rardim. U vaqtda biz yaxshi yashar, otam moliya bo'limida xizmat qilardi. Kechqurunlari onam dasturxonni ayvondagi stolga tuzardi. Bu yerdan xuddi butun shahar oyog'imiz ostiga yastanganga o'xshab tuyulardi. Otam dilkash, past ovozda qo'shiq aytardi. Onam qo'li qaltiragancha araq quyardi. Araq kashta tikilgan dasturxonga to'kilar, shunda otam onamning qo'polligidan xaxolab kulardi.

Otam uyni, ya'ni onamni hamda ikkita bolasini tashlab ketganida men yetti yoshda edim. U vaqtda maktabga qatnardim. Kuz kunlaridan birida bog'chada biz to'rt kishi bo'lib — Gulsefi xonimning o'g'li, Doga, Remzi va men oshiq o'ynayotgandik, otam kelib qoldi. U tosh to'siq ortidagi anor daraxti ostida turgancha o'yinimizni kuzatardi. Shu payt Doga ikkimiz urishib qoldik. U mening uchta oshig'imni olib qo'ygandi. Otam to'siqdan bog'ga sakrab tushib, bizning oldimizga keldi. Jahldan ko'karib, odobsizlarcha so'kinardim. Agar yonimda otam bo'lmaganda edi, Doga ta'zirimni berib qo'yishi turgan gap edi.

— Xo'sh, nimani talashyapsizlar? — deb so'radi otam.

Doga yeb qo'ygudek bo'lib menga qaradi.

— U so'kyapti.

— Oshig'imni ber! U mening uchta oshig'imni olib qo'ydi.

Otam qo'lini xuddi ular tengdosh o'rtoqday Doganing yelkasiga qo'ydi. Otamning qo'llari xuddi ayollarnikiga o'xshash oppoq, uzun barmoqli, shuningdek kuchli edi.

— Axir, u sendan kichkina-ku, Doga, — dedi otam. — Keyin, u hech qachon bu yomon so'zlarni qaytarmaydi. To'g'rimi? — Otam menga o'girildi.

Men xohlamaygina "Ha", deb to'ng'illadim. Otam cho'ntagimdagi hamma oshiqlarni chiqardi-da, ularni Dogaga berdi. U bo'lsa ularni changallagancha qochib ketdi. Mening esa jon-ponim chiqib ketdi.

— Nega oshiqlarimni unga berdingiz?

Otam bu paytda quyosh nuriga yo'g'rilib turar, yuzi yaltirardi.

— Bunday ahmoqona o'yinlarni o'ynashni bas qil.

— Lekin boshqalar o'ynashyapti-ku?

— Boshqalar o'ynasa o'ynayversin, senga esa yarashmaydi. Axir, sen maktabga borasan-ku. Ular-chi?

— Ular o'qishmaydi.

— Ana ko'rdingmi! Maktabga boradigan bolalar oshiq o'ynashmaydi.

— Bo'lmasa ular nima o'yin o'ynaydilar?

— Hech qanaqa. Ular o'qishlari, dars qilishlari kerak.

— Butunlay oshiq o'ynamasliklari kerakmi?

— Butunlay!

Otam mening qo'limdan ushlab oldi va biz Gulsefi xonimning zaytunzori orqali keta boshladik. Otamning egnida to'q havorang kastum, oq yo'lli havorang ko'ylak bo'lib, galstuk taqmagan, yoqasi tugmalanmagandi. Biz serbutoq anjir daraxti ostida to'xtadik. Bu yerdan ko'z ilg'amas dengiz va kemalar u yoqdan bu yoqqa qatnayotgan ko'rfaz xuddi kaftdagidek yaqqol ko'rinib turardi. Otam bilan yonma-yon o'tirdik, oyog'i menikiga tegib turardi.

U portsigaridan sigareta olib, gugurtni oliftalik bilan yoqib tutatdi. Uning ko'zlarini go'yo soya berkitib qo'yganga o'xshardi.

— Dada...

U boshini ko'tardi-da, ma'nosiz ko'zlarini menga tikdi.

— Xo'sh?

Men hech nima demadim. Biz indamasdik. Chatalqoy tomondan, ko'rfaz tutagan joyda paroxod paydo bo'ldi.

— Qiziq, bu paroxodlar qayoqqa ketishyaptiykin?

— Qanaqa paroxodlar?

Hozirgina qirg'oqdan uzoqlashgan kemani barmog'im bilan ko'rsatdim. U ixcham va ulug'vor edi.

— Umi? Istanbulga ketyapti.

Balki u haqiqatanam Istanbulga bormayotgandir. Balki u boshqa mamlakatga, hatto nomini ham eshitmaganim boshqa shaharga, qandaydir boshqa Istanbulga ketayotgandir. Lekin otam: "Istanbulga ketyapti", dedi va ortidan:

— Bu shaharning qanchalik go'zalligini bilganingda edi! — deb qo'shib qo'ydi. — Machitlari ham ko'p, odamlari ham.

— Bu yerdan ham chiroyliroqmi?

— Bu haqda so'z ham bo'lishi mumkin emas. U yerdagi do'konlar ham tom ma'noda ulkan, kemalari ham bizlarnikidan kattaroq. Undan keyin, u yerda ko'priklar bor.

— Ana shu ko'priklar qanday qurilgan-a, dada?

— Juda oddiy. Katta bo'lganingda Istanbulga borib hammasini o'z ko'zing bilan ko'rasan.

Uyimizga yonma-yon bo'lgan uydan bir erkak chiqib keldi. U bizni uzoqdanoq ko'rib "Hoy!" deb chaqirdi. Otam o'rnidan turmasdanoq, tutayotgan sigareta qistirilgan qo'lini silkib qo'ya qoldi. Bu Remzining otasi edi.

— Bu yerda nima qilyapsizlar?

— O'tiribmiz.

Erkak kulimsiradi-da, o'z yo'liga ravona bo'ldi.

— Nega endi biz Istanbulga bormayapmiz? — deb so'radim.

— Mana shunday, bormaymiz-da...

— Nega, bu yerda yaxshiroqmi?

— Yo'q, buning uchun emas. Shunday, bormaymiz...

— Balki u yoqqa borgingiz kelmayotgandir-a?

— Borging kelmayapti, deysanmi? Kimning ham Istanbulga borgisi kelmas ekan?

Bir-birimizga beixtiyor tikilib qoldik. Dadamning ko'zidagi soyalar yanada quyuqlashib, butunlay sim-siyohday bo'lib qoldi.

— Unday bo'lsa, nega ketmayapsiz?

U boshini egdi-da, tishlari orasidan bo'g'iq ovozda to'ng'illadi:

— Ketaman.

Men sevinib ketdim.

— Meniyam olib ketasizmi, dada?

— Senga mumkin emas.

— Nega endi?

— Sen hali kichkinasan. Senga u yerda kim qarab turadi?

— Oyimni olib ketamiz.

— U bormaydi.

— Men sizga hecham xalaqit bermayman. Men ham ishlayman.

U ohista jilmayib qo'ydi.

— Sen maktabni tugatishing lozim. Maktabni akangga o'xshab aro yo'lda tashlab ketish yaramaydi. Agar o'qib bilim olsang, katta odam bo'lib yetishasan.

Bu paytda yerdan tosh oldim-da, bor kuchim bilan Remzilarning tomiga uloqtirdim.

— O'qishni xohlamayman! Katta odam bo'lishni istamayman. Siz bilan Istanbulga borishni xohlayman!

U esa yelkamdan quchib, boshimni siladi. Yuragim gupillab urib, chakkamda qon gupirganini his qildim. Dadam uzuq-yuluq ovozda:

— Hozir ketaman-da, keyin seni chaqirtirib olaman, — dedi.

Uning yuziga qaradim. Shu tobda ko'rinishi qat'iy qaror qabul qilgan odamnikiga o'xshab jiddiy tus olgan edi.

— Rostdanam meni chaqirib olasizmi, a, dada?

— Albatta, chaqirtiraman. Faqat o'zim joylashib olay-chi...

— Qachon ketmoqchisiz?

— Bilmayman.

Men birdan Istanbulga ketayotgan kemani tasavvur qildim. Mana, u ufq ortida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning ortidan zo'r-bazo'r ko'z ilg'aydigan iz cho'zilib borardi... Otam — mana shu kemada Istanbulga ketyapti. Men esa qoldim. Yakka-yu yolg'iz...

Jonholatda otamning qo'lini ushladim.

— Ketmang! Ketmay qo'yaqoling, dada...

Ovozim titrardi. Men o'zimni benihoya kichkina, himoyasiz sezdim.

— Siz axir ketmaysiz-ku, to'g'rimi?

Uning lablari qiyshayib, xuddi yig'lab yuboradigandek basharasi tirishdi.

— Ketmayman... O'sha Istanbulga borib nima ham qildim?..

Uning ovozi ham xuddi menikidek qaltiradi. Shunda men chidab turolmadim-da, yig'lab yubordim, tomog'imga yumaloq narsa tiqilib qoldi. Men endi ho'ngrab yig'lardim. Otam ko'zimni kaftining orqasi bilan artdi-da, ikkala qo'li bilan boshimni ushlab oldi.

— Bo'ldi, yig'lama, tinchlan. Kap-katta bolaga yig'lash uyatmasmi?

U yana ko'z yoshlarimni artib qo'ydi.

— Sen axir katta bo'lib qolding-ku. Yoki haliyam kichkinamisan?

Indamadim. Dadam o'rnidan turdi-da, meni ko'tardi. Keyin asta zaytunzor oralab, ohista qiyalikdan pastga tusha boshladik. Pastga engan sarimiz, dengiz shunchalik yuqori ko'tarilib borar, u bilan birga port, kemalar ko'z o'ngimizda birdek chayqalib turardi.

Bog'dagi anor daraxti ostida bolalar o'tirishar, otamni ko'rib, zumda o'rnilaridan sakrab turishdi. Ibrohim to'ppa-to'g'ri otamning oldiga kela boshladi. Biz to'xtadik.

— Xo'sh, nima gap? — deb so'radi otam.

— Xolidbey amaki...— deya Ibrohim gap boshlamoqchi bo'ldi-yu, tutilib qoldi.

— Xo'sh?

— Bu... o'g'lingiz bugun meni urdi.

Otam jiddiy tusda qoshlarini chimirdi.

— Nega urdi?

Ibrohim tumshayib, yelkasini qisdi.

— Men qayoqdan bilay! Shunday, o'zidan o'zi. Haydashni xohlamaydi-da, nuqul meni majbur qiladi.

— Shu gap to'g'rimi? — deb so'radi dadam.

Men boshimni egdim.

— Ha.

— Men kechqurun uning adabini berib qo'yaman,— deb va'da qildi dadam Ibrohimga. — Qulog'idan tortib devorga mixlab qo'yaman. Boshqa senga tirnog'iniyam tegizmaydi.

Sevinib ketgan Ibrohim boshqa bolalarning oldiga ketdi. Biz dadam bilan yo'limizda davom etdik, keta turib Ibrohimga: "Sen

hali bu qilig'ing uchun javob berasan!" — deya pichirladim. U javoban tilini ko'rsatdi.

Uyimizga buriladigan joyda dadam qo'limni qo'yib yubordi. Uning terlagan kaftidan kaftim ham namiqqan, qo'limni maktab fartugimga artdim. Men nima derkin, deb dadamga qarab turardim. U esa cho'qqayib o'tirib, kurtkamning yoqasidan ushlab qisdi-da, keyin qo'yib yubordi.

— Sen endi katta bola bo'lib qolding. Urishqoq bolalar bilan mushtlashishni yig'ishtir, oshiq o'ynashni ham. Undan ko'ra ko'proq shug'ullanib, darslaringni tayyorlagin. Yaxshi o'qisanggina odam bo'lib chiqasan. Tushundingmi, odam bo'lasan.

— Tushundim.

— Agar odam o'qimasa, farrosh yoki hammol bo'lib, qiyinchilikda kun ko'radi.

So'ng u meni o'pdi. Otamning qup-quruq, qaynoq lablari go'yo ikkala yonog'imni kuydirgandek bo'ldi. U cho'ntagidan o'n qurush olib kaftimga qistirdi:

— Ol, faqat oshiq sotib olmagin. Ertaga yakshanba. Kinoga tushgin, qolgan pulingga esa yeryong'oq olib yersan.

Men uning ortidan qarab turardim. U xuddi mendan qochib ketayotgandek orqasiga qaramay, tez-tez qadam tashlab borardi. U Yapidjio'g'liga tushdi-da, keyin Namozgohga olib boradigan yo'lga burildi.

Endi baxtsiz, ezilgan holda bolalar turgan joyga yo'naldim. Ibrohim meni ko'ra solib uyiga juftakni rostlab qoldi.

MUNDARIJA

Turk hikoyalari guldastasi. *Naim Karimov* 3

Aziz Nesin
Madaniyatning ehtiyot qismi.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 6
Ahmad Nejati Jumali
Yo'qolgan.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 14
Ahmad Hamdi Tanpinar
Arzirumlik Tahsin.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 22
Bakir Sidqi Qunt
Yoriq qoya.
Bahrom Ibrohimov tarjimasi 37
Vus'at O'. Bener
Havvo.
Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 43
Yoqub Umaro'g'li
O'n dollar.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi 48
Ikki chinor.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi 53
Ikki kallador.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi 57
Yoqub Qadri Qorausmono'g'li.
Kaptar ovi.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 59
Ilxon Tarus
Taqdir.
Rustam Komilov tarjimasi 64
Kenan Xulusi Qo'roy
Xudo haqqi, kilosi saksonga tushdi.

Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 72
Mamduh Shavkat Esandal
Ayyubsultonlik yo'lovchi.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 76
Mustafo Nejati Sepetchio'g'li
Binafshalar o'lmaydi.
Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 81
Mustafo Qutlu
Yulduz to'zoni.
Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 87
Najib Fozil Qisakurak
Ko'zlarida mehr yo'q.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi 95
Violonchel.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi 98
Zilzila.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi 102
Naziha Merich
Kaklik qo'shig'i.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 105
Naim Tiroli
Yigirma besh qurushga Amerika.
Sami Rahim tarjimasi 112
Nohid Sirri O'rik
Shoir Najmi Afandining bahor qasidasi.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 117
Rasim O'zdeno'ren
Azobli o'lim.
Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 127
Rafiq Xolid Karay
Yamoqchi.
Marifjon Yo'ldoshev tarjimasi 148
Sabohaddin Ali
Ovoz.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 153

Sabohaddin Qudrat Oqsal
Maydon.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi.....166
Sabri Saran
Fotograf.
M. Rasulov tarjimasi......170
Sadri Ertam
Trubani ko'tar, trubani tushir!
M. Davron tarjimasi.....176
Dehqonning o'limi.
S. Xudoyberganov tarjimasi......183
Said Foiq Abasiyoniq
Xaritadagi bir nuqta.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi.....189
Samad Og'ao'g'li
O'ttiz yildan so'ng.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi.....197
Sevinch Cho'qum
Qadimda.
Poshshajon Kenjayeva tarjimasi.....212
Subhi Qalimji
Usmon cho'loq.
Nosir Sodiqov tarjimasi......221
Suot Darvish
Janoza.
Bahrom Ibrohimov tarjimasi.....231
Tariq Bug'ro
O'g'limiz.
Marufjon Yo'ldoshev tarjimasi.....242
Tomris Uyar
Qurbon.
Marufjon Yo'ldoshev tarjimasi.....246
Umar Sayfiddin
Pushti dur to'n.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi.....251

Umron Nazif Igiter
"Insof" ustaxonasi.
Sami Rahim tarjimasi 264
Usmon Chevikso'y
So'roq.
Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi 268
Farid Edgu
Kutilmagan mehmon.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 274
Faxri Jaloliddin
Soliq.
Miad Hakimov tarjimasi 277
Faxri Erdinch
Haqorat.
M. Davron tarjimasi 281
Firuza
Bepul internat.
Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 286
Shinosi Ilxon Tarus
Suzilib tushayotgan quyosh nuri.
Vali Savash Yelo'q va Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 293
Yashar Kamol
Chaqaloq.
M. Davron tarjimasi 299
O'rxon Duru
Bu haqda mendan eshit.
Poshshajon Kenjayeva tarjimasi 318
O'rxon Kamol
Yuk mashinasida.
S. Xudoyberganov tarjimasi 323
O'rxon Xanjarlio'g'li
Kimsasiz shahar.
Rustam Komilov tarjimasi 329
O'qtoy Oqbol
Mahmutbeyning gazetasi.
Rustam Komilov tarjimasi 332

Yoshlik qaytib kelmaydi.
Nazira Jo'rayeva tarjimasi 336
Ahmed Hikmet Muftuo'g'lu
Noqiya buvi.
Marufjon Yo'ldoshev tarjimasi 343
Faruk Demirel
Adibning sirli o'limi.
Nasiba Yusupova tarjimasi 348
Sanchiq.
Nasiba Yusupova tarjimasi 356
Nejib Tosun
Bevaqt o'lim.
Nargiza Asadova tarjimasi 362
Arslan Bayir
Farqli dunyolar.
Munira Norova tarjimasi 371
Mahmud Ozay
Jannat bog'i.
Hikoyat Mahmudova tarjimasi 379
Hamza O'zturkchu
Chorshanbada yashagan odam.
Nargiza Asadova tarjimasi 383
Abdulla Harmanji
Do'st daraxti.
Rustam Jabborov tarjimasi 387
Jemil Kavukchi
Opam.
Munira Norova tarjimasi 393
O'mer Kuchukmehmetog'li
Ona chumchuq.
Shahzod Shodmonov tarjimasi 399
Tariq Dursun Kakinch
Ota.
Hikoyat Mahmudova tarjimasi 405

T 89 Turk zamonaviy nasri antologiyasi [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Boboxon Muhammad Sharif, Nargiza Asadova. — Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. — 416 b.
ISBN 978-9943-8725-2-3

UO'K 821.512.161.09-1
KBK 84(5Turk)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

55-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 26,0. Nashriyot-hisob tabog'i 24,22.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 122-1/22 Buyurtma raqami № 22-338

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI